

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITIUTI

“TASDIQLAYMAN”

O‘quv ishlari bo‘yicha
prorektor dots.T.T.Safarov

“ _____ ” _____ 2019- yil

MENEJMENT VA KASB TA‘LIMI FAKULTETI
“TILLAR” KAFEDRASI

O‘ZBEK TILI

FANI BO‘YICHA

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

TOSHKENT – 2019

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2017-yil 24-avgust 107-buyrug‘i bilan tasdiqlangan namunaviy dastur va ishchi o‘quv dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: **G.N.Tavaldiyeva** - Toshkent Kimyo-texnologiya instituti
“Tillar” kafedrasini mudiri, f.f.n., dotsent
G.S.Keldiyorova - Toshkent Kimyo-texnologiya instituti
“Tillar” kafedrasini dotsenti
A.Sh.Eshniyazova - Toshkent Kimyo-texnologiya instituti
“Tillar” kafedrasini o‘qituvchisi

Ekspert: **B.Mengliyev** – TDO‘TAU “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasini professori
_____ (imzo)

Taqrizchi: **I.Azimova** - TDO‘TAU “O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi” kafedrasini dotsenti
_____ (imzo)

Fanning o‘quv-uslubiy majmuasi “Tillar” kafedrasining 2019-yil “___”-avgustdagi 1-sonli majlisida ko‘rib chiqilib, fakultet Ilmiy-uslubiy Kengashida tasdiqlash uchun tavsiya qilindi.

Kafedra mudiri: **dots. G.N.Tavaldiyeva**

Fanning o‘quv-uslubiy majmuasi “M va KT” fakulteti Ilmiy-uslubiy Kengashining 2019-yil “___” -avgustdagi 1-sonli majlisida tasdiqlandi.

Fakultet Ilmiy uslubiy Kengashi raisi: **prof.G‘.X.Hamroqulov**

O‘quv-uslubiy majmua Toshkent Kimyo-texnologiya instituti Ilmiy-uslubiy kengashining 2019-yil “___” - avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

MUNDARIJA

1. Titul varag‘i.....	1
2. Mundarija.....	3
3. Asosiy adabiyotlar.....	4
4. O‘quv materiallari	5
5. Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari.....	268
6. Glossariy (o‘zbek, rus va ingliz tilida).....	272
7. Ilovalar.....	294

III. ASOSIY ADABIYOTLAR

№	Muallif, adabiyot nomi, turi, nashriyot, yili, hajmi	Kutubxona-dagi soni
1.	Abduraxmonov G, Shukurov Sh. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. T., 2008.	3
2.	Mirzaev I, Boltaev M. O‘zbek tili. T., 2004.	2
3.	Asqarova M, Yunusov R. O‘zbek tili praktikumi. T., 2006.	5
4.	Ismoilov A, Lafasov U. O‘zbek tili. T., 2002.	18
5.	Turdieva K, Axmedova D. O‘zbek tili. T., 2007.	2
6.	Азизхонова Ю., Толипова Р. Ўзбек тили. Т., 1999.	30

IV. O‘QUV-METODIK MATERIALLAR

Fandan o‘tiladigan mavzular va ular bo‘yicha mashg‘ulot turlariga ajratilgan soatlarning taqsimoti

I SEMESTR (kuzgi)

№	Mavzular nomi	soatlar			
		jami	Ma’-ruza	Ama-liy	Mus-taqil
1	O‘zbekiston - yagona vatan. Dunyo tillari. O‘zbek tilida tovushlar talaffuzi.	6		2	4
2	O‘zbek tili – Davlat tili. O‘zbek tilining imlo qoidalari. Harflar imlosi. Bosh harflar imlosi.	2		2	
3	Milliy qadriyatlar – millat iftixori. O‘zbek tilida so‘z yasalishi. Asos va qo‘shimchalr imlosi.	2		2	
4	Tarix va zamonamiz. Tilning leksik qatlamlari. Qo‘shib yozish va ajratib yozish.	2		2	
5	Ulug‘ ajdodlarimiz. Atamalar va ularning vujudga kelishi. Bo‘g‘in ko‘chirish qoidalari. Chiziqcha bilan yozish.	2		2	
6	Vatan va vatanparvarlik. Ijtimoiy-siyosiy leksika. Shevaga xos so‘zlar.	2		2	
7	Muzeylar – o‘tmish va kelajak orasidagi ko‘prik. Sohaviy terminlar va ularning qo‘llanishi. So‘z turkumlari.	6		2	4
8	Kelajak – bilimli yoshlar qo‘lida. So‘zlarning shakl va ma‘no munosabasabatiga ko‘ra turlari. Ot - so‘z turkumi.	2		2	
9	Zamonaviy dunyoda ta’lim. Til va terminologiya. Otning ma‘no turlari. Otlarda egalik va kelishik shakllari.	6		2	4
10	Kitob mutolaasi. Erkin va turg‘un birikmalar. Frazologik birliklarning turlari va uslubiy xususiyatlari.	6		2	4
11	Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. Fe‘l so‘z turkumi. Fe‘llarda shaxs-son va zamon shakllari.	2		2	
12	Adabiyot – ma’naviyatni yuksaltiruvchi manba. Nutq uslublari. Badiiy uslub va uning xususiyatlari. Sifat –so‘z turkumi. Sifat darajalari.	2		2	
13	Ommaviy axborot vositalari. Publitsistik uslub va uning xususiyatlari. Olmosh so‘z turkumi.	2		2	
14	Internet hayotimizda. So‘zlashuv uslubi. Og‘zaki va yozma uslub, ularning xususiyatlari.	2		2	
15	O‘zbekiston va jahon. Rasmiy diplomatik uslub va	2		2	

	uning xususiyatlari. Son soʻz turkumi.				
16	XXI asrda innovatsiyalar. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari. Ravish soʻz turkumi.	6		2	4
17	Davrimizning global muammolari. Maqola va uning turlari.	6		2	4
18	Tabiat va inson. Intervyu olish va intervyu berish qoidalari.	2		2	
	Jami	60		36	24

1-mavzu. OʻZBEKISTON – YAGONA VATAN

Ogʻzaki nutq: Mavzuga oid matnni oʻqish, mazmunini toʻliq tinglab tushunish. Matndagi atama va iboralarning maʼnosini izohlash. Vatan haqidagi sheʼrlardan namunalar yod olish.

Yozma nutq: Matndan tayanch soʻz va iboralarni ajratib yozish. Matndagi asosiy fikrni yozma ravishda ifodalash. Respublika baynalmilal madaniyat markazi haqida qisqa maʼlumot yozish.

Grammatika: Dunyo tillari. Oʻzbek tilida tovushlar talaffuzi.

Tayanch soʻz va iboralar: *Vatan, vatanparvarlik, yagona Vatan, til oilalari, dunyo tillari, oltoy tillar oilasi, fonetika, tovushlar tizimi, unli tovush, undosh tovush, jarangli va jarangsiz undoshlar, tovush talaffuzi, orfoepiya.*

Oʻzbekiston

Oʻzbekiston - Oʻrta Osiyoning markaziy qismida joylashgan. Shimoliy qismi moʻtadil, janubiy qismi subtropik mintaqaga mansub. Iqlimi ham moʻtadil iliq, keskin kontinental, hududi 447,4 ming kv. km. Aholisi 34 million kishi. Oʻzbekiston maʼmuriy jihatdan Qoraqalpogʻiston Respublikasi va Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent, Fargʻona, Xorazm, Qashqadaryo viloyatlaridan va Toshkent shahridan iborat maʼmuriy hududlarga boʻlingan. Oʻzbekiston poytaxti - Toshkent shahri (aholisi 3 millionga yaqin).

Oʻzbekiston xalq xoʻjaligida ilgʻor texnika bilan qurollangan sanoatning yuzdan ziyod tarmoq va sohasi mavjud. Oʻzbekistonning har bir qarichi oltinga teng. Nodir qazilma boyliklarning ishga solinishi mamlakatning jahon bozoriga chiqishini taʼminlaydigan yangi sanoat tarmoqlarini, masalan, avtomobilsozlikni yaratish imkonini bermoqda.

Oʻzbekiston oʻzining boy oʻtmishi, tarixiy va koʻhna madaniyatiga ega.

Oʻzbekiston hududi Markaziy Osiyoda bundan 500-700 ming yil ilgari odamzod paydo boʻlgan joylar sirasiga kiradi. Selungʻurda topilgan “Fargʻontrop” (Fargʻona odami) bunga misol. Miloddan avvalgi VII asr - milodiy IV asrlar davomida tarixiy madaniy oʻlkalar - Xorazm, Sugʻd, Baqtriya va boshqa davlatlar shakllangan. Bu davlatlar harbiy-demokratik tuzilishga ega boʻlganlar. Markaziy Osiyoda saklar,

massagetlar, so'g'dliklar, baqtriyaliklar singari xalq va qavmlar yashagan. O'zbekiston o'tmishda Movarounnahr, Turonzamin, Turkiston nomlari bilan mashhur bo'lib kelgan.

Mustaqillik uchun kurashgan To'maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Torobiy kabi ko'plab xalq qahramonlari tarixdan ma'lum.

O'zbekiston Amir Temur, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Zamaxshariy, Forobiy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur singari buyuk siymolar yashagan tabarruk zamindir.

Xususan, Sohibqiron Amir Temur Markaziy Osiyo, O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarining kattagina qismini birlashtirdi. Amir Temur barpo etgan buyuk davlat ilm-fan, madaniyat va ma'rifatning behad ravnaqini ta'minladi.

Hozirgi kunda turli dinga mansub 130 dan ortiq millat va elat vakillari bu diyordan makon topgan (ularning 80,0 foizi o'zbeklar, 4,0 foizi ruslar, 5,2 foizi tojiklar, 4,5 foizi qozoqlar, 1,7 foizi qoraqalpoqlar).

Mustaqillik O'zbekistonning siyosiy tizimida jiddiy o'zgarishlarga olib keldi. Mamlakatimiz tarixida birinchi bor muqobillik asosida Prezident saylandi. O'zbekiston Respublikasining yuksak demokratik talablariga monand Asosiy qonuni - birinchi Konstitutsiyasi va shu asosda ko'pdan-ko'p qonunlar qabul qilindi.

O'zbekiston mustaqilligini jahonda 170 dan ortiq davlatlar tan oldi, o'nlab mamlakatlar bilan diplomatik aloqa o'rnatildi.

O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti kabi o'nlab nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'ldi.

O'zbekiston o'z davlat ramzlari - bayrog'i, gerbi, madhiyasi, poytaxtiga ega. O'zbekiston tarkibida suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi mavjud.

Endilikda O'zbekiston siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi barqaror, suveren, demokratik respublikadir.

Topshiriqlar:

1. Matnni o'qing.
2. Matn bo'yicha savollar tuzing.
3. Reja asosida matn mazmunini so'zlab bering.
4. Matndagi tayanch so'zlarni yod oling.



Bebaho so'z saboqlari

Har yili mustaqillik bayramlarimiz biri-biridan go‘zal g‘oya, shiorlar ostida nishonlanayotir. Xalqimiz bu g‘oya, shiorlardagi so‘zni alohida mehr, ixlos bilan qabul qilmoqda. Ularning mag‘zini chaqib, o‘ziga olam-olam ma‘no, ma‘naviy oziq olmoqda. Chunki bu «kalit so‘zlar» xalqimiz qalbiga kirib, qat-qatlariga singib ketayotir. Ularning aytayotgan so‘zlarida, qilayotgan ishlarida, bildirayotgan munosabatlarida bularning barchasi namoyon bo‘lmoqda.

32 millionli o‘zbekistonliklarning onasi faqat mana shu – Vatan. Uning nomi – O‘zbekiston. Bu so‘zlar ana shu mehribon va Buyuk Ona – O‘zbekistonga qarab aytilmoqda. Ne baxtki, bu so‘zlarni iftixorga to‘lib aytish faqat BIZga – o‘zbekistonliklarga nasib etgan.

«O‘zbek tilining izohli lug‘ati»ga murojaat qilamiz. Ana shunda har kuni eshitib yurgan bu so‘zlarningbiz bilmagan, teran ma‘nolari tovlana boshlaydi.

Yagona– yakka, bitta. 1) Yakka-yolg‘iz; birdan-bir, bitta-yu bitta. 2) Boshqa tengi yo‘q.

Vatan– tug‘ilib o‘sgan joy, yurt. 1) kishining tug‘ilib o‘sgan o‘lkasi, shahri yoki qishlog‘i; yurt, diyor. 2) Kishi tug‘ilib o‘sgan va o‘zini uning fuqarosi hisoblagan mamlakat; ona yurt. 3) Turarjoy, boshpana, maskan, uy. Vatan so‘zi asosida tuzilgan so‘zlar.

Vatangado– Vatandan kechib, qochib, o‘zga ellarda darbadar yuruvchi. «*Vatangado bo‘lguncha kafangado bo‘l*» (maqol); «*Hatto bir siqim tuproq ham vatangadoning ko‘z yoshi o‘z bag‘riga singishini istamaydi. S. Azimov. Oppoq tong qo‘shig‘i.*

Vatangadolik– vatangadoga xos hayot, holat, vatangado bo‘lib yashash. «*Vatangadolikning azobi go‘r azobi bilan teng ekan. (A. Muxtor. Chinor);*

Vatandosh – vatani bir, bir mamlakatda tug‘ilib o‘sgan kishilar.

Vatanjudolik – vatandan judo holatdagi hayot, shaxsning shunday hayot kechirishi.

Vatanli– turar-joyga, boshpanaga ega bo‘lgan; uyli-joyli.

Vatanparvar– Vataniga g‘amxo‘rlik qiluvchi. O‘z Vatanini, ona yurtini, xalqini cheksiz sevuvchi, vatan manfaatlari uchun jonbozlik ko‘rsatuvchi.

Vatanparvarlik – vatanparvarlarga xos ish, xatti-harakat, xislat.

Vatanfurush – O‘z Vataniga xiyonat qiluvchi, vatanini sotuvchi.

Men nechun sevaman O‘zbekistonni

A.Oripov

Men nechun sevaman O‘zbekistonni?

Tuproq‘in ko‘zimga aylab to‘tiyo!

Nechun vatan deya yer-u osmonni,
Muqaddas atayman, atayman tanho?

Aslida dunyoda tanho nima bor,
Paxta o‘smaydimi o‘zga elda yo ?
Yoki quyoshlimi sevgimga sabab,
Axir quyoshli-ku butun Osiyo.

Men nechun sevaman O‘zbekistonni?
Bog‘larin jannat deb, ko‘z-ko‘z etaman
Nechun ardoqlayman tuprog‘ini men,
O‘paman tuprog‘ing bebaho Vatan.

Aslida tuproqni odil tabiat,
Taqsim aylagan-ku yer yuziga teng,
Nechun u tuproq deb yig‘ladi Furqat,
O, Oashqar tuprog‘i, qashshoqmiding sen?

Xo‘sh, nechun sevaman O‘zbekistonni
Sababini aytgin, desalar menga,
Shoirona go‘zal so‘zlardan oldin,
Men ta‘zim qilaman ona Vatanga.

Xalqim tarix hukmi seni agarda,
Mangu muzliklarga eltgan bo‘lsaydi,
Mehrim bermasmidim o‘sha muzlarga
Vatanlar, Vatanlar,

Mayli gullasin,
Bog‘ unsin mangulik muzda ham ammo.
Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun
Sevgan farzand bo‘lsa, kechirma aslo.

Lug‘at

Vatan – Родина

O‘zbekiston – yagona vatan - Узбекистан – единственная Родина

Davlatchilik asoslari – основы Государства

Xalqaro aloqalar – Международные отношения

Tarixiy joy nomlari – названия исторических местностей

Xronologik ma‘lumotlar – хронологические справки

Tarixiy sanalar – исторические даты

Asosiylarini ajrata bilish – умение выбирать самые важные

Qayta hikoya qila olish – уметь пересказывать


vakil – представитель

ramz – символ

betakror – неповторимый

Vatan – родина

Topshiriq: O‘zbekistonni va o‘zbek xalq udumlarini “Klaster” asosida tasvirlang.



Berilgan topshiriqlarni bajaring.





Vazifa:

1. Respublika baynalmilal madaniyat markazi haqida qisqa ma'lumot yozing.
2. "Men nechun sevaman O'zbekistonni?" mavzuida ijodiy insho yozing.

Mustaqil ish:

1. Vatan haqidagi A.Oripov, E.Vohidov, M.Yusuf she'rlaridan birini yodlang.
2. Yodlagan she'ringizning mazmunini og'zaki tushuntirib bering.

GRAMMATIKA: DUNYO TILLARI.



Taxminiy hisoblarga qaraganda, dunyoda uch mingdan ortiq til bor. Bu tillarning ayrimlarida bir necha o'n, hatto yuz millionlab kishilar gaplashsa, ba'zilaridan bir necha ming kishigina foydalanadi, xolos.

Kongoda aholi 500 tilda, Indoneziyada 250 tilda, Sudanda 117 tiida gaplashadilar, Angliya, AQSH, Kanada kabi mamlakatlar fuqarolari, asosan, ingliz tilida, Ispaniya, Kuba, Chili, Meksika fuqarolari, asosan, ispan tilida so'zlashadilar.

Bugungi kundagi jonli tillar qadimgi tillar asosida paydo bo'lgan va rivojlangan. Masalan, *miloddon oldingi davrlardan X asrgacha qo'llangan qadimgi turkiy til, XI-XIV asrlarda amalda bo'lgan eski turkiy til, XV-XIX asrlarda* Lutfiy, Atoiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy, Feruz, Muqimiy, Furqat kabi mumtoz shoirlarimizning shoh asarlari yozilgan eski o'zbek tili hozirgi o'zbek tilining shakllanishi va rivojlanishi uchun asos bo'lgan.

Dunyodagi tillar qanchalik rang-barang bo'lmasin, ular sanoqli tillar oilasiga birlashadi. Ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda 20 dan ortiq til oilalari mavjud. Har bir oila, o'z navbatida, qarindoshlikning yaqinlik darajasiga ko'ra bir necha guruhlarga ajralishi mumkin. Bir oilaga mansub bo'lgan tillarning so'zlari, qo'shimchalari, gap qurilishi bir-biriga o'xshash bo'ladi, chunki ular tarixan bir manbadan kelib chiqqandir. Masalan, o'zbekcha *tur* fe'lini turkmancha *dar* fe'liga, tojikcha *isto* so'zini ruscha *stoy* so'ziga qiyoslasak, o'zbek va turkman tillarining, tojik va rus tillarining o'zaro yaqin tillar ekanini anglash mumkin. Buning sababi shundaki, o'zbek va turkman tillari Oltoy tillari oilasining turkiy tillar shoxobchasiga, tojik va rus tillari esa hind-yevropa tillari oilasiga kiradi.

Jahonda keng tarqalgan til oilalari quyidagilar:

1. Hind-yevropa tillari oilasi. Bu oilaga slavyan guruhi (belorus, rus, ukrain, chex, slovak, polyak, makedon, serb, xorvat, sloven tillari), german guruhi (ingliz, nemis, shved, norveg, dat, island, golland tillari), roman guruhi (fransuz, ispan, portugal, italyan, rumin, moldavan tillari), boltiq guruhi (litva, latish, latgal tillari), eron guruhi (fors, afg'on, osetin, kurd, tojik va boshqa tillar), hind guruhi (hind, urdu, bengal, panjob, gujarat kabi tillar) kiradi.

2. Oltoy tillar oilasi. Bu oilaga mo'g'ul, manchjur, yapon, koreys va boshqa til tarmoqlari kiradi.

Turkiy tillar tarmog'i esa o'z navbatida quyidagi guruhlarga bo'linadi: o'g'uz guruhi (turkman, gagauz, ozarbayjon, turk, qrim-tatar va bolqon turklari tillari), qipchoq guruhi (qo'miq, qarayim, balkar, tatar, boshqird, no'g'ay, qoraqalpoq, qozoq tillari, o'zbeklarning qipchoq lahjasi), qarluq-uyg'ur guruhi (o'zbek va yangi uyg'ur tillari), uyg'ur-o'g'uz guruhi (tuva, tofalar, yoqut, xakas, sariq uyg'ur va boshqa tillar), qirg'iz-qipchoq guruhi (qirg'iz va oltoy tiilari) kiradi.

3. Fin-ugor tillar oilasi. Bu oilaga fin guruhi (fin, eston, karel, komi-ziryan, komi-permyak, udmurd, mari, mordva va boshqa tillar), ugor guruhi (venger, mansiy, xantiy tillari) kiradi.

4. Som-xom tillari oilasi. Bu til oilasiga semit (yoki som) tillari guruhi (arab, axmar, xarari, oysor, ivrit), qushit tillari guruhi (galla, spmali, saho, beja), berber tillari guruhi (kobil, shilx, rit tamazist), chad-xom tillari guruhi (xause, kotoko, angas, karekare, sura, chuzgu, mubi va boshqa tillar), arab guruhi (qadimgi arab) tillari kiradi.

5. Kavkaz tillari oilasi. Bu til oilasiga g'arbiy guruh (abxaz, abazin, adigey, kabardin, ubix tillari), nax guruhi (chechen, ingush, batsbiy tiilari), dog'iston guruhi (avar, dargin, lezgin, lak, karatin, gunzib va boshqa tillar), janubiy guruh (megrel, chan, gruzin, kartaliy, svan, guriy va boshqa tillar) kiradi.

6. Xitoy-tibet tillari oilasi. Bu oilaga tay-xitoy guruhi (xitoy, dungan, tay, laos, chjuan, vyetnam tillari), tibet-birma guruhi (tibet, binna tillari) kiradi.

Mazkur til oilalaridan tashqari, dravid, malay-polinez, avstraliya, papua, afrika kabi til oilalari ham mavjud.

O‘ZBEK TILIDA TOVUSHLAR TALAFFUZI.

1. O‘zbek tilida tovushlar tizimi.
2. Orfoepiya haqida ma‘lumot.
3. Unli tovushlar orfoepiyasi.
4. Undosh tovushlar orfoepiyasi.
5. Boshqa tillardan kirgan so‘zlarning talaffuz me‘yorlari.

Eslab qoling!

O‘zbek alifbosi

*Aa, Bb, Dd, Ee, Ff, Gg, Hh, Ii, Jj, Kk, Ll,
Mm, Nn, Oo, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt, Uu, Vv, Xx, Yy,
Zz, O‘o‘, G‘g‘, Sh sh, Ch ch, Ng ng, ‘(tutuq belgisi).*

Lotincha Harflar			Kirilcha Harflar	Lotincha Harflar			Kirilcha Harflar
Bosma	Yozma	Talaff		Bosma	Yozma	Talaff	
A a	<i>Aa</i>	a	А а	Q q	<i>Qq</i>	qa	Қ қ
B b	<i>Bb</i>	bc	Б б	R r	<i>Rr</i>	re	Р р
D d	<i>Dd</i>	dc	Д д	S s	<i>Ss</i>	es	С с
E e	<i>Ee</i>	e	Э э	T t	<i>Tt</i>	te	Т т
F f	<i>Ff</i>	cf	Ф ф	U u	<i>Uu</i>	u	У у
G g	<i>Gg</i>	ge	Г г	V v	<i>Vv</i>	ve	В в
H h	<i>Hh</i>	he	Х х	X x	<i>Xx</i>	xa	Х х
I i	<i>Ii</i>	i	И и	Y y	<i>Yy</i>	ye	Й й
J j	<i>Jj</i>	je	Ж ж	Z z	<i>Zz</i>	ze	З з
K k	<i>Kk</i>	ka	К к	O‘ o‘	<i>O‘o‘</i>	o‘	Ў ў
L l	<i>Ll</i>	el	Л л	G‘ g‘	<i>G‘g‘</i>	g‘a	Ғ ғ
M m	<i>Mm</i>	em	М м	Sh sh	<i>Shsh</i>	she	Ш ш
N n	<i>Nn</i>	en	Н н	Ch ch	<i>Chch</i>	che	Ч ч
O o	<i>Oo</i>	o	О о	ng	<i>ng</i>	nge	Нг
P p	<i>Pp</i>	pe	П п				

O‘zbek tilida 6ta unli tovush bor: a, o, i, u, e, o.

O‘zbek tilida 23ta undosh harf, 24 ta undosh tovush tovush bor

- b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g‘, sh, ch, ng

Shulardan 14 tasi jarangli undosh, 10tasi jarangsiz undosh tovush hisoblanadi.

8 ta jarangli undosh tovushning 8ta jarangsiz jufti bor.

Jarangli undoshlar: b, d, v, z, j, dj, g‘, g
 ↓ ↓ ↓ ↓ ↓ ↓ ↓ ↓
Jarangsiz undoshlar: p, t, f, s, ch, sh, q, k

Rus tilidan farqli o'zbek tilidagi undosh tovushlar qattiq va yumshoqligiga ko'ra ajratilmaydi.

O'zbek tiliga xos bir qator nutq tovushlari mavjud. H, Q, O', G'.

BI, III, II tovushlari esa o'zbek tilida yo'q.

Adabiy tilning og'zaki shakli me'yorlari talaffuz va nutqiy ohangda namoyon bo'ladi. Uni tilshunoslikning orfoepiya bo'limi o'rganadi. **Orfoepiya** – grekcha – «to'g'ri talaffuz» degan ma'noni bildiradi.

Unli tovushlar orfoepiyasi deganda quyidagilar hisobga olinadi.

i unlisi: 1) bir bo'g'inli so'zlarda qisqa va old qator (ingichka) unli tarzida talaffuz qilinadi: til, tish, bir, sir kabi; 2) q, g', x undoshlari bilan yondosh qo'llanganda orqa qator (yo'g'on) unli tarzida va biroz cho'ziq aytiladi: qish, g'isht.

3) y, ng, h undoshlaridan keyin biroz cho'ziq talaffuz etiladi: kiy, ming, hid, his, hind.

4) ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'usiz bo'g'inida kuchsiz va qisqa (bilan, biroq, sira kabi), urg'uli bo'g'inida esa kuchli va cho'ziq talaffuz etiladi (nozik, alik).

u unlisi: 1) bir bo'g'inli va ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'usiz bo'g'inida qisqa (tush, pul, gul, buloq, bug'doy kabi), urg'uli bo'g'inida cho'ziqroq talaffuz etiladi: bulut, etuk, popuk kabi.

2) k, g, u undoshlaridan keyin old qator unli tarzida, q, g', x undoshlaridan so'ng esa orqa qator unli tarzida talaffuz etiladi.

3) –uvchi, -uv affikslari tarkibida cho'ziqroq aytiladi: yozuvchi, o'quvchi, oluv, qo'shuv.

o' unlisi: 1) bir bo'g'inli so'zlarda, shuningdek, ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'usiz bo'g'inida qisqa talaffuz etiladi: zo'r, to'r, ro'mol, so'roq.

2) k, g, y, x undoshlaridan so'ng old qator unli tarzida; q, g', x undoshlaridan keyin orqa qator unli tarzida talaffuz etiladi. Masalan, ko'l va qo'l, ho'l va xo'r.

e unlisi: 1) so'z va bo'g'in boshida kengroq (ekin, erkin, es), bo'g'in ichida bir oz torroq (kecha, beda, tekin) talaffuz etiladi.

a unlisi: 1) sayoz til orqa k, g undoshlari bilan yonma-yon kelganda old qator unli tarzida (kam, gap, katta), chuqur til orqa undoshlari q, g', x bilan yondosh qo'llanganda orqa qator unli tarzida aytiladi.

o unlisi: 1) k, g undoshlaridan so'ng yumshoq, q, g', x chuqur til orqa undoshlaridan so'ng yo'g'on unli tarzida talaffuz etiladi.

2) urg'uli bo'g'inda biroz cho'ziq talaffuz etiladi. Bog'bon, obod so'zlarining birinchi va oxirgi bo'g'inlaridagi o unlisi talaffuzini qiyoslang.

3) y va h undoshlaridan keyin ham biroz yumshoq va ingichka unli holda talaffuz etiladi.

Undosh tovushlar orfoepiyasi ko'proq kombinator va pozitsion omillar ta'sirida yuz beradigan fonetik hodisalarga bog'liq bo'ladi.

b undoshi: 1) so'z boshida, unli yoki jarangli undosh bilan yonma-yon qo'llanganda jarangli bo'ladi. 2) jarangsiz undoshlar bilan yonma-yon qo'llanganda va so'z oxirida jarangsiz «p» tarzida talaffuz etiladi. Ibtidoiy > iptidoiy, jabha > japha, maktab(p), g'azab(p).

3) ikki unli orasida ko'pincha sirg'aluvchi «v» ga o'tadi: kabob-kavop, ishqiboz-ishqivoz, qaboq-qovoq.

v undoshi: 1) so'z o'rtasida (gavda, tovuq), oxirida (ov, suv) ishlatiladi. 2) o'zbek tiliga arab va rus tillaridan o'zlashgan so'zlarda «lab-tish» v ishlatiladi va u ayrim o'rinlarda jarangsizlashadi: avtomat – aftomat, arxiv – arxif, avtobus – aftobus, sovxoz – sofxoz.

g undoshi: 1) so'zning barcha o'rinlarida kela oladi: gul, agar, barg. 2) qadimgi turkiy tilda so'z boshida qo'llanmagan. 3) so'z oxirida kelishi ko'proq o'zlashma so'zlarda uchraydi: pedagog, barg.

k undoshi: 1) so'zning barcha o'rinlarida keladi (katta, aka, o'rdak). 2) k – undoshi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga egalik affiksi qo'shilganda, asosdagi «k» jarangli «g» ga o'tadi: telpak – telpagim, yurak – yuragim. Bir bo'g'inli va ayrim so'zlashma so'zlar bundan mustasno (yuk-yukim, ishtirok-ishtirokim). «k» dan so'ng unli tovushlarning faqat old qator ottenkalari (variantlari) qo'llanadi: ko'l, gul, kitob.

d, t undoshlari: 1) so'z va bo'g'in boshida o'zgarishsiz, to'liq aytiladi: beda, dadil, dona, ta'til, teng. 2) d undoshi so'z oxirida jarangsizlashib, t, undoshiga moyil aytiladi: madad-madat, mard-mart, obod-obot. 3) bu undoshlar so'z oxirida ba'zan tushib qoladi: dasht – dash, go'sht – go'sh, xursand – xursan, Samarqand – samarqan.

j undoshi: (qorishiq portlovchi), bu fonema so'zning boshida (joy, jiyda), o'rtasida (majlis, ojiz) va oxirida (haj, toj) kela oladi. So'z ichida jarangsiz undosh bilan yonma-yon bo'lganda jarangsizlashadi – ijtimoiy > ishtimoiy.

ch undoshi: 1) so'zning barcha o'rinlarida keladi: choy, chin, ko'cha, omoch, tilmoch. 2) jarangsiz undosh ta'sirida ba'zan «sh» ga o'tadi: uchta – ushta, ichdi – ishti.

z undoshi: 1) so'z boshida (zamon, zafar), o'rtasida (bozor, ozod) va oxirida (aziz, mayiz) qo'llanadi. 2) ba'zan jarangsiz undosh ta'sirida «s» ga o'tadi: iztirob – istirob, mazkur – maskur, sakkiz – sakkis, tannoz – tannos.

n undoshi – so'zning barcha o'rinlarida ishlatiladi (pok, nok, anor, tushun) lab undoshlaridan oldin qo'llanganda, «m» ga o'tadi: shanba – shamba, tanbur – tambur.

f undoshi: 1) bu undosh sof turkiy so'zlarda qo'llanmaydi, faqat o'zlashmalarda uchraydi: farzand (toj), farq (ar.), fabrika (rus). 2) so'zning turli o'rinlarida p undoshiga moyil talaffuz etiladi: nafas-napas, qafas-qapas, taraf-tarap, ulfat-ulpat.

q undoshi soʻzning barcha oʻrinlarida kela oladi. 2) koʻp boʻgʻinli soʻzlarga unli bilan boshlangan affiks qoʻshilganda, q undoshi «gʻ» ga oʻtadi: taroq-tarogʻim, soʻroq-soʻrogʻim. Ayrim soʻzlarda q – x ga oʻtadi: maqtanmoq – maxtanmoq, toʻqson – toʻxson.

gʻ undoshi: 1) soʻzning barcha oʻrinlarida kela oladi, (gʻor, gʻoz, togʻora, sogʻ, mablagʻ). 2) shevalarda soʻz oxiridagi «gʻ» ning «v» ga oʻtishi uchraydi: togʻ-tov, sogʻ-sov.

Vazifa:

1. Orfoepiya qoidalarining har bir holatiga misollar yozing va tushuntirib bering.
2. Quyidagi savollarga tayyorlaning.



TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Jahonda keng tarqalgan til oilalari qaysilar?
2. Turkiy til qaysi til oilasiga kiradi?
3. Orfoepiya nima?
4. Unli tovushlar orfoepiyasi haqida nimalarni bilasiz?
5. Jarangli undoshlarning talaffuzda jarangsiz aytilishi qachon roʻy beradi?
6. Qaysi undoshlardan soʻng qoʻllanganda til oldi unli lari til orqa ottenka bilan aytiladi?
7. Boshqa tillardan olingan oʻzlashma soʻzlar orfoepiyasi haqida nimalarni bilasiz?



1-mashq. "a" tovushiga eʼtibor berib, quyidagi soz va soz birikmalarini oqing:

Abadiy (вечный), alanga (пламя), lavozim (должность), afsus (сожаление), aniq (точно), arzon (дёшево), ahd (решение), ayb (вина), asr (век), aql (ум), adolat (справедливость), aks-sado (отзвук, эхо), aniq vaqt (точное время), asosiy masala (основной вопрос), axloqiy masalalar (нравственные вопросы).

2-mashq. Quyidagi soʻzlarni oqing va uchinchi bʻoʻgʻindagi "a" harfiga urgu tushgan soʻzlarni yozing:

Asosli (обоснованный, аргументированный), azaldan (издавна), aybdor (виновник), aka (brar), adolat (справедливость), asal (мёд), aksincha (наоборот), tajriba (опыт, эксперимент), sayohat (путешествие), savdo (торговля), nazorat (контроль), vazifa (поручение, обязанность).

3-mashq. 2-bogʻindagi "a" harfiga urgu tushgan soʻzlarni yozing: Sharq (Восток), lugʻat (словарь), firma (фирма), markaz (центр), nafrat (ненависть), muhabbat (любовь), muttasil (непрерывно), mutlaqo (абсолютно, безусловно), boshqarma (управление).

4-mashq. “O” tovushining aytilish qoidasiga rioya qilib quyidagi sozlarni o‘qing: Ovoz (голос, звук), obro` (авторитет, престиж), ob-havo (погода), ovchi (охотник), odamzod (человечество), oddiy (обыкновенный), ou (луна), olam (вселенная, мир), omad (успех), kimyo (химия), texnologiya (технология), mukofot (премия).

5-mashq. O‘qing va so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib yozing:

Olim (ученый), olov (огонь), oltin (золото), orzu (мечта), ona (мать), ora (сестра), osmon (небо), oqim (течение), oqibat (последствие), oshxona (столовая), omonat (имущество, деньги), pokiza (чистый), sotmoq (продавать), undov (призыв), shoshmoq (спешить), kimyogar (химик), moddiy (материальный), sog‘lom (здоровый), posbon (сторож, охранник).

6-mashq Maqollarni o‘qing va yod oling. “U” va “O” tovushlariga ahamiyat bering:

Uzumini ye, bog‘ini surishtirma - Ешь виноград, а из какого сада не спрашивай. Uyning ko‘rki - dasturxon - Украшение дома - скатерть (с угощениями). Umr - otilgan o‘q - Жизнь - это пущенная стрела. O‘t bilan o‘ynashgan - yonar - Не играй с огнем - сгоришь. O‘tmas pichoq - qo‘l kesar - И тупой нож руку режет. O‘z do‘stim deb sir aytma, do‘stingning ham do‘stlari bor - Не говори свою тайну другу, у твоего друга тоже есть друзья.

7-mashq. Quyidagi so‘zlarni o‘zbek tilining talaffuz qoidalariga rioya qilib o‘qing va yod oling:

Tuhmat (клевета), to‘kin (изобилие), tumor (амулет), to‘lov (оплата), gunoh (грех), g‘uncha (бутон), g‘o‘r (зеленый, незрелый), ho‘l (мокрый), hukumat (правительство), bo‘lajak (будущее)

8-mashq. So‘zlarni o‘qing, “j” tovushining 2 xil turini ajratib yozing.

jurnal, juda, jar, jim, jazo, javob, jiya, jiyan, majlis, joy, ajab, byudjet, peyzaj, pasajir, hujjat, ehtiyoj, juma.

9-mashq. Jarangli undosh bilan boshlangan so‘zlarni birinchi ustunga, jarangsiz undosh bilan boshlangan so‘zlarni ikkinchi ustunga yozing.

Namuna: Jarangli Jarangsiz
voha havas

Voha, havas, paxta, do‘ppi, dastro‘mol, tut, somsa, zirak, shaftoli, ipak, sholi, chumoli, koptok, gulzor, tutzor, go‘zal, xirmon, g‘uncha, ziyrak, chumchuq, kaptar, xursand, deraza, devor, kitob.

10- mashq. N+g va “ng” tovushlarini farqlab aytib bering. Misollarni daftaringizga ko‘chirib oling va rus tiliga tarjima qiling.

alanga	gung	Oldinga	tanglay
menga	gurung	o'ngga	so'ngra
senga	eng	jangga	ko'ngil
unga	Yengil	zangori	Rang

2-mavzu. O'ZBEK TILI – DAVLAT TILI

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi asosiy fikrni ajratib so'zlab berish.

Yozma nutq: “Men o'zbek tilini o'rganyapman” mavzusida dialog tuzish va uni inssenirovka qilish. Mutafakkirlarning til haqidagi fikrlaridan namunalar keltirish.

Grammatika: O'zbek tilining imlo qoidalari. Harflar imlosi. Bosh harflar imlosi.

Tayanch so'z va iboralar: *Turkiy til, davlat tili, Davlat tili haqidagi qonun, imlo qoidalari, harflar imlosi, undoshlar imlosi, unlilar imlosi, bosh harflar imlosi.*

O'zbek tili o'zbek millatining davlat tilidir. Vatanimizdagi 14 millionga yaqin xalq o'zbek tilini ona tilim deydi.

O'zbek (turkiy) tili qadimiy tillardandir. Dastlabki yozma yodnomalar VI-VII asrlarga oid O'rxun-Enasoy yozuvlarida uchraydi.

X-XI asarlardan boshlab o'zbek (turkiy) tilda yirik asarlar yaratila boshlandi.

Jumladan: Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» asarlari. Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Xorazmiylar turk (o'zbek)

tilining rivojlanishida katta xizmat qildilar. Turk (o‘zbek) tilining rivojida A.Navoiyning o‘rni beqiyosdir. A.Navoiy o‘zbek tili mavqeyini ham nazariy, ham amaliy jihatdan barqaror etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1989-yil 21-oktabrdagi sessiyasi o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berdi, o‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili deb e‘lon etildi. O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatida ish yuritish respublika davlat tilida olib boriladi va aynan tarjimasini ta‘minlanadi. Bu o‘zbek xalqining siyosiy va madaniy hayotidagi eng yirik va muhim voqealardan biri bo‘ldi.

1992-yil 2-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n uchinchi sessiyasida «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy qilish to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi.

1995-yil 21-dekabrda «Davlat tili haqidagi» qonun qayta ko‘rib chiqilib, uning yangi tahrirdagi shakli qabul qilindi. Yangi tahrirdagi qonun 24 moddadan tashkil topgan:

1-modda. O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir.

2-modda. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va ellatlarning o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

3-modda. O‘zbek tilining O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi.

Tilning Qoraqalpog‘iston Respublikasida amal qilishiga bog‘liq masalalar, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonuni hujjatlari bilan belgilanadi.

Ushbu Qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog‘liq udumlarni ado etishda qo‘llanishini tartibga solmaydi.

Fuqarolar millatlararo muomala tilini o‘z xohishlariga ko‘ra tanlash huquqiga egadirlar.

4-modda. O‘zbekiston Respublikasida davlat tilini o‘rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va ellatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo‘lish ta‘minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Fuqarolarga davlat tilini o‘qitish bepul amalga oshiriladi.

5-modda. O‘zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko‘rsatadigan, milliy guruhlar zich yashaydigan joylarda esa ularning tillarida faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarini tashkil etish ta‘minlanadi.

6-modda. O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta‘lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi. O‘zbekiston Respublikasida davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda ham umumiy, o‘rta maxsus va oliy ma‘lumot olishni ta‘minlaydi.

7-modda. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta’minlaydi, shu jumladan, unga hamma e’tirof qilgan ilmiy, texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta’minlaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo‘mitasining roziligi bilan o‘zbek tilidagi nutqqa joriy etiladi.

8-modda. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e’lon qilinadi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi. Muayyan millat vakillari zich yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi.

9-modda. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta’minlanadi.

O‘zbekistonda o‘tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek, qatnashchilarning o‘zlari tanlagan tillar anjumaning ish tili hisoblanadi.

10-modda. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarning ko‘pchiligi o‘zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin.

11-modda. Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o‘sha joydagi ko‘pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so‘zlash huquqi ta’minlanadi.

12-modda. O‘zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Fuqarolarning talabiga ko‘ra rasmiylashtirilgan hujjat matni davlat notariusi yoki notarial harakatni bajarayotgan shaxs tomonidan rus tilida yoki sharoit talab qilgan taqdirda, boshqa maqbul tilda beriladi.

13-modda. Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanishi mumkin.

14-modda. O‘zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta’minlanadi.

15-modda. O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o‘z millatidan qat’iy nazar, o‘z ismini, ota ismi va familiyasini milliy-tarixiy an’analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

16-modda. Televideniye va radio eshittirishlari davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda olib boriladi.

17-modda. Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa, boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

18-modda. Pochta-telegraf jo‘natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko‘ra, boshqa tilda amalga oshiriladi.

19-modda. Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg‘alari, ish qog‘ozlarining matnlari davlat tilida bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar, qo‘shma korxonalarining, shuningdek, milliy madaniyat jamiyatlari va markazlarining muhrlari, tamg‘alari, ish qog‘ozlari matnlarning tarjimai davlat tilida takrorlanadi.

20-modda. Lavhalar, e‘lonlar, narxnomalar va boshqa ko‘rgazmali hamda og‘zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e‘lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimai berilishi mumkin.

21-modda. Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tilidagi va boshqa tillardagi yorliqlar, yo‘riqnomalar, etiketkalar bilan ta‘minlanadi.

22-modda. Respublikaning ma‘muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko‘chalari va jug‘rofiy ob‘yektlarining nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

23-modda. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning o‘zida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, davlat tilida va ahdlashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi.

24-modda. O‘zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi.

Fuqarolarning o‘zaro muomala, tarbiya va ta‘lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

Lug‘at

Til – язык

Til – общественное явление

Davlat tili – Государственный язык

Tilning rivojlanishi – развитие

Nutq – речь

Nutq ma‘daniyati- культура речи

Fikr – мысль

Tilning kelib chiqishi va shakllanishi – этимология и развития языка

Xalq tili – язык народа

Og‘zaki nutq – разговорная речь

Chambarchas bog‘langan - крепко связаны между собой

Yozuv – письменность

Piktografiya – fikrni rasmlar vositasida ifodalash

Ideografiya – ma‘lum ma‘no anglatuvchi konkret predmet belgisining qo‘llanishi

Til – ma‘naviyat ko‘zgusi – язык как духовно нравственное зеркало

Vazifa:

1. Til haqidagi qonunning 24 ta moddasini o‘rganib kelish.
2. Ommaviy axborot vositalaridan til qoidalariga amal qilishga doir ma’lumotlar to‘plash.

Topshiriq: Quyidagi savollarga yozma javob bering:

1. «Davlat tili to‘g‘risida»gi qonunning qabul qilinishi tarixini gapirib bering?
2. Siz „Davlat tili“ deganda nimani tushunasiz?
3. Qonunning 9-moddasida nimalar haqida fikr yuritiladi?
4. Qonunning 10-moddasi nimalar haqida?
5. Nima uchun davlat tilini barcha bilishi kerak?

Quyidagi matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Язык – бесценный дар, которым наделён человек. Язык – это душа народа, человечество не существует без языка. Каждый народ имеет свой чтимый язык. Уважительное отношение к языку не зависит от многочисленности людей, им пользующихся. В языке отражается история и культура его творца – народа, народности. Узбекский язык является духовным богатством узбекского народа.

Язык – человеческая способность общения и мышления – предстает и в виде родного языка, и в виде множество языков других народов мира. Издавна народы мира изучают языки для взаимного понимания и сотрудничества.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. Matnni o‘qing va o‘zbek tiliga tarjima qiling.
2. Matnga mos sarlavha qo‘ying.
3. Til to‘g‘risida qanday maqollarni bilasiz? Aytib bering va ma’nosinin tushuntiring.

O‘zbek xalq maqollarini yod oling, ularning o‘z ona tilingizdagi muqobilini toping.

So‘raganning aybi yo‘q.

Bilmaganini so‘rab o‘rgangan olim, orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim.

Tili shirin odamning do‘stlari ko‘p bo‘ladi.

Kishining so‘zi aqlning tarozisidir.


Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz.

Tiling bilan ko‘nglingni bir tut.

So‘zning turi juda ko‘pdir, lekin yolg‘ondan yomonroq turi yo‘qdir.

Bilmaganin so‘rab o‘rgangan – olim,

Orlanib so‘ramagan - o‘ziga zolim.



GRAMMATIKA: O‘ZBEK TILINING IMLO QOIDALARI.

HARFLAR IMLOSI

Unlilar imlosi

1. **A a** harfi:

1) *aka, alanga, aloqa, og‘a; sentabr, noyabr* kabi so‘zlarda old qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *bahor, zamon; savol, gavda; vasvasa* kabi so‘zlarning oldingi bo‘g‘inida, *vaqt, vahm* kabi so‘zlarda **a** aytiladi va yoziladi.

2. **O o** harfi

1) *ona, omon, quyosh, fido, baho, xola, lotin; mukofot, mahorat* kabi so‘zlarda orqa qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *boks, poyezd, tonna, talon; agronom, mikrofon; direktor, termos* kabi o‘zlashma so‘zlardagi unlini ifodalash uchun yoziladi.

3. **I i** harfi

1) *ish, iz, qil; xirmon, ilhom, ikki, ixtisos, shoyi, tulki; volida, piramida; bilan, biroq, sira, qishloq, chiroq* kabi so‘zlarda old qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *o‘tin, o‘rik, bo‘lim* kabi oldingi bo‘g‘inida **o‘** unlisi keladigan so‘zlarning keyingi bo‘g‘inida **i** aytiladi va yoziladi.

4. **U u** harfi

1) *uu, kun; buzoq, buloq, Buxoro; butun, uchug, usul, yulduz; mafkura; ko‘zgu, uyqu; aluminiy, yubiley* kabi so‘zlarda orqa qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *qovun, sovun, tovush, yovuz, qirg‘ovul, chirmovug* kabi so‘zlarning oldingi bo‘g‘inida **o** unlisi kelsa, keyingi yopiq bo‘g‘in boshidagi **v** undoshidan keyin **u** aytiladi va yoziladi.

5. **O‘ o‘** harfi *o‘t,o‘q, o‘zbek,o‘simlik, do‘ppi; bo‘tako‘z, semizo‘t, gulko‘rpa, noo‘rin* kabi so‘zlarda orqa qator o‘rta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

6. **ye ye** harfi *ekin, esla, evara, ekran, eksport; kel, zehn; kecha, behi; telefon, teatr; poyezd, atelye; e‘lon, ne‘mat, she‘r* kabi so‘zlarda old qator o‘rta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

7. Yonma-yon keladigan unlilar imlosi:

1) unlilar orasiga ba‘zan **u** undoshi qo‘shib aytilsa ham, yozilmaydi:

a) **ia**: *material, milliard, radiator; tabiat, shariat* kabi;

b) **io**: *biologiya, million, stadion, radio* kabi;

v) **ai**: *mozaika, ukrain, said, maishat* kabi;

g) **oi**: *alkoloid, ellipsoid, doim, shoir, oila* kabi;

d) **ea**: *teatr, okean, laureat* kabi;

2) **ae, oe** unlilari so‘z ichida kelganda, ikkinchi unli **u** aytilsa ham, asliga muvofiq **ye** yoziladi: *aerostat, poema* kabi.

Boshqa iollarda yonma-yon kelgan unlilar odatda aynan aytiladi va yoziladi: *manfaat, kauchuk, aorta, saodat, burjua, shuaro, inshoot, sanoat, vakuum, muammo, matbuot, tabiiy, rioya* va boshqalar.

Undoshlar imlosi

1. **V b** harfi
 - 1) *bobo, bahor, bir, majbur, zarb* kabi soʻzlarda jarangli portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;
 - 2) *kitob, yuzlab, kelib* kabi soʻzlar oxirida **r** aytilsa ham, **b** yoziladi.
 - 3) *qibla, tobla* kabi soʻzlarda baʼzan **v** aytilsa ham, **b** yoziladi.
2. **R r** harfi *paxta, pichoq, opa, tepa, tup* kabi soʻzlarda jarangsiz portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi.
3. **V v** harfi
 - 1) *ov, suv, kuyov; ovoz, savol; volida, vatan* kabi soʻzlarda ovozdor sirgʻaluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;
 - 2) *avtobus, avtomat* kabi oʻzlashma soʻzlarda **v** baʼzan **f** aytilsa ham, **v** yoziladi.
4. **F f** harfi
 - 1) *fan, feʼl, futbol, fizika; asfalt, juft; insof, isrof* kabi soʻzlarda jarangsiz sirgʻaluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;
 - 2) *fasl, fayz, Fotima, fursat* kabi soʻzlarda **f** tovushi baʼzan **r** aytilsa ham, asliga muvofiq **f** yoziladi.
5. **M m** harfi *muborak, tomon, ilhom* kabi soʻzlarda ovozdor lab-lab burun undoshini ifodalash uchun yoziladi.
6. **D d** harfi
 - 1) *dala, odat, bunyod, modda, jiddiy* kabi soʻzlarda til oldi jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;
 - 2) *obod, savod, marvarid; zavod, pud, sud; badqovoq, badxoʻr* kabi soʻzlarda **t** aytilsa ham, **d** yoziladi.
7. **T t** harfi *tong, tun; butun, oʻtin, oʻt, kut* kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.
8. **Z z** harfi
 - 1) *zar, zamon; toza, oʻzbek; yoz, gʻoz* kabi soʻzlarda til oldi jarangli sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;
 - 2) *iztirob, izquvar, boʻzchi, tuzsiz* kabi soʻzlarda jarangsiz undoshdan oldin **s** aytilsa ham, **z** yoziladi.
9. **S s** harfi *sogʻ, somon, oson, asos, olmos* kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.
10. **Sh sh** harflar birikmasi *shahar, shisha, shodlik; ishq, pishiq; bosh, tosh* kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Sh harflari ikki tovushni ifodalasa, ular orasiga ' tutuq belgisi qo'yiladi: *Is'hoq, as'hob* kabi.

11. **J j** harfi

1) *jon, jahon, jiyda, tijorat; rivoj, vaj* kabi so'zlarda til oldi jarangli qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *jurnal, projektor; gijda, ajdar, garaj, tiraj* kabi o'zlashma so'zlarda til oldi jarangli sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

12. **Ch ch** harflar birikmasi *choy, chevar, chiroyli, chaman; achchiq, uchun, bichiqchi; kuch, kech* kabi so'zlarda til oldi jarangsiz qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

13. **Rr** harfi *rahmat, rohat, orom, doira, bor, diyor* kabi so'zlarda til oldi ovozdor titroq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

14. **L l** harfi *lola, loyiq, la'l, iloj, mahal* kabi so'zlarda sirg'aluvchi ovozdor yon undoshni ifodalash uchun yoziladi.

15. **N n** harfi

1) *non, nomus; ona, tana; bilan, tomon* kabi so'zlarda til oldi ovozdor burun undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *shanba, yonbosh, jonbozlik; yonma-yon, ko'rinmaslik* kabi so'zlarda **n** tovushi ba'zan **m** aytilsa ham, **n** yoziladi.

16. **G g** harfi *gul, go'zal, ega, gugurt; teg, eg* kabi so'zlarda til orqa jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

17. **K k** harfi *ko'l, ko'ylak; uka, moki; tok, bilak* kabi so'zlarda til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

18. **Y u** harfi *yo'l, yigit, yetti, yaxshi, yoz, yulduz; tuya, dunyo, tayyor; soy, tuy* kabi so'zlarda til o'rta sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

19. **Ng ng** harflar birikmasi *yangi, ko'ngil, dengiz, singil, keling, bordingiz; tong, ming, teng* kabi so'zlarda til orqa ovozdor burun tovushini ifodalash uchun yoziladi.

20. **Q q** harfi *qizil, qimiz, qirq, haqiqiy, aql* kabi so'zlarda chuqur til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

21. **G'g'** harfi *g'oz, bag'ir, tog'* kabi so'zlarda chuqur til orqa jarangli sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

22. **X x** harfi *xabar, xo'roz, xohish, xushnud, baxt, axborot, mix* kabi so'zlarda chuqur til orqa jarangsiz sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

23. **N h** harfi *hosil, hamma, bahor; isloh, nikoh* kabi so'zlarda jarangsiz sirg'aluvchi bo'g'iz undoshini ifodalash uchun yoziladi.

24. Yonma-yon keladigan undoshlarning imlosi:

1) *baland, Samarqand, poyezd; do'st, past, artist, g'isht* kabi so'zlarda **d, t** tovushi ba'zan aytilmasa ham, yoziladi;

2) *metall, kilogramm, kilovatt, kongress* kabi o'zlashma so'zlar oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday so'zga xuddi shu tovush

bilan boshlanadigan qism qo'shilsa, so'z oxiridagi bir harf yozilmaydi: *metall + lar = metallar, kilogramm + mi = kilogrammi* kabi.

25. ' — tutuq belgisi:

1) *a'lo, ba'zan, ma'yus, ta'zim; ra'y, ta'b; e'lon, e'tibor, e'tiqod, me'mor, ne'mat, she'r, fe'l; No'mon, shu'la* kabi o'zlashma so'zlarda unlikdan keyin shu unlik tovushning cho'ziqroq aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi; *mo'jiza, mo'tadil, mo'tabar* kabi so'zlarda o' unlisi cho'ziqroq aytilsa ham, tutuq belgisi qo'yilmaydi;

2) *in'om, san'at, qat'iy, mas'ul* kabi o'zlashma so'zlarda unlikdan oldin shu unlik oldingi undosh tovushdan ajratib aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi.

BOSH HARFLAR IMLOSI

1. Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Dilbar O'rinova, Muhabbat Majidovna, Azamat Shuhrat o'g'li, Hamza Hakimzoda, Muhammadsharif So'fizoda, Mannon Otaboy, Navoiy, Furqat; Yelpig'ichxon, Salomjon Alikov* kabi.

2. Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: *Andijon, Yangiyo'l* (shaharlar), *Naymancha, Buloqboshi* (qishloqlar), *Bodomzor, Chig'atoy* (mahallalar), *Zavraq* (dara), *Yorqoq* (yaylov), *Qoratog', Pomir* (tog'lar), *Oqtepa, Uchtepa* (tepalar), *Zarafshon, Sirdaryo* (daryolar), *Yoyilma* (kanal); *Turkiya, Hindiston* (mamlakatlar) kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: *Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum* kabi.

3. Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Hulkar, Qavs, Mirrix* (yulduz va sayyoralar nomi), *Tinchlik dengizi* (Oydagi relief nomi) kabi. *Yer, quyosh, oy* turdosh otlari sayyora nomi bo'lib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi: *Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi*.

4. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat maisulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qo'yilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi: «*Tong*» (mehmonxona), «*Saodat*» (firma), «*Navro'z*» (xayriya jamg'armasi), «*Kamalak*» (matbaa birlashmasi), «*G'uncha*» (bog'cha), «*Botanika*» (sanatoriy), «*Paxtakor*» (stadion), «*Qutlug'qon*» (roman), «*Dilorom*» (onepa), «*Tanovar*» (kuy), «*Ozodlik*» (haykal), «*Jasorat*» (yodgorlik), «*Sino*» (sovutgich) kabi.

5. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro'z bayrami* kabi.

6. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: *O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlasgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi* kabi.

Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi soʻzgina bosh harf bilan boshlanadi: *Bosh vazirning oʻrinbosari, Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, Oʻzbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi* kabi.

Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi soʻz bosh harf bilan boshlanadi: *Sogʻliqni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qoʻmitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti* kabi.

72. Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir soʻz bosh harf bilan boshlanadi: «*Oʻzbekiston Qahramoni*» (unvon), «*Oltin Yulduz*» (medal). Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi soʻzgina bosh harf bilan boshlanadi: «*Sogʻlom avlod uchun*» (orden), «*Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan fan arbobi*» (faxriy unvon), «*Matbaa aʼlochisi*» (nishon) kabi.

6. Gapning birinchi soʻzi bosh harf bilan boshlanadi: *Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oldim* (O. Yoqubov).

Eslatma:

1) koʻchirma gapdan keyin kelgan muallif gapning birinchi soʻzi (agar u atoqli ot boʻlmasa) kichik harf bilan yoziladi: «*Bu men*»,— *qoʻrqibgina javob berdi koʻlaga* (O. Yoqubov);

2) xatboshiga gapning sanaluvchi qismlari chiqarilganda bunday qismlar oldidan chiziq qoʻyiladi va ular kichik harf bilan yoziladi:

Maʼmuriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi ishni koʻrishga tayyorlash vaqtida tegishli organ (mansabdor shaxs) quyidagi masalalarni:

— *mazkur ishni koʻrib chiqish uning huquq doirasiga kirish-kirmasligini:*

— *maʼmuriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi protokol va ishga oid boshqa materiallar toʻgʻri tuzilgan-tuzilmaganligini... hal qiladi;*

3) gapning qismlari qavsli raqam yoki qavsli harf qoʻyib sanalsa, bunday qismlar ham kichik harf bilan yoziladi:

Hozirgi oʻzbek adabiy tilming lugʻat boyligi asosan besh manba negizida tarkib topgan: 1) umumturkiy soʻzlar; 2) oʻzbekcha soʻzlar; 3) tojik tilidan kirgan soʻzlar; 4) arab tilidan kirgan soʻzlar; 5) rus tilidan kirgan soʻzlar («Oʻzbek tili» darsligidan).

7. Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot boʻlmagan baʼzi birikmalarning qisqartmalari bosh harf bilan yoziladi; *AQSH (Amerika Qoʻshma Shtatlari), BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), AES (atom elektr stansiyasi)* kabi. Qisqartma tarkibida boʻgʻinga teng qism boʻlsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: *ToshDTU (Toshkent davlat texnika universiteti)* kabi.

1 - mashq. Nuqtalar oʻrniga kerakli unililarni qoʻyib yozing.



1. Bug...ngi ishni ...rtaqa q...yma. (Maqol). 2. Bogʻ...mizda...lma, oʻr...k, shaft...li, olx...ri va boshqa t...rli m...valaroʻs...di. 3. B...z ushbu yang... oʻq...v yil... uch...n kitob-

daf...rlarn... tayyorlab qo‘yd...k. 4. O‘zbekistonda b...lbul,ch...mchuq, q...rg‘a, m...sicha singari q...shlar j...da ko‘p.

2- mashq. Quyidagi so‘zlarni ovoz chiqarib, to‘g‘ri o‘qing, tarjimasini ayting.

baland	bayram	g‘arb	huquq
monand	qalam	g‘alla	hudud
pana	xalq	g‘alaba	hukm
tantana	qand	g‘o‘za	hakam
barg	aql	g‘ayrat	raqam

3- mashq. So‘zlarni o‘qing, talaffuziga e‘tibor bering.

tana - ta’na, san’at - sanat, qal’a - qala, a’lo - allo.

4- mashq. Quyidagi ruscha va o‘zbekcha so‘zlarning talaffuziga (ohangiga) e‘tibor berib o‘qing. Shu so‘zlar ishtirokida o‘zbek tilida 5 ta gap tuzib, daftaringizga yozing.

O‘zbekcha

ot
tom
tok
son
don

Ruscha

от
том
ток (электричество)
сон
дон



Kichik guruhlarda ishlash
1-guruh

1. “O‘zbek tili” fanining maqsadi va vazifalarini yoriting.

Vazifa	Qisqa izoh	Amaliy ahamiyati
Fanning maqsadi		
Fanning vazifasi		
Fanning vazifasi		
Fanning vazifasi		

2-guruh

1. Imlo qoidalarining bo‘limlar bo‘yicha qisqa izohi.

Imlo qoidalari qachon tasdiqlangan	
Harflar imlosiga misollar	
Asosiy qo‘shimchalar imlosiga misollar	
Qo‘shib, ajratib, chiziqcha bilan yoziladiga misollar	

3-guruh

1. Davlat tili haqidagi qonunning quyidagi moddalarining qisqa izohi

Qonunning moddasi	Qisqa izohlash
1-modda	
7-modda	

9-modda	
10-modda	

B/B/B JADVALI

B/B/B JADVALI - Bilaman/ Bidim/ Bishni xohlayman. Mavzu, matn, bo‘lim bo‘yicha izlanuvchanlikni olib borish imkonini beradi.

Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Talabalar:

1. Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida, kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.
2. “Mavzu bo‘yicha nimalarni bilasiz” va “Nimani bilishni xohlaysiz” degan savollarga javob beradilar. Jadvalning 1 va 2 bo‘limlarini to‘ldiradilar.
3. Ma‘ruzani tinglaydilar, mustaqil o‘qiydilar.
4. Mustaqil, kichik guruhlarda jadvalning 3 bo‘limni to‘ldiradilar.

TEST SAVOLLARI

1. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari haqidagi qaroriga qachon o‘zgartirish kiritildi?

- A) 1995-yil, 2-sentabr
 B) 1995-yil, 24-avgust
 C) 1993-yil, 2-sentabr
 D) 2005-yil, 6-may

2. Tutuq belgisi qaysi qatorda unlini cho‘ziqroq talaffuz qilish uchun ishlatilgan?

- A) in‘om, qat‘iy B) e‘tibor, me‘mor

C) qat'iy, ba'zan D) san'at, ta'zim

3. Qaysi qatordagi so'zlarga -i (egallik) qo'shimchasi qo'shilsa k undoshi g ga, q undoshi g' ga aylanadi?

- A) ishtirok, huquq B) yuk, tilak
C) huquq, yurak D) tilak, butoq

4. Chiqish kelishigi qo'shimchasi qo'shilganda, tovush ortishi sodir bo'ladigan qatorni toping.

- A) bu, u B) sen, kim
C) nima, qachon D) qanday, men

5. Quyidagi qo'shma so'zlarning qaysi biri ajratib yoziladi?

- A) kamhosil B) oshqozon
C) osmako'prik D) shirinso'z

3-mavzu. MILLIY QADRIYATLAR – MILLAT IFTIXORI

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so'zlash. Milliy urf-odatlarni ta'riflab berish.

Yozma nutq: Biror milliy bayram, marosimdan olingan taassurotlarni yozish. "Turli millatlarning urf-odatlari" mavzusida polilog tuzish va uni inssenirovka qilish.

Grammatika: O'zbek tilida so'z yasalishi. Asos va qo'shimchalr imlosi.

Tayanch so'z va iboralar: milliy qadriyatlar, o'zbek udumlari, urf-odat, an'ana, morfemika, so'z yasalishi, asos, qo'shimcha, tub so'z, yasama so'z, qo'shma so'z, sodda yasama so'z, juft so'z, takroriy so'z, affiksatsiya, kompozitsion, asos va qo'shimchalar imlosi.

Milliy qadriyatlar - millat iftixori

Hech bir xalq o'zligini anglamasdan, milliy madaniyati, milliy qadriyatlarini asrab-avaylab saqlamasdan turib, boshqa xalqlarning qadriyatlariga hurmat bilan qaray olmaydi. Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrati xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligidadir. Istiqlolning birinchi kunidan boshlab hayotimizning barcha jabhalarida "Qadriyatlar", "Milliy tiklanish", "Milliy ong", "Milliy g'urur" kabi atamalar tez-tez ishlatiladigan bo'lib qoldi. Bu bejiz emas, albatta.

"Qadriyat" iborasi o'z ma'nosida mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng keng qo'llanila boshlandi. Sobiq Ittifoq davrida bu termin muomalada deyarli uchramas edi, uni o'zbekcha lug'atlardan topib ham bo'lmasdi.

Milliy qadriyatlar – mamlakatdagi millat va elatlar uchun qadrli bo'lgan va fuqarolar tomonidan e'zozlanadigan, milliy xususiyat va fazilatlarini ifodalovchi hodisalardir. Har bir xalqning o'zi uchun e'zozli, qiymatli bo'lgan ma'naviy boyliklari bo'ladi. Masalan, Navro'z bayrami, dinimiz va diniy bayramlarimiz, milliy urf-odatlarimiz, tilimiz bizning eng muhim milliy qadriyatlarimiz sanaladi. Demak, qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elatlarning manfaatlariga va maqsadlariga xizmat qiladigan, shu tufayli ular tomonidan qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalarini tushunish lozim.

Bular asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelgan, hozirgi kunda ham u o'zining ahamiyati va qadrini yo'qotmagan, shu xalqning iftixoriga aylangan durdonalardir.

Milliy qadriyatlar millatning yashash tarzi, milliy ong, til, ma'naviyat hamda madaniyati bilan uzviy bog'liq.



O'zbek udumlari

O'zbeklar qadimdan to'y turlariga boy xalq. Sunnat to'yi, nikoh to'yi, askar to'yi, uy to'yi, muchal to'yi, ellik va undan ortiq yoshlarni nishonlash to'ylari...

Urf-odat ko'pchilik tomonidan qabul qilingan bo'lib, u kishilar turmushiga singib ketadi, bu ko'proq oilaviy munosabatlarda sodir bo'ladi. Masalan, o'zbek xalqiga xos urf-odatlarga

salomlashish qoidalari, kelin-qizlarning ertalab hovlilarni supurib, suv sepishi; mehmonlarga alohida hurmat ko'rsatish, bayram arafalarida bemor, yolg'iz, muhtoj keksalardan, qiynalganlardan xabar olish, hashar kabi udumlar kiradi.

Yaxshi niyat – yarim davlat, deydi xalqimiz. Tilak bildirish, yaxshi niyat, duo-yu olqishlar – bu ham o'zbek xalqining eng qadimiy udumlaridan biridir. Inson hayotining barcha fasllarida, turli yoshlarda, turli munosabatlar bilan, turmushning barcha chorrahalarida bir-biriga tilak bildiradi, yaxshi niyat qiladi.

Bola tug'ilganda, - "Farzand, zurriyot muborak bo'lsin deya umri-yu rizqi, ota-onasi, bobo-yu buvisi bilan bergan bo'lsin",-deyiladi. Bu ixcham tilakning mazmunida katta hikmat bor. Bola tug'ilibdimi, avvalo, uning umri uzun bo'lsin, rizqi nasibasi mo'l bo'lsin, ota-onasi tarbiya berib, oq yuvib, oq tarab voyaga yetkazar ekan, farzandining huzur-halovatini, rohatini, iqbolini ko'rishsin, xalqning og'irini yengil qiladigan shaxs bo'lib yetishsin kabi ko'pga va uzoqqa mo'ljallangan tilaklar birgina shu ibora hikmatda o'z jamuljamini topgan.

Mo'ysafidlar, ota-onalar farzandlarining duoyi jonini qilisharkan, "oy borib, omon qaytgin", deya kaftlarini yuzlariga surtib, fотиha tortishadi. "Omad yor bo'lsin, olginu oldirmagin, to'rt muchang sog' bo'lsin, xudo o'z panohida asrasin, chor-yorlar madadkor bo'lsin" tilaklari ham shu holatlarda qo'llanilishi mumkin.

Milliy urf-odatlar va an'analar

Biz qadimda ajdodlarimiz ham bizlarning yoshimizda turli-tuman bayramlar, marosimlar o'tkazganliklarini yaxshi bilamiz. Albatta, bu bayramlar mavsum va marosimlar bilan bog'liq bo'lgan. Ma'lumki, bahor uyg'onish fasli, tabiatning yangilanishi, gul-chechaklarning dunyo yuzini qayta ko'rishi davri. Qadimda bolalar avvalo boychechak, so'ng binafsha, qoqigul, tolbargak ochilib, yaproq yozishini bayram qilishgan.

Hovli to'yida qishloqdoshlarning, qarindosh-urug'larning katta hashari bilan qurilgan yangi imoratga ko'chib kirilgach, xudoyidan keyin maxsus to'y qilingan. Bu to'y ham ko'proq kuz yo qishda o'tkazilgan. Hovli to'yi munosabati bilan yanada shinam, ko'rkam, orasta, xonakilashgan. Hovli to'yidan keyingina yangi imorat o'zlashtirilgan, unda yashashga o'rganilgan, kirishilgan. Bu to'y ham nikoh to'yidek oila uchun eng baxtiyor, tantanavor marosimdir. Boshpana, imorat hovlilik yosh oila endi oyoqqa turib olgan. Barqaror, qabila, qishloq, elatning kori xayriga yaraydigan mustahkam qo'rg'on sanalgan.

Hayitlar qadimiy diniy bayram bo'lib, ularning tarkibiga kirgan ko'pgina marosimlar islomdan oldin ham xalq taomilida bo'lgan. Islom ularni omuxtalab, o'z qonunlarini qo'shib, hayit-bayramlarining umrini uzaytirgan. Hayitning ikki xili mavjud bo'lib, xalqimiz bu bayramlarga azaldan amal qilib keladi. Birinchisi - Qurbon hayiti, Katta hayit deb ataladi. Uning oldidan ikki kun qolganda, arafa kunlari nishonlanadi. Yolg'on arafa, bir kun qolganda chin arafa, uchinchi kuni esa Hayit bayram qilinadi.

Ertalabgi osh marosimi to'y (sunnat to'yi yoki nikoh to'yi) va aza ma'rakasida o'tkaziladi. To'yni o'tkazuvchilar ertalabgi oshning kuni va vaqtini avvaldan mahalla bilan kelishgan holda belgilaydilar. Shu kunga qarindoshlar, qo'shnilar va tanishlariga taklifnomalar yuboriladi. Bir kun oldin kechqurun «sabzi to'g'rash» marosimi o'tkaziladi, unga odatda qo'shniar va yaqin qarindoshlar keladilar. Sabzi to'g'rab bo'linganidan keyin barcha ishtirokchilar dasturxonga taklif etiladi. Ovqatlanish paytida oqsoqollar kelganlar o'rtasida ishlarni taqsimlaydilar. Ertalabgi osh bomdod namozining tugashi paytigacha tayyor bo'lishi lozim, chunki namozdan chiqqan kishilar birinchi mehmonlar bo'ladi.

Nikoh marosimi an'anaviy tarzda o'zbeklarning hayotida nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'ladi va tantanali nishonlanadi. Umumiy xususiyatlari bo'la turib, u turli viloyatlarda o'zgacha tusda bayram qilinadi. Nikoh marosimining asosiy payti kelinning ota-onasining uyidan kuyovning uyiga o'tishi paytidir. To'y kuni kuyovnikida to'y oshi (palov) tayyorlanadi va kelinnikiga yuboriladi, u yerda dasturxonga tortiladi. Xuddi shunday osh kuyovning uyida ham

o'tkaziladi. To'y kuni masjidning imomi ikki yoshga «Xutbayi nikoh» ni o'qiydi va yoshlarga er va xotinning huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi.

Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi. Biron-bir jamiyat imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar davomida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan.

21-Mart - Navro'z

Navro'z qadimiy milliy bayrami ("Navro'z bayrami") fors tilidan tarjima qilindanda "yangi kun" ma'nosini anglatadi. Navro'z bayrami 21-mart kuni nishonlanadi va yangi yilning boshlanishi hisoblanadi. Ushbu kun kecha bilan kunduzning tenglashgan paytidir. Yer butunjahon astronomik tenglashgan davriga kirib keladi. Yana shu davrda yarimshar bo'yicha yil fasllari o'zgarib turadi, agar janubiy yarimsharda kuz kelsa, shimoliy yarimsharda esa bahor. Ushbu bayram barcha o'simliklar va daraxtlar gullaganda va bahor tusiga kirgan vaqtda bahor kirib kelayotganda nishonlanadi. Ushbu bayramning kirib kelishi bilan ko'pgina o'zbek oilalar turli milliy taomlarni tayyorlaydilar: sumalak, halim, ko'k somsa, osh va boshqalar. Mazkur taomlar odamzod organizmiga foydali bo'lgan ko'p vitaminlarga boydir. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng O'zbek xalqining qadimiy urf-odatlari va ana'nalari kuchga kirdi, jumladan, Navro'z bayramini nishonlash o'zga xos tusga ega bo'ldi. Bu bayram barcha xalqlarning do'stlik va birlik ramziga ega bo'lgan umumxalq bayramidir. Hozirgi kunda Navro'z bayrami keng nishonlanmoqda.

9-may - Xotira va qadrlash kuni

1999-yili 9-may kuni O'zbekiston poytaxtida Xotira maydoni ochildi va shu kundan buyon 9-may Xotira va qadrlash kuni sifatida nishonlanmoqda. Ushbu bayram mustaqil O'zbekistonda asrlar davomida o'lkamizni himoya qilgan, uning erkinligi, mustaqilligi va xalqining tinchligi uchun kurashgan vatandoshlar xotirasiga bag'ishlangan.

Xotira va qadrlash tushunchasi chuqur ma'noga egadir. Ushbu kunda fashizmga qarshi kurashishlarda qatnashgan, o'z Vatanini himoya qilishda joniga fido qilgan, shuningdek, To'maris, Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Nomoz botir kabi qahramonlar va asrlar davomida xalq orzu qilgan erkinlik uchun kurashgan Qodiriy, Behbudiy, Munavvar qori, Cho'lpon, Avloniy, Fitrat, Usmon Nosir kabi milliy qahramonlarimizning ruhini shod etib eslash ham farz, ham qarzdir.

Insoniyat ikkinchi jahon urushida qatnashgan, bu ayovsiz jang-u jadalda qahramonlarcha halok bo'lganlar xotirasini also unutmaydi.

1-sentabr - Mustaqillik kuni

O'zbekiston Respublikasining asosiy milliy bayrami - Mustaqillik kunidir. Ushbu bayram 1-sentabr kuni marosimli va rang-barang shaklda nishonlanadi. Ushbu milliy bayram do'stlik, xayriya va har tomonlama hurmatga tayangan O'zbek xalqining barcha orzularini namoyon etadigan bayramdir.

O'zbekistonda istiqomat qilayotgan turli millatlar vakillari millatiga, diniga va kelib chiqqan irqiga qaramasdan O'zbekistonning barcha hududlarida faol nishonlaydilar.

San'at vakillari shaharning istirohat bog'larida va maydonlarda turli shoularni namoyish etadilar. Kopgina xorijiy mehmonlar va turistlar esda qoladigan ana'naviy namoyishlarda ishtirok etadilar.

1-oktabr - Ustoz va murabbiylar kuni

Har yili 1-oktabr - Ustoz va murabbiylar kuni keng nishonlamoqda. Qadim zamonlardan ustozga bo'lgan chuqur hurmat va e'tibor saqlanib qolgan. "Domla", "Muallim", "Ustoz" kabi so'zlar o'z ustozlardan nafaqat bilimlarni va aholiga bo'lgan hurmat munosabati va Vatanga bo'lgan mehriga ega bo'lgan o'quvchilar asrlar davomida minnatdorchilik va izzat bilan murojyat etganlar.

Maktab va o'quv muassasalarning o'quvchilari hayotning ilk bilimlarini bergan ustozlarga

chuqur hurmatdadirlar. Ushbu kunda o'quvchilar minnatdorchilik bilan gullar va sovg'alar bilan hayot yo'lida mashaqqatli mehnat uchun chin yurakdan tabriklaydilar.

8-dekabr - Konstitutsiya kuni

Mamlakatimizda qonun ustuvorligi davlatimiz siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiya Oliy Kengash tomonidan 1992-yil 8-dekabrda qabul qilindi. Konstitutsiyasiya 6 bo'lim, 26 bob va 128 ta moddadan iborat. Ushbu bayram butun O'zbekistonda keng nishonlanadi.

Ramazon Hayiti (Iyd-al-Fitr)

Ushbu bayram Ro'za hayiti sifatida tanilgan va musulmon (Hijriy) kalendarining 9-oyiga to'g'ri keladi. Ushbu bayram 30 kundan iborat bo'lib, ruhiy hamda ma'naviy tozalanish an'anasi hisoblanadi. Uning shartlari quyidagicha: kun chiqishdan to kun botganga qadar ovqat va suv iste'mol qilmaslik; yomon o'ylardan saqlanish; atrofdagilarga hurmatda bo'lish va ularga imkoniyat darajasida yaxshilik qilishdan iboratdir. Ushbu shartlarni bajargandan so'ng uch kundan iborat bo'lgan Ramazon Hayiti boshlanadi. "Ramazon Hayiti" birinchi kuni dam olish kuni hisoblanadi.

Ramazon oyidan so'ng nishonlanadigan Iyd Al Fitr va Hajdan so'ng nishonlanadigan Iyd Al Adha bayramlari ham milliy bayramlar hisoblanadi, biroq ushbu bayramlar nishonlanadigan kunlar Hijriy kalendarga muvofiq har yili o'zgarib turadi.

Lug'at

O'zbek udumlari - узбекские традиции

Yaxshidan bog' qoladi - Хороший человек оставляет след в жизни

Nikoh to'yi - свадьба - бракосочетание

Beshik to'yi - торжество в честь рождения ребенка

Hashar - безкорыстная помощь кому либо

Mehmondo'stlik – гостеприимство

Vazifa:

“Turli millatlarning urf-odatlari” mavzusida esse yozib kelish.

Topshiriq.

1. Siz yashab turgan hududda qanday udumlar saqlangan? Shu haqda dialog tuzing.
2. Sizga ko'proq qaysi udumimiz yoqadi va nima uchun?
3. Siz yashab turgan hududda milliy bayramlar qanday nishonlanadi?

“ASSESSMENT TEXNOLOGIYASI

TEST 1. Qadriyat nima? a) milliy urf-odatlar b) milliy bayramlar d) xalq dostonlari e) barcha javoblar to'g'ri	MUAMMOLI VAZIYAT Siz oilangiz bilan orziqib kutilgan tadbirga otlanyapsiz. Kutilmaganda eshik qo'ng'irog'i chalindi. Eshik ortida chaqirilmagan mehmonlar turibdi. Sizning harakatingiz?
SIMPTOM Monologik matn haqida ma'lumot bering.	AMALIY KO'NIKMA “Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar – teshikdan” xalq maqolini izohlang.

Milliy qadriyatlar - millat iftixori

Что такое хашар? А вы знали? На одном из форумов я встретила выражение - метод хашара. Так вот, интересно, что хашар (перс. арабск.) означает «совместный труд, благотворительность», слово вошло в таджикский и тюркские языки. Имело в разное время различные значения. В средневековом Иране понятие обозначало трудовую повинность для постройки больших зданий, оросительных каналов, оборонных работ, охотничьих облав. В источниках эпохи монгольских завоеваний под хашаром понимались пленные, используемые при осаде крепостей для подкопов, создания осадных валов, а также как живой щит. Затем этот термин стал означать взаимопомощь путём предоставления рабочего скота и рабочей силы, день добровольного безвозмездного труда, помощь одному из членов общины в постройке или ремонте. В современном Узбекистане хашар означает то же, что субботник — безвозмездная уборка территории силами граждан. Он проводится минимум два раза в год — перед Наврузом (21 марта) и Днем независимости (31 августа). Методом хашар также строятся чайханы, восстанавливаются мечети. В современном Таджикистане методом хашар строят, в частности, школы. Так что советский или современный субботник почти равен современному хашару.

**Quyidagi matnlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling va mazmunini so‘zlab bering.
Хашар- дружеская помощь**





Хашар – это один из самых распространённых на Востоке народных обрядов. Он издревле занимал чрезвычайно важное место и в жизни узбекского народа. Хашар - это добровольная общественная взаимопомощь людей в строительстве частных и общественных зданий, каналов, разбивке садов и т.д.

В древние времена наши отцы и деды часто заканчивали различные работы в селах, личных домах и общественных учреждениях путём хашара. Такие тяжёлые работы, как выкапывание, срезание, полив виноградников, сенокосные работы, сбор урожая, рытьё больших каналов, их очистка всегда выполнялись народом сообща.

Дело в том, что сады и приусадебные участки единоличных хозяйств были большими и требовали от дехкана больших усилий. Именно в такие моменты на помощь приходили дети, друзья, родственники. Возможно, по этому в народе существует множество пословиц типа «Одинокий конь - не таун, один человек - не народ», «Кто объединяется, тот всегда побеждает».

Когда строился или ремонтировался дом, то кроме мастеров-строителей, непременно на хашар приходили простые люди. Хашар был не только помощью большинства людей одному человеку, но и одного человека коллективу. Например, бывало что каждый день один человек пас скот всего села. Этот обычай сохранился, и сейчас его до сих пор соблюдают во многих кишлаках.

С давних пор путем хашара оказывают помощь бедным семьям. Такие добрые дела, как строительство домов одиноким, сиротам, проведение обряда очищения, празднование свадеб, непременно осуществлялись путем хашара. Хашар использовался также при очистке улиц, посадке саженцев, рытье арыков и каналов, благоустройстве кладбищ, строительстве дорог, мостов, больниц а также при приведении в порядок общественных учреждений (мечетей, школ). Благоустройство сел, создание культурно-бытовых учреждений осуществлялись в благотворительных целях.

Главная особенность хашара состоит в том, что в его основе безвозмездная помощь. В древние времена наши матери приглашала женщин на хашар для вязания ковров, кройки и шитья приданого невесты перед свадьбой. Когда в какой-нибудь семье готовились к свадьбе, собиралась, как правило, вся махалля.

В южных областях нашей Республики, в Кашкадарье и Сурхандарье существует еще один обычай, похожий на хашар. Называется он «хайров» это мероприятие проводится зимой. Главный арык или река, приносящая воду в селение, очищали от грязи. В этот день и старшие и младшие выходили на хайров, даже путник проходящий по дороге слезает с коня и помогает в работе. Еще одна интересная особенность: один из участников хайрова протягивает проезжему хлеб на кончике лопаты. Человек, попробовавший хлеб принимает приглашение к работе.

Однажды, как говорят был такой случай: некий белобородый старик приблизился к мосту во время хайрова. Один молодой человек решил подшутить и протянул проезжему хлеб. Выполнив обряд, старик слез с осла, спокойно разделся и готов был приступить к работе. Молодой человек же удивился и не знал, что предпринять. Худой как щепка, старец взял его за талию и, оторвав от земли, положил на обе лопатки. Участники хайрова

долго смеялись. Вот к этому и относятся пословицы нашего народа: «Не берись за дело, которого не знаешь».

В недавнем прошлом многие общественные здания, мосты, дороги и даже маленькие города были построены путём хашара. Строительство различных сооружений-Большого Ферганского, Северного и Южного Ферганского каналов, Ташкентский каналов, (Северного и Южного) Зарафшанского каналов, Каттакурганского водохранилища и других больших водохранилищ было реализовано путём всенародного хашара.

Всенародный хашар проводился и после Ташкентского землетрясения в 1966 году. Он оставил заметный след в жизни нашей столицы. Безусловно, это было необходимостью, требованием времени и тяжелых социально-экономических условиях.

Люди работающие во время хашара, всегда удостоиваются похвалы. К примеру, во время строительства дома, самой сложной работой считается кладка углов стены. Четыре человека с четырех сторон начинают воздвигать стену. Кто первым заканчивает работу, тому дарят чапан и до следующего хашара его считают самым умелым и надежным помощником.

А легко ли доставить обед стольким людям?

Для человека, работающего на хашаре, это не проблема. Жены, матери и дети работающих, приготовив разнообразные блюда, несут на хашар. И мужчинам остается только оценивать их кулинарные искусство.

Человек, стремящийся помогать другим во время хашара, всегда уверен, что и к нему в трудную минуту придут на помощь.

Topshiriq. Matnlar mazmunini o‘zbek tilida so‘zlab bering.



GRAMMATIKA: O‘ZBEK TILIDA SO‘Z YASALISHI. ASOS VA QO‘SHIMCHALAR IMLOSI

O‘zbek tilida so‘z yasalishi va so‘z yasash usullari

1. Tub va yasama so‘z haqida tushuncha
2. O‘zbek tilida so‘z yasalish; so‘z yasash usullari
3. So‘zlarning tuzilishi jihatdan turlari

O‘zbek tili lug‘at tarkibidagi (shuningdek, nutqimizda qo‘llanadigan) so‘zlar dastlab **tub va yasama** so‘zlarga bo‘linadi.


Masalan: paxta-tub so‘z, paxtakor esa yasama so‘z; bug‘doy, rang so‘zlari alohida-alohida olinganda tub so‘zlar, ammo bug‘doy rang (rangning bir turi)-yasama so‘z; tog‘- tub so‘z, ammo tog‘ma-tog‘ yasama so‘z; besh, o‘n tub so‘zlar, o‘n besh yasama so‘z; qo‘l, so‘zlari alohida-alohida tub so‘zlar sanalsa, qo‘l qo‘ydi yaxlit holda yasama so‘z hisoblanadi.

So‘z yasovchi affiksi bo‘lmagan so‘zlar tub so‘z deyiladi.

Ma‘lum bir so‘z negizida ma‘no jihatidan (ba‘zan ham ma‘no, ham grammatik jihatdan) undan farqlaydigan yangi so‘z (yangi leksik birlik) hosil qilish so‘z yasash deyiladi, qiyoslang: ish- ishchan, jon-jonlandi, oq-oqla, g‘alla-g‘allazor.

Hozirgi o‘zbek tilida so‘z yasash usullari quyidagilardir:

- 1) affiksatsiya usuli; 2) kompozitsiya usuli



O'zbek tilida asosan affiksatsiya (yoki morfologik) va kompozitsiya (yoki sintaktik) usullari bilan so'z yasalishini ko'rish mumkin.

O'zakka so'z yasovchi qo'shimcha qo'shish orqali yangi leksik birlik hosil qilish **affiksatsiya** usuli bilan so'z yasashdir.

Masalan: mevali daraxt, serhosil yer kabi birikmalardagi mevali, serhosil yasama so'zlar bo'lib, ular meva o'zagiga-li, hosil o'zagiga ser-affikslarini qo'shish orqali yasalgan so'zlardir.




So'z yasovchi qo'shimchalar:

-chi: gul+chi;	-kor: paxta+kor;	-zor: uzum+zor;
-li: kuch+li;	-siz: tuz+siz	-don: bilim+don
-iston: gul+iston	-soz: soat+soz	-paz: osh+paz
ser- ser+hosil	be- be+xabar	-ba- ba+davlat

Ikki va undan ortiq so'z formalarining (ko'pincha mustaqil so'zlarning qo'shilib (yoki tizilib) bir so'zga aylanishi kompozitsiya usuli bilan so'z yasashdir.

Masalan: belbog', oshqozon, mehmondo'st, so'zboshi, ahd qilmoq, gultojixo'roz, sadarayhon, bodomqovoq, O'rta Chirchiq, kunboqar, Oqqo'rg'on, sohibjamol Tuyabo'yin va boshqalar.



Qo'shma so'zlar


Qo'shib yoziladi:

Yurtboshi
Qo'shtirnoq
Muzqaymoq
Qo'lqop
Tichliksevar

Ajratib yoziladi:

Sotib olmoq
Olib kelmoq
Har doim
Ishlab chiqarish
Borib kelmoq

O'zbek tilida so'zlar tuzilish jihatdan 4 turga ajratiladi. Bular: sodda so'z, qo'shma so'z, juft so'z va takroriy so'z.



ASOS VA QO'SHIMCHALAR IMLOSI

1. Qo'shimcha qo'shilishi bilan so'z oxiridagi unli o'zgaradi:

1) a unlisi bilan tugagan fe'llarga -v, -q, -qi qo'shimchasi qo'shilganda a unlisi o' aytiladi va shunday yoziladi: sayla—saylov, sina—sinov, aya—ayovsiz; so'ra—so'roq, bo'ya—bo'yoq, o'yna—o'ynoqi, sayra—sayroqi kabi;

2) i unlisi bilan tugagan ko'pchilik fe'llarga -v, -q qo'shimchasi qo'shilganda bu unli u aytiladi va shunday yoziladi: o'qi—o'quvchi, qazi—qazuvchi, sovi—sovuq kabi. Lekin i unlisi bilan tugagan ayrim fe'llarga -q qo'shimchasi qo'shilganda bu unli i aytiladi va shunday yozila-di: og'ri—og'riq, qavi—qaviq kabi.

Eslatma:

1) undosh bilan tugagan barcha fe'llarga -uv qo'shiladi: ol—oluv, yoz—yozuv kabi;

2) undosh bilan tugab, tarkibida u unlisi bor fe'lga -uq qo'shiladi: uz—uzuq, yut—yutuq kabi. Lekin uyushiq, burushiq, uchuriq (shuningdek, bulduriq) kabi so'zlarning uchinchi bo'g'inida i aytiladi va shunday yoziladi.

34. k, q undoshi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga, shuningdek, bek, yoq kabi ayrim bir bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda k undoshi g undoshiga, q undoshi g' undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: tilak—tilaging, yurak—yuragim, kubok—kubogi, bek—begi; tayoq—tayog'i, qoshiq—qoshig'i, yaxshiroq—yaxshirog'i, yo'q—yo'g'i kabi. Lekin ko'p bo'g'inli o'zlashma so'zlarga, bir bo'g'inli ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda k, q tovushi aslicha aytiladi va yoziladi: ishtirok—ishtiroki, ocherk—ocherki, erk—erki, huquq—huquqim, ravnaq—ravnaqi, yuq—yuqi kabi.

2. Quyidagi qo'shimchalar qo'shilishi bilan so'zning tarkibida tovush tushadi yoki ortadi:

1) o'rin, qorin, burun, o'g'il, bo'yin, ko'ngil kabi ba'zi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, qayir, ayir kabi fe'llarga nisbat shaklini yasovchi -il qo'shimchasi qo'shilganda, ikki, olti, yetti so'zlariga -ov, -ala qo'shimchalari qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi unli aytilmaydi va yozilmaydi: o'rin—o'rnim, qorin—qorni, burun—burning, o'g'il—o'g'ling, ko'ngil—ko'ngli, yarim—yarmi; qayir—qayril, ulug'—ulg'ay, sariq—sarg'ay, ikki—ikkov, ikki—ikkala, yetti—yettov kabi;

2) u, bu, shu, o'sha olmoshlariga -da, -dan, -day, -dagi, -ga, gacha, -cha qo'shimchalari qo'shilganda n tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: unda, bunday, shunda, o'shanча kabi; bu olmoshlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi: buningiz, o'shanisi kabi;

3) o, o', u, ye unilari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi:

a) ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchalari -m, -ng, -si; -miz, -ngiz, -si (yoki -lari) shaklida tovush orttirmay qo'shiladi: bobom, bobong, bobosi; bobomiz, bobongiz, bobosi (yoki bobolari); orzum, orzung; ovzusi; orzumiz, orzungiz, orzusi kabi;

b) parvo, obro', mavqe, mavzu, avzo so'zlariga I, II shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganda bir u tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: ravvoyim, parvoying; parvoyimiz, parvoyingiz; obro'yim, obro'ying; obro'yimiz, obro'yingiz kabi; III shaxs egalik qo'shimchasi parvo, avzo, obro', mavqe so'zlariga -yi shaklida, xudo, mavzu so'zlariga esa -si shaklida qo'shiladi: avzoyi, mavzusi kabi (dohiy kabi u undoshi bilan tugagan so'zga ham III shaxsda -si qo'shiladi: dohiysi kabi);

4) men, sen olmoshlariga -ni, -ning, -niki qo'shimchalari qo'shilganda qo'shimchadagi n aytilmaydi va yozilmaydi: meni, mening, meniki; seni, sening, seniki kabi.

3. Quyidagi qo'shimchalarining birinchi tovushi ikki xil aytilsa ham, bir xil yoziladi:


1) -bon, -boz qo'shimchalari ba'zan -von, -voz aytilsa ham, hamma vaqt -bon, -boz yoziladi: darvozabon, masxaraboz kabi. Lekin -vachcha qo'shimchasi hamma vaqt shunday aytiladi va yoziladi: amakivachcha, xolavachcha kabi;

2) o'rin kelishigi va chiqish kelishigi qo'shimchasining o'tgan zamon yasovchisi va III shaxs ko'rsatkichi -di qo'shimchasining boshidagi undosh ba'zan t aytilsa ham, hamma vaqt d yoziladi: ishda, misdan, ketdi, kelmabdi kabi.

4. Quyidagi qo'shimchalarning bosh tovushi ikki yoki uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

- 1) taklid soʻzlardan feʼl yasovchi -illa (chirilla, taqilla) qoʻshimchasi soʻz tarkibida v yoki u tovushi boʻlganda -ulla aytiladi va shunday yoziladi: shovulla, lovulla, gurulla kabi;
- 2) nisbat shaklini yasovchi -dir qoʻshimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir boʻgʻinli soʻzlarga (kel soʻzidan boshqa), shuningdek, z undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin qoʻshiladi: quvdir, egdir, kuldir, yondir; oʻtkazdir, tomizdir kabi. Qolgan barcha iollarda bu qoʻshimcha -tir aytiladi va shunday yoziladi: tiktir, kestir, uyaltir, chaqirtir kabi;
- 3) joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi -ga, chegara bildiruvchi -gacha, ravishdosh shaklini yasovchi -gach, -guncha, -gani, -gudek, sifatdosh shaklini yasovchi -gan, buyruq maylining ikkinchi shaxs koʻrsatkichi -gin, shuningdek, -gina qoʻshimchasi uch xil aytiladi va shunday yoziladi:
 - a) k undoshi bilan tugagan soʻzlarga qoʻshilganda bu qoʻshimchalarning bosh tovushi k aytiladi va shunday yoziladi: tokka, yoʻlakkacha, koʻnikkach, zerikkuncha, toʻkkani, kechikkudek, bukkan, ekin, kichikkina kabi;
 - b) q undoshi bilan tugagan soʻzlarga qoʻshilganda bu qoʻshimchalarning bosh tovushi q aytiladi va shunday yoziladi: chopiqqa, qishloqqacha, yoqqach, chiqquncha, chiniqqani, qoʻrqqudek, achchiqqina kabi;
 - v) qolgan barcha iollarda, soʻz qanday tovush bilan tugashidan va bu qoʻshimchalarning bosh tovushi k yoki q aytilishidan qatʼiy nazar, g yoziladi: bargga, pedagogga, bugʻga, sogʻga, ogʻgan, sigʻguncha kabi.

1-mashq. Nuqtalar oʻrniga mos keladigan soʻz qoʻyib qoʻshma soʻzlar hosil qiling.



2-mashq. Berilgan soʻzlardan juft soʻzlar hosil qiling va maʼnolarini rus tiliga tarjima qiling.

Namuna: oʻgʻil-... – oʻgʻil-qiz.

Katta-..., ...-kampir, kun-..., ota-..., ...-tovoq, issiq-..., achchiq-..., ...-singil, ...-yomon, yer-..., baland-..., oq-....

3-topshiriq. Nuqtalar oʻrniga qavs ichidagi soʻzlarga mos qoʻshimchala-ni qoʻshib, gaplarni koʻchiring.

1. arava qaysi yoʻldan yursa, ham shu yoʻldan yuradi (katta, kichik).
2. bola elga manzur (odob).
3.bola betga chopar (odob).
4. oʻgʻil ot mindirar, otdan indirar (qobil).
5. Bola, odobi undan (shirin).
6. soʻz - qilichdan oʻtkir (rost).
7. bosh qayda, osh qayda (tashvish, mehnat).
8. kishi bor, kishi yoʻq (doʻst, dushman).
9. gul boʻlmas, mashaqqatsiz- hunar (tikan).
10. mehnat, odat, berur senga saodat (halol, yaxshi).
11. ish koʻngilni qiladi xush (ertalab).
12. ishni ertaga qoʻyma (bugun).
12. boshni qilich kesmaydi (egmoq).
13. doʻst- rohat, doʻst - ofat (aql).
14. koʻngli- dogʻ koʻngli togʻ (baxil, saxiy)
15. uy - bozor, uy - mozor (bola).
16. soʻzning ozi yaxshi, soʻzning oʻzi yaxshi (koʻp, oz).
17. soʻz jon ozigʻi, soʻz bosh qozigʻi (yaxshi, yomon).
18. ish, gʻisht (reja, qolip).

3-mashq. Jadvalni davom ettiring.

Sodda soʻz	Yasama soʻz	Qoʻshma soʻz	Juft soʻz
Daraxt	Daraxtzor	Qoʻlqop	Qozon-tovoq
Qalam	Qalamkash	Gulqaychi	Bola-chaqa
...

4 - mashq. Berilgan soʻzlarga oʻzingiz bilgan va mos keladigan qoʻshimchalarni qoʻshib, yangi soʻzlar yasang.

Suv, oʻt, ot, tosh.

5-mashq. Berilgan gaplar tarkibidagi yasama soʻzlarni aniqlang.

1. Fikrsiz aqlning changi boʻladi,
Ilm-la egovla yangi boʻladi.
Oynadan ibrat ol bir kun artmasang.
Ustida bir enlik changi boʻladi. (Bedil)
2. Obroʻli, izzattalab boʻlishni istasang ilm oʻrgan.
3. Eshik ochiq boʻlsa ham beruxsat kirma.
4. Bilimli kishi kerakli soʻzni soʻzlaydi, keraksiz soʻzni koʻmib tashlaydi.
5. Bilimdon va tadbirkor, raqobarbardosh yoshlar Vatanimizning kelajagi sanaladi.
6. Vijdonli boʻlish chinakam insoniylik belgisidir.

6 - mashq. Soʻzlarni tarkibi boʻyicha tahlil qiling.

Mustaqillik, soddalik, birlashmoq, ishchi, oʻquvchi, oʻqituvchi, tirikchilik, odamgarchilik.

TEST SAVOLLARI

1. Morfologik (affiksatsiya) usulida hosil qilingan soʻzlar qaysi qatorda berilgan?

- A) gʻallazor, oybolta
- B) ochildasturxon, oshqozon
- C) paxtakor, kursdosh
- D) soatsoz, toshbaqa

2. Qaysi qatorda faqat qoʻshma soʻzlar berilgan?

- A) shirinsoʻz, oʻrinbosar, tumanlararo
- B) xalqparvar, dorixona, xorijiy
- C) litsey-internat, tadbirkor, kollej
- D) qayta qurish, mustaqillik, valyuta

3. Qaysi gapda uchta yasama soʻz ishtirok etgan?

- A) Ha, bu yurtlar chiroyli, daraxtzor boʻlgani bilan sovuq.
- B) Mehmon jiddiylashdi, nimanidir isbotlamoqchi boʻlganday keskin gapirdi.
- C) Semizlikni qoʻy koʻtarar deganlaridek, Omonga badavlatlik yoqmas edi.
- D) U bolalikdan dorbozlarning oʻyinlarni yoqtirar edi.

4-mavzu. TARIX VA ZAMONAMIZ.

Ogʻzaki nutq: Mavzuga oid matnni oʻqib tushunish. Matndagi termin va iboralarning maʼnosini izohlash. Matnni qisqartirib soʻzlab berish. Tarixiy soʻzlarning zamonaviy muqobillarini topish.

Yozma nutq: Tarixiy asar yoki filmlardan biri haqidagi taassurotlarni yozish. Tarixiy shaxslardan birini tasvirlash.

Grammatika: Tilning leksik qatlamlari. Qoʻshib yozish va ajratib yozish.

Tayanch soʻz va iboralar: Tarix, oʻtmish, tamaddun, tarixiy shaxs, tilning leksik qatlami, imlo, qoʻshib yozish, ajratib yozish, umumturkiy soʻz, oʻz qatlam, oʻzlashma qatlam, semantik usul, affiksatsiya usuli.

Topshiriq. Matni oʻqing va unga sarlavha toping.

Oʻzbekistonimiz har taraflama taraqqiyot bosqichiga kirdi. Zamon esa hayotni yaxshilashning turli-tuman yoʻllarini izlab topishni taqozo etmoqda.

Maʼlumki, yer yuzida hozir katta-kichik jami 252 mamlakat bor. Albatta, ular turli asoslarga koʻra muayyan oʻrinlarga ajratiladi. Ular orasida yer maydoni jihatidan Oʻzbekistonimiz jahonning 55-mamlakati hisoblanadi. Aholining soni boʻyicha 42-oʻrinda turadi.

Iqtisodiy jihatdan Oʻzbekistonning oʻrnini belgilayotganda shuni aslo unutmasligimiz lozimki, uzoq yillar mustamlaka iskanjasida hayot kechirishga majbur boʻlgan biron-bir davlat va xalq roʻshnolik koʻrgan, yaʼni iqtisodiy taraqqiyotga erishgan emas. Qariyb bir yarim asrga choʻzilgan soʻnggi mustamlaka davrida Oʻzbekistonimiz ham jahon iqtisodiy taraqqiyotidan koʻp orqada qolib ketganini hech kim inkor eta olmaydi. Albatta, biz oʻta rivojlangan (AQSH, Kanada, GFR, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Yaponiya) yoki rivojlangan (Avstraliya, Argentina, Braziliya, Janubiy Afrika Respublikasi, Janubiy Koreya, Indoneziya, Meksika, Rossiya, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Xitoy, Hindiston) davlatlar safida emasmiz. Lekin jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotganiga qaramay, Oʻzbekistonimiz har yili 8 foizdan kam boʻlmagan miqdorda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishda yuqori darajalarga erishyapti. Yana bir yutugʻimiz shuki, Oʻzbekistonimizning tashqi qarzi mamlakat bir yillik yalpi ichki mahsulotining oʻrtacha 10 foizidan oshmaydi.

Dunyoda mamlakatlarga xalqining bashariyat umumtaraqqiyoti, yaʼni tamadduniga qoʻshgan hissasiga asoslangan holda oʻrin ajratish tajribasi ham bor. Bu – aynan maʼnaviyat degani. Koʻhna tarix mobaynida bashariyat tamadduni ravnaqiga ulkan hissa qoʻshgan mamlakatlar esa u qadar koʻp emas: Xitoy, Hindiston, Turon (Oʻzbekiston), Eron, Vavilon (Iroq), Vizantiya, Arabiston (Saudiya), Misr, Yunoniston, Italiya, Angliya, Fransiya, Germaniya, Rossiya... Markaziy Osiyoning tamaddunga beshik boʻlgan markazlari, asosan, bugungi Oʻzbekiston Respublikasi hududiga toʻgʻri keladi. Bu roʻyxatni hech kim oʻz ixtiyoricha kengaytirib yuborishga haqli emas. Bu roʻyxatning oʻrtalarida Oʻzbekiston degan muqaddas diyorning nomi ham mustahkam oʻrin olib turibdi! Shu nuqtai nazardan, biz – shak-shubhasiz, buyuk xalqmiz. Turon deganda esa, asosan, bugungi Oʻzbekiston hududi koʻzda tutiladi. Chunki qadim-qadimdan tamaddun aynan shu hududda ravnaq topgani, bizdan ne-ne buyuk zotlar yetishib chiqqani – hammaga maʼlum.

Jahon intellektual mulk tashkiloti va yetakchi xalqaro biznes-maktablardan biri – «INSEAD» tomonidan 2012-yili oʻtkazilgan tadqiqotlar natijalariga koʻra mamlakatimizning dunyoda oldingi oʻrinlardan birini egallab turgani maʼlum qilindi. Inson kapitalining taraqqiyot darajasi boʻyicha Oʻzbekistonimiz 141 mamlakat orasida 53-oʻrinni egallab turibdi. Taʼlim tizimini rivojlantirish darajasi, jumladan, taʼlim maqsadlari uchun ajratiladigan mablagʻlar boʻyicha mamlakatimiz yer yuzida 5-oʻrinni ishgʻol etadi.

Oʻzbekiston va xalqaro aloqalar

Oʻzbekistonning mustaqil rivojlanishidagi oʻtgan qisqa davrda respublikani suveren davlat sifatida qaror toptirish yuzasidan ulkan ishlar amalga oshirildi. Hozir Oʻzbekistonni 200 taga yaqin davlat tan olgan. Dunyodagi 140 dan ortiq mamlakatlar bilan rasmiy diplomatiya aloqalari oʻrnatilgan. Toshkentda 38 mamlakat oʻz elchixonasini ochgan.

Bugungi kunda Oʻzbekiston toʻla huquqli asosda eng obroʻli va nufuzli tashkilotlar tarkibiga kirgan boʻlib, barcha qitʼalardagi oʻnlab mamlakatlar bilan doʻstona aloqalarni rivojlantirib bormoqda. Eng yirik bank va moliya organlari, nodavlat va nohukumat tashkilotlari bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda. Oʻzbekiston mintaqaviy xalqaro tashkilotlar, chunonchi,

Yevropa Ittifoqi, EXHT, NATO, EKO, OIK va boshqalar bilan ham samarali hamkorlik qilmoqda.

Biz tashqi aloqalarni xalqaro munosabatlarning turli yo‘nalishlari bo‘yicha muvaffaqiyatli rivojlantirishni xavfsizlik va barqarorlikning kafolati deb bilamiz. O‘zbekiston dunyo uchun ochiq.

Topshiriq. Matnni o‘qing va unga reja tuzing.

Buyuk Ipak yo‘li

G‘arb bilan Sharqni bir necha ming yillar davomida bir-biriga bog‘lab kelgan yo‘llardan biri “Buyuk Ipak yo‘li” dir. Bu yo‘l fanga “Ipak yo‘li” nomi bilan faqat XIX asrning 70-yillaridan boshlab nemis olimi Ferdinand fon Rixtgofen tomonidan kiritildi. Unga qadar bu yo‘l “G‘arbiy meridional yo‘l” deb atalar edi

“Buyuk Ipak yo‘li” orqali Sharq va G‘arb mamlakatlari savdo va elchilik aloqalarini qilganlar. Jumladan, Xitoy hukmdorlari o‘z elchilarini katta sovg‘a-salomlar bilan Markaziy Osiyo, Eron, Mesopotamiya va Kichik Osiyo davlatlariga yuborganlar.

Shimoli-g‘arbiy ipak yo‘li faqat iqtisodiy jihatdan ahamiyatli bo‘lib qolmasdan, ayni paytda u diniy, madaniy meros yutuqlarini tarqatuvchi, mamlakatlararo diplomatik aloqalarni ta‘minlovchi yo‘l ham edi. Xitoy hukmdorlari yollagan turkiy suvoriylariga ipak parchalaridan xom ashyo tarzida maosh to‘laganlar. Ipak Xitoydan arzon narxlarda Markaziy Osiyoga So‘g‘d savdogarlari orqali olib kelingan. Xususan, samarqandlik so‘g‘dlar xalqaro savdoda ustasi farang bo‘lganlar. Qadim zamonlarda savdogarlar xalq orasida eng nufuzli, obro‘li insonlar edilar. Chunki ular faqat mol olib, mol sotuvchi va undan foyda oluvchi jamiyatning qatlamigina emas edilar, balki uzoq safarlarga katta savdo karvonlari bilan boruvchi savdogar-elchilar, ziyo va madaniyat, yangiliklar tarqatuvchilar, u yoki bu hududdan yangi joylarga ilg‘or xo‘jalik ixtirolarini olib boruvchi nufuzli kishilar ham bo‘lganlar. Ayni paytda ular o‘zga mamlakatning urf-odatlarini, kuchi va qudrati, hududiy joylashishi, tabiati va davlatni boshqarish tizimini chuqur bilishda o‘ta hushyor davlat ayg‘oqchilari ham bo‘lganlar.

“Ipak yo‘li” orqali Xitoydan g‘arb mamlakatlariga, asosan, ipak, ilk o‘rta asrlardan boshlab qog‘oz chiqarilgan bo‘lsa, g‘arb mamlakatlaridan Xitoyga shisha, jundan ishlangan har xil gazlamalar, gilam, palos, oyna, metall, zeb-ziynat bezaklari, qimmatbaho toshlar, har xil dorivorlar, otlar olib borilgan.

Xullas, “Buyuk Ipak yo‘li” Markaziy Osiyo xalqlarini siyosiy, iqtisodiy, madaniy va savdo sohasidagi hayotida katta o‘rin tutgan, o‘lka xalqlari bu yo‘l tufayli G‘arb va Sharq dunyosi hamda ularning xo‘jalik ixtirolaridan foydalanganlar.

Topshiriq. *Matnni o‘qing va savollar tuzing.*

TOSHKENTNING O‘N IKKI DARVOZASI

Movarounnahrning eng qadimiy shaharlaridan biri bo‘lgan Shosh (Toshkent) o‘zining uzoq va qiziqarli tarixida o‘zaro feodal urushlar hamda xorijiy bosqinchilar istilosi natijasida necha bor buzilib, necha bor qayta tiklangan. Sharq mamlakatlarida, jumladan, O‘rta Osiyoda yirik shaharlar qo‘rg‘on bilan o‘rab olinganligi, ularning bir necha darvozasi bo‘lganligi bizga qadar yetib kelgan tarixiy ma‘lumotlardan ayon.

O‘tgan XVIII- XIX asrlarda bu shaharning 12 ta darvozasi bo‘lib, bular: Samarqand, Ko‘kcha, Chig‘atoy, Sag‘bon, Qorasaroy, Taxtapul, Labzak, Qashg‘ar, Beshyog‘och, Qo‘qon, Qaymast va Komolon darvozalaridir. Ushbu darvozalardan kirilgach, eng avval guzarli keng maydonga chiqilgan, bu guzargohlar 1920 - yillarning oxiriga qadar juda obod bo‘lgan.

Afsuski, shaharning ko'hna darvozalari shu kunlarda saqlanib qolmagan. Lekin ularning nomi va qayerda joylashganligi to'g'risida yetarli ma'lumotlar bor.

Darvozalar shaharning hozirgi o'zaro joylashishiga nisbatan taxminan quyidagi joylarda joylashgan: Komolon – hozirgi “Baxt” ko'chasida; Qaymast - O'zbekiston ko'chasidan 9-yanvar ko'chasiga burilish yerida; Qo'qon – Mustaqillik maydonida; Beshyog'och - Beshyog'och dehqon bozori bilan madaniyat va istirohat bog'i oralig'ida; Qashg'ar – Qashg'ar mahallasi guzari (hozirgi Markaz – 4 mikrorayonida); Labzak – Xurshid ko'chasi bilan Anhor kesishgan joyda; Taxtapul – Sobir Rahimov ko'chasidagi Kaykovus anhoriga qurilgan ko'prik yaqinida; Qorasaroy – Qorasaroy ko'chasining guzarida; Sag'bon – Sag'bon ko'chasidagi 11-maktab bilan Kaykovus oralig'ida ; Chig'atoy – Chig'atoy ko'chasidagi Chig'atoy darvozasi guzarida; Ko'kcha – Ko'kcha guzarida; Samarqand – hozirgi “Samarqand darvozasi” ko'chasining guzari atrofida bo'lgan.

Bu darvozalar faqat qamal paytlaridagina emas, balki tinch vaqtlarda ham har kuni qoronqu tushishi bilan berkitib qo'yilar edi. Ertalab barvaqt ochilar, karvonlar sayyohlar va darveshlar, boyonlar va amaldorlar yayov va foytunlarda viqor bilan kech oqshomga qadar kirib-chiqib turganlar. Bu darvozalarni doimo maxsus soqchi (darvozabon) lar qo'riqlab turar edilar.

Kechqurun darvozalar taqa – taq yopilib, shahar ichkarisiga tashqaridan hech kim kiritilmagan. Keluvchilar kim bo'lishidan qat'iy nazar darvoza tashqarisida tunab qolishga majbur bo'lishgan.

Go'zal shahrimizning o'n ikki darvozasining o'n ikki kaliti nusxalari hozirgi kunda O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyining ko'rgazma bo'limida tartib bilan terib qo'yilgan. Ularning oltindan yasalgan asl nusxalari esa Moskvada – sobiq SSSR Davlat bankida saqlanmoqda.

Lug'at

Tarix va zamonamiz - история и современность

Ona shahrim – родной город

Buyuk allommalar – Великие мыслители

Byuk Ipak yo'li – Великий Шелковый путь

Tarixiy yodgorliklar – исторические памятники

Qadimiy obidalar – исторические досто примечательности

Ulug' siymolar – Великие личности

Ko'hna shaharlar – Древние города

Amir Temur saltanati – государство Амира Темура

Zamonaviy binolar – современные здания

Bu yurtida yashovchi kishi – Человек проживающий в этой стране

Qosh qorayganda – сумерки

Tarixiy shaharlar – исторические города

Kelib chiqish – возникновение

Topshiriq:

1. O'zbekiston tarixi va bugunini qiyosan gapirib bering.
2. O'zbekiston taraqqiyoti nimalarda ko'rinadi? Buni “Klaster” orqali tasvirlang.
3. Matndagi qisqartma otlarni kengaytirib yozing.
4. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan qo'shma korxonalaridan qaysilarni bilasiz? Shu haqda gapirib bering.

Vazifa:

1. “O'tmish va kelajak” mavzusida esse yozing.

GRAMMATIKA: TILNING LEKSIK QATLAMLARI. QO'SHIB YOZISH VA AJRATIB YOZISH



O'zbek xalqi, ma'lumki, eng qadimgi turkiy urug' va qabilalardan o'sib chiqqan, demak, uning tili ham shu urug' va qabilalar tili negizida

rivoj topgan. Markaziy Osiyodagi turli tarixiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, xususan, arablar, mo'g'ullar va ruslar istilosi, qardosh qozoq, qirg'iz, turkman, tojik xalqlari bilan qo'shnichilik munosabatlari ham o'zbek tili taraqqiyotiga jiddiy ta'sir o'tkazgan, bunda, ayniqsa, turkiy-arab, o'zbek- arab, o'zbek-tojik, o'zbek-qozoq, o'zbek-qirg'iz va o'zbek-turkman bilingvizmi kabi omillarning roli katta bo'lgan. Ana shu tarixiy jarayonlar nuqtayi nazaridan qaralganda, hozirgi o'zbek tilining lug'at boyligida ikkita yirik qatlam — o'z va o'zlashgan qatlamlar borligi ma'lum bo'ladi.

O'z qatlam — o'zbek tili leksikasining umumturkiy so'zlar va sof o'zbek so'zlaridan iborat qismlari.

Umumturkiy so'zlar o'zbek tili leksikasining eng qadimgi lug'aviy birliklari — so'zlaridirdir. Ularning aksariyati hozirgi qozoq, qirg'iz, turkman, ozarbayjon tillarida ham saqlangan. Qiyos qiling: *bosh* (o'zb.) — *bas* (qoz., qoraq.) - *bash* (qirg'., turkm.); *til* (o'zb., qoz., qirg'.) — *dil* (turkm., ozarb., gagauz.); *tog'* (o'zb.) — *too* (qirg'.) — *tav, tau* (qoraq., qoz.) — *dag'* (turkm., ozarb.) kabi.

Sof o'zbek so'zlari — o'zbek tilining o'zida yasalgan so'zlar - leksemalar. Ular o'z qatlamning ikkinchi (nisbatan yangi) qismini tashkil qiladi. Bunday yasalishning quyidagi turlari bor:

semantik usul - ma'no taraqqiyoti mahsuli sifatida yangi so'zlarning yuzaga kelishi: *ko'k* («rang») — *ko'k* («osmon»), *yetti* («son») — *yetti* («ma'raka nomi»), *yupqa* (sifat) - *yupqa* (ot: «ovqatning bir turi») kabi;

affiksatsiya usuli- Bunda o'zak va affikslar turli til materiallari bo'lishi mumkin, ammo ularning qo'shilishi o'zbek tili tarkibida yuz beradi, o'zbek tilining so'z yasash qoliplariga asoslanadi, shu sababli bunday yasama so'zlar o'zbek tilining o'z qatlami birligi sanaladi. Masalan: *bosh* (umumturkiy)+ «-la» (o'zb.) — *boshla* (o'zb.), *temir* (umumturkiy) + «-chilik» (o'zb.) — *temirchilik* (o'zb.) *Jang* (f-t.) + «-chi» (o'zb.) — *jangchi* (o'zb.), *madaniyat* (ar.) + «-li» (o'zb.) — *madaniyatli* (o'zb.), *obuna* (r-b.) + «~chi» (o'zb.) — *obunachi* (o'zb.), *axta* (mo'g'.) + «-chi» (o'zb.) — *axtachi* (o'zb.), «be-» (f-t.) + *bosh* (umumturkiy) — *bebosh* (o'zb.) + «-lik» (o'zb.) — *beboshlik* (o'zb.), *bil* (umumturkiy) + «-im» (o'zb.) — *bilim* (o'zb.) + «-don» (f-t.) — *bilimdon* (o'zb.) kabi.

Sof o'zbek so'zlarining yasovchi asosi arabcha yoki ruscha-baynalmilal bo'lganda, yasalmaning o'zagi yoki asosida ikki unli yonma-yon kelishi, so'z boshida ikki-uch undosh qatorlashishi mumkin: *maorifchi, matbaachi, doirachi, saodatli, manfaatli, dramnavislik, drenajlanmoq, plakatbop, planbozlik.*

O'zlashgan qatlam — o'zbek tili leksikasining boshqa tillardan o'zlashtirilgan leksemalardan iborat qismi. Masalan: *maktab, oila* (ar.), *daraxt, gul* (f-t.), *axta, bahodir* (mo'g'.), *afandi* (turk.), *ravshan* (sug'd.), *traktor, avtobus* (r-b.) va b.lar. Bu qismda arab, tojik-fors va rus tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar ko'pchilikni tashkil qiladi.

Arab tilidan o'zlashtirilgan so'zlar. Bunday so'zlarning o'zlashtirishi VIII asrdan boshlanib, IX—X asrlarda ancha faollashgan. Arab tilidan so'z o'zlashtirilishiga olib kelgan omillar ichida quyidagilar muhim rol o'ynagan: a) arablar istilosi; b) islom dinining keng tarqalishi; d) arab yozuvining qo'llana boshlanganligi; e) madrasalarda arab tilining o'qitilishi;

turkiy-arab ikki tilliligining (bilingvizmning) tarkib topganligi; g) olim-u fuzalolarning arab tilida ijod qilganligi va b.lar.

Hozirgi o'zbek tili leksikasida arab tilidan o'zlashtirilgan leksemalarning ko'pchiligi ot, sifat va ravish turkumlariga mansubdir: otlar — *adabiyot, axborot, avlod, ayol, maktab, maorif, ma'naviyat, odam, haqiqat, intizom* va b.lar; sifatlar — *adabiy, aziz, azim, ayyor, aqliy, badiiy* va b.lar; ravishlar — *avval, ba'zan* kabi. Bularidan tashqari, bog'lovchilar (*balki, ammo, lekin, va, vaholonki*), undovlar (*ajabo, barakalla, salom, xayr*), modal so'zlar (*albatta, ehtimol, avvalo*), yuklamalar (*faqat*), ko'makchilar (*binoan*) ham o'zlashtirilgan.

Arab tilidan so'z o'zlashtirilishi o'tmishda faol bo'lgan, hozir esa bu jarayon deyarli to'xtagan.

Arab tilidan o'zlashtirilgan so'zlarga misol: *matbaa, mutolaa, saodat, oila, doir, e'lon, me'mor, ta'lim, e'tibor, san'at, adabiyot, san'at, tabiiy, ilm, muallim, olim, fikr, tafakkur.*

Fors-tojik tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar. Bunday so'zlarning o'zbek tiliga o'zlashtirilishida quyidagi omillarning alohida roli bor: a) o'zbek va tojik xalqlarining qadimdan bir (yoki qo'shni) territoriyada, bir xil ijtimoiy tuzum, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy muhitda yashab kelayotganligi; b) o'zbek-tojik va tojik-o'zbek ikki tilliligining (bilingvizmi-ning) keng tarqalganligi; d) tojik va fors tillarida ijod qilish an'alarining uzoq yillar davom etganligi; e) Qo'qon xonligi va Buxoro amirligida tojik tilining alohida mavqega ega bo'lganligi; f) adabiyot, san'at, madaniyat, urf-odatdagi mushtaraklik va b.lar.

Hozirgi o'zbek tilida tojik-fors tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar orasida otlar (sartarosh, bazm, barg, baxt, daraxt, daraxtzor, hunar, hunarmand), sifatlar (badjahl, batand, baravar, baxtiyor, ozoda, toza), ravishlar (do'stona, tez, bazo'r, astoydil), bogiovchilar (chunki, yoki, agar, garchi, ham), undovlar (balli, dod), yuklamalar (xo'sh), modal so'zlar (chunonchi, binobarin) uchraydi.

Fors-tojik tillaridan o'zlashtirilgan so'zlarga misol: *g'isht, go'sht, daraxt, do'st, farzand, nobud, bahor, obodon, peshona* kabi.

Tojik-fors tillaridan o'zbek tiliga bir qator prefiks va suffikslar ham o'zlashgan: prefikslar — «be-», «ba-», «no-», «ham-», «bar-», «kam-», «xush-»; suffikslar «-kor», «-zor», «-xo'r», «-parvar», «-kash», «-bop», «-boz», «-do'z», «-namo», «-paz», «-furus» va b.lar. *Masalan: badavlat, beayov, bebosh, beboshlik, nosog', noto'g'ri, hamkurs, hamyurt, barkamol, kamsuv, kamsuvlik, kamsuqum, kamsuqumlik, xushbichim, xushyoqmas, o'rikzor, olmazor, bug'doyzor, bug'doykor, tekinox'r, adolatparvar, chizmakash, somsapaz, yubkabop, kastumbop, gruppaboz kabi. Bulardan tashqari, tojik tilidan o'zlashgan xona, noma so'zlari o'zbek tilida affiksoid vazifasida qo'llanib, oynoma, ishxona, bosmaxona kabi so'zlarning yasaliishida ishtirok etgan.*

Ruscha-baynalmilal so'zlar — o'zbek tiliga rus tilidan va u orqali Yevropa tillaridan o'zlashtirilgan leksemalar: *gazeta, jurnal, avtobus, trolleybus, teatr, roman, sujet, geometriya, fizika, matematika, traktor, kombayn, raketa, avtomat, armiya* va b.lar.

Rus tilidan so'z o'zlashtirilishiga ko'proq quyidagi omillar sabab bo'lgan:

a) Chor Rossiyasining o'lkani bosib olishi; b) sho'rolar davrida rus tilining millatlararo til mavqeyiga ega bo'lishi, bu mavqening yildan-yilga mustahkamlanib borishi; d) o'zbek-rus ikki tilliligining tarkib topishi;

matbuot, radio, televideniya rus tiliga keng o'rin berilishi; d) maktab- maorif tizimida, oliy o'quv yurtlarida rus tilining maxsus o'qitilishi; f) ilm-fan terminologiyasining shakllantirilishida ruscha-baynalmilal atamalarga ko'proq tayanish; g) ma'muriy-idoraviy ish qog'ozlarining asosan rus tilida yozilishi va b.lar.

Rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlar: kilogramm, litr, millimetr, santimetr, kilometr, sekund, tonna, zavod, fabrika, sex, stanok, teorema, kvadrat, sport, gazeta, transport, mashina, avtomobil, avtobus, poyezd, teatr, spektakl, rejissor, opera, drama, (radio, televizor, lampa, artilleriya, avtomat, tank, raketa, professor, standart, drama, indeks, feodal va medal.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, yangi ijtimoiy-siyosiy tuzum taqozosi bilan hamda iqtisoddagi va ta'limdagi islohotlar tufayli o'zbek tili leksikasida yangi ruscha- baynalmilal o'zlashmalar paydo bo'ldi: *investitsiya, marketing, minimarket, supermarket, test, reyting, litsey, kollej* va boshqalar shular jumlasidandir.

Tekshirish savollari va topshiriqlar

1. O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti jarayonida so'z va leksemalarning qanday qatlamlari yuzaga kelgan?

2. O'z qatlam qanday so'zlardan tarkib topgan?

3. Qanday so'zlar umumturkiy so'zlar sanaladi?

4. Sof o'zbek so'zlari qanday yuzaga kelgan?

5. O'zlashgan qatlam qanday so'zlardan tarkib topgan?

6. Arab tilidan so'zlarga misol ayting.

7. Fors-tojik tillaridan soʻzlarga misol ayting. soʻzlarga misol ayting.

8. Ruscha-baynalmilal soʻzlar haqida maʼlumot bering.

Tayanch tushunchalar

Oʻz qatlam — oʻzbek tili leksikasining umumturkiy va sof oʻzbekcha soʻzlardan iborat qismi.

Oʻzlashgan qatlam — boshqa tillardan olingan leksik oʻzlashmalar qatlami.

Umumturkiy soʻzlar - oʻzbek tili lugʻat boyligidagi eng qadimgi lugʻaviy birliklar.

Sof oʻzbekcha soʻzlar — oʻzbek tilining oʻzida yasalgan (nisbatan yangi) leksemalar.

Arabcha oʻzlashmalar - arab tilidan oʻzlashtirilgan soʻzlar.

Fors-tojik soʻzlari — fors-tojik tillaridan oʻzlashtirilgan soʻzlar.

QOʻSHIB YOZISH

1. Xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab kabi soʻzlar yordamida yasalgan qoʻshma ot va qoʻshma sifatlar qoʻshib yoziladi: qabulxona, tabriknoma, taklifnoma, bedapoya, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bugʻdoyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab kabi.

2. -(a)r (inkor shakli -mas) qoʻshimchasi bilan tugaydigan qoʻshma ot va qoʻshma sifatlar qoʻshib yoziladi: oʻrinbosar, otboqar, choʻlquvar, ishyoqmas, qushqoʻnmas kabi.

40. Takror taqlid soʻzlarga qoʻshimcha qoʻshish bilan yasalgan ot va feʼllar qoʻshib yoziladi: pirpirak (pir—pir+ak), bizbizak (biz—biz+ak), hayhayla (hay—hay+la), gijgijla (gij—gij+la) kabi.

3. Narsani (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), oʻxshatish yoʻli bilan bildiruvchi qoʻshma ot va qoʻshma sifatlar qoʻshib yoziladi: karnaygul, qoʻziqorin, otquloq, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirgʻiykoʻz kabi.

4. Narsani uning rangi, mazasi, oʻzidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qoʻshma otlar qoʻshib yoziladi: olaqargʻa, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq kabi.

5. Narsaning biror maqsad, ish uchun moʻljallanganligini bildiruvchi qoʻshma otlar qoʻshib yoziladi: kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, molqoʻra, nosqovoq, koʻzoynak kabi.

6. Narsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qoʻshma otlar qoʻshib yoziladi: togʻolcha, choʻlyalpiz, suvilon, qashqargul kabi.

7. Marosim, afsona kabilarni bildiruvchi qoʻshma otlar qoʻshib yoziladi: kiryuvdi, kelintushdi, qoryogʻdi, Urtoʻqmoq, Ochildasturxon kabi.

8. Qaratuvchili birikmaning bir soʻzga aylanishi bilan yuzaga kelgan qoʻshma otlar qoʻshib yoziladi: mingboshi, soʻzboshi, olmaqoqi kabi.

9. Ikkinchi qismi turdosh ot bilan yoki obod soʻzi bilan ifodalangan joy nomlari qoʻshib yoziladi: Yangiyoʻl, Toʻrtkoʻl, Mirzachoʻl, Sirdaryo, Kosonsoy, Yangiobod, Xalqobod kabi. Lekin ikkinchi qismi atoqli ot boʻlgan joy nomlari ajratib yoziladi: Oʻrta Osiyo, Koʻhna Urganch, Oʻrta Chirchiq kabi.

10. Pyc tilidan aynan oʻzlashtirilgan yoki soʻzma-soʻz tarjima qilish yoʻli bilan iosil qilingan qoʻshma soʻzlar qoʻshib yoziladi: kinoteatr, radiostansiya, fotoapparat, elektrotexnika, telekoʻrsatuv, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti kabi.

11. Qisqartmalarning barcha turlari va ularga qoʻshiladigan qoʻshimchalar qoʻshib yoziladi. SamDU, ToshDUning kabi. Lekin yonma-yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi: OʻzXDP MK (Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi) kabi.

12. Bir tovush ikki va undan ortiq tovush tarzida aytilsa, bunday iolat harfni takror yozish bilan koʻrsatiladi: uoʻoʻq, nima, himm, uff kabi.

AJRATIB YOZISH

1. Qo'shma fe'lning qismlari ajratib yoziladi: sarf qil, ta'sir et, tamom bo'l, sotib ol, olib kel, olib chiq, miq etma kabi.
2. Ko'makchi fe'l va to'liqsiz fe'l mustaqil fe'ldan ajratib yoziladi: aytib ber, olib ko'r, so'rab qo'y, ko'ra qol, bera boshla, yiqila yozdi; ketgan edi, ketgan ekan, ketqan emish kabi. Lekin mustaqil fe'l bilan yordamchi fe'l orasida tovush o'zgarishi bo'lsa, bunday qismlar qo'shib yoziladi: aytaver (ayta ber), boroladi (bora oladi), bilarkan (bilar ekan) kabi.
3. Ko'makchilar ajratib yoziladi: shu bilan, soat sayin, borgan sari, bu qadar, kun bo'yi kabi. Lekin bilan ko'makchisining -la shakli, uchun ko'makchisining -chun shakli chiziqcha bilan yoziladi: sen-la, sen-chun kabi.
4. Hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, o'sha so'zlari o'zidan keyingi yoki oldingi so'zdan ajratib yoziladi: hamma vaqt, har kim, hech qaysi, qay kuni, u yerda, shu yoqdan, o'sha yoqqa kabi. Lekin birpas, biroz, birato'la, birvarakayiga, birmuncha, buyon so'zlari qo'shib yoziladi. Shuningdek, qay so'zi yoq, ueg so'zlari bilan ishlatilganda, bir u tovushi tushsa, bu so'zlar qo'shib yoziladi: qayoqqa, qayerda kabi.
5. Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan to'q, jiqqa, tim, liq, lang, och kabi so'zlar ajratib yoziladi: to'q qizil, jiqqa ho'l, tim qora, liq to'la, lang ochiq, och sariq kabi.
6. Murakkab son qismlari ajratib yoziladi: o'n bir, besh yuz, qirq ming olti yuz bir, bir ming yetti yuz sakson beshinchi kabi.
7. Yildan yilga, tomdan tomga kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan birikmalar ajratib yoziladi.
8. Belgining ortiq darajasini bildiruvchi ko'pdan ko'p, tekandan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizidi kabilar ajratib yoziladi.
9. Izofali birikmalar ajratib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan so'zlarga i shaklida, unli bilan tugagan so'zlarga yi shaklida qo'shiladi: dardi bedavo, nuqtayi nazar, tarjimayi hol kabi. Lekin izofa yozilmaydigan so'zlar, shuningdek, qismlaridan biri yoki har ikkisi o'zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan so'zlar qo'shib yoziladi: gulbeor (guli beor), dardisar kabi.



1- mashq. Nuqtalar o'rniga quyidagi so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring va qo'shma so'zlarning tagiga chizing.

Yangiyo'l, poliz, anor, Navoiy, Angren, Sharof Rashidov, anjir, toshko'mir, Nurota.

1. Tumanlararo musobaqada ... tumani o'quvchilari g'olib chiqdi.
2. ... tumanida yog' zavodi bor.
3. ... tumani paxta tayyorlash rejasini muddatidan avval bajardi.
4. ... ko'mir koni xalqimizga ... yetkazib bermoqda.
5. Dam olish kuni biz buvamning qovun ... chiqdik.
6. Bizning bog'imizda ... va ... bor.
7. Xalq shoiri Ergash Jumanbulbul ... tumanida tug'ilgan.

2-mashq. So'zlarni qo'shib yoki ajratib yozish qoidalari asosida ikki guruhga bo'lib ko'chirib yozing.

Ko'z//oynak, sotib//olmoq, alla//qachon, shu//yerga, baland//parvoz, xom//semiz, tinchlik//sevar, umum//davlat, shaharlar//aro, shirin//so'z, jigar//rang, besh//kokil, otash//qalb, g'ayrat//qilmoq, bilag//uzuk, Yakka//saroy, Olti//ariq, Qum//qo'rg'on, Sot//voldi, kino//yulduz, radio//markaz, tele//tanlov

3- mashq. *Qo'shib yoziladigan va ajratib yoziladigan s'zlarga beshtadan misol yozing.*

5-mavzu. ULUG' AJDODLARIMIZ.


Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi atama va iboralarning ma'nosini izohlash. Matnni kengaytirib so'zlab berish. Matnni qismlarga bo'lib, har bir qismni nomlash.

Yozma nutq: Mashhur allomalardan biri haqida taqdimot tayyorlash. Buyuk allomalarimizning asarlari ro'yxatini tuzish.

Grammatika: Atamalar va ularning vujudga kelishi. Bo'g'in ko'chirish qoidalari. Chiziqcha bilan yozish.

Tayanch so'z va iboralar: *ajdod, alloma, atamalar, bo'g'in, bo'g'in ko'chirish, imlo qoidalari, chiziqcha bilan yozish, juft so'z, takroriy so'z, yuklama.*

O'QISH UCHUN QO'SHIMCHA MATERIALLAR O'ZBEK MA'NAVIYATINING YULDUZLARI



Muso Al – Xorazmiy (783 – 850)


Xorazmiy dunyo faniga g'oyat katta hissa qo'shdi. U algebra fanining asoschisi bo'ldi. Uning arifmetika risolasi hind raqamlariga asoslangan bo'lib, hozirgi kunda biz foydalanadigan o'nlik pozitsion hisoblash sistemasi va shu sistemadagi amallarning Ovro'poda tarqalishiga sabab bo'ldi. Olimning "Al – Xorazmiy" nomi esa "algoritm" shaklida fanga abadiy o'rnashib qoldi. Uning geografiyaga doir asari esa arab tilida o'nlab geografik asarlarning yaratilishiga zamin yaratdi. Xorazmiyning "Zij"i Ovro'poda ham, Sharq mamlakatlarida ham astronomiyaning rivojlanish yo'lini ko'rsatib berdi.

Xorazmiy Xorazm o'lkasida tug'ilib o'sdi. Adabiyotlarda 783-yil uning tug'ilgan yili deb qabul etilgan. U dastlabki ma'lumot va turli sohadagi bilimlarni asosan o'z yurtida, Markaziy Osiyo shaharlarida ko'pgina ustozlardan olgan.

Xorazmiyning arifmetik risolasi hind raqamlariga asoslangan o'nlik pozitsion hisoblash sistemasining Ovro'poda qolaversa butun dunyoda tarqalishida buyuk arablar orqali o'tganligi uchun ular "arab raqamlari" deb ataladi va hozir ham shunday deb atalib kelinmoqda. Ovro'poliklar uzoq vaqtgacha hind raqamlariga asoslangan hisob tizimini "algorizmi" deb atab keldilar. Faqat XVI asr o'rtalaridagina bu nom "arifmetika" iborasi bilan almashtiriladi. Shundan keyin to hozirgi "algorizm" yoki "algoritm" deganda har qanday muntazam hisoblash jarayoni tushuniladigan bo'ldi. Bu ibora bilan Al-Xorazmiyning nomi fanga abadiy kirib qoldi.

Abu Nasr Forobiy

(8 7 3 - 9 5 0)



Forobiy jahon madaniyatiga katta hissa qo'shgan Markaziy osiyolik mashhur faylasuf, qomusiy olim. O'rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida taraqqiyparvar, ijtimoiy-falsafiy tasavvurlarning barcha sohasini mukammal bilganligi va bilimlar rivojiga katta hissa qo'shganligi, Yunon falsafasini sharhlab dunyoga keng tanitganligi tufayli Sharq mamlakatlarida uning nomi ulug'lanib "Al-muallim assoniy" – "Ikkinchi muallim" (Aristoteldan keyin), "Sharq Arastusi" deb yuritilgan.

Forobiy boshlang'ich ma'lumotni ona yurtida oldi. So'ng Toshkent (Shosh), Buxoro, Samarqandda o'qidi. Keyinroq o'z ma'lumotini oshirish uchun Bag'dodga keldi. Bag'dodda bu davrda musulmon dunyosining turli o'lkalaridan, xususan Markaziy Osiyodan kelgan ko'p ilm ahllari to'planishgan edi.

Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, o'ndan ortiq tilni bilgan. Taxminan 941- yildan boshlab Forobiy Damashqda yashagan. Shahar chekkasidagi bog'da qorovul bo'lib, kamtarona kun kechirib ilm bilan shug'ullangan.

Forobiy shaharni ijtimoiy uyushishning yetuk shakli, insoniyat kamolotga erishishning zaruriy vositasi, deb hisoblaydi. Butun insonlarni o'zaro hamkorlikka, xalqlarni tinchlikka chaqiradi, dunyoda yagona inson jamoasini tuzish haqida orzu qiladi. Mutafakkir inson qadriyatini kamsituvchi jamiyatga qarshi chiqadi.

"Davlat arbobining hikmatlari" risolasida esa u doimiy urushlar va bosqinchilikka asoslanuvchi jamiyatni adolatsiz, johil jamiyat sifatida qoralaydi.

Forobiy o'zining fozil jamoasida odamlarni turli belgilariga qarab guruhlarga bo'ladi. Kishilarning diniy mazhabiga, millatiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy xususiyatlariga, qobiliyatlariga, avvalo aqliy iqtidoriga hamda ilmlarni o'rganish, hayotiy tajriba to'plash jarayonida orttirgan bilim ko'nikmalariga katta ahamiyat beradi. Itoatkorlikka da'vat etuvchi ta'limotlarni keskin qoralaydi.



Abu Ali ibn Sino

(980-1037)

Ibn Sino (asl ismi Husayn, otasining ismi Abdulloh) Buxoroning Afshona qishlog'ida hijriy 370 (980)- yilning safar oyida amaldor oilasida tug'ildi.

986- yildan ibn Sino oilasi Buxoroga ko'chib keldi va shu vaqtdan boshlab yosh Husayn boshlang'ich ma'lumot olishga, ilm-fanni o'rganishga kirishadi.

16-17 yoshidayoq ibn Sino mashhur tabib-hakim bo'lib tanildi. 999- yilda Buxoro Qoraxoniylar tomonidan zabt etilgach, Somoniylar hokimiyati inqirozga uchradi. 1000- yilda ibn Sino Buxorodan chiqib ketdi va madaniyat markazlaridan biri hisoblangan Xorazmga bordi, u yerda Xorazm hokimi Ali ibn Ma'mun saroyidagi olimlarni birlashtirgan o'z zamonasining akademiyasiga qabul qilindi. Ibn Sino Beruniy, Abu Sahl Masihiy, Abulxayr Hammor, Abu Nasr ibn Irod kabi yetuk olimlar bilan yaqindan tanishdi. Lekin bu davrda kuchayib borayotgan Mahmud G'aznaviyning ta'qibidan o'chib, Xorazmni tashlab ketishga va Xuroson, Eronning turli shaharlarida sarson-sargardonlikda yurishga majbur bo'ldi.

Ibn Sinoning hayot yo'li o'zi yozgan tarjimai holi va shogirdi Jurjoniy tomonidan qoldirilgan manbalardan ma'lum. Ibn Sino asarlarining umumiy soni 450 dan oshadi, lekin bizgacha faqat 160 ga yaqin asari yetib kelgan, xolos. Uning bizga ma'lum bo'lgan katta asari "Kitob ush-shifo" ("Shifo kitobi") 22 jilddan iborat bo'lib, 4 ta katta bo'limini mantiq, fizika, matematika, metafizikaga doir masalalar egallagan. Uning ayrim qismlari lotin tiliga, Ovro'padagi boshqa tillarga, sharq tillariga, shuningdek, rus, o'zbek tillariga tarjima qilingan.

Ibn Sinoning "Kitob ush-shifo" asarida turli tibbiyot ilmlariga: botanika, geologiya, mineralogiya, astronomiya, matematika, kimyoga oid ko'p ma'lumotlar keltiriladi. Uning tog'larining vujudga kelishi, yer kurrasining davrlar o'tishi bilan o'zgarib borishi, zilzilaning sabablari kabi turli jarayonlar haqidagi fikrlari keyinchalik geologiya ilmining mustaqil ravishda rivoj topishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ayrim joylarning bir vaqtlar dengiz bo'lganligi, shu sababli qattiq qatlamlarda turli dengiz hayotlarining izlari saqlanib qolganligi haqida ham turli misollar asosida fikr yuritiladi; meteoritlar, vulqonlar haqida ma'lumotlar keltiriladi. Mineralogiya, uning rivojida ham ibn Sinoning xizmatlari katta. U minerallarni 4 guruhga ajratadi: 1) toshlar; 2) eriydigan qism (metal)lar; 3) oltingugurtli yonuvchi qismlar; 4) tuzlar.

Kimyoda ham ibn Sino zamonasining bilimlarini umumlashtirishga harakat qilib, turli asarlar yozdi, tajribalar o'tkazdi. Xususan, uning organik kimyo sohasidagi fikrlari keyingi davr mutaxassislari tomonidan yuqori baholandi. U oddiy metallni qimmatli metallga aylantirish ustida fikr yurituvchi alximiklarni tanqid qildi. Ibn Sino astronomiya sohasida Ptolomeyning geotsentrik nazariyasidan tashqari chiqmagan bo'lsa-da, tabiiy hodisalarning ichki sababiy bog'lanishini aniqlashga harakat qildi, inson hayoti va ijtimoiy hodisalarni osmon jismlari harakati holatiga bog'lovchi astrologiyaga shubha bilan qaradi, turli tajribalar o'tkazish uchun yangi astronomik asbob yaratish, botanikada turli o'simliklarning tabiiy xususiyatlarini o'rganish, ilmiy terminologiya yaratish sohasida ish olib bordi.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048)



O'rta asrning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy zamonasining qator fanlari: astronomiya, fizika, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, tarix kabilarni chuqur o'rgandi. U Xorazmning qadimgi poytaxti Kat shahrida tug'ildi va yoshligidanoq ilm-fanga qiziqishi orta bordi. Beruniy keyinchalik mashhur olim Abu Nasr Mansur ibn Iroq qo'lida ta'lim oldi. Ibn Iroq astronomiya, geometriya, matematikaga oid bir qancha asarlar yozib, shulardan 12 tasini Beruniyga bag'ishlaydi. Beruniy ona tilidan tashqari yana bir qancha tillarni: arab, so'g'diy, fors, suryoniy, yunon va qadimgi yahudiy tillarini, keyinchalik Hindistonda sanskrit tilini o'rganadi.

U 22 yoshida Vatanini tashlab chiqib ketishga majbur bo'ldi va bir qancha vaqt Kaspiy dengizining janubu sharqiy sohilidagi Jurjon shahrida muhojirlikda yashadi. So'ng qadimgi Ray shahriga bordi, 998-yildan keyin yana Jurjonga keldi va bu

yerda o'zining ikkinchi ustoz tabib, astronom, faylasuf Abu Sahl Iso al-Masihiy bilan tanishib, undan ta'lim oldi. Beruniy "Osor al-boqiya analqurun al-xaliya".(Qadimgi halqlardan qolgan yodgorliklar) asarini Jurjonda muhojirlik davrida yoza boshlagan va 1000-yilda tamomlagan. "Osor al-boqiya" Beruniyga juda katta shuhrat keltirdi, uni fanning hamma sohasida qiziquvchi buyuk olim ekanini ko'rsatdi. Bundan tashqari Beruniy Jurjonda astronomiya, metrologiya, tarixga oid 10 dan ortiq asar yozdi. Beruniy shoh Ma'munning eng yaqin maslahatchisi sifatida mamlakatning siyosiy ishlarida ham faol qatnashdi.

Xorazmning Mahmud G'aznaviy tamonidan bosib olinishi Beruniy hayotini xavf ostiga qo'yadi. U Xorazmshoh saroyidagi barcha olimlar bilan birga G'azna shahriga asir qilib olib ketiladi. Beruniyning 1017-1048-yillarda G'aznada kechirgan hayoti, bir tomondan, uning ilmiy faoliyati uchun eng mahsuldor davr bo'ldi. Beruniyning "Xorazmning mashhur kishilari" asari ham shu davrda yaratilgan.

Beruniy o'z asarlari ro'yhatini tuzgandan keyin yana ikkita muhim kitobini yozgan. Bulardan biri "Mineralogiya" dir. Bu risola o'z zamonasi uchun Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq, hatto Ovro'poda ham mineralogiya sohasida eng yahshi, tengi yo'q asar hisoblanadi. Beruniyning oxirgi asari –"Dorivor o'simliklar haqida kitob" ining qo'lyozmasi XX asrning 30-yillarida Turkiyada topildi. Asar "Saydona" nomi bilan mashhur, unda Beruniy Sharq, ayniqsa Markaziy Osiyoda o'sadigan dorivor o'simliklarning to'la tavsifini beradi.

Beruniy shogirdi Abu-l Fadl as-Saraxsiy ma'lumoti bo'yicha 11-dekabr 1048-yilda vafot etgan. Toshkentda unga bag'ishlangan qator xalqaro ilmiy konferensiyalar, "Hindiston", "Mas'ud qonuni", "Geodeziya", "Saydona" kabi asosiy asarlarini o'z ichiga oluvchi ko'p tomli saylanma asarlari o'zbek va rus tillarida O'zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan nashr etildi. Ko'chalar, institutlarga uning nomi berilgan. Fan sohasida Beruniy nomida davlat mukofoti ta'sis etilgan.



Amir Temur

Amir Temur ibn amir Tarag'ay 1336-yil 8-aprelda Kesh (Shahrisabz) viloyatining Xo'ja ilg'or qishlog'ida dunyoga kelgan.

Amir Temurning yoshligi haqida ma'lumotlar kam uchrasa-da, ayrim manbalarga qaraganda, u yoshligida xat-savod chiqarib, o'z davrining tibbiyot, riyoziyot, falakiyot, memorchilik va tarix ilmlarini o'rgangan.

Amir Temurning hayoti va faoliyatida ikki davr yaqqol ko'zga tashlanadi. Birinchi davri (1360-1385) Movarounnahrni mo'g'ul xonligidan ozod qilib, yagona markazlashgan davlat tuzish, o'zaro urushlarga barham berish. Ikkinchi davri (1386-1405) esa ikki yillik, uch yillik, besh yillik, deb ataluvchi boshqa mamlakatlarga yurishlari bilan xarakterlanadi.

Temur faoliyatida muayyan siyosiy yo'l-mayda feodal hukmronligini tugatish, muhim halqaro karvon yo'llarida ustunlik qilib turgan Oltin O'rda, Eron va boshqa mamlakatlarning raqobatini yengib, Movarounnahrning siyosiy-iqtisodiy quvvatini ta'minlay oladigan markazlashgan davlat tashkil etish edi. Amir Temur avvalambor mamlakatda davlat tizimini mustakhlamlash, boshqarishdagi tartib-intizom, qonunchilikni kuchaytirish, savdo-sotiq, hunarmandchilikni kengaytirishga imkoniyat yaratish, soliqlarni tartibga solish, mamlakat himoyasini ta'minlash yo'lida qo'shinining qudratini oshirish kabilarga katta e'tibor berdi.

Amir Temurning har bir harbiy yurishiga turtki bo'larlik sabab bor edi. Bu sabablar-o'z davlatining chegaralarini mustahkamlash, tashqi dushmanlardan himoyalaniish, karvon yo'larini turli yo'lto'sarlardan tozalash, xiyonatchi, sotqin, aldamchilarni jazolash, bo'ysunmaganlarni itoat ettirish, o'zining siyosiy tasirini kengaytirish kabilardan iborat bo'lganligini tarixiy manbalardan bilib olish mumkin.

Temur tarixchilar tasviricha, o'rta asrning atoqli davlat va harbiy arboblardan bo'lib, Ovro'po olimlari o'z asarlarida uning salbiy tomonlari bilan birga muhin fazilatlarini ham

ta'kidlab o'tganlar. Nemis olimi F. Shlosser o'zining "Jahon tarixi" asarida: "Baxtiyor jangchi, jahongir, uzoq Sharqda qonunshunos bo'lish bilan birga, Osiyoda kam uchraydigan taktik va strategik bilimlarni ifodaladi; - deb yozsa, atoqli nemis olimi va tarixshunosi M. Veber: "Temur o'z dushmanlariga nisbatan juda berahm edi, lekin sarkardalik, davlatni boshqarish va qonunchilik sohasida buyuk talantga ega edi"-deb ta'riflaydi. Shuningdek, "Tuziki Temur" – "Temur tuzuklari" da ham Temurning jamiyatga, ijtimoiy – siyosiy hayotga qarashi, birlashgan qudratli feodal davlatning siyosiy va ahloqiy qoidalari haqida gap boradi.

Sobiq sovetlar mafkurasi, proletar dunyoqarashi hukmronlik qilgan sharoitda Temur faoliyatiga nisbatan sal'biy munosabatda bo'lindi, o'sha davr adabiyotlarida har doim qoralanib kelindi. Lekin mafkuraviy to'siq taqiqlashlariga qaramay ayrim ilmiy asarlarda Temur haqida ba'zi to'g'ri fikrlar ham bildirildi. Bu jihatdan O'zbekistonda 1968-yili akademik V.M.Mo'minovning "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli" risolasining nashr etilishi muhim voqea bo'ldi. Risola Temur shaxsiga biryozlamali qarashlarga qarshi yozilgan ilmiy asar sifatidagi dastlabki urinish edi. Lekin bu qadam Moskvadagi yuqori idoralar va matbuot organlari tomonidan qoralandi va asar muallifi benihoya aziyatlar chekdi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi eski mafkura siquvidan qutilish, tariximizga to'g'ri munosabatda bo'lish imkonini yaratdi. So'nggi yillarda Amir Temur va uning davrini o'rganishga bag'ishlangan qator manbalar, kitoblar, jumladan, Boriboy Ahmedovning Amir Temur haqidagi katta roman-xronikasi nashr etildi.

Mirzo Ulug'bek (1394 – 1449)



Ulug'bek 1394-yilning mart oyida Eronning g'arbidagi Sultoniya shahrida, bobosi Temurning harbiy yurishi paytida tug'ildi. U Shohruh Mirzoning to'ng'ich o'g'li bo'lib, unga Muhammad Tarag'ay ismi berilgan, lekin bolaligidayoq, u Ulug'bek deb atala boshlab, bu usm keyinchalik unga asosiy ism bo'lib qoldi.

Ulug'bekning bolalik yillari bobosi Temurning harbiy yurishlarida o'tdi. 1405 - yil Xitoyga qilinayotgan yurish boshida Temur vafot etgach, ikki yil davomida uning avlodlari o'rtasida taxt uchun kurash davom etdi va bu kurashda Temurning kenja o'g'li Shohruhning qo'li baland keldi. Lekin Shohruh o'ziga poytaxt qilib Hirotni tanlab, Movarounnahr poytaxti Samarqandni esa o'g'li Ulug'bekka topshirdi. Shunday bo'lsa ham Shohruh Eron va Turonning yagona xoqoni deb hisoblanardi.

Shohruh to'ng'ich o'g'li Ulug'bekni 1411 - yili Movaraunnahr va Turkistonning hokimi etib tayinlaydi. Ulug'bek 17 yoshida hokim bo'lib, bobosidan farqli o'laroq harbiy yurishlar bilan qiziqmas, ko'proq ilm-fanga moyil edi.

Ulug'bek yigirma yoshlarida o'z davrining yirik olimlaridan bo'lib yetishdi, uning hokimligi davridagi muhim yangiliklar butun o'rta asr madaniyati tarixida ulkan ahamiyat kasb etdi.

Ulug'bek barpo etgan Samarqand madrasasi va ilmiy to'garagi Sharq madaniyati va fani tarixida ulkan ahamiyat kasb etdi, mamlakat ravnaqiga, shuningdek, ko'p xalqlarning madaniy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu yerda ko'plab buyuk siymolar shakllandi. Jumladan, Xurosonning Jom shahrida 1414 - yili tug'ilgan bo'lajak shoir Jomiy Ulug'bekning Samarqand madrasasida tahsil ko'rdi. Bu yerda u Qozizoda, Ulug'bek va Ali Qushchi kabi ulkan olimlarning ma'ruzalarini eshitdi va ularning tarbiyasida bo'ldi.

Ulug'bek atrofida to'plangan Samarqand olimlari katta ahamiyat bergan eng muhim ilmiy yo'nalishlardan biri astronomiya fani edi. Islomdagi eng avvalgi astronomik asarlar "Zij" deb atalib, ular asosan jadvallardan iborat bo'lgan.

Ulug‘bek ilmiy merosining eng asosiysi, ma‘lum va mashhuri uning “Zij”i bo‘lib, bu asar “Ziji Ulug‘bek”, “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” deb ham ataladi. “Zij”dan tashqari uning qalamiga mansub matematik asari “Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola”, astronomiyaga oid “Risolayi Ulug‘bek” (yagona nusxasi Hindistonda, Aligarh univyersiteti kutubxonasida saqlanadi) va tarixga doir “Tarixi arba’ ulus” (“To‘rt ulus tarixi”) asaridir.

1449 - yili Ulug‘bekning fojiali halokatidan so‘ng Samarqand olimlari asta-sekin Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari bo‘ylab tarqalib ketadilar. Ular o‘zlari borgan yerlarga Samarqand olimlarining yutuqlari va “Zij”ning nusxalarini ham yetkazadilar. Xususan, Ali Qushchi 1473 - yili Istanbulga borib, u yerda rasadxona quradi. Shu tariqa Ulug‘bek “Zij”i Turkiyada tarqaladi va Turkiya orqali Ovro‘po mamlakatlariga ham yetib borgan.

Shunday bo‘lishiga qaramay Ulug‘bek “Zij”i umuman olganda to‘liq ravishda o‘rganilmagan va biror zamonaviy tilga to‘la tarjima etilmagan.

1994 - yili Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi munosabati bilan “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”ning birinchi bor to‘lig‘icha rus tiliga tarjimasi bosib chiqarildi. Shu yili Ulug‘bekning “Tarixi arba’ ulus” asari ham o‘zbek tilida Toshkentda nashr etildi.

Alisher Navoiy(1441 – 1501)



XV asr jahon ma‘naviyatining buyuk siy mosi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy 1441 - yil 9 - fevralda Hirot da tug‘ilgan. Hirot shahri XV asr birinchi yarmida Sohibqiron Amir Temur asos solgan ulug‘ saltanatning ikkinchi poytaxti, Temurning kenja o‘g‘li Shohrux Mirzoning qo‘l ostidagi obod manzillaridan biri edi.

1447 - yilda Shohrux vafot etgach, Temuriy shahzodalar o‘rtasida toj-taxt dardi xuruj qilib, yurt da taloto‘p boshlandi va Alisher Navoiy xonadoni ham ko‘p qatori vatanni tark etdi. Yosh Alisher uchun taqdir sinovlari boshlandi. Shohruxning nabirasi Abulqosim Bobur 1452 - yilda Hirot taxtiga o‘tirgach, Alisherning otasini Sabzavorga hokim etib tayinladi. Lekin oradan ko‘p o‘tmay G‘iyosiddin kichkina dunyodan ko‘z yumdi. Bu paytda Alisher endigina 12 yoshga qadam qo‘ygan edi. Abulqosim Bobur Alisher va uning maktabdosh do‘sti Husaynni o‘z tarbiyasiga oldi, 1456 - yili esa o‘zi bilan Mashhadga olib ketdi. Keyinchalik Husayn Boyqaro sipohiylik yo‘lini tanladi, Alisher esa zamonaning “malik ul-kalom”i Mavlono Lutfiy tahsini va hayratiga sazovor bo‘lgan iste‘dod egasi bo‘lib yetishdi. “Faqirning nazmlari Xurosonda shuhrat tutib erdi”, deb yozadi Navoiy 1455 – 1458 - yillar haqida.

1469 - yilda Sulton Husayn iltimosiga ko‘ra Alisher Navoiy Samarqanddan Hirotga qaytadi va ramazon hayiti munosabati bilan do‘sti sharafiga bitilgan “Hiloliya” qasidasini unga taqdim etadi.

Hirot bu davrda nihoyatda ko‘rkamlashdi, xalq turmushi yaxshilandi, she‘riyat, nafis san‘atlar rivoj oldi. Talabalar uchun “Ixlosiya” madrasasi, darveshlar uchun “Ixlosiya” xonaqohi, bemorlar uchun “Shifoia” shifoxonasi, masjidi Jome‘ yoniga Qorixona qurildi. Ulug‘ amirning kutubxonasida 70 dan ortiq xattot va musavvirlar qo‘lyozmalarni oqqa ko‘chirish, ularni badiiy bezash bilan band edilar. Hirot da yana “Nizomiya”, Marvda “Xusraviya” va boshqa madrasalar bino etildi.

Navoiy o‘z “Xamsa” sini yaratishga 1483- yilda kirishgan bo‘lsa, uning birinchi dostoni “Hayrat ul-abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”)ni o‘sha yili yozib tugatdi. 1484 - yilda “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab‘ai sayyor”, 1485 - yilda “Saddi Iskandariy” dostonini poyoniga yetkazdi. Besh dostonni o‘z ichiga olgan bu ulkan badiiy qomus 50 ming misradan oshiq bo‘lib, Navoiyning barcha she‘riy merosining deyarli yarmini tashkil qiladi. “Xamsa” Alishyer Navoiy ijodining qalbidir. Shoir o‘z “Xamsa” siga kiritilgan dostonlarda o‘sha davr uchun muhim bo‘lgan muammolarni qo‘ydi, mutafakkir sifatida ilg‘or qarashlarni ilgari surdi, o‘zbek tilining qudratini olamga namoyish etdi.

Navoiy o‘z ijodi bilan o‘zbek adabiyotining so‘nggi rivojini belgilabgina qolmay, Movarounnahr va Xurosonning butun ma’naviy madaniyati taraqqiyotiga juda katta ta’sir ko‘rsatdi. Uning asarlari, she’riyati qayta ko‘chirilib, xalq orasida keng tarqalib, shoirlar uchun maktab vazifasini o‘tadi, madrasalarda keng o‘rganildi.

Hozirda maktablar, xiyobonlar, ko‘chalar buyuk shoirimiz nomi bilan yuritiladi. Uning nomida O‘zbekiston Davlat mukofoti ta’sis etilgan.

Lug‘at

ibora – выражение
 izohlash– объяснять, комментировать
 alloma – учёный
 risola – брошюра
 muntazam – регулярный
 faoliyat – деятельность
 vujud – тело
 falsafa – философия
 hikmatli so‘zlar – мудрые слова
 nazariya – теория

Vazifa: Ulug‘ ajdodlarimiz hayotidan afsona va rivoyatlar o‘qib kelish va tahlil qilib berish.

Konseptual jadval orqali “Ulug‘ ajdodlarimiz”ning yashagan davrlari va jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissalarini taqqoslab ko‘rsatish mumkin.

Ulug‘ ajdodlarimiz	Qaysi davrda yashagan	Jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi	Bugungi kunda e’tirof etilganlik darajasi
Al-Farg‘oniy	O‘rta Osiyo Renessansi davri (798-861)	IX-XV asrlarda yevropadagi har bir universitetda Alfarganusning matematikaga oid ishlari har bir universitetda o‘qitilgan.	Yuqori darajada e’tirof etilgan.
Al Buxoriy	O‘rta Osiy Renessansi davri (810-870)	Islom olamida “Quron”dan keyin 2-o‘rinda turuvchi “Al-Jome’ as-sahiyh” asarining yaratilishi	Yuqori darajada e’tirof etilgan. Hartang qishlog‘ida mustaqillik davrida me’moriy majmua bunyod etilgan.
Al Xorazmiy	O‘rta Osiy Renessansi davri (783-850)	IX-XV asrlarda yevropadagi har bir universitetda Al Xorazmiyning (Algoritmi)matematikaga oid ishlari har bir universitetda o‘qitilgan.	Yuqori darajada e’tirof etilgan. 1983 yili YuNeSKOning qarori bilan Muhammad al Xorazmiyning 1200 yillik yubileyi o‘tkazildi.

Islom Karimov	O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti (1938-2016)	Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, mintaqa mamlakatlari o‘rtasida yagona iqtisodiy makonni vujudga keltirish, Orol dengizi muammosini jahon hamjamiyati ko‘magida kompleks hal etishga xarakat qildi.	Yuqori darajada e’tirof etilgan.
---------------	--	---	----------------------------------

Grammatika: ATAMALAR VA ULARNING VUJUDGA KELISHI. BO‘G‘IN KO‘CHIRISH QOIDALARI. CHIZIQCHA BILAN YOZISH.



Fan-texnika, kasb-hunarga oid so‘z va birikmalar *atamalar* deyiladi. Atamalar, odatda, ilmiy uslubda qo‘llanadi. Masalan, fonetikada: tovush, harf, undoshlar, unlilar, grafika, fonema, urg‘u, bo‘g‘in; morfologiyada: kelishiklar, yasovchi qo‘shimchalar, o‘zak, negiz, qo‘shma otlar, yuklama; sintaksisda: so‘z birikmasi va gap, to‘ldiruvchi, hol, ajratilgan bo‘lak, uyushiq bo‘lakli gap, undalma, shaxsi topilmas gaplar; ergash gap, bosh gap, bog‘lovchisiz qo‘shma gap, ko‘chirma gaplar va boshqalar. Ma’lum bir kasb-hunarga oid so‘zlar ham majudki, ular asosan shu kasbning so‘zlari hisoblanadi. **Masalan**, tikuvchilikka oid so‘zlar – *igna, qaychi, ip, andoza, chok, angishvona, astar*.

CHIZIQCHA BILAN YOZISH

1. Juft so‘z va takror so‘z qismlari chiziqcha bilan yoziladi: el-yurt, mehr-shafqat, qovun-tarvuz, omon-eson, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uch-to‘rt, o‘n-o‘n beshta (10—15 ta), bilinar-bilinmas, bordi-keldi, kuydi-pishdi, don-dun, oz-moz, mayda-chuyda, aldab-suldab, o‘ylab-netib, so‘ramay-netmay, kiyim-kechak, adi-badi, ikir-chikir, duk-duk, taq-tuq, qop-qop, ming-ming (ming-minglab), bitta-bitta (bitta-bittalab), baland-baland, chopachopa, ishlay-ishlay, yaqin-yaqinlargacha, hamma-hammasi, uy-uyiga, ich-ichidan kabi.

Eslatma:

1) juft so‘zdan qo‘shimcha yordamida yasalgan so‘zlar ham chiziqcha bilan yoziladi: baxt-saodatli, xayr-xo‘shlashmoq kabi.

2) juft so‘z qismlari orasida -u (-yu) bojlovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo‘yiladi va juft so‘z qismlari ajratib yoziladi: do‘st-u dushman (do‘st-dushman), kecha-yu kunduz (kecha-kunduz) kabi;

3) yetakchi va ko‘makchi fe‘l bir xil shaklda bo‘lsa, chiziqcha bilan yoziladi: yozdi-oldi, borasan-qo‘yasan, uxlabman-qolibman kabi.

2. Belgini kuchaytiruvchi qip-qizil, yam-yashil, dum-dumaloq, kuppa-kunduzi, to‘ppa-to‘g‘ri, bab-baravar kabi so‘z shakllari chiziqcha bilan yoziladi (lekin oppoq so‘zi qo‘shib yoziladi).

3. So‘zning -ma, ba- yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi: ko‘chama-ko‘cha, uuma-uu, rang-barang, dam-badam kabi. Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa, bunday so‘zlar qo‘shib yoziladi: ro‘baro‘, darbadar kabi.

4. Rus tilidan aynan yoki so‘zma-so‘z tarjima qilish yo‘li bilan olingan so‘zlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: unter-ofitser, kilovatt-soat kabi.

5. -chi, -a (-ya), -ku, -u (-yu), -da, -e, -ey (-ueu) yuklamalari chiziqcha bilan yoziladi: sen-chi, boraylik-chi, sen-a, kutaman-a, bola-ya, mingta-ya, keldi-ku, kelgan-u, yaxshi-yu, yaxshi-da, qo‘y-e, yashang-e, o‘g‘lim-ey, keldi-yey kabi. Ammo -mi, -oq (-yoq), -ov (-yov), -

gina (-kina, -qina) yuklamalari o'zidan oldin kelgan so'zga qo'shib yoziladi: keldimi, kelibiq, o'ziyoq, ko'rganov, ko'rdiyov, mengina, qo'shiqqina kabi.

6. Tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, -nchi qo'shimchasi o'rniga chiziqcha (-) qo'yiladi: 7-sinf, 5-«A» sinfi, 3-, 7-, 8-sinf o'quvchilari, 60-yillar, 1991-yilning 1-sentabri kabi. Tartib sonni ko'rsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi: XX asr, X sinf kabi.

KO'CHIRISH QOIDALARI

Ko'p bo'g'inli so'zning oldingi satrga sijmay qolgan qismi keyingi satrga bo'g'inlab ko'chiriladi: to'q-son, si-fatli, sifat-li, pax-takor, paxta-kor kabi. Tutuq belgisi oddingi bo'g'inda qoldiriladi: va'-da, ma'-rifat, mash'-al, in'-om kabi.

1. So'zning bosh yoki oxirgi bo'g'ini bir harfdan iborat bo'lsa, ular quyidagicha ko'chiriladi:

1) so'z boshidagi bir harfdan iborat bo'g'in yolgiz o'zi oldingi satrda qoldirilmaydi: a-badiy emas, aba-diy, e-shikdan emas, eshik-dan kabi;

2) so'z oxiridagi bir harfdan iborat bo'g'in yolgiz o'zi keyingi satrga ko'chirilmaydi: mudofa-a emas, mudo-faa, matba-a emas, mat-baa kabi.

2. O'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko'chiriladi:

1) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi: dia-gramma, mono-grafiya kabi;

2) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko'chiriladi: silin-drik kabi.

3. Bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasi (sh, ch, ng) birgalikda ko'chiriladi: pe-shayvon, pe-shana, mai-shat, pi-choq, bichiq-chi, si-ngil, de-ngiz kabi

4. Bosh harflardan yoki bo'g'inga teng qism va bosh harfdan iborat qisqartmalar, shuningdek, ko'p xonali raqamlar satrdan satrga bo'lib ko'chirilmaydi: AQSH, BMT, ToshDU, 16, 245, 1994, XIX kabi.

5. Harfdan iborat shartli belgi o'zi tegishli raqamdan ajratib ko'chirishshaydi: 5-«A» sinfi, V «V» guruhi, 110 gr, 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm kabi.

6. Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan iolda keyingi satrga ko'chirilmaydi: «Navro'z-92» (festival), «o'qituvchi-91» (ko'rik tanlov), «Andijon-9» «Termiz-16» (jo'za navlari), «Boing-767» (samolyot), «Foton-774» (televizor) kabi.

7. A.J.Jabborov, A. D. Abduvaliyev kabilarda ismning va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko'chirilmaydi. Shuningdek, v.b. (va boshqalar), sh.k. (shu kabilar) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so'zdan ajratib ko'chirilmaydi.

1-mashq. *So'zlarni diqqat bilan o'qing, ularni qaysi kasb-hunarga oidligini ayting va ular ishtirokida gaplar tuzing.*



Reaksiya, kolba, arra, shirach, qaychi, ip, nina, narx, peshtaxta, xaridor, oldi-sotdi, qimmatbaho, arzon, qaytim, taxta, osh, zira, metr, bolta, mix, randa, tuz, vodorod, temir, tijorat, kimyoviy tarozi, qozon.

2-mashq. *O'qing. Kasb-hunarga oid so'zlarni aniqlang.*

Neft qanday qazib olinadi?



O'zbekiston neftga boy respublika. Neft Andijon, Farg'ona va Surxondaryo viloyati yerlaridan qazib olinadi. Neft bor joylar, ya'ni neft konlari xaritada qora rangli uzun uchburchak bilan ko'rsatiladi. Neft yerning chuqur qismida joylashgan bo'ladi. Uni olish uchun chuqur quduqlar kovlanadi va u yerga metall quvurlar tushiriladi. Quduq burg'ulashda neftli qatlamga yetib borilgach, quvirlaridan yuqoriga ko'tariladi. Ba'zan neft yuqoriga ko'tarilmay ham qoladi. Bu vaqtda kuchli nasoslar yordamida chiqarib olinadi. Yer bag'ridan topilgan neft quvirlaridan neftni qayta

ishlaydigan zavodlarga yuboriladi. Bu zavodlarda neftdan benzin, kerosin, mazut va boshqa mahsulotlar olinadi.

3-mashq. “Oshxonada”, “Laboratoriya xonasida” mavzularida suhbat matnini tuzing va yozing. Shu sohada ishlatiladigan soʻz va soʻz birikmalarni aniqlang, ularning tagiga chizing.

4-mashq. Oʻqing. Atamalarni aniqlab, ularning qaysi sohaga oidligini ayting. Koʻp maʼnoli soʻzlardan farqini tushuntiring.

Kelishik, kesim, element, modda, konstitutsiya, istiqloq, ozodlik, prezident, hujayra, oqsil, boks, final, ring, sinonim, dirijor, nota, duet, affiks, daraxt, kurtak, barg.

5-mashq. Dialekt, leksika, neologizm, arxaik, jargonizm kabi soʻzlarning maʼnolarini izohlang.

6-mashq. Lugʻatdan foydalanib mutaxassisligingizga oid kichik atamalar lugʻatini tuzing. Ularning maʼnosi va qoʻllanishi haqidagi maʼlumotlarni puxta oʻzlashtirib oling.

7-mashq. Xabarni oʻqing. Unda qoʻllangan iqtisodga oid atamani koʻchirib yozing

Shu kunlarda koʻpgina oliy oʻqib yurtlarida iqtidorli talabalar ishtirokida ilmiy-amaliy anjumanlar boʻlib oʻtmoqda. Kecha Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetida talabalarning ilmiy-amaliy yigʻini boʻlib otdi. Anjumanda xalqaro iqtisodiy munosabatlar, tijorat, iqtisodiy informatika va menejment, xalqaro biznes, hisob-iqtisodiyot fakultetlari talabalarining maʼruzalari tinglandi va qizgʻin muhokama qilindi.

8 - mashq. Oʻzbek tiliga tarjima qiling va boʻgʻin koʻchirish qoidalariga rioya qilib daftaringizga yozing.

1. Мой брат ещё в детстве научился читать и писать. 2. Книга – друг человека. 3. В кружке по узбекскому языку часто проводятся дискуссии по прочитанным книгам. 4. Айбек – псевдоним писателя Мусы Ташмухамедова. 5. Поэтесса Увайси жила в XIX веке. Её звали Жахонотин. Увайси – это её псевдоним.

9-mashq. Matnni oʻqing va uni oʻzbek tiliga tarjima qiling.

Мир местоимений широк и многообразен. Без местоимений нет языков. В своей речи мы постоянно ими пользуемся, поэтому не случайно, что по частоте употребления местоимения занимают 3-е место (после существительных и глаголов). Местоимения часто повторяются, так как постоянно возникает необходимость указывать на предметы, события, явления, качества, о которых уже упоминалось раньше.

Как длинна, как нудна была бы наша речь, если бы в ней не было местоимений. Мы вынуждены были бы повторять одни и те же существительные и прилагательные, а они, как правило, длиннее местоимений. Местоимения создают нам речевое удобство, так как экономят время и пространство.

По мысли известного лингвиста А.А. Реформатского, местоимения «как запасные игроки на футбольном поле», когда нужно освобождают знаменательные слова.

10-mashq. Oʻqing. Kimyo faniga oid atamalarni izohlang.

Kimyoviy reaksiyalar



Kimyoviy reaksiyalar ikki yoki bir necha modda bir-biri bilan oʻzaro taʼsirlashib yangi modda hosil qilishida har doim boʻlib oʻtadi. Sanoatda kerakli mahsulotni tezroq olish uchun u yoki bu kimyoviy reaksiyani tezlashtirish kerak boʻladi. Bunday hollarda katalizatorlardan foydalaniladi. Katalizatorlarni sehrlil tayoqchaga oʻxshatib boʻladi: oʻzi

reaksiyaga kirishmaydi, lekin reaksiyani ancha tezlashtiradi. Katalizator reaksiyaga kirishuvchi moddalar bilan bir qancha oraliq birikmalar hosil qilib, reaksiyadan keyin esa miqdori va tarkibi o'zgarimasdan avvalgi holicha ajralib chiqadi. Shuningdek, muayyan katalizator yoki katalizatorlar guruhi ma'lum bir turdagi reaksiyani tezlatadi. Shuning uchun har bir kimyoviy reaksiya uchun shunga mos keluvchi katalizator qo'llanadi.

Inson turli xil kimyoviy reaksiyalarni o'rganish va amalga oshirishda doimo tabiatdan o'rnak bo'ladi. Inson ba'zi bir sohada tabiatdan ham o'zib ketdi. U tabiatda mavjud bo'lmagan ko'pgina moddalarni, masalan, neylon va kapron kabi polimer moddalarni kashf qildi.

O'rta asrlarda alkimyogarlari kimyoviy reaksiyalarni ko'r-ko'rona o'tkazar edilar. Ular moddalarni bir-biriga aralashtirib, pirovard natijada nima hosil bo'lishini bilmasdilar. Endilikda kimyo aniq fanlar qatoriga qo'shildi. U matematika va fizika fanlari bilan chambarchas bog'langan. Hozir olimlar muayyan kimyoviy reaksiyaning qanday kechishi, uning uchun qanday sharoit zarurligini va natijada qanday miqdorda qancha mahsulot hosil bo'lishini oldindan biladilar.

TEST SAVOLLARI

1. Qaysi javobda ona tiliga doir atamalar berilgan?

- A) sinonim, undosh, paronim, bo'g'in
- B) loyiha, chizma, uskuna
- C) kvadrat, teng, integral
- D) yaproq, po'stloq, ildiz, daraxt

2. Atamalar berilgan qatorni toping.

- A) narvon, shoti, sarlavha
- B) o'lpon, botmon, bo'luv
- C) kub, kvadrat, integral
- D) hayot, soliq, davr

3. Qaysi javobda iqtisodiyotga oid atamalar berilgan?

- A) soliq, siyosat, sinov
- B) mavzu, fonema, jamiyat
- C) pul, daromad, iste'mol
- D) jadval, teng, siyosat

6-mavzu. VATAN VA VATANPARVARLIK.

Og'zakinutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Matnni birinchi shaxs nomidan so'zlab berish. Mavzu bo'yicha bahsmunozarada ishtirok etish.

Yozma nutq: Tarixda o'z jasorati bilan nom qoldirgan qahramonlar haqida hikoya tuzish. "Vatanparvarlik nima?" mavzusida esse yozish. Davriy nashrlardagi maqolalar asosida fidoyiligi bilan tanilgan zamondoshlarimiz haqida ma'lumot tayyorlash.

Grammatika: Ijtimoiy-siyosiy leksika. Shevaga xos so'zlar.

Tayanch so'z va iboralar: *Vatan, vatanparvarlik, jasorat, leksika, ijtimoiy-siyosiy leksika, leksikologiya, shevaga xos so'zlar.*



Vatan, aylanayin tuproqlaringdan . . .

O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf she'riyatining asosini Vatan mavzusi tashkil etadi. O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi shoir ichki his-tuyg'ularini baralla avj pardada kuylashga, o'z

yurtini madh etishga, ko‘z-ko‘z qilishga katta imkon berdi. Yuraklarni titratuvchi, qalblarni larzaga soluvchi, dillardagi tuyg‘ularni qo‘zg‘atuvchi jo‘shqin misralar, ko‘ngillarga taskin beruvchi, tillarga samimiylik, musiqiylik baxsh etuvchi go‘zal satrlar Muhammad Yusufgagina xosdir. Uning she‘riga bastalangan birorta qo‘shiqni hirgoyi qilmagan o‘zbek bormikin bugun? Shoirning katta tantanalarda xuddi madhiyaday yangragan qo‘shig‘idan qalblar larzaga kelguday darajada mijjalaringiz yoshga to‘lib ta’sirlanganmisiz, yurtdoshim? Bu san‘at muvaffaqiyatining siri – Muhammad Yusuf she‘rlari mavzuining hayotga yaqinligidir. U balandparvoz so‘zlar bilan she‘r aytmadi. Aksincha, sodda, samimiy, o‘zbekona til bilan xalq yuragidan joy oldi. Xalqning dilidagi gaplarni she‘rga soldi.

Ulug‘tog‘day ulug‘im,
Qal‘am – O‘zbekistonim.
O‘zbekman, o‘zbekligim
Mening oliy unvonim, deydi shoir.

Bugungi yoshlarimizning ma‘naviy sog‘lom bo‘lib kamol topishida Muhammad Yusufning butun ijodi to‘laligicha katta hayotiy darslik vazifasini o‘taydi. Chunki shoir aytganiday, yuragida Vatanni chindan anglab his qila olgan odamgina uning qadriga yetadi, uni jonu dili bilan seva oladi.

O, ota makonim,
Onajon o‘lkam,
O‘zbekiston, jonim to‘shay soyangga.
Senday mehribon yo‘q,
Seniningdek ko‘rkam,
Rimni alishmasman bedapoyangga...

Bildimki, baridan ulug‘im o‘zing,
Bildimki, yaqini shu tuproq menga,
Bahorda Baxmalda tug‘ilgan qo‘zing,
Arab ohusidan azizroq menga.

M.Yusuf uchun Vatan – bu unga ertaklar so‘ylagan Zamin, yalpizlar yastangan dala-dashtlar, osmonga tutashgan oqterak o‘lka, oltin beshik uzra alla aytgan onaizori, jilg‘a jarangi bilan tongni uyg‘otib kelgan bahordir. Shoir Rustamlari doston bo‘lgan, Alpomishlar, uzun kokilli Barchinoylar yurtining farzandi, u ulug‘ Sohibqiron Alisher zurryodi ekanligidan, yulduz bilan sirlashgan hazrati Ulug‘bek bilan faxrlanadi. Kuzda uchib ketgan qushlari bahorda yana ayvonlarni qo‘msab keladigan, ko‘ngli bo‘sh bo‘lsa-da mushti qattiq, qo‘li ochiq, mehri daryo, “qizlariga alla aytgan, o‘g‘liga ot bo‘lib cho‘kkan”, topganini dasturxonga sochgan, tuprog‘i zar O‘zbekiston farzandi. U yana ipak tola kabi shitirlab yoqqan yomg‘irdan so‘ng qiqirlab qirga chiqqan lolalari, jildiragan jilg‘alari, qalbgaga taskin beruvchi “Tanovar” kabi navolari, ko‘ringanni duo qiluvchi momolarini ko‘z-ko‘z qiladi. Bu kabi o‘xshatishlar insonni go‘zallikni his qilib yashashga o‘rgatadi.

Shu Vatanga nafim tegsa deyman mening ham,
Yurak undan bir so‘z kutib bo‘ylar osmonga.
O‘g‘lim, desa ikki qo‘llab jonimni tutib,
Sig‘inaman mo‘min va sof O‘zbekistonga.

Muhammad Yusuf she‘rlari yosh avlod qalbida vatanparvarlik, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini shakllantiradi, xalqimiz xarakteriga xos bo‘lgan samimiylik, ochiqko‘ngillik, mehribonlik, sadoqat, mardlik, halollik kabi qadriyatlarni singdiradi. Bunday komillik darajasiga erishishi, ajdodlarga mos avlod bo‘lib yetishishi uchun shoir yoshlarni ilmi bo‘lishga undaydi:



Alp o‘g‘lonlar o‘lkasidir O‘zbekiston,
Erkli elning qanotlari ilm istang,
Yarim jahon bunyod etgan Sohibqiron,
Alisherning avlodlari, ilm istang.



Vatan va vatanparvarlik haqida

Vatan tarkin bir nafas aylama,
Yana ranji g'urbat havas aylama.

A. NAVOIY

Vatanparvarlik – yolg'iz o'z vataniga mehr qo'yishdan iboratgina emas. Bu juda katta his... Bu – vatan bilan o'zini bir butun deb bilish, uning yaxshi-yomon kunlarida asqotish demakdir.

A. N. TOLSTOY

Saxovatning eng buyuk jasurliklari vatanga muhabbat tufayli yuzaga kelgan.

J. J. RUSSO

Vatanparvar – o'z vatani kamoloti yo'lida, o'z xalqiga muhabbati tufayli ezguliklari tugul, jonini ham ayamaydigan insondir, xalqqa va vatani ozodligi, farovonligi uchun o'zini qurbon qiluvchi insondir.

M. OXUNDOV

Vatanga nafi yo'q yashalgan har kun,
Inson hayotida qolur bemazmun.

M. SALMON

Vatanparvarlik bizni mahliyo qilib qo'ymasligi kerak; vatanga muhabbat ko'r-ko'rona ehtiros emas, balki dono aql faoliyatidir.

M. KARAMZIN

Bizga ota-onalar, bolalar, yaqin xesh-aqrabolar qimmatlidirlar; lekin muhabbat bobidagi barcha tasavvurlarimiz birgina «Vatan» nomli so'zda mujassam. Vatanga nafi tekkudek bo'lsa, qaysi vijdonli odam uning uchun jon bermoqqa ikkilanar ekan?

SITSERON

Ma'rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati vatan yo'lida qurbon bo'lishga hozir ekanliklarida aks etadi.

G. GEGEL

Vatandan tashqarida baxt yo'q, har kim jonajon yerida ildiz otsin.

I. S. TURGENEV

Vatan sog'inchi hammaga bir xilda ta'sir qiladi: u o'tmish manzaralarini ideallashtirilgan holda jilolantiradi, uning fazilatlarini oshaveradi, kamchiliklari esa vaqt va masofa taqozosi bilan xiralashib boraveradi, oxiri tasavvurimizdan butkul o'chib yo'qoladi.

J. SAND

Kim o'z yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi.

J. BAYRON

Kim vatanni xor qilsa, oilasidan ham ayriladi.

KORNEL

O'z vataniga dog' tushirish – uni sotish degan so'z.

V. GYUGO

Shunday jinoyat borki, uni oqlab bo'lmaydi, bu vatanga xiyonatdir.

P. BUAST

Vatanga bo‘lgan muhabbatim meni chet elliklar yutug‘idan ko‘z yumishga majbur qilmaydi. Aksincha, vatanga muhabbatim qanchalik kuchli bo‘lsa, vatanimni jahondagi g‘aznalar bilan shunchalik ko‘proq boyitgim keladi.

F. VOLTER

Cho‘lda o‘rmlab yurgan jonivorlar ham tug‘ilishidanoq o‘z makonlarini biladilar, havoda uchuvchi qushlar ham, dengiz va daryolardagi baliqlar ham o‘z oshyonlarini his qiladilar, hatto bolari va shunga o‘xshashlar ham o‘z uyalarini muhofaza qiladilar,— shuning kabi odamlar ham qaerda tug‘ilib parvarish topsalar,— o‘sha joyga cheksiz mehr qo‘ygan bo‘ladilar.

F. SKORINA

Vatanparvarlik tantanavor xitoblar va umumiy gaplardan iborat emas, balki u vatanga qizgin muhabbat hissi bilan ortiqcha dabdabalarsiz o‘z fikrini bildirish, faqat ezgulikda hayratlanmay, balki muqarrar har qaerda, har qanday vatanda ham bo‘ladigan yovuzlikni jinidan battar yomon ko‘rish demakdir.

G. BELINSKIY

Bizga ota-onalar, bolalar, yaqin xesh-aqrabolar qimmatlidirlar; lekin muhabbat bobidagi barcha tasavvurlarimiz birgina «Vatan» otli so‘zda mujassamlashgandir. Vatanga nafi tekkudek bo‘lsa, axir qaysi vijdonli odam uning uchun jon bermoqqa ikkilanar ekan?

SITSERON

O‘zbekiston Qurolli kuchlari



O‘zbekiston Qurolli kuchlari - harbiy birlashmalar, qo‘shilmalar, qismlar hamda tuzilmalardan iborat bo‘lib, ular davlat tomonidan tashkil qilinadi va ta‘minlanadi. O‘zbekiston Qurolli kuchlarining vazifasi - urush va qurolli tajovuzlarning oldini olish, O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, O‘zbekiston fuqarolarining tinchligi va xavfsizligini ta‘minlashdan iborat. 1992-yil 14-yanvarda O‘zbekiston hududida joylashgan barcha harbiy qismlar, qo‘shilmalar, harbiy o‘quv yurtlari, harbiy sohaga tegishli muassasalar va tashkilotlar, boshqa harbiy tuzilmalar hamda ularning moddiy-texnikaviy va moliyaviy ta‘minoti O‘zbekiston Respublikasi tasarrufiga o‘tkazildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida O‘zbekiston Qurolli kuchlarining maqomi, asosiy vazifalari va faoliyat doirasi belgilanib, ularning huquqiy zaminini mustahkamlangan. O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 29-dekabrda Qonuniga muvofiq, har yilning 14-yanvarida “Vatan himoyachilari kuni” nishonlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 20-fevralda imzo chekkan Farmoniga binoan, O‘zbekiston Respublikasi ixtiyoridagi harbiy qismlarga rahbarlik qilish O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari bo‘yicha vazirligiga topshirildi. 1992-yil 3-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonun qabulqilinib, Mudofaa ishlari bo‘yicha vazirlik Mudofaa Vazirligiga aylantirildi. 2001-yil 11-

mayda bu Qonun Oliy Majlis tomonidan yangi tahrirda tasdiqlanib, mudofaani tashkil qilishning asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi.

O‘zbekiston Qurolli kuchlari Quruqlikdagi qo‘shinlar, Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari, Harbiy havo kuchlari, Maxsus qo‘shinlar, Chegara qo‘shinlari, Ichki ishlar vazirligining ichki qo‘shinlari, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy tuzilmalari, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, shuningdek, boshqa vazirliklar, muassasalar va boshqarmalar harbiy tuzilmalaridan tashkil topgan. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti - Qurolli kuchlarning Oliy Bosh Qo‘mondoni. Uning rahbarligida Vazirlar Mahkamasi, Mudofaa vazirligi, O‘zbekiston qurolli kuchlarining birlashgan shtabi ish olib boradi. O‘zbekiston hududi harbiy okruglarga bo‘lingan.

2002-yil 10-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida” qayta ishlangan Qonunni qabul qildi. Qonunda harbiy xizmatning quyidagi turlari joriy etildi: muddatli harbiy xizmat (12 oy, oliy ma‘lumotlilar uchun - 9 oy), safarbarlik chaqiruv rezervidagi harbiy xizmat, kontrakt bo‘yicha harbiy xizmat, harbiy xizmatni o‘tagan rezervchilar xizmati.

Yuksak malakali harbiy kadrlar tayyorlash maqsadida Toshkentda Qurolli kuchlar akademiyasi va Oliy umumqo‘shin qo‘mondonlik bilim yurti, Chirchiqda Oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti, Samarqandda Oliy harbiy avtomobil qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti, Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti qoshida maxsus fakultet, Chirchiq, Samarqand, Namangan va Qarshi shaharlarida serjantlar tayyorlash maktablari ishlab turibdi.

Lug‘at

Yurtimiz tabiati - природа нашей страны
Tabiiy boyliklar - природные богатства
Suv tanqisligi - нехватка воды, дефицит
Poliz mahsulotlari - бахчевые культуры
Tabiyatni asramoq - беречь природу
Milliy boyliklar - национальные богатства
Tabiiy ofatlar - природные бедствия
Isrof qilmaslik - экономить - не трать без пользы
Hayvonot olami - мир животных
Osimliklar dunyosi - мир растений
jasorat - храбрость
samimiy – искренний
sadoqat – верность
komillik – совершенство

Matn yuzasidan topshiriqlar.

- matnni o‘qing;
- matnni rus tiliga tarjima qiling;
- matn yuzasidan savollar tuzing;
- matnni reja asosida gapirib bering.



GRAMMATIKA: IJTIMOIIY-SIYOSIIY LEKSIKA. SHEVAGA XOS SO‘ZLAR

Til taraqqiyotida muhim omil sanaladigan publitsistika o‘z navbatida tilning imkoniyatlaridan ham keng foydalanadi.

Ommabop uslub imkoniyatlarining kengligini lingvistik va ekstralingvistik (paralingvistik) – tildan tashqaridagi omillarning mustahkam aloqadorligida kuzatamiz. Publitsistik janrda yozilgan asarlarning mohiyatan hozirjavobligi, ularning axborot hamda targ‘ibot-tashviqot xarakterda

bo'lishi va ommani dunyo yoki mamlakatimiz miqyosida sodir bo'layotgan voqea-hodisalardan zudlik bilan xabardor qilish natijasida yuzaga keladigan novatorlik unda tabiiy ravishda yangi ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning qo'llanilishi va tilimizda me'yorlashishiga sabab bo'ladi. Boshqacha aytganda, ommabop uslub tilning yangi so'z va iboralar hisobiga boyib borishiga ko'maklashadi.

Ommabop uslub ma'lum ma'noda oraliq uslub sanaladi. Bu uslubda shakllangan matnlar obrazlilik, ta'sirchanligi, tasviriy vositalarning mahsuldor qo'llanilishi bilan badiiy uslubga yaqinlashsa, dialektizmlar, istorizmlar, argo va jargonlar qo'llanilmasligi bilan undan uzoqlashadi. Ifodaning aniqligi va publitsistik janrlarga xoslangan hamda ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning qo'llanilishi bilan ilmiy uslubga o'xshaydi. Ayni paytda, ifodadagi qisqalik, lo'ndalik, ixchamlik, yorqinlik kabi xislatlar ham uni ilmiy uslub bilan yonma-yon qo'yadi.

Radio va televideniedagi ayrim chiqishlar bu uslubdagi matnda so'zlashuv uslubi elementlari ham ba'zan aralashib ketishi mumkinligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, publitsistika badiiy, siyosiy, ilmiy jabhalarni qamrab oluvchi yirik soha hisoblanib, ommaviy axborot vositalari sanaladigan radio va televidenieda, gazeta va jurnallar sahifalarida aks etadigan yangilik, xabar, reportaj, tahlilnoma, bosh maqola, maqola, ocherk, feleton, pamflet, e'lon, reklama singari qator janrlarni qamrab oladi. Ana shu qamrov doirasining kengligi o'z navbatida til birliklarining har bir janrda alohida tarzda me'yorlashuvini taqozo etadi. Bu o'rinda esa me'yorlashishning umumiy jihatlari xususida so'z yuritish imkoniyati mavjud.

Sifatdosh oborotlar, fe'llarning shart mayli shakllarining almashinib ishlatilishi, ritorik so'roq, ritorik murojaat, undov, bir bosh bo'lakli gaplarning faolligi bu uslubga xos xususiyatlar sanaladi. Eng muhimi, ijtimoiy-siyosiy atamalar ko'p qo'llaniladi. Hatto umumiste'moldagi so'zlar ham ommabop uslubda yozilgan matnda atamaga aylanishi mumkin: *ovoz, ochiq ovoz, yopiq ovoz, hal qiluvchi ovoz, maslahat ovozi, qarshi ovoz, ovozga qo'ymoq, ovoz bermoq, Osiyo ovozi* singari.

Ijtimoiy-siyosiy atamalar asosan *-chi, -parast, -parvar, -xona, -noma* qo'shimchalari yordamida yasaladi. Misollar: *terrorchi, qo'poruvchi, aqidaparast, millatparvar, devonxona, bojxona, hissador, tadbirkor* kabi.

LEKSIKOLOGIYA (SO'ZSHUNOSUK)

Leksikologiya yunoncha lexikos - "lug'at", logos - "ta'limot" so'zlaridan olingan bo'lib, so'z haqidagi, to'g'rirog'i, so'z ma'nolari haqidagi ta'limotdir. Nutq tovushlari inson nutqi uchungina xos bo'lgan so'zlarning eng kichik bo'lakchalaridir. Bitta nutq tovushini o'zgartirish so'zning ma'nosini ham o'zgartiradi. Chunonchi, bir - sir, bir - ber, bir - bil. Buning sababi shundaki, so'zning ahamiyati, uning ma'nosidadir. Nutq tovushlari va ular ifodalaydigan ma'nolar o'zaro chambarchas bog'liq hodisalardir. Nutq tovushlari (harflar) so'zning tashqi, moddiy tomoni bo'lsa, ma'no so'zning ichki, mohiyat tomonidir. Har bir so'z biror narsa-buyumni, voqea-hodisani, belgi-xususiyatni, miqdorni, harakat va holatni atab, ifodalab keladi. Bu shu so'zning ma'nosidir.

SHEVAGA XOS SO'ZLAR(mahalliy so'zlar)

Ma'lum bir tuman, shahar, qishloq, viloyatga xos bo'lib, adabiy tilda boshqa ko'rinishga va ma'noga ega bo'lgan so'zlar mahalliy so'zlar yoki sheva so'zlari deyiladi. Mahalliy so'zlar o'zbek tilining bebaho xazinasidir. Lekin adabiy nutqda ulardan o'rinsiz foydalanish mumkin emas. Misol: kallapo'sh (do'ppi), inak (sigir), mo'rcha (chumoli), zardoli (o'rik), g'aynoli (olxo'ri) va boshq.

Bir tilning faqat ma'lum bir hududiga xos bo'lib, boshqa joylarda o'zgacha nom bilan yuritiladigan so'zlar shevaga xos so'zlar sanaladi. Bu so'zlardan bittasi umumxalq tili bo'lgan adabiy til uchun qabul qilinadi va ana shu so'z adabiy til uchun me'yor bo'ladi.

Do'ppi so'zi adabiy me'yor, *kallapo'sh, qalpoq, takya* so'zlari esa shevaga xos so'zlardir.

Har bir shahar, qishloq va viloyat aholisi tilida umumxalq tili bilan barobar shu joyga xos soʻzlar, iboralar qoʻllanadi.

Oʻzbek shevashunoslik fanining maʼlumotlariga koʻra, oʻzbek sheva va lahjalari 3 guruhga boʻlinadi:

1. *Janubiy-sharqiy guruh*: qarluq-chigil-uygʻur shevalari. Bunga koʻpchilik shahar shevalari kiradi.

2. *Janubiy-Gʻarbiy guruh*: Oʻgʻuz shevalari - Xorazm va Qozogʻiston, Turkmanistondagi baʼzi oʻzbek shevalari.

3. *Shimoliy-Gʻarbiy guruh*: bular qipchoq shevalari nomi bilan yuritiladi. Bu shevalarda y tovushi j ga oʻtadi: yoʻl, yoʻq kabi soʻzlar joʻl, joʻq tarzida aytiladi.

Har bir sheva yana bir necha lahjalarga boʻlinadi. Masalan, Fargʻona shevasining Namangan lahjasida kelutti, didomizza shaklida qoʻllanadi. Shahar shevalari (Toshkent, Namangan, Qoʻqon, Fargʻona) umumiy tomonlarga ega boʻlsa ham, ayrim soʻzlarda (tancha, turshak - Toshkent) va baʼzi qoʻshimchalarda, unlilar talaffuzida (kevotti, kelutti, kelyapti; Shoʻkat, Doʻvlat, ating ninta? Kitobdi oʻqidingizmi?) farqlanib turadi. Shevadagi u yoki bu soʻz umumxalq lugʻatiga kirib, adabiy tildagi soʻzga sinonim boʻla oladi: dovuchcha- gʻoʻra, eshik - uy maʼnosida, uy - hovli, tancha - sandal va b.

Ammo kelutti, alma, apa, ongʻlar, biza, mayliz, nondi, devotsiz kabi talaffuz adabiy til meʼyoriga toʻgʻri kelmaydi.

Yozma adabiyotda sheva soʻzlari uslubiy maʼnoda - asar qahramonining maʼlum bir joydan (hududdan) ekaniga ishora qilish uchun qoʻllanadi. Ammo sheva xususiyatlarini badiiy adabiyotda ham ortiqchi ishlatish nutqni ogʻirlashtiradi, sunʼiylashtiradi.

1-mashq. *Jonli soʻzlashuv nutqiga xos soʻzlarni yozma adabiy tilda yozing.*



N a m u n a: sevindi — suyundi.

Anjon — Andijon, Samarqan — Samarqand, asma — astma, doʻslik — doʻstlik, ishleman — ishlayman, televizor — телевизор, koʻyni — koʻngli, obketaman — olib ketaman, toʻr — toʻrt, ishka — ishga, silar — sizlar, boʻmaydi — boʻlmaydi,

istudent — student, abzal — afzal, kexsa — kekxa, mart — mard, dasroʻmol — dastroʻmol.

2-mashq. *Quyidagi gaplarni oʻzbek tiliga tarjima qiling.*

1. Смелость – это сила духа, которая помогает преодолеть страх при совершении опасного, но важного для людей дела. Смелость свойственна героям - на них каждый хочет быть похожим. 2. В истории существует немало примеров замечательного героизма. 3. Смерть страшна для тех, кто плохо пожил, кто не сделал в жизни ничего. 4. Воля человека свободна: он вправе выбрать тот или другой путь, но он должен выбрать тот, на который указывает ему разум.

3-mashq. *Maqollarni oʻqing va ularning maʼnosini izohlab bering*

*-----	
Botir yovsiz boʻlmas.	Храбрец не без врагов.
Botir jangda sinaladi, dono - majlisda.	Смелого испытывают в бою, мудреца - в беседе.
Botirlik shahar olar.	Смелость города берет.
Botirning mushti ham yarogʻ ..	Кулак богатыря тоже оружие.
Mard boʻlsang, maydonga chiq..	Если ты храбрый, выйди на поле боя.
Mard yiqilsa, maydonda qoladi..	Смелый остается на поле боя.
Mard maydonda sinalar.	Храброго узнают на поле боя Храбрый

DAVLAT RAMZLARI КОГДА ПОЯВИЛИСЬ ПЕРВЫЕ ФЛАГИ?

Что такой флаг? Это символ или знак, сделанный из ткани. Его можно нести, им можно махать, он может развеваться. И считается, что люди, которые несут или вывешивают какой-либо флаг, показывают таким образом свою принадлежность к определенной стране или организации.

Сама идея флага возникла, вероятно, тысячи лет тому назад среди древних охотников и воинов. Они хотели сделать так, чтобы их могли узнавать и друзья, и враги, чтобы знать, к чему быть готовыми: к битве или к дружеской встрече. Поэтому первые флаги изготавливались, по всей видимости, из звериных шкур или из птичьих перьев.

В Древнем Египте воины носили шест, на верхушке которого было изображение птицы, животного или какого-нибудь предмета. Первые флаги, сделанные из ткани были у китайцев и индийцев. Считается, что флаги из ткани были у китайцев уже примерно в 1100 году до н.э. Римские солдаты тоже поначалу носили изображения различных животных на шестах. А потом и у них появились флаги из ткани.

В течение средних веков флаги получили распространение в Европе. Свои флаги были у крестоносцев во время религиозных войн. Были свои флаги и в королевских семьях, и у знати. На этих флагах помещались отличительные знаки рода.

Самым старым государственным флагом, вероятно, является флаг Дании, представляющий собой белый крест на красном фоне. Согласно легенде, он появился в 1219 году.

Topshiriq: Matnini tarjima qiling va so‘zlabbering.



O‘ZBEKISTONRESPUBLIKASI DAVLAT BAYROG‘I

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i va uning ramzi bugungi O‘zbekistonsarhadida mavjud bo‘lgan davlatlar bilan tarixdan bog‘liqligini anglatadi hamda respublikaning milliy-madaniy an‘analarini o‘zida mujassamlashtiradi.

1. Bayroqda aks etgan moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obihayot ramzidir. Geraldika tilida bu - yaxshilikni, donishmandlikni, shon-shuhrati va sadoqatni bildiradi. Binobarin, Amir Temur davlati bayrog‘ining rangi ham moviy rangda edi.

2. Bayroqdagi oq rang - muqaddas tinchlik ramzi bo‘lib, u kun charog‘onligi vakoinot yoritqichlari bilan uyg‘unlashib ketadi. Oq rang poklik, beg‘uborlik, soflik, orzu va hayot tozaligi, ichki go‘zallikka intilishning timsolidir.

3. Yashil rang - tabiatning yangilanish ramzi. U ko‘pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodlik timsoli hisoblanadi.

4. Qizil chiziqlar va vujudimizda jo‘shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlaridir.

5. Navqiron yarim oy tasviri bizning tarixiy an‘analarimiz bilan bog‘liq. Aynipaytda qo‘lga kiritilgan mustaqilligimiz ramzidir.

6. Yulduzlar barcha xalqlar uchun ruhoniyl, ilohiy timsol sanalgan. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘idagi 12 yulduz tasviri ham tarixiy an‘analarimiz, qadimgi quyosh yilnomamizga bevosita aloqadordir.

Topshiriq: Matn asosida Davlat bayrog‘i haqida so‘zlab bering.

* * *

КТО ПРИДУМАЛ ГЕРБ?

Государства, города, королевские династии, знатные семьи имеют свои эмблемы – гербы. Изображение, надпись, цвет герба напоминают о прошлом его носителя.

По видимому, гербы были заимствованы у арабов и получили распространение в Европе во времена крестовых походов. У каждого сеньора была своя эмблема. Во время сражений боевое знамя с гербом собирало вокруг себя воинов.

Несколько столетий эмблемой были лилии, герб Бретани включал в себя изображение горноста, Австрии – орла, в Англии – леопарда. Изучением гербов занимается геральдика – трудная, но увлекательная наука.

Topshiriq: Matnitarjimaqiling.



О‘ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI DAVLAT GERBI

О‘zbekiston Respublikasining yangi Davlat gerbi xalqimizning ko‘p asrlik milliy davlatchilik tajribasi asosida yaratildi.

О‘zbekiston Respublikasining yangi Davlat gerbi gullagan vodiy uzra charaqlab turgan quyosh tasviridan hamda o‘ng tomonida bug‘doy boshoglari, so‘l tomonida ochilgan paxta chanoqlari surati tushirilgan chambardan iboratdir.

Gerbning yuqori qismida Respublika jipsligining ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan: sakkiz qirra ichida joylashgan yarim oy va yulduz-musulmonlarning Qutlug‘ ramzidir.

Gerb markazida xizmat va fidoyilik timsoli bo‘lgan afsonaviy Xumo qushi qanotlarini yozib turibdi. Ushbu ramz va timsollar xalqimizning tinchlik, osoyishtalik, yaxshilik, baxt-saodat, eson-omonlik yo‘lidagi orzu-umidlarni ifodalaydi.

Gerbning pastki qismdagi Respublika Davlat bayrog‘ini ifodalovchi uch rangdagi chamber bandiga «O‘zbekiston» so‘zi bitilgan.

Topshiriq: Matn asosida Davlat gerbi haqida so‘zlab bering.

* * *

КАК ВОЗНИКЛИ НАЦИОНАЛЬНЫЕ ГИМНЫ?

Национальный гимн – это патриотическая песня, которую поют или играют в официальных случаях, как особый знак уважения, оказываемого стране. Национальные гимны и патриотические песни служат объединению людей в их в общих надеждах и идеалах.

Происхождение многих национальных гимнов неизвестно. Часто мелодия была уже популярна как народная песня, когда кто-то писал к ней патриотический текст. Только небольшое число мелодий были специально написаны для национальных гимнов. Самый известный – гимн Западной Германии, который был первоначально написан для Австрии великим композитором Францем Иосифом Гайдном.

Несколько более старых национальных гимнов и патриотических песен имеют одинаковую мелодию, но разные слова. Некоторые из них пелись как военные песни противоборствующими в одной и той же битве. Британский гимн «Боже, храни королеву» стал мелодией для патриотических песен в Дании, Германии, России, Швейцарии и всех англоязычных странах мира. В Соединенных Штатах слова «Америки» исполняются на ту же мелодию.

Мелодия «Боже, храни королеву» впервые прозвучала в 1619 году. Она была написана английским композитором Джоном Буллом, а первое публичное представление государственного гимна состоялось 28 сентября 1745 года.

Национальный гимн Соединенных Штатов был написан во время войны 1812 года. Фрэнсис Скотт Кей, адвокат из Балтимора, был на борту одного из британских кораблей, которые атаковали Форт Мак Генри. Всю ночь Кей следил за атакой. Когда на рассвете он увидел американский флаг, развевающийся над Фортком, он был так взволнован, что написал слова «Звездного флага» на обратной стороне конверта. Когда он обдумывал

мелодию, ему пришла в голову старая английская песня под названием «К Анкарену в небесах».

«Марсельеза» - французский национальный гимн - была военной песней периода Великой Французской революции (1789-1815). Слова и музыка были написаны Клод-Жозефом Роже де Лиллем, капитаном французской армии. «Марсельеза» была утверждена официальным национальным гимном Франции в июле 1793 года.

Topshiriq: Matnni tarjima qiling va so‘zlab bering.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MADHIYASI

Madhiya - «madh» - «maqto‘v» so‘zidan kelib chiqqan. Madhiya o‘z mustaqilligiga ega bo‘lgan, rivojlangan har bir mamlakatning alomati - ramzidir.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi (matni va musiqasi) tanlovida so‘zini shoir Abdulla Oripov, musiqasini bastakor Mutal (Mutavakkil) Burhonov yozgan madhiya g‘olib chiqdi va o‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashning 11-sessiyasi (1992-yil 10-dekabr)da O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi sifatida tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi

Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt-najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilmu fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

NAQORAT:

Oltin bu vodiylar jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor.

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash‘ali, tinchlik posboni,
Halq sevar, ona yurt, mangu bo‘l obod!

NAQORAT:

Oltin bu vodiylar jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor.

Topshiriqlar:

1. Matn mazmunini so‘zlab bering.
2. Madhiyada nimalar madh etiladi va nima uchun?
3. Ushbu matnni o‘qiganingizda nimalarni his qilasisiz? Qo‘shiq qilib aytilganida-ghi?
4. “O‘zbekiston Respublikasining Davlat ramzlari menda qanday tuyg‘ular uyg‘otadi” mavzusida kichik insho yozing.



Topshiriq. Kichik guruhlarda ishleng. 1-guruh

1. “Bizning oila” mavzusida matn tuzing.
2. Quyidagi so‘zlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.
Создавать, замечательный, доблестный,
сотрудник, громадный, добродушный,

родственник, племянник, мышление, звините, пожалуйста, чистый, свежий.

3. Davlat ramzlari haqida ma'lumot bering.

2-guruh

1. O'zbek tiliga Davlat tili maqomi qachon berilgan? Til haqidagi maqollardan namunalar keltiring.

2. "O'zim haqimda" mavzusida matn tuzing.

3. Nuqtalar o'rniga harf yoki harflar birikmasidan(e, ye, yo) mosini qo'yib quyidagi so'zlarni kochiring.

...kin, ...tarli, ...tti, ...mg'ir, ...r, ...rkin, ...tim, Hamza...v, m...va, m...tro, b...kat, qa...r, k...l, ...rug' , ...stiq.

3-guruh

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i haqida ma'lumot bering.

2. Forobiy haqida ma'lumot bering.

3. – Siz qachon va qayerda tug'ulgansiz?

– Oilangizda necha kishi bor?

– Nimalarga qiziqasiz?

– Nima uchun bu kasbni tanladingiz?

4-guruh

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi haqida ma'lumot bering.

2. O'zbekiston iqlimi haqida ma'lumot bering.

3. Quyidagi so'zlarni tarjima qiling va gaplar tuzing.

Поколения, вкусный, терпения, здоровье, культура, возраст, нация, уважение, мир, век, произведение, традиция, отношение, известно, произведение, подснежник, декоративный, благосостояние.

5-guruh

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat ramzlari haqida ma'lumot bering.

2. O'zbekiston Respublikasi qachon BMTga a'zo bo'ldi?

3. Quyidagi so'z birikmalarini tarjima qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Chimyon tog'lari, chiroyli o'lka, salomlashish odobi, baliq ovlash, tinchlik timsoli, tiniq osmon, a'lochi talaba, aqlli qiz, odobli bola.

6-guruh

1. "Vatan tuyg'usi" mavzusida matn tuzing

2. Quyida keltirilgan so'zlardan fe'lning noaniq shaklini yasang.

Kuylaymiz, yashaydi, umr ko'radi, aytib o'tgan, erishgan, yodladim, bajaramiz, o'ynaymiz, olib ketdi, g'alaba qozongan, eshitardi .

3. "Tib qonunlari" asarining muallifi haqida ma'lumot bering.

7-guruh

1. "Mening Vatanim" mavzusida matn tuzing.

2. O'zbek tili tarixi haqida ma'lumot bering.

3. Quyidagi matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Я очень горжусь, что живу именно в Узбекистане. Я очень счастлив творить и создавать для Узбекистана. Я и других призываю горячо любить наш родной Узбекистан. Пусть наша родина будет ещё краше, крепче, могущественнее и счастливее.

8-guruh

1. Berilgan so'zlarni antonym va sinonimga ajrating.

Chiroyli, eski, yangi, go‘zal, oson, yengil, arzon, qimmat, barno, lobar, baland, rostgo‘y, iflos, kir, botir, toza, mard, yaqin, saboq, kuchli, dars, olis, uzoq, sekin, achchiq, ozg‘in, past.

2. Quyidagi so‘zlarni tarjima qiling va 2ta gap tuzing.

Многонациональный, дружба, достигать, пословица, равнодушие, подвижной, одарённый, наружный, мудрый, катастрофа.

3. “Toshkent metrosi” mavzusida kichik matn tuzing.

Vazifa: Vatan va vatanparvarlik haqida she‘r yod olish. She‘rni ijodiy sharhlash.

7-mavzu. MUZEYLAR – O‘TMISH VA KELAJAK ORASIDAGI KO‘PRIK.

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnни o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma‘nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so‘zlash.

Yozma nutq: O‘zbekiston muzeylaridan biri haqida taqdimot tayyorlash. Jahonning mashhur muzeylari haqida qiziqarli ma‘lumotlar tayyorlash. Soha muzeyi haqida matn tuzish.

Grammatika: Sohaviy terminlar va ularning qo‘llanishi. So‘z turkumlari.

Tayanch so‘z va iboralar: *muzey, san‘at muzeyi, tarix muzeyi, adabiyot muzeyi, eksponat, termin, terminologiya, soha terminlari, morfologiya, so‘z tukumlari, mustaqil so‘z turkumlari, yordamchi so‘z turkumlari, alohida olingan so‘zlar.*

Toshkent muzeylari

1917- yilgacha Toshkentdagi birinchi va yagona muzey Toshkent muzeyi bo‘lgan. 1917-yildan keyin turli ixtisosdagi keng ekspozitsiyalarga ega bo‘lgan Muzeylar tashkil etila boshlagan. 1918- yil knyaz N.Romanov saroyida uning musodara qilingan kolleksiyasi asosida Badiiy muzey (hozirgi O‘zbekiston davlat san‘at muzeyi), 1921- yil Eski shahar muzeyi, 1926-yil O‘zbek Eski shahar muzeyi tashkil qilingan. Madaniy taraqqiyot yangi Muzeylar tashkil qilish va mavjud Muzeylarni qayta jihozlash zarurligini taqozo etgan. O‘rta Osiyo muzeyining geologiya, zoologiya, botanika va antropologiya bo‘limlari, qishloq xo‘jaligi muzeyi va hayvonot bog‘i Tabiat muzeyiga aylantirildi. Respublika ko‘rgazmalari negizida Politexnika muzeyi (1933), Amaliy san‘at muzeyi (1937; 1937–91 yillarda Amaliy san‘at asarlari doimiy ko‘rgazmasi) tashkil qilindi; Adabiyot muzeyi tuzildi.

1940- yilda Toshkent Muzeylarida 500 mingga yaqin eksponat bo‘lgan, muzeylarga kiruvchilar soni 300 mingga yaqin kishini tashkil etgan. 2-jahon urushi yillarida Markaziy tarix muzeyi, O‘zbekiston san‘at muzeyi va Adabiyot muzeyi – Tarix, madaniyat va san‘at muzeyiga, Politexnika muzeyi Tabiat muzeyiga birlashtirildi. 40-yillar o‘rtalaridan Muzey qurilishida yangi bosqich boshlandi. 1945- yil rus yosh tomoshabinlar teatri eski binosida joylashgan Davlat san‘at muzeyi mustaqil muzeyga aylandi. 1972- yil O‘zbekiston kino san‘ati muzeyi, 1973- yil O‘zbekiston Sog‘liqni Saqlash muzeyi, 1975- yil Turkiston harbiy okrugi qo‘shinlari tarixi muzeyi tashkil etildi. 1988- yil Antiqa va zargarlik buyumlari muzeyi ochildi. 60–80-yillarda H.Abdullaev, M.Ashrafiy, S.Borodin, Oybek, Fafur Fulom, O‘.Tansiqboev, Abdulla Qahhor uy-muzeylari va Yu.Fuchik, S.Yesenin muzeylari, Tamaraxonim liboslari doimiy ko‘rgazmasi va boshqalarga asos solindi.

Toshkentda 29 ta muzey bo‘lib, ularda 113127 eksponat saqlanadi; har yili Muzeylarga o‘rtacha 1,5 mln. ga yaqin kishi kiradi (2008). Toshkentdagi yirik davlat muzeylari: O‘zbekiston davlat san‘at muzeyi, O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O‘zbekiston amaliy san‘at muzeyi, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari markaziy muzeyi,

O'zbekiston tasviriy san'at galereyasi, O'zbek liboslari galereyasi va boshqalar. Muzeylar ilmiy asarlar, qo'llanmalar va kataloglar nashr etadi. O'zbekiston xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasi, planetariy muzey tipidagi muassasalar tipiga kiradi. Toshkent korxonolari, muassasalari va o'quv yurtlarida tashkil qilingan Muzeylar davlat muzey tarmoqlarini to'ldiradi.

Muzeylar o'tmish va kelajak orasidagi ko'prik

Yosh avlod tarbiyasida xalqimizning boy o'tmishini bugungi zamon bilan bog'lovchi muzeylar faoliyati alohida o'rin tutadi. Muzeylarga tashrif buyurgan kattayu kichik o'tmishda yashab o'tgan tarixiy shaxslar, xalqimiz tomonidan yaratilgan betakror madaniy-ma'naviy meros haqida keng tasavvurga ega bo'ladi, millatimiz tarixiga aloqador shonli, unutilmas voqyealardan faxrlanadi, bugungi farovon turmushimizga shukrona keltiradi, ularning kayfiyatida milliy qahramonlarimiz xotirasiga chuqur hurmat va xayrixohlik ifodasi aks etadi. Shu bois ham hozirda yoshlarning muzeylarga sayohatlarini uyushtirish, bu maskanlarda turli mavzulardagi ma'naviy-ma'rifiy kechalarni tashkil qilishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Mazkur tadbirlar yoshlarni ona yurtga muhabbat, azaliy qadriyatlarimizga hurmat, Ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga, ular ongida mamlakatimizda bo'lib o'tayotgan muhim voqyea-hodisalarga befarq bo'lmaslik, ayniqsa, o'z madaniy merosini asrash tuyg'ularini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda turli yo'nalishdagi muzeylar faoliyat ko'rsatmoqda. Istiqloq yillarida bunyod etilgan Temuriylar tarixi davlat muzeyi, "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi, Termiz Arxeologiya muzeyi singari dargohlar xalqimizning ulkan bunyodkorlik va ma'naviy salohiyatini namoyon etib turibdi. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlarimizdagi qayta ta'mirlanib yangicha qiyofa kashf etgan muzeylarda ayni paytda xalqimiz tarixi va madaniyatiga oid ko'plab eksponatlar saqlanmoqda.

Bizning muzeylarimizni ko'rishga, o'rganishga chet ellik sayyohlar o'rtasida ham qiziqish juda kattadir.

Muzeylar yosh avlod ma'naviyatini, dunyoqarashini boyituvchi vositadir. Shu bois bugungi kunda maktab va kollejlarda o'quvchilari ishtirokida muzeylarga sayohatlar uyushtirish, dars jarayonlarini muzeyda olib borish faoliyati yo'lga qo'yilgan. Hozirga kelib muzeylarga yoshlarning keng qamrovda tashrif etishi, ularni e'tiborini jalb qilish maqsadida yangi tartib va an'analar joriy etilmoqda. Jumladan, poytaxtimizdagi qator muzeylarda o'quvchilar uchun turli imtiyozlar yaratilgan. Bularning barchasi muzeylarga kelayotgan yoshlar oqimini kengaytirishga, ularga Vatanimiz tarixi haqida chuqur ma'lumot berishga, tarixga qiziqishlarini orttirishga, ayniqsa har bir fuqaro qalbida Vatanga bo'lgan muhabbatni dildan his qilishga yordam beradi.

Музей имени Алишер Навои

В Ташкенте на улице Навои, 69 приветливо раскрывает двери для посетителей литературный музей, в котором собраны единственные в своем роде произведения поэтов Узбекистана. Построен музей был в честь 500 дня рождения великого поэта с Востока – Алишера Навои. Побывав в разное время под руководством различных институтов, музей наконец-то получил собственную независимость. Можно уверенно сказать, что в стенах музея собраны достопримечательности, а также невероятное достояние всего узбекского народа.

Более 17 тысяч произведений искусства – археологические памятники, картины, портреты, ремесленные продукты – представлены для обозрения многотысячных посетителей. Музей разделен на разделы, каждый из которых отвечает своей направленности. Настоящее достояние – это уникальные рукописи, переписанные каллиграфами на арабском, персидском, азербайджанском, узбекском языках. Также сотрудники составили единую базу, вмещающую в себя рукописи и короткометражные фильмы производимых экспедиций, носивших научный и познавательный характер.

Бесценно собрание литографических книг, насчитывающее более 65 тысяч экземпляров. В него входят истории жизни писателей Узбекистана, начиная с прошлого века. Огромную ценность также представляет литературное наследие таких известных деятелей, как Фуркат, Алишер, Бабур, которое является золотым фондом литературного музея.

Сотрудники музея продолжают вести научную работу, привозя из-за границы тысячи цветных слайдов, повествующих о жизни Востока. Это единственное место, где под одной крышей собраны бесценные рукописи и книги известных узбекских писателей совершенно разного времени. Десятки известных фамилий и тысячи уникальных трудов – всем этим музей Литературы делится с каждым желающим.

[TEMURIYLAR TARIXI DAVLAT MUZEYI](#)



O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov rahnamoligida tariximizni chuqur o‘rganish, buyuk ajdodlarimiz xotirasini e‘zozlash borasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli ishlar samarasida Amir Temur shaxsi, uning jahon tarixidagi o‘rni, xalqimiz, Vatanimiz oldidagi xizmatlari qadr topdi.

1996-yili Sohibqiron Amir Temurning 660-yillik yubileyi xalqaro miqyosda keng nishonlandi, YuNESKO shafeligida xalqaro konferensiyalar va ko‘rgazmalar o‘tkazildi. Sohibqironning 675-yillik tavallud to‘yi arafasida Yurtboshimiz so‘zboshisi bilan mazkur kitob mukammal holda yangidan chop etildi.

Bugun Toshkent, Samarqand va Shahrisabz shaharlarida bobokalonimizning ulug‘vor haykallari savlat to‘kib turibdi. Amir Temur nomi bilan ataluvchi ko‘chalar, xiyobonlar va boshqa geografik obyektlar yurtdoshlarimizning ardoqli maskanlariga aylangan. 1996-yili Amir Temur xiyoboniga tutash hududda Temuriylar tarixi davlat muzeyi barpo etildi. Bu Sohibqironiga, uning yurt ravnaqi yo‘lidagi xizmatlariga ko‘rsatilgan yuksak ehtiromning amaliy ifodasidir.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi binosi Amir Temur davridagi saroylar ko‘rinishida qurilgan bo‘lib, imoratning asosiy kirish eshiklari Amir Temur xiyoboniga qaragan. Yog‘och o‘ymakorligining yorqin namunasi bo‘lgan, yong‘oqdan ishlangan, ko‘rkam bu eshiklardan ekspozitsiya zaliga kirib boriladi. Imoratning butun aylanasi bo‘ylab joylashgan yarim ochiq ayvonini salobatli, oq rangli ustunlar bezab turadi. Uning tashqi devori aylanasi bo‘ylab sirkor sopol medalyonlar bilan bezatilgan, ularda arab alifbosidagi suls yozuvida insonni yaxshilikka undovchi Itoat, Adolat, Zarofat, Ma‘rifat, Diyonat, Oqibat, Marhamat, Qadriyat, Sadoqat,

Muvaffaqiyat, Matonat, Muruvvat, Shijoat, Mashvarat soʻzlari bitilgan. Bularning barchasi inshootga oʻzgacha husn bagʻishlaydi.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi rang-barang eksponatlari, noyob osori-atiqalari bilan nafaqat yurtdoshlarimiz, balki xorijlik sayyohlar eʼtiborini ham oʻziga jalb etib kelmoqda. Bu yerda temuriylar davriga oid koʻplab nodir ashyolar saqlanmoqda. Bular – Amir Temur va temuriylar davri tarixiga oid qoʻlyozmalar, yozishmalar, oltin, kumush va mis tangalar, sopol, bronza, mis buyumlar, meʼmoriy qoplamalar, etnografik manbalar, Amir Temur va temuriylar davri zargarlik buyumlari namunalari, Amir Temur maqbarasi va Bibixonim masjididan topilgan ashyolardir

Ushbu noyob inshoot nafaqat muzey, balki Amir Temur va temuriylar davri tarixini oʻrganuvchi ilmiy markaz sifatida xalqimizning davlatchilik tarixini yoritib beruvchi, ajdodlarimizning boy moddiy va maʼnaviy merosini oʻzida mujassam etuvchi va ilmiy tadqiq etib, kelajak avlodga yetkazuvchi obyekt ham hisoblanadi. Muzeyda oʻtgan yillar mobaynida «Temuriylar davri renessansi», «Temuriylar davri yozma yodgorliklarining Oʻzbekistonda va xorijda oʻrganilishi» mavzusida fundamental, «Shohruxiya qalʼa-shahari – Amir Temur va temuriylar davrining noyob yodgorligi» mavzusida amaliy loyihalar amalga oshirildi. Ayni paytda “Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat rivojini oʻrganish va targʻib qilishning umumbashariy ahamiyati” mavzusida fundamental ilmiy loyiha ustida ish olib borilmoqda. Muzeydagi ilmiy-tadqiqot ishlari Amir Temur va temuriylar davri tarixini chuqur va xolisona yoritishga qaratilgandir.

Temuriylar davriga oid asosiy ekspozitsiyalar muzeyning ikkinchi va uchinchi qavatidan joy olgan. Bu yerdagi oʻzbek miniatyurachi rassomlari yaratgan “Buyuk Sohibqiron – buyuk bunyodkor” kompozitsiyasi “Tugʻilish”, “Yuksalish”, “Faxrlanish” deb nomlangan uch boʻlimdan iborat. Asarda moviy rang koʻp uchraydi. Bu rang Amir Temur bayrogʻining ramzi boʻlgan. U hamisha hayotni sevishga, tiriklikni anglashga, bunyodkorlikka undagan.

Muzeyga turli xorijiy davlatlar, hukumatlar va nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari, mashhur insonlar tashrif buyurib, «Faxriy mehmonlar kitobi»ga oʻzlarining dil soʻzlarini yozib qoldirgan.

Muzeyda turli ilmiy anjumanlar, maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar, davra suhbatlari oʻtkazilib, ularda yoshlar faol ishtirok etayotirlar. Akademik litsey va kasb-hunar kollejarida oʻqitilayotgan “Oʻzbekiston tarixi”, “Maʼnaviyat asoslari”, “Milliy gʻoya: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanlarining Amir Temur va temuriylar davriga oid mavzulari mazkur muzeyda oʻtkazilmoqda.

I. V. SAVITSKIY NOMIDAGI SANʼAT MUZEYI



I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpogʻiston davlat sanʼat muzeyi – respublikadagi yirik muzeylardan; Nukus shahrida 1966-yilda tashkil topgan, 1984-yildan N.V.Savitskiy nomi bilan

ataladi. Muzeysga I.Savitskiyning sa'y-harakati va u to'plagan qoraqalpoq xalqamaliy san'ati asarlari negizida asos solingan. Muzeining umumiy maydoni 6,9 ming kv.m. Muze xalqamaliy san'ati, qadimiy va o'rta asrlar Xorazm san'ati, 1920-30-yillar o'zbek va rus tasviriy san'ati, qoraqalpoq zamonaviy rang-tasviri va haykaltaroshligi, ilmiy-ma'rifiy bo'limlar, kutubxona (10 ming dona asar), fond hamd ata'mirlash ustaxonasiga ega. Fondida 85 mingdan ortiq eksponat mavjud (2004).

Muзей fondida 1920- 30-yillarda avangard rassomlar yaratgan asarlar to'plangan. Qoraqalpoq xalq ustalari tomonidan yaratilgan zargarlik, yog'och o'ymakorligi, kashtado'zlik, to'qimachilik (ayniqsa, o'tov jihozlari) va boshqa asarlar amaliy san'at bo'limida jamlangan.

Qadimiy Xorazm san'ati bo'limi muzeining arxeologik guruhi tomonidan qo'lga kiritilgan topilmalar hisobiga yanada boyimoqda. Tasviriy san'at bo'limi to'plami, ayniqsa, serqirra: to'plamni qoraqalpoq rassomlari (I.Savitskiy, K.Soipov, J. Quttimurodov, D.To'raniyozov va b.), O'rta Osiyo rassomligining keksa avlodi A.Volkov, M.Qurzin, A.Nikolayev (Us to Mo'min), N.Karaxan, O'.Tansiqboyev va boshqaning katta ahamiyatga ega asarlari tashkil etadi. Shuningdek, 1920-30-yillarda faol ijod etgan rus rassomlari A.Shevchenko, R.Falk, V.Muxina, I.Grabar asarlari bilan bir qatorda ijodi deyarli o'rganilmagan R.Mazel, K.Redko, A.Safronov va boshqaning asarlari ham qo'yilgan.

Muзей eksponatlari monografiya (etyud, chizgidan tortib to'yutuk asarlar) tartibida to'plangani bilan ham qimmatlidir. Yana muzeining o'ziga xosligi eksponatlarning zich joylanishi, ekspozitsiyalarda to'plamni to'laqonli namoyishiga erishganidadir. Muзей san'at asarlarini to'plash, targ'ib etish, kataloglar chop etish, ko'rgazmalar tashkil qilish bilan shug'ullanadi. Muзей qoshida gilamchilik ustaxonasi ishlab turibdi; «Nukus muzeining do'stlari» klubi faoliyat olib boradi, ko'rgazmalar uyushtiradi. Muзей Xalqaro muzeylar qo'mitasi (IKOM) a'zosi.

Muзей 1968-69 yillarda Moskvadagi Sharq muzeida Qoraqalpoq to'plamini ilk bor namoyish etdi. 1970 yildan respublika va xorijiy mamlakatlar (AQSH, Fransiya, Germaniya, Italiya, Yaponiya, Rossiya va b.)dagi ko'rgazmalarda ishtirok etadi.

Vazifa: Muzeysga sayohat uyushtirish va sayohat taassurotlarini yozma bayon etish.
Namuna:

Muzeysga tashrif

2012- yil 20- dekabr kuni biz guruhimiz bilan Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeida bo'ldik. Muzeysga kiraverishda bobimiz A.Navoiyning katta haykali o'rnatilgan. Zinalaridan ko'tarilib, birinchi qavatga chiqdik. Bu qavat A.Temur va temuriylar sulolasiga bag'ishlangan. Menga buyuk sarkarda Amir Temur davlatining katta xaritasi yoqdi. Muзей xodimi bu xarita orqali bir qancha tarixiy ma'lumotkar berdi. So'ng Mirzo Ulug'bek rasadxonasi haqida ham juda ko'p qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'ldik. Bundan tashqari, u yerda Temur zamonidagi chinni va spool idishlarni, turli xil bezaklarni, kitob uchun maxsus lavhlarni, asl qo'lyozmalarining nusxasini ko'rdik.

Ikkinchi qavat – g'azal mulkining sultoni Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan ekan. U yerda A.Navoiyning qo'yozma asarlarini, shoirning asarlariga Behzod tomonidan chizilgan miniatyuralarini ham ko'rdik.

Uchinchi qavat- shoir, adib, davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga bag'ishlangan. Boburning yoshlik davridan umrining oxirigacha qanday asarlar yozgani, Vatan sog'inchida yashagani, Hidiston xalqiga qanday karomatlar ko'rsatgani va boshqa qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'ldik.

Xullas, muzeysda ma'naviy ozuqa olganimizdan juda xursandmiz. Muзей xodimlari bergan qiziqarli ma'lumotlari uchun minnatdormiz.

Lug'at

takomillashtirish – улучшение

betakror – уникальный, неповторимый

farovon – процветающий
qatag'on – репрессия
qamrov – зона охвата
imtiyoz – привилегия
san'at – искусство
zamonaviy – современный
xaуrixohlik – симпатия
salohiyat – потенциал

GRAMMATIKA: SOHAVIY TERMINLAR VA ULARNING QO'LLANISHI. SO'Z TURKUMLARI



Respublikamiz o'z mustaqilligiga, ona tilimiz esa Davlat tili maqomiga erishgan bugungi kunda turli fanlar, jumladan, o'zbek tilshunosligi oldida yangidan-yangi vazifalar ko'ndalang bo'lmoqda. Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy-texnik tub o'zgarishlar davrida yangi-yangi fanlar va tushunchalar yuzaga kelmoqda. Jumladan, o'zbek tilida ham yangi terminlar paydo bo'lmoqda, ilgari ishlatib kelingan qator leksemalar yangi ma'nolar kasb etmoqda. Shu boisdan leksikologiya, xususan, terminologiya oldida qator muhim masalalarni yechish vazifasi turibdi.

So'nggi yillarda va bugungi kunda terminologiyaning amaliy va nazariy masalalarini yanada chuqurroq o'rganish, terminlar yaratish va ularni qo'llashni til qonuniyatlari asosida tartibga solish davlat ahamiyatiga molik muammoga aylandi. Shuning uchun ona tilimizning turli terminologik tizimlarini yanada teranroq tadqiq etish, ularni terminologiyaning xilma-xil masalalari bo'yicha atroflicha tadqiq qilish, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Qayd etish lozimki, o'zbek tilshunosligida yuzlab olimlarning monografiya, dissertatsiya va lug'atlari, ko'plab maqolalari yuzaga kelgan. Shunga qaramay, yana qator terminologik tizimlar o'z tadqiqotchilarini kutmoqda. O'zbek tilining kimyo-texnologiya terminologiyasi tizimi o'zining to'liq ifodasini topa olgani yo'q.

Yangi terminlar ichida kimyo-texnologiya bo'yicha terminologik tizim ham o'ziga xos o'rinni egallab kelmoqda. Shu boisdan fan va texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida bu terminlarni ham tilshunoslik nuqtai nazardan tadqiq yetish muhim ahamiyat kasb yetadi. Amaliy, ayniqsa, nazariy masalalarni hal etish uchun kimyo-texnologiya terminlar tizimini, ularning yasash qonunlarini, shakllanish manbalarini, umumtilda qo'llanish doirasini, mazkur tizimda ro'y berayotgan kamchiliklarni va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash kabi qator masalalarini o'rganish zaruriyati paydo bo'ldi.

Hozirda o'zbek tilida qo'llanib kelinayotgan soha terminlarni to'plash va sistemalashtirish ham juda dolzarbdir..

Hozirgi bosqichda, yangi ilmiy-texnik inqilob davrida ishlab chiqarish, fan va texnikaning barcha sohalarida yangidan-yangi narsa, predmetlar va tushunchalar paydo bo'la boshladi. Bu hol til lug'at tarkibining salmoqli ravishda boyishiga olib kelmoqda. Binobarin, termin muammosi hozirgi leksikologiyaning, asosiy masalalaridan biri bo'lib qoldi. Alohida ta'kidlash lozimki, termin hamda terminologiyaning u yoki bu masalasini hal yetish nafaqat ishlab chiqarish, fan va texnikaning tegishli sohalarini uchun yemas, balki tilshunoslik uchun ham katta ahamiyatga egadir.

“Termin” tushunchasiga yuklangan mazmun quyidagicha belgilarga asoslanadiki, bular terminlarni umumiste'moldagi so'zdan farqlash uchun yetarli:

- 1) termin-umumadabiy tilning maxsus vazifa bajaruvchi bir turi bo'lmish ishlab chiqarish, fan va texnika tiliga mansub lisoniy birlik, bir so'z yoki birikmadir;
- 2) termin-konkret narsa-predmet, ashyo, mavhum tushunchalarning maxsuslashtirilgan nomidir;
- 3) termin uchun muayyan ta'rif zaruriydirki, uning yordamida tegishli

tushuncha mazmunini aniqroq ifodalash, tushunchaning birini ikkinchisidan chegaralab ajratish imkonini beruvchi, ayni mahalda ma'lum tushunchani muayyan tasnifiy qatarga joylashtirishga yo'l qo'yuvchi, farqlovchi belgilarini ravshanroq ko'rsatish mumkin.

Demak, terminologiya muayyan fanning tushunchalar tizimi bilan o'zaro munosabatda bo'lgan terminlar jami sifatida ta'riflanadi. Har qanday tushunchalar tizimiga muayyan terminlar tizimi to'g'ri keladi. Terminologik tizimlar fan taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib boradi. Terminlar umumiste'moldagi so'zlardan farqli ravishda joriy qilinib ularning qo'llanishi ma'lum darajada nazorat ostida bo'ladi.

Respublikasining Davlat tili haqidagi Qonuni qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Respublika terminologiya qo'mitasining ish boshladi, terminologiya masalalariga bag'ishlab Respublika miqyosida bir necha ilmiy-amaliy, ilmiy-nazariy konferensiyalarning o'tkazilgan.

MORFOLOGIYA

So'zlarning borliqdagi ma'lum narsa, belgi-xususiyat, harakat-holatlar bildirishi ularning atash ma'nolari yoki lug'aviy ma'nolari deyiladi, tilshunoslikning atash ma'nolarni o'rganuvchi bo'limi esa leksikologiya hisoblanadi.

So'zlar atash ma'nosi bilan birga, ma'lum grammatik ma'no va uni ifodalovchi shaklga ham ega bo'ladi. Masalan, olmalarni so'zi «mevali daraxt» va «olma daraxti mevasi» ma'nolari biian birga, «ko'plik», «kelishik» ma'nolari va bu ma'nolarni ifodalovchi ko'plik shakli (-lar) hamda kelishik shakli (-ni) ga ham ega. «Mevali daraxt» va «olma daraxti mevasi» ma'nolari bu so'zning atash ma'nosi, qolgan ma'nolar esa grammatik ma'nolari sanaladi.

Har qanday grammatik ma'no ma'lum grammatik shakl orqali ifodalanadi. Grammatik ma'nolarni ifodalovchi vositalar grammatik shakl hisoblanadi.

So'zlarning grammatik ma'nolari va ularni ifodalovchi grammatik shakllarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi morfologiya sanaladi. Morfologiya yunoncha morphe- «shakl», logos- «so'z», «ta'limot» so'zlaridan olingan bo'lib, so'z shakllari haqidagi ta'limot demakdir.

Ko'rinadiki, leksikologiya bilan morfologiya o'rtasida uzviy aloqa mavjud. Har ikkisida so'z o'rganiladi. Ular so'zning qaysi tomonini o'rganish bilan farqlanadi. Leksikologiya so'zning atash ma'nosini, morfologiya esa uning grammatik ma'nosini va bu ma'nolarni ifodalovchi vositalarni o'rganadi.

SO'Z TURKUMLARI

So'zlarning so'rog'i va qanday umumlashgan ma'no ifodalashiga ko'ra guruhlariga bo'linishi so'z turkumlari hisoblanadi.

So'z turkumlari ma'no va vazifasiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Mustaqil so'zlar.
2. Yordamchi so'zlar.
3. Undov so'zlar.
4. Taqlid so'zlar.
5. Modal so'zlar.

Ma'lum bir so'roqqa javob bo'lib, biror gap bo'lagi vazifasida keladigan so'zlar mustaqil so'zlar sanaladi: fe'l, ot, sifat, son, olmosh va ravishlar mustaqil so'zlardir.


Topshiriqlar.



3 guruhga bo'lining. Belgilangan qisqa muddat ichida 1-qator ilm-fanga oid, 2-qator san'at va madaniyatga, 3-qator texnikaga oid atamalarni navbat bilan yozuv taxtasiga yozing. Qaysi guruh atamalarni ko'p va to'g'ri topa olsa, o'sha guruh g'olib deb topiladi.

1- **mashq.** *Atamalarni topib, ularni izohlang.*

Vodorodning ishlatilishi uning kimyoviy xossalariga asoslangan. Undan kislorod bilan birikkan paytida ko'p issiqlik chiqadi. Shu bois, vodoroddan motor yoqilg'isi sifatida foydalaniladi. Metallarni qirqish va payvandlash ishlarida ham u faol qo'llaniladi. Vodorodning metallmas moddalar: xlor va azot bilan birikishi reaksiyasi asosida sanoatda xlorid kislota va ammiak ishlab chiqariladi. Ammiakdan, o'z navbatida, nitrat kislota olinadi.



Molekulalar

Olamdagi barcha narsalar mayda zarralar – atomlardan, aniqrogi atomlar guruhidan tashkil topgan. Bunday atomlar guruhi molekulalar deb ataladi.

Har bir moddaning o'z molekulalari bo'ladi. Bu molekulalardan ba'zilar juda oddiy tuzilgan. Masalan, kislorod molekulasida ikkita kislorod atomidan, vodorod molekulasida esa ikkita vodorod atomidan tashkil topgan. Bular oddiy moddalardir.

Uglerod va vodorod atomlaridan tashkil topgan molekulalar ayniqsa qiziq xossalarga ega. Ularning soni juda ko'p bo'lib, hozirga qadar 3 milliongacha boradi, olimlar esa ko'plab yangi bunday birikmalarni uzluksiz kashf etmoqdalar va sun'iy ravishda yaratmoqdalar.


Juda murakkab molekulalar ham mavjud. Oqsil, kauchuk, yog'och va ko'pgina sintetik materiallarning molekulalari bir necha yuz, hatto mingga yaqin atomlardan tuzilgan.

Moddalarning xossalari birinchi navbatda ulardagi molekulalarning xossasiga bog'liq. Agar molekulalar bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lsa, bu molekulalardan tashkil topgan modda gazsimon bo'ladi. Bunga suv bug'ini misol qilib ko'rsatish mumkin. Suv bug'ida molekulalar tez va erkin harakatlanadi, faqat gohi-gohida bir-biri bilan to'qnashib qolishi mumkin. Agar suv bug'i sovutilsa, suvning molekulalari sekin harakatlanib, bir-biri bilan qo'shila boshlaydi va bug' suyuqlikka aylanadi. Suyuq moddalardagi molekulalar bir-biri bilan ancha zich bog'langan, lekin ular hali nisbatan erkin harakatlanadigan bo'ladi. Agar suvni 0 darajagacha sovutilsa, u muzlaydi va qattiq kristall modda – muz hosil bo'ladi; muzda suv molekulalari joyidan deyarli qo'zg'almagani holda tebranishi mumkin, xolos.

Molekulalarda ko'pgina o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin. Bu o'zgarishlar kimyoviy reaksiyalar deb ataladi. Kimyoviy reaksiyalar yordamida yangi moddalar va materiallar hosil qilish mumkin.

Topshiriq:

1. Matnni o'qing. Matndagi kimyo sohasiga oid atamalarni izohlang.
2. Atamalar tizimini davom ettiring. Atamalarga izoh bering. zarra, atom, atomlar guruhi, kislorod, vodorod, uglerod, oqsil, kauchuk, kimyoviy reaksiyalar....



Vazifa: O'z tanlagan sohangizga oid terminlarni faol qo'llagan holda matn tuzing.

8-mavzu. KELAJAK – BILIMLI YOSHLAR QO'LIDA.

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matnni ijodiy so'zlash. Mavzu bo'yicha bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq: "Iqtidorli yoshlar" mavzusida bog'lanishli matn tuzish. "Mening tengdoshlarim" mavzusida dialog tuzish va uni inssenirovka qilish. Yoshlar hayotidan qiziqarli hodisa va voqyealar to'g'risida hikoya tuzish.

Grammatika: So‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari. Ot - so‘z turkumi.

Tayanch so‘z va iboralar: iqtidor, kelajak avlod, sinonim, antonim, omonim, paronim, ot, atoqli ot, turdosh ot, shaxs oti, narsa oti, o‘rin-joy oti, faoliyat-jarayon oti.

KELAJAK – YOSHLAR QO‘LIDA

Bugungi kunning yoshlari har tomonlama barkamol hamda bilimli, salohiyatli bo‘lib kamol topishlari lozim. Zero, oz fursat mobaynida mislsiz yutuqlarga erishgan ona diyorimizning kelajagi yoshlar qo‘lida. Shunday ekan, har bir ota-ona o‘z farzandini, ustoz esa o‘z shogirdlarini chuqur ta‘lim hamda namunali tarbiyalashi zarur.

Bu kunga yetkunga qadar xalqimiz ne-ne og‘ir kunlarni boshidan o‘tkazdi. Bundayin hurriyatga erishish osonlik bilan bo‘lgani yo‘q demak, har bir yosh vujudida shunga yarasha mas’uliyat bo‘lishi lozim.

Biz yoshlarni Vatanga muhabbat, xalqiga sadoqat ruhida tarbiyalashimiz muhim vazifalarimizdan biri. Biz kimmiz? Ajdodlarimiz kim bo‘lib o‘tgan? Farzandlarimiz kim bo‘lishi kerak degan savol har bir inson qarshisida gavdalanishi muhim. Ajdodlarga munosib avlod bo‘lib kamol topishlari uchun ham diniy ham dunyoviy bilimga ega bo‘lishlari, jismonan sog‘lom, ruhan tetik qilib tarbiya qilishimiz lozim. Zero, yurtboshimiz aytganlaridek: “Yoshlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono bo‘lib yetishishlari uchun bor kuch-imkoniyatlarimizni safarbar etiyotgan ekanmiz, bu borada ma’naviy tarbiya masalasi hech shubhasiz benihoya ahamiyat kasb etadi”.

Haqiqatdan ham, farzandlarimiz kelajakda o‘z o‘rnini egallashi uchun, ularni har tomonlama yetuk qilib tarbiyali kamol topishi uchun yetuk ma’naviyatli qilib tarbiya qilishimiz lozim. Agar inson ma’naviyatli, ma’rifatli bo‘lsa, demak u oq va qorani, yaxshi-yomonni, haq va nohaqni, halol haromni ajrata oladi. O‘zi ham to‘g‘ri yo‘ldan yurib, o‘zgalarni ham shu yo‘lga chorlaydi. Har bir ota-ona farzandiga chiroyli odobdan afzal narsa bera olmasligi Payg‘ambar (s.a.v.)ning muborak so‘zlarida ta’kidlanadi. Insonning kimligi, qanday muhitda tarbiya ko‘rgani odobida aks etadi. Shuning uchun, avvalo, ularning odobiga e’tibor qarataylik. Bolalarimiz yosh umrini turli xil klublarda, ko‘ngil ochar barlar, muhabbat maydonlarida o‘tkazmay, darsxonalarda, sport mashg‘ulotlarida, kutubxonalarda mashg‘ul bo‘lsalar, kelajakda komil inson bo‘lib kamol topadilar. Ular bizning yuzimiz, mehnatimiz samarasidir. Bog‘bon bog‘dan yaxshi hosil olishni maqsad qilgani kabi, biz ham bog‘imizdan go‘zal hosil olaylik. Daraxt – bu farzandlarimiz. Mevalari esa, ular erishgan yutuqlar bo‘lmog‘i darkor.

Yoshlikda olingan puxta bilim, o‘rganilgan kasb-hunar hamisha yo‘limizni yoritib turadi, bizni kamolot sari yetaklaydi. Bugun hukumatimiz tomonidan yoshlarning ezgu orzu-intilishlarini ro‘yobga chiqarish, ularni har jihatdan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish borasida ko‘rsatilayotgan doimiy e’tibor minglab yosh avlodga qanot bag‘ishlamoqda. Yoshlarning huquq va manfaatlarini ta’minlash, iste’dodini yuzaga chiqarish, ilg‘or g‘oya va tashabbuslarini hayotga tatbiq etishga yaqindan ko‘maklashishda “Kelajak ovozi” yoshlar tashabbuslari markazining ham munosib hissasi bor. 2006-yilda tashkil etilgan ushbu markaz faoliyati yigit-qizlarni o‘z qiziqishi bo‘yicha to‘g‘ri yo‘naltirish, iqtidori, ijodiy salohiyatini yanada rivojlantirish, ma’naviyatini yuksaltirishda ustuvor o‘rin tutadi. Ushbu jamoat tashkiloti tomonidan “O‘zbekiston madaniyati va san’ati forumi” jamg‘armasi, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati bilan hamkorlikda an’anaviy tarzda o‘tkazilayotgan “Kelajak ovozi” iqtidorli yoshlarning mega-tanlovi, “Yangi avlod” bolalar ijodiyoti festivali, Iqtidorli talabalar uchun stipendiyalar, Ta‘lim grantlari dasturlari, “Ta‘lim va mutaxassislik” ko‘rgazmasi yoshlarning iste’dodini o‘z vaqtida aniqlash, ularda Vatan taqdiri uchun mas’uliyat va daxldorlik tuyg‘usini yanada kuchaytirishdek ezgu maqsadlarga xizmat qilmoqda.

Markaz qoshida tashkil etilgan turli to‘garak, tuzilmalar, mahorat maktablari yigit-qizlarning qiziqishi, orzu-intilishiga uyg‘un tarzda faoliyat olib boradi. Jumladan, Bandlikka ko‘maklashish markazi joylardagi bo‘sh ish o‘rinlariga oid ma’lumotlar bazasini yaratish, talaba-yoshlar uchun ishlab chiqarish va diplomoldi amaliyotini korxonalar va tashkilotlarda o‘tash,

bitiruvchilarga ishga joylashishda ko'maklashishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hamkor tashkilotlar bilan birgalikda o'tkazilgan bo'sh ish o'rinlari yarmarkalari, "Ochiq eshiklar kuni" tadbirlari natijasida o'tgan vaqt mobaynida 5 ming nafar yigit-qiz ishga joylashishga oid ma'lumotlarga ega bo'ldi, 400 nafardan ortiq yoshlarning bandligi ta'minlandi.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimizning 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu yo'nalishda muhim omil bo'lmoqda. "Kelajak Lingvo" til o'rganish markazida ingliz, nemis, ispan, fransuz, arab, xitoy, yapon, koreys, rus tillarini tarjimonlik va tilshunoslik nuqtai nazaridan puxta o'rganish imkoniyati yaratilgan. "Kelajak Lingvo"ning noan'anaviy usuldagi mashg'ulotlari, seminar-treninglar til boyligimizni muntazam oshirish, xorijiy tillarda bemalol so'zlashish imkonini bermoqda. Ilg'or texnologiyalarga qiziquvchi yoshlar uchun "Axborot texnologiyalari bo'yicha yosh mutaxassislar maktabi" – "IT-School" ham samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Bu yerda yoshlar axborot texnologiyalari sohasidagi eng so'nggi ma'lumotlardan boxabar bo'lish, dasturlash, veb-dizayn, veb-dasturlash, 3D formatdagi grafika kabi yo'nalishlar bo'yicha bilimni boyitmoqda.

Ot o'rnini toy bosar

Yurtimiz qadimdan buyuk allomalar beshigini tebratgan. Ularning aqli zakovati jahon sivilizatsiyasiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelgan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Al Xorazmiy - bularning nomlarini ko'plab davom ettirishimiz mumkin. Bu bobolarimiz o'zlarining qomusiy bilim sohiblari bo'lganligi bilan G'arb va Sharq mamlakatlarini lol qoldirgan. Har doim bizda nega bugungi kunda shunday allomalarimiz yo'q-mi, degan savol tug'iladi.

Aslida, yo'q emas bor. Bugungi kun o'zbek olimlarining ilmiy izlanishlari ham tahsinga sazovor, faqat fan va texnika sohasi shiddat bilan rivojlangani sari ularning ilm sohasida olib borayotgan ilmiy izlanishlari kichik tor yo'nalishlarga bo'linib ketgan. Masalan, organik kimyo, noorganik kimyo, tibbiyot, yurak jarrohligi, uralogiya, geologiya, matematika, fizika sohalarida bugungi kunda dunyo tan olgan olimlarimiz bor. Biz har doim ular bilan faxrlanamiz. Ammo kelajakda bizni nima kutmoqda? Kelajakda-chi shu ota-bobolarimizdek olimlarimiz bormi?

Bugungi kunda farzandlarimiz nima bilan mashg'ul? Kelajakda yurtimizdan qanday olimlarimiz yetishib chiqmoqda, degan shu kabi savollarga aniqlik kiritishga harakat qildik. Xalqimizda ajoyib bir maqollar bor – "Oqqan daryo oqaveradi", "Ot o'rnini toy bosar". Yurtimizda yosh o'zbek Mendeleyevning vujudga kelganligi buning yorqin isbotidir.

Lug'at

Yoshlik hayotning bebaho tuhfasidir – молодость бесценный подарок жизни

Hayot- ibrat manbai – жизнь – источник примеров

Vaqtni tejashni o'rganing – научитесь экономить время

Bilim olish baxtli kelajakning kafolati - знания гарантия счастливого будущего

Kafolatti xizmat-daromatning garovidir-гарантийная услуга – гарантия доходов

Yoshlikni yerga sovurish jinoyatdir-напрасно потраченная молодость- преступление

Vazifa: "Kelajak bunyodkorlari" mavzusida esse yozib kelish.

1-topshiriq: *Savollarga og'zaki javob bering.*

1. Siz "Kelajak ovozi" yoshlar tashabbuslari markazi haqida nimalarni bilasiz. Unga qiziqqanmisiz?
2. Siz qanday g'oyani ilgari surgan bo'lardingiz? Bu haqda o'ylaganmisiz?

2- topshiriq. Matnni o'qing va unga savollar tuzing.

O'n besh nasihat

Bir donishmandning o'z farzandiga qilgan nasihatlari:

- Yaxshi vatanparvar bo‘lish, hayotda muvaffaqiyat qozonish, jisman va ruhan mukammal bo‘lish uchun mehnatni sev, ish odami bo‘l.
- Yalqovlikdan uzoqlash, g‘ayratli bo‘l, vujudingni harakatga bag‘ishla, tinma, tirish, olg‘a bos!
- Ehtiyot bo‘l, hamma ishingda tartib va intizomga rioya qil.
- Senga jamiyat tomonidan topshirilgan vazifani bekamu ko‘st ado qil.
- Sharafing, nomusing va hayotingni qo‘riqla, boshqalarning ham sharaf va nomuslarini hurmat qil.
- Haqiqatni sev, yurish-turishingda sodda va tabiiy yo‘lni tut.
- Samimiy, pok qalbli va haqiqatgo‘y bo‘l.
- Muloyim, lutfli, marhamatli va do‘stparvar bo‘l.
- Mutaassib (fanatik) bo‘lma, hur fikrli bo‘l.
- Mutolaa va tekshirish bilan aqlingni, zehningni, fahm va idrokingni tarbiyat qil, o‘stir.
- Qanoatli, hammaga mehribon va g‘amxo‘r bo‘l.
- Hurmatga sazovor bo‘lgan kishilar va narsalarga ehtirom qilishni unutma.
- Mardlik, jasorat va shijoatni o‘zingga shior qilib ol.
- Sharaf va nomusingga dog‘ tushirish ehtimoli bo‘lgan har turli zavq-safodan kech.
- Go‘zal axloqning matonati, hissiyotning olijanoblighi bilan vujudingga sihat va latofat bag‘ishla.

3-topshiriq. Quyidagi matnlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Гибельная оптика?

Несколько лет тому назад во Франции торговцы антиквариатом обратились к гражданам и представителям прессы с довольно странной просьбой. Они категорически не рекомендовали коллекционерам приобретать старинное кривое зеркало с надписью на раме: "Луи Арпо, 1743 год". Причиной предубеждения явилась неожиданная пропажа этого антикварного изделия. Дело в том, что зеркало Луи Арпо почти целый век находилось... в заключении. А точнее - хранилось на складе полицейского управления Парижа, поскольку с ним связывали гибель 38 человек. В 1997 году профессор криминалистики попросил разрешения взять зеркало для демонстрации на лекциях, но оказалось, что на складе его нет...

Сюжет на будущее

(отрывок из лекции Сьюзен Гринфилд)

... Достижения науки и техники в XXI веке, вполне возможно, изменят до неузнаваемости то, как мы живем, думаем, чувствуем и видим. По мере развития окружающего мира наш разум, сама природа человека тоже будет трансформироваться. Вероятно, мысль о грядущем переустройстве разума многим покажется спорной... Мозг удивительно пластичен – все в окружающем мире, что может воздействовать на ассоциативные связи, меняет и структуру мозга на клеточном уровне, и сознание человека.


Возможно, наиболее показательный пример такой точки зрения недавно представлен в отчете Королевского института: у лондонских таксистов, постоянно «прокручивающих в мозгу» расположения и названия улиц, определенный участок мозга по размеру больше, чем у других людей.

...Так что же может случиться с нашим разумом в XXI веке, когда все научные открытия XX столетия воплотятся в жизнь?

GRAMMATIKA: SO‘ZLARNING SHAKL VA MA’NO MUNOSABATIGA KO‘RA TURLARI. OT - SO‘Z TURKUMI.



O‘zbek tilida so‘zlar shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:



SHAKLDOSH SO‘ZLAR (OMONIMLAR)

Aytilishi va yozilishi bir xil bo‘lib, turli atash ma‘nolarini bildirgan so‘zlarga shakldosh so‘zlar deyiladi. *Misol: bel, qirq, uch, tush, chang, och, gullar, olma, bog‘lar, kech, ko‘k.*

Shakldosh so‘zlar so‘z o‘yinlari hosil qilishda va tuyuqlar yaratishda asosiy badiiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. *Misollar: lut, qo‘y, qo‘sh, o‘t, tort, is, rasm, qil, til, ot va boshq.*

Shakldosh so‘zlar bir qarashda ko‘p ma‘noli so‘zlarga o‘xshab ketadi. Ularni bir-biridan farqlash kerak. Ko‘p ma‘noli so‘zlar bir so‘zning o‘z va ko‘chma ma‘nolarida qo‘llashdan hosil bo‘ladi. Shakldosh so‘zlar esa shakli o‘xshash ikki va undan ortiq so‘zlardir.

MA‘NODOSH SO‘ZLAR (SINONIMLAR)

Bir umumiy ma‘noni ifodalovchi ikki va undan ortiq so‘zlarga ma‘nodosh so‘zlar deyiladi. Ma‘nodosh so‘zlar bir ma‘noni xilma-xil so‘zlar orqali turli nozik ma‘no qirralari bilan ifodalashda, so‘z sehrini namoyish etishda, nutqni bezashda, ta’sirchanligini ta’minlashda katta ahamiyatga ega.

Ma‘nodosh so‘zlar belgi, predmet, shaxs, voqeaning bir necha nomlar bilan aytilishidir. *Masalan, odam, inson, kishi, bashar; yel, bo‘ron, sabo, nasim; katta, buyuk, ulug‘; gapirdi, aytdi, so‘zladi, dedi, uqtirdi, bayon etdi va b.*

Sinonimlar badiiy uslub vositasi bo‘lib, adabiy tilni boyitish manbalaridandir. Ona tili imkoniyatlarimizdan (*bet - yuz*) va boshqa tillardan so‘zlar olish yo‘li bilan sinonimik qatorlar kengayaveradi: *dastur (reja), nasim (yel), botir (mard, jasur, qahramon), ota (padar), o‘qituvchi (muallim), kishi (inson, bashar), bitik (kitob), et (go‘sh), el (yurt, diyor, vatan), chiroy (husn), chiroyli (go‘zal, ajoyib), katta (buyuk), tug‘ilmoq (tavallud topmoq)* va b.

Sinonimlar nutqni ravon va ta’sirli qiladi: Erur bas chu husn-u malohat senga, *Yasanmoq, bezanmoq* ne hojat senga. (N.) Shu qadar *chiroyli*, shu qadar *go‘zal!* Minglab

gulistondan afzaldur bu joy. Minglab *gulistonga*, minglab *chamanga* Bahuzur ko'rk bo'lur undagi chiroy. (U.)

Ma'noni kuchaytirish va ta'kidlash uchun sinonimlar birin-ketin qo'llanadi:

Ul oyki, kula-kula qirog'latdi meni,

Yig'latdi meni demayki, siqtatdi meni. (N.)

Sadoqatli, qadrdon, oshno-yu, do'st-uyorimbor. (Habibiy)

ZID MA'NOLI SO'ZLAR (ANTONIMLAR)

Qarama-qarshi ma'noli so'zlarga zid ma'noli so'zlar deyiladi.

Antonimlarga misollar: *katta-kichik, bor-yo'q, yaxshi-yomon, achchiq-shirin, oq-qora, oz-ko'p, yolg'on-rost, yosh-qari, xursand-xafa, do'st-dushman, achchiq-chuchuk* va boshq.

Yaxshi topib so'zlar, *yomon* qopib so'zlar. *Yaxshi* bilan yursang, yetarsan murodga, *yomon* bilan yursang, qolarsan uyatga. Yaxshidan bog' qoladi, yomondan – dog'. *Dono* so'ziga bino qo'yadi, *nodon* – o'ziga.

Zid ma'noli so'zlar doimo ikki qarama-qarshi a'zodan iborat bo'ladi. Birini aytsak, ikkinchisi xayolimizga keladi. *Masalan: achchiq* deyishimiz bilan *shirin* esimizga tushadi. Zid ma'noli so'zlar birgalikda qo'llanib, yangi so'z hosil qilishi mumkin. *Masalan: yosh-u qari-bari, achchiq-chuchuk-ovqat turi, uzoq-yaqindan-hamma yoqdankabi.*

Eslatma: Qarama-qarshi ma'noli so'zlar yonma-yon kelganda, ular orasiga chiziqcha qo'yiladi: *kecha-kunduz, katta-kichik, yosh-qari (hamma).*

Agar antonimlar orasida va bog'lovchisi kelsa, chiziqcha ishlatilmaydi, agar -u, -yu yuklamalari kelsa, chiziqcha ishlatiladi: *Bunda yondosh shodlik va qayg'u. Yer-u osmon, kecha-yu kunduz. (E. V)*

PARONIM SO'ZLAR

Faqat bir tovushi bilan farqlanuvchi, lekin bir xil talaffuz qilinadigan so'zlarga paronimlar deyiladi. Ularda birgina tovush so'z mohiyatini ochishga xizmat qiladi *Misol: abzal-afzal, daho-daha, dovon-devon, tub-tup, bob-bop, yod - yot, xiyla - hiyla, ahl - ahl, ijobiy - ijodiy*



OT

Nega lablarimda kezar tabassum?

Hayot go'zal, hayot maroqli,

Shuning uchun erka ko'ngil shod. (Uyg'un)

3-mashq. Quyidagi soz'larni tarjima qiling va sinonimlar topib yozing.

Смелый, старый, известный, трудиться, недостаток.

4-mashq. O'qing. Shakldosh so'zlarni topib, ularning ma'nolarini izohlang.

Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,

Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot.

Nasihatim yod qilib ol, farzandim,

Yolo'iz yursa, chang chiqarmas yaxshi ot.

Ba'zilar bor go'yo ho'l o'tin,

Tutab yonar, ko'rmasan o'tin,

Yangilikka qayishmas sira

Xoh buyur-u, xoh ming o'tin.

5-mashq. Quyidagi shakldosh so'zlarning ma'nolarini izohlang, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Ot, yoz, tok, yot, soch, zang, qo'y, o'q, tom, to'p, muzlar, doira, tush, gullar, soz.

6-mashq. Berilgan so'zlardan antonimik juftlar hosil qiling va ularni yozing.

Kun, rost, xursand, yolg'on, keng, tun, yorug', tuzmoq, ingichka, sovuq, yo'q, o'ng, past, sekin, buzmoq, xafa, tor, yo'g'on, issiq, quyi, kirish, chap, baland, tez, yuqori, bor, chiqish, qorong'i.

8-mashq. Gaplarni ko'chirib, antonim so'zlarning tagiga chizing.

El aziz etgan kishini hech kishi xor aylamas. Avval o'yla, keyin so'zla.

Do'stlar shod, dushmanlar g'amgin...

Sultonali mirzo Anvarning tashqi ahvoli bilan yaxshi tanish bo'lsa ham, uning ichki siridan voqif emas edi. Ra'no o'zining bunday harakatlariga qarshi onasidan yaxshi-yomon mukofot olmasa ham, ko'pincha otasidan tanbeh eshitadi. Birovning og'irini yengil qilgan, mushkulini oson qilgan odam xalqdan rahmat oladi.

9-mashq. Quyidagi so'zlarning har bir ma'nosiga antonim toping.

- | | |
|------------|--|
| 1. To'g'ri | to'g'ri yo'l
to'g'ri odam
to'g'ri gap
to'g'ri yozmoq
to'g'ri javob |
| 2. Ko'p | ko'p odamlar
ko'p kitob |
| 3. O'tkir | o'tkir asbob
o'tkir zehn
o'tkir burchak
qalami o'tkir |

Topshiriq. Berilgan paronim so'zlarning ma'nosiga e'tibor bering. Paronimlar so'zlar qatorini davom ettiring.

ABAD — OBOD

Abad — doimiy, mangu.

Obod — obodon, farovon, sergavjum.

ABZAL — AFZAL

Abzal — yugan, egar, jabduq kabi ot asboblari majmui.

Afzal — nisbatan yaxshi, durust, ma'qul.

ADIL — ADL

Adil — tik, to'g'ri.

Adl — adolatli, odil.

AZIM — AZM

Azim — g'oyat katta, ulkan.

Azm — qat'iy qaror, jazm.

ASIR — ASR

Asir — asirlikka tushgan odam, tutqun.

Asr — yuz yillik davr.

BURJ — BURCH

Burj — *esk.* Yulduzlar turkumi, to'dasi. *O'n ikka burj.*

Burch — vazifa, iftixor.

GANJ — GANCH

Ganj — xazina, boylik.

Ganch — suvoq uchun ishlatiladigan unsimon qurilish materiali.

DAVO — DA'VO

Davo — shifo.

Da'vo — da'vogar yoki javobgar tomonidan qilinadigan qat'iy talab; tuhmat.

YONILG'I — YOQILG'I

Yonilg'i — gaz, kerosin, benzin kabi yonuvchi suyuqliklar majmui.

Yoqilg'i — o'tin, ko'mir kabilar majmui.

XIYLA —HIYLA

Xiyla — ancha, anchagina, ko'pgina.

Hiyla — nayrang, firib.

SHOX — SHOH

Shox — butoq, shox-shabba.

Shoh — podshoh, hokim.

Test savollarini yeching.**1. Qaysi javobda sinonimlar ta'rifi berilgan?**

- A) Aytilishi va yozilishi bir xil, ammo ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar.
- B) Shakli har xil, ammo ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlar.
- C) Qarama-qarshi ma'noli so'zlar.
- D) Ma'lum hududda ishlatilib, faqat shu yerda yashovchi kishilarga tushunarli bo'lgan so'zlar.

- 2. Javoblarning qaysi birida sinonim soʻzlar berilgan?**
- A)) Koʻylak, doʻppi, chopon
 - B) Ketdi, chopdi, yurdi.
 - C) Goʻzal, chiroyli, barno.
 - D) Suv, havza, koʻlmak.
- 3. Tilda antonimi bor soʻzlar guruhini toping**
- A) Shahar, sevgi, aniq.
 - B) Qarz, hajm, yurak.
 - C) Chiqim, quvvat, soch.
 - D) Bezovta, keksa, rost.
- 4. “Juda” soʻzining sinonimlari koʻrsatilgan qatorni toping.**
- A) Ahil, qadrdon, totuv, inoq
 - B) Ahil, oz, yaqin, hamjihat
 - C) Ishsiz, bekor, totuv, birga
 - D) Gʻoyat, nihoyatda, biram

9-mavzu. ZAMONAVIY DUNYODA TA'LIM

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Matnni reja asosida so'zlab berish.

Yozma nutq: Turli mamlakatlarning ta'lim tizimlari haqida ma'lumot tayyorlash. Chet ellik talabalar hayoti aks ettirilgan badiiy asar yoki film haqidagi taassurotlarni yozish. Turli ta'lim muassasalari haqida polilog tuzish va uni inssenirovka qilish.

Grammatika: Til va terminologiya. Otning ma'no turlari. Otlarda egalik va kelishik shakllari.

Tayanch so'z va iboralar: ta'lim tizimi, umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim, o'rta maxsus ta'lim tizimi, institute, universitet, til, terminologiya, atama, ot, egalik shakli, kelishik shakli.

O'zbekistonning ta'lim tizimi

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilardan iborat:

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;
- ta'lim tizimi ishlashi va rivojlanishi uchun kerakli tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy-pedagogik tashkilotlar;
- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari shuningdek ular boshqaruvi ostidagi korxonalar, muassasa va tashkilotlar.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi yagona va yaxlitdir


O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.




Ta'limni boshqarish organlari

Ta'lim tizimining umumiy boshqaruvini Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi alohida oliy ta'lim muassasasi, Toshkent Islom Universiteti, shuningdek xalqaro mashhur xorijiy OTMLar (MDU, Westminster Universiteti va hokazo) filiallarini bevosita boshqaradi.



O'zR OOMTV TIZIMI TASHKILY STRUKTURASI



O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI YANGILIKLAR

O'zbekistonda flagman darajadagi universitetlarni tashkil etish, masalan, Milliy universitet, Politexnika universiteti yoki Samarqand universitetini jahon reytinglariga kiritishga oid aniq topshiriq berildi. Shu bilan birga, universitetlar o'z-o'zini boshqarishda ularga ko'proq mustaqillik va yangi imkoniyatlar berish vazifasi ham topshirildi. Hozir butun dunyoda "Universitet – 3:0" degan yangi shakl ommalashmoqda, ya'ni bu OTMLarda nafaqat ta'lim berish, balki ularning qoshida tadqiqot institutlari, texnoparklar, katta laboratoriyalar va muzeylar tashkil etishni ko'zda tutadi. O'zbekistondagi oliygohlarini ham shunday yangi shaklga o'tkazishga doir vazifa qo'yildi.

RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISH TAJRIBASI


Oliy o'quv yurtlarida kadrlar tayyorlash, ta'lim tizimini isloh qilishning jahonda tan olingan, tajribada isbotlangan 4 ta modeli mavjud. Bular AQSh, Fransiya, Germaniya va Yaponiya mamlakatlarining modellaridir. Ular, garchi, umumiy qoida va yo'nalishlar bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lsa-da, lekin mavjud mamlakatlarning hozirgi iqtisodiy, ijtimoiy-

siyosiy holati, milliy xususiyatlari hamda fuqarolarning yashash sharoitidan kelib chiqib, farq qiladi. Masalan, Yaponiya ta'lim tizimida «Oila» omiliga katta e'tibor berilgan. Amerika yoki Fransiyada esa mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda pullik maktablar joriy etilgan. Lekin ayrim mamlakatlarda o'zini oqlagan va samara bergan modellarni o'zga davlatlar uchun to'g'ridan-to'g'ri qo'llab yoki tatbiq etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlar tajribalari chuqur o'rganilib, milliy hamda respublikamizga xos bo'lgan xususiyatlar, sharoitlar inobatga olingan holda kadrlar tayyorlash tizimining yangi modeli ishlab chiqildi. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish tizimlari yaxlit ma'rifiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-ma'naviy ierarxiyasi (hukmronligi)ning uzviy mushtarakligidan tashkil topgan.

O'zbekiston yoshlari katta malaka va tajribaga ega ustozlaridan olgan bilimlari bilan bugun dunyodagi tengdoshlari safidan munosib o'rin egallashdi. O'tgan yili Qozog'iston poytaxti Astanada o'tkazilgan kimyo fani bo'yicha 46-xalqaro Mendeleev olimpiadasida o'quvchilarimiz 1 oltin, 2 kumush, 3 bronza medalini qo'lga kiritdi. Bu yil O'zbekistonda o'tgan 47-xalqaro Mendeleev olimpiadasida esa dunyoning 17 davlatidan kelgan 117 nafar iqtidorli o'quvchilari bilan bilim kuchini sinashgan yigit-qizlarimiz 2 oltin, 5 kumush va 8 bronza medallariga ega bo'lishdi. Yana bir misol, 2013 yil may oyiga qadar 40 nafar iste'dodli yoshlarimiz Fransiya, Italiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Ruminiya, Rossiya, Ozarboyjon kabi davlatlarda o'tkazilgan turli xil nufuzli xalqaro musiqa tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritdilar.

Milliy ta'lim tizimimizda chet tillarni o'qitishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu borada 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori chet tillarni mukammal o'zlashtirgan yigit-qizlar safini yanada kengaytirmoqda, ularning xalqaro ko'lamda ilm olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirib, xorijiy tillarni bilish darajasini yuksaltirmoqda.

Jahondagi eng nufuzli Universitetlar sharhi




SINGAPUR MILLIY UNIVERSITETI

Singapur Milliy universiteti - bu mamlakatning eng yirik va qadimgi oliygohlaridan hisoblanadi. **1905 yilda** barpo etilgan. Bu dargohda 100 davlatdan 30 000 ga yaqin talabalar tahsil oladilar. Osiyodagi nufuzli universitetlarlan biridir. 2009 yilda Singapur Milliy universiteti 88 ta eng yaxshi universitetlar qatoridan o'rin olgan. Milliy Universitetning 14 ta fakulteti bo'lib, 27 ta dastur bo'yicha tahsil beradi.



OKSFORD UNIVERSITETI

Oksford universiteti yoki bo'lmasa shunchaki Oksford yevropadagi ikkinchi eng qadimiy oliygohlardan biridir. Bu bilm yurtida 100 tadan ortiq kutubxona mavjud bo'lib, ulardan 40 tasi Bodlian sistemasidagi kutubxonalarga kiradi, ya'ni Yevropadagi eng qadimgi va dunyo, hamda Velikobritaniyadagi eng yirik kutubxonalardir. Universitetga bir nechta muzeylar ham tegishlidir. Ularga, Eshmolov muzeyi, tarix va fan muzeyi va Pit Rivars muzeylaridir.



Lug'at

turg'un – стабильный
vosita – средство
misralar – строки
kitobxon – читатель
aksincha – напротив
ijod va iste'dod – творчество и талант
ta'sirchan - чувствительный
umummilliy va umumdavlat – общенациональный и общегосударственный
jarayon – процесс

Vazifa:

O'zbekistondagi "TURIN", "INHA" kabi universitetlar ta'lim jarayonining o'ziga xosligi haqida yozma ma'lumot tayyorlang.

GRAMMATIKA: TIL VA TERMINOLOGIYA. OTNING MA'NO TURLARI. OTLARDA EGALIK VA KELISHIK SHAKLLARI.



Respublikamiz o'z mustaqilligiga, ona tilimiz esa Davlat tili maqomiga erishgan bugungi kunda turli fanlar, jumladan, o'zbek tilshunosligi oldida yangidan-yangi vazifalar ko'ndalang bo'lmoqda. Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy-texnik tub o'zgarishlar davrida yangi-yangi fanlar va tushunchalar yuzaga kelmoqda. Jumladan, o'zbek tilida ham yangi terminlar paydo bo'lmoqda, ilgari ishlatib kelingan qator leksemalar yangi ma'nolar kasb etmoqda. Shu boisdan leksikologiya, xususan, terminologiya oldida qator muhim masalalarni yechish vazifasi

turibdi.

So'nggi yillarda va bugungi kunda terminologiyaning amaliy va nazariy masalalarini yanada chuqurroq o'rganish, terminlar yaratish va ularni qo'llashni til qonuniyatlari asosida tartibga solish davlat ahamiyatiga molik muammoga aylandi. Shuning uchun ona tilimizning turli terminologik tizimlarini yanada teranroq tadqiq etish, ularni terminologiyaning xilma-xil masalalari bo'yicha atroflicha tadqiq qilish, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Yangi terminlar ichida kimyo-texnologiya bo'yicha terminologik tizim ham o'ziga xos o'rinni egallab kelmoqda. Shu boisdan fan va texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida bu terminlarni ham tilshunoslik nuqtayi nazardan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi bosqichda, yangi ilmiy-texnik inqilob davrida ishlab chiqarish, fan va texnikaning barcha sohalarida yangidan-yangi narsa, predmetlar va tushunchalar paydo bo'la boshladi. Bu hol til lug'at tarkibining salmoqli ravishda boyishiga olib kelmoqda. Binobarin, termin muammosi hozirgi leksikologiyaning, asosiy masalalaridan biri bo'lib qoldi. Alohida ta'kidlash lozimki, termin hamda terminologiyaning u yoki bu masalasini hal yetish nafaqat ishlab chiqarish, fan va texnikaning tegishli sohalar uchun yemas, balki tilshunoslik uchun ham katta ahamiyatga egadir.

“Termin” tushunchasiga yuklangan mazmun quyidagicha belgilarga asoslanadiki, bular terminlarni umumiste'moldagi so'zdan farqlash uchun yetarli:

1) termin-umumadabiy tilning maxsus vazifa bajaruvchi bir turi bo'lmish ishlab chiqarish, fan va texnika tiliga mansub lisoniy birlik, bir so'z yoki birikmadir;

2) termin-konkret narsa-predmet, ashyo, mavhum tushunchalarning maxsuslashtirilgan nomidir;

3) termin uchun muayyan ta'rif zaruriydirki, uning yordamida tegishli

tushuncha mazmunini aniqroq ifodalash, tushunchaning birini ikkinchisidan chegaralab ajratish imkonini beruvchi, ayni mahalda ma'lum tushunchani muayyan tasnifiy qatorga joylashtirishga yo'l qo'yuvchi, farqlovchi belgilarini ravshanroq ko'rsatish mumkin.

Har qanday tushunchalar tizimiga muayyan terminlar tizimi to'g'ri keladi. Terminologik tizimlar fan taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib boradi. Terminlar umumiste'moldagi so'zlardan farqli ravishda joriy qilinib ularning qo'llanishi ma'lum darajada nazorat ostida bo'ladi.

Respublikasining Davlat tili haqidagi Qonuni qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Respublika terminologiya qo'mitasining ish boshladi, terminologiya masalalariga bag'ishlab Respublika miqyosida bir necha ilmiy-amaliy, ilmiy-nazariy konferensiyalarning o'tkazilgan.

Topshiriqlar:

1. “Davlat tili”ning ma'nosini izohlang.

2. "Iqtisod tili"ning ma'nosini tushuntiring.
3. "Termin" nima?
4. "Atama"ning termindan farqini izohlang.
5. "Atamaqo'm" tashkiloti va uning vazifasi.
6. Terminlarning tildagi boshqa so'zlardan farqi.
7. O'zbek terminologiyasi bo'yicha yaratilgan ilmiy ishlar mualliflari.
8. So'z va termin haqida tushuntirish bering.

Takrorlash uchun savollar:

1. Terminlar bo'yicha qilingan dastlabki ishlarning mualliflaridan kimlarni bilasiz?
2. Terminlar qanday so'zlar hisoblanadi?
3. Atama va terminning farqi nimada?
4. Sohaviy terminologiya nimalardan tashkil topadi?

KELISHIK SHAKLLARI

Otlarga qo'shib, ularni o'zidan keyin kelgan boshqa so'zlarga tobelashtirib bog'lab keladigan qo'shimchalarga kelishik qo'shimchalari deyiladi.

Tilimizda 6 ta kelishik mavjud bo'lib, ulardan beshtasining qo'shimchasi bor:

- 1) bosh kelishik (-);
- 2) qaratqich kelishigi (-ning);
- 3) tushum kelishigi (-ni);
- 4) jo'nalish kelishigi (-ga, -ka, -qa);
- 5) o'rin-payt kelishigi (-da);
- 6) chiqish kelishigi (-dan).

O'zbek tilida oltita kelishik mavjud bo'lib, ularning har qaysisining o'z nomi va shakli bor. So'zlarning egalik qo'shimchalari bilan shaxs va sonda hamda kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi turlanish deyiladi.

EGALIK SHAKLLARI VA ULARNING IMLOSI

Otlarning uch shaxsdan qay biriga qarashli ekanligini bildirgan qo'shimchalarga egalik qo'shimchalari deyiladi.

Egalik qo'shimchasi qo'chilgan ot, albatta, o'zidan oldingi otning qaratqich kelishigida kelishini talab qiladi.

K va q undoshlari bilan tugagan otlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda, qanday eshitilsa, shunday yoziladi, ya'ni ba'zan k undoshi g tovushiga, q undoshi g' tovushiga o'zgaradi.

Masalan: tuproq-tuproq'i, terak-teragi. ..

Ayrim so'zlarda bunday o'zgarish yuz bermaydi. Masalan: huquq-huquqi, idrok-idroki.

O'g'il, burun kabi otlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, ikkinchi bo'g'indagi i yoki u unlisi tushib

qoladi va o'gli, burni kabi yoziladi.

Ismlarga qo'shib, asos qismda ifodalangan narsa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarni uch shaxsdan biriga qarashlilikini bildirgan qo'shimchalar egalik qo'shimchalari hisoblanadi.

Undosh bilan tugagan ismlarga -im, -imiz, -ing, -ingiz, -i, -lari; unli bilan tugagan ismlarga -m, -nuz; -ng, -ngiz; -si, -(tar)i qo'shimchalari qo'shiladi.

-m (-im) -ng (-ing), -i (-si), -miz (-inuz), -ngiz (-ingiz), -lari qo'shimchalari ismlarga (ot, sifat, son, taqlid so'z, olmosh, sifatdosh, harakat nomlariga) qo'shiladi va qaralmishni (so'z anglatgan predmet, belgi, xususiyat, harakatni) ma'lum bir shaxsga (predmetga) qarashli, tegishli ekanligini ifodalaydi.



1-mashq. *Quyidagi parchani o'qing va undagi egalik qo'shimchalarini aniqlang.*

U mening tarjimai holimga singib ketgan, axir! Tushunyapsizmi? Mening butun quvonchlarim, zavqlarim, hayotimning ma'nosi. Vatan oldidagi burch, ilk muhabbatim ham... o'sha bilan bog'liq. Usiz o'tmishim yo'q... Shunaqa bo'larkan-da hayot!.. Iltimos, to'xtating... Anavingga qarang! Yo'l yoqasiga! Ajriqzorgayam sepishibdi-ku? Sap-sariq bo'lib yotibdi! (Sh.X.)

2-mashq. *Nuqtalar o'rniga qaratqich va jo'nalish kelishigi qo'shimchalaridan mosini qo'yib ko'chiring.*

O'rtog'im... ukasi pedagogika instituti... o'qish... kirdi. 2. O'rtog'im ukasi... xat yozdi. 3. Biz Samarqand... eskursiya... bordik. 4. Qishki sessiyadan keyin biz... talabalarimiz Buxoro... bormoqchilar. 5. Kecha akam armiya xizmati... ketdi. 6. Qosimov... onasi tuman kasalxonasida vrach bo'lib ishlaydi. 7. Zaldagilar ma'ruzachi... so'zini diqqat bilan tingladilar. 8. Bugun shanbalik... hamma keldi. 9. Kecha universitet... kelgan mehmonlar xursand bo'lib ketdilar. 10. Oliy o'quv yurtini bitirib, viloyatlar... ish... ketamiz.

10-mavzu. KITOB MUTOLAASI

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matnni ijodiy so'zlash. Kitobni tavsiya qilish usullari haqida fikr bildirish.

Yozma nutq: O'qilgan kitoblar to'g'risida dialog tuzish va uni inssenirovka qilish. O'qilgan kitoblar ro'yxatini tuzish va ularga qisqacha tavsif berish.

Grammatika: Erkin va turg'un birikmalar. Frazelogik birliklarning turlari va uslubiy xususiyatlari.

Tayanich so'z va iboralar: *mutolaa, mutolaa madaniyati, birikma, erkin birikma, turg'un birikma, fe'l, harakat fe'llari, holat fe'llari.*



KITOB – BILIMLAR XAZINASI

Kitob - bilim manbai

*Agar yolg'iz ersang, hamdam kitobdir,
Bilim subhidagi nur ham kitobdir.*

(Donolar bisotidan)

Hozirgi axborot asrida, turli vositalardan turfa xil xabarlar olish mumkin. Ammo, kitob mutolaasi bilan ham shug'ullanish juda zarur hisoblanadi. Kitob bu bebaho xazina, uni mutolaa qilish lozim. U tafakkurni o'stiradi, aqlni izlanish va hodisalarni tahlil qilishiga yordam beradi.

Kitob - insonning eng yaqin do'sti va maslahatchisi, aql qayrog'i va bilim manbaidir. Kitob fikrlash quroli, xazinalar kaliti, tafakkur manbai bo'lgani uchun ham xalqimiz uni nonday aziz, mo'tabar va muqaddas deb hisoblagan. Shuning uchun kitobga muhabbat, uni qadrlash, o'qishga ishtiyok xalqimizning qon-qoniga singib ketgan.

Ayniqsa, buni donolarning o'g'itlari, yozma manbalar, xalq og'zaki ijodi durdonalari, xalqning an'anaviy tarbiya usullarida aks etgan kitob bilan bog'liq xilma-xil hayotiy rasm-rusumlar, udumlar va urf-odatlardan ham bilish mumkin. Xalq kitob haqida naql-rivoyatlargina emas, balki ko'plab maqollar, aforizmlar, topishmoklar, hikmatlar ham

yaratgan. Jumladan, Abdurahmon Jomiyning kitob haqidagi ushbu misralarini keltirishimiz mumkin.

Bilimdonlar so‘zi bordur bu bobda:
"Bilimdon go‘rda-yu, ilmi kitobda!"
Agar yolg‘iz esang, hamdam kitobdur,
Bilim subhidagi nur dam kitobdur.

Kitob va kitobxonlik haqidagi xalq an‘anaviy pandnomasi bilan ulug‘larning dunyoqarashi, mulohazalari bir-biriga juda yaqin, biri ikkinchisini to‘ldiradi. Bu hol kitobning katta ma‘naviy kuchga egaligi, kitobxonlik inson uchun yuksak mezon ekani bilan izohlanadi.

Kitobxonlik tor ma‘noda kitob o‘qishni bildirsa, keng ma‘noda tanlab o‘qish, his etish, anglash va fikr bildirish tushunchalarini o‘z ichiga qamrab oladi. U badiiy adabiyot, adabiy tanqid va pedagogika ko‘magida yuksala boradi. Kitobxonlik kecha yoki bugun tug‘ilgan emas. Xususan, Mahmud Qoshg‘ariyning "Devonu lug‘atit turk", Abu Abdullo al-Xorazmiyning "Mafatix al-ulum", Yusuf Xos Xojibning "Qutadg‘u bilig", Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziyning "Qisasi Rabg‘uziy", Xondamirning "Makorim ul-axlok" va Alisher Navoiy, Zahiriddin Boburlarning qator asarlarida kitobxonlikka oid qimmatli fikrlar bayon qilingan.

Kishining madaniyati uning kitobida aks etadi. Shu ma‘noda bugungi kunda kitob o‘qish va unga munosabat bir qadar susaygandek. Chunki yoshlar ko‘proq kino, video, televidenie, kompyuterga berilib ketdi. Kompyuter hozirgi kunda ko‘pgina xonadonlarga ham kirib kelgan. Istalgan yangiligi axborotlarni bu vositalardan xohlagancha olish mumkin.

Achinarlisi, bugun kitob o‘qish uchun vaqt sarflashga hojat yo‘qdek. Aslida, hech bir axborot vositasi, kino yoki videofilm badiiy asar o‘rnini bosolmaydi. Ma‘rifatli oilalarda kitobga e‘tibor farzandlar tarbiyasida qo‘l keladi. Kitobni inson tafakkurining qanotlariga o‘xshatishgan. Zero, tafakkuri, fikr doirasi keng, ma‘rifatli kishilar jamiyatning chinakam boyligidir. Aksincha, hayotda ro‘y berib turadigan ayrim noxushliklar ildizi esa ma‘rifatsizlik, kitob o‘qimaslikning achchiq mevasi.

Temirni zang kemirganidek, odamni ham ma‘naviyatsizlik mo‘rt qiladi. Ma‘naviyat esa insonga kitob o‘qish orqali yuqadi. Har qanday yangilik ham bir kun eskiradi. Biroq insoniyatning ming-ming yillar davomida qo‘lga kiritgan aqliy hamda fikriy durdonalarini o‘zida jamlagan kitoblar aslo eskirmaydi. Binobarin, kitob-hamisha ilm-ma‘rifat, adab va axloq manbai bo‘lib kelgan. Bugungi kunda yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ham kitobdan ko‘ra qudratliroq vosita yo‘q.

Bizga yaxshi ma‘lumki, bugungi kunda mamlakatimizda kitob mahsulotlarini nashr qilish va tarqatish tizimi samaradorligini oshirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish masalasiga katta ahamiyat berilmoqda. Bunday muhim vazifani amalga oshirish uchun yurtimizda 118 ta nashriyot, 1 ming 760 ta matbaa korxonasi, minglab ijodiy va texnik xodimlar faoliyat olib bormoqda. Ularning sa‘y-harakatlari bilan har yili 7 tilda 60 million nusxadan ortiq kitob chop etilmoqda.

Hozirgi kunda kutubxonalar kitobxonlarga xizmat ko‘rsatibgina qolmay, balki kutubxonada turli tadbirlar va bayramlar o‘tkazish doimiy ishga aylanib bormoqda. Kutubxonalarda kitobni targ‘ib etish maqsadida kutubxona xodimlari turli usullardan foydalanadilar. Masalan, kitob ko‘rgazmasi, kitobxonlar anjumanlari, turli uchrashuvlar, kechalar, kitob taqdimotlari, kitobxonlik kunlari shular jumlasidandir.

Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, "Chinakam ijod va iste‘dod mahsuli bo‘lgan asarlarni, yozuvchining yuragidan, qalbidan chiqqan haqqoniy va ta‘sirchan fikrlarni keng ommaga yetkazish uchun barcha mavjud vositalardan unumli foydalanish zarur".

Topshiriq:

1. Matnni o‘qing va kitobning inson hayotidagi o‘rni haqida gapirib bering.
2. Nima uchun kitobni bilim manbai deb hisoblaymiz?

3. Oxirgi o‘qigan kitobingiz haqida so‘zlab bering.

4. Quyidagi matnni og‘zaki tarjima qiling.

Kitob – ruhiyatimiz ozuqasi, u bilan do‘stlashish kishini nafaqat yuksaltiradi, balki unga jahonni tanitadi, hamrohlik qiladi, ezgulikka yetaklaydi. “Ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi biz uchun umummilliy, umumdavlat miqyosidagi vazifa bo‘lib, bu ezgu maqsad yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlarimizni izchil va qat’iyatlik bilan davom ettirish bugungi siyosatimizning diqqat markazida turganini yana bir marta uqtirib o‘tmoqchiman”, – deydi Prezidentimiz Islom Karimov bir nutqida. Ushbu “umummilliy va umumdavlat miqyosidagi vazifa”ni bajarish ishiga axborot-kutubxonalar va axborot-resurs markazlari, kutubxonalar ham da’vat etilgani o‘z-o‘zidan ravshan. Ma’lumki, yurtimiz aholisining 60 foizga yaqinini yoshlar tashkil qiladi. Axborot-kutubxonalar va axborot-resurs markazlari, kutubxonalarga kitob mutolaa qilish uchun ham asosan, yoshlarimiz keladi. Demak, yosh avlodni Vatanga, O‘zbekiston xalqining urf-odatlarini va an’analariga muhabbat ruhida tarbiyalash jarayonini rivojlantirish va chuqurlashtirish imkonini beruvchi kitoblarni mutolaa qilishga undash, targ‘ib qilish va bu yo‘nalishdagi faoliyatning yangi shakllarini topish zarur.

Bu borada axborot-kutubxonalar va axborot-resurs markazlari, kutubxonalar kitobxonalar konferensiyalari, she’rxonlik, davra suhbatlari, savol-javob kechalari, bilimdonlar bellashuvi, mavzuli va munozara kechalari, kitob ko‘rgazmalari tashkil etish va ko‘rgazmadagi adabiyotlar obzorini o‘tkazib borishi lozim.

Shuningdek, “Axborot kunlari”, “Yangi kitoblar kuni” kabi turli-tuman tadbirlar shakllaridan foydalanish mumkin.

Kitob – bilim manbai. Kitob – insonning eng yaqin do‘sti va maslahatchisi, aql qayrog‘i va bilim manbaidir. Kitob fikrlash quroli, xazinalar kaliti, tafakkur manbai bo‘lgani uchun ham xalqimiz uni nonday aziz, mo‘tabar va muqaddas deb hisoblagan. Shuning uchun kitobga muhabbat, uni qadrlash, o‘qishga ishtiyoq xalqimizning qon-qoniga singib ketgan.

Ayniqsa, buni donolarning o‘g‘itlari, yozma manbalar, xalq og‘zaki ijodi durdonalari, xalqning an’anaviy tarbiya usullarida aks etgan kitob bilan bog‘liq xilma-xil hayotiy rasm-rusumlar, udumlar va urf-odatlardan ham bilish mumkin.

Xalq kitob haqida naql-rivoyatlarga emas, balki ko‘plab maqollar, aforizmlar, topishmoqlar, hikmatlar ham yaratgan. Jumladan, Abdurahmon Jomiyning kitob haqidagi ushbu misralarini keltirishimiz mumkin.

Kitob va kitobxonlik haqidagi xalq an’anaviy pandnomasi bilan ulug‘larning dunyoqarashi, mulohazalari bir-biriga juda yaqin, biri ikkinchisini to‘ldiradi. Bu hol kitobning katta ma’naviy kuchga egaligi, kitobxonlik inson uchun yuksak mezon ekani bilan izohlanadi. Kitobxonlik tor ma’noda kitob o‘qishni bildirsa, keng ma’noda tanlab o‘qish, his etish, anglash va fikr bildirish tushunchalarini o‘z ichiga qamrab oladi. U badiiy adabiyot, adabiy tanqid va pedagogika ko‘magida yuksala boradi.

Kitobxonlik kecha yoki bugun tug‘ilgan emas. Xususan, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk”, Abu Abdullo al-Xorazmiyning “Mafatix al-ulum”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy”, Xondamirning “Makorim ul-axloq” va Alisher Navoiy, Zahiriddin Boburlarning qator asarlarida kitobxonlikka oid qimmatli fikrlar bayon qilingan.

Kishining madaniyati uning kitobida aks etadi. Shu ma’noda bugungi kunda kitob o‘qish va unga munosabat bir qadar susaygandek. Chunki yoshlar ko‘proq kino, video, televidenie, kompyuterga berilib ketdi. Kompyuter hozirgi kunda ko‘pgina xonadonlarga ham kirib kelgan. Istalgan yangiligi axborotlarni bu vositalardan xohlagancha olish mumkin.

Achinarlisi, bugun kitob o‘qish uchun vaqt sarflashga hojat yo‘qdek. Aslida, hech bir axborot vositasi, kino yoki videofilm badiiy asar o‘rnini bosolmaydi. Masalan, “O‘tgan

kunlar” romani asosida ishlangan film qanchalik mahorat bilan suratga olingan bo‘lmasin, kitobning ta‘sirini, jozibasini berolmaydi.

Kitobxonlik oiladagi muhitga ham bog‘liq. Ma‘rifatli oilalarda kitobga e‘tibor farzandlar tarbiyasida qo‘l keladi. Kitobni inson tafakkurining qanotlariga o‘xshatishgan. Zero, tafakkuri, fikr doirasi keng, ma‘rifatli kishilar jamiyatning chinakam boyligidir. Aksincha, hayotda ro‘y berib turadigan ayrim noxushliklar ildizi esa ma‘rifatsizlik, kitob o‘qimaslikning achchiq mevasi. Temirni zang kemirganidek, odamni ham ma‘naviyatsizlik mo‘rt qiladi. Ma‘naviyat esa insonga kitob o‘qish orqali yuqadi. Har qanday yangilik ham bir kun eskiradi. Biroqinsoniyatning ming-ming yillar davomida qo‘lga kiritgan aqliy hamda fikriy durdonalarini o‘zida jamlagan kitoblar aslo eskirmaydi. Binobarin, kitob-hamisha ilm-ma‘rifat, adab va axloq manbai bo‘lib kelgan. Bugungi kunda yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ham kitobdan ko‘ra qudratliroqvosita yo‘q.

Mutolaa va mutolaa madaniyati

Mutolaa insonni bilimdonlik sari, suhbat topqirlik sari yetaklaydi.

Frensis Bekon

Mutolaa arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, diqqat bilan o‘qish, o‘rganish degan ma‘noni bildiradi. Tarixdan ma‘lumki, inson taraqqiyoti yo‘lida erishgan darajasidan hech qachon orqaga qaytgan emas. Qadim ajdodlarimiz hatto tasavvur qilolmagan g‘aroyibotlar hozir ko‘z o‘ngimizda sodir bo‘lyapti. Demak, imkoniyatlarning cheki, orzu-umidlarning adog‘i yo‘q.

Kitob mutolaasi haqida Gyote shunday fikr bildiradi:

a) nihoyatda mashaqqatli (darhaqiqat, kitob mutolaasi kishidan qunt va sabr, kuchli xotira va yuksak fahm talab etadi);

b) beqiyos sharafli (kitob mutolaasi tufayli hayot qonuniyatlarini chuqur anglay borgan, bilim doirasi kengayib, tushunchasi, dunyoqarashi o‘sgan, ma‘naviy jihatdan yuksalgan);

v) huzurbaxsh (aks holda, kitob mutolaasi bilan muttasil shug‘ullanmagan bo‘lardi).

Kitobxonlik ijodiy ish va u doimiy shug‘ullanishni taqozo etadi, desam, ehtimol ko‘pchilik ishonmas. Siz badiiy asar o‘qishga endigina kirishayotgan bo‘lsangiz, dastlabki paytlarda voqyealar oqimini qiziqib kuzatasiz. Bu qiziqish esa asta-sekin o‘sha voqyea va hodisalar tasviridan tegishli xulosa chiqarishga yo‘llaydi. Asarda tasvirlangan voqyelik bilan hayot voqyeligini farqlash jonli muloqot natijasidir. Kitobxon ularni taqqoslash uchun bosh qotiradi – o‘ylashga majbur bo‘ladi. Shu jarayonda asar voqyeligini hayolida qayta jonlantiradi, qahramonlarning o‘rniga o‘zini qo‘yib ko‘radi, muayyan xulosalar chiqaradi. Ko‘rinadiki, u ham o‘ziga xos ijod qiladi. Kitobxonning ijodkorligi yozuvchi mahoratiga, yana ham to‘g‘rirog‘i, badiiy asar saviyasiga bog‘liq.

Jamiyatda mutolaa madaniyatining tarkib topishi, shakllanishi va rivojlanishida ham umumiy madaniyatning, ya‘ni aholining yalpi ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy tayyorgarlik darajasining o‘rni va roli beqiyosdir. Shunday qilib, qayd etish joizki “mutolaa madaniyati umumiy madaniyatning hosilaviy ko‘rinishidir”.

Mutolaa madaniyati esa, o‘z navbatida, kitobga qiziqish, odamlarning adabiyotlar bilan kengroq tanishish rag‘bati, kitob va u bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo‘lishni, shuningdek, axborot manbalaridan to‘liq foydalanishda ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishni taqozo etadi. Mutolaa madaniyati kishining manbani to‘laqonli tushunishi, undan estetik zavq olishi, muallif fikri va g‘oyasini anglashi hamda uni baholay olishi kabi xususiyatlarga ega bo‘lishini ta‘minlaydi. Kitobni tanlash, uni o‘qish, avaylab saqlash, shaxsiy kutubxona tashkil etish, o‘qilgan kitoblarni boshqalarga tavsiya eta olish ham mutolaa madaniyatiga kiradi. Inson hayoti davomida turli manbalar – kitoblar (badiiy, ilmiy, o‘quv, ensiklopedik va boshqa), ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, televidenie, radio va shu kabilar), zamonaviy axborot texnologiyalari (Internet, elektron kitob, elektron gazeta, jurnal-qo‘llanma


va hokazolar), sub'ekt bilan bevosita muloqotga kirishuvchi shaxslar (oilalar, ish yoki o'qish joydagilar, qo'ni-qo'shnilar va boshqa insonlar) orqali ega bo'linadigan turli yo'nalish va shakldagi umumiy ma'lumotlarni bir-biridan farqlash lozim bo'ladi. Har qaysi davrda mutolaa madaniyatini shakllantirish birinchi o'rinda oilada o'z aksini topish lozim bo'lgan va hozir ham ana shuni taqozo qilmoqda. Jumladan, oilada shaxsiy kutubxona tashkil etish, uni yangi nashrlar bilan to'ldirib borish birinchi omil sanaladi. Kimdir shaxsiy kutubxonasi fondini boyitishni vaundan foydalanishni afzal bilsa, kimdir kitob mutolaa qilish uchun kutubxonani tanlaydi. To'g'risini aytganda, yoshlar o'rtasida kitob mutolaa qilish, kitobga bo'lgan qiziqish biroz susaygandek go'yo. Biroq zamon bilan hamnafas bo'lish, shiddat bilan kechayotgan taraqqiyot jarayoni bu muammoni o'z-o'zidan bartaraf etdi, desak mubolag'a bo'lmas.

Kitob o'qish, kitob bilan so'zlasha bilish, biron-bir muammo ustida bosh qotirganda minglab kitoblardan to'g'ri foydalana bilish kerak. Darhaqiqat, kitobni saralab o'qish va uning mag'zini uqa bilish, kutubxonalar bilan muntazam aloqada bo'lish, umuman, kitobni o'z faoliyati va ijodi bilan bog'lay olish kabi fazilatlar har bir kishi uchun barqaror odatga aylanishi kerak. O'zbek xalq an'anaviy pandnomasi, buyuk mutafakkirlarning kitob haqidagi o'gitlari hozirgi kunda ham kishilarda xususan, yoshlarda kitobga muhabbat tuyg'usini tarbiyalashda, mustaqil mutolaa va fikrlashni o'rgatish va shu singarilarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kitob madaniyati. Ko'pchilik yuqoridagi bu jumladan ajablanishi mumkin. Nahotki, "Kitob madaniyati" bo'lsa!?" Ha, bor!

Hozirgi zamon kishisi kitob asrida yashamoqda. Chunki jahonda har kuni yarim milliondan ziyod kitob bosilib chiqadi. Buning ustiga, benihoyat ko'p jurnallar, almanaxlar, to'plamlar, gazetalar... Kino, teatr, radio, televizor va boshqa xilma-xil vositalar, istasang-istamasang, axborot berib turadi. Chor-atrofnig o'rab turgan muhit ham katta axborot vositasidir. Mana shularning orasidan inson o'ziga kerakligini ajratib olmog'i lozim, bu esa mutolaa-o'qish madaniyati qanday va qay darajada tarbiyalanganiga bog'liq. Shu boisdan ham, kitob o'qish madaniyati xususida xalq an'anaviy pandnomasining ming yillik tajribasi va talab-ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, ayrim mulohazalarimizni umumiy planda o'rtaga tashlab, o'rtoqlashishni ma'qul ko'rdik. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, kitob o'qish madaniyati xalq an'anaviy tarbiya usullariga ko'ra juda keng tushuncha va bag'oyat murakkab muammo bo'lib, taxminan quyidagi holatlarni o'z ichiga oladi.

- 1) kitob tanlay olish;
- 2) kitobni qanday o'qishni bilish;
- 3) kitob o'qiganda nimalarga e'tibor berish va nimalarni esda saqlab qolish;
- 4) kerakli ma'lumotlarni qaerdan, qanday, qaysi vositalardan topish;
- 5) olingan bilimni yoki xabarni qanday yetkazib berish;
- 6) qayta o'qish – kitobxonlik ko'nikmasiga odatlantirish;
- 7) kutubxona kartotekalari bilan ishlay bilish;
- 8) kitobni tez va sekin o'qishni farqlay olish;
- 9) kitobni o'qib, uning fusunkor olamiga kira bilish;
- 10) kitobni mustaqil o'qiy bilish;
- 11) kitobni targ'ib-tashviq qila bilish.



Topshiriq: Berilgan matnlarni o'qing va "Nima uchun?" sxemasini to'ldiring.

Kitob haqida afsona

Naql qilishlaricha o'tgan zamonda bir hukmdor vaziru ulamolarini chaqirib: "Dunyoda eng zo'r, kerakli, hamma narsadan xabardor qiluvchi narsa nima?" – deb savol beribdi.

Birov "Dunyoda eng zo'r narsa – qilich" desa, ikkinchisi, "Eng keraklisi – non", debdi. Hamma narsadan xabar beruvchi narsa – "Oynai jahon", deguvchilar ham topilibdi.

– Uch kun muhlat beraman, – debdi podsho hech kimning javobi yoqmaganligidan darg'azab bo'lib.

Qo'shni podsholikda ta'rifi yetti iqlimga ketgan donishmand yashayotganidan vazirning xabari bor ekan. Vazir:

"Podshohning savollariga shu donishmanddan boshqa hech bir kishi javob topa olmaydi", – deb o'ylabdi-da, uni izlab topib podshohning oldiga olib kelibdi.

– Dunyoda eng kerakli narsa nima? – deb so'rabdi donishmanddan podsho.

– Kitob! – debdi donishmand hech ikkilanmay.

– Kitob?! – ajablanibdi hukmdor.

– Ha, dunyoda eng kerakli narsa kitob, – takrorlabdi so'zini donishmand. – Inson uchun hayotda ikki narsa eng mo'tabar va aziz. Bu – non bilan kitob. Shu boisdan ham non qanchalik mo'tabar sanalsa, kitob ham shunchalik aziz. Non – rizq-ro'z, dasturxon ko'rki, hayot barakasi. O'tmishdan hikoya qiluvchi tarix, bugunni aks ettiruvchi ko'zgu, ertangi kunni aytib beruvchi mo'jiza esa kitobdir. Poklanish, iymon butunligi, ruhiy boylik ham kitobdandir. Kitob insonning maslahatgo'yi, doimiy hamrohidir. "Kitob ko'rmagan odam nodondir, kitob kirmagan uy qorong'u zimistondir", – deydi donishmandlar.

– Shahanshoh, donishmand bu savolingizga ham to'g'ri javob qildi, – deyishibdi saroy ahli.

– Suvu quruqlikdagi hamma joylar, dunyodagi ezgu elatlar haqida xabar beruvchi ham, seningcha, kitobmi? – achchiqlanibdi hukmdor.

– Ha, kitob, – dadil javob beribdi donishmand. – Dunyoni shundoqqina ko'z oldingizga keltirib qo'yadigan ham, hech ko'rmagan va bir umr ko'rolmaydigan kishilar hamda joylar bilan tanishtiradigan ham shu kitobdir. Mana meni olib ko'ring. Men tug'ilib o'sgan qishlog'imdan boshqa hech bir joyda bo'lmaganman. Ammo Marvdan Mashriqqacha, Yamandan Yasargacha yaxshi bilaman, desam maqtanmagan bo'laman. yer yuzida jamiki odamzod bor – ularning hayoti, odatlari, rasm- rusumlaridan ozmi-ko'pmi xabardorman.

Bunga ana shu kitob orqali erishganman. Qur'oni Karim, Hadisi sharifning mo'jizasini aytmay qo'ya qolaylik.

Donishmandning bergan javobidan qoniqqan podsho:

“Saroyimda qolib, bosh maslahatgo'yim bo'li”, – deb qanchalik yalinmasin, donishmand ko'nmabdi, undan olgan oltinlarga esa bozordan kitob xarid qilib, qishlog'iga qaytibdi...

Kitob bilan bog'liq udumlardan namunalar.

Kitobni oyoq bilan bosish qat'iy ma'n etilgan, qattiqgunoh hisoblangan. Zeroki, kitobda ilm bor. Ilm esa favqulodda kuch-qudratga ega mo'jiza.

Ajoyib va g'aroyib kitob

Olimlarning aniqlashicha. Sankt-Peterburgning Saltikov-Shchedrin nomidaga kutubxonasida saqlanayotgan Alisher Navoiyning ilk she'riy to'plami bundan besh asr ilgari buyuk adibning shaxsiy kutubxonasida bo'lgan. Kitob oltin suvi bilan ipak qog'ozda bitilgan va har bir sahifasi naqshlar bilan bezab chiqilgan. Ushbu to'plam Sharqning mashhur hattoti Sultonali Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan.

* * *

Dunyodagi eng katta kitob Amsterdamdagi muzeylardan birida saqlanadi. Bu kitob «Dengiz qoidalari to'plami» deb nomlanadi. Uning eni 1 metr, qalinligi chamasi yarim metr, uzunasiga esa o'rta bo'lyli kishidan ham balanddir.

* * *

Dunyoning 12 ta eng kichik kitobi bir oshqoshiqqa joylashadi. Ular orasida: Kur'oni Karimning mitti nashri, 12 so'zli ingiz tili lug'ati, Galileo Galiley asarlari to'plami, Injildan Yangi Ahd, shoir Robert Byorns she'rlari to'plami, fransuz va nemis ma'lumotnomasi, Muso qonunlari kitobi, hindlarning «Gita» kitobi, irland va shotland qo'shiqlari to'plami bor.

* * *

Dunyodagi eng og'ir kitob Londonning Britaniya muzeyida saqlanadigan gsografik xarita hisoblanadi. Kitobning bo'yi bir metrdan ortiq va og'irligi 320 kilogrammdir.

* * *

Yozuvchi Jyul Vernning 20 ming asar haqidagi ma'lumotni o'z ichiga oluvchi shaxsiy kartotekasi bo'lgan. Yozuvchi kunning katta qismini ilmiy adabiyot bilan tanishib chiqishga sarflar edi. Jyul Vernning o'z zamonasidagi turli-tuman sohalardan yaxshi xabardorligi uning asarlarida yaqqol ko'rinib turadi va shu bilan hali-hanuz o'z o'quvchilarini hayratga solib keladi. Jyul Vernning kartotekasi sifati va boyligi bilan hozirgacha ilmiy jamiyatlarning havasini keltiradi.

Gazetada parchalarga bo'lib nashr qilingan birinchi asar «Robinzon Kruzo» bo'lgan. Asarning ilk o'quvchilari 1719-yilning 7-oktyabridan 1720-yilning 17-oktabrigacha Robinzon Kruzoning sarguzashtlarini katta qiziqish bilan kuzatib borganlar.

Vazifa:

1. Quyidagi pand-nasihatni o'qing va yozma tarjima qiling.

Kitob - insonning yaqin do'sti

Kitob insonlarni mehnatsevarlikka matonatli bo'lishga, qobiliyatini o'stirishga fan va madaniyat boyliklarini egallashga insoniyat tarixini va hozirgi hayotni tushunib olishga yo'naltiruvchi manbadir.

Kitobni o'qishda quyidagi pandu-nasihatlariga amal qiling:

1. Kitob bilan muomalada eng yaqin do'stingizga munosabatda bo'lgandek e'tibor bering.
2. Kitobni yaroqsiz holga keltirmaslik uchun undan to'g'ri foydalaning.
3. Ko'chada keta turib, o'rinda yotgan holda, transportda mutlaqo kitob o'qimang.

4. Dasturxon oldida kitob o‘qish odobsizlik, kitobni qunt va diqqat qilmay, mag‘zini chaqmasdan, uqmasdan o‘qish kitobga nisbatan hurmatsizlik bo‘ladi.
5. Qiziq ekan deb tuni bilan o‘qib chiqmang, ertasi kuni lanj bo‘lib yurasiz.
6. Kitobni mustaqil ravishda o‘qiy oling va mazmunini talqin qila oling.
7. O‘qigan kitobingizning kerakli joylarini yon daftaringizga yozib oling, notanish joylarini eslab qolishga harakat qiling.
8. O‘qigan kitobingiz haqida do‘stlaringizga gapirib bering, ularni ham qiziqtirib shu kitobni o‘qitishga harakat qiling.

Vazifa. Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasini o‘qish. “Ikki qismli kundalik” metodi asosida hikoyani tahlil qilish.

Namuna:

Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho‘kizi yo‘qolmasin.	<i>Hikoyada dehqonning asosiy ish quroli, tirikchiligi ho‘kiz bilan bog‘liq.</i>
Ho‘kizing oq poshsho qo‘l ostidan chiqib ketmagan bo‘lsa, topiladi.	<i>Ellikboshinin tamagirlik uchun aytgan nutqi.</i>
Yo‘qolmasdan ilgari bormidi?	<i>Odiy, bechora xalq ustidan kulish, kamsitish</i>
O‘ynashmagil arbob bilan.....	<i>Pristav oldiga birishda aytiladi.</i>
Ammo terisi ko‘nchilikka tushgan bo‘lsa, albatta charm bo‘ldi; xudo biladi, kavush bo‘lib bozorga chiqdimi?	<i>Chorasiz odamga bepisandlik bilan munosabatda bo‘lish</i>
Paxtafurushning “kichkinagina” sharti bor....	<i>Amaldorlarning o‘g‘riligini ko‘rsatishning kulminatsion nuqtasi.</i>

GRAMMATIKA: ERKIN VA TURG‘UN BIRIKMALAR. FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TURLARI VA USLUBIY XUSUSIYATLARI.



So‘z birikmasida so‘zlar o‘zaro erkin bog‘langan bo‘ladi: tushuncha anglatadi, turg‘un bog‘lanma (ibora)larda esa so‘zlar ma‘noviy butunlik uchun birlashgan – yaxlitlangan bo‘ladi va bir leksik ma‘no anglatadi.

Turg‘un bog‘lanma (ibora)ga bir so‘z sifatida qaraladi, lug‘atlarda so‘zlar qatorida beriladi, chunki ular ham so‘zlar kabi ma‘no ifodalaydi. Masalan, ko‘zini yog‘ bosgan – “mag‘rurlangan”, yog‘ tushsa yalaguday iborasi – “toza”, to‘nini teskari kiyib olmoq iborasi – “qaysarlik qilmoq” ma‘nosini beradi, ammo bu ma‘nolarni oddiy emas, obrazli tarzda ifodalaydi.

So‘z birikmalaridagi so‘zlarni, erkin bog‘langanligi uchun, almashtirish mumkin, turg‘un bog‘lanma (ibora)lardagi so‘zni almashtirib bo‘lmaydi, ular bir ma‘no ifodalash qonuniyati asosida turg‘unlashgan, yaxlitlangan bo‘ladi: bo‘yniga qo‘ymoq (iqror qilmoq), ko‘nglidano‘tkazmoq (o‘ylamoq), o‘pkasi yo‘q (hovliqma) kabi.

Turg‘un bog‘lanma	So‘z birikmasi
Bo‘ynigaqo‘ymoq Ko‘nglidano‘tkazmoq O‘pkasiyo‘q	Qiziqarli asar Xalqimizning an‘analari Chiroyli bino

Turg'un bog'lanma	So'z birikmasi
Toshotmoq Ko'ziochildi O'zyog'idaqovurildi Boshigako'tarmoq	Toshotmoq Ko'ziochildi O'zyog'idaqovurildi Boshigako'tarmoq

1-mashq. Berilgan birliklarning har birini so'z birikmasi va ibora sifatida qo'llab, ikkita gap tuzing.

- 1) Bo'yniga ilmoq; 2) ko'zi ochilmoq; 3) tobnini teskari kiymoq; 4)ustidan chiqmoq; 5)tosh otmoq;

2-mashq. Gaplardagi so'z birikmalarini aniqlang. (Bunda turg'un bog'lanmalarining so'z birikmasida bir so'z (bo'lak) sifatida kelayotganiga ahamiyat bering).

1. Hovli etagidagi uyasidan eti borib suyagiga yopishgan qari it chayqalib - chayqalib chiqib keldi. 2. Chol asta cho'kkaladi-da, sharti ketib, parti qolgan itning boshini siladi. 3. Shu payt ko'cha darvoza taraqlab ochildi, tarvuzi qo'ltig'idan tushib Alijon kirib keldi. 4. Kim u? Joyimda qoqqan qoziqday qotib qoldim. 5. Mehmon joyiga o'tirdi-yu, ammo ko'ngli joyiga tushmadi. 6. Og'ziga tolqon solganday jim o'tirdi. 7.Manashu tirranchalarni deb boya rosa po'stagimni qoqishgandi.

So'z birikmalariga insonning tashqi ko'rinishini ifodalash

Baland bo'yli (novcha) yigit	Semiz kishi
Qora sochli qiz	Ozg'in kishi
Cho'zinchoq yuzli bola	Ko'zlari katta (kichik)
Dumaloq yuzli amaki	Sochi uzun(kalta) qizcha
Gavdali kishi	Boyi past(pakana) qariya
Nozik qiz	Chiroyli qiz

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TURLARI VA USLUBIY XUSUSIYATLARI.

O'zbek tilda lug'at tarkibi jihatidan juda boy va rang-barangdir.Tilimizda mustaqil leksik ma'noga ega bo'lgan alohida so'zlardan tashqari, ma'no jihatidan shunday so'zga teng , ammo ikki va undan ortiq so'zning turg'un birikuvidan tashkil topgan frazeologik birliklar ham mavjud. Ularning ma'nolari tarkibidagi so'zlarning yaxlit ma'nosi asosida yuzaga keladi va inson xotirasida bir butun va tayyor holda saqlanadi.

So'z birikmalari va gaplar ular tarkibidagi so'zlarning ko'chma ma'nolari asosida yaxlitlanib, bitta so'zga teng keladigan ma'noda qo'llanishi mumkin. Bunday birikma va gaplar iboralar deb ataladi. Misollar: *Mana, endi ko'zim ochildi. Xaridorning chehrasi ochildi. Bolalarning hafsalasi pir bo'ldi. O'quvchilarning boshi ko'kka yetdi. Durdona bilan Nafisaning oralaridan qil ham o'tmaydi. Gapirmadi-lom-mim demadi, toza-yog' tushsa yalaguday, yuvosh-qo'y og'zidan cho'p olmagan, rahmdil-ko'ngli bo'sh, kutdi-ko'zi to'rt bo'ldi, qo'rqdi-esi chiqib ketdi, ko'p gapirdi-jag'i ochildi, quvondi - terisiga sig'may ketdi, mazasi qochdi, alamini oldi, aqli kirdi, baloga qoldi, bag'ri tosh, bel bog'ladi, gapi bir joydan chiqdi, joni halqumiga keldi, kalavanning uchini topdi, ko'zi tindi, lafzi halol, nomi chiqdi, oq-qorani tanidi, tili bir qarich, xo'rliqi keldi, ilonning yog'ini yalagan, toqatlari toq bo'ldi, kalavanning uchini topdi, arpasini xom o'rgan, yulduzni benarvon uradigan, tarvuzi qo'ltig'idan ttishdi, ko'ziga issiq ko'rindi, ko'ngli ko'tarildi, ko'ngli to'ldi va boshq.*

Ma'nosi bir so'zga teng keladigan so'zlar birikmasi yoki gaplarga **ibora** deyiladi. Ular so'z birikmasi va gap shaklida bo'ladi.

Iboralar tarkibidagi so'zlarni almashtirib bo'lmaydi. Iboralar oddiy so'zlar bilan ma'nodosh bo'lib keladi, lekin badiiyligi, ifodaliligi bilan farqlanib turadi. Iboralar nutqni ta'sirchan, jozibali qiladi.

Iboralarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari	
Sinonimlar	<ul style="list-style-type: none">• Shochiga oq oralagan, sharti ketib parti qolgan• Payini qirqmoq, oyog'iga bolta urmoq• O'ylab o'yiga yetolmaslik, boshi qotmoq• Tuyaning dumi yerga tekkanda, qizil qor yog'ganda
antonimlar	<ul style="list-style-type: none">• Esi o'ziga kelmoq, hushini yo'qotmoq• Lafzidan qaytmoq, so'zida turmoq• Oralaridan qil ham o'tmagan, oralaridan ola mushuk o'tgan• Orqasiga ketmoq, oldiga bosmoq
omonimlar	<ul style="list-style-type: none">• Boshiga ko'tarmoq• Dam bermoq• Ko'z yummoq• o'g'ziga olmaslik

1-mashq. *Quyida berilgan barqaror birikmalardan foydalanib, gaplar tuzing. Birikmalar ma'nolarini izohlang.*

Yerga ursa ko'kka sachraydi, yaxshi ko'rmoq, me'dasiga tegmoq, yuragi toza, tepa sochi tikka bo'lmoq, ko'nglida kiri yo'q, og'ziga tolqon solmoq, podadan oldin chang chiqarmoq, oq ko'ngil, ko'nglini yozdi, o'takasi yorildi, tishini tishiga qo'ymoq, ipidan ignasigacha, og'zining tanobi qochadigan.

2-mashq. *Quyidagi iboralarni yozing. Ular yordamida gaplar tuzing.*

Ishtahasi karnay, qo'ling dard ko'rmasin, og'zi ochilib qoldi, gullab qo'ydi, ko'kragini yerga bermoq, loy bo'lmoq, misi chiqmoq, tuyog'ini shiqillatmoq, aravani tortmoq, og'zi qulog'iga yetmoq, tegirmonga tushsa butun chiqmoq, boshi osmonga yetmoq, arpasini xom o'rmoq, taqdirga tan bermoq, quloq solmoq, misi chiqdi.

3-mashq. *O'qing, takrorlang, ma'nosini izohlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.*

Kapalagi uchdi; ko'ziningoq-uqorasi; bo'zchiningmokisiday; ko'zitegdi; og'ziqulog'ida; qozongayaqinyursang, qorasiyuqadi; og'ziochilibqoldi; yaxshiko'ribqolmoq; yo'linibilmoq;

4-mashq. *Quyidagi frazeologizmlarni so'zlar bilan almashtiring va tarjima qiling.*

Xamirdan qil sug'urganday, do'ppisini osmonga otmoq, aravani quruq olib qochmoq, panja orasidan qaramoq, pashshadan fil yasamoq.

5-mashq. *O'qing. Frazeologizmlarni fe'llar bilan almashtiring:*

Boshi osmonga yetdi, tuyog'ini shiqillatdi, so'zining ustidan chiqdi, tishini tishiga qo'ydi, tinkasi quridi, tepa sochi tikka bo'ldi, og'ziga talqon solib oldi.

6-mashq. *Quyidagi frazeologizmlarning o'zbekcha muqobillarini toping va ularni kontekstda qo'llang.*

Быть на седьмом небе; как белка в колесе; не кусок пирога, а честь дорога; он и мухи не обидет.

7-mashq. *Ko'chiring. Frazeologizmlarni topib, ularning ma'nolarini izohlang.*

1. Ayol kishiga qo'l ko'tarish erkakning ishi emas. 2. Saodatning ko'ngli yorishib ketganligi chehrasidan ko'rinib turar edi. 3. Men ham sizday haqqoniy bo'lishga so'z beraman. 4. Onam ishning ko'zini biladigan odamlardan. 5. Bu o'ylardan Botirning boshi g'ovlab ketdi. 6. Bu achchiq haqiqat uning damini ichiga tushirib yubordi. 7. Shahloxon o'g'lini yer-ko'kka ishonmaydi. 8. Maqtangannig misi chiqadi, deyishadi odamlar.

T e s t

1. Berilgan gaplarda ajratilgan so'zlarning qay biri tushuncha anglatadi?

1) Yigit oqimga qarshi suzib, ariqning boshiga yetdi.

2) Qo'rsligi, bema'ni gaplari, axir uning boshiga yetdi.

3) Ota-bobolar nomini doim esda tutish kerakligini o'g'lining qulog'iga qo'ydi.

4) Shifokor dorini bolaning qulog'iga qo'ydi

1,4 B) 2,3 C) 1,3 D) 2,4

2. Berilgan gaplarda ajratilgan so'zlarning qay biri leksik ma'no anglatadi?

1) Yigit oqimga qarshi suzib, ariqning boshiga yetdi.

2) Qo'rsligi, bema'ni gaplari, axir uning boshiga yetdi.

3) Ota-bobolar nomini doim esda tutish kerakligini o'g'lining qulog'iga qo'ydi.

4) Shifokor dorini bolaning qulog'iga qo'ydi.

1,4 B) 2,3 C) 1,3 D) 2,4

3. Berilgan gaplarda ajratilgan so'zlarning qay biri turg'un bog'lanma?

1) Yigit oqimga qarshi suzib, ariqning boshiga yetdi.

2) Qo'rsligi, bema'ni gaplari, axir uning boshiga yetdi.

3) Ota-bobolar nomini doim esda tutish kerakligini o'g'lining qulog'iga qo'ydi.

4) Shifokor dorini bolaning qulog'iga qo'ydi.

A) 1,4 B) 2,3 C) 1,3 D) 2,4

4. Berilgan gaplarda ajratilgan so'zlarning qay biri erkin bog'lanma?

1) Yigit oqimga qarshi suzib, ariqning boshiga yetdi.


2) Qo'rsligi, bema'ni gaplari, axir uning boshiga yetdi.

3) Ota-bobolar nomini doim esda tutish kerakligini o'g'lining qulog'iga qo'ydi.



4) Shifokor dorini bolaning qulog'iga qo'ydi.

A) 1,4 B) 2,3 C) 1,3 D) 2,4


“Venn” diagrammasi



Topshiriqlar.



4-topshiriq. Quyidagi soʻzlar qoʻllangan iboralarni sanang.



5-topshiriq. Oʻzbek xalqining oʻziga xos tabiati, ruhiyati, mentalitetini

11-mavzu. ALISHER NAVOIY NOMIDAGI OʻZBEKISTON MILLIY KUTUBXONASI.

Ogʻzaki nutq: Mavzuga oid matnni oʻqib tushunish. Matndagi termin va iboralarning maʼnosini izohlash. Matnga munosabat bildirib soʻzlash.

Yozma nutq: Universitet kutubxonasi haqida matn tuzish. Elektron kutubxona bilan ishlash boʻyicha tavsiyalar yozish. Badiiy asarlarga bagʻishlangan internet saytlarining roʻyxatini tuzish.

Grammatika: Feʼl soʻz turkumi. Feʼllarda shaxs-son va zamon shakllari.

Tayanch soʻz va iboralar: Milliy kutubxona, elektron kutubxona, internet saytlari, frazeologik birlik, feʼl, zamon shakli, shaxs-son shakli.

Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi

Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi 1870-yilda asos solingan. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 20-fevraldagi «Ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirish toʻgʻrisida»gi Farmoniga muvofiq Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Respublikasi Davlat kutubxonasi va Respublika ilmiy-texnika kutubxonasi negizida tashkil qilingan Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi uzoq tarixga ega. Turkiston general gubernatori K.P.Kaufman 1867-yil 16-avgustda Xalq maorifi vazirligi, Fanlar akademiyasi, Ommaviy kutubxonaga, Geografiya jamiyatiga, Rossiya Bosh

shtabiga kutubxona tashkil etishga va kitob omborlaridan dublet nusxali nashrlarni berish bilan yangi kutubxona asosini yaratishga yordam berishni so‘rab murojaat qildi. Shu davr kutubxona tarixining boshlanish davri edi. 1870-yil mayida bo‘lajak Toshkent ommaviy kutubxonasining yadrosini tashkil qilgan 2200 dan ko‘proq jild (200 nomdagi) nashr yig‘ilgan edi, bu ommaviy kutubxonani ochishga imkon berdi. O‘lkaning katta bilimdoni va kuchli bibliofil, kutubxonaning birinchi direktori N.V.Dmitrovskiy (1841– 1910) o‘zining serg‘ayrat faoliyati bilan Toshkent ommaviy kutubxonasi tarixida uning ravnaqi uchun muhim rol o‘ynadi.

Kutubxona Markaziy Osiyo mintaqasidagi yirik va qadimgi kitob saqlash maskanlaridan biri bo‘lib, 28 nomdagi turli noan‘anaviy xizmatlarni ko‘rsatadi.

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi axborot va madaniy-ma‘rifiy muassasa bo‘lib, kutubxonachilik, bibliografik, ilmiy tadqiqot, ilmiy-metodik va axborot faoliyatini olib boradi. Kutubxona fondi mazmunan universal milliy va xorijiy matbuotning noyob to‘plamidir. Kutubxona faoliyatining bosh maqsadi, butun insoniyat bilimini aks ettirgan, avvalo, O‘zbekistonga va uning milliy manfaatlariga taalluqli hujjatlarning universal fondini yig‘ish, saqlash hamda jamiyat foydalanishi uchun taqdim etishdir.

Noyob va nodir nashrlar fondi kutubxona kitob kolleksiyasining faxridir, u 250 mingdan ortiq nashrdan iborat. Ularning 15 mingdan ortig‘i nodir kitoblar hamda qo‘lyozmalardir. Kutubxonaning o‘ta noyob to‘plamida O‘rta Osiyoning 1917-yilgacha bo‘lgan tarixi, etnografiyasi, madaniyati va geografiyasiga oid o‘ziga xos ensiklopediya bo‘lgan 594 tomlik noyob «Turkiston to‘plami» hamda A.P.Kun tuzgan 4 qismdan iborat 10 tomlik 1200 noyob fotosuratlarini o‘z ichiga olgan Turkiston o‘lkasi aholisining turmush tarzi, urf-odatlarini to‘g‘risidagi «Turkiston albomi» alohida o‘rin egallaydi.

Respublika tarixi bo‘yicha XIX asrning oxiri XX asrning birinchi choragidagi o‘lkashunoslik mavzusidagi adabiyotlar, birinchi Turkiston litografik, vaqtli nashrlari, qo‘lyozma kitoblar kolleksiyasi, muqaddas kitob–Qur‘onning turli nashrlari tadqiqotchilar uchun katta qiziqish uyg‘otadi. Kutubxonada qadimiy rus kitoblaridan XVI asr matbaa san‘ati yodgorligi, Ivan Fedorov tomonidan 1581-yilda Ostrog shahrida bosilgan «Ostrojskaya bibliya» kitobi, 1647-yilda Moskvada cherkov-slavyan shrifti bilan bosilgan dunyoviy mazmundagi «Uchenie i xitrost ratnogo stroeniya pexotnyx lyudey» birinchi rus kitobi, Petr davri kitoblari–Leontiy Magnitskiyning «Arifmetika»si (1703-yil), Buyuk Petr davri «Xmochnovskaya rukopis» va boshqalar mavjud. G‘arbiy yevropa kitoblarining nodir kolleksiyasida 1489-yilda Nyurnbergda bosilgan «Devyataya Nemetskaya bibliya» inkunabuli, B.Erbeloning 1697-yilda Parijda nashr qilingan «Vostochnaya biblioteka»si mavjud.

Buyuk ajdodlarimiz Al-Buxoriy, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahoutdin Naqshbandiy, Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Bobur asarlari kutubxona fondida ko‘z qorachig‘idek saqlanmoqda. Cho‘lpon, Fitrat, U.Nosir, Hamza, G‘.G‘ulom, A.Qahhor va boshqa ijodkorlarning hayotligida chop etilgan asarlarning ilk nashrlari, rus adiblari A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, A.P.Chexov, A.N.Tolstoylarning asarlari bebahodir.

Xorijiy tillardagi adabiyotlar fondi 75 dan ziyod tillardagi ijtimoiy-siyosiy, gumanitar, tabiiy-ilmiy va texnika masalalariga oid nashrlar bo‘lib, bugungi kunda 350 mingdan ortiq nusxani tashkil etadi.

Kutubxonaning San‘at bo‘limi o‘ziga xos notali-musiqaviy asarlar to‘plamini, o‘zbek klassik va jahon musiqasi gramplastinka yozuvlarini, 150 mingdan ortiq tasviriy va amaliy san‘at nashrlarini jamlagan.

Texnikaga doir adabiyotlar (2 mln.dan ortiq nusxada) ham mazmuniga ko‘ra o‘ziga xos bo‘lib, me‘moriy-texnik hujjatlar, sanoat kataloglari (qog‘ozda) to‘plami (33700 nusxadan ortiq)dir.

Avtomatlashtirish yangi axborot texnologiyalari bo‘limi yagona avtomatlashgan kutubxona tizimini qo‘llaydi va rivojlantiradi, elektron katalog hamda elektron ma’lumotlar bazasini yaratishda metodik yordam beradi.

Kutubxona o‘z nashriyot va bosmaxonasiga ega bo‘lib, nashirlik hamda matbaa faoliyati bilan shug‘ullanadi.

1988-yildan kutubxonachilik jarayonini avtomatlashtirishga, 1999-yildan Rossiya Davlat Ilmiy texnika kutubxonasining IRBIS avtomatlashtirilgan axborot dasturidan foydalangan holda vatanimiz va chet el yangi nashrlarining elektron katalogini yaratishga kirishildi. Kutubxonaning elektron katalogi bugungi kunda 25 mingdan ortiq yangi adabiyotlarning bibliografik yozuvlari va davriy nashrlarning analitik yozuvlarini saqlaydi. Kutubxona o‘z ma’lumotlar bazasini yaratmoqda va “Curret Content”, “MicroMedex”, “Medine”, EBSCO va ma’lumot bazalari bilan ishlash imkoniyatidan unumli foydalanmoqda.

Kutubxona 1923-yildan boshlab bosma asarlardan majburiy nusxa ola boshlagan. 1948-yilda kutubxonaga Alisher Navoiy nomi berilgan.

Kutubxona 1956-yildan buyon xalqaro kitob almashuvini amalga oshirib, uning sheriklari jahonning 24 mamlakatidan 30 dan ortiq tashkilotlardir. Kutubxona yirik xalqaro kutubxonachilik tashkilotlari: IFLA, yevroOsiyo kutubxonalar Assotsiatsiyasi, elektron kutubxonalar va yangi axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchilar hamda foydalanuvchilar xalqaro Assotsiatsiyasining a’zosi.

Kutubxona ko‘plab xalqaro tashkilotlar va jamg‘armalar bilan, shuningdek, O‘zbekistonda akkreditatsiya qilingan chet mamlakatlarning elchixonalari bilan mustahkam ijodiy aloqalar o‘rnatgan bo‘lib, madaniyati, diniy qarashlari va tarixiy ildizlari turlicha bo‘lgan xalqlarning yaqinlashishiga o‘zining hissasini qo‘shmoqda.

Hozirgi kunda kutubxona fondi jahonning 75 tillaridagi deyarli 10 mln. nusxaga yetgan.

Kutubxona respublikamizdagi barcha kutubxonalarga kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik va kitobshunoslik sohalari bo‘yicha metodik rahbarlik qiladi.

“Kitobxonlik kuni” bayrami 2005- yildan “Mutolaa bayrami” deb nomlana boshlandi.

Lug‘at

faoliyat – деятельность

faxrli – почётный

turmush tarzi – образ жизни

qo‘lyozma – рукопись

nashriyot va bosmaxona – издательство и типография

noshir - издатель

takomillashtirish – улучшение

maorif – образование

ravnaq – процветание

Topshiriq:

1. O‘zbekiston Milliy kutubxonasiga a’zo bo‘lganmisiz? U yerda siz ko‘proq qaysi kitoblarni o‘qiysiz, shu haqda gapirib bering.
2. Kutubxonadan tashqari yana qanday “ma’rifat o‘choqlari”ni bilasiz? Shu haqda og‘zaki gapirib bering.
3. Kutubxona taassurotlari va unda yaratilgan sharoitlar haqida matn tuzing.

Vazifa: Internet ma’lumotlari asosida dunyoning eng katta va mashhur kutubxonalari haqida qiziqarli matn tayyorlang.

GRAMMATIKA: FE'L SO'Z TURKUMI. FE'LLARDA SHAXS-SON VA ZAMON SHAKLLARI.



FE'L

Fe'llar ish-harakatni yoki holatni atab keladi. Fellar holatni atab kelganda ham, uni jarayon tarzida bir holatdan ikkinchi holatga o'tish ma'nosi bilan beradi.

Nima qilmoq?, nima bo'lmoq? so'roqlariga javob bo'lib, shaxs yoki narsalarning harakat, holatini atab kelgan so'z turkumi fe'l deyiladi.

Fe'llardan anglashilgan harakat va holat ma'lum shaxs yoki narsa tomonidan bajariladi. Ana shu shaxs yoki narsa harakatning bajaruvchisi sanaladi, Nima qilmoq?, nima bo'lmoq? so'roqlariga javob bo'lib, harakat-holatni bildiruvchi so'zlarga fe'l deyiladi.

Fe'llar zamon, shaxs-son, bo'lishli-bo'lishsizlik ma'nolari va bu ma'nolarni ifodalovchi qo'shimchalarga ega bo'ladi. Masalan: yozmadim so'zida -ma qo'shimchasi (bo'lishsizlik), -di qo'shimchasi (zamon), -m qo'shimchasi esa shaxs-son ma'nolarini bildiradi.

1-mashq. *Topishmoqlarni o'qing. Fe'llarni harakat bildiruvchi va holat bildiruvchi fe'llarga ajratib yozing.*



Dam oladi kunduzi, xonadonning yulduzi. Kechasi ochilur, osmonga sochilur. Osmonda u yaraqlab, kulib turar charaqlab.

Oyna emas jimirlar, tek turmasdan qimirlar. Kundalik tarix o'zi, har yerda uning so'zi. Katta oppoq dasturxon, yer yuzini qoplagan. Tunda ko'rib cho'g' deysan, Tongda ko'rib yo'q deysan. Tanga-tanga to'ni bor, mitti ko'zi unga yor. Yursa suvlar jimirlar, Qamishlar ham qimirlar. Qulochida qo'sh-qo'sh halqa, Xizmat qilar charchamay xalqqa. Kulib turar misoli oftob, Hamrohidir chang, tor va rubob.

2-mashq. *Fe'llarni harakat-holat ifodalanishiga ko'ra guruhga ajrating, har bir turiga o'ntadan misol yozing.*

FE'LLARNING ZAMOH SHAKLLARI

O'zbek tilida 3 ta zamon bor:

Hozirgi zamon: ishlayapman

Birlik

I shaxs borayapman

II shaxs borayapsan

III shaxs borayapti

Ko'plik

borayapmiz

borayapsiz

borayaptilar

Kelasi zamon: ishlamoqchiman

Birlik

I shaxs bormoqchiman

II shaxs bormoqchisan

III shaxs bormoqchi

Ko'plik

bormoqchimiz

bormoqchisiz

bormoqchilar

O'tgan zamon: ishladim

Birlik

I shaxs bordim

II shaxs bording

III shaxs bordi

Ko'plik

bordik

bordingiz

bordi (lar)

SHAXS-SON SHAKLLARI

Fe'ldan ifodalangan harakat va holatni bajaruvchi shaxsini bildirib, fe'lni kesim sifatida shakllantiruvchi, ega bilan bog'lab keluvchi shakllar shaxs-son shakllari sanaladi

Fe'llarning I va II shaxsi maxsus shakllar orqali ifodalanadi. III shaxsda esa zamon qo'shimchalari shaxs ma'nosini ham ifodalaydi.

O'tgan zamonning -di hamda kelasi zamon shart mayli -sa shakllaridan so'ng -m, -ng, -k, -ingiz qo'shimchalari; ravishdosh, sifatdosh shakllari hamda sof fe'ning hozirgi zamon shakllaridan so'ng -man, -miz, -san, -siz qo'shimchalari qo'llaniladi. Misollar: Uxladim, uxlabman, uxlayman, uxlaganman, uxlayapman, uxladim, uxlabsan, uxlaysan, uxlagansan, uxlayapsan, uxlati, uxlabdi, uxlaydi, uxlagan, uxlayapti.

Fe'ldan ahglashilgan ish-harakat va holatning so'zlovchi, tinglovchi yoki o'zgaga tegishli ekanligini bildiruvchi qo'shimchalarga shaxs - son qo'shimchalari deyiladi.

So'zlovchi 1-shaxs, tinglovchi 2-shaxs, o'zga 3- shaxs hisoblanadi.

3-mashq. *Matnni o'qing va o'zbek tiliga yozma tarjima qiling, fe'l zamonlarini aniqlang.*

Любовь – это лучшее из чувств, что рождены человеком. Вряд ли кто-нибудь из вас скажет, что не хочет любви, причем такой любви, чтобы она пережила вас и осталась ярким примером для потомков на века. Ведь именно такой была любовь Тахира и Зухры, Лейли и Меджнуна, Эхнатона и Нефертити, Данте и Беатриче, Петрарки и Лауры...

Любить хотят все. Это также естественно, как расти траве весной. Но не все умеют любить. Не каждый способен отдавать. Бывает, когда человек способен только брать, брать и брать, в то время как любовь – это умение отдавать. И главное в любви – это прежде всего способность к самопожертвованию. Настоящая любовь – это такое чудо, когда жизнь другого человека становится для вас важнее собственной. Настоящая любовь – это удвоение жизни, когда за одну переживаешь две жизни – свою собственную и жизнь любимого.

4-mashq. *O'qing. Ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlarni toping, bu so'zlarning o'z hamda ko'chma ma'nosini ayting.*

Tong qizi kulimsib yuzini ochdi,

Oltin dengizlari ko'k uzra toshdi.

Bog'larda chechaklar atirlar sochdi.

Ko'kdagi yulduzlar uyalib qochdi.

Tumanga o'ralib yo'qoldi uyqu,

Har yerda bir go'zal umidli tuyg'u,

Har dilda ochildi shodlik chechagi,

Borliqda qolmadi hasrat va qayg'u.

Tong yeli o'ynagach qanotin yozib,

Tebranib, chayqalib ochildi gullar.

Nur sohib chiqqanda yangi kun kulib,

Yangratdi bog'larni sayrab bulbullar.

12-mavzu. ADABIYOT - MA'NAVIYAT O'CHOGLI.

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Matndagi asosiy fikrni ajratib so'zlab berish.

Yozma nutq: Badiiy asar qahramoni o'quvchini qanday tarbiyalashi haqida fikr bildirish va unga misollar keltirish. Mashhur adabiy qahramonlar haqida taqdimot tayyorlash. Adabiyot haqidagi hikmatli so'zlardan namunalar yozish.

Grammatika: Nutq uslublari. Badiiy uslub va uning xususiyatlari. Sifat –so'z turkumi. Sifat darajalari.

Tayanch so'z va iboralar: *Adabiyot, ma'naviyat, ijodkor, shoir, yozuvchi, badiiy asar, nutq uslublari, ilmiy uslub, badiiy uslub, so'zlashuv uslubi, rasmiy uslub, publitsistik uslub, badiiy-tasviriy vositalar, sifat, sifat darajalari, oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja.*

Adabiyot – o'tkir yurak kirlarini yuvadurgan toza ma'rifat suvi...
(Cho'lpon)

San'at voqelikni obrazlar vositasida aks ettiradi. Obraz esa borliqdagi narsalarni oddiy aks ettirishdan iborat emas, balki badiiy aks ettirishdan iborat dir. Ijodkorning fikr, tuyg'u, sezgi va kechinmalari singdirilgan hayot manzarasi tasviri badiiy obraz deyiladi.

San'atning turlari ko'p. Ulardan eng muhimlari tasviriy san'at (musavvirlik), musiqa, kino, me'morchilik, raqs, haykaltaroshlik va badiiy adabiyotdir. Obrazlilik hamma san'at turlari uchun xos. Biroq ularning har birining o'ziga xos obraz yaratish vositalari mavjud. Badiiy adabiyotda obraz yaratuvchi yagona vosita so'zdir.

Badiiy so'z adabiyotning asosiy quroli hisoblanadi. Obrazli so'zga asoslanuvchi, hayotni muayyan obrazlar vositasida aks ettiruvchi adabiyot esa badiiy abadiyot deb yuritiladi.

«Adabiyot» arabcha so'z bo'lib, «odoblar yig'indisi», boshqacha aytganda «odoblar xazinasi» degan ma'noni bildiradi.

Adabiyotning bosh vazifasi esa inson qalbida ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafratni uyg'otishga qaratilgan. San'at asarlari ta'sirida o'quvchilarda tug'ilgan bunday tuyg'ular estetik tuyg'u deyiladi.

Badiiy adabiyot inson ruhidagi nozik tovlanish va hissiyotidagi chigal jarayonlarni ilg'ash hamda aks ettirishga xizmat qiladi.

Adabiyot inson ko'ngli va ruhini pokiza qilishga, uni o'zgalarning ko'nglidagi holatlarni ilg'aydigan darajada tarbiyalashga xizmat qiladi.

Insonning ma'naviy kamolotini yuksaltiradi Badiiy adabiyot inson va tabiat munosabati, mana shu munosabatda insonning tutgan o'rni va roli, inson ruhiy olamni butun murakkabligi bilan ko'rsatish orqali ma'naviy yuksaklikni targ'ib etuvchi, razillik va tubanlikni inkor etuvchi, insonning dunyoqarashiga, hissiyotiga va axloqiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi so'z san'atidir. Adabiyotning bosh vazifasi insonlar qalbida ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat tuyg'ularini uyg'otish bo'lganligi sababli yoshlar qalbiga go'zal tuyg'ular singdiriladi. Badiiy adabiyot o'z ichiga olamni obrazli ko'rish va timsollar asosida aks ettirish mahsuli bo'lmish badiiy asarlarni oladi. Bu xil asarlar nimanidir bilib olish, o'rganish uchun emas, balki inson qalbining tovlanishla-rini, tuyg'ularning ranginligini his etish, uning quvonch-u iztiroblarini tuyish uchun o'qiladi. Adabiyot inson qalbi, orzu-intilishlari, sevinch-armonlari, qayg'u-iztiroblari, bir so'z bilan aytganda ma'naviy borlig'ini namoyon etadi. Adabiyot insonshunoslik, ruhshunoslikdir. Adabiyot ma'naviy haqiqatlarni aks ettiradi. Chunki ma'naviy haqiqatni his-tuyg'u orqali tuyish mumkin.

Yozuvchi so'zlardan mohirlik bilan foydalangan holda shunday hayotiy manzaralar chizadiki, asarlarni o'qiyotgan o'quvchi o'sha voqealarda ishtirok etayotgandek, ularni o'z ko'zi

bilan ko‘rib turgandek bo‘ladi. Voqealar rivoji davomida o‘quvchi badiiy asardagi sevimli qahramoni bilan birga sevinadi, hafa bo‘ladi, iztirob chekadi. Unga hayrixoh bo‘ladi. Asardagi ijobiy qahramonlarning ijobiy fazilatlaridan o‘rnak olsa, ba‘zi qahramonlarning yovuzliklaridan nafratlanadi. San‘at asarlari ta‘sirida o‘quvchilarda tug‘ilgan bunday tuyg‘ular estetik tuyg‘u deyiladi. Badiiy adabiyot ilmiy adabiyotdan hayot haqiqatini jonli va jozibali tasvirlashi bilan keskin farqlanadi. Shuning uchun badiiy adabiyotni ma‘naviyat xazinasi deyish mumkin.

Topshiriq: *Quyidagi matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling va og‘zaki so‘zlab bering.*

Царь царей поэтов

В 2016 году исполнится 575 лет со дня рождения гениального узбекского поэта Алишера Навои. Его плодотворная, кипучая деятельность во многом способствовала развитию социально-политической, философской мысли народов Востока, расцвету литературы, культуры, искусства, ряда областей науки.

Гениальная, высокохудожественная поэзия Навои воспеваает идеи гуманизма, мира и просветительства. Его непревзойденный талант поднял литературу тюркоязычных народов до мировых вершин. Поэтому он повтавлен рядом с гигантами мирового словесного искусства – Гомером и Данте, Рудаки и Фирдоуси, Низами и Саади, Шекспиром и Бальзаком. Великий азербайджанский поэт Физули, высоко оценивая поэтический мир Навои, назвал его царем всех царей поэтов. И хотя творениям великого Алишера, этого мудрого творца с энциклопедическим умом и мышлением, уже более пяти веков, они твердо занимают достойное место в сокровищнице мировой литературы, до сих пор волнуют умы и сердца наших современников.

Богато и необъятно литературное наследие Алишера Навои, оно влилось в мировую сокровищницу челевеческой мысли как совоеобразный и неповторимый поэтический мир. Мир Навои – это синтез общечеловеческих идей, это думы и чаяния гения о счастливой жизни всех людей. Поэтому произведения Навои созвучны всем эпохам. Великий творец восклицал: Коль сам ты человек, тем словом звать не смей Того, кому чужда печаль других людей.

В лирике Алишера Навои одно из ведущих мест занимают газели нравственно-воспитательного характера. В них ярко, художественно выразительно передано нравоучение поэта о совершенстве личности, о человеческих деяниях. Воспевая любовь к жизни, достоинство человека-творца, дружбу между людьми, свободу и мир, поэт горячо призывал:

Поймите, люди всей земли: вражда-плохое дело.

Живите в дружбе меж собой – нет лучшего удела.

Пророческое обращение Гения созвучно стремлениям человечества во все времена истории. Сочинения поэта на всех сложных, переходных этапах истории приходили на подмогу человечеству. Не потому ли основные произведения Алишера Навои переведены на многие языки народов мира?

Алишер Навои оставил нам огромное литературное наследие, в центре которого особое место занимает его «Пятерица» - свод поэтического творения, насыщенный историей, философией и мудростью.

Обширны по тематике и богаты по содержанию афоризмы великого поэта, в которых Навои защищает интересы людей, выступает как гуманист и воспеваает возвышенные человеческие чувства.

Стихи Алишера Навои стали афоризмами, а его поэзия самобытной и оригинальной. В мудрых высказываниях поэт призывает людей быть правдивыми, честными, благородными, щедрыми, разумными и учтивыми. Он высмеивает пороки людей и зловредные нравы. Поэт прославляет такие чувства, как любовь и верность,

воспеваает братство народов. Идейную основу Навои составляют справедливость и борьба за интересы народов, вера в разум и прогресс.

В поэзии Навои мастерски использованы исторические источники и поэтическое богатство устного народного творчества, художественные особенности и приемы фольклора. Он ставит перед собой задачу создать оригинальные произведения. Все это требовало большого таланта, тончайшего вкуса и блестящего художественного дарования.

В наше время богатое литературное наследие Алишера Навои приобретает новое звучание, становится достоянием всех тех, кому дороги мир, дружба и благополучие народов.

Topshiriq. *Hikmatlarning ma'nosini izohlang va yod oling.*

ALISHER NAVOIY HIKMATLI SO'ZLAR (АФОРИЗМЫ)

Boshni fido qilg'il ato boshig'a,
Jismni qil sadqa ano qoshig'a.
Tun-kuningga aylagali nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.

За жизнь отца - своей пожертвовать будь рад
И голову сложить за материнский взгляд.
Ты солнцем и луной родителей зови –
И будешь озарен сияньем их любви.

* * *

Ko'p demak so'zga mag'rurlik
Va ko'p yemak nafsg'a ma'murlik.

Велеречивость - гордость болтуна,
В обжорстве - низость алчности видна.

Karam va muruvvat ato va anodurlar,
Vafoyu hayo ikki hamzod farzand.

Великодушие – отец нам, щедрость – мать,
А скромность мы должны их дочерью считать.

Chin so'z mo'tabar, yaxshi so'z muxtasar.

Правдивость речи хороша и гладкость,

Но как прекрасна слов правдивых краткость.

Bilmaganni so'rab o'rgangan olim,

Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

Спроси у сведущих то, в чем не просвещен,
И тем докажешь ты, что истинно учен.

А коль не согласишься их, то после -плачь-не плачь -
Невеждой и умрешь: ты сам себе палач.

Oz-oz o'rganib dono bo'lur,

Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

За каплей каплю накопив, текут потоки рек.

По крохам знания копя, мудреет человек.

Befoyda so'zni ko'p aytma,

Foydali so'zni ko'p eshuturdin qaytma.

Ты пустословием своим людей не донимай,

Но слову правды и ума сто раз подряд внимай.

Chin so'zni yolg'ong'a chulg'ama,

Chin ayta olur tilni yolg'ong'a bulg'ama.

Кто к слову правды ложь подмешивать привык,
Свой рот поганит – естеством для правды дан язык.

Ki har ishniki qildi odamizod,
Tafakkurbirlabildiodamizod.

Все то, что род людской на этом свете создал,
Ум человеческий в тысячелетьях создал.

Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitdi ranj ila.
Aylamak oson emas haqqin ado ming ganj ila.

Кто был обучен буковке одной
Для постиженья истины земной,
Чем своему учителю заплатит?
На это всех земных богатств не хватит!

Aylar ishingga chu bo'lur dastras,
Vaqtidin o'tkarma ani bir nafas.

Коль можешь ты свершить какое дело,
Смотри, чтоб время зря не пролетело.

Bu gulshan ichra yo'qdir baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur qolsa yaxshilik bila ot.

Не могут люди вечно быть живыми,
Но счастлив тот, чье будут помнить имя.

Gavharu durni quloq ozori bil,
So'zni quloqning duri shahvori bil.

От жемчугов и перлов уху больно,
Ему для украшений – слов довольноно.

Yomon bila yaxshi orasida farqdir,
Ikki kemanding uchin tutgan g'arqdir.

Хорошее к плохому не подгонишь.
Две лодки не настигнешь враз – потонешь.

* * *

Yoreki tegar birovga, ozori aning,
Aql olida tengduru yo'qu bori aning.

Изменит друг – ничто его навет,
Тогда уж друга вроде бы и нет.

* * *

Izzat tilasang kam de,
Sihhat tilasang kam ye.

Почтенья хочешь – меньше злоречья;
Здоровья хочешь – пищу ограничь.

* * *

Kamol et kasbkim, olam uyidin,
Senga farz o'lmagay g'amnok chiqmoq.

Коль хочешь без печалей обойтись,
Наукам и ремеслам обучись.

* * *

Kimki navar o'lsa, ista andin qochmoq,
Nechunki zarur durur yomondin qochmoq.

Беги от тех, в ком много зла и фальши:
Ведь от плохого надо быть подальше.

* * *

Kimki o'zi ayladi yolg'on so'zin,
Kizb der el chin desa, qolg'on so'zin.

Кто раз солгал, того уж и потом,
Хоть правду скажет, все зовут лжецом.
* * *

Ma'dani inson gavhari so'z durur,
Gulshani odam samari so'z durur.

Слово – жемчуг из людского рудника,
Слово – роза из мирского цветника.
* * *

Mevaga mag'z o'lsa, bo'lur po'st ham,
Kimsaga ham dushman erur do'st ham.

Как у плода есть и ядро, и кожа,
Так у людей: есть друг и враг есть тоже.
* * *

Aytur so'zni ayt, aytmas so'zdin qayt.

Коль нужно говорить – скажи,
Не нужно – слово придержи.
* * *

Bo'lmas adabsiz kishilar arjumand,
Past etar ul xaylni charxi baland.

Невеледам не добиться уваженья,
Сама судьба пошлет им униженья.
* * *

Jahl ahli bila kimg'aki ulfat bo'lg'oy,
Ul ulfati ichra yuz ming ofat bo'lg'oy.

Сдружился ты с невеждой глуповатым –
Сто тысяч бедствий будет результатом.
* * *

Yigitlikda yig'ilmning maxzani,
Qarilik chog'i xarj qilg'il ani.

Пока ты юн, копи богатство знания,
А в старости – расходуй достоянье.
* * *

Ki har kim ayon etsa yaxshi qiliq,
Yetar yaxshiliqdin anga yaxshiliq.

Кто честен и порядочен во всем,
Тому добро оплатится добром.
* * *

Kishixanzaleksa, achig' bartopar,
Va gar nay shakar eksa, shakkar topar.

Посеешь горечь – будет горек плод,
От сладких зерен – сладкое взойдет.
* * *

Odamiersang, demagilodami,
Oniki, yo'qhalqg'amiding'ami.

Коль сам ты человек, тем словом звать не смей
Того, кому чужда печаль других людей.
* * *

Sabr bila ko'p bog'liq ish ochilur,
Ishda oshiqqan ko'p toyilur.

Терпенье разрешает все дела,
А спешка к промахам всегда вела.

* * *

So‘zni ko‘ngilda pishqarmaguncha tilga keltirma,
Va harnekim, ko‘ngilda bor - tilga surma.

Пока не вызрели слова, сказать их не спеши,
И слову сразу не вверяй всех тайн своей души.

* * *

Tilga ixtiyorsiz, elga e‘tiborsiz.

Кто невоздержан на язык,
Тот уваженья не достиг.

* * *

Xaloyiqqa ko‘rma qilib benavo,
O‘zingga ravo ko‘rmaganni ravo.

Людей презрением напрасно ты порочишь,
Желая им того, чего себе не хочешь.

* * *

Xiradmand chin so‘zdin o‘zga demas,
Vale borcha chin ham degulik emas.

Хотя у мудрецов всегда правдива речь,
Но в правде есть и то, чем стоит пренебречь.

* * *

Qachon sochsa tuproqqa bug‘doy birov,
Yo‘q imkonki ul arpa qilg‘oy g‘arov.

Когда в земле посеяна пшеница,
Ячмень на ней никак не всколосится.

* * *

Har kishining kim so‘zi yolg‘on esa
Aylama bovar necha kim chin desa.

Уж раз у человека лживый рот,
Не верь ему, когда он и не лжет.

* * *

Harneki yetar sanga lison og‘rig‘idin,
Bilgilki, qotig‘ durur bu sinon og‘rig‘idin.

Все бедствия от сплетни злоязыкой
Страшнее, чем удары острой пикой.

* * *

Ham so‘z ila elga o‘limdan najot,
Ham so‘z ila topib o‘lik tan hayot.

Словами можно смерть предотвратить,
Словами можно мертвых оживить.

* * *

Himmatsiz kishi er sonida emas,
Va ruhsiz badanni kishi tirik demas.

В ком нет высоких свойств – мужчиной звать не дело:
Живым не назовешь безжизненное тело.

Перевод С. Иванова и Л. Пеньковского

Topshiriq:

1. Matnni o‘qing. Matndan Bobur asarlarining nomini daftaringizga ko‘chirib yozing.
2. Matnni ma‘noli qismlarga ajrating va gapirib bering.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530 yillar) o'zbek xalqining yirik mutafakkiri, davlat arbobi, o'zbek mumtoz adabiyotining ko'zga ko'ringan vakili, tarixchi olim, shoir va tarjimonidir. U temuriylar avlodidan bo'lib, hindistonda «Buyuk mo'g'ullar imperiyasi» deb nom olgan davlatning asoschisi hisoblanadi.

Bobur Andijonda tug'ildi. Bolalik yillari shu yerda o'tdi. Uning otasi Umar Shayx temuriylar sulolasiga mansub bo'lib, o'sha davrda Farg'ona viloyatida hokimlik qilar edi. Bobur saroy muhitida tarbiyalandi, yoshligidanoq, ilm-fanga mehr qo'ydi, ayniqsa, adabiyot va tarix bilan qiziqqa boshladi. Otasi Umar Shayx vafotidan keyin Bobur 12 yoshda taxtga o'tirib, davlatni boshqarish bilan mashg'ul bo'ldi.

Bobur yashagan davr murakkab voqyealarga boy bo'lib, taxt uchun kurash avjga chiqqan edi. U davlatni markazlashtirish va kuchli imperiya tuzish maqsadida Samarqandga yurish qiladi va bir necha urinishlardan so'ng 1496-yilda Samarqandni egallaydi. Oradan 100 kun o'tib shaharni tashlab, Andijonga — unga qarshi ko'tarilgan g'alayonni bostirish uchun ketishga majbur bo'ladi. Bobur Andijonni qo'lga kiritish uchun katta kuch sarflab 2 yildan keyingina uni egalladi. Keyin yana Samarqandga yurish qiladi va ikkinchi marta ishg'ol qiladi. Lekin bu vaqtda, ya'ni 1500-yilda Samarqandga Shayboniyxon katta kuch bilan bostirib kiradi. Natijada Bobur askarlari bilan Samarqandni tashlab chiqib ketishga majbur bo'ladi. Bobur Samarqandni egallash uchun yana bir necha bor harakat qilib, Shayboniyxon bilan jang qiladi, lekin istagan natijaga erisha olmaydi. Oxiri 1504-yilda u 300 dan ortiq navkari bilan Kobulga qarab yo'l oladi.

XVI asr boshlarida Afg'oniston tarqoq edi. Bobur turk va afg'on qabilalarini o'ziga bo'ysundirib, Kobul, g'azni shaharlarini qo'lga kiritadi, 1508-yilda o'zini shu yerning hokimi deb e'lon qiladi.

Umuman, Bobur va uning o'g'li Afg'onistonda 1504-yildan 1526-yilgacha podshohlik qildilar. Shu davr ichida tarqoq qabilalarni birlashtirdi, mamlakatni iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamladi. U doimo kuchli, markazlashgan davlat tuzish orzusida bo'ldi. Bobur mamlakat obodonchiligiga, ilm-fan rivojiga katta e'tibor berdi, o'zi ham ruboiy va g'azallar bitdi. U Afg'onistonning xo'jaligi va madaniyatiga katta e'tibor berdi, ariq va kanallar ochdi, chorbog'lar soldi, yo'l va ko'priklar qurdi, maktab va madrasalar bino qildi, Buxoro olusi, nayshakar va boshqa xil daraxt ko'chatlarini keltirib ektirdi. Bobur mahalliy aholining diniy e'tiqodlariga, urf-odatlariga erkinlik berdi, yerli amaldorlarni izzat-hurmat qildi. Bular Boburning shon-shuhratini oshirib yubordi.

Bobur o'zining tobora mustahkamlanib borayotgan davlatini kengaytirish maqsadida 1526-yil Dehli tomon yurish qiladi. U 1526-yil 21-aprelida Panipat jangida Dehli sultoni Ibrohim Lo'diy boshchilik qilgan armiyani yengib, Dehlini egallaydi.

Bobur bu yerda markazlashgan kuchli davlat barpo qildi. Uning davrida hindistonning qo'shni mamlakatlar, xususan, Rossiya va O'rta Osiyo bilan aloqasi kuchaydi. U mamlakat obodonchiligiga katta e'tibor berdi, shaharlarni rivojlantirdi, irrigatsiya inshootlari qurdirdi, bog'lar barpo qildi. Bobur ilm-fanni rivojlantirishga, olim va shoirlarga homiylik qilishga intildi.

U 1530-yilda Agrada vafot qildi. Keyinchalik uning xoki Kobulga keltirilib, dafn etildi.

Bobur o'zbek adabiyoti, tarix, geografiya, falsafaga hissa qo'shgan mutafakkir. U yoshligidan badiiy ijod bilan shug'ullandi. Uni butun jahonga tanitgan asari «Boburnoma»dir. «Boburnoma» juda qimmatli adabiy-tarixiy asar bo'lib, u XV asr oxiri XVI asrning 30-yillarigacha bo'lgan murakkab tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Bobur ushbu asarda Movarounnahr, Afg'oniston, Xuroson va hindistonda ro'y bergan siyosiy voqyealarga batafsil to'xtaladi. Unda o'zaro urushlar, taxt uchun kurashlar, xalq ahvolining yomonlashuvi va boshqa voqyealar bayon qilinadi. Shuningdek, Bobur Andijon, Samarqand, Kobul va Dehlidagi o'z faoliyatiga ham to'xtaladi. «Boburnoma» asari geografiya haqida ham qimmatli

ma'lumot beradi. Bobur ushbu asarda shuncha ko'p geografik nomlar, kishilar nomi, hayvonot va o'simliklar nomini keltiradiki, bular hammasi uning noyob xotira quvvatiga ega bo'lganni isbot qiladi. Bobir chet tillardagi kishi va geografik nomlarni mumkin qadar aslida qanday bo'lsa shunday berishga harakat qiladi.

Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishnik i ayladim xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi?!

Lug'at

Adabiyot va san'at – ma'naviyat o'chogi – искусства и литература – очаг нравственности

Mumtoz adabiyot – классическая литература

Adabiy meros – литературное наследие

Yirik nomoyondalari – крупные деятели

Amaliy san'at – прикладное искусство

O'zbek san'ati ustalari - мастера узбекского искусства

O'zbek she'riyatining yirik vakili- крупный деятель узбекской поэзии

Ilk to'plam – первый сборник

She'riy doston – в стыках поэма

Yuksak unvon- высокая награда

Isde'dodli – талантливый

Men sevgan asar - моё любимое произведение

Vazifa: 1. E.Vohidov va A.Oripov ijodi haqida nimalar bilasiz?

2. “Men sevgan badiiy asar” mavzuida ijodiy insho yozing.

GRAMMATIKA: NUTQ USHLUBLARI. BADIY USLUB VA UNING XUSUSIYATLARI.

SIFAT –SO‘Z TURKUMI. SIFAT DARAJALARI.



Adabiy tilning ijtimoiy hayotning ma'lum sohasi doirasida qo'llaniladigan ko'rinishlari *nutq ushlublari* deyiladi. O'zbek tilining ichki tuzilishinigina o'rganish bizga bu til haqida to'la axborotni bera olmaydi, chunki til birliklaridan qachon, qayerda, qanday vaziyatda foydalana bilish ham katta ahamiyatga ega.

Masalan: *muhtaram, qimmatli, aziz* singari so'zlarni ma'lum shaxs bildiruvchi so'zlarga faqat *rasmiy, publitsistik* ushlublarda qo'shib ishlatishingiz mumkin. *Muhtaram Solijon Soqiyevich! Qimmatli aka, aziz opajon.*

Stil, ya'ni uslub termini juda qadim zamonlardan buyon ishlatilib kelinayotgan bo'lib, u turli davrlarda turli sohalarda turlicha tushunildi va izohlandi. Aslida stil grekcha stilos so'zidan olingan bo'lib, yozish uchun ishlatiladigan uchi o'tkirlashtirilgan tayoqchani bildirgan. Qadimgi me'yorlash rimliklar, gretsiyaliklar uslubga kishilarni ishontirish san'ati sifatida qaraganlar. Hindlar uni nutqni bezash vositasi deb bilgan bo'lsalar, arablar bu so'z bilan o'zlarining diniy e'tiqod va qoidalarga to'g'ri keladigan kiyimlarini ham atagan edilar. «Stil» so'zining filologik termin sifatida ishlatilishi keyingi asrlardangina boshlandi.

Ko'plab adabiyotshunos va tilshunos olimlar mazkur tushunchaga ta'rif berishga harakat qilganlar. Bu ta'riflarda bir - biriga qarama - qarshi fikrlar, masalaga turlicha yondoshishlar ham yo'q emas.

Uslub tilning jamiyat ijtimoiy faoliyatining ma'lum tomoni bilan bog'langan o'ziga xos lug'ati, frazeologik birikmalari, grammatik qurilmalari bilan nutqning xuddi shunday boshqa turlaridan o'z ichki xususiyatlari bilan tafovut qilib turuvchi tizimdir.

Nutq uslublari deganda, til uslublarning aloqa jarayonida qo'llanilishi tushuniladi. Boshqacha aytganda, nutq uslublari til uslublarning harakatdagi shaklidir.

Hozirgi vaqtda tilshunoslikda til uslublari tasnifida vazifaviy uslublar tan olinadi. Har biri alohida olingan uslub o'zining uslubiy buyog'i bilan boshqa uslublardan farq qiladi.

Nutq uslublari quyidagi turlarga ajratiladi:

1. So'zlashuv uslubi .
2. Ilmiy uslub.
3. Rasmiy uslub.
4. Publitsistik uslub (ommabop uslub).
5. Badiiy uslub.

Nutq uslublari "Idrok xaritasi" asosida tasvirlaymiz.




Badiiy uslub. Til materialini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud bo'lgan barcha lug'aviy birliklarning hamda boshqa vazifaviy uslub unsurlarining

ishtirok etaverishi va ularning muhim bir vazifaga - estetik vazifani bajarishga xizmat qilishini badiiy nutq uslubining o'ziga xos xususiyati deb qarash kerak bo'ladi.


Badiiy nutq uslubining o'ziga xos lug'aviy va grammatik xususiyatlari mavjud.

Lug'aviy birliklardan tashqari frazeologik birliklarning faol va keng ravishda ishlatilishi ham badiiy nutq uslubining asosiy belgilaridandir.




Badiiy uslubning asosiy xususiyatlarini klaster asosida tahlil qilamiz.

KLASSIK KLASTER



RAQAMLANGAN KLASTER



Badiiy uslubning grammatik xususiyatlariga nazar tashlasak, grammatik shaklning barcha ko'rinishlari - sheva va tarixiy variantlari ham asarning mavzu talabi bilan qo'llanaveradi. Masalan:

*Dunyo bo'ldi chamanim manim,
O'zbekiston vatanim manim.*

Badiiy uslub sintaktik xususiyatlari bilan ham boshqa uslublardan farqlanadi. Badiiy nutq uslubida darak, so'roq, buyruq gaplar matn sintaksisining ajralmas qismini tashkil qiladi. Undov gaplar ham badiiy nutq uslubi uchun xarakterlidir. Ular kitobxonga estetik ta'sir o'tkazishda yozuvchi qo'lida kuchli qurol hisoblanadi.


Badiiy uslub o'zbek tili vazifaviy uslublari orasida o'ziga xos mavqega ega bo'lib, ayni paytda o'zining alohida me'yorlariga ham ega. Til materialini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud bo'lgan barcha lingvistik birliklarning, shu bilan birga, boshqa vazifaviy uslublarga xos bo'lgan elementlarning ham ishlatilaverishi va ularning muhim bir vazifaga – badiiy-estetik vazifani bajarishga xizmat qilishi badiiy uslubning asosiy xususiyati hisoblanadi. Badiiy uslubda adabiy tilning barcha imkoniyatlarini o'z ichiga olish bilan birga, o'zbek shevalariga, kasb-hunarga oid leksik birliklar, bugungi kundalik iste'moldan chiqib ketgan tarixiy so'zlar ham personajlar nutqi orqali ishlatilaveradi. Badiiy uslubdan boshqa barcha uslublar ijtimoiy hayotning ma'lum sohasi doirasida chegaralangan. Badiiy uslub ulardan farqli ravishda, inson amaliy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi.

Shuning uchun unda ilmiy uslubning ham, publitsistik uslubning ham, so'zlashuv va rasmiy uslubning ham elementlari namoyon bo'laveradi.

Shuningdek, badiiy uslubda, xususan poetik nutqda hozirgi adabiy orfografik me'yor talablariga muvofiq kelmaydigan qaro, yamon, yaro, oshno, talosh singari so'zlar ham ishlatilaveradi.

Badiiy nutq uslubida til obraz, xarakter va manzaralar yaratish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu uslub o'zining obrazlilik bilan adabiy tilning boshqa uslublaridan ajralib turadi.

Badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlarini "Idrok xaritasi" asosida umumlashtiramiz.



So'zlashuv uslubi

-Ada, bugun ishdan kechroq kelaman.
 U paqir to'la suvni zo'rg'a ko'tarib kelardi.
 Mezbon bug'i chiqib turgan bir tovoq barakni dasturxonga qo'ydi.
 Anvar shotini duvolga suyadi.

Ilmiy uslub

Muomala odobi boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo'yishni, an'anaviy axloqiy-me'yorlar talablarini bajarishini taqozo etadi. Yana u insondagi yaxshi jihatlarni ko'zga ko'rsatish, namoyon etish bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin va eng ifodali namoyon bo'lishi so'z, nutq vositasida ro'y beradi.

- Kimyoviy texnologiya usullari va jarayonlarining fizik-kimyoviy sharoitlarini tekshirish, texnologik jarayonlarning sxemalarini ishlab chiqish, asbob va uskunalarning tuzilishi va ularni tayyorlash uchun zarur materiallarni aniqlash kimyoviy texnologiyaning vazifasidir.
- Har qanday kimyoviy texnologiya jarayonining asosiy elementlari – xomashyo, energiya, asbob va uskunar.

Badiiy uslub

*Sochning sunbul, qading sarvi sanubar
Ko'zung nargis, yanog'ing arg'uvondir.*

(Atoy) (o'xshatish)

So'fi yana past toifa oldida muborak og'zini ochib, aziz tilini qaldiratmoqqa majbur bo'ldi:

-Badbaxt fitna! Qo'yasanmi-qo'ymaysanmi, axir?!

"Hubbuli vatani minal imon" deganlar – "Vatanni sevish imondan", axir! Bilmasang bekor-da!

(Cho'lpon "Kecha va kunduz")

- *Uydan ketganimga o'n yil bo'libdi,
O'n yil qishlog'imdan yuribman uzoq,
Men yurgan yo'llarda o'tlar unibdi,
Ko'milib bo'libdi men kezgan so'qmoq.*
(A.Oripov)
- *...Qizni o'lik yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganda, qizcha uyg'ondi va ko'zini ochmasdan odatdagicha duo qildi:*
- *-Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...*

Publitsistik uslub

Xususan, tabiiy ofat oqibatida 18 kishi hayotdan ko'z yumgan. Ko'plab ma'muriy va turar joy binolariga shikast yetgan. Bundan tashqari, transport vositalari izdan chiqqan.

- *Milliy mafkuramizning negizlaridan biri- tilga bo'lgan munosabatimizdadir.*
- *Til – millat vakillarini mustahkam birlashtiruvchi, tutib turuvchi belbog'. Bu ramziybelbog'ning kuchi, qudrati siz-u bizlarning ona tilimizga bo'lgan munosabatimizga bog'liq.*

(A.Ibrohimov)

Ona tili hayotning qon tomiridir. Ona tiliga beparvo bo'lgan xalq halokatga mahkum.

Ovropaliklar ona tillari uchun jonlarini ham, mollarini ham ayamaydilar, chunki biladilarki, tili yo'q bo'lsa, millat ham yo'q bo'lib ketadi.

(Ismoilbek G'aspirali)

Rasmiy-idoraviy uslub

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tashabbusi bilan tashkil etilgan mazkur tadbirda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, tijorat banklari, kredit uyushmalari rahbarlari va mutaxassislar qatnashdi.

Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidagi 145-umumta'lim maktabida O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid bilan uchrashuv o'tkaziladi.

1. **Topshiriq.**Badiiy asardan og'zaki va adabiy so'zlashuv uslubiga misol keltiring.

2. TOPSHIRIQ. MOSLASHTIRISH jadvalini bajaring.

<i>Nutq uslublari</i>	<i>Asosiy belgilari</i>
<i>So‘zlashuv uslubi</i>	Mantiqiylik, aniqlik, xolislik
<i>Ilmiy uslub</i>	Erkinlik, norasmiylik; oldindan tayyorlanmagan nutq
<i>Rasmiy uslub</i>	Obrazlilik, ifodalilik, badiiylik
<i>Ommabop uslub</i>	Aniqlik, qoliplashganlik, rasmiylik, qat’iylik
<i>Badiiy uslub</i>	Baho berish, undash, chaqiriq shaklida bo‘ladi

3. TOPSHIRIQ. Jadvalni mos ta’riflar asosida to‘ldiring.

<i>Nutq uslublari</i>	<i>Qo‘llanish sohasi</i>
<i>So‘zlashuv uslubi</i>	
<i>Ilmiy uslub</i>	
<i>Rasmiy uslub</i>	
<i>Ommabop uslub</i>	
<i>Badiiy uslub</i>	

SIFAT

Otga bog‘lanib, uning belgisini bildiradigan va qanday? qanaqa? so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlarga sifat deyiladi.

Sifatlar qanday belgini ifodalashiga ko‘ra ma’no turlariga bo‘linadi.

1. Xususiyat sifatleri. Narsalarning turli xususiyat, holatlarini, kishilarning xarakter xususiyatlarini ifodalovchi sifatlar xususiyat sifatleri deyiladi: *suyuq, quyuc, toza, xafa, ochiq, yopiq, xursand, qattiqqo‘l, shirinso‘z, xushmuomala, qattiq, yumshoq, g‘amxo‘r.*
2. Rang tus sifatleri. Predmetlarning rangi, tusini bildiruvchi sifatlardir: *ola-bula, jigarrang, oq, qizil, ko‘k, sariq, havorang.*
3. Maza ta‘m sifatleri. Narsalarning maza-ta‘mini bildirgan sifatlardir: *shirin, achchiq, nordon, sho‘r, mazali, bemaza.*
4. Hajm o‘lchov sifatleri. Narsalarning vazni, o‘lchovi, hajmi va shaklini bildiradigan sifatlardir: *katta, kichik, dumaloq, og‘ir, yengil, yassi, keng, tor, uzun.*
5. Hid sifatleri: *xushbo‘y, qo‘lansa, badbo‘y.*
6. Makon-zamon sifatleri. Narsalarning o‘rin va vaqtga nisbatan belgilarini bildiruvchi sifatlardir. Ular *-gi, -ki, -qi* qo‘shimchalari orqali yasaladi: *bulturqi, yozgi, kuzgi, qishki, qadimgi.*

SIFAT DARAJALARI

Belgining ortiq yoki kamlik jihatidan farqjanishi sifat darajalari, ana shunday ma’no ifodalovchi shakllar esa daraja shakllari deyiladi.

Sifatning quyidagi to‘rt xil darajasi mavjud: 1) oddiy daraja; 2) qi

yosiy daraja; 3) orttirma daraja; 4) ozaytirma daraja.

Asliy sifatlarda belgining ko‘lamini ifodalashga ko‘ra uch xil daraja ajratiladi: 1) oddiy daraja; 2) qiyosiy daraja; 3) orttirma daraja.

Bu belgining narsa-buyumlar orasida ortiq-kamligi jihatidan farqlanishi sifat darajasi deyiladi. Sifatlarda uchta daraja bor: oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja.

Narsa-buyumlar orasidagi belgi o‘zaro taqqoslanmasa, oddiy daraja deyiladi. Masalan: *yuksak, uzun, xushyor, kalta*.

Bir narsa-buyumdagi belgining boshqalariga nisbatan ortiq yoki kamligi qiyosiy daraja deyiladi. Qiyosiy daraja oddiy darajadagi sifalga *-roq* qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil bo‘ladi. Masalan: *yuksakroq, uzunroq, hushyorroq, kaltaroq*.

Belgining bir narsa-buyumda boshqalariga nisbatan eng ko‘p ekanligi orttirma daraja deyiladi. Orttirma daraja *eng, juda, nihoyat* kabi so‘zlar bilan hosil bo‘ladi. Masalan: *eng yuksak, juda uzun...*



1- topshiriq. *Sifatning har bir ma’no turiga beshtadan misolni tarjimasini bilan yozing. Ularni qatnashtirib beshta gap tuzing.*

2- topshiriq. *O‘zbek tiliga tarjima qiling.*

1. АлишерНавои – выдающийся деятель узбекской классической литературы. 2. Улицы нашего города широкие и светлые. 3. Летом большой спрос на прохладительные напитки. 4. С утра подул приятный ветерок. 5. Мой старший брат - страстный болельщик “Пахтакор”а.

13-mavzu. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI.

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so‘zlash. Mavzu bo‘yicha bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq: Ommaviy axborot vositalarining faoliyati haqida fikr bildirish. Teleko‘rsatuvlar va radioeshittirishlar, gazeta va jurnallardagi materiallar, reklama matnlarini tahlil qilish. “XXI asrda axborotning o‘rni” mavzusida esse yozish.

Grammatika: Publitsistik uslub va uning xususiyatlari. Olmosh –so‘z turkumi.

Tayanch so‘z va iboralar: *ommaviy axborot vositalari, matbuot, radio, televideniye, internet saytlari, publitsistik uslub, olmosh, kishilik olmoshi, ko‘rsatish olmoshi, so‘roq olmoshi, o‘zlik olmoshi gumon olmoshi, belgilash olmoshi.*

Ommaviy axborot vositalari (qisqartmasi: OAV) keng ommaga axborot yetkazuvchi vositalardir. Ozbekiston Respublikasi qonunchiligida davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo‘lgan hamda bosma tarzda (gazeta, jurnal, axborotnoma, bulletin va boshqalar) va/yoki elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxronikal dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari OAV, deb ko‘rsatilgan.

OAV Kundalik hayotimizning ajralmas qismidir. Bu haqida so‘z yuritganda, biz, avvalo, doimo yangilik izlab, yangilikka intilib, hayotning qaynoq nuqtalariga kirib boradigan, xolislik va haqqoniylik, Vatan va xalq manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yadigan olijanob va mas’uliyatli kasb egalarini tasavvur qilamiz.

Butun mamlakatimiz qatori O‘zbekiston ommaviy axborot vositalari ham mustaqillik yillarida katta rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi, katta yutuqlarga erishdi.

Hozirgi kunda respublikamizda 1500 dan ziyod ommaviy axborot vositasi faoliyat ko‘rsatmoqda. E‘tiborga molik jihati shundaki, ommaviy axborot vositalarining tarkibi ham tubdan o‘zgarib bormoqda. Buni yurtimizdagi barcha telekanallarning qariyb 53 foizi, radiokanallarning esa 85 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalari ekani ham tasdiqlaydi. Yaqinda, kechayu kunduz uzluksiz faoliyat olib boradigan “O‘zbekiston - 24” telekanali ish boshladi. U milliy axborot makonida o‘z munosib o‘rnini va o‘z tomoshabinlarini topadi.

OAV haqida so‘z yuritganda, eng tezkor axborot vositasi - internet hayotimizga tobora chuqur kirib borayotganini alohida qayd etish lozim. Hozirgi vaqtda global tarmoqda “Uz” domenli veb-saytlar, axborot portallari soni 400 dan oshib ketgani, ularning aksariyati xorijiy tillarda faoliyat ko‘rsatayotgani, ushbu yo‘nalishda yangi ijodiy avlod - internet jurnalistlari shakllanib borayotgani e‘tiborga sazovordir.

Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish masalasi davlatimiz va jamiyatimizning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelayotir. Ana shunday e‘tibor tufayli o‘tgan davrda jurnalistlarimiz uchun faoliyat maydonini kengaytirish, ularning huquq va manfaatlarini ta‘minlash maqsadida ko‘p ishlar qilindi. Jumladan, matbuot va ommaviy axborot vositalarini liberallashtirish va rivojlantirish, so‘z erkinligini -ta‘minlashga qaratilgan, demokratik talab va standartlarga to‘la javob beradigan 10 ga yaqin qonun hujjati qabul qilinib, bu borada mustahkam huquqiy baza yaratildi.

O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, Milliy matbuot markazi, Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, Mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi kabi tashkilotlar muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda. Keyingi paytda ularning qatoriga Xalqaro press-klub ham qo‘shildi.

Bugungi kunda OAV to‘rtinchi hokimiyat deb aytilishi bejiz emas. Chunki jamiyatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, yangiliklar, yutuqlar bilan birga kamchiliklar, muammolarni xolisona yoritishi muhim. Bu kelajakda jamiyat rivojlanishiga xizmat qiladi. Biroq OAV bir tomonlama, muayyan shaxs, guruh manfaatini himoya qilib noto‘g‘ri, real voqelikni bo‘rttirib aks ettirishi o‘sha jamiyat jamoatchilik fikrining noaniq bo‘lisiga olib keladi.

«Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida»gi Qonunida ommaviy axborot vositalarining turlari ko‘rsatilgan. Ular gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byullitenlar, axborot agentliklari, televideniye (kabelli, efir-kabelli televideniye) va radioeshittirishlar, hujjatli kino, elektron axborot tizimi, shuningdek, doimiy nomga ega bo‘lgan, davlat tasarrufidagi, mustaqil va boshqa ommaviy davriy nashrlar ommaviy axborot vositalaridir.

O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini senzura qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Turlari:

1. Matbuot (gazetalar, jurnallar va boshqa nashrlar). Gazetava jurnallar 876 ta bo‘lib, shuning 676 tasi gazeta (302 tasi nodavlat), 189 ta jurnal (93 tasi nodavlat), 11 tasi bulliten-axborotnomalardir. (2006-yil).

2. Televideniye. O‘zbekistonda teleko‘rsatuvlar rasman 1956-yil 5-noyabrda boshlangan. Rangli ko‘rsatuvlar 1971-yildan boshlangan. Toshkent teleminorasi 1956-yilda qurilgan, balandligi 180 metr, yangisi 1985-yilda, balandligi 375 metr.

3. Radio. O‘zbekistonda dastlabki radioeshittirishlar 1926-yilda Toshkentda amalgam oshirilgan. 1947-yilda ilk bor radioeshittirishlar chet elga efirga uzatilgan. “Yoshlar” radiokanali 1998-yilda tashkil etilgan.

4. Axborot agentliklari. “Uztag” 1992-yil 5-fevralda “UzA” ga aylantirildi. “Jahon” axborot agentligi 1995-yil noyabrda tashkil topgan. “Turkiston-press” axborot agentligi 1998-yil 25-sentabrda tashkil topgan. Qoraqolpog‘iston xabar agentligi 1992-yil 21- aprelda tuzilgan.

5. Internet saytlari. 1996-yildan kirib kelgan.

* * *

2017—2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida OAV ga oid eng muhim ustuvor yo‘nalishlar belgilab berilgan.

Xalq bilan muloqot, odamlarning orzu-intilishlari, dardu tashvishlari bilan yashash bugun davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi Bunda har bir ommaviy axborot vositasining chinakam muloqot maydoniga, erkin fikr minbariga aylanishi taqozo etiladi

Ayniqsa, hayotimizdagi mavjud muammolarni, aholi tomonidan ko‘tarilayotgan o‘tkir va dolzarb masalalarni, ularning sabab va omillarini ochib berish, hayotimizdagi salbiy illatlarni dadillik bilan ko‘tarib chiqishni haqiqiy jurnalist o‘z kasbining mazmun-mohiyatiga aylantira oladi.

Buning uchun ommaviy axborot vositalari vakillaridan nafaqat professional bilim va malaka, hayotiy tajriba, o‘z so‘zi uchun mas’uliyat hissi, ayni vaqtda yuksak fuqarolik pozitsiyasi, ma’naviy jasorat ham talab etiladi.

Bugun O‘zbekiston barcha sohalarda taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Turmushimizdagi bir-biridan muhim va dolzarb vazifalarni hal etishda, yurtimizda tinchlik-osoyishtalik, o‘zaro hamjihatlik muhitini yanada mustahkamlash, xalqimizning bunyodkorlik salohiyatini, ertangi kunga bo‘lgan ishonchini oshirish, hayotimizda qonun va adolat ustuvorligini ta’minlash, ya’ni, xalq manfaatining chinakam himoyachisi bo‘lishda ommaviy axborot vositalaridan har doim hushyor va faol harakat olib borish talab qilinadi.

Lug‘at

ziyoli – интеллигентный, образованный

zamonaviy – современный

ko‘rsatkich – показатель

idrok – восприятие

taraqqiyot – прогресс

mashg‘ulot – занятие

tadqiqot – исследование

axborot xavfsizligi – информационная безопасность

taqiq – запрет

tur – вид

122-бетга



Bloger – havaskor jurnalist, biroq ba’zi jurnalistlardan mahoratliroq b‘ylishi mumkin

Bugungi kunda mamlakatimizda s‘yz erkinligining barqarorlashuvi, OAVga berilgan imkoniyat va sharoitlarning hosilasi sabab, ushbu sohada ma'lum masalalar muhokama markaziga tushib qoldi. Jumladan, s‘ynggi kunlarda axborot haqida gap ketganda, jurnalistlar qatori blogerlar tez-tez tilga olinadigan b‘yldi. Rasmiy va norasmiy tadbir va anjumanlarda ham OAV xodimlari

qatori blogerlar taklif etilmoqda. Bu ochiq jamiyatda s‘yz erkinligining barqarorlashayotgani, chinakam demokratik prinsiplarning amal qilayotganidan dalolat beradi. Bu holatning xavfli tomoni shundaki, axborot berish va qabul qilishda shaffoflik, ob'ektivlik, haqqoniylik, ochiqlik va daxlsizlik ustuvorligi ta'minlashda. Ya'ni har kim axborot berish yo tarqatish huquqiga ega jamiyatda axborot tarqatuvchi shaxs yo uyushma har qanday tazyiq, manfaat, sub'ektiv fikrlar yo ma'lum bir guruhlarning manfaatlaridan xoli ravishda haqqoniylik, ob'ektivlilik, ishonchlilik,

mas'uliyatlilikni anglashi va bu me'yorlarga qat'iy amal qilishi kerak. Bu masala jurnalistlar qatori blogerlarning jamiyatda faollashuvi bilan yanada muhimroq b'olib qoldi.

Blog nima?

Blog – ingliz tilidagi web log so'zlaridan yasalgan bo'lib, internet-jurnal, hodisa, internet-kundalik, onlayn-kundalik degan ma'nolarni anglatadi. Avvaliga blog shaxsiy onlayn kundalik sifatida qabul qilingan. Odamlar o'z fikrlari, biror voqeya yoki hodisaga nisbatan munosabatini boshqalar bilan muntazam bo'lishib borgan. Bugunga kelib blog tushunchasi ancha kengaydi, matn, tasvir yoki multimediani o'z ichiga olgan, muntazam yozuvlar qo'shib boriladigan veb-sayt nazarda tutiladi (manba – Wikipedia).

Blogning quyidagi turlarini sanab o'tish mumkin: matnli blog (O'zbekistonda hozircha eng ommalashgani), fotoblog, artblog (Rais buva kabi blog muallifi chizgan rasmlardan iborat), musiqiy blog, videoblog (vlog), mikroblog. Ko'rinib turibdiki, blogda har qanday ko'rinishdagi material, fayl va ma'lumotlarni joylashtirish mumkin. Bu bloger tanlagan yo'nalishga bog'liq, istasa hamma turlarini qorishtirib yuborishi ham mumkin. Chunki blog uchun hiech qanday qat'iy qoida, shablon yoki mezonlar yo'q.

Bloger - blog yurituvchi shaxs. U yuritayotgan blogni kichik gazetaga o'xshatish mumkin. Faqat uning shtatida birgina muxbir – bloger bor. U bir vaqtning o'zida ham muallif, ham muharrir, ham sahifalovchi. U SMM, SEO, dizaynerlik, dasturchilik, foto va videolar montajchisi vazifasini ham bajarishi mumkin.

O'zbek blogosferasida taniqli blogerlarning kasbi va mutaxassisligiga e'tibor bersangiz, ularning aksariyati yo jurnalist yoki o'qituvchi. Jurnalistlar orasida blogerlarning ko'proq ekani sababli ba'zilar jurnalist bilan blogerni adashtirib yuboradi ham. Muhimi u odamlarni qiziqtirishi va blogiga jalb qila olishi kerak.

Boshqa kasb egalari – shifokorlar, stomatologlar, quruvchilar, oshpazlar, cho'ponlaru dehqonlar, uy bekalari ham blog yuritishi, unda o'z shaxsiy fikrlaridan tortib, tajribalarigacha yorita oladi. Oshpaz taom tayyorlash, uy bekasi bola tarbiyalash, o'qituvchi sifatli dars o'tish, huquqshunos huquqiy maslahatlar berishi yoki o'z sohasidagi og'riqni masalalarni ko'tarib chiqib, ularga yechimlar taklif qilishi mumkin. Eng muhimi to'xtab qolmasligi, blogini doimiy yangilab turishi kerak.

Blogpost va maqolaning farqi nimada?

Maqola – jurnalist tomonidan ommaviy axborot vositasi – gazeta-jurnal yoki elektron nashr uchun yoziladi. Maqolada fakt va dalillar bo'lishi, xolis va haqqoniy yozilishi, mavzu chuqur tahlil qilinishi, yechim va takliflar berilishi kerak. Odatda maqolalarda muallif «meni» ko'rinmaydi.

Blogpost esa asosan shaxsiy va sub'ektiv fikrlardan iborat bo'ladi. Blogerining shaxsiy kuzatuvlari, mulohaza va munosabati, shaxsiy tajriba va maslahatlari o'rin oladi. Fikr to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishi, unga qo'shilish yoki qo'shilmalikdan qat'i nazar, hurmat qilinishi kerak.

Muammoni ko'tarib chiqqan blogerga yechimlar berishni talab qilish ham noto'g'ri. Chunki bloger o'sha sohaning mutaxassisi bo'lmasligi mumkin, uning vazifasi qaerdadir qanday muammo borligini ko'tarib chiqishdan iborat, masalani o'rganish, yechim topish va hal qilish bilan o'sha sohaning egalari – davlat oylik, vakolat bergan odamlar shug'ullanaversin.

Savollar:

Bloger kim?

Kimlar bloger bo'lishi mumkin?

Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi ham blogermi?

Blogerlikdan nima foyda?

Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Чем отличается журналист от блогера, кроме образования?

1) У блогеров и журналистов разные роли. Блогеры - это по сути очевидцы, которые не обязательно умеют складно писать. В первой половине двадцатого века очевидец события что-то говорил газетчику. Во второй - приходил в телестудию, чтобы, как фрекен Бок, поведать миру об очаровательном привидении.

2) СМИ это общественный институт с совершенно определенной социальной функцией. Задача СМИ в демократической стране - информировать население таким образом, чтобы обеспечить адекватный избирательный процесс.

Другими словами, СМИ - основной источник информации о происходящем в стране. Если их заставляют что-либо писать, то поток информации становится односторонним, не объективным, и сворачивает в сторону той или иной политической силы.

У блогеров такой функции нет. Очевидцы, то есть люди, формирующие новостные поводы, составляют пренебрежимо малую долю от всех пользователей интернет-дневников. У них нет обязательств перед читателем, они не играют по правилам, заданным законом о СМИ.


3) Блогерской журналистики как таковой не существует, потому что огромная доля популярных блогеров не просто связана со СМИ, но и вписывается в их формат. Блогеров замечают издания и предлагают использовать их площадку для высказывания интересных мыслей.

4) Работа СМИ - это регулярный процесс.

5) У журналиста есть навыки, которые не распространяются на блогеров.

6) Блогеры вправе распоряжаться эмоциями по собственному усмотрению и вольны писать только то, что им нравится. Журналисты, если мы говорим о новостях, должны писать то, что будет интересно.

GRAMMATIKA: PUBLITSISTIK USLUB VA UNING XUSUSIYATLARI. OLMOSH –SO‘Z TURKUMI.



Ommabop nutq uslubi, uning xususiyatlari.

Ommabop uslub keng ma'noda ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritadigan barcha turdagi asarlarni o'z ichiga oladi. Bu uslub ham o'zining yozma va og'zaki ko'rinishlariga ega. Hayotning muhim ijtimoiy-siyosiy masalalariga bag'ishlangan bosh maqolalar, felyeton, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar uslubning yozma turidagi asarlaridir.

Ommabop uslubning yozma va og'zaki ko'rinishlari o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lsada, ular publitsistik uslubning umumiy talablariga bo'ysunadi. Chunonchi, bu uslubning ikkala turida ham siyosiy faollik, hozirjavoblik, o'tkir va ta'sirchan notiqlik, mantiqiy salobat, tashviqot va targ'ibot kabi xususiyatlar mavjud bo'ladi.

Ommabop uslub ma'lum ma'noda oraliq uslub sanaladi. Bu uslubda shakllangan matnlar obrazlilik, ta'sirchanligi, tasviriy vositalarning mahsuldor qo'llanilishi bilan badiiy uslubga yaqinlashsa, dialektizmlar, istorizmlar, argo va jargonlar qo'llanilmasligi bilan undan uzoqlashadi. Ifodaning aniqligi va publitsistik janrlarga xoslangan hamda ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning qo'llanilishi bilan ilmiy uslubga o'xshaydi. Ayni paytda, ifodadagi qisqalik, lo'ndalik, ixchamlik, yorqinlik kabi xislatlar ham uni ilmiy uslub bilan yonma-yon qo'yadi.

Radio va televideniedagi ayrim chiqishlar bu uslubdagi matnda so'zlashuv uslubi elementlari ham ba'zan aralashib ketishi mumkinligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, publisistika badiiy, siyosiy, ilmiy jabhalarni qamrab oluvchi yirik soha hisoblanib, ommaviy axborot vositalari sanaladigan radio va televideniya, gazeta va jurnallar sahifalarida aks etadigan yangilik, xabar, reportaj, tahlilnoma, bosh maqola, maqola, ocherk, feleton, pamflet, e'lon, reklama singari qator janrlarni qamrab oladi. Ana shu qamrov doirasining kengligi o'z navbatida til birliklarining har bir janrda alohida tarzda me'yorlashuvini taqozo etadi. Bu o'rinda esa me'yorlashishning umumiy jihatlari xususida so'z yuritish imkoniyati mavjud.

Shu o'rinda mazkur uslubda so'z yasash imkoniyatining boshqa vazifaviy uslublarga nisbatan mahsuldor ekanligini ta'kidlash o'rinli bo'ladi.

Publitsistik uslubning xarakterli belgilaridan biri nutqning ko'pincha I shaxs nomidan ifodalanishidir.

Publitsistik uslub morfologik va sintaktik xususiyatlari bilan ham boshqa uslublardan ajralib turadi. Morfologik uslublardan biri so'z yasashida ko'zga tashlanadi. Bunda boshqa tildan qabul qilingan so'zlar tarkibi o'zbek tilidagi qo'shimchalar bilan almashtiriladi: sportchi, dildosh, paxtashunos; -lik qo'shimchasi bilan so'z yasash ham anchagina: ilg'orlik, omilkorlik, hamkorlik, faollik, bunyodkorlik, ishchanlik, unumdorlik.

Publitsistik uslubning sintaktik xususiyatlari:

1. So'roq gaplar ko'p ishlatiladi;
2. Uyushiq bo'lakli gaplar keng qo'llaniladi;
3. Undov gaplar ko'p ishlatiladi;
4. Kirish bo'lakli, kirish qurilmali gaplar keng qo'llaniladi;
5. Shaxsi umumlashgan gaplar ko'p ishlatiladi.

Topshiriq: Matnni ifodali o'qing. Uning ommabop xususiyatlarini shakllantiruvchi nutq vositalarini aniqlang.

Sog'lom turmush tarzi

Sog'lom turmush tarzi keng ma'noli tushuncha bo'lib, u unumli mehnat, faol dam olish, badantarbiya va sport bilan shug'ullanish, organizmni chiniqtirish, shaxsiy gigiyenaga rioya qilish, tartibli ovqatlanish, zararli odatlardan o'zini tiyish, ruhiy va ma'naviy oziqlanish, muntazam shifokor ko'rigidan o'tib turish kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi. Har birimiz bularni o'z turmush tarzimizga tadbiiq etsak, o'zimiz istagandek sog'lom turmush kechiramiz. Ekspertlarning fikricha, tibbiy xizmat sog'lig'imizning atigi 8-10 % ini ta'minlar ekan. Sog'lig'imizning 20 % irsiy omillarga, yana 20 % atrof-muhitga va 50 % idan ko'prog'i turmush tarzimizga, ya'ni o'zimizga bog'liq ekan. Shunday ekan biz o'z sog'lig'imizga o'zimiz ma'suliyatli bo'lishimiz lozim. Shu sababdan sog'lom turmush tarzini shakllantirishda quyidagi asosiy omillarga e'tibor berishimiz kerak:

Harakatli turmush va badantarbiya - har kuni uyqudan turganda badantarbiya bilan shug'ullanish lozim. Bu kun davomidagi kayfiyatimizga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Insonlar harakatdan to'xtar ekan, uning fikrlash dunyosi ham sayozlashadi. Harakat natijasida biz bir qancha kasalliklarni bartaraf qila olamiz. Tonggi badantarbiya muskullarni chiniqtiradi va tetiklik baxsh etadi. Suv havzalarida suzish asablarni tinchlantiradi. Har kuni uzoq masofaga piyoda yurish qon aylanish sistemasini yaxshilaydi va umrni uzaytiradi.

Shaxsiy va jamoat gigiyenasiga rioya qilish - shaxsiy gigena - insonning hayoti va faoliyati sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash yo'lida asosiy zamin. Shaxsiy gigena tana terisi, og'iz bo'shlig'i parvarishi, ovqatlanish tartibi, mehnat hamda dam olishni to'g'ri rejalashtirish va sport mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi. Uyni ozoda saqlash va havosini tez-tez almashtirib turish kerak. Ichimlik suvi va oziq-ovqat manbalarini og'zi yopiq xolda saqlang. Jamoat joyida turganingizda axlatni maxsus idishlarga tashlang.

To'g'ri va ratsional ovqatlanish - sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yishda ovqatlanishga alohida e'tibor qaratish lozim. Har bir inson to'g'ri ovqatlanishga odatlansa - bu uning yutug'i. Avvalo ovqatlanish vaqtini qat'iyon belgilab oling va har doim o'sha vaqtda

ovqatlanishga odatlaning. Nonushtaga yengil va to'yimliroq, tushlikka esa og'ir va kechki ovqatga tez xazm bo'ladigan yengil ovqatlar tanovul qiling. Albatta, ovqatlanishdan oldin qo'llaringizni yuvishni unutmang, aks xolda turli zararli mikroblarni ovqat orqali oshqozonga kirishiga imkon yaratasiz va oshqozon yarasi, gastirit kabi kasalliklarga sabab bo'lasiz.

Ruhiy osoyishtalik va muomala madaniyati - insonlarni sog'lom turmush kechirishida ruhiy osoyishtalik juda muhim. Har kuni uyquga ketishdan oldin o'zingizga o'n daqiqa vaqt ajrating, hayotda sizga muhim bo'lgan narsalar haqida va hayotingizdagi eng baxtli daqiqalarni o'ylang, bu asablariningizni tinchlanishida juda katta yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, insonlar o'rtasidagi xushmuomalalik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning uzoq va sog'lom umr ko'rishdagi o'rni xuddi jismoniy mashqlar va parhezga amal qilish foydasi bilan teng ekan.

Atrof-muhitni muhofaza qilish - sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi asosiy omillardan biri - bu atrof-muhitni muhofazasi. O'zimiz nafas olib turgan muhitni asrashimiz bu bizning vazifamiz. Atrofga, ariqlarga, kanallarga chiqindilarni to'kmaslik orqali biz o'z muhitimizni asray olamiz va turmush tarzimizni yaxshilaymiz.

Zararli odatlar deganda biz odatda, faqat, alkogolli ichimliklarni me'yoridan oshirib, muttasil iste'mol qilish, tamaki va nosvoy chekish, giyoxvandlik kabilarni tushunishga o'rganib qolganmiz. Aslida zararli odatlar tushunchasi birmuncha keng bo'lib, o'z doirasiga ovqatlanish tartibiga rioya qilmaslik, organizm extiyojiga qaraganda ko'proq ovqat eyishga o'rganib qolish, dangasalik va ishyokmaslik, badjallik, axloksizlik, ust-bosh, hovli va uy xonalari iflosligi bilan ko'nikib yashash, o'z hayotini jamiyatda qabul qilingan me'yor va o'lchamlar asosida tashkil qila bilmasdan, pala-partish o'tkazish va hech bir maqsadsiz yashash, madaniyatsizligi va johilligi tufayli vegetativ turmush tarzida yashash bilan chegaralanib qolish kabi odatlarni ham oladi.

Tamaki chekish va uning zarari haqida. Chekuvchilik chekuvchi uchun ham, atrofdagi chekmovchilar uchun ham katta zarar keltiradi. Chekish bilan juda ko'p kasalliklar uzviy boglangan bo'lib, insonlarni barvaxt va tasodifan o'limga olib keladigan, ularning umrini o'rtacha 8-15 yilga qisqartirishga sababchi bo'ladigan omildir. O'pka raki kasalligi qariyb 90% qollarda chekish bilan boglangan.

O'zbekiston Respublikasi prezidentining «O'zbekiston bolalar sport jamg'armasini tuzish to'g'risida»gi farmoni (24 oktyabr 2002 y.) va shu asosda hukumat qarori sportni keng rivojlantirish hamda bu bilan yoshlarning jismoniy barkamolligini ta'minlash, yurtimizning sportdagi shuhratini jahonga keng yoyish kabi eng muhim tadbirlarni amalga oshirishga asos bo'la oladi.

Vazifa: Gazeta yoki jurnaldan ijtimoiy-siyosiy mavzudagi matnni o'qing, uning til va uslubiy xususiyatlarini izohlang.

OLMOSH

Ot, sifat, son va boshqa so'zlar o'rnida qo'llanib, ularga ishora qiluvchi so'zlar olmosh hisoblanadi.

Olmoshlar qaysi so'z o'rnida qo'llansa, o'sha so'zning so'rog'iga javob bo'ladi, Men, sen kishilik olmoshlariga qaratqich va tushum kelishigi qo'shimchalari hamda -niki qo'shimchasi qo'shilsa, bir n undoshi tushib qoladi: Men+ning-mening, sen+niki-seniki.

U, bu, shu, o'sha olmoshlariga jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalari hamda -ga, -dek, -day qo'shimchalari qo'shilsa, n undoshi orttiriladi: unga, shunda, bunda, shunday.

Boshqa so'zlar, shuningdek, so'z birikmasi va gap o'rnida almashinib qo'llaniluvchi, ularga ishora qiluvchi yoki so'roq bildiruvchi so'zlar olmosh hisoblanadi. Masalan, Kitobni ko'p o'qisangiz, undan ko'p hikmat topasiz. Istagim shuki, doimo tinchlik bo'lsin.

Birinchi gapda undan olmoshi kitob so'zi (ot) o'rnida, ikkinchi gapda shuki olmoshi doimo tinchlik bo'lsin gapi o'rnida qo'llanilgan.

Olmoshlarning aniq atash ma'nosi bo'lmaydi. lining qaysi ma'noda kelayotganligi matnda qaysi so'z yoki gap o'rnida almashinib kelishiga qarab belgilanadi.

Men, sen, u, biz, siz, ular, bu, shu, o'sha, hamma, o'z, kim?, nima?, qachon?, qanday?, qancha?, qayer? kabi so'zlar olmoshlar bo'lib, ularning aniq lug'aviy ma'nosi yo'q. Olmoshlar matndan anglashilib turgan so'zlarga, so'z birikmalariga yoki fikrlarga, shuningdek, so'zlovchi yoki tinglovchiga ishora qiladi, ularni almashtiradi. Olmoshning ma'nosi faqat matndagina oydinlashadi. Shunga ko'ra olmoshlar quyidagi turlarga bo'linadi: 1) kishilik olmoshlari; 2) o'zlik olmoshi; 3) ko'rsatish olmoshlari; 4) so'roq olmoshlari; 5) belgilash olmoshlari; 6) bo'lishsizlik olmoshlari; 7) gumon olmoshlari.

Olmoshlar nutqimizni o'rinsiz takrorlardan tozalashning, fikrni ixcham bayon qilishning muhim vositasidir.

1- mashq. *O'zbek tiliga tarjima qiling.*



1. Никто не может так красиво петь. 2. Нигде больше я не ел таких сладких лепешек. 3. Никогда еще мне не доводилось так приятно провести время. 4. Ничто его так не интересовало раньше.

2- mashq. *Gaplarni ko'chiring olmoshlarning turini aniqlab, qaysi so'z turkumi o'rnida ishlatilganini ayting.*

1. Hech qayerda hech qachon insonni inson urmasin (qo'shiqdan). 2. Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir (Bobur). 3. O'zbekiston o'zining tinchlikdan iborat yo'lini tanlab oldi. 4. Shu aziz vatan barchamizniki. (I. Karimov) 5. Shu-shu bo'ldi-yu, ular hech qachon uchrashmadilar.

3- mashq. *Ajratilgan so'zlar o'rniga olmoshlardan qo'llab gaplarni ko'chiring.*

1. Yurtimizda so'lim joylar ko'p. 2. Salim yangi ishga juda qiziqish bilan kirishdi. 3. Tog'larda hatto yozda ham yomg'ir yog'adi. 4. Dushanba kuni men o'qishdan erta qaytdim. 5. O'tirganlar unga hayron qarardi.

14-mavzu. INTERNET HAYOTIMIZDA.

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Mavzu bo'yicha bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq: Internet madaniyati haqida matn tuzish. Ta'lim jarayonida eng ko'p foydalaniladigan internet saytlari ro'yxatini tuzish va tavsiya qilish. Internetdan foydalanish to'g'risida polilog tuzish va uni insseniroyvka qilish.

Grammatika: So'zlashuv uslubi. Og'zaki va yozma uslub, ularning xususiyatlari.

Tayanch so'z va iboralar: *internet, internet saytlari, global muammo, onlayn hayot, nutq shakllari, og'zaki nutq, yozma nutq, adabiy til, oddiy so'zlashuv uslubi, o'timli fe'l, o'timsiz fe'l, mayl shakli.*

Internet bugun bizning hayotimizda keng o'rin egalladi. Hozir nafaqat ma'lum soha kishilari, balki yoshu-qari, o'quvchiyu uy bekasi, ziyoliyu ishchi – barcha o'ziga zarur bo'lgan ma'lumotlarni internet tarmoidan topishi oddiy hol bo'lib qoldi. Shuning uchun Internet barcha o'quv va ish jarayoniga bevosita kiritilgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu tarmoqning qulayligi shundaki, unda vaqt va mavzu chegeralanmagan – har bir kishi bilimi, sohasi va dunyoqarashidan kelib chiqib o'ziga tushunarli va zarur bo'lgan zamonaviy hamda qadimiy ma'lumotlarni topishi shubhasiz.

Internet hamlasi: xavf va himoya

Texnik taraqqiyotni to'xtatish mumkin emas: biz buni xohlaymizmi-yo'qmi, kompyuter texnologiyalari hayotimizda mustahkam o'ringa ega, kompyuter savodxonligi ko'rsatkichi esa ko'p hollarda insonning yuqori saviyasini belgilab beruvchi omilga aylanib bormoqda. Bugun kompyuterda ishlashni bilmaydigan xodimni yaxshi mutaxassis deyish qiyin. Agar o'tgan asrning 90-yillari o'rtalarida yoshlarning eng sevimli mashg'ulotlari musiqa tinglash va teleko'rsatuvlar ko'rish bo'lsa, ayni kunda esa kompyuter va internet avvalgi qiziqishlarni yosh avlod hayotidan siqib chiqardi.

Hozirgi zamon yoshlarining 70 foizi o'z qiziqish va sevimli mashg'ulotlari haqida so'z yuritganda sport, do'stlar bilan suhbatlashish, ma'naviy va madaniy hordiq chiqarish chiqarish bilan bir qatorda kompyuter texnologiyalari, internetga bo'lgan qiziqishini birinchi o'rinda tilga oladi.

Onlayn hayot vakillari

Nielsen/Net Ratings kompaniyasi o'tkazgan so'nggi ilmiy tekshiruvlar natijalariga ko'ra, butun dunyo tarmog'iga ulanayotgan yosh bolalarning soni kun emas, soat sayin oshmoqda. O'tgan yili dunyo tarmog'ida 10 million yoshlar "sayr qilgan" bo'lsa, hozirda ularning soni allaqachon 13 millionga yetdi. Mutaxassislarning fikricha, bu - tabiiy holat. Negaki, kundan-kunga internetdan foydalanayotgan oilalar, demak, undan foydalanayotgan farzandlar soni kupaymoqda. Bunday onlayn hayotda yashaydigan yoshlarning katta qismi - 4,5 millioni Buyuk Britaniyaga to'g'ri keladi. Ular har kuni elektron manzillarini tekshiradi, turli xil saytlardan ma'lumot izlaydi va chat (global tarmoqdagi suhbatxona)lar orqali muloqotda bo'lishadi. Germaniyada hozircha 3 va Fransiyada 1,5 million yoshlar vaqtini asosan onlayn tizimida o'tkazadi. Bir yildan so'ng esa bu ko'rsatkich ikki baravarga oshishi kutilmoqda.

Darhaqiqat, 21 asr zamonaviy yoshlar hayotiga sezilarli chizgilarni kiritdi. O'tgan asr bolalari maktab, turli to'garak va sport seksiyalariga chopgan bo'lsa, bugun ular o'zaro disklar, fleshkalar va axborotni saqlovchi shu kabi boshqa vositalardan imkon boricha tez foydalanishga shoshiladi. Yosh avlodning ota-onalariga nisbatan kompyuter savodxonligi baland, ko'pgina olti yashar bolalar blyutuz (bluetooth) va spam nimaligini kattalarga nisbatan yaxshi biladi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan biri Kanadada o'n yetti yoshgacha bo'lgan 6 ming bola o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, ular sodda ota-onalari o'ylaganidek, internetdan aksariyat, hollarda axborot olish maqsadida foydalanmas ekan. So'rovda ishtirok etganlarning 99 foizi internetdan foydalanishini, ularning har o'n nafaridan sakkiz nafari uyda ulanish imkoniyatiga ega ekanini bildirdi. Kanada yoshlarining yarmidan ko'pi internet va kompyuter texnologiyalarni ota-onalaridan yaxshiroq bilishini aytgan. Ularning 80 foizi mustaqil ravishda internetga ulanishini, ota-onalari kompyuterga himoya vositasi bo'lgan «filtrlash» dasturini o'rnatib qo'ymaganliklari va farzandlari qanday saytlarga kirishini nazorat qilmasligini tan olishdi. Umuman olganda, ota-onalarning aksariyat qismi, aniqrog'i, 65 foizi farzandlari internetdan faqat uy vazifasini tayyorlash uchun foydalanadi, degan fikrda, yoshlar esa ilm olishni eng oxirgi o'ringa qo'yadilar. Ular asosan internet orqali musiqa tinglaydi, elektron manzilni tekshiradi, xullas, vaqtini chog' o'tkazadi. Yoshlarning uchdan ikki qismi internetga yangi do'stlar orttirish va kim bilandir suhbatlashish maqsadida ulanadi, ularning 15 foizi keyinchalik bu munosabatlarni real hayotda davom ettirar ekan.

Muloqotning bu kabi shakllari yaxshi, albatta. Biroq masalaning ikkinchi tomoni ham borki, unga chuqurroq nazar tashlash lozim. Alohida e'tibor talab etadigan jihat esa internet orqali ta'qib deb nomlanadi.

Virtual ta'qib ommalashmoqda.

Tadqiqotlar natijalaridan ma'lum bo'ldiki, hozirda maktab yoshidagi bolalar internetdan tobora erta foydalana boshlamoqdalar. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilari bemalol maktab yon atrofidagi kafe yoki klubga kirib, internetdan foydalanishi mumkin. Shu bois ular uyda ham internetga ulanish imkoni bo'lishini xohlashi tabiiy. Lekin, mutaxassislarning fikricha, yoshi o'nga yetmagan bola odatda mustaqil ravishda internetdan foydalanish uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash va shu asnoda ma'lumotlarni farqlash, ularni ajrata bilish, boshqacha qilib aytganda, «filtrlay» olish qobiliyatiga ega emas. Shu sabab, internetdan yolg'iz qolganda ham foydalanish ehtimoli bo'lgan bolani qattiq nazorat ostiga olish kerak, unga o'zi haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni internet orqali tanishgan odamlarga aytmalikni o'rgatish zarur.

Biroq dunyo tarmog'idagi qanday axborot maktab yoshidagi bolalar uchun foydali bo'lishi mumkin? Kuniga bir necha soatlab kiber makonda «sayohat qiladigan» o'smirlar aslida nima bilan shug'ullanadi va bu holat ularning dunyoqarashi, xarakterida qanday aks etadi? Zarur hollarda o'smirlarning axborot xavfsizligini qay usulda ta'minlash mumkin? Mazkur savollar ko'pchilik ota-onalar hamda yoshlar muammolari bilan shug'ullanuvchi tashkilot xodimlarini tobora ko'proq tashvishga solayapti va o'ylantirmoqda. Bunga jiddiy asos ham bor.

So'nggi paytlarda internet orqali ta'qib etish yoki ilmiy tilda aytadigan bo'lsak, grifing holatlari ko'p kuzatilmoqda. Bu kabi tarmoq bezoriligining eng birinchi qurbonlari aynan yoshlar qatlami, xususan, o'smirlar hisoblanadi. Sababi, shu yoshda bolalar tabiatan ochiq bo'ladi hamda dunyoga faqat ijobiy nuqtai nazar bilan qaraydi. Ular o'zlari erishgan yutuqlari bilan o'rtoqlashishni, o'z fikrlarini birovlariga bayon etishni, g'oyalari bilan bo'lishishni xohlaydilar. O'smirlar o'ta ishonuvchan, kompyuter o'yinlariga qobiliyatli, buyruqlarni osonlikcha bajaradigan bo'ladilar. Atrofdagilar bilan ko'proq muloqotda bo'lib, yangidan-yangi fikr-g'oyalarni o'rtaga tashlaydilar, ularni amalda qo'llashga intiladilar, biroq bu borada ularga hayotiy tajriba yetishmaydi. Shuning uchun ham ular saytlarda qidiruvni amalga oshirayotganda, axborotni qabul qilishda yoki elektron pochta manzildan foydalanayotganda kattalar yordamiga muhtoj. Chunki bir qarashda beozor tuyulgan chat xonalar yoki maxsus muloqot dasturlari orqali kechadigan suhbatlar tafakkuri endi shakllanayotgan bolalarni oxir-oqibat jinoyatgacha yetaklab borayotgani hayotiy haqiqat. Grifing bilan shug'ullanuvchilar yoki grifyorlar zamonaviy yoshlarning qiziqishlaridan juda yaxshi xabardor bo'lib, onlayn konferentsiya, forum xonalarida istalgan mavzuda suhbat yuritishi, o'zlarini ularning muammolarini tushunadigan odamlar sifatida ko'rsatishi mumkin, buning ustiga veb tarmoqda anonimlikni saqlash xususiyati qisqa fursat ichida ishonchga kirib olishga imkon yaratadi.

Qarshi kurash choralari kelsak...

Grifing bilan kurashishning eng oddiy usuli - kompyuterga maxsus taqiqlov dasturlari (eng mashhurlari Kiberpatrul yoki Kidskontrol)ni o'rnatish. Shunda o'sha foydalanuvchidan keladigan barcha xabarlar avtomatik tarzda filtrlanadi yoki dasturga ota-onalar tomonidan kiritilgan cheklov tufayli bolaning o'zi qiziqib nojo'ya axborotni olmoqchi bo'lganda avtomatik taqiq ishga tushadi. Ayni paytda mazkur dasturlar ham to'liq xavfsizlikni kafolatlay olmaydi, chunki ba'zida ular foydali axborotni cheklab qo'yishi yoki keraksizini o'tkazib yuborishi mumkin.

Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlarda internetdan foydalanish darslari fakultativ sifatida maktab dasturiga kiritila boshlandi. Buni ham grifingga qarshi kurashishning o'ziga xos usuli sifatida ko'rsatish mumkin. Negaki, fakultativ darslar orqali bolalar internetdan olinadigan ma'lumotlarning haqqoniy va to'g'riligini tekshirishga o'rgatiladi. Bunday darslar ayniqsa, o'smirlar uchun zarur.


Internetda grifingdan tashqari aynan o‘smir yoshdagilar uchun yana bir qancha xavflar ham bor. Vaqt o‘tgani sayin bolalar va internet muammosi tobora chuqurlashib borayotgan bir paytda, global tarmoqning yashirin xavflariga faqatgina ta’sir tushib qolishni emas, balki ekstremistik xarakterdagi, sekta va turli xil uyushmalar saytlarining foydalanishga ochiqqligini, virtual firibgarlikka keng yo‘l qo‘yilganlikni ham ko‘rsatish mumkin. Bolalarning qiziquvchan tabiati ularni yuqorida tilga olingan turdagi saytlarga yetaklashi, bu veb sahifalarda ularning ruhiy yoki jismoniy sog‘lig‘iga xavf soluvchi ma’lumotlarni ko‘rishiga olib kelishi tabiiy. Elektron pochta manzillari orqali olingan xabarlar kuchli ruhiy ta’sir o‘tkazib, bolalarni internet doirasida va undan tashqarida ham jinoyatga undashi hech gap emas. Bank yoki kredit kartochkasidagi hisob raqamlarni bilgan bolakaylar onlayn savdolarda qatnashish imkoni bilan birga kichik o‘yinchoqdan tortib to eng so‘nggi rusumdagi mashina sotib olish huquqiga ega degani. Bu narsa ularni virtual firibgarlarning nishoniga aylantiradi.

Ko‘plab jamoat tashkilotlari, nodavlat tashkilotlar va xususiy kompaniyalar o‘z faoliyatini internetning bolalarga ta’siri va bundan bo‘ladigan zararning oldini olish usullarini o‘rganishga qaratgan. Jumladan, internet mazmunini baholash assotsiatsiyasi (ICRA) mustaqil xalqaro tashkilot bo‘lib, asosiy vazifasi ota-onalarni ularning farzandlarini tarmoqda kutayotgan ko‘ngilsizliklar va xavfli munosabatlar haqida ogohlantirish, kiber makonda bolalarni noto‘g‘ri axborotlardan himoyalash va so‘z erkinligini ta‘minlashdan iborat. Ota-onalarga ko‘rilayotgan muammolar yuzasidan maslahat, ko‘mak beruvchi Kiberfarishtalar (Cyberangels) - internetda bolalar huquqini himoya qilishga yo‘naltirilgan yevropadagi ilk tashkilotga 1995- yili asos solindi va ayni paytda AQSh, Kanada kabi davlatlar ham a‘zolar safidan o‘rin oldi.

Lug‘at

taraqqiyot - прогресс
kurashish - бороться
taqiqlov - запрет
o‘smir - подросток
haqqoniy - объективно
shov-shuv – шум, гам, шумиха
sur‘at - темп
yo‘naltirmoq - направлять
sahifa - страница

GRAMMATIKA: SO‘ZLASHUV USLUBI. OG‘ZAKI VA YOZMA USLUB, ULARNING XUSUSIYATLARI.



Ma‘lumki, **nutq og‘zaki va yozma shakllarga** ega. Og‘zaki nutq so‘zlovchi gapirib turgan vaqt biriligidagina mavjud bo‘lib, bu jarayon tugashi bilan nutq ham tugaydi. Ammo nutq ta’sirida uyg‘onadigan hayajon, berilgan axborot ma’lum vaqtgacha tinglovchi ongida saqlanishi, uning xulqiga ta’sir etishi mumkin.

Yozma nutq va uning o‘ziga xos xususiyatlari

Tildagi birliklar va hodisalarning reallashuvi, mustahkamlanuvi hamda me‘yorlashuvida **yozuvning** xizmati katta bo‘lib kelayotganligi, shubhasiz. Nafaqat tilning me‘yorlashuvi, balki dunyo xalqlari taraqqiyotida ham yozuvning o‘rmini chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Zero, har bir xalq, millat sivilizatsiyasi u yaratgan yoki foydalangan yozuvga ham bog‘liq.

O‘zbek davlatchiligining shakllanishi hamda xalqimizning dunyo fani va madaniyatida, binobarin, til va nutq madaniyatida tutgan o‘rni, egallagan mavqeyi haqida so‘z yuritganda bu

xalqning necha ming yillar davomida foydalanib kelgan oromiy, sug‘d, xorazm, pahlaviy, urxun (runik), uyg‘ur, arab, lotin, rus (kirillsa) yozuvlarini va yana lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosiga o‘tayotganligimizni eslash kifoya. Shunday ekan, o‘zbek adabiy tilining shakllanishi, shubhasiz, o‘zbek xalqi asrlar davomida foydalanib kelgan yozuv madaniyatining takomili hamdir.

Yozuv muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o‘rtasidagi muloqatga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimidir. Yozuv – kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining boshlanishi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiylaridan biri. Yozuv tildanancha keyim paydo bo‘lgan (tovush tili 400—500 ming yillar ilgari yuzaga kelgan, yozuvningpaydo bo‘lganiga esa 4-5 ming yillar bo‘lgan). Og‘zaki til (nutq)ning zamon (vaqt) va makon (masofa) nuqtai nazaridan cheklanganligi va uni bartaraf etish zaruriyati yozuvning paydo bo‘lishiga olib kelgan.

Yozuvniig paydo bo‘lishi va taraqqiyoti jamiyat rivoji, shuningdek, muayyan masofadagi kishilarning o‘zaro aloqa qilish ehtiyoji, siyosiy, huquqiy, diniy va estetik xarakterdagi axborotlarni qayd etish, saqlashtaruriyati bilann bevosita bog‘liq. Xalqlarning davlat sifatida birlashuvi nutqiy aloqa doirasini kengaytiradi va murakkablashtiradi; ishlab chiqarish va savdo kengayadi; boshqa xalqlar va davlatlar b-n harbiy, siyosiy va b. shartnomalar tuziladi; qonunlar paydo bo‘ladi va mustahkamlanadi; diniy qarashlar va mafkuraning boshqa turli ko‘rinshlarni shakllanadi; xalqlarning o‘z tarixini bilishga bo‘lgan zhtiyoj kuchayadi. Bularning barchasini faqat og‘zaki nutq vositasida amalga oshirish mumkin emas. Bu sharoitda **yozuv zaruriyatga aylanadi**.

Yozuv og‘zaki tilga nisbatan ikkilamchi, qo‘shimcha aloqa vositasi bo‘lsada, unga qaraganda ko‘p afzalliklarga ega. Xususan, tilning asosiy vazifasi – kishilar o‘rtasidagi aloqani ta‘minlashdir. Tilning kommunikativ vazifasi yozuvsiz amalga oshishi mumkin emas. Tilning estetik, gnoseologik (dunyoni bilish) kabi asosiy vazifalarini ham yozuvsiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, tilning insoniyat qo‘lga kiritgan tajriba, bilimlarni saqlash va avlodlarga yetkazishdan iborat vazifasi bevosita yozuv orqali bajariladi. Kishilik jamiyati yaratgan bilim va tajribalar, kashfiyotlar, so‘z san‘ati durdonalari va boshqa qimmatli axborotlarning barcha-barchasi avlodlardan avlodlarga **Yozuv orqali** yetib boradi.

Yozma nutqning asosiy xususiyati axborotni uzoq muddat davomida saqlash imkoniyatidir.

Yozma nutqning asosiy vazifasi – og‘zaki nutqni qayd qilish, uni zamon va makonda saqlashdan iborat. Kishilar o‘rtasida bevosita muloqot qilish imkoni bo‘lmaganda, odamlar zamon va makonda ajralib qolganda, yozma nutq insonlar o‘rtasida aloqa-aralashuv vositasini o‘taydi.

Muloqotning texnik vositasi – telefonning rivoj topishi xatning rolini pasaytirdi, Faksning paydo bo‘lishi va Internet tizimining tarqalishi makonni bosib o‘tishga yordam berdi va bugunda nutqning yozma shaklini dolzarb qilib qo‘ymoqda.

Yozma nutqning asosiy xususiyati axborotni uzoq muddat davomida saqlash imkoniyatidir.

Yozma nutqning og‘zaki nutqdan farqli tomonlari

Yozma nutq va og‘zaki nutq inson nutq faoliyatining ikki shakli. Har ikkisi ham kishilik jamiyatining muloqot vositasidir. Og‘zaki nutq birinchi shakllanadi, yozma nutq esa keyin shakllanadi. Yozma nutq og‘zaki nutqning tayyor mexanizmlaridan foydalangan holda uni takomillashtirib va ularni bir qadar murakkablashtirib boradi, tilning yangi ifoda shakllari uchun xos bo‘lgan yangi unsurlarni qo‘shadi.

Yozma nutq ta‘lim jarayonida maqsadli ravishda egallab boriladi. Og‘zaki nutq bolaning kattalar bilan amaliy muloqoti jarayonida ularga taqlid qilish asosida shakllanadi. Yozma nutqda so‘z tanlashga, jumla tuzishga ancha yuqori talab qo‘yiladi.

Yozma nutq tashqi tomondan (aytaylik, suhbatdosh tarafidan) tuzatishsiz kechadi. Yozma nutq muloqotning jonli vositalaridan xoli, ya'ni mimika, jestlar ishtirok etmaydi.

Demak, yozma nutq til mavjudligining bir shakli. Yozma nutq qat'iy me'yorga va tartibga solingan **adabiy tildan** foydalanadi. Adabiy so'zlashuv ulubida gaplarda so'zlarning tartibi qaror topgan, inversiya (so'z tartibining o'zgarishi) ham unga xos bo'lib so'zlovchining hissiyotini yorqin tasvirlashga xizmat qiladi. Adabiy so'zlashuv uslubi o'z leksikasi bilan og'zaki so'zlashuv uslubidan farq qiladi. Adabiy so'zlashuv uslubi leksikasiga oid so'zlar "Imlo lug'ati" dan joy olgan bo'lib umum uchun tushunarlidir.

Yozma nutq Yozma nutq og'zaki nutqdan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi: nutqni yozayotganda muallif vaqt jihatidan bemalol fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladi. U o'z nutqi qismlarini va butun nutqni qayta-qayta tahrir qilishi uchun eng mos imkoniyatlarni tanlashi, gap tuzilishini qulaylashtirishi mumkin. Shuning uchun ham yozma nutq og'zaki nutqdan ravondir.

Og'zaki nutq xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatsa bo'ladi:

1. Og'zaki nutq tezkorlik bilan (avtomatik tarzda) amalga oshadi. Tushunchalar bilan "uning libosi" bo'lgan so'z birgalikda "yashin tezligida" tilga kela boshlaydi. Ba'zan tushunchani ifodalovchi so'zni o'sha tezlikda so'zlovchi topa olmay qoladi. Unga yaqin yoki o'ylangan tushunchani ifodalay olmaydigan so'zlarni ishlatib yuboradi. Natijada, aytilgan nutq (gap, gaplar) ko'zlangan maqsadni (fikrni) to'liq ro'yobga chiqarmaydi. Bunda tinglovchi ham so'zlovchi ham zarar ko'radi.

2. Og'zaki nutqda so'z birikmalari va gaplarning modellari aytilmoqchi bo'lgan fikrga monand holda tezkorlik bilan tanlanadi. Gap qurilishini, modellarini aql nazorat qilib boradi. Fikrni aytilganlarni ushlab ko'rgan holda rivojlantirishga to'g'ri keladi. Agar xotira ozgina "dangasalik" qilsa, gap tuzilishi, so'z birikmalari o'zaro mantiqan va grammatik bog'lanmay qoladi. Chunki yangi qism avvalgi qism unutilgani uchun u bilan moslasha olmaydi. Masalan, "Ustoz, sizni... xalq oldida qilgan ulkan xizmatlaringizdan biz minnatdormiz!". Misolda so'zlovchi nutqning "Ustoz, sizni..." qismini aytgandan so'ng uni qanday rivojlantirish ustida qilgan mulohazasi jarayonida avvalgi qismini, avval o'ylangan modelni unutib qo'ygan. Shu sababli tushum kelishigida kelgan so'z keyingi qismlar bilan grammatik va mantiqan bog'lanmay qolgan.

3. Og'zaki nutq tahrir imkoniyatidan mahrum. U qanday shaklda borliqqa kelgan bo'lsa, shundayligicha tinglovchiga havola kilinadi.

4. Og'zaki nutqda, odatda muloqot uchun eng zarur narsalargina zuhur etiladi. Bu bir tomondan vaqt iqtisodi bilan, ikkinchidan nutqni kuchli tejash bilan bog'liq. Shunga ko'ra unga uzundan-uzoq kirish, keng izohlar kam uchraydi. Aksincha, hodisalarning, narsalarning o'zaro bog'liqlik darajalari, ularning tinglovchi va so'zlovchiga ravshanligi darajasi hisobga olinadi. Faqat zarurat his etilgandagina avvaldan ma'lum narsalarga izoh beriladi.

5. Og'zaki nutq so'z boyligi jihatidan yozma nutqqa nisbatan ancha kambag'al bo'ladi. Unda bir xil so'zlar bir xil shakllar bir qadar ko'proq takrorlanadi. Bu hol til vositalarini tanlash, qiyinchiliklar bilan bog'liqdir.

6. Og'zaki nutqda so'zlovchining faol nutqiy harakati to'xtam (pauza) ohang, urg'u, turli xil imo-ishoralalar fikrning tinglovchiga yetib borishida ahamiyat kasb etadi.

7. Og'zaki nutq tilning noverbal vositalari: turli mimika va jestlar yordamida ifodalanish imkoniga ega.

1-mashq. Gazeta yoki jurnaldan ijtimoiy mavzudagi maqola bilan unda bosilgan badiiy ijod namunasini solishtiring va uslubiy farqlarini tushuntiring.

2-mashq. Ko'chiring. Gaplarning qaysi uslubga xosligini ayting.

1.To'xtavoyim tuhmatga uchradi, o'rgilay.Bolaginamning xusumatga yo'liqqaniga qandoq chidayman. (O'.H). 2.Hiylagar oy, sehingar dilbar, Solib qo'yding yodimga kimni? (H.O). 3.Bu Farhod tog'idan cho'zilgan simdir, Har bitta tomirda o'n ming kilovatt.(G'.G').4. Ha, biz o'rta va keksa avlod farzandlarimizga yaxshi o'rnak ko'r-satishimiz, xalq an'alariga bo'lgan hurmatni mujassam etib ularga o'zimiz ham rioya qilishimiz darkor.(Gazetadan).

So'zlashuv uslubi va adabiy til uslubi farqlari

So'zlashuv uslubi –kishilarning kundalik rasmiy-norasmiy, erkin muomalalari doirasida til birliklarining o'ziga xos tarzda amal qilishidir. Uni ma'lum ma'noda tildagi boshqa uslublarga qarama-qarshi qo'yish mumkin.

Bu uslubning o'ziga xos xususiyati nutq jarayonida til va tildan tashqari omillarning uyg'un bo'lishida ko'rinadi. Ayni paytda bu holat so'zlashuv uslubidagi me'yoriy holatlarni belgilashni qiyinlashtiradi. Chunki tildan foydalanuvchining shaxsi, buning ustiga, nutqiy vaziyat yagona bir me'yorni tayin etishga imkon bermaydi.

Shunday bo'lsa-da, so'zlashuv uslubining o'ziga xos me'yorlari haqida mulohaza yuritish uchun ham tilimizda dalillar yetarli. Ammo nima bo'lganda ham bu me'yorlarni so'zlashuv uslubi uchun muhim bo'lgan til va tildan tashqari omillarning uyg'unligidan axtarish bizni asl maqsadga yaqinlashtiradi.

So'zlashuv uslubi qanday o'ziga xosliklarga ega? Birinchidan, nutq elliptik xarakterda bo'ladi. Lekin bunday holatda ham tinglovchiga fikr tushunarli bo'ladi. Chunki u oldin aytilgan fikrning mantiqiy davomi bo'ladi. Ikkinchidan, so'zlashuv nutqida til birliklari o'zining ekspressivlik imkoniyatlarini keng namoyish qiladi. Masalan, ulguramizmi? degan savolga yo'q, ulgurmaymiz deyishdan ko'ra vaziyatdan kelib chiqib, ulgurib bo'pmiz, ulgurish qayoqda, ulgurib ham bo'ldik singari javoblar birmuncha tabiiy va ekspressivroq bo'lib chiqadi.

Uchinchidan, bu uslubda ohang - intonasiyaning ahamiyati nihoyatda kattadir. So'zlashuv uslubi ham boshqa vazifaviy uslublar kabi fonetik, leksik, grammatik o'ziga xosliklarga ega.

So'zlashuv uslubida nutqiy vaziyatning ahamiyati juda katta. Salom, assalomu alaykum, vaalaykum assalom, xayr, ha, yo'q, albatta, aha, xo'p singari so'zlar nutqda ko'p ishlatiladi.

Rivojlangan har qanday til, shu jumladan hozirgi o'zbek tili ikki asosiy funksional turga: adabiy til va jonli so'zlashuv tiliga bo'linadi. Har bir muayyan tilning sohibi, tashuvchilari bo'lgan elat (xalq) yoki millatning vakillari tomonidan jonli so'zlashuv tili bolalikdan boshlab egallanadi. Adabiy til, uning me'yorlari va qonuniyatlari esa balog'atga yetgan, kamolatga erishgan shaxs tomonidan shakllanish jarayonida o'rganib, o'zlashtirib olinadi. Umumxalq tilining yuqori shakli hisoblangan adabiy til aniq va muayyan bir tizimda har bir davrning tiliga xos me'yor, tartib-qoidalarni ifodalaydi. Milliy adabiy tilning eng muhim va asosiy belgi uning muayyan bir me'yorga, , tartib-qoidalarga solinganligidir.

Adabiy til leksikada ham, fonetika va grammatik qurilish sohasida ham o'z me'yorlari, qoidalari bilan ajralib turadi. Bu me'yorlar grammatika darsliklari, qo'llanmalari va barcha xil lug'atlarda belgilab qo'yilgan. Bu me'yorlar shu tilda so'zlashuvchi barcha kishilar uchun umumiy va zaruriy hisoblanadi. Umumxalq- tilining qayta ishlanishi negizida shakllanib, mahalliy dialektlarning umumiy zaruriy xususiyatlarini o'ziga singdira borgan adabiy til ayni zamonda umumxalq tilining turli ko'rinishlaridan—jonli so'zlashuv nutqidan ham, mahalliy shevalardan ham, jargonlardan ham farq qiladi. Adabiy tilning muayyan me'yorga solinganligi shundan iboratki, uning lug'at tarkibi ma'lum tartibga keltirilgan bo'ladi, so'zlarning ma'nosi va ishlatilishi, talaffuzi va yozilishi hamda grammatik shakllar yasalishi yagona, mushtarak qoidaga bo'ysunadi. Adabiy me'yor tarixiy toifa (kategoriya)hisoblanadi.

Adabiy tilning ikki turi — og'zaki va yozma turi mavjud. Bu shakllar idrok etishning ikki turi, ya'ni ko'ruv va eshituv uchun mo'ljallanganligi sababli o'ziga xos bir qancha

xususiyatlarga egadir Til vositalarini morfologik belgilariga qarab ikki guruhga — og‘zaki va yozmaga ajratishda qat’iy chegara yo‘q. Shunga qaramay, bu shakllarning o‘ziga xos ayrim xususiyatlarini ko‘rsatish mumkin. Jumladan, adabiy tilning og‘zaki shaklida ot va sifat turkumlariga xos his-tuyg‘u, ta’sirchanlikni ifodalovchi shakllar (bolakay, qizgina, erkatoiy, kichkintoy, kichkina, kattakon); takror, davomiylilik, kuchaytirish ma’nolarini ifodalovchi fe’lning tahliliy shakllari (ataylab, oshirib yubormoq, kelib qolmoq, turtkilab qo‘ymoq, o‘qib chiqmoq) hamda yozma adabiy shaklga xos ot va sifat turkumlaridagi tahliliy shakllar (sezgirlik bilan, telefon orqali, tezkorlik asosida, nihoyatda ko‘rkam, g‘oyat baland); -lik, -chilik, -lashtirish kabi affikslar yordamida yasalgan so‘zlar (o‘qituvchilik, dehqonchilik, parrandachilik, radiolashtirish, avtomatlashtirish) va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

Adabiy tilda sintaqtik qurilish jihatidan ham ikki shaklga xos xususiyatlarni ko‘rish mumkin. Ko‘pincha sodda gaplarni, ayniqsa to‘liqsiz gaplarning qisman bog‘langan qo‘shma gaplarni ishlatish adabiy tilning og‘zaki shakli uchun xos bo‘ladi. Bu vaqtda ohang, to‘xtam, imo-ishora, nutq vaziyati kabi vositalar muhim rol o‘ynaydi. Yozma adabiy tilning sintaktik qurilishi esa o‘zining ancha murakkabligi bilan ajralib turadi. Unda ergash gapli qo‘shma gaplar, kirish so‘z va iboralar, murakkab qurilishli sodda gaplar, ajratilgan va uyushiq bo‘laklar, murakkab qo‘shma gaplar ancha keng ishlatiladi.

Adabiy tilning og‘zaki shakli ma’ruza va suhbatlarda, yozma shakli esa fan, texnika va adabiyot asarlarida, rasmiy ish hujjatlari, nashriyot va matbuot sohalarida ishlatiladi.

Topshiriq:

1. Sevimli asaringizdan so‘zlashuv uslubiga misol keltiring.

2. O‘z shevang izga xos so‘zlashuv uslubining belgilarini adabiy til me‘yorlari bilan qiyoslang va farqlarini tushuntiring.

Matnni belgilash tizimi

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) – yangi ma’lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o‘ylantirdi. Bu borada menga qo‘shimcha ma’lumot zarur.

Insert jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?
Uslub				
So‘zlashuv uslubi				
Diologik matn				
Ilmiy uslub				
Publitsistik uslub				
Rasmiy uslub				

15-mavzu. O‘ZBEKISTON VA JAHON.

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. Matnni qisqartirib so‘zlab berish.

Yozma nutq: O‘zbekiston a‘zolik qilayotgan xalqaro tashkilotlar haqida ma’lumot tayyorlash. Xalqaro tashkilotlardan birining faoliyati haqida taqdimot tayyorlash. Xalqaro tashkilotlarning qisqartma nomlari ro‘yxatini tuzish.

Grammatika: Rasmiy diplomatik uslub va uning xususiyatlari. Son –so‘z turkumi.

Tayanch so‘z va iboralar: *xalqaro tashkilot, xalqaro aloqa, rasmiy-diplomatik uslub, elchi, muxtor elchi, son, sanoq son, tartib son, dona son, miqdor son, jamlovchi son.*

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoev Belarus Respublikasi prezidenti Aleksandr Lukashenkoning taklifiga binoan 2019 yil 31 iyul – 1 avgust kunlari rasmiy tashrif bilan Belarus Respublikasida bo‘ldi. Prezidentlarning qo‘shma bayonoti matnini e‘lon qildi.



O‘zbekiston – Belarus hamkorligi keyingi yillarda ancha faollashdi. Davlatlararo munosabatlardagi yangi muhit xalqlarimiz hayotida aks etmoqda. Ikki mamlakat tarmoqlari, hududlari va bevosita ishbilarmonlari yaqin aloqalarni yo‘lga qo‘ydi. Bu ikki tomon ham o‘zaro manfaatli, do‘stona hamkorlik tarafdori ekanining yorqin ifodasi bo‘ldi. Muloqotda O‘zbekiston bilan Belarus o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlarning bugungi holati, rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi. Davlat rahbarlari uchinchi mamlakatlar bozorlarini o‘zlashtirish maqsadida kooperatsiyani kuchaytirish lozimligiga alohida e‘tibor qaratdilar. Shuningdek, belaruslik sheriklar tajribasini hisobga olgan holda, O‘zbekiston bilan yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi hamkorligi istiqbollari ko‘rib chiqildi. Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Muzokara rasmiy delegatsiyalar ishtirokida kengaytirilgan tarkibda davom ettirildi. Unda o‘zaro savdo ko‘lamini oshirish, mintaqalararo hamkorlik uchun yangi yo‘nalishlar ochish, ilm-fan, innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar, ta‘lim va turizm sohalaridagi aloqalarni mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi.


O‘zbekiston Belarusga to‘qimachilik, oziq-ovqat, kimyo sanoati mahsulotlari, rangli metall va undan tayyorlangan uskuna va buyumlar, transport vositalari, ehtiyot qismlar eksport qiladi. Belarus mamlakatimizga qishloq xo‘jaligi texnikasi, oziq-ovqat tovarlari, yog‘och, rezina va kauchuk, qora metall va boshqa mahsulotlar yetkazib beradi. Fan, innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar, ta‘lim sohaları o‘zaro munosabatlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki bularsiz hamkorlikning uzoq muddatli istiqbolini belgilab bo‘lmaydi.

Belarusning raqamli texnologiyalar, dasturlash va axborot kommunikatsiyalarini joriy etish borasidagi ilg‘or tajribasiga qiziqish kuchli. Muzokarada ta‘lim sohasiga tegishli dastur va loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, birgalikda tadqiqotlar olib borish, qo‘shma fakultet va laboratoriyalar ochish, ularga yoshlarni jalb etish masalalariga e‘tibor qaratildi.

Madaniy-gumanitar hamkorlik tobora faollashmoqda. O‘tgan yili Belarus Prezidentining tashrifi doirasida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

bazasida Belarus – O‘zbekiston ta’lim markazi ochildi. Bugungi kunda ikki mamlakatning 15 oliy ta’lim muassasasi o‘rtasida hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

«O‘zbekiston neft va gazi – OGU 2018»



“O‘zekspomarkaz” milliy ko‘rgazma majmuasida “O‘zbekiston neft va gazi – OGU 2018” 22- xalqaro ko‘rgazmasi ochildi. May 16, 2018

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi shafeligi hamda “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati va “Itca Exhibitions” xalqaro ko‘rgazma kompaniyasi hamkorligida tashkil etilayotgan ushbu xalqaro tadbir yurtimiz neft-gaz sanoati salohiyatini namoyish etish orqali soha ravnaqiga puxta zamin yaratadi. Shu bilan birga, ishtirokchilar neft va gaz qazib olish, uglevodorodlarni tashish, qayta ishlash borasida erishilgan muvaffaqiyatlar bilan yaqindan tanishishga muvaffaq bo‘ladi. Unda O‘zbekiston, Yaponiya, Xitoy, AQSh, Janubiy Koreya, Singapur, Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Avstriya, Shveysariya, Rossiya, Turkiya, Eron, Ozarbayjon, Armaniston, Qozog‘iston kabi davlatlar kompaniyalari o‘z mahsulotlari va xizmatlari bilan ishtirok etmoqda.

Ko‘rgazmaning ochilishida mamlakatimizda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini, jumladan, neft-gaz sohasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar yuksak samaralar berayotgani alohida ta’kidlandi. Neft-gaz sanoati mamlakatimiz iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridandir. O‘zbekiston dunyo mamlakatlari orasida tabiiy gaz qazib olish bo‘yicha yetakchi o‘rinlardan birida turadi. Mamlakatimiz tabiiy gaz kazib chikarish bo‘yicha MDH da uchinchi, dunyoda 8 o‘rinda turadi. O‘zbekistonning 5 ta neft va gazga boy mintaqalarida uglevodorod xomashyosining 250 ta koni ochildi.

Keyingi yigirma besh yilda O‘zbekiston neft va gaz sanoatida tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Mamlakatimiz gaz, polietilen va qayta ishlangan neft mahsulotlarining yirik eksportchisiga aylandi.

GRAMMATIKA: RASMIY DIPLOMATIK USLUB VA UNING XUSUSIYATLARI. SON –SO‘Z TURKUMI.



Rasmiy uslub hozirgi o‘zbek tilining davlat-ma’muriy, huquqiy muassasalarida, rasmiy diplomatik munosabatlarida namoyon bo‘ladigan ko‘rinishidir. Qonun matnlari, farmonlar, farmoyishlar, buyruqlar, xullas, barcha rasmiy ish qog‘ozlari ana shu uslubda shakllanadi. Bu uslubning og‘zaki va yozma ko‘rinishlari, binobarin, ushbu ko‘rinishlarning o‘z me‘yorlari mavjud.

Jumladan, **aniqlik**. Ushbu uslubda shakllangan matnda noaniqlikka, izohtalab o‘rinlarga yo‘l qo‘yilmasligi lozim. Fikr va mazmun sodda, aniq va tushunarli tilda bayon qilinishi kerak.

Ariza, qaror, bildirishnoma, ma‘lumotnoma, shartnoma, tabriknoma singari turli xarakterdagi rasmiy hujjatlarning har birining o‘ziga xos bayon etish qolipi bo‘ladi. Ayni paytda, ularning har birining alohida so‘z va turg‘un birikmalari ham mavjud bo‘ladi. Masalan, huquqiy hujjatlar matniga ko‘z yugurtirsak, ularda boshqa vazifaviy uslublarda deyarli uchramaydigan atamalarga duch kelamiz: *ma‘muriy javobgarlik, fuqarolik holati, fuqarolik javobgarligi, aybdor, gumondor, jabrlanuvchi, sudlanuvchi, guvoh, jamoat kafilligi, surishtiruv, jabrlanuvchi bilan yarashuv* va boshqalar.

Ish qog‘ozlari va hujjatlarning xilma-xilligiga qarab ularga oid atamalarining me‘yorlashuvi va chegaralanuvi ham kuzatiladi. Qiyos uchun diplomatik munosabatlar doirasidagi so‘z va iboralarga ko‘z yugurtiraylik : *ahdlashuvchi oliy tomonlar, elchi, elchixonona, muxtor elchi, muxtor vakil, ishonchli vakil, nota, ratifikasiya, shartnoma, bayonot, qo‘shma bayonot, deklarasiya, tashrif, qarorgoh* kabilar.

Ushbu uslub uchun jargonlar, oddiy so‘zlashuvga xos so‘zlar, emosional-yekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lgan so‘zlarning ishlatilishi me‘yor sanalmaydi va shu jihati bilan boshqa uslublardan keskin farq qiladi.

Rasmiy uslubning grammatik me‘yori ham alohida xususiyatlarga ega. Masalan, ot so‘z turkumiga oid so‘zlar ko‘p ishlatiladi. Noaniqliklarga yo‘l qo‘yilmaslik maqsadida ular olmoshlar bilan almashtirilmaydi: O‘zbekiston Respublikasi o‘z taraqqiyot yo‘lini, o‘z nomini aniqlaydi, o‘z davlat ramzlarini: gerbi, bayrog‘i, madhiyasini ta‘sis etadi, o‘z davlat tilini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining ramzlari muqaddasdir (1991 yil 31 avgustda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida» gi Qonunning 16 - moddasidan).

Bu uslubda fe‘lning harakat nomi shakli faol qo‘llaniladi, gapning kesimi ko‘pincha hozirgi zamonning majhul nisbatida ifodalanadi, hujjatning xarakteriga qarab shart mayli shakliga tez-tez murojaat etiladi.

Masalan, «O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining mutlaq vakolatlari» haqidagi 78 – moddasida *o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, qabul qilish, belgilash, tasdiqlash, tartibga solish, o‘zgartirish, joriy qilish, komissiyasini tuzish, saylov kunini tayinlash, saylash, ozod etish, ratifikasiya qilish, ta‘sis etish, amalga oshirish* singari fe‘lli birikmalar ishlatilgan. Ushbu hujjatda *amalga oshiriladi, asos bo‘ladi, tashkil etadi, belgilanadi, asoslanadi, hisoblanadi, himoya qilinadi, amalga oshiradi, tan olinadi, ish ko‘radi, ado etadi, kafolatlanadi, taqiqlanadi, tavsiya etiladi* singari fe‘llarning faol ishlatilishi ham yuqoridagi fikrning tasdig‘idir.

Yana: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning ma‘ruzasidagi konseptual qoidalar va xulosalar ma‘qullansin hamda ular Oliy Majlisning kelgusi faoliyatida inobatga olinsin. Ma‘ruzaning ... dasturiy xulosalari prokuratura, boshqa huquqni muhofaza qilish organlari, sudlar faoliyati uchun asos qilib olinsin. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga ... mustaqillik va demokratiya qo‘lga kiritgan yutuqlarni himoya qilish, ijtimoiy adolat, fuqarolar tinchligi hamda totuvligini ta‘minlash ishlarini kuchaytirish tavsiya etilsin. (O‘zR Prezidenti I. A. Karimovning ikkinchi chaqiriq Oliy majlisining oltinchi sessiyasidagi ma‘ruzasi yuzasidan O‘zR Oliy majlisining 2001 yil 29 avgust qaroridan).

Shu o‘rinda rasmiy uslubda yozilgan matnlar uchun barcha morfologik vositalar va kategoriyalarning qo‘llanilishi bir xil darajada emasligini ta‘kidlash ham maqsadga muvofiq. Masalan, sonlar va olmoshlar bu uslubda boshqa so‘z turkumlariga qaraganda ikkinchi darajali omil hisoblanadi.

Rasmiy uslubning sintaktik alomatlari ham matnda darhol ko‘zga tashlanadi. Unda darak gaplar, uning ayniqsa qo‘shma gap shakli ko‘p ishlatiladi. Yoyiq va murakkab so‘z birikmalari mahsuldor hisoblanadi, murakkab tipdagi nomlar keng qo‘llaniladi. Gap

tuzilishida o‘zbek tilidagi odatdagi me‘yorga amal qilinadi va yuqorida sanalgan jihatlari bilan ilmiy uslubga o‘xshab ketadi.

Muammoli savollar (amaliy misollar bilan yoritng).

1. Uslublarning o‘rtasidagi farqni korsating?
2. Har bir uslubning o‘ziga xos tomonlarini ko‘rsating.

Topshiriq. Berilgan matnni o‘qing va mazmunini sharhlang.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2018- yil 20- noyabr kuni neft-gaz sanoatidagi ishlar holatini muhokama qilish va sohani yanada rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazdi.



Neft-gaz sanoati mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu soha nafaqat energiya ishlab chiqaradi, balki ko‘plab tarmoqlar uchun zarur bo‘lgan polimerlar, organik kimyoviy moddalar hamda azotli mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarishda asosiy xomashyo bazasi hisoblanadi. Keyingi ikki yilda sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida gaz qazib chiqarish hajmi 10 foizga ortdi, aholiga tabiiy gaz 15 foiz va suyultirilgan gaz 1,6 barobar ko‘p yetkazib berildi. Shu

davrda neftni qayta ishlash zavodlarida qo‘shimcha 204 ming tonna neft mahsulotlari ishlab chiqarilib, ichki bozorda benzin, dizel yoqilg‘isiga bo‘lgan talab qondirib kelinmoqda. Sho‘rtan va Ustyurt gaz-kimyoo majmualarida joriy yilning o‘zida gazga nisbatan qo‘shilgan qiymati 4 barobar ko‘p bo‘lgan qariyb 700 million dollarlik polietilen va polipropilen ishlab chiqariladi. Neft-gaz sohasini yanada rivojlantirish maqsadida 2030 yilgacha geologiya-qidiruv ishlari olib borish, uglevodorodlarni qazib chiqarish va chuqur qayta ishlash bo‘yicha umumiy qiymati 36,5 milliard dollarlik 30 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish belgilangan.

Bugungi kunda tabiiy gazning atigi 2 foizi chuqur qayta ishlanib, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar olinayotgan bo‘lsa, kelgusi 10 yilda bu ko‘rsatkichni 7 barobar oshirish imkoniyati bor. Shuning uchun “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati neft va gaz kimyosi yo‘nalishiga ustuvor ahamiyat qaratishi zarurligi ta’kidlandi. Jumladan, aromatik uglevodorodlar (benzol, toluol, ksilol), metanoldan olefin olish texnologiyasi asosida yangi mahsulotlar – polistirol, polietilentereftalat va sintetik kauchuklar ishlab chiqarish, polietilen va polipropilen ishlab chiqarishni ko‘paytirish imkoniyati mavjud. Ushbu loyihalarni amalga oshirishga 9 milliard dollar atrofida mablag‘ jalb qilinishi lozim. Shuning uchun yevropa mamlakatlari, Yaponiya, AQSh, Birlashgan Arab Amirliklaridagi yirik kompaniyalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarini jalb etish va loyihalarni amalga oshirish strategiyasi ishlab chiqiladi.

SON

Bir xildagi predmetlarning son-sanog'ini, tartibini bildirib, necha? nechanchi? qancha? Kabi so'roqlardan biriga javob bo'ladigan mustaqil so'zlar son deyiladi. Masalan: o'nta kitob, besh baho, birinchi kurs kabi.

Sonlarning sanoq va tartib son kabi turlarga bo'linishi uni boshqa so'z turkumlaridan ajratib turuvchi morfologik belgisidir.

Son harf bilan (bir, o'n, yuz, kabi) ham raqam bilan (1,10,100 kabi) ham raqam – arab (5, 30, 47, 90 kabi) va rim raqamlari (V, X, XI, XII, XX) bilan ham ishlatiladi.

Son 2 guruhga bo'linadi: 1) miqdor son (количественные числительные) 2) tartib son (порядковые числительные).

Miqdor sonlar 5 turli bo'ladi:

- 1) dona sonlar– штучные числительные: beshsta– пять штук, o'nta–десять штук.
- 2) chama sonlar – приблизительные числительные: o'ntacha–примерно десять, yuzlab–сотни,
- 3) jamlovchi sonlar – собирательные числительные: uchov–трое, ikkala–двое, вдвоем, o'nlab–десятки.
- 4) Kasr sonlar – дробные числительные: $3/5$ –beshdan uch (букв из пяти три), $5/6$ – oltidan besh (букв из шести пять), $2\frac{2}{3}$ –ikki butun uchdan ikki, yarim–половина ($1/2$), chorak– одна четвертая ($1/4$), nimchorak – одна восьмая ($1/8$).
- 5) Taqsim sonlar – разделительные числительные: beshtadan– пяти, o'ntadan– подесяти.

Tartib son bir xil predmetlarning, narsa – hodisalarning tartibini bildiradi va –nchi (-inchi) qo'shimchasi orqali yasaladi. Masalan: ikkinchi –второй, o'ninchi– десятый.

Son gapda asosan aniqlovchi vazifasida keladi. Masalan: Institutimizga ikki yangi yotoqxona berildi – Нашему институту выделили два новых общежитие.

Vaqt hisobi

Vaqtini ko'rsatish uchun soat so'zi sanoq sonlar bilan birga ishlatiladi. Masalan: Biz olti soat ishladik. – Мы работали шесть часов.

Agar soat so'zi sanoq sonidan oldin kelsa, u sutkaning vaqtini bildiradi va «soat necha?» –«который час?» или – сколько времени? Сейчас семь часов. Soat necha? So'rog'iga javob beradi. Masalan: Hozir soat etti –ikkida dars tamom bo'ladi. – В два часа (дня) занятие кончаются.

- 1) Vaqt hisobi soat va minutlarda quyidagicha ifodalanadi:
- 2) Hozir soat beshdan o'n minut o'tdi. –Сейчас десять минут шестого.
- 3) Hozir soat yigirma minut kam (yoki yigirmata kam) to'rt – Сейчас без двадцати четыре.



1-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli qo'shimchalarni qo'yib gaplarni o'qing.

1. (Besh)... kitob oldim. 2. U ayolning (sakkiz)... bolasi bor. 3. Shahar (o'n)... tumanga bo'linadi. 4. Otamlar har birimizga (uch)... olma berdilar. 5. (Oltov)... ola bo'lsa, og'zidagini oldirar. (Maqol) 6. Auditoriyada (o'ttiz)... talaba bor.

2-mashq. Sonning barcha turlariga ikkitadan misol toping va daftaringizga yozing.

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Turli sohalarga oid innovatsiyalar haqida gapirib berish.

Yozma nutq: "Zamondoshlarimizning kashfiyotlari" mavzusida taqdimot tayyorlash. Kasb sohasidagi innovatsiyalar haqida ma'lumot tayyorlash. Sohada qo'llanadigan baynalmilal so'zlar lug'atini tuzish.

Grammatika: Ilmiy uslub va uning xususiyatlari. Ravish – so'z turkumi.

Tayanch so'z va iboralar: *innovatsiya, kashfiyot, ilmiy uslub, ravish.*

Иновации для поколения XXI века

Мы живем во время технологической революции и становления VI-го технологического уклада. То, что вчера еще казалось фантастикой, сегодня становится обычным и общедоступным. Нам

открываются поразительные возможности мира нанотехнологий, удивительные возможности генной и био- инженерии, информационных технологий. Все это становится на службу человечества. Мы даже не заметили, как квантовая механика оказалась в наших карманах вместе с сотовыми телефонами, смартфонами, зашла в каждый дом вместе с современными телевизорами с огромными плоскими экранами, компьютерами, ноутбуками, планшетами, «умными» пылесосами, домашними роботами. Связь переместилась в космос и для общения людей придумали массу облачных технологий.

Нашим детям, которые только перешагнули порог детского сада, школы, предстоит жить в еще более удивительную эпоху наноуглеродных систем, спиновой электроники, квантовых компьютеров, генно-инженерной медицины.

А значит, сверхзадача современного образования - заложить в этих детях основы миропознания и миропонимания, с которым через 15-20 лет они легко вступят в активную, деятельностную фазу своей жизни.

Сегодня, когда «историческая эпоха», по мнению Сергея Петровича Капицы, сжалась до одного поколения и «десять миллиардов людей проходят по земле всего за полстолетия», изменились многие ценностные ориентиры. Не замечать этого уже невозможно. Сегодняшние подростки не понимают, зачем нам нужно было стоять в очереди у телефонного автомата? Для них печатная машинка – забавный артефакт.

По версии ученых главные отличия поколения XXI века таковы.

Историки считают, что мир современных детей – это мир без прошлого. Дети, появившиеся на свет в XXI веке, не знают примеров из прошлого. Для них современный мир, время, в котором они живут, — единственно возможный. Поэтому с раннего возраста современные дети готовы к конкуренции, к борьбе за выживание. Вторая перемена, повлиявшая на изменение ребенка, менее глобальна, но не менее важна. Из жизни современных детей исчез двор как один из важнейших социальных институтов советской эпохи. Если раньше ребенок приходил из школы и бежал на улицу, где общался со сверстниками, учась таким образом взаимодействовать с социумом, то для современных детей этот опыт оказывается менее важен. Теперь, сидя за компьютером, ребенок сам решает, с кем ему общаться, а с кем нет. С одной стороны, это неплохо. Но с другой стороны, этот ребенок, зачастую попадая в реальный, а не виртуальный мир, оказывается беспомощным и неспособным нормально взаимодействовать с другими людьми. Психиатры отмечают, что отличительная особенность современных детей - погоня за успехом. С первого класса, а иногда и с дошкольного возраста ребенок заиклен на достижении результатов.

Под влиянием социума родители давят на детей, требуют от них высоких результатов, забывая о других ценностях — уважении к самому себе и другим людям,

свободном времени, семейном досуге. Поэтому среди современных подростков участились случаи нервных срывов, внутриличностных конфликтов, дидактических и социальных неврозов.

Социологи подчеркивают стремление к личной свободе Современный ребенок рассчитывает только на себя. Поэтому и пути адаптации в обществе дети вынуждены искать самостоятельно. В Интернете современные дети могут анонимно или открыто общаться с такими же детьми, решая схожие проблемы на подростковых форумах, где дети делятся своими переживаниями, дают советы друг другу, кстати, часто вполне адекватные.

Современный ребенок стремится к независимости уже в раннем возрасте, он и взрослеет сегодня на порядок раньше, чем 10–20 лет назад. Врачи констатируют слабое здоровье современных детей. В последние 30–40 лет в рационе россиян появились продукты, о существовании которых раньше и не знали. Например, большую популярность приобрел фастфуд. Конечно, уход от натуральных продуктов сказывается на здоровье ребенка. Другой негативный фактор — отсутствие достаточных физических нагрузок. Даже оставляя компьютеры и выходя на улицу, дети редко играют в энергозатратные игры, а в большинстве случаев увлечены теми же телефонами или планшетами. Отсюда рост количества детей с плохим зрением и проблемами позвоночника. Ребенок XXI века слабо развит физически и подвержен большому количеству заболеваний, по статистике военкоматов среди призывников практически нет здоровых молодых людей.

Педагоги отмечают, что ведущая черта современного ребенка - взгляд в себя, то, что взрослые зачастую принимают за эгоизм, эгоцентризм. На самом же деле ребенок XXI века просто устремил взгляд внутрь себя, чтобы там найти ответ на вопрос самоидентификации в нынешнем мире. Ответ этот дети ищут и, что самое интересное, зачастую находят, но самостоятельно и не всегда правильный. Наверное, к современному ребенку надо идти не с готовыми ответами, а с вопросами, идти не за тем, чтобы нести некое знание, которое он может свободно почерпнуть из современных источников, используя IT-технологии, а для того, чтобы организовать процесс познания. Поколение 21 века не заставит принимать наше понимание мира, они хотят, чтобы мы понимали мир так же, как понимают его они. Поэтому мы говорим, что сегодня системе образования нужны инновационные формы, способы, технологии как организации и управления образованием, так и средства образовательной коммуникации, потому, что дети XXI века - другие. А наш профессиональный опыт сегодня зачастую не срабатывает, так как мир стремительно меняется и надо признать, что дети быстрее нас успевают за этими изменениями.

Bola bilan birga o‘sadigan kiyim yaratildi

Britaniyalik muhandis Rayan Yasin kichik bolalar uchun kiyim ixtiro qildi, u bola bilan birga o‘sadi. U shu tariqa bolalar kiyimiga doimiy ravishda pul sarflash muammosini hal qilmoqchi. Muhandis o‘z ixtirosi haqida loyiha saytida aytib o‘tdi.

Olim eniga va bo‘yiga cho‘ziluvchi material yaratdi, shu bilan birga, u xuddi rezina kabi ingichkalashmaydi. Bunday effekt plissirovka sabab yuzaga keldi. Yangi materialdan tayyorlangan kiyim namga chidamli bo‘ladi. Modelni ikki yosh toifasidagi bolalar uchun

chiqarish rejalashtirilmoqda – 6 oydan 36 oygacha va ikki-besh yosh oralig‘ida.

«O‘sovchi» kiyim nafaqat ota-onalar pulini tejab qoladi, balki atrof-muhitni kamroq ifloslantirishga ham yordam beradi. Faqatgina 2016 yil davomida chiqindixonalarda 30 ming



tonna kiyim-kechak aniqlangan. Yosh bolalarning kiyimini bir necha oyda almashtirishga ehtiyoj qolmasligi esa bu raqamni kamaytirish imkonini beradi. Bundan tashqari, ixtirochining soʻzlariga koʻra, yangi material qayta ishlanishi ham mumkin.

Yasin materialni yaratgani uchun James Dyson Award sanoat dizayni sohasida mukofotni qoʻlga kiritdi. Kiyim mukofot egasiga toʻlangan pullar hisobidan ishlab chiqariladi.

3D-bosmadan chiqarilgan ilik suyagi bemorning oyogʻini saqlab qoldi



Tajriba operatsiyasi 27 yoshli avstraliyalikning oyogʻini saqlab qolishga yordam berdi. Royben Lixter osteomielitning jiddiy shaklidan aziyat chekayotgandi, unga oyoq amputatsiyasi tahdid solayotgan edi, ammo shifokorlar unga bundan avval jonivorlarda sinab koʻrilgan yangi usulni qoʻllab koʻrishni taklif qilishdi. Natijada jarrohlar uning

oyogʻiga 3D-bosmadan chiqqan ilik suyagi karkasini implantatsiya qilishdi. Hi-News shu haqida maʼlum qildi.

Dastlab bemorning katta ilik suyagining uch karra oʻlchamli modeli yaratilib, uni Singapurga yoʻllandi va u yerda biomuvofiq polimerdan protez tayyorlandi. Implantatsiyani muvaffaqiyatli yakunlash uchun shifokorlar besh operatsiya oʻtkazishlariga toʻgʻri keldi. Birinchisida toʻqimalardan yiring chiqarib tashlandi, keyingi toʻrttasi esa operatsiyani muvaffaqiyatli yakunlash uchun oʻtkazildi, zero 3D-protezni shunchaki osonlik bilan oʻrnatib boʻlmaydi.

Yangi suyak bemorning ilik suyagi va chap tizzasidan olingan qon tomirlari va toʻqimalari bilan qoplandi - hozir ular yangi suyak atrofida rivojlanmoqda. Shifokorlar biroz vaqt oʻtgach toʻqimalar yangi suyakni yarata olishiga ishonch bildirishmoqda, biroq bunga ancha vaqt - taxminan bir yarim yil kerak boʻladi. Hozircha Robeynga yurish va oyoqqa ogʻirlik tushirish mumkin emas.

KASHFIYOTLAR OLAMIDA

Mendeleyevning bashoratlari

Rus xalqining buyuk farzandi Dmitriy Ivanovich Mendeleev fanda yangi ilmiy dunyoqarashlarning yaratuvchisi sifatida maydonga chiqdi. Mendeleevning hayoti va ilmiy faoliyatini oʻrganarkanmiz, uning ilmga sodiqligini, fan va amaliyotning bir-biri bilan qatʼiy va uzluksiz bogʻliqligini taʼminlash borasidagi faoliyatini kuzatamiz.

Mendeleev oʻziga xos tabiiy-ilmiy qonuniyatlarni kashf qildiki, ularning amaliyotda qoʻllanilishi mayda zarrachalardan insonning ehtiyoji uchun zarur boʻlgan juda katta miqdordagi energiyalarni olish imkoniyatini berdi. Uning nomi yana shu bilan oʻchmaski, olim davriy qonunni (1869) kashf etdi, kimyoviy elementlarni oʻz xossalari asosan maʼlum tartibda joylashtirishning uddasidan chiqdi. Olimning kimyo va fizika borasidagi hozirgi zamon kimyo va fizikasi, birinchi navbatda atomlar toʻgʻrisidagi tushunchalari shu fanlar rivojlanishiga turtki berdi.

Mendeleevning ilmiy merosidagi falsafiy qarashlar iqtisodiy va siyosiy maqolalari, publitsistik ocherklari, tabiiy-ilmiy fikrlari va kashfiyotlari bilan bevosita bogʻlanib ketgan. Mendeleevning ijtimoiy-iqtisodiy, shuningdek, falsafiy qarashlari, ishlab chiqarish munosabatlari, sanoatning oʻsishi bilan bogʻliq. Uning dunyoqarashidagi dastlabki asos — bu ishlab chiqarish kuchlarini cheksiz rivojlantirish gʻoyasidir.

Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish fabrika-zavodlarni rivojlantirishga olib keladi, deydi u. Jamiyat hayot tarzi moddiy jihatlarini, ehtiyojlarini hisobga olgan holda, eski qoloq-patriarxal xo'jalik yuritish shaklidan so'zsiz shahar tipidagi fabrika-sanoat xo'jalik sharoitiga o'tish zarurligini ta'kidlaydi.

Mendeleyevning siyosiy dunyoqarashi uning iqtisodiy dasturlariga bo'ysungan edi. «Chorlovchi o'ylar» asarida u rus sanoatining yuksalishida hukumat oldida turgan vazifalarni ko'rsatib berib, uning oldidagi to'siqlarni olib tashlash kerakligini qayd etadi. Olimning industriyani rivojlantirishga ilmiy-madaniy jihatdan yondashishi yanada ahamiyatlidir. U fanning fundamental bilim manbai ekanligini hisobga olgan holda, hech qachon pragmatizm g'oyalarida turmagan. Bu uning dunyoqarashiga yot narsa edi. Pragmatizm — ilm-fanning ahamiyatini faqat bilimlar to'plami sifatida anglab, uning ishlab chiqarishdagi rolini tushunmaslik bo'lib, bu Mendeleyev tomonidan to'g'ri talqin qilingan edi.

Mendeleyev materiyasiz harakat mavjudligi haqidagi idealistik fikrlarni rad etadi. «Harakat harakatlanuvchi narsani talab etadi» — deb yozgan u. Xuddi mana shunday, u Ostavldning «energetizm» (dunyoda faqat energiya mavjud deb, materiyani inkor etuvchi dunyoqarash) g'oyalariga qarshi chiqadi. U materiyaning, moddaning inkor etilishi, tashqi dunyoning rad etilishiga olib kelishi, uni sub'ektiv tarzda tushunish ekanligini ko'ra bildi.

«Energetiklar har qanday moddiyatni inkor etishadi, ularning aytishicha, biz faqat modda tomonidan beriladigan energiyani bilamiz va bundan ko'rinadiki, moddiyat bu energiyaning o'zginasidir. Bu mening fikrimcha, dunyoni, materiyani sub'ektiv tushunishdir» deydi olim. Mendeleyevning asosiy g'oyalaridan biri ruhning materiyasiz mavjudligini inkor etishidir. U o'zining «realistik» qarashlarida bir-biridan ajratib va o'z navbatida birlashtirib bo'lmaydigan uch substantsiya: moddiyat, kuch va ruh haqida to'xtalib o'tadi. Uning ajoyib asari — «Dunyo efirini kimyoviy tushunishga urinish» quyidagi falsafiy kirish bilan boshlanadi: «Xuddi baliq o'zini muzga urgani kabi, necha asrlardan beri donishmandlarning hamma fikrlari barcha narsada umumiylikka intilish, ya'ni «barcha narsaning boshi»ni qidirishdir. Lekin bu narsa yana bir-biri bilan bog'liq va o'z navbatida qorishmaydigan uch substantsiya: moddiyat (materiya), kuch (energiya) va ruhning tan olinishiga olib keldi.» Mendeleyev shuningdek, dunyoning birligi va uning elementlariga to'xtaladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Mendeleyevning ijtimoiy va ilmiy-falsafiy qarashlari o'ziga xos va turli-tumandir. Ishlab chiqarish kuchlarini cheksiz taraqqiy ettirish va iqtisodiy masalalar, shuningdek, tabiat qonunlariga dialektik yondashish olim dunyoqarashining asosini tashkil etadi. Unda qaror topgan bunday dunyoqarash, tabiiy fanlarning rivojiga katta hissa qo'shgan olamshumul kashfiyot — davriy qonun va davriy sistemaning yaratilishiga olib keldi.

Kimyoviy elementlar davriy qonunining yaratilishi D.I. Mendeleyev hayoti va o'sha paytda fan tarixidagi eng muhim voqyalardan biri bo'lgan edi. Tabiatning ko'pchilik qonuniyatlari aniq va tabiiy fanlar borasida XIX asrda yaratilgan. XVII asrda butun olam tortish qonuni, keyinroq Lomonosovning modda massasining saqlanish qonuni, Darvinning evolyutsion nazariyalari o'sha paytda yaratilgan va tabiatni ilmiy asosda tushunishga qaratilgan dunyoqarashni shakllantira boshlagan edi. Mendeleyevning davriy qonuni yuqoridagi kabi «klassik» tabiat qonunlarining biri bo'lib, nafaqat kimyo, balki butun ilm-fan borasidagi katta yutuqlardan biri edi. Mendeleyev davriy qonunining yaratilishi bir qator o'ziga xosliklarga ega. 1869-yil Mendeleyev o'sha paytda ma'lum bo'lgan kimyoviy elementlarni ma'lum bir qatorga (atom massasi ortib borishi tartibida) joylashtirganda, ba'zi elementlar va ular hosil qilgan birikmalarning kimyoviy va ba'zi fizikaviy xossalari davriy ravishda o'zgarishini aniqladi. Mendeleyev kimyoviy elementlarning davriy sistemasiga duch keldi. U jadval tuzib, unda elementlarning kimyoviy belgilarini atom massalari ortib borishi va kimyoviy xossalari bilan bir-biriga o'xshash elementlar joylashdi. Bu davriy sistema hozirgi kunda hammaga tanish, uni butun dunyo maktablarida o'rganishadi.

Mendeleyevning kashfiyoti tabiatni ilmiy asosda tushunishga yordam beradi. Qadimgi dunyoning buyuk allomalari Levkip, Demokrit va Epikur tabiatdagi barcha narsalar mayda, ko'zga ko'rinmas zarrachalardan tuzilgan, deb aytib ketishgan. Qadimgi atomistik qarashlar XVIII-XIX asrga kelib yana qaytadan tiklandi va rivojlantirildi. Olimlar moddalarning fizik va kimyoviy xususiyatlari bog'liq ravishda o'zgarishini eng mayda zarrachalar — atomlardan qidirishga tushishdi. Endi, nima uchun elementlarning atom massalari ortishi bilan ularning davriy xossalari takrorlanishi ayon bo'la boshlagan edi.

Ma'lumki, Mendeleyevdan ham oldin kimyoviy elementlar ma'lum bir tartibga solingan. Bularidan Debereyner, Odling, Shankurtua, Nyulends, Lotar Maer va boshqalarni eslab o'tish mumkin. Mendeleyevning yuqorida zikr qilingan o'tmishdoshlari kimyoviy elementlarning xossalari davriy ravishda o'zgarishini aniqlagan bo'lsalar-da, lekin butun bir sistemani yarata olishmadi. Mendeleyevning uzoq izlanishlari natijasida davriy qonun yaratildi. Mendeleyev qog'oz kartochkalarga o'sha paytda ma'lum elementlarning atom massalari, kimyoviy birikmalari va nomini yozib chiqadi. Bunda u elementlarning valentligi, ya'ni boshqa atomlar bilan bog'lanishlar hosil qilish xususiyatiga e'tiborini qaratdi. Mendeleyev bu kartochkalarni turlicha joylashtirib, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni izladi. Tadqiqotchi elementlarning faqatgina o'xshash xossalarinigina e'tiborga olmasdan, balki ularning farqlarini ham kuzatdi. Masalan, u litiy — Li deb ataladigan ishqoriy metallning xossalari, boshqa bir ishqoriy metall natriyniki — Na kabi ekanligini aniqladi. Ular atom massalari ortib borishi tartibida joylashtirilsa, orasiga yana olti element joylashadi. Xuddi ana shuncha elementdan so'ng natriyning — Na xossalari boshqa bir ishqoriy metall kaliy — K da takrorlanadi. Mendeleyev bu xususiyat boshqa holatlarda ham takrorlanishini kuzatdi. Elementlar qatorida kimyoviy birikmalarning xossalari davriy ravishda o'zgarishi va bu holat atom massalari ortib borishi, shuningdek, ma'lum sondagi elementlardan keyin takrorlanishini e'tiborga olib, Mendeleyev kimyoviy elementlarning nomlarini ma'lum tartibda yozib chiqib, davriy sistemani tuzishga erishdi. Davriy sistemaning har bir katakchasida biz kimyoviy elementning simvoli, tartib raqami va atom massalari qiymatini ko'ramiz. Vertikal qatorlar guruhlar, gorizontalar qatorlar esa davrlar deb nomlandi. Mendeleyev shuningdek, kimyoviy elementlarning xossalari o'n yettita elementdan keyin ham takrorlanishini kuzatdi va davrlarni katta-kichigiga ajratdi.

Kimyogar o'zi yaratgan qonunning ob'ektivligiga to'la ishongan holda, o'sha paytda ma'lum bo'lgan ba'zi elementlarning atom massalariga tuzatish kiritdi. Agar elementlar faqat atom massalari tartibida (o'sha vaqtda ma'lum bo'lgani bilan) joylashtirilganda, davriy qonundan bir qator chetlashishlar kuzatiladi. Masalan, agar biz elementlarni yuqoridagidek joylashtirganimizda alyuminiy tagida titanni, kremniyning tagida vadaniyni, xossalari umuman o'xshash bo'lmagan elementlarni uchratgan bo'lar edik. Uning elementlarning kimyoviy xossalarini e'tiborga olib, unga yaqin elementlarning atom massalariga o'zgartirish kiritdi. Mendeleyev davriy sistemasida davriylik elementlar o'rtasida ma'lum bo'sh katakchalar (o'sha vaqtda noma'lum bo'lgan elementlar uchun) tashlab ketilgandan so'ng takrorlanar edi. Mana shu bo'sh katakchalarga Mendeleyev o'sha paytda noma'lum bo'lgan elementlarni joylashtirdi. Bu elementlar alyuminiydan keyin joylashgan edi. (Mendeleyev ularni «eka-alyuminiy», sanskritchadan - «eka» - bir, «ekakremniy» va «ekobar» deb nomlagan). Mendeleyev, hatto bu noma'lum elementlarning xossalarini oldindan bashorat ham qildi. 1875-yil Parij Fanlar akademiyasida katta voqyea yuz berdi. Bu yerda frantsuz olimi Lekok De—Buabodran tomonidan topilgan noma'lum element ta'riflandi. Unga Galliy (Fransiya sharafiga) deb nom qo'yishdi. Mendeleyev darhol bu yangilikdan xabar topgach, Parijga xat jo'natib, Lekok De-Buabodran tomonidan topilgan element o'zi ta'riflagan «ekaalyuminiy» ekanligini va uning solishtirma og'irligi Buabodran aniqlaganidek 4,7 emas, balki 5,96 ga teng ekanligini aytadi. Lekok De-Buabodran Mendeleyevning xati bilan tanishgach, o'z tadqiqotlarini takrorlaydi va haqiqatdan ham yangi elementning solishtirma og'irligi 4,7 emas, balki 5,96 ga teng ekanligini aniqlaydi. Tez orada Shved ximigi Nilson

ta'rifidan «Ekabor» — skandiy va nemis ximigi Vinkler tomonidan germaniy, Mendeleev tomonidan, ayniqsa, xossalari batafsil bashorat qilingan «ekasilitsiy» topildi.

Mendeleevning yuqoridagi ilmiy bashoratlari ro'yobga chiqishi u yaratgan davriy sistema va davriy qonunning ob'ektivligi, haqqoniyligining yorqin isboti bo'ldi. Shundan keyin 1894-yilda Reley va Ramzay tomonidan inert gazlarning (argon va boshqalar) ochilishi natijasida davriy sistemaga bir qator o'zgartirishlar kiritilib, yanada takomillashib bordi. Mendeleev davriy qonun va davriy sistemani yaratish borasidagi ishlarining oxirida shunday degan edi: «Mening hamma xulosalarim shunga olib kelyaptiki, elementlarning atom massalari, ayni element va u hosil qilgan birikmalarning xossalari belgilab beradi. Atom massalari oshib borishi tartibida joylashtirilgan elementlar xossalari davriy ravishda takrorlanadi».

Fan taraqqiyotiga Mendeleevning qo'shgan ulkan hissasi shundaki, o'zining birinchi bor kashf qilingan davriy qonun zaminida yaratgan elementlar davriy sistemasida ana shu qonunning grafik ifodasini izchil ravishda, aniq talqin qilib berdi. Shu bilan birga, u o'zining mavjud elementlar sistemasida hamma elementlarning solishtirma og'irligiga qarab bir butun sxemaga joylashtirdi, ularning obyektiv tabiiy - qonuniy aloqada birlashib yoki ajralib turishini ko'rsatib berdi. Uzoq vaqt izlanishlar natijasi sifatida olim oldindan bashorat qilib, hali fanga ma'lum bo'lmagan, ochilmagan elementlarning tabiatda mavjudligini va ularning solishtirma hamda atom og'irligini oldindan bayon qilib bergan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish zarurki, birinchi bor «element» kategoriyasi va uning mohiyati Mendeleev tomonidan izohlab berildi.

Hozirgi paytda buyuk ixtirochining yuqoridagi davriy qonuni ta'rifi har bir maktab o'quvchisiga yaxshi tanish. Ilm-fan taraqqiyoti bizning asrimizda undagi ba'zi kamchiliklarni bartaraf etish imkonini berdi. Lekin shunga qaramay Mendeleevning davriy qonuni XIX asrda nafaqat kimyo, balki butun tabiiy fanlarning rivojiga turtki bo'ldi va hozirgi kunda ham o'z kuchini saqlab qoldi. Davriy qonun xususiy qonun bo'lmasdan, balki umumiy qonuniyatlar jumlasiga kiradi. Unda dialektika qonunlari o'z ifodasini topgan. (Masalan: «Miqdor o'zgarishlarning sifat o'zgarishlariga o'tishi» qonuni davriy sistemada yaqqol ko'rinadi. Li (qattiq modda), uning atom massasi $m=7$ va yadro zaryadi oshib borishi bilan butunlay boshqa sifat ko'rsatkichga ega bo'lgan element — G' (gaz), atom massasi $m=19$ ga o'tiladi.)

Mendeleevning davriy qonuni yordamida hozirgi kunda vaqt va o'lchov, ikki dunyo: musbat zaryadlangan yadro va manfiy zaryadlangan elektronlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, geokimyoning ko'pchilik masalalari, tirik organizmlardagi biologik va fiziologik jarayonlar o'z yechimini topmoqda.

Lug'at

tejash – экономить

aziyat chekish – страдать, мучиться

to'qima – ткань

davriy – периодический

kimyoviy birikma – химическое соединение

bashorat qilish – предсказать

jismoniy – физический

baholash – оценивать

so'rovnoma – опрос, анкетирование

Topshiriq:

1. Matnni o'qing va Mendeleev kashfiyotini qisqacha yozma bayon qiling.
2. Quyidagi qisqa matnlarni har biringiz alohida o'qing va mazmunini hammaga gapirib bering.

Ixtiroga aylangan xato

«Koka-Kola»

1886-yili doktor va farmatsevt Jon Pemberton koka o'simligi bargi va kola yong'oqlarini aralash tirib insonga quvvat baxsh etuvchi dori olish ustida ish olib bordi.

Pemberton tayyor bo'lgan aralashmani tatib ko'rdi va uning ta'midan qoniqish hosil qildi. U bu dori tez charchaydigan, asabi chatoq va tishi og'rikan bemorlarga yaxshi ta'sir qiladi deb hisobladi. Dorishunos tayyor aralashmani Atlanta shahridagi eng katta dorixonaga olib bordi. O'sha kuni dorining bir stakani besh sentdan sotildi. Ammo Coca-Cola ichimligi ehtiyotsizlik tufayli paydo bo'ladi. Sotuvchi tasodifan doriga oddiy suv o'rniga gazlangan suv qo'shib yuboradi. Tayyor bo'lgan ichimlik shu tariqa «koka-kola»ga aylanadi. Dastlab bu ichimlik unchalik ommalashmagan. Pemberton birinchi yili yangi ichimlik reklamasiga 79,96 dollar sarflaydi, biroq bor-yo'g'i 50 dollarlik «koka-kola» sotiladi. Hozirgi kunda bu ichimlik dunyoning 200 mamlakatida iste'mol qilinadi va ishlab chiqariladi.

Shokoladli pechenye

AQSHda eng keng tarqalgan shirinliklardan biri shokoladli pechenedir. U 1930 yilda, kich-kinagina mehmonxona bekasi Rut Veykfeld pechene pishirishga qaror qilganida paydo bo'lgan. Ayol plitkali shokoladni bo'laklarga bo'lib, xamirga aralash tiradi. U shokolad erib, xamirning rangini jigarrang holga keltiradi deb o'ylagandi. Ammo pechene tayyor bo'lganida uning ichida erigan emas, balki bo'lakli shokoladlar turgan edi.

Yopishqoq qog'oz

Yopishqoq qog'ozlar yelimning mustahkamligini oshirish uchun qilingan omadsiz tajriba sababli paydo bo'lgan. 1968-yilda 3M kompaniyasi tajribaxonasi xodimi yopishqoq tasma (skotch) ning sifatini yaxshilash ustida ish olib borayotgandi. U yangi yelim kashf etdi, ammo bu yelim skotch uchun umuman yaroqsiz edi. Tadqiqotchi bu yelimdan qanday maqsadda foydalanishni bilmasdi. To'rt yildan so'ng uning hamkasbi kitoblar orasiga qo'yiladigan eslatma yozilgan qog'ozlar tushib qolaverib bezor qilayotganidan nolib qoladi. Shunda tadqiqotchi o'zi yaratgan yelim haqida eslab qoladi va kitoblar sahifasiga zarar yetkaz maydigan yopishqoq qog'oz tayyorlashni boshlab yuboradi. 1980-yilda ilk Post-it Notes sotuvga chiqqan.

Rezina

1844-yilda ixtirochi Charlz Gudiyr tasodifan issiqda yumshamaydigan va sovuqda qotib qolmaydigan rezina tayyorlash retseptini kashf etadi. Yangi texnologiya vulkanizatsiya degan nom oladi. Uzoq yillar davomida rezina sifatini yaxshilashga muvaffaqiyatsiz urinib kelgan. Gudiyrbirkunitasodifan kauchuk va oltingugurt aralashmasini oshxonada plitkada qizdiradi va yangi turdagi rezina vujudga keladi. Gudiyrning ixtirosi avtomobilsozlik tarixida yangi sahifa ochgan.

Qadimga kompas kashfiyoti

Kompas dastlab qaerda ixtiro qilinganini bilasizmi? Ha albatta, o'sha ko'hna Xitoyda. Xitoyliklar kompasni «chanana» deb atashgan.

Xitoy imperatori saroyiga Vetnamdan mexmon bo'lib elchilar kelishibdi. Ularni Xitoy imperatori juda yaxshi kutib olibdi. Ularni mexmon qilib, uzaro shartnomalar tuzishibdi. Sungra vetnamlik elchilarni sovg'a salomlar bilan o'z vatanlariga kuzatib qo'yadi, lekin vetnamlik elchilar 2 kundan so'ng yana Xitoy imperatori saroyiga qaytib kelishibdi. Shunda Xitoy imperatori ulardln nima gapligini so'rabdi. Ventamliklar yulda adashib qolganlilklarini, o'z vatanlariga qanday ketishlarini bilmay yordam so'rab kelganlarini aytishibdi.

Shunda Xitoy imperatori ularga bir aravacha sovg'a qilibdi. Aravachaning o'rtasida odam-haykalcha bo'lib, u qo'lini to'g'ri uzatib turar edi. Aravani hoxlaga tomoniga bursangiz ham

xaykalcha aylanib, qo‘li bilan janubni ko‘rsatib turaveradi. U doimo bir tomonni vietnamliklarning vatani—janubni ko‘rsatib turar edi.

Vyetnamliklar shu aravacha “chanana” yordamida o‘z uylariga yetib olishibdi.

Antiq printer

Isroilning SteamCC kompaniyasi qahva ko‘pigida tasvir bosuvchi Ripples printerini taqdim qildi.

Bosma uchun smartfonga o‘rnatilgan maxsus dastur yordamida tasvirlar kutubxonasidan zarur tasvir tanlab olinadi. Shundan keyin printer qahva donlari ekstraktidan 10 soniya ichida ko‘pik sirtida tasvirni bosib beradi.

Kardiostimulyator

Yurak kasalligidan azob chekayotgan millionlab insonlar hayotini saqlab qoluvchi bu uskuna ham tasodifan yaratilgan. 1941-yili muhandis Jon Xopps harbiy-dengiz flotining buyurtmasiga ko‘ra gipotermiya sohasida tadqiqot o‘tkazishni boshlaydi. Uning oldiga uzoq vaqt sovuq havo yoki sovuq suvda qolib ketgan odamni iloji boricha tezroq isitish yo‘lini topish vazifasi qo‘yilgandi. Xopps odamni isitish uchun yuqori chastotali radionurlanishdan foydalanishga urinib ko‘radi va tasodifan muzlab qolish oqibatida to‘xtab qolgan yurak elektr ta’sirida yana ishlab ketishini aniqlaydi. 1950 yilda Xoppsning kashfiyoti asosida ilk kardiostimulyator yaratiladi.

Antibiotiklar

1928-yilda olim Aleksandr Fleming tokcha ustida esidan chiqib qolib ketgan stafilokokk bakteriyalari solingan idishni zamburug‘ qoplab olganligini ko‘radi. Mikroskop ostida tekshirib ko‘rgan Fleming zamburug‘ bakteriyalarni yo‘q qilib tashlaganini aniqlaydi. Flemingning bu kashfiyoti penitsillin ishlab chiqarilishiga turtki bo‘ladi. 1940-yildan boshlab antibiotiklar ustida tadqiqotlar boshlab yuboriladi. Hozirda butun dunyoda sotiladigan barcha dorilarning 15 foizini antibiotiklar tashkil etadi.

Supermarket aravachasi

Silvan Goldman ismli savdogar xarid aravachasini 1936 yilda yaratgan. U Oklaxoma-Sitidagi kattagina magazinning egasi edi. Goldman ba’zi buyumlar og‘ir va ko‘tarishga noqulayligi uchun xaridorlar ularni sotib olmayotganliklarini sezib qoladi. Kashfiyot tasodifan yuz beradi: u bir xaridor qo‘lidagi og‘ir sumkani o‘g‘li yetaklab ketayotgan o‘yinchoq mashina ustiga qo‘yganini ko‘radi. Savdogar avvaliga oddiy korzinaga kichkina g‘ildirakchalar o‘rnatadi, keyinroq esa mexaniklar yordamida xarid aravachasini yasaydi. 1947 yildan savdo aravachalari ommaviy ravishda ishlab chiqarila boshlaydi. Aravachaning yaratilishi magazinlarning yangi turi – supermarketlar paydo bo‘lishiga olib keladi.

Axlat uchun qop

Garri Vasilyuk ixtirochi va muhandis edi. Bir kuni unga shahar hokimiyatidagilar murojaat qilishib, axlat tashiydigan mashinalarga axlat yuklanayotgan paytda ular sochilib ketmasligi uchun biror narsa o‘ylab topishini so‘rashdi. U uzoq vaqt changyutgichga o‘xshash uskuna ustida bosh qotirib yurgan paytda tasodifan boshqa qarorga keldi. Uyidagilardan kimdir bir kuni «Axlat solgani xaltachatopolmayapman» deb qoldi. Vasilyuk shu zahoti axlat uchun bir marta ishlatiladigan qopcha kerakligini va uni polietilendan tayyorlash lozimligini angladi. Axlat uchun mo‘ljallangan dastlabki plastik qoplar Vinnipeg shahri kasalxonasida

sinab ko‘rildi. 1960 yildan esa aholi uchun ham axlat solinadigan xaltalar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Mikroto‘lqinli pech

Raytheon deb nomlanuvchi harbiy-sanoat majmuasi xodimi, 120dan ortiq ixtirolar muallifi Persi Spenser tasodifan mikroto‘lqinli pechni yaratgandi. 1945 yilda u radarlar sifatini yaxshilash borasida tadqiqot o‘tkazayotgandi. Tajriba paytida u nur taratgich oldidan o‘tadi va cho‘ntagidagi shokolad erib ketganligini ko‘radi. Shundan so‘ng uning xayoliga bu uskunadan oziq-ovqat sanoatida foydalanish fikri keladi. Qator tajribalardan so‘ng dastlabki mikroto‘lqinli pech yaratiladi. Uning og‘irligi 400 kilogrammga yaqin bo‘lib, asosan restoran va kemalarda ovqatni tezda isitish uchun mo‘ljallangandi.

Vazifa:

1. Kimyo sohasida Nobel mukofoti olgan kashfiyot haqida ma‘lumot yozing.
2. Yana qanday fan sohasidagi eng so‘nggi kashfiyot yoki ixtirolar haqida xabardorsiz? Bu haqda og‘zaki xabar tayyorlang.



GRAMMATIKA: ILMIY USLUB VA UNING XUSUSIYATLARI. RAVISH – SO‘Z TURKUMI.

Ilmiy uslub fan, texnika va ishlab chiqarish bilan bog‘liq vazifaviy uslubdir. U o‘z ichida yana ilmiy texnikaviy, ilmiy-hujjat, ilmiy-ommabop, o‘quv-ilmiy kabi bir necha sof ilmiy turlarga bo‘linadi.

Ilmiy uslubning hozirgi zamon taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda quyidagi umumiy xususiyatlari bor:

- 1) axborotning ob‘yektivligi, aniqligi;
- 2) nutqning ma‘lumotlarga boyligi;
- 3) fikrning lo‘nda, qisqa ifodalanishi;
- 4) muallif individualligining sezilmasligi;
- 5) emotsionallik, obrazlilikning bo‘lmasligi;
- 6) atama, chizma, ramz va jadvallarning bo‘lishi;
- 7) matnning siqiq sintaktik qurilmalardan tuzilishi;
- 8) adabiy til me‘yorlariga qat‘iy amal qilinishi;
- 9) fikrlarning mantiqiyli va qat‘iy tartibda bo‘lishi;
- 10) ellipsis hodisasining bo‘lmasligi (nazarda tutilgan birorta so‘zning tushib qolishi);
- 11) turli xil tushunchalarni ifodalovchi otlarning ko‘p ishlatilishi;
- 12) otlarni, asosan, birlikda ishlatish;
- 13) matnda fe‘lning majhul nisbatidan foydalanish;
- 14) maxsus bog‘lash uchun xizmat qiladigan so‘z, so‘z birikmalarining qo‘llanishi.

Ilmiy uslub ilmiy asarlar uslubidir. Til birliklarining fan sohasida, ilmiy bayon jarayonida ishlatilishi mazkur uslubning shakllanishiga asos bo‘ladi. Ilmiy tafakkur fikrlashning o‘ziga xos usuli ekanligi, obektiv borliqni idrok etishda faqatgina dalil va faktlarga tayanish, fikriy izchilik kabi ekstralingvistik omillar ham nutqning ushbu turining shakllanishida, binobarin, nutqiy me‘yorning o‘ziga xos turining yuzaga kelishida muhim omil sanaladi.

Ilmiy uslubning janr xususiyatlari ham keng. Monografiya, risola, darslik, o‘quv qo‘llanmasi, o‘quv-metodik qo‘llanma, dastur, ma‘ruza matnlari, taqriz va referat singarilar uning ana shu janr ko‘rinishlari hisoblanadi. Garchi ularning har birining bayon usuli va uslubi ma‘lum darajada bir-birlaridan farq qilsa-da, til birliklaridan foydalanish me‘yoriga ko‘ra umumiylikni tashkil etadi.

Ilmiy uslubga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. **Aniqlik.** Har qanday ilmiy bayon, xulosa, shubhasiz, aniqlikni talab qiladi. Shuning uchun bu uslubda soʻzlarni aniq, asosan bir maʼnoda qoʻllash, sinonimik qatordagi variantlardan masalaning mohiyatini birmuncha aniq ifoda etadigan variantini tanlash, hech boʻlmaganda, neytral variantini qoʻllash taqozo etiladi. Terminlarni qoʻllash bu uslubning asosiy xususiyati sanaladi.

2. **Obyektivlik.** Ilmiy adabiyotlarda bu uslub doirasida til materiali fikrning haqqoniyligi, obektivligiga xizmat qilishi lozim. Maʼlum boʻladiki, haqqoniylik, obektivlik nihoyatda murakkab jarayon boʻlib, uning reallashuvida faqatgina til birliklariga tayanib ish koʻrish qiyin. Uni vaziyat, suhbatdoshlarning bir-birlarini bilishi va tushunishi kabi ekstralingvistik omillar ham belgilashi mumkin.

3. **Mantiqiy izchillik** ilmiy bayon uslubining oʻziga xos xususiyatini tashkil etadi. Matnda soʻzlar, gaplar, abzaslar oʻzaro mantiqiy bogʻlangan boʻlishi lozim. Shuning uchun ham ilmiy matnlar bu izchillikni yuzaga keltiruvchi maʼlumki, maʼlum boʻladiki, taʼkidlash lozimki, taʼkidlash oʻrinliki, darhaqiqat, binobarin, shunday ekan, birinchidan, ikkinchidan, koʻrinadiki, taʼkidlash joizki, xulosa qilib aytganda, xulosa qilganimizda, birgina misol, faqat bugina emas singari koʻplab bogʻlovchi vazifasini bajaradigan soʻz va birikmalar qoʻllaniladi.

4. **Qisqalik.** Bu xususiyat aynan ilmiy bayonga xos xususiyatdir. Shuning uchun unda tilning tasviriy imkoniyatlaridan deyarli foydalanilmaydi. Gaplar darak mazmunida boʻlib, asosan sodda yoyiq holda boʻladi. Agar fikr qoʻshma gaplar yordamida ifodalansa, bogʻlovchilarning faol ishlatilishi kuzatiladi.

Ilmiy uslub fonetik jihatdan boshqa uslublardan farqlanib turuvchi yorqin belgilarga ega emas. Leksikasida esa farq qiluvchi jihat sohaviy atamalarning koʻpligi hisoblanadi. Bu uslubda ham, xuddi rasmiy uslubda boʻlgani kabi, soʻzlarni koʻchma maʼnolarda qoʻllash, tasviriy vositalardan unumli foydalanish xos xususiyat sanalmaydi. Subektiv emosionallik, obrazlilik, ogʻzaki nutq elementlari, umuman gʻayri adabiy unsurlar kam ishlatiladi. Mumkin qadar bayon bir xil meʼyorda ifoda etiladi.

Ilmiy uslubda faqat adabiy tilda meʼyor sifatida eʼtirof etilgan grammatik koʻrsatkichlardan foydalaniladi. Soʻz turkumlaridan ot faol, koʻpincha takror qoʻllanadi. Subektiv baho shakllari xos emas. –lar koʻplikdan boshqa semantik-uslubiy maʼnolarni ifodalama-da, atama hosil qilishda ishtirok etadi. Umumiy egalik ustun turadi, I-II shaxs qoʻshimchalari ishlatilmaydi, III shaxs shakli faol. Undov va taqlid soʻzlar ham bu uslubga xos emas. Yuklamalarning esa imkoniyati chegaralangan.

Ilmiy nutq uchun deyiladi, aytiladi, yoritiladi, bayon qilinadi, aniqlanadi, tekshiriladi, foydalaniladi, taʼriflanadi singari xoslangan feʼllar mavjud. Feʼlning majhul daraja shakli ham bu uslub uchun xos. Ammo hozirgi-kelasi zamon shaklidan tashqari xarakterli zamon koʻrsatkichi yoʻq. Kishilik olmoshlari kam qoʻllaniladi. Bu gap faqat muallif va men maʼnolarida qoʻllaniladigan hamda kamtarlik maʼnosini ifodalaydigan biz olmoshiga tegishli emas.

Ilmiy uslubda demak, xullas, darhaqiqat, haqiqatan, shubhasiz, albatta, darvoqye, masalan, jumladan, ayniqsa, xususan, aksincha, afsuski singari modal soʻzlar va modal maʼno anglatuvchi boshqa birliklar keng qyillaniladi.

Shu tarzda ilmiy uslubning ammo, lekin kabi oʻz bogʻlovchilari, bilan, uchun, kabi, singari, haqida, toʻgʻrisida, tufayli, sababli, doir, oid, binoan, tashqari, qaraganda, asosan, muvofiq, qadar singari koʻmakchilari borligini ham qayd qilish toʻgʻri boʻladi.

Ilmiy uslubda bayon etilayotgan matnning sintaktik qurilishi fikriy tugallikka, mantiqiy izchillikka xizmat qiladi hamda bayonning tabiatidan kelib chiqib, bir tarkibli gaplarning shaxssiz, shaxsi umumlashgan turlari faol. Undov, atov gaplar qoʻllanilmaydi, nutq monologik xarakterda boʻladi. Rasmiy uslubdagiga oʻxshab gap tuzilishining odatdagi tartibi qoʻllaniladi. Qoʻshma gap faol ishlatiladi. Darak gap asosiy mavqyeni egallaydi, soʻroq va buyruq gaplar deyarli qoʻllanilmaydi.

- Vazifa:** 1. “Tabiat va inson” mavzuida ilmiy nutq yozing.
2. “Ekologik muammolar” bo‘yicha “Klaster” tuzing.

RAVISH

Qanday?, qancha?, qachon? singari so‘roqlarga javob bo‘lib, harakatning holati, daraja-miqdori bildirgan so‘zlar ravish sanaladi.

Ravish, asosan, fe‘lga bog‘lanadi va gapda ko‘proq hol vazifasida keladi.

Harakat-holatning bajarilish tarzi, payti, o‘rni, daraja-miqdori kabi belgilarini bildiruvchi va qanday? qachon? qayer? qancha? singari so‘roqlarga javob bo‘luvchi so‘zlar ravish deyiladi.

Mustaqil ma‘noli o‘zgarmas so‘zlar ravishlar deb ataladi.

Ravishlar belgini, miqdor yoki holatni, o‘rin, payt ma‘nolarini ifodalaydigan, lug‘aviy shakllarga ega bo‘lmagan mustaqil ma‘noli o‘zgarmas so‘zlardir. Ular ma‘nosi bilan ot, sifat, sonlarga yaqin turadi.



1-mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli ravishlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chirib yozing.

1. Tonggi shabada ... esmoqda.
2. O‘qituvchimiz mavzuni ... tushuntirdi.
3. Olya o‘rtoqlari bilan ... gaplashdi.
4. Volodya uni ko‘rgani ... kelib turdi.
5. Ikkovlari suhbatlashib ... jo‘nab ketdilar.

Qo‘yish uchun so‘zlar: mayin, yaxshi, o‘zbekcha, tez-tez, shoshmasdan.

2-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yib, gaplarni yozing va rus tiliga og‘zaki tarjima qiling.

1. ... men o‘zbek tilini bilmas edim. 2. ... o‘zbek tilini o‘rgana boshladim. 3. ... sen yangi matnning mazmunini yaxshi tushudingmi? 4. ... qiyin matnlarning mazmunini aytib bera olmayman. 5. ... universitetimizda o‘zbek tili to‘garagi ochildi. 6. ... to‘garak mashg‘uloti yaxshilanmoqda.

Qo‘yish uchun so‘zlar: hozir, kundan-kunga, ilgari, bugun, hozircha, yaqinda, o‘tgan yili.

3-mashq. So‘roqlar yordamida birinchi ustunga payt ravishlarini, ikkinchi ustunga o‘rin ravishlarini ko‘chiring.

Erta, oldinda, ertaga, ichkari, ichkarida, tashqari, hozir, hozirdan, hali, yuqoriga, avval, ilgari, past, o‘rtada, chapda, chapdan, ertalab.

4-mashq. So‘roqlar yordamida aniqlab, holat ravishlarini birinchi ustunga, daraja-miqdori ravishlarini ikkinchi ustunga yozing.

Ko‘p, tez, oz, ko‘plab, asta, darrov, bir, oz, mo‘l, birdan, piyoda, to‘la, qattiq, ancha, to‘satdan, tezdin, do‘stona, botirlarcha, eskicha.

TEST SAVOLLARI

1. So‘zlashuv uslubiga xos so‘z qo‘llangan qatorni aniqlang.
 - A) Eshikdan ko‘zoynak taqqan Xayri xola ko‘rindi.
 - B) Bizni tabriklab qo‘ying, onajon, rahbar bo‘ldik.
 - C) Traktorni tomorqamga oborib ishlayapmanmi, olifta-quruq!
 - D) Ular boshlarini ko‘tarib, suyukli muallimni tabassum bilan qarshiladilar.
2. Qaysi javobda publitsistik uslubga to‘g‘ri ta‘rif berilgan?
 - A) voqelikni badiiy tasvir vositalari orqali ifodalash usuli
 - B) ommaviy axborot vositalari uslubi
 - C) ish yuritish qog‘ozlari uslubi
 - D) atamalgarga tayanib fikrni aniq va ixcham shaklda bayon qiluvchi uslub

3. Quyida keltirilgan gap qaysi uslubga xos?

Ariqlarda suvlar qaymoq bog'lagan.

- A) so'zlashuv uslub
- B) badiiy uslub
- C) rasmiy uslub
- D) publitsistik uslub

4. *Yotoqxonada yashovchi talabalar belgilangan tartib-intizom va tozalikka rioya qilmagan taqdirda yotoqxonadan chiqariladi.*

Ushbu gap qaysi uslub namunasi?

- A) so'zlashuv uslub
- B) badiiy uslub
- C) rasmiy uslub
- D) publitsistik uslub

5. *Uydan ketganimga o'n yil bo'libdi,*

O'n yil qishlog'imdanda yuribman uzoq,

Men yurgan yo'llarda o'tlar unibdi,

Ko'milib bo'libdi men kezgan so'qmoq. (A.Oripov)

Yuqorida berilgan parcha qaysi uslub namunasi ekanligini aniqlang.

- A) so'zlashuv uslub
- B) badiiy uslub
- C) rasmiy uslub
- D) publitsistik uslub

6. **Oliy Majlis yig'inlarida, turli anjumanlarda qo'llaniladigan nutq uslub qaysi uslub sanaladi?**

- A) so'zlashuv uslub
- B) badiiy uslub
- C) rasmiy uslub
- D) publitsistik uslub

7. **O'zbek tilida nutq uslublarining nechta ko'rinishi bor?**

- A) 5 ta B) 4 ta
- C) 6 ta D) 7 ta

“TUSHUNCHALAR TAHLILI”

Ilmiy uslub	
Badiiy uslub	
So'zlashuv uslub	
Ommabop uslub	
Rasmiy-idoraviy uslub	

MISOL KELTIRING:

Ilmiy uslub	
Badiiy uslub	
So‘zlashuv uslubi	
Ommabop uslub	
Rasmiy-idoraviy uslub	

17-mavzu. DAVRIMIZNING GLOBAL MUAMMOLARI.

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. Matnni o‘zgartirib so‘zlab berish. Mavzu bo‘yicha bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq: Insoniyat oldida turgan global muammolar to‘g‘risida taqdimot tayyorlash. Global muammolardan biriga bag‘ishlangan publitsistik maqola yozish.

Grammatika: Maqola va uning turlari.

Tayanch so‘z va iboralar: *muammo, global muammo, odam savdosi, maqola, ilmiy maqola, ilmiy-ommabop maqola.*

Davrimizning global muammolari

Odam savdosi – asr muammosi

Bugungi kunda odam savdosi asrimizning jiddiy muammosiga aylangan. Unga qarshi kurash xalqaro, mintaqaviy, ko‘p tomonlama munosabatlarni talab etmoqda. Hozirga qadar jinoyatchilikning ushbu turiga qarshi kurashish va uning oldini olish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkilotining bir qator xalqaro hujjatlari qabul qilingan. Ular asosida ushbu xavfga qarshi dunyo miqyosida tegishli chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Odam savdosiga qarshi kurashish uchun davlatlararo hamkorlik qilinmovda. Bu borada 2005 yili MDH doirasida "Odam savdosiga qarshi kurashish sohasida hamkorlikni kuchaytirish to‘g‘risida"gi kelishuv, 2006 yilda "Odam savdosiga qarshi kurashning 2007–2010 yillarga mo‘ljallangan dasturi" qabul qilingan.

Afsuski, dunyo bo‘ylab shuncha keng qamrovli faoliyat, tegishli targ‘ibot-tashviqot olib borilishiga qaramay, har yili millionlab insonlar "zamonaviy qullik", ya’ni odam savdosi qurboniga aylanmoqda. Ular orasida ayollar, keksalar, hatto yosh bolalar ham borligi achinarli. Ushbu jinoyatning rivojlanishiga turtki bo‘layotgan asosiy omillardan biri odamlarning chet elga borish va ishga joylashish haqida yetarli ma’lumotga ega emasligidir. Achinarlisi, o‘zga davlat, begona bir muhitga tushib qolganlar mo‘may daromad ilinjida og‘ir jismoniy mehnatga yollanmoqda, ayollar esa tuban va yomon ishlarga majbur etilmoqda.

BMT ma’lumotiga ko‘ra, dunyoda har yili taxminan 2 million 700 ming kishi odam savdosining qurboniga aylanmoqda. Odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlarning 80 foizi ayol va

bolalardir. Har yili dunyo bo'yicha 600–800 ming nafar ayol va bolalar aldov yo'li bilan xorijiy mamlakatlarga olib ketilib, sotib yuborilmoqda.

Bu jinoyatlarning asosiy sababi ma'naviy qashshoqlik, ochko'zlik, dunyoga haddan tashqari hirs qo'yish va nafsiga qul bo'lishdir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohot va yangilanishlar natijasida fuqarolarimizning turmush sharoiti uzluksiz yuksalib bormoqda, qulay ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlar yuzaga kelmoqda. Bularning barchasi shaxs erki, uning hayoti, salomatligi va shaxsiy huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirmoqda.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 13-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Bugungi kunda aholi migratsiyasi, shu jumladan, mamlakat tashqarisiga mehnat faoliyati bilan shug'ullanish maqsadidagi chiqib ketish bir qatorida salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarmoqda. Bu salbiy hodisa global jarayon sifatida bizning mamlakatimizni ham chetlab o'tmayapti. Afsuski, fuqarolarimiz ham odam savdosi qurbonlariga aylanmoqda. Bularning barchasi davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan ushbu illatga qarshi qat'iy choralar ko'rishni, odam savdosiga jalb etilgan va undan jabr ko'rgan hamyurtlarimizni muhofaza etishni dolzarb vazifa qilib qo'yimoqda.

Xulosa qilib aytganda, odam savdosining har qanday ko'rinishiga qarshi kurashish xalqaro va mintaqaviy darajada jiddiy yondashuv va o'zaro hamkorlikka asoslanasagina yaxshi samara berishi mumkin.

Lug'at

Global muammo – глобальная проблема

maqola – статья

xalqaro – международный

mintaqaviy – региональный

MDX – СНГ

БМТ – ООН


yondashuv – подход

tavsif – характеристика

samara – продуктивность

bog'liqlik – связь

GRAMMATIKA: MAQOLA VA UNING TURLARI.



MAQOLA YOZISH TARTIBI

Maqola bu – berilgan mavzu bo'yicha yozilgan qisqa axborot hisoblanadi. Uning maqsadi – axborotni qisqa va lo'nda shaklda bayon etish, o'quvchilarga muhokama etilayotgan masala haqida umumiy tushuncha berishdir. Bunday shakldagi maqolalarning katta qismi bloglar va jurnallarda yoziladi, shuning uchun savod bilan maqolalarni yozish yangi kompyuterlarni bilish bilan teng bo'lib qoldi. Quyida biz maqolalarni yozish bo'yicha bir necha maslahatlarni keltiramiz:

Agar siz maqolalar yozish bo'yicha tajribaga ega bo'lmasangiz, hech bo'lmasa to'rt-besh satrdan iborat reja tuzing. Har bir satrda siz maqolaning bir tezisini bayon etishingiz mumkin. Har bir tezis esa, o'zida uch-to'rt gapni qamrab olgan abzasdan iborat bo'ladi. Agar maqolada ko'proq gaplarni sig'dirishga ehtiyoj tug'ilsa, ularni ikki yoki undan ortiq abzaslarga bo'lish mumkin.

Oddiy gaplardan ko‘proq foydalaning, murakkablarini qismlarga bo‘ling. Ilmiy atamalardan kamroq foydalanishga intiling, tor sohaga oid maqolalar bundan istisno albatta. Biroq bunday maqolalarda ham atamalarning tavsifini sodda tilda tushuntirishga intiling. O‘z maqolangizning bayon etish usulini, so‘zlashuv usuliga yaqinlashtiring. Tushunarsiz nutq, o‘quvchini hurkitib yuboradi va u sizning sahifangizni tark etadi.

Katta masalalarni qamrashga harakat qilmang. Agar siz uy sharoitida qoramolni boqish haqida yozayotgan bo‘lsangiz, ularning anatomiyasi va kelib chiqish tarixi haqida yozish kerak emas. Diqqatingizni faqat tanlagan mavzuga qaratib.

Maqola yozishda hajmini cheklashga o‘rganing. Katta hajmdagi ma‘lumot o‘quvchilarni jalb qilmaydi. Agar mavzu yetarlicha keng qamrovli bo‘lsa, maqolani ikki yoki undan ortiq qismlarga bo‘ling. Nashr etish vaqtida oldingi yoki keyingi maqolalarga yo‘naltirish mumkin. Shu yo‘l bilan siz o‘quvchilarning qiziqishini saqlashingiz mumkin.

Maqolada yumordan foydalanish o‘rinlidir. Biroq hazil o‘rinli va ko‘pchilik o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lishi lozim.

Maqola yozish quyidagi qoidalarga amal qilinsa samarasi ijobiy bo‘ladi.

1. ob'ektni tasavvur qila olishi;
2. maqolaga sarlavhani to‘g‘ri tanlash;
3. ortiqcha, tushunarsiz so‘zlarni ishlatmaslik;
4. maqolaning hajmiga ahamiyat berish.
5. to‘g‘ri va tushunarli yozish.
6. oxirgi jumlagacha e‘tibor qaratish.
7. maqolada faktlar ko‘proq bo‘lishi e‘tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

18-mavzu. TABIAT VA INSON.

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma‘nosini izohlash. Matnni ijodiy so‘zlash.

Yozma nutq: Dunyoda va O‘zbekistonda mavjud ekologik muammolar haqida esse yozish. “Orol fojiasi” mavzusida taqdimot tayyorlash. O‘zbekiston ekologik harakatining faoliyati to‘g‘risida ma‘lumot tayyorlash.

Grammatika: Intervyu olish va intervyu berish qoidalari.

Tayanch so‘z va iboralar: tabiat, inson, tabiat muhofazasi, orol muammosi, ekologik muammo, intervyu, intervyu olish, intervyu berish.

TABIAT MUHOFAZASI – MUQADDAS BURCH!



Har bir inson ona zamin quchog‘ida ulg‘ayar ekan, zimmasiga bir qancha muqaddas burch va shu tuproqqa mas‘ullik hissi yuklangandir. Atrof- muhitni, aziz ne‘matlarni asrab-avaylash, unga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, sevis va ardoqlash har kishining ham insoniy ham fuqaroviy ajralmas burchidir. Tabiat muhofazasi esa ana shunday ezgu maqsadlarning eng ulug‘idir.

Bu burch insonning atrof-muhitga salbiy ta‘siri yuzaga kelgan uzoq o‘tmishdan yaxshi ma‘lum. Tabiatni muhofaza qilish deganimizda hozirgi va kelgusi avlodlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni musaffo holida saqlashga qaratilgan, ilmiy asosda amalga oshiriladigan mahalliy, davlat va xalqaro tadbirlar majmui tushuniladi.

Ekologiyani saqlashning asosiy vazifalari resurslardan oqilona foydalanish, chiqindisiz ishlab chiqarishni joriy etish, tabiatni ifloslanishidan saqlash, salbiy o'zgarishlarni bashorat qilish, ularning oldini olish, hozirda yo'qolib borayotgan o'simlik va hayvon turlarini muhofazasiga jiddiy e'tibor qaratishdan iboratdir.

Tabiatni muhofaza qilishning tarixi bir necha ming yilga borib taqaladi. Bunga misol qilib, Vavilon davlatining bundan 4 ming yil oldin o'rmonlarni muhofaza qilish sohasida choralar ko'rilganligi, bu choralarni buzgan kishilar qattiq jazolanganligini va hatto o'limga mahkum qilinganligini aytish mumkin.

O'rta asrlarda yashab ijod etgan buyuk bobokalonlarimiz Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqalar tabiiy fanlarning rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash, asrab-avaylash haqida o'zlarining qimmatli fikrlarini aytganlar.

Buyuk alloma Muhammad Muso al-Xorazmiy bobomiz o'z risolalarining birida shunday yozadi:

“Bilingki, daryoning ko'zlari yoshlansa, uning boshiga kulfat tushgan bo'ladi. Odamlar, daryodan mehringizni darig' tutmanglar”...

Mutafakkirlarning fikricha, tarixga ikki xil nuqtai nazardan yondashilgan. Ularning biri – tabiat, ikkinchisi – insoniyat tarixidir. Lekin ular uzviy bog'liq, o'zaro aloqador. Chunki, inson boshqa tirik jonzotlardan tubdan farq qiladi. Inson moddiy va ma'naviy madaniyati o'rtasidagi uyg'unlik tarixiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchidir. Umuman olganda, moddiy va ma'naviy rivojlanish bosqichlari tabiatni muhofaza qilish ehtiyoji bilan to'qnash bo'lib kelgan.

Biroq bu muammoga alohida e'tibor XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida vujudga keldi. 1864-yili AQSHda J.Marshning “Inson va tabiat” kitobi chop etildi. Unda tabiatni muhofaza qilishning zarurligi haqida dastlabki fikrlar berilgan. 1910-yili Shvetsariyada yevropadagi birinchi tabiatni muhofaza qilish jamiyati tuzilgan. 1913 yili Bernda tabiatni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro Kengash chaqirilgan. 1948-yilda esa tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi tuzilgan. Bu harakatlar XX asrning ikkinchi yarmida ayniqsa kuchaydi. O'zbekistonda tabiatni ilmiy asosda muhofaza qilish amalda 1920-yildan kuchaytirila boshlandi.

Bu o'z navbatida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ulkan maqsadli rejalar tuzilishi va ko'plab natijalarga erishuvga sabab bo'ldi.

Ayniqsa, ekologiyaning davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgani, shuningdek, har bir hududlarda aholi o'rtasida olib borilayotgan turli tadbirlar, barcha ta'lim muassasalarida yoshlar o'rtasida o'tkazilayotgan seminar treninglar, davra suhbatlari o'quvchilar ongida ona tabiatga bo'lgan muhabbatni mustahkamlashga, ular ongida ekologik ta'lim-tarbiyaning taraqqiy topishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

OROL MUAMMOSI SABABI NIMADA?

Orol dengizi O'rta Osiyoda joylashgan yopiq suv havzasi. Shimoldan Qozog'iston, janubdan Qoraqalpog'iston yerlari bilan o'ralgan.

1960-yillargacha maydoni 68 000 kv km bo'lib, dunyoda kattaligi bo'yicha Kaspiy dengizi, Yuqoriko'l (Lake Superior, AQSH) va Viktoriya (Lake Victoria, Afrika)dan keyin to'rtinchi ko'l bo'lgan.

Orol dengizida 300 dan ortiq orollar bo'lib, ulardan eng kattasi Ko'korol, Возрождение, Borsakelmas bo'lgan.

Orol dengizi sathi 1960-yillardan boshlab kundun-kunga pasayib bormoqda. Hozirgi kunda uning sathi yiliga 80 – 110 smga kamaymoqda.

Natijada Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimlarida suvning sifati yomonlashib, ichish uchun yaroqsiz holga keldi. Ekologik tizim, o'simlik va hayvonot dunyosi katta zarar ko'rdi.

Orol dengizining qurishiga asosan quyidagi ikki sabab keltiriladi:

1. Sug'orish ishlari. 1960-yillardan boshlab yangi yerlarning ko'p miqdorda o'zlashtirilishi natijasida sug'orish uchun katta manbalar talab qilina boshladi. Orol dengizi ana shunday manbaga aylandi.

2. Turkmanistonda Qoraqum kanalining qurilishi. 1959—1967-yillarda qurilgan bu kanal Amudaryodan bir soniyada 300 metr kub suv olgan. Kanal o'zanida 3 ta yirik suv ombori ham qurilgan. Suvning sarflanishi ko'payib, suv balansi yo'qolgan.

Ekologik oqibatlar

- Orolning qurishi iqlimga o'z ta'sirini o'tkazdi: avvalgi qirg'oq chizig'idan 100 kmgacha bo'lgan hududda iqlim yanada kontinental tus oldi. Endi yoz quruqroq va issiqroq, qish esa yanada sovuq va davomiy xususiyat kasb etdi;

- Qurib qolgan dengiz tubidan yaqin oradagi hududlarga tarkibida tuz va turli kimyoviy moddalar bo'lgan chang tarqalmoqda;

- Baliqchilik xo'jaligi barbod bo'lib, ishsizlik darajasi oshdi;

- Turli kasalliklar, jumladan, kamqonlik, saraton, sil va turli allergik kasalliklar ko'paydi. Onalar va bolalar o'limi darajasi oshdi.

Muammoga turlicha yechimlar taklif qilingan. Shulardan biri 2003—2005-yillarda Qozog'iston tomonidan amalga oshirilgan. Kichik va Katta Orolni ajratib turuvchi damba qurilib, endi Sirdaryodan oqib kelayotgan suv Kichik Orolga to'plana boshladi. Suv sathi oshib, sho'rlik kamaydi. Biroq bu Orolning janubiy qismi zarariga bo'lmoqda. Ayni paytda Orol masalasi global muammo sifatida butun dunyo olimlari tomonidan o'rganilmoqda. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, suvning yuzasi kichrayib ketgani uchun, bug'lanish ham o'z-o'zidan kamaygan.

Orol muammolarini bartaraf etish yo'lidagi xalqaro hamkorlik

Toshkentda 2012-yil 12-mart kuni Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan "Orol muammolari, ularning aholi genofondi, o'simlik va hayvonot olamiga ta'siri hamda oqibatlarini yengillashtirish uchun xalqaro hamkorlik chora-tadbirlari" mavzuidagi xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi.

Konferensiyada dunyoning 20 dan ortiq davlati, jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlari, Germaniya, Gretsiya, Isroil, Hindiston, Xitoy, Niderlandiya, Rossiya, Yaponiya va boshqa davlatlardan, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlardan, moliya institutlaridan vakillar, ekologiya, iqlim o'zgarishi hamda suv resurslarini boshqarish sohasi bo'yicha taniqli olimlar va mutaxassislar ishtirok etdi.

Bugungi kunda sayyoramizda millionlab odamlar toza ichimlik suvi taqchilligidan aziyat chekmoqda. Bu iqlimi quruq mamlakatlarda ayniqsa yaqqol sezilmoqda. Orolbo'yida ekologik vaziyatning yomonlashishi mintaqada ekotizim muvozanatining buzilishiga olib keldi, suv resurslari taqchilligini kuchaytirdi. Bu esa mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining turmush sharoiti va sog'ligiga, biologik xilma-xillikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Binobarin, ushbu muammo mintaqada davlatlari hamda xalqaro tashkilotlar hamkorligini kuchaytirishni taqozo etmoqda.

Xalqaro anjuman ochilishida so'zga chiqqan Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT) bosh kotibi Bolat Nurgaliyev, MDH Ijroiya qo'mitasi raisi Sergey Lebedev, Osiyo taraqqiyot bankining Markaziy va G'arbiy Osiyoda qishloq xo'jaligi va tabiiy resurslar bo'yicha departamenti direktori Katsuji Matsunami, Jahon bankining Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha mintaqaviy idorasi direktori Annet Dikson, Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining Salomatlik dasturlari bo'yicha mintaqaviy direktori Nedret Emiro'g'li, YUNISEFning sog'liqni saqlash va ovqatlanish masalalari bo'yicha mintaqaviy maslahatchisi Sanjiv Kumar, YUNFPAning Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha mintaqaviy direktori Alen Mushiru, YUNIDOning Yevropa va MDH davlatlari bo'yicha mintaqaviy byurosi direktori Gjegosh Donochik, Yaponiyaning Xalqaro hamkorlik agentligi mintaqaviy idorasi boshqaruvchi direktori o'rinbosari Matsuyoshi Kawasaki, GEJ/BMTRD ijrochi muvofiqlashtiruvchisi Yanik Glemarik ana shularni alohida ta'kidladilar.

Orol dengizi qurishi bilan bog'liq ekologik inqirozning asosiy sabablari avvalgi davrlarda o'ylamasdan amalga oshirilgan xo'jalik faoliyati, iqlim o'zgarishi va boshqa tabiiy jarayonlar bilan bog'liq. Oqibatda Orol dengizi sathi keyingi ellik yil ichida 4 baravardan ko'proqqa qisqardi, suv 24 metrga pasaydi, uning hajmi 10 martaga kamaydi.

Yurtboshimiz jahon hamjamiyati e'tiborini yuzaga kelgan vaziyatni yaxshilash uchun kompleks chora-tadbirlar ko'rish, birinchi navbatda, mintaqa davlatlari tomonidan Orol dengizi havzasidagi cheklangan suv resurslarini bu yerda joylashgan barcha mamlakatlar manfaatlarini va ekologik talablarni hisobga olib, hamkorlikda, o'zaro kelishilgan holda boshqarishni tashkil etish zarurligiga qaratib keladi. Prezident Islom Karimov SHHTga a'zo davlatlar rahbarlarining 2007-yil avgustda Bishkekda bo'lib o'tgan majlisidagi ma'ruzasida mintaqa transchegara suv oqimlaridan foydalanish bo'yicha O'zbekistonning yuqoridagi tamoyillarga asoslangan nuqtai nazarini aniq bayon qilgan edi.

O'zbekiston istiqboliga erishgandan keyingi dastlabki yillarda Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasini va mintaqaning ikkita tuzilmasi – Barqaror rivojlanish bo'yicha davlatlararo komissiya va Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xo'jaligi komissiyasini tashkil etishning tashabbuskorlaridan bo'ldi. Markaziy Osiyoning besh davlati rahbarlari tomonidan 1993-yilda Orol muammolarini hal etish, Orol mintaqasini ekologik sog'lomlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir birgalikdagi sa'y-harakatlar to'g'risidagi bitim, 1995-yilda Markaziy Osiyo mamlakatlarining ushbu sohada hamkorlikni kengaytirishni ko'zda tutgan Nukus deklaratsiyasi imzolandi.

O'zbekistonda ekologik bo'hron oqibatlarini yengillashtirish masalasi davlat darajasida, kompleks ravishda hal etilmoqda. Tabiiy resurslardan foydalanishni va atrof-muhitni himoya qilish faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar qabul qilingan. Mamlakatimiz ushbu sohada asosiy xalqaro hujjatlarga, jumladan, Transchegara suv oqimlari va xalqaro ko'llarni himoya qilish hamda ulardan foydalanish konvensiyasiga qo'shilgan. Orolbo'yi hududiga kiradigan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatini umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamlil dasturlar izchil amalga oshirilmogda.

Bundan tashqari, Orol dengizi mintaqasidagi hududlarning ekologik ahvolini yaxshilash, yer yemirilishining oldini olish va qishloq xo'jaligi salohiyatini oshirish, aholini sog'lomlashtirish, suv bilan ta'minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik, xalq hunarmandchiligini rivojlantirish orqali qo'shimcha daromad olish uchun shart-sharoit yaratish bo'yicha qator maqsadli loyihalar bosqichma-bosqich ro'yobga chiqarilmogda. Bunda aholini, birinchi navbatda, xotin-qizlar va bolalarni ijtimoiy muhofaza qilishni kengaytirishga alohida e'tibor berilmogda. O'nlab zamonaviy ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalari barpo etilgan.

Orolning qurigan qismida qum ko'chkilarini qotirish, qurg'oqchilik va sho'rlanishga chidamli o'simliklar ekish hisobidan bu yerlarni o'zlashtirish borasida katta ishlar amalga oshirilmogda. Bu esa avval foydalanilmagan hududlardan yaylov sifatida foydalanish, pirovardida chorvachilikni rivojlantirish imkonini beradi. Amudaryoning delta hududida suv maydoni 150 ming gektardan oshadigan suv havzalari tashkil etilmogda. Bu yerda baliqchilik xo'jaliklari ish boshladi. Bularning barchasi mintaqani iqtisodiy rivojlantirishga, aholi bandligini oshirishga, bioxilma-xillikni tiklash va iqlimni yaxshilashga yordam beradi.

Ko'plab xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT tarkibidagi agentliklar, moliya institutlari – Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqalar ham Orolbo'yidagi vaziyatni barqarorlashtirishga ko'maklashmogda. Masalan, Global ekologik jamg'arma ko'magida Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasining Nukus filiali tomonidan 22 loyiha ishlab chiqilib, ularning aksariyati amalga oshirildi.

Ta'kidlanganidek, Orolbo'yidagi ekologik inqiroz bilan bog'liq ko'pgina muammolarni bir mamlakatning sa'y-harakatlari bilan hal etib bo'lmaydi. Shu bois, Orol havzasi suv resurslarini boshqarish va foydalanish tizimini mavjud davlatlararo bitimlar doirasida takomillashtirish lozim. Bunday hamkorlikni umume'tirof etilgan xalqaro me'yor va qoidalarni hisobga olgan holda rivojlantirish zarur. Mintaqadagi barcha davlatlarning transchegara suv oqimlari va

ko'llarni himoya qilish, ularning suv resurslaridan foydalanish bo'yicha xalqaro hujjatlarga qo'shilishi ham bu boradagi ishlarga ko'maklashadi.

Topshiriqlar:

1. Matndagi qisqartmalarni kengaytirib yozing.
2. Matn bo'yicha tezis tayyorlang va u asosida Orol muammosini gahirib bering.
3. Siz reshublikamizda yana qanday tabiat muammolarini bilasiz? Dunyoda-chi?

Lug'at

ekologik harakat – экологическое движение

tabiat muhofazasi – охрана природы

muvozanat – равномерность

asrab – авaylash – оберегать

xalqaro kengash – международный Совет

suv havzasi – водный бассейн

ishsizlik darajasi – уровень безработницы

kamqonlik – малокровие

ijtimoiy-iqtisodiy – социально-экономический

saraton – рак

- Vazifa:**
1. “Tabiat va inson” mavzuida ilmiy nutq yozing.
 2. “Ekologik muammolar” bo'yicha “Klaster” tuzing.

Topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Не только польза, но и красота.

Красота природы! Это и неповторимая прелесть лесного уголка, и удивительная окраска полевого цветка, и тишина заросшего пруда, и грациозность лани. Художники и писатели, открывая в повседневном вечное, дают возможность людям по – новому увидеть, оценить и полюбить красоту природы. А любовь к природе – это и любовь к Родине, к месту, где ты родился, где прошли детские годы.

Какими яркими красками природа одарила Узбекистан! Ранней весной глаз не оторвёшь от цветущих садов, долин, покрытых сплошь красными тюльпанами.

GRAMMATIKA: INTERVYU OLISH VA INTERVYU BERISH QOIDALARI.



INTERVYU *inglizcha* interview — uchrashuv, yuzma-yuz suhbat ma'nolarini anglatadi. Jurnalistika janri; matbuot, radio yoki televideniya da berish uchun muxbirning biror shaxs bilan o'tkazgan suhbat va shu suhbatning matni.

YOSHLARNING HAYOTIY FALSAFASI VA MO'LJALLARI

Topshiriq: Quyidagi matndan foydalanib, intervyu uchun savollar tuzing.

Hozirgi yoshlar mustaqillik davrida yashayapti, yurtimizda va jahonda yuz berayotgan evrilishlar ularning hayotiy falsafasi va mo'ljallariga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Lekin davr o'zgarishlariga biror ma'no-mazmun yuklash yoshlarning ong-tafakkuri, dunyoqarashi, hayot tarzi orqali ham sodir bo'ladi.

Yoshlikning hayotiy falsafasi va mo'ljallari – ilm-fan sirlarini o'rganish, biror-bir kasbni puxta egallash, mamlakat oldida turgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish maqsadlarini amalga oshirishda faol ishtirok etib, o'zining munosib

hissasini qo'shish bilan xalqqa, Vatanga xizmat qilishdan iborat bo'lmog'i lozim. Buni yoshlarimiz qancha erta anglab yetsa, unga erishish imkoniyati shuncha yuqori bo'ladi.

Yoshlik – maqsadga erishishda muhim bosqich. Umumta'lim maktablarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari yoki oliy o'quv yurtlarida bilim olayotgan yoshlarning hayotiy falsafasi va mo'ljallari to'g'ri shaklangan bo'lishi mamlakat taraqqiyoti nuqtai nazaridan strategik ahamiyatga ega. Buni har bir yosh aniq his etishi kerak.

Yoshlik – ilm-fan sirlarini bilish, kasb-hunar egallash davri. Buning uchun har bir yigit-qiz o'zining qiziqishi, bilim va salohiyatini hisobga olib keyingi mustaqil hayot yo'lini mas'uliyat bilan belgilab olishi kerak. Maqsadga erishish uchun xohish-istak, fidoyilik, sabr-qanoat, qat'iyat, iroda ham zarur bo'ladi.

Hayotiy mo'ljal nima?

Yoshlar hayotiy mo'ljallarini to'g'ri belgilab olishi nafaqat o'zlarining, shuningdek, oilasi, qarindosh-urug'lari, mahalla-ko'y... boringki, xalqi va Vatanining taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Birinchidan, yoshlarning hayotiy falsafasi va mo'ljallarining ilk yoshlik davridan to'g'ri shakllanishi, ularning milliy-madaniy meros hamda davr o'zgarishlari va demokratik tamoyillar bilan mos bo'lishi ta'lim-tarbiya sohasidagi ustuvor vazifadir.

Ikkinchidan, yoshlarning hayotiy falsafasi, mo'ljallarining to'g'ri shakllanishi nafaqat ularning o'zlariga, ayni paytda, boshqa ko'pgina shart-sharoit va omillarga bog'liq.

Uchinchidan, yoshlarning hayotiy falsafasi va mo'ljallarini to'g'ri belgilab olishi faqat o'zlarining kelajagi emas, ayni paytda, mamlakat kelajagiga ham daxldor masaladir.

To'rtinchidan, hayotiy falsafa va mo'ljallar ezgu maqsadlar, yuksak ma'naviyat, millatning kelajagi, orzu-umidlari bilan hamohang bo'lishi yoshlarga qanot bag'ishlaydi.

Beshinchidan, yoshlar hayotiy falsafasini, mo'ljallarini to'g'ri belgilab olishida yoshi ulug'lar, murabbiylar, har bir kishi mas'ul. Bu fuqarolik burchi va mas'uliyatining o'zagidir.

Oltinchidan, yoshlikning hayotiy falsafasi va mo'ljallari mazmun-mohiyatida ilm o'rganish, bilim olish, kasb-hunarni egallash mujassamlashadi. Shu orqali yoshlar ijtimoiy hayotida o'z o'rnini va mavqeiga ega bo'lib, mamlakat taraqqiyotida hal qiluvchi kuchga aylanadi.

ELEKTRON VA AN'ANAVIY KITOB: mutolaada imkoniyatlar tafovuti.

Topshiriq: Quyidagi matnni o'qing va 2 guruhga bo'linib va fikringizni “Elektron kitob” va “an'anaviy kitob”ning afzalliklari va kamchiliklari bo'yicha “T - jadval” asosida tahlil qiling.

Oddiy kitobxon sifatida elektron shakldagi asarlarni mutolaa qilishga o'rganib qolyapman. So'nggi paytlarda esa shunday kitoblarni o'qish davomida kuzatiladigan yangicha stereotiplarga qiziqqa boshladim. Hech o'ylab ko'rganmisiz, kitoblarni elektron shaklda o'qish jarayonida uning asl ma'no-mazmunida yo'qotishlar kuzatilmikini, bunda asar mohiyati to'laligicha saqlanadimi?

Ushbu savol monitor, ekranda kitob o'qish ommalashayotgan hozirgi kunda har bir kitobxonni qiziqtirsa ajab emas. Shunday ekan, aslida, elektron kitob an'anaviy turdagisining o'rnini bosolmaydi degan qarashlar haqiqatga qanchalik yaqin?

Boshqalarning ta'kidlashicha, oddiy kitobni qo'lda ushlab (ayniqsa, bosmaxonadan endi chiqqan bo'lsa), uning o'ziga xos bo'yoq hidini tuygan holda o'qiganga nima yetsin! Qolaversa, qog'oz kitobni mutolaa qilish kompyuter ekranida o'qishga nisbatan zararsiz, sababi, bunda ko'zlar kamroq zo'riqadi. O'z navbatida, qog'oz kitoblar vaqti kelib eskiradi, yaroqsiz holga keladi, elektron shakldagi kitoblarni esa, aksincha, uzoq muddat saqlash mumkin.

Mutolaada mazkur ikki jihatning ustunlik va kamchiliklari borasidagi qarashlar yana qanchadan-qancha. Chunki har bir mutolaa ishqibozi o'zining ehtiyoji va didiga qarab mazkur masalaga individual yondashadi. Ammo xulosa oydin: munozara yuzaga keldimi, demak, kitob o'rniga kompyuter yoki boshqa texnika yutuqlaridan foydalanganimizdamutolaa hissi

yo‘qolmaydimi degan savolga javob izlashning, masalaga chuqurroq nazar tashlashning fursati yetdi.

Topshiriq. *Ta’riflarni moslashtiring.*

1. Bir guruh jurnalistlar tomonidan olib boriluvchi intervyu	A. “davra stoli”dagi suhbatni yozib olishni anglatadi
2. Jamoaviy intervyu	B. birinchi navbatda, yangilik to‘g‘risida xabar berishni maqsad qilib qo‘yadi, shu bois suhbatdosh faqat axborot manbayi sifatida namoyon bo‘ladi
3. Dialog shaklidagi intervyu	C. Jurnalist suhbat mazmunini suhbatdoshining fikri sifatida bayon qiladi, o‘zi esa ko‘rinmaydi.
4. Monolog shaklidagi intervyu	D. Buda jurnalist ikki intervyu berayotgan kishining suhbatini boshqaradi. Jurnalist o‘zi qatnashmasligi mumkin
5. Axborot intervyu	E. Bunga matbuot uchun savollar, press-konferensiya, brifing kiradi. Jurnalist eshitganlarini o‘zining qaysi ommaviy axborot vositalari turiga mansubligidan kelib chiqib qayd etadi, biroq shaxsiy fikr-mulohazalarini oshkor qilmaydi.

II SEMESTR (bahorgi)

№	Mavzular nomi	Soatlar			
		Jami	Ma'-ruza	Ama-liy	Mus-taqil
1	Inson va salomatlik. Reportaj tayyorlash. Yordamchi soʻz turkumlari. Koʻmakchi.	8		2	6
2	Huquqiy madaniyat. Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlari. Bogʻlovchi.	2		2	
3	Oʻzbekistonda oliy taʼlim. Uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf soʻzlar. Yuklama.	2		2	
4	Ilm maskanimiz hayotidan. Alohida olingan soʻzlar. Undov va taqlid soʻzlar. Modal soʻzlar.	2		2	
5	Boʻlajak kasbim. Matn va uning turlari. Gapda soʻzlarning bogʻlanishi.	8		2	6
6	Hayot mening tasavvurimda. Dialogik matnning maʼno munosabatiga koʻra turlari. Soʻz birikmasi sintaksisi.z	2		2	
7	Ustoz maktabi. Monologik matn. Monologik matnda mazmun izchilligi va ohang.	2		2	
8	Kasbim tarixi. Soha lugʻatlari. Ularda terminlar va birikmalarning berilishi.	2		2	
9	Iqtidor va mehnat. Matnga soʻz va termin tanlash. Gap boʻlaklari. Bosh boʻlaklar.	2		2	
10	Yetuk mutaxassis. Matn tahlili va tahriri. Ikkinchi darajali boʻlaklar.	2		2	
11	Kasb bayrami. Matn mazmunining qisqacha bayoni (rezume), uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.	2		2	
12	Sharq akademiyalari. Referat matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.	8		2	6
13	Ilm sari yoʻl. Taqriz matni. Ularning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari. Uyushiq boʻlaklar.	8		2	6
14	Kasb etikasi. Xizmat koʻrsatish madaniyati. Annotatsiya matni. Ularning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.	2		2	
15	Nutq odobi. Meʼyor tushunchasi.	2		2	
16	Sanʼat va maʼnaviyat. Umumxalq leksikasiga kirgan sanʼatshunoslik terminlari. Undalmalar.	8		2	6

17	Men sevgan asar. Badiiy tasvir vositalari. Kiritmalar.	8		2	6
18	Kimyo sanoati va hayot. Umumxalq leksikasida kimyoviy atamalarning ishlatilishi.	2		2	
19	Ish yuritish tili va uslubi. “Hujjatlar tarixi” navzusida matn. Ish yuritish terminlari.	2		2	
20	Hujjat turlari va xususiyatlari. Ish yuritish hujjatlari ro‘yxati. Ularni “Klaster” shaklida tasniflash.	2		2	
21	Tashkiliy hujjatlar va ularning turlari. Tashkiliy hujjatlarning vazifasi. Tashkiliy hujjat turlari, ularning leksik va stilistik xususiyatlari.	2		2	
22	Farmoyish hujjatlari va ularning turlari. Farmoyish hujjatlarining vazifasi. Ularning turlari, leksik va stilistik xususiyatlari.	2		2	
23	Ma’lumot-axborot hujjatlari. Ma’lumot-axborot hujjatlarining vazifasi. Ularning turlari. Tarjimayi hol. Bildirishnoma. Tavsifnoma	2		2	
24	Ishonchnoma. Tilxat. Tushuntirish xati.	2		2	
25	Dalolatnoma. Ma’lumotnoma.	2		2	
26	Majlis bayoni. Hisobot.	2		2	
27	Xizmat yozishmalari. Xatlar.	2		2	
	Jami	90		54	36

19-MAVZU. INSON VA SALOMATLIK

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so‘zlash. Mavzu bo‘yicha bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq: “Salomatligimiz o‘z qo‘limizda” mavzusida esse yozish. Jahon meditsinasi yutuqlari haqida taqdimot tayyorlash. Salomatlik haqidagi o‘zbek xalq maqollaridan namunalar yozish. Mehnat xavfsizligi qoidalarini tuzish.

Grammatika: Reportaj tayyorlash. Yordamchi so‘z turkumlari. Ko‘makchi.

Tayanch so‘z va iboralar: *salomatlik, “Tib qonunlari”, tabobat, dirivor o‘simliklar, reportaj, reportyor.*

Авиценна

Творческое наследие великого философа, врача и поэта Абу Али ибн Сина, получившего широкую известность в Европе под именем Авиценны, огромно.

Авиценна – автор медицинской эмблемы: змея, обвивающая кубок. На протяжении почти 10 веков служит она во всем мире символом исцеляющих сил.

В течение почти 600 лет врачи как на Востоке, так и на Западе, воспитывались по книге «Канон врачебной науки».

В XV веке после изобретения печатного станка он выдержал 16 изданий, а полностью переиздавался более 40 раз.

Нет, пожалуй, области знания, где бы не оставил следа великий ученый: физика и химия, геология, ботаника и зоология, математика и музыка, философия и медицина, военное дело и др. «Шейх-ур-раис» – называли Ибн Сину на Востоке, «князь врачей и философов» - на Западе, «наставник ученых» – во всем мире.

В 1980 году весь научный мир широко отметил 1000 летний юбилей Авиценны. В 2020 году Авиценне исполнится 1040 лет.

Topshiriqlar:

1. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.
2. AbuAli ibn Sino haqida yana nimalarni bilasiz? Bu haqda yozing.
3. Abu Ali ibn Sino o‘zining tib qonunlarida kasalliklarni shifobaxsh o‘simliklar yordamida davolashni aytib o‘tgan. O‘zbekistonda ham juda ko‘p dorivor o‘simliklar o‘sadi. Bu haqda quyidagi matnda o‘qing va shifobaxsh o‘simliklar haqida o‘z bilganlaringizni so‘zlab bering.

Dorivor o‘simliklar

O‘zbekistonda juda ko‘p dorivor o‘simliklar o‘sadi. Ularning 500 dan ortiq turi qadimdan turli kasalliklarni davolashda, oldini olishda qo‘llanib kelinadi. Ayni vaqtda ilmiy tibbiyotda ularning faqat 100 dan ortig‘idangina foydalanilmoqda.

O‘simliklardan sof holda ajratib olingan kimyoviy birikmalar ba‘zan tirik organizmga kuchli ta‘sir qiluvchi zaharli biologik faol moddalar bo‘lishi mumkin. Masalan, kuchala, parli isiriq, sariqgul, omon-qora, afsonak, eshakmiya, qizilcha (efedra) va boshqalar zaharli o‘simliklar hisoblanadi. Lekin shu bilan birga, bir qancha aslida ovqatga ishlatiladigan o‘simliklardan shifobahsh vosita sifatida foydalansa bo‘ladi. Quyidagilarni bunga misol qilib keltirish mumkin: anor, anjir, behi, kashnich, shovul, garmdori, zig‘ir, murch, turli xil moylar va boshqalar. Keyingi 4-5 yil ichida 10ga yaqin yig‘ma holdagi fitopreparatlar tibbiyot amaliyotida turli xil kasalliklarni davolash uchun ishlatilmoqda.

Abu Ali ibn Sino

Matn mazmunini aniqlashtiruvchi o‘z savollaringizni tuzing. Bu mashhur shaxs haqida yana nimalarni bilishni istardingiz?

Abu Ali Husayniy ibn Abdulloh ibn Sino 980-yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog‘ida tug‘ildi. Bu qishloq hozir Isfana deb ataladi. Otasining ismi Abdulloh, onasining ismi Sitorabonu edi. U to‘qqiz-o‘n yoshlarida Qur‘onni yod olgan. O‘n olti yoshida o‘sha davrdagi Buxoro hukmdori shoh ibn Mansurni davolab shuhrat qozongan. U o‘n sakkiz yoshida o‘zigacha yaratilgan bilimlarni egallab olgan edi. U yigirma yoshida buyuk olim Abu Rayon Beruniy bilan yozishmalar olib bordi. Xorazm Ma‘mun akademiyasiga borib, u yerda buyuk olim bilan ilmiy bahslar yuritdi. U yetti yil Xorazmda yashadi va ijod qildi, keyinchalik Sharq mamlakatlariga ketishga majbur bo‘ldi.

Abu Ali ibn Sino ellik yeti yillik umri davomida 280dan oshiq asarlar yozdi, ulardan 160tasi bizgacha yetib kelgan. Bu asarlar falsafa, tibbiyot, mantiq, adabiyot, musiqa, ilohiyot, pedagogika va fanning boshqa ko‘plab sohalariga oid edi.

Abu Ali ibn Sinoning eng mashhur asari “Al Qonun fit-tib” (Tib qonunlari) deb ataladi. Bu asar beshta kitob, o‘n to‘rt jilddan iborat. Uning yana bir mashhur asari “Tibbiy doston” (Urjuzalar) she‘riy usulda, aruzda yozilgan. “Fan ash-she‘r” asari esa adabiyotshunoslikka oid, ya‘ni she‘r ilmiga bag‘ishlanadi.

Uning “Solomon va Absol”, ”Yusuf qissasi”, “Hayy ibn Yaqzon”, ”Risalat ut tayr” asarlari badiiy adabiyotning durdonalari sanaladi. Abu Ali ibn Sinoning tibbiyotga oid asarlari Yevropa universitetlarida 600 yildan oshiqroq vaqt davomida asosiy darslik vazifasini bajarib kelgan.

Tilshunoslar “Meditsina” atamasi “Madadi Sino” soʻzidan kelib chiqqanligini eʼtirof etadilar. Qomusiy olim, buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sinoning qoldirgan merosi ming yildan oshiq butun dunyo ahliga xizmat qilib, butun insoniyatni hayratlantirib kelmoqda.

Buyuk olim Ibn Sino asarlaridan olingan salomatlik haqidagi fikrlarni tarjima qiling, ularni sharhlang.

Odamning salomatligi tashqi sharoit bilan chambarchas bogʻlangan.

Agar havoda chang va tutun boʻlmaganda edi, kishi ming yil yashagan boʻlar edi.

Jismoniy mashqlar bilan doimo moʻtadil shugʻullanib borgan kishi hech qanday davoga muhtoj boʻlmaydi.

Ibn Sino bola tarbiyasi haqida.

“Bola boshidan” hikoyatini oʻqing va hikoyat mazmuni boʻyicha savollarga oʻzbek tilida javob bering. Bu savollar bilan kursdoshlaringizga murojaat eting.

Hikoyat mazmunini oʻzbek tilida qisqacha soʻzlab bering.

Ibn Sino qishloqda yashab, tabiblik qilar ekan. Kunlardan bir kun shu qishloqlik bir yigit bilan bir qiz turmush qurishibdi. Ular yaxshi hayot kechirishibdi, oradan toʻqqiz oy-u toʻqqiz kun, toʻqqiz soat-u toʻqqiz daqiqa oʻtgach, farzand koʻrishibdi. Ular bir oz vaqtdan soʻng bir-biriga maslahat qilishibdi: – Bolamizni qanday tarbiya qilamiz? Uni shunday tarbiya qilaylikki, katta boʻlganida el-yurtga foydasi tegadigan chin inson boʻlsin, – debdi eri.

– Toʻgʻri aytasiz, – debdi xotini, – men ham shuni oʻylab oʻtirgan edim.

– Yaxhisi, Ibn Sinodan soʻrab qoʻyaylik. Bu gap eriga maʼqul tushibdi.

Er-xotin bolani koʻtarib, Abu Ali ibn Sinonikiga kelishibdi. U bir kichik, tor kulbada yashar, shunday boʻlsa-da, dongʻi olamga ketgan olim ekan.

Abu Ali ibn Sino er-xotinni yaxshi kutib olibdi. Nima ish bilan kelganliklarini soʻrabdi.

– Bolamizning tarbiyasi haqida bizga maslahat bersangiz. Toki katta boʻlgach, el-yurtga foydasi tegadigan boʻlsin, – debdi eri.

– Qachon tugʻildi? – deb soʻrabdi Ibn Sino.

– Erta bilan tugʻildi, erining oʻrniga xotini javob beribdi.

– E ... azizlar, – debdi Ibn Sino, bola erta tongda tugʻilgan ekan, hozir choshgoh boʻldi, kechikibsizlar. Bola tugʻilishi bilan uning tarbiyasi haqida qaygʻurish kerak. ”Niholni boshdan, bolani yoshdan” – deb, bekorga aytishmagan, axir.

“Allomalar ibрати” Malik Murodov.

3. Tabobatga doir quyidagi hadislarni tarjima qiling.

**Примеры из хадисов
Hadislardan namunalar**

Surma koʻzni ravshan qilib, kipriklarni oʻstiradi.

Safar qilinglar, sogʻlom va rizq-u nasibali boʻlasizlar.

Odam tanasida qorindan yomonroq idish yoʻqdir.

Aralashtirish tavsiya etilmaydigan 7 ta juft mahsulot

Hattoki, maktab oʻquvchisi ham bir vaqtning oʻzida sut va seld baligʻini isteʼmol qilish kutilmagan effekt berishi mumkin ekanini yaxshi biladi. Biroq bu juftlikdan boshqa ham qator mahsulotlar borki, ular bir-biri bilan unchalik “chiqishmaydi”. Agar ular birgalikda isteʼmol qilinsa, ovqatni hazm qilish tizimidagi tabiiy jarayonlarni buzishi va insonlarning oʻzlarini yomon his qilishlariga olib kelishi mumkin.

Ovqatlanish boʻyicha mutaxassislar tavsiyalariga koʻra birga isteʼmol qilinmasligi lozim boʻlgan mahsulotlar nomini keltirdi.

Buterbrod + qahva

Vaqt yo'qligida tez nonushta qilib olish deganda, pishloqli buterbrod va qahva ko'z o'ngimizga keladi. Bunda pishloqning barcha foydali xususiyatlari bir zumda yo'qoladi. Nonda bo'lgan oddiy uglevodlar kalsiyning singishiga hamda asab va yurak-qon tomir tizimiga foyda keltirishiga xalaqit beradi. Eriydigan qahva qo'shiladigan bo'lsa, bu jarayon umuman yo'qqa chiqadi.

Maslahat: Agarda, bu "juftlik"dan butunlay voz kechish mushkul bo'lsa, hech bo'lmasa qahvani ko'k choyga almashtirish kerak.

Pomidor + bodring

Pomidor va bodringdan tayyorlangan salat yozgi vaqtda ayniqsa juda ommabop va qariyb har bir stolda ko'zga tashlanadi. Biroq so'nggi tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bu sabzavotlarni aralashtirish organizmdagi biokimyoviy reaksiyalarni buzadi. Ortiqcha tuzlar, vaqt o'tishi bilan shishganlik paydo bo'ladi, foydali vitaminlar esa to'la hajmda olinmaydi.

Maslahat: Mahsulotlarni alohida iste'mol qilish kerak. Bugungi kechki ovqatingizda pomidor va ko'katlardan tayyorlangan salat bo'lsa, ertaga bodringlardan foydalaning.

Kartoshka + go'sht

Uyda tayyorlangan go'shtli kotlet va kartoshkani barcha yaxshi ko'rib iste'mol qiladi. Biroq bu organizm uchun juda og'ir bo'lgan "juftlik"dir. Kraxmal (kartoshka) hazm qilinishi uchun ishqorli, oqsil esa kislotali muhitni talab qiladi. Birgalikda ular oshqozonda juda uzoq vaqtga turib qoladi hamda turli yoqimsiz holatlarni beradi: me'da (jig'ildon) qaynashi, kekirish, gazlar yoki boshqa buzilishlar.

Maslahat: go'sht bilan kraxmali bo'lmagan sabzavotlar: rangli karam, brokkoli, yashil loviya, bargli ko'kat, sukini yaxshi "chiqishadi".

Grechka + sut

Marjumak (grechka)da temir, sutda esa – kalsiy moddasi bor. Ularni birlashtirsa superfoydali aralashma hosil bo'ladigandek go'yo. Ko'plar shunday qilishadi va nonushta yoki yengil kechki ovqatni tayyorlashda aynan shu mahsulotlardan foydalanishadi. Biroq temir va kalsiy "do'st" emas hamda bir biriga hazm bo'lishda xalaqit qiladi. Biz grechka va sutni bir vaqtda iste'mol qilib, ularning foydali xususiyatlarini yo'qotamiz. Natijada organizm bironta ham mikroelementni olmaydi.

Maslahat: Sutli mahsulotlar va temir moddasiga ega mahsulotlarni turli vaqtlarda iste'mol qiling

Makaronlar + qiyma

Qiymani makarondan ham yuqoridagi sabab tufayli voz kechgan ma'qul. So'lakdagi temir phtalin va amilaza fermentlarini chiqaradi, ular kraxmalga o'xshash uglevodlar (vermishel)ni oddiy shakarga buzib tashlaydi. Oqsilli mahsulotlar (go'sht)ning shakar qoplamasi xavfli birikmalarni keltirib chiqaradi, ular diabet va yurak-qon tomir kasalliklarining paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Maslahat: Pastani alohida taom sifatida qabul qilish va bug'doyning qattiq navlaridan bo'lgan makaron + ko'katlar hamda ziravorlardan tayyorlangan qaylada to'xtagan ma'qul.

Sutli mahsulotlar + ananas

Nordon mevalar hazm qilishni sekinlashtiradi hamda ertalab, ayniqsa, og'ir "ketadi". Bundan tashqari, ananas tarkibiga fermentli kompleks kiradi – sutli mahsulotlar bilan birgalikda organizmning zaharlanishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan bromelayn.

Maslahat: Ananasning o'rniga bargak yoki qora olxo'rini qo'shish lozim.

Sut + banan

Sut va banandan tashkil topgan “juftlik” tez tayyorlanadigan hamda foydali xususiyatlarga o‘ta mukkasidan ketganlar orasida mashhur bo‘lib ketgan. Biroq bu mahsulotlarning o‘zaro mos kelishi bo‘yicha bahslar hali ham davom etyapti. Mutaxassislarning fikricha, barcha mevalar, ayniqsa shirinlarini boshqa taomlardan alohida iste‘mol qilish kerak. Ular organizmda uzoq vaqt saqlanib qoladi, hazm bo‘lish jarayonini sekinlashtiradi. Sutni ham alohida iste‘mol qilgan ma‘qul.

Maslahat: Bananni asosiy taomlar oralig‘ida iste‘mol qilish kerak.

Lug‘at:

ijod	- творчество
mantiq	- логика
falsafa	- философия
nordon	- кислый
marjumaq	- гречка
birlashtirmoq	- объединять
iste‘mol	- употребление
maslahat	- совет
foydali	- полезный
hajm	- объём

- Vazifa: 1.** “Salomatligimiz o‘z qo‘limizda” mavzusida esse yozing.
2. Jahon meditsinasi yutuqlari haqida taqdimot tayyorlang.
3. Salomatlik haqidagi o‘zbek xalq maqollaridan namunalar yozing.

GRAMMATIKA: REPORTAJ TAYYORLASH. YORDAMCHI SO‘Z TURKUMLARI. KO‘MAKCHI.



Reportaj - bu ma‘lum bir vaqtda sodir bo‘lgan voqea haqidagi hikoya. Reportaj avvalo boshqa janrlardan turli harakatlarning, voqea detallarining va dinamikasining ko‘pligi bilan farq qiladi. Reportajni faktlar orqali suhbatlashish desa bo‘ladi. Reportaj tinglovchi yoki o‘quvchiga ma‘lum bo‘lmagan bironta yangilik haqida mukammal hikoya qilishdan iborat.

Reportaj so‘zi lotincha bo‘lib, yetkazib berish degan ma‘noni bildiradi. Reportaj voqea, hodisalarni bevosita, jonli aks ettiruvchi, tezkor yoritib beruvchi informatsion materialdir. Uning oddiy xabardan farqi shuki, xabarda hayotdan olingan fakt, voqea, hodisalar umumiy, ya‘ni qayd etish tarzida bayon etilsa, reportajda fakt, voqea va hodisalar haqida bevosita, o‘sha voqea, hodisa bo‘lib o‘tayotgan paytda, shu voqea va hodisalar yuz berayotgan joydan to‘g‘ridan - to‘g‘ri xabar beriladi, boshqacha qilib aytganda, hayot voqealari qayd etilmaydi, balki harakatda, jonli tasvirlanadi.

Reportajda boshqa axborot janrlari singari haqqoniylik, faktlarga asoslanish, operativlik, ta‘sirchanlik kabi omillar juda muhimdir. Yangilik reportajning asosi hisoblanadi. Ma‘lum voqea-hodisa faktlar hamda tezkorlik bilan voqea sodir bo‘lgan joydan tayyorlangan material reportajning mag‘zini tashkil etadi. Unda voqea joyi tasvirlanadi, jonli muloqotlar beriladi, ko‘pincha, materiallarda tantanavorlik aks etadi. Reportajning asosini axborot (informatsiya) tashkil etadi va xabar berish asosiy o‘rinni egallaydi, voqea-hodisa, faktlar tahlil qilinmaydi.

Ayrim reportajlar voqea sodir bo‘lgan joy tasviridan yoki kishilar bilan muloqotdan, yo voqea tarixi haqidagi qisqacha hikoyadan boshlanadi. Reportaj ta‘sirchan, operativ janr sifatida mavzu jihatdan rang-barangligini ta‘minlaydi va o‘qishligini oshiradi.

Reportajda oddiy bayonchilikdan ko'ra obrazli ifoda ustun turadi. Chunki reportajda axborot jonli, ta'sirchan ifoda qilinadi. Reportajning tili boshqa janrlar tilidan, jumladan, maqola tilidan farq qiladi. Gazetaning barcha janrlari sof, obrazli tilda yozilgan bo'lishi lozim. Tilning jonliligi reportajning alohida xususiyatlarini ochib berishi kerak. Chunki reportaj harakatni, voqeani jonlantirib berishi lozim. Konkret, ko'p kishilar ishtirok etgan reportajda qahramonlarning tili tabiiy, oddiy bo'lishi kerak.

Reportajda voqea joyi tasviri ham muhim rol o'ynaydi. Joy tasviri va tantanavor ruhni berish uchun obrazli ifodalar, emotsional-ekspressiv bo'yoqdor so'zlar, o'xshatishlar, sifatlashlardan unumli foydalaniladi. Kishilar bilan muloqotning jonliligini ta'minlash maqsadida dialoglar ham ishlatiladi, voqea qatnashchilarining nutqi beriladi. Chunki reportajda qahramonlar so'zi muhim ahamiyatga ega.

Reportaj informatsiyaning o'ziga xos, jonli ko'rinishi bo'lganligi bois unda axborot berish, xabardor qilish bilan bir vaqtda tasvirlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish kabi xususiyatlar ham mavjuddir. Ya'ni reportajda xabar, hisobot janrlarining ko'rinishlari ham o'z ifodasini topadi.

Reportajda voqea ifodasini cho'zib yuboradigan uzundan-uzun, murakkab, og'ir jumlar ishlatish yaramaydi. Aniq, ko'p kishilar ishtirok etgan reportajda qahramonlarning tili, tabiiy, oddiy bo'lishi kerak.

Topshiriq. Berilgan matn asosida reportaj matnini tayyorlang.

Navro'z

Navro'z – O'rta Osiyo va Yaqin Sharq xalqlarining qadimiy yangi yil bayrami. “Navro'z” forscha so'z bo'lib, “yangi kun” degan ma'noni ifodalaydi. Navro'z yangilanish, poklanish, uyg'onish bayramidir. Aynan shu jihati bilan u insonlar qalbidagi iliqlikni, ona zaminga bo'lgan muhabbat hissini uyg'ota oladi, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatni uyg'unlashtiradi.

Navro'z bahor faslida nishonlanadi. Bu paytda tabiat uyg'onib, barcha o'simliklar ko'kara boshlaydi. Bahor insonlarga ezgu tuyg'ular hadya etadi. Inson qalbida orzulari mavjlanadi.

Dehqonlar, bo'g'bonlar bahorgi ishlarni boshlab yuboradilar. Navro'z ayyomiga atab bobodehqonlar yerlarni maromiga keltirish, ariq-zovurlarni tozalash, urug'larni saralash, ko'zlangan joylarni urug' qadashga moslash va boshqa taraddudlarni ko'radilar. Bog'bonlar esa toklarni ochish, anjir, anor va boshqa mevalarning ko'chatlarini tartibga keltirish, yangi nihollarni ekishga tayyorlash, dov-daraxtlarni butash, payvandlash kabi yumushlarni rejalashtiradilar. Shuning uchun ham Navro'z yangi yil bayrami bo'lib qolmasdan, mehnat bayrami hamdir.

Navro'z 21-martda kutib olinadi. Shu kuni kecha bilan kunduz tenglashadi.

O'zbekistonda Navro'z bahor bayrami sifatida nishonlanadi. Bayram kunlari odamlar bir-birlariga gullar sovg'a qiladilar, yaxshi tilaklar bildiradilar.

Navro'z qadim-qadimdan yaxshilik va saxiylik ramzi bo'lib kelgan. Odamlar bir-birlariga mehr-oqibat ko'rsatadilar, urush-janjal, xafagarchiliklar unutiladi. Bemorlardan, nogironlardan, yolg'izlardan xabar olinadi. Bayram kunlari turli milliy taomlar, jumladan, sumalak, halim, ko'k chuchvara, ko'k somsalar tayyorlanadi.

Navro'z bayrami kishilarga yaxshi kayfiyat, samimiylik, zavqu shavq, ilhom va g'ayrat bag'ishlaydi.

Lug'at:

Qadimiy	- древний
uyg'onish bayrami	- праздник возрождения
muhabbat hissi	- чувство любви
uyg'unlashtirmoq	- гармонизировать
saralash	- сортировать
taraddud	- подготовка

YORDAMCHI SO‘ZLAR

Ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklama yordamchi so‘z turkumlaridir. Yordamchi so‘zlar o‘zicha – yakka holda ma’no anglatmaydi, gap bo‘lgi bo‘la olmaydi. Ular mustaqil so‘zlar va ayrim gaplar orasidagi munosabatni anglatishga xizmat qiladi, so‘zga va gapning mazmuniga turli qo‘shimcha ma’nolar qo‘shadi.

Ko‘makchi

Ot, olmosh, harakat nomi sifatdoshlardan keyin kelib, ularning boshqa so‘zga tobelanish bilan bog‘lanishini bildiradigan yordamchi so‘zlar ko‘makchi deyiladi.

Ko‘makchi qaysi so‘zdan keyin kelsa, o‘sha so‘z bilan birgalikda bir so‘roqqa javob bo‘ladi, o‘sha so‘z bilan birga gapning bo‘lagi bo‘lib keladi.

Ko‘makchilar qaysi mustaqil so‘zdan o‘sib chiqqanligiga qarab, quyidagi turlarga bo‘linadi.

1. Asl ko‘makchilar (послелогои частицы) –asl leksik ma’nosini butunlay yo‘qotib, ko‘makchiga aylanib qolgan so‘z: bilan, uchun, kabi, singari, sayin, sari, tomon.
2. Ot ko‘makchilar (послелогои имена) –ot yoki ravishdan o‘sib chiqqan ko‘makchilar: tashqari, burun, keyin, ilgari.
3. Fe‘l ko‘makchilar (послелогои глагольные) –fe‘lning asosan ravishdosh, sifatdosh formalaridan o‘sib chiqqan ko‘makchilar: bo‘ylab, qarab, ko‘ra, yarasha, qaraganda, tortib.



1-mashq. Berilgan gaplardagi ko‘makchilarni kelishiklar bilan almashtirib ko‘chiring.

1. Zarina so‘zlar, sakkiz o‘g‘il o‘rtasida yolg‘iz qiz bo‘lgani uchun erkakshoda bo‘lib o‘sgandi, hech narsadan tap tortmay so‘zlayverardi ham. Gap orasida menga qarata: «Sen o‘lgur menga bugundan boshlab ikki tomonlama yaqin bo‘lib qolding», deb yubordi. 2. Sizning sog‘ligingiz, sizning baxtingiz uchun gapirsak arziydi. 3. Mening ko‘nglim sezgan edi, shu sababli tushlikni chala-chulpa qilib, uy tomon yugurgan edim. 4. Palataga kirib borganim sari meni vahima bosardi. 5. Siz go‘daklardek pishillab uxlardingiz, timqora va quyuq sochlaringiz oppoq yostiqlik ustida yoyilib yotardi. 6. Voqealar tizimidan sal ilgarilab ketdim, shekilli, bu haqda maktubimning keyingi sahifalaridan birida alohida to‘xtab o‘tarman. 7. Kasbim sharofati bilan baribir qaysi jumlangiz yolg‘on ekanini gapingiz ohangidan bilib olaman. 8. Ona urug‘im haqida boshqa narsani bilmayman, bilganim shuki, onamlar Siz kabi bo‘lishni xush ko‘radilar. (A. Ibrohimov)

2-mashq. Quyidagi ko‘makchilar ishtirokida gaplar tuzib, yozing.

Bo‘yi, haqida, to‘g‘risida, tufayli, uzra, misli, misoli, uchun, singari, kabi, sari, tomon, orqali, bo‘ylab, qarab, qaraganda, ko‘ra, yarasha...

3-mashq. Nuqtalar o‘rniga zarur ko‘makchilarni qo‘yib, so‘z birikmalari hosil qilib ko‘chiring.

O‘qish... intilmoq, otasi... bormoq, test... bahslashmoq, erk... suhbatlashmoq, litseyga ... yurmoq, jahon... yuksalmoq, osmon ... hilpiramoq, tog‘ ... bormoq, qizimdan ... balandroq, jahon... yangramoq, ko‘z ... gaplashmoq, qarorga ... haydalmoq, kechadan... tayyorlanmoq,

TEST TOPSHIRIQLARI

1. Voqea-hodisalarni bevosita, jonli aks ettiruvchi, tezkor yoritib beruvchi publitsistik uslub janrini toping.
 - A) taqriz
 - B) annotatsiya

- C) reportaj
D) intervyu
2. Publitsistik uslubning qaysi janrida fakt, voqea va hodisalar haqida bevosita, o'sha voqea, hodisa bo'lib o'tayotgan paytda, shu voqea va hodisalar yuz berayotgan joydan to'g'ridan - to'g'ri xabar beriladi?
A) intervyu
B) annotatsiya
C) reportaj
D) taqriz
3. Berilgan gaplar qaysi uslub namunasi ekanligini toping.
1. Kundan kunga yashnamoqda ko'rking, jamoling. 2. Barnoning fikri bulut bosgan osmonday qorong'ilashdi-yu, ko'z oldini tuman chulg'adi. 3. Ko'klam har yilgidan erta keldi. Fusunkor jamoli bilan hammayoqni go'zallikka chulg'adi.
A) so'zlashuv
B) badiiy
C) publitsistik
D) ilmiy
4. Quyida berilgan gapning qaysi uslub namunasi ekanligini aniqlang.
Shomahdiyevning qilg'i ma'lum: jahli chiqib bir sannab ketsa, uning chakagini bosish asov tuyani cho'ktirishdek mashaqqat. Qizlaringizni jerkiysiz, so'kasiz... Xo'sh, nima uchun To'lanni yumshoq paxtaga o'rab papalaysiz?!
A) publitsistik
B) ilmiy
C) badiiy
D) so'zlashuv
5. Quyidagi gap qaysi uslubga xosligini belgilang: «*Bu dunyoda hech kim hech narsani orqalab ketmaydi, o'rgilay*».
A) ilmiy uslub
B) badiiy uslub
C) publitsistik uslub
D) rasmiy uslub
6. Intervyu nima?
A) Berilgan mavzu bo'yicha yozilgan qisqa axborot. Muhokama etilayotgan masala haqida umumiy tushuncha berish.
B) Matbuot, radio yoki televideniya berish uchun muxbirning biror shaxs bilan o'tkazgan suhbat.
C) Voqea – hodisalarni bevosita, jonli aks ettiruvchi, tezkor yoritib beruvchi informatsion janr.
D) Badiiy, ilmiy, metodik asarlarning manbasi va unda ko'tarilgan masalani ko'rsatishga qaratilgan qisqa xabar.
7. Reportajga berilgan to'g'ri ta'rifni toping.
A) Berilgan mavzu bo'yicha yozilgan qisqa axborot. Muhokama etilayotgan masala haqida umumiy tushuncha berish.

- B) Matbuot, radio yoki televideniya berish uchun muxbirning biror shaxs bilan o‘tkazgan suhbat.
- C) Voqea –hodisalarni bevosita, jonli aks ettiruvchi, tezkor yoritib beruvchi informatsion janr.
- D) Badiiy, ilmiy, metodik asarlarning manbasi va unda ko‘tarilgan masalani ko‘rsatishga qaratilgan qisqa xabar.
8. “Oq kema”, “Asrga tatigulik kun”, “Tog‘lar qulaganda”(“Mangu kelinchak”) asarlarining muallifini toping.
- A) Abay Qo‘nonboev
B) Chingiz Aytmatov
C) Odil Yoqubov
D) Rasul Hamzatov
9. Qaysi qatorda berilgan gapda ibora ishtirok etgan?
- A) Mirzakarimboyning qo‘li uzun, bu ishlarni uddalaydi.
B) Vodorodning metallmas moddalar: xlor va azot bilan birikishi reaksiyasi asosida sanoatda xlorid kislota va ammiak ishlab chiqariladi.
C) Bolalar daraxtga shoti qo‘yib, qushlar uchun in o‘rnatdilar.
D) Hunari yo‘q kishidan, bigizi bor yamoqchi yaxshi.
10. Qaysi qatorda berilgan gapda kasb-hunarga oid atama ishtirok etgan?
- A) Mirzakarimboyning qo‘li uzun, bu ishlarni uddalaydi.
B) Vodorodning metallmas moddalar: xlor va azot bilan birikishi reaksiyasi asosida sanoatda xlorid kislota va ammiak ishlab chiqariladi.
C) Bolalar daraxtga shoti qo‘yib, qushlar uchun in o‘rnatdilar.
D) Hunari yo‘q kishidan, bigizi bor yamoqchi yaxshi.

20-MAVZU. HUQUQIY MADANIYAT

Og‘zaki nutq: *Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma‘nosini izohlash. Matndagi asosiy fikrni ajratib so‘zlab berish.*

Yozma nutq: *“Qonunlarni o‘rganish va ularga rioya qilish” mavzusida matn tuzish. O‘zbekiston fuqarolarining huquqlari va burchlari to‘g‘risida dialog tuzish. Umumxalq leksikasiga kirgan huquqiy terminlar lug‘atini tuzish.*

Grammatika: *Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlari. Bog‘lovchi.*

Tayanich so‘z va iboralar: *qonun, huquqiy madaniyat, fuqarolarning huquq va burchlari, rasmiy-idoraviy uslub, ish qog‘ozlari uslubi, bog‘lovchi, teng bog‘lovchi, ergashtiruvchi bog‘lovchi.*

HUQUQIY MADANIYAT VA OGOHLIK

Jamiyatning huquqiy madaniyati – bu insoniyat tomonidan huquq sohasida to‘plangan va jamiyatning huquqiy voqeligiga mansub bo‘lgan qadriyatlar tizimini aks ettiruvchi umumiy madaniyatning qismidir. Shaxsning huquqiy madaniyati – bu har bir kishining o‘z faoliyatida va huquqiy ongida subyektiv tarzda shakllangan huquqiy bilim, ya‘ni amaldagi huquqqa munosabatni ifodalovchi tasavvurlar, qarashlar va tuyg‘ular yig‘indisida namoyon bo‘ladi. Ma‘lumki, fuqaro uning ishida, kundalik turmushida va o‘z oilasida huquqiy bilimlarning eng kam qismidan foydalanadi. Bu bilimlar, odatda, konstitutsiya, mehnat, oila, fuqarolik, tadbirkorlik huquqlariga tegishlidir.

Hozirgi kunda biz qurayotgan davlat ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va huquqiy jihatdan rivojlanib bormoqda. Bularning barchasi yangi qadriyatlar va demokratik tamoyillarga, adolatli jamiyat talablariga uyg'unlashadi. Bu jarayonlarning eng muhim jihati shundan iboratki, jamiyatda, davlatda qonun ustuvorligini ta'minlash, davlat va fuqaro o'rtasidagi turli yangi munosabatlar shakllanishi, qolaversa, inson, uning hayoti va erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini yuqori darajaga qo'yilishi muhim o'rin egallaydi.

Huquqiy madaniyat – insonning fikrlash doirasining kengayishidir. Huquqiy madaniyat maktabda, oliy va o'rta-maxsus ta'lim yurtlarida va boshqa maxsus maktab (gimnaziya, maktab-internatlar)larda shakllanishi mumkin. Mazkur o'quv yurtlarining hammasida ham o'quvchi va talabalarning huquqiy madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ular yurtimiz kelesidagi ertangi egalaridir.

Lug'at:

huquq	- права
huquqiy madaniyat	- правовая культура
jamiyat	- общество
fuqarolik	- гражданство
faoliyat	- деятельность
mukammal	- совершенный
qonun	- закон
amaliyot	- практика
madaniyat	- культура

- Vazifa:** 1. "Qonunlarni o'rganish va ularga rioya qilish" mavzusida matn tuzing.
 2. O'zbekiston fuqarolarining huquqlari va burchlari to'g'risida dialog tuzing.
 3. Ish qog'ozlarining qanday yozilishini yod oling.

Topshiriq. Video keys bilan ishlash.

Vaziyat:



Savollar:

Bu vaziyatda qanday muammo yoki muammolar mavjud?

Muammo yana qaysi soha/fanlarga tegishli?

Bunday vaziyat yuzaga kelmasligi uchun Zumrad nima qilish /qilmasligi kerak edi?

Muammoning yechimi qanday bo'lishi kerak?

Keys yechimiga taklif etilgan g'oyalar taqdimoti uchun chizma

Muammo (asosiy va kichik muammolar)	Yechim	Natija

Xulosalash

Mazkur keys ustida ishlash sizga nima berdi?

Xulosalaringizni tezis shaklida yozing.

GRAMMATIKA: RASMIY-IDORAVIY USLUB VA UNING XUSUSIYATLARI. BOG‘LOVCHI.

Hujjatlar matniga qo‘yiladigan eng muhim talablardan biri xolislikdir. Hujjatlar rasmiy munosabatlarni ifodalovchi va qayd etuvchi rasmiy yozma vositalar sifatida axborotni xolis aks ettirmog‘i lozim. Shuning uchun hujjatlar tilida so‘z va so‘z shakllarini qo‘llashda muayyan chegaralanishlar mavjud. Xususan, rasmiy ish uslubida kichraytirish-erkalash qo‘shimchalarini olgan so‘zlar, ko‘tarinki-tantanavor yoki bachkana, dag‘al so‘zlar, shevaga oid so‘zlar, tor doiradagi kishilargina tushunadigan so‘zlar, o‘xshatish, jonlantirish, mubolag‘a, istiora, tashxis kabi obrazli tafakkur ifodasi uchun xizmat qiluvchi usullar ishlatilmaydi. Ularning ishlatilishi hujjatlar matnidagi ifodaning noxolisligiga olib keladi.


Hujjat matni aniqlik, ixchamlik, mazmuniy to‘liqlik kabi talablarga ham javob berishi kerak. Bu talablarga javob bera olmaydigan hujjat chinakam hujjat bo‘la olmaydi, bunday hujjat ish yuritish jarayoniga xalaqit beradi.

Ish qog‘ozlarini qanday yozish kerak?

1. Ish qog‘ozlari, odatda siyohli, sharikli ruchkada (ko‘k, qora, gunafsharang sterjen bilan) aniq dastxat bilan yoziladi. Ariza, tarjimayi hol, bildirgi (raport) kompyuterda yozilmay, faqat qo‘l bilan yoziladi. Dalolatnoma (akt), bayonnoma, hisobot kabi hujjatlar kompyuterda terilishi mumkin.
2. Hujjatlarda o‘chirish yoki tuzatishga yo‘l qo‘yilmaydi.
3. Ish qog‘ozlarining har bir turi umum qabul qilingan shaklda va muayyan izchillikda tuziladi.
4. Hujjat matni qisqa, ravon, aniq va mantiqli (ortiqcha so‘z va iborasiz) bayon qilinishi kerak. Hujjat tili juda lo‘nda bo‘lishi lozim. Ish qog‘ozlarida biror shaxsga murojaat etilganda “Siz ” olmoshi (shuningdek, uning turlangan shakllari - “Sizga”, “Sizning”, “Sizdan ” va sh.k) bosh harf bilan yoziladi.
5. Son, odatda, raqam bilan yoziladi. Pul hujjatlari (dalolatnoma, ishonchnoma, tilxat)da raqamdan so‘ng qavs ichida shu raqamning so‘zdagi ifodasi ko‘rsatiladi.
6. Arab raqamlari bilan ifodalangan tartib sonlardan so‘ng qo‘shimcha yozilmay, uning o‘rniga defis (-) qo‘yiladi: 3-chorak, 4-kurs. Rim raqamidan so‘ng hech qanday qo‘shimcha yozilmaydi: I chorak, II kurs.
7. Turli belgi va son ifodalari bir xil shaklda yoziladi. Masalan №, §, %, (telegrammalarda bular so‘z bilan – raqamli, band, foiz kabi ifodalanadi.)
8. Ish qog‘ozlarda ularning imzolanishiga rioya etiladi: avval hujjatga imzo chekadigan mansabdor shaxs lavozimining nomi, so‘ng shaxsiy imzosi va familiyasi ko‘rsatiladi.

Tavsifnoma, dalolatnoma kabi hujjatlarda, odatda, 3-shaxs imzo chekadi. Ishonchnomada uni beruvchi shaxs imzosidan tashqari ushbu imzoni tasdiqlovchi shaxs imzosi ham bo'ladi.

9. Hujjatlarda sanalar arab raqami bilan yoziladi. Bunda ruscha shaklda – 10.11.15; 02.08.15 tarzda emas, balki quyidagi o'zbekcha gap tuzilishidan kelib chiqqan shaklda berish kerak: 2015.10.11; 2015.02.08. Bunda dastlabki to'rt raqam yilni, keyingilari kun va oyni bildiradi.



Vazifa: 1. Nazariy ma'lumotlarni yod oling.

2. Hujjatchilik haqidagi bilimlaringizni „BBB“ metodi asosida ko'rsating.

Bilaman	Bildim	Bilmoqchiman

Topshiriqlar:

1-topshiriq. Quyidagi so'z va birikmalar yordamida gaplar tuzing, tinish belgilarini to'g'ri qo'yishga harakat qiling.

Qabul qilib olingan narsalar, ilova, bir tomondan, e'tiborga olib, o'quv yurtini tugatgach, ko'chib kelganligi sababli, so'zga chiqdilar, a'zolari, quyidagilar aniqlandi, shu haqdakim, tomonlarning huquqiy manzillari, o'quv yurti talabasining majburiyatlari, va boshqa buyumlar bilan ta'minlash, quyidagilar haqida tuzildi, da'vogar, javobgar

2-topshiriq. Quyida berilgan qoliplashgan so'z birikmalari asosida rasmiy uslubga xos gaplar tuzing:

«shunga ko'ra», «munosabati bilan», «...ganligi sababli», «...ishi uchun», «oqibatida», «...masligi tufayli», «shu maqsadda», «guvohlik berishicha», «tekshiruv natijasiga binoan».

Bog'lovchi

So'zlarni va qo'shma gapdagi sodda gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlar **bog'lovchi** deb ataladi.

Bog'lovchilar vazifasiga ko'ra **teng bog'lovchilar** va **ergashtiruvchi bog'lovchilarga** bo'linadi.

Gapning uyushiq bo'laklarini va qo'shma gapdagi sodda gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlar bog'lovchi deb ataladi. Bog'lovchilar qo'llanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Yakka xolda qo'llanadigan bog'lovchilar:
va, ammo, chunki.

BOG'LOVCHILAR
Vazifasiga ko'ra
Teng bog'lovchilar va
Tobe bog'lovchilarga
bo'linadi

2. Takrorlangan xolda qo'llanadigan bog'lovchilar :
yoki, xoh, dam

Teng bog'lovchilar

Bu bog'lovchilar sozlarni va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni teng huquqli qilib bog'laydi. Teng bog'lovchilar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Biriktiruv bog'lovchilari: *va, ham, hamda.*

- Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak.
- Qandaydir ishni to'g'ri va yaxshi bajarish uchun, uni qilishni bilish kerak.
- Shu payt oftob yana bulut ostiga kirdi va uyni qorong'ulik bosdi.
- Dinora, Saida hamda Malika imtihonni yaxshi topshirdilar.

2. Zidlov bog'lovchilari: *ammo, lekin (yoki lek), biroq, balki.*

- Dunyoda kasblar ko'p, biroq odamiylik kasbi hammasidan ulug' dir.

3. Ayruv bog'lovchilari: *yo, yoki, yoxud, yoinki, yo ... yo, yoki... yoki, goh...goh, xoh...xoh, dam... dam.*

- U kun bo'yi goh kutubxonada, goh hujrasida mutolaadan bosh ko'tarmay o'tiradi.
- Yo siz keling, yo men boray.
- Dadasi erkatoiy o'lining bu arzini eshitib, dam hayratga tushdi, dam quvondi.

4. Inkor bog'lovchisi: *na... na*

- Ko'ngil, sen munchalar nega Kishanlar birla do'stlashding?
- Na faryoding, na doding bor, Nechun sen muncha sustlashding?
- Ko'kda na yulduz bor, na bir tabassum, Tabiat ingrardi, yig'lardi yum-yum.

Ergashtiruvchi bog'lovchilar

Bu bog'lovchilar ergashgan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga ergashtirish yo'li bilan bog'laydi va quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Aniqlov bog'lovchilari: *ya'ni.*

- Vatanimiz poytaxtida, ya'ni Toshkentda diqqatga sazovor joylar ko'p.

2. Sabab bog'lovchilari: *chunki, negaki.*

- Qo‘rqoq do‘st dushmandan xavflidir, **chunki** dushmandan ehtiyot bo‘lasan, ammo do‘stga ishonasan.

3. Shart bog‘lovchilari: agar (da), garchi, garchand, gar, mabodo, basharti.

- **Garchi** shuncha mag‘rur tursa ham, Piyolaga egilar choynak.

1-mashq. Nuqtalar o‘rniga zarur bog‘lovchilarni qo‘ying.

1. Rassomning chizgan rasmi hammani hayratda qoldirdi ... ko‘rgazma rahbari unga maxsus sovrin topshirdi. 2. Film rejissori bu rol uchun munosib aktyor tanladi ... ushbu nomzodni badiiy kengash orqali tasdiqlatib ham oldi. 3. Bu qo‘shiqda xalqning dardu alamlari, orzu armonlari aks etadi ... tinglovchida juda kuchli taassurot qoldiradi. 4. Men bugun ertalab Temuriylar tarixi muzeyiga bordim ... u yerdan juda ko‘p taassurotlar oldim. 5. O‘zi balo tog‘ining ... ofat bulog‘ining Boshida o‘ltirarmish, Kun-u tun, yoz ... qish.

2-mashq. Nuqtalar o‘rniga zarur bo‘lgan zidlov bog‘lovchilarini qo‘yib ko‘chiring.

1. Qo‘shiqchi ashulani maromiga yetkazib ijro etdi, ... bu qoshiq tomoshabinlar tomonidan yaxshi kutib olinmadi. 2. Aktyor bu rolni o‘xshatib o‘ynashga rosa harakat qildi, ... nimagadir uning barcha harakatlari zoye ketdi. 3. Reja bajarilgan, ... hali dalada hosil bor. 4. Bahor keldi-yu, ... hali kunlar sovuq, daraxtlar kurtak chiqarmagan. 5. Sen juda ko‘p yutuqlarga erishding, ... hali kamchiliging ko‘p, uka.

3-mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli bog‘lovchilarni qo‘ying, turini ayting va rus tiliga tarjima qiling.

1. O‘zbekistonda kuz faslida anor, anjir..... xurmo pishadi. 2. Bu olma ozgina qizaribdi,.... hali yaxshi pishmagan. 3. U faqat sengagina emas, ... menga ham yordam beradi. 4. O‘qituvchimiz juda oz,... juda ma’noli gapiradilar. 5. Uning uyi kichkina, juda chiroyli fayzli edi. 6. Feruza, biz ertaga kinoga bormoqchimiz, sen teatrga borib kel. 7. U juda ko‘p ishlaydi, ... dam olishni....o‘zniga qo‘yadi.

TEST TOPSHIRIQLARI

1. Hujjat matnida izohlanayotgan voqea-hodisa, narsalarning tartib raqami qavs bilan ajratilgan bo‘lsa, so‘z, birikma va gaplardan so‘ng qanday tinish belgi ishlatiladi?

- A) qavs
- B) vergul
- C) nuqtali vergul
- D) tire

2. Hujjat matnining biror bo‘lagiga qo‘shimcha izoh berish zarurati bo‘lganda, izohlovchi so‘z, manzil nomi, mablag‘ yoki miqdoriy ko‘rsatkichni ifodalovchi raqamlarda qanday tinish belgi ishlatiladi?

- A) qavs
- B) vergul
- C) nuqtali vergul
- D) tire

3. Qaysi qatorda berilgan gapda ilmiy atama ishtirok etgan?

- A) Mirzakarimboyning qo‘li uzun, bu ishlarni uddalaydi.
- B) Vodorodning metallmas moddalar: xlor va azot bilan birikishi reaksiyasi asosida sanoatda xlorid kislota va ammiak ishlab chiqariladi.
- C) Bolalar daraxtga shoti qo‘yib, qushlar uchun in o‘rnatdilar.
- D) Hunari yo‘q kishidan, bigizi bor yamoqchi yaxshi.

4. Qaysi qatorda berilgan gapda shevaga xos so‘z ishtirok etgan?

- A) Mirzakarimboyning qo‘li uzun, bu ishlarni uddalaydi.
- B) Vodorodning metallmas moddalar: xlor va azot bilan birikishi reaksiyasi asosida sanoatda xlorid kislota va ammiak ishlab chiqariladi.
- C) Bolalar daraxtga shoti qo‘yib, qushlar uchun in o‘rnatdilar.
- D) Hunari yo‘q kishidan, bigizi bor yamoqchi yaxshi.

5. *Yaxshi bo‘lgin, hatto dushmaning oson,
Seni deyolmasin yaramas-yomon.*

Berilgan parchada so‘zning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra qaysi turi ishtirok etgan?

- A) Shakldosh so‘zlar
- B) Ma‘nodosh so‘zlar
- C) Zid ma‘noli so‘zlar
- D) Paronimlar

6. *Yaxshi bo‘lgin, hatto dushmaning oson,
Seni deyolmasin yaramas-yomon.*

Tanburning ovozi soz chiqib tursa,

Qulog‘in buramas sozchi hech qachon. (S. Sheroziy)

Berilgan parchada ajratib ko‘rsatilgan so‘z so‘zning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra qaysi turiga mansub?

- A) Shakldosh so‘z
- B) Ma‘nodosh so‘z
- C) Zid ma‘noli so‘z
- D) Paronim

7. Bog‘lovchilar ma‘nosiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?

- A) Zidlov va ayiruv
- B) Teng va ergashtiruvchi
- C) Sof va vazifadosh
- D) Biriktiruv va inkor

8. Qaysi qatorida faqat teng bog‘lovchilar berilgan?

- A) Ya‘ni, chunki, ammo, balki
- B) Negaki, balki, va, biroq
- C) Hamda, ham, ammo, lekin
- D) Yo...yo, goh...goh, ya‘ni, toki

9. *Barchasini tinglardim ammo,
O‘xshashini topmasdim also.*

Berilgan she‘riy parchada ma‘nosiga ko‘ra qanday bog‘lovchi qatnashgan?

- A) Biriktiruv
- B) Zidlov
- C) Ayiruv
- D) Inkor

10. Na oltin, na javohir edim,
Armonli bir yosh shoir edi.

Berilgan she‘riy parchada ma‘no jihatdan bog‘lovchining qaysi turi qatnashgan?

- A) Biriktiruv
- B) Zidlov

- C) Ayiruv
- D) Inkor

21-MAVZU. O‘ZBEKISTONDA OLIY TA‘LIM

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. Matnni kengaytirib so‘zlab berish.

Yozma nutq: O‘zbekistondagi oliy ta‘lim muassasalari haqida ma’lumot tayyorlash. Oliy ta‘lim muammolariga bag‘ishlangan ilmiy maqola yozish. Oliy ta‘lim terminlari lug‘atini tuzish. O‘zbekistondagi oliy ta‘lim muassasalarining nomlarini qisqartma otlar shaklida ifodalash.

Grammatika: Uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so‘zlar. Yuklama.

Tayanch so‘z va iboralar: oliy ta‘lim, oliy ta‘lim tizimi, uslubiy xoslangan so‘zlar, uslubiy betaraf so‘zlar, alohida olingan so‘zlar, undov so‘zlar, taqlid so‘zlar.



Yangiyerda Toshkent kimyo-texnologiya institutining filiali tashkil etiladi

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida Vazirlar Mahkamasining “Toshkent kimyo-texnologiya institutining Yangier filialini tashkil etish to‘g‘risida”gi

qarori loyihasi joylashtirildi.

Hujjat bilan O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, O‘zkimyosanoat” AJ, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi va Sirdaryo viloyati hokimligining Sirdaryo viloyatining Yangier shahrida TKTIning Yangier filialini tashkil etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilishi mumkin.

Qaror loyihasida Filialning asosiy vazifalari etib kimyoviy texnologiyalarning tegishli yo‘nalishlari bo‘yicha malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, korxonalarining muammolarini yechishga qaratilgan innovatsion tadqiqotlarni faol rivojlantirish va boshqalar belgilangan. Loyihaga ko‘ra, Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filialiga 2019/2020 o‘quv yilida bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari uchun 175 ta qabul kvotasi ajratilgan:

Hujjatda 2019/2020 o‘quv yilidan boshlab Filial uchun respublikaning yetakchi oliy ta‘lim muassasalarida tegishli magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha maqsadli qabul kvotalari ajratilishi ko‘zda tutilgan. Shuningdek, Filialni yuqori malakali, ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlar bilan ta‘minlash maqsadida tayanch doktoranturaga Filial uchun 2020- yildan boshlab belgilangan tartibda kvotalar ajratilishini ta‘minlash belgilangan.

O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan oliy ta‘lim muassasalari ro‘yxati e‘lon qilindi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8- maydagi qarori bilan Samarqand shahrida Rossiya davlat jismoniy tarbiya, sport, yoshlar va turizm universitetining filiali tashkil etildi. Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi xabariga ko‘ra, natijada mamlakatda OTMlar soni 102 taga yetdi. Shundan: 85 ta mahalliy OTM va ularning filiallari; 17 ta xorijiy OTM va ularning filiallari. Bugungi kunda respublikadagi 92 ta OTMlarida o‘quv-tarbiya jarayonlari olib borilmoqda, 10 ta OTMga talabalar 2019/2020 o‘quv yilidan qabul qilinadi.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qashqadaryo viloyatida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati salohiyatini yanada oshirish va iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida oliy ma‘lumotli kadrlar tayyorlashni kengaytirish maqsadida “Toshkent kimyo-texnologiya institutining Shahrisabz filialini tashkil etish to‘g‘risida” 7-iyul 2019 yilda PQ-4352 qarori qabul qilindi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim yo'nalishlari qanday belgilangan?
2. AQSHda ta'lim tizimi qanday tashkil etilgan?
3. Yaponiya ta'lim tizimi haqida gapirib bering.
4. Janubiy Koreyada ta'lim tizimi qanday tashkil etilgan?
5. Fransiyadagi ta'lim tizimini so'zlab bering.
6. Germaniya ta'lim tizimi qanday tashkil etilgan?

Понятие высшего образования

Под термином «Высшее образование» понимается подготовка специалистов высшей квалификации для отраслей экономики, науки, техники и культуры, и т.д, обладающих систематизированными знаниями и практическими навыками, которые позволяют решать теоретические и практические задачи по профилю подготовки, используя и творчески развивая современные достижения науки, техники и культуры.

Целью высшего образования является обеспечение подготовки квалифицированных, конкурентоспособных кадров, отвечающих современным требованиям к качеству специалистов с высшим образованием, для самостоятельной работы по выбранному направлению (специальности) области знаний, способных обеспечить научно-техническое, экономическое, социальное и культурное развитие республики и обладающих высокими духовными, культурными и нравственными качествами.

Система высшего образования Узбекистана состоит из:

- высших образовательных учреждений, реализующих образовательные и профессиональные программы в соответствии с государственными образовательными стандартами независимо от форм собственности и ведомственной подчиненности;
- научно-педагогических учреждений, выполняющих исследовательские работы, необходимые для развития высшего образования;
- органов государственного управления образованием, а также подведомственных им предприятий, учреждений и организаций.

Lug'at:

daraja	- уровень
tayyorlanish	- подготовка
ta'lim	- образование
maqsad	- цель
tashkilot	- организация
bilim	- знание
rivojlantirish	- развивать
iqtisodiy	- экономический
tizim	- система
avtonom	- самостоятельный

- Vazifa:** 1. O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalari haqida ma'lumot tayyorlang.
2. Oliy ta'lim terminlari lug'atini tuzing.
3. O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarining nomlarini qisqartma otlar shaklida ifodalang.
4. Yuqorida berilgan matnning qisqacha mazmunini o'zbek tilida yozing.

GRAMMATIKA: USLUBIY XOSLANGAN VA USLUBIY BETARAF SO'ZLAR. YUKLAMA.



Soʻzlar nutq uslubiga munosabatiga koʻra uslubiy betaraf va uslubiy xoslangan turlarga ajraladi.

Uslubiy betaraf soʻzlar. Uslubiy betaraf soʻzlar barcha uslublarda birdek va teng ishlatilaveradi: [kel], [bor], [oʻt], [ket], [kitob], [qalam], [stol], [mashina], [oq], [qora], [tez], [sovuq], [faqat], [lekin] va h. Bu kabi soʻzlarni soʻzlashuv, ilmiy, rasmiy, ommaviy va badiiy uslublarda bab-baravar qoʻllayverish mumkin. Faqat baʼzi soʻzlar nutqda koʻchma maʼnoda ishlatilganda, bu maʼnosi bilan ayrim uslubga xoslanib qoladi. Masalan, [sovuq] soʻzi «xunuk» maʼnosida (*sovuq rangli, turqi sovuq*) faqat soʻzlashuv yoki badiiy uslubga xos.

Uslubiy xoslangan soʻzlar

- kitobiy leksika
- badiiy leksika
- soʻzlashuv leksikasi

Uslubiy xoslangan soʻzlar. Uslubiy xoslangan soʻzlar (leksika)ni uchga boʻlish mumkin: a) **kitobiy leksika**; b) **badiiy leksika**; v) **soʻzlashuv leksikasi**.

Ilmiy, rasmiy va publitsistik leksikaga mansub birliklar umumlashtirilib, *kitobiy leksika* deb yuritiladi:

1) ilmiy leksikaga oid soʻzlar: [integral], [meridian], [tangens], [olmosh], [boʻlish], [koʻpaytirish];

2) rasmiy leksikaga oid soʻzlar: [bayonnoma], [buyruq], [farmon], [qoʻmita], [sessiya], [tashkilot];

3) publitsistik (ommaviy) leksikaga oid soʻzlar: [tinchliksevar], [mafkura], [ilgʻor], [ittifoq], [jahon], [afkor].

Bunday soʻzlar oʻz maʼnolari bilan ilmiy, rasmiy va publitsistik nutqqa xoslikni koʻrsatib turadi.

Badiiy leksikaga «badiiy nutqqa xos» maʼno mavjud boʻlgan, badiiylik boʻyogʻiga ega boʻlgan soʻzlar kiradi: *Mehnat bilan topadi iqbol* (Yo.Mirz.). *Uning odobida, uning xulqida, insoniy kamolot mavjud, barqaror* (Uygʻ.). *Tabiatan serzavq va har narsaga qiziquvchi boʻlgan Sodiq uchun har hunar zavq baxsh etar, koʻnglini koʻtarar, sogʻligʻini saqlardi* (Shuhr.). *Kundan kunga yashnamoqda koʻrking, jamoling. Bahorning fikri bulut bosgan osmonday qorongʻilashdi-yu, koʻz oldini tuman chulgʻadi.* (Sh.Rash.) *Koʻklam* har yilgidan erta keldi. *Fusunkor jamoli bilan hamma yoqni goʻzallikka chulgʻadi.* (Gazetadan).

Badiiy nutqda ilmiy, rasmiy, publitsistik va soʻzlashuv uslubiga xos soʻzlar ham bemalol ishlatilaveradi.

Soʻzlashuv leksikasiga oddiy soʻzlashuv nutqiga xos, erkin muomalada qoʻllaniladigan, adabiy til uchun meʼyor boʻlmagan soʻzlar kiradi: [ketvorgan], [poʻrim], [qittay, andak], [mullajiring], [kallavaram] kabi. Misollar: *Shomahdiyevning qiligi maʼlum: jahli chiqib bir sannab ketsa, uning chakagini bosish asov tuyani choʻktirishdek mashaqqat* (A.Muhid.).

Qizlaringizni jerkiysiz, so'kasiz... Xo'sh, nima uchun To'lani yumshoq paxtaga o'rab papalaysiz?! (M.Ism.) Jillaqursa juvoldiz bilan qarashay dedim (Oyb.). Enang besh-o'n tanga pul so'rab yubordi. Bo'lsa, chiqarib ber, boyoqishlar chaynab tursin. (Oyb.) Maza qilib kartoshkani tushirib tursang... (Say.)

So'zlarning (leksemaning) uslubiy xoslanganligi ularning boshqa bir uslubda qo'llanmasligidan dalolat bermaydi. Masalan, so'zlashuv uslubi erkin uslub sanaladi va unda boshqa uslub unsurini bemalol ishlatish mumkin. Ammo so'zlarni ma'lum bir uslubda qo'llash nutq me'yoriga muvofiq bo'lishi lozim.


Yuklama

Mustaqil so'z va gaplarga qo'shimcha ma'no beradigan yordamchilar yuklama deyiladi. Yuklamalar morfologik tarkibiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

1. **So'z yuklamalar** – слова-частицы: faqat, holbuki, nahotki, axir, hatto, xuddi. Ular odatda gapda kirish so'z vazifasida keladi. Shu bilan birga, gap mazmuniga kuchaytiruv, ayiruv, aniqlov kabi modal ma'nolar qo'shadi.

2. **Affiks yuklamalar** – аффиксы – частицы: -gina (-kina, -qina), -mi, -chi, -da, -oq, (-yoq), -ku, -dir, -a, (-e), -u (-yu)

Bunday yuklamalar so'z yoki gaplarga qo'shib so'roq, taajjub, ta'kid, ayiruv, gumon, kuchaytiruv, chegaralash, inkor kabi qo'shimcha ma'nolarni bildiradi.



Yukla

malarni ma'nosiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lish mumkin.

1. So'roq yuklamalari (вопросительные частицы): -mi, -chi, -a, -e,: Kecha dars tayyorladingmi? – Готовил ли ты вчера уроки? Sen-chi? –А ты?
2. Kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari (усилительные и утвердительные частицы): axir, hatto, -ku, -da, -d, (-yu): O'qish boshlandi-ku! –Ведь учеба началась! Axir o'qishing kerak! В конце концов ты должен учиться.
3. Ayiruv va chegaralov yuklamalari (разделительные частицы): -gina (-kina, -qina), faqat, faqatgina: Hamma keldi, faqatgina Karim kelmadi. – Все пришли, только Карим не пришел.
4. Aniqlov yuklamalari (уточняющие частицы): xuddi, axir. Axir soat 7 bo'ldi –Ведь уже семь часов.
5. Inkor yuklamalari (отрицательные частицы): na. U na yig'ladi, na kuldi.



1-mashq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Shu ham ish bo'ldi-yu! 2. O'tgan kuni xuddi shu erda katta majlis qilindi. 3. Tog'larda hatto yoz oylarida ham yomg'ir yog'adi. 4. Sizni ranjitib qo'ymadimmi? 5. Seni bir dam tutmoqqa endi, na haqqim bor, na huquqim bor. 6. Men-ku bundan bexabar edim, sen-chi? 7. Ertagayoq Marg'ilonga jo'naymiz.

2-mashq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. А ты, ты- то о чем думал? 2. Тут же приехала машина скорой помощи. 3. Ведь мы с тобой не встречались целый год! 4. Даже летом он не снимал с головы свою шапку. 5. Наконец-то я увидел тебя!

Vazifa: "BBB" metodi asosida bilimlaringizni aniqlang va o'z-o'zingizni baholang.

Tushuncha	Bilmas edim "+"	Bilib oldim "+"	Bilmoqchiman "-"
1. So'zlashuv uslubi
2. Badiiy uslub
3. Ommabop uslub
4. Ilmiy uslub
5. Rasmiy uslub

Test topshiriqlari

- O'zbek tilidagi mustaqil so'z turkumlarini toping.
 - ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe'l
 - ot, sifat, bog'lovchi, fe'l, undov so'z
 - ot, sifat, son ko'makchi, modal so'z, taqlid so'z
 - ot, sifat, son, fe'l, yuklama, bog'lovchi
- Qaysi qatorda ot so'z turkumiga oid so'zlar berilgan?
 - Chol, nabira, barno, ko'xlik
 - Men, sen, biz, u
 - Sekin, ko'p, ertalab, kam
 - Tog'a, xola, gazeta, bilim
- Qaysi qatorda ilmiy atamalar berilgan?
 - Uchak, go'sala, mo'rcha, kallapo'sh
 - Ildiz, musbat, urug'chilik, tenglama
 - Quyosh, qo'shiq, barcha, kelmoq
 - Qolip, betlik, charm, poshna
- Quyida qaysi qatorda uslubiy betaraf so'zlar berilgan?
 - Mashina, kitob, bor, qora, sovuq
 - Sessiya, chehra, ko'klam, oftob
 - Bemor, bashar, tinchliksevar, mafkura
 - Faqat, integral, tanovul qilmoq, bayon etmoq
- Uslubiy xoslangan so'zlar berilgan qatorni toping.
 - Mashina, kitob, bor, qora, sovuq

- B) Sessiya, chehra, ko'klam, oftob
 C) Dugona, inson, avlod, himoya
 D) Qizil, eshik, shamol, shirin
6. Qaysi qatorda uslubiy betaraf so'zlar berilgan?
 A) Uchak, go'sala, mo'rcha, kallapo'sh
 B) Ildiz, musbat, urug'chilik, tenglama
 C) Quyosh, qo'shiq, barcha, kelmoq
 D) Qolip, betlik, charm, poshna
7. *Quyosh damini g'ir-g'ir esgan shamol kesar edi.* **Mazkur gapdagi g'ir-g'ir so'zi qanday so'z?**
 A) taqlid so'z B) juft so'z
 C) undov so'z D) yuklama
8. *Hormanglar! – dedi O'lmas baralla.*
Ushbu gapdagi hormanglar so'zi qaysi so'z turkumiga mansub?
 A) ot B) ravish
 C) modal so'z D) undov so'z
9. **Tarkibida his-hayajon undovi bo'lgan gaplarni toping?**
 A) O'g'lim, umringizdan baraka toping!
 B) Hay, Oynisa buvingni chaqir.
 C) Qumri, axir ukangga qarasang-chi, ichagi uzilib ketdi-ku!
 D) Voy, nega qulluq qilishar ekan?
10. Shoikrom onasining barmoqlari tars-tars yorilib ketganini endi payqadi.
 Berilgan parchada ajratilgan so'ga izoh bering.
 A) Taqlid so'z C) Undov so'z
 B) Bog'lovchi D) Ko'makchi

22-mavzu. INSTITUTIMIZ HAYOTIDAN

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi nom va iboralarning ma'nosini izohlash. Matnni o'zgartirib so'zlab berish.

Yozma nutq: Institut haqida taqdimot tayyorlash. Institutda o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardan reportaj tayyorlash. Institut tarixi haqida bog'lanishli matn tuzish.

Grammatika: Alohida olingan so'zlar. Undov va taqlid so'zlar. Modal so'zlar.

Tayanch so'z va iboralar: *institut, Kimyo-texnologiya instituti, so'zlashuv uslubi, mahalliy so'zlar, modal so'zlar.*

O'quv yurtim va uning istiqboli

Institutimiz tarixi O'zbekistonda kimyo, neft-gaz va oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. 1934-yili sobiq O'rta Osiyo davlat universitetining kimyo fakultetida

birinchi marta „Silikatlar texnologiyasi“, „Yog‘-moy texnologiyasi“, „Charm-oshlov ekstraktlari texnologiyasi“ yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlana boshlandi.

1939-yilga qadar 192 ta muhandis-texnolog tayyorlandi.

1940-yilda kimyo-texnologiya fakultetini tashkil etish haqida farmon imzolandi. Shu vaqtdan boshlab, Toshkent kimyo-texnologiya institutining tarixi boshlandi. Dastlab politexnika institutining kimyo-texnologiya fakulteti sifatida faoliyat yuritgan. Alohida institut sifatida 1991-yildan faoliyat yurita boshladi.

Bizning institutimizmimg 5 nafar bitiruvchilari hozirda O‘zFA ning akademiklari. Institutimiz tarkibida 5 ta fakultet, 26 ta kafedra, 2 ilmiy-metodik markaz, 12 ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari, akademik litsey va “Kimyogar” nomidagi ilmiy-texnologik parki faoliyat yuritadi.

Institutimiz bitiruvchilari “O‘zkimyosanoat”, “O‘zdonmahsulot”, “O‘zqurilishlari” kompaniyalari va “Sho‘rtangaz” kimyo majmuasining yetakchi mutaxassislari hisoblanadi.

Institutda zamonaviy talablarga javob beradigan talabalar turar joyi mavjud bo‘lib, u yerda yashovchi talabalar uchun qulayliklar yaratilgan.

Har bir fakultetda axborot-resurs markazi, o‘quv ustaxonalari, laboratoriya xonalari mavjud.

Lug‘at

istiqbol - перспектива
tashkil etish - установить
mavjud - существование
farmon - постановление
yashovchi – проживающий
zamonaviy - современный
tanishish - знакомства
loyiha – проект

Ташкентский химико-технологический институт (ТХТИ) (узб. Tashkent kimyo - texnologiya instituti, Тошкент кимё - технология институти) — ведущий химико-технологический вуз в Республике Узбекистан и в Средней Азии; бывший химико-технологический факультет Ташкентского политехнического института.

Ташкентский химико-технологический институт разрабатывает новые технологии для нефтегазовой и пищевой промышленности, металлургии, индустрии строительных материалов, медицины. Но больше всего разработок за последние три года сделано для химической промышленности.

В состав института входят:

- 5 факультетов
- Заочное отделение
- Магистратура
- Докторантура

Ташкентский химико-технологический институт основан указом Президента Республики Узбекистан 6 мая 1991 года, в целях повышения уровня высшего технического образования в республике, совершенствования подготовки инженерных и научных кадров, был организован на базе Ташкентского политехнического института имени Беруни, на основе химико — технологического факультета. На сегодняшний день Ташкентский химико-технологический институт является ведущим химико — технологическим вузом Узбекистана..

Сегодня научные исследования института охватывают практически все отрасли химии, химической технологии, биотехнологии, пищевой технологии, а также ряд не химических отраслей. Основными направлениями научной деятельности является: энерго-

и ресурсосберегающие технологии, строительные, отделочные и декоративные материалы, композиционные и конструкционные материалы, технология древесных пластических масс на основе термопластичных полимеров, технология древесностружечных плит, технология MDF, технология производства материалов для медицины и здравоохранение, материалы для электроники, нефтехимия и нефтепереработка, минеральные удобрения, биотехнология, виноделие, технология спирта, технология консервирования пищевых продуктов, технология мяса — молока и растительных масел, редких и рассеянных металлов методы кибернетики в химической технологии, химия и технология полимеров, пластмасс, информационные системы и технологии, комплексные исследования окружающей среды, лаки и краски, экономика, организация и управление предпринимательства.

Большое внимание в институте уделяется проблемам экологии, ГХТИ принимает участие в выполнении республиканской целевой программе «Арал». В институте успешно работает методический совет для устойчивого развития междисциплинарных подходов к разработке учебных планов и программ, обучение технике принятия решений, учитывающих краткосрочные и долгосрочные последствия этих решений для экономики, окружающей среды. Научные исследования института развиваются в сотрудничестве с учёными зарубежных Вузов, таких как: Российский химико — технологический университет им. Д. И. Менделеева, Институт высокомолекулярных соединений РАН, Санкт — Петербургский государственный технический институт, Санкт — Петербургская лесо — техническая академия, Московский государственный университет пищевых производств (Россия); Белорусский государственный университет; Университет профессионального образования Ларенстейна (Голландия); Венский технический университет (Австрия); Мюнхенский технический университет (Германия); Институт природных ресурсов (Англия); Алматинский технологический университет (Казахстан), с учёными Южной Кореи, Индии и др.

При институте регулярно издаются научные статьи, сборники и монографии. Институт также является головным в рамках крупнейшей научно-технической программы «Научные исследования высшей школы по приоритетным направлениям науки и техники».

Vazifa: 1. Institut haqida taqdimot tayyorlang.

2. Institutda o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardan reportaj tayyorlang.

3. Yuqoridagi matndan foydalanib, o'zbek tilida "Esse" yozing.

4. Yuqoridagi matnning qisqacha mazmunini yozing.

5. Alohida olingan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

GRAMMATIKA: ALOHIDA OLINGAN SO'ZLAR. UNDOV VA TAQLID SO'ZLAR. MODAL SO'ZLAR.



O'zbek tili qadimiy va boy tillardan biridir. Hozirgi adabiy tilimiz o'zbek xalqining milliy tili, davlat tili darajasiga yetguncha juda uzoq va katta tarixiy rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Uning o'zi ko'pgina va xilma-xil mahalliy sheva hamda lahjalarga ega bo'lib, ana shularning yetakchilari asosida adabiy tilning umumiy qoidalariga bo'ysunadi. Alohida olingan biror sheva yoki mahalliy lahja lug'at va grammatik tomoni bilan adabiy tildan jiddiy farq qilmaydi. Hozirgi tilimizda ham, qadimda ham qo'llangan *ota, ona, o'g'il; osh, non; tol, paxta* kabi so'zlar yoki kelishik qo'shimchalari yoki tuslovchilarning aksariyati hamma sheva va lahjalar uchun umumiydir. Lekin ayrim so'z yoki atamalarning u yoki bu shevagagina xos bo'lishi, ayrim so'zlarni talaffuz etishdagi har xillik (*olma - alma, katta - kotta,*

behi - bihi kabilar), ba'zi qo'shimcha shakllari (*kelyapti, kelopti, kevotti, kelutti* va boshqalar) bilan o'zaro farqlanib turadi.

Ma'lum bir tuman, shahar, qishloq, viloyatga xos bo'lib, adabiy tilda boshqa ko'rinishga va ma'noga ega bo'lgan so'zlar mahalliy so'zlar yoki sheva so'zlari deyiladi. Mahalliy so'zlar o'zbek tilining bebaho xazinasidir. Lekin adabiy nutqda ulardan o'rinsiz foydalanish mumkin emas. *Misol: kallapo'sh (do'ppi), inak (sigir), mo'rcha (chumoli), zardoli (o'rik), g'aynoli (olxo'ri)* va boshq.

Bir tilning faqat ma'lum bir hududiga xos bo'lib, boshqa joylarda o'zgacha nom bilan yuritiladigan so'zlar shevaga xos so'zlar sanaladi. Bu so'zlardan bittasi umumxalq tili bo'lgan adabiy til uchun qabul qilinadi va ana shu so'z adabiy til uchun me'yor bo'ladi. Do'ppi so'zi adabiy me'yor, *kallapo'sh, qalpoq, takyaso'zlari* esa shevaga xos so'zlardir.

Undov so'zlar va ularning turlari

His-hayajon, tuyg'uni, haydash-chaqirishni bildiradigan so'zlar turkumi **undov so'zlar** deb ataladi. Undovlar ma'nosiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1) his-hayajon undovlari; 2) buyruq-xitob undovlari. Yozuvda undov so'zlardan keyin vergul qo'yiladi. Masalan: *eh, uh, o, e, uf, voy, ura, barakalla, ofarin, salom, xayr, xo'sh, rahmat, balli, bay-bay, voy-bo'y, a, ax, ohho, obbo, ey, ehhe, i, iye, o'h, o'hho', hm, him, be, tuf, hah, ho, hay-hay, eh, o', ha, iyi.*

a) **O'h-ho'**, muncha muzdek? b) **Iya**, bularni nima qilasan? c) Qo'y, yig'lama, **ey** baxshi.

Taqlid so'zlar va ularning turlari

Tovushga va holatga taqlidni bildirgan so'zlar **taqlid so'zlar** deb ataladi. Taqlid so'zlar nimaga taqlidni bildirishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. **Tovushga taqlid bildiradigan so'zlar.** gumbur-gumbur, dup-dup, duk-duk, shiq-shiq, qiy-chuv.

2. **Holatga taqlid bildiradigan so'zlar.** yalt-yult, apil-tapil, g'uj-g'uj, yarq-yurq, jimir-jimir, milt-milt.

Narsalarning ovozigga taqlidni bildiruvchi so'zlar tovushga taqlid so'zlar sanaladi. Masalan, *g'a-g'a* (o'rdak ovozigga taqlid), *di-dit* (mashina signaliga taqlid).

Narsalarga holatiga taqlidni bildiruvchi so'zlar holatga taqlid so'zlar hisoblanadi. Masalan, *lip-lip* (chiroq holati), *jimir-jimir* (suv holati).

1-mashq. Berilgan gaplar tarkibidagi undov so'zlarni toping.

1. Balli, o'g'lim, shunqor qancha baland uchmasin, baribir o'z uyasiga qaytadi. 2. Uff, nima qilsam ekan. Har qancha o'ylasam ham aqlliroq bir reja fikrimga kelmayapti. 3. Yo Olloh, bu qanday mashmasha. 4. Eh-ha, bu bolalar qachon ulg'ayadi-yu, qachon o'zining nonini topib yeydigan bo'ladi. 5. O, qani, bir yutum suv, bir hidlam muzdak toza havo!... 6. Tabiatan birovning mushugini pisht deyo olmaydigan ko'ngilchan edi. 7. Nima deysan, ey g'ayur inson. G'iybatlaring qildi meni qon. 8. Ibrohim otini niqtab, zarda bilan chu-chulay boshladi: "Chu, jonivor, chu!"

2-mashq. Berilgan gaplar tarkibidagi taqlid so'zlarni toping va ma'no turiga izoh bering.

1. Yetti qaroqchi yulduzi tik kelganda g'o'ng'ir -g'o'ng'ir ovozdan uyg'onib ketdim. 2. Jigarim otashga tegardi jiz-jiz. Sochlarim oqargan shunda ehtimol. 3. Dupur-dupur ot keldi, Ko'chaga qarang, kim keldi. 4. Chiroq lip-lip etdi. 5. Bezgak huruj qilganday lablari pir-pir uchardi. 6. Kallai saharlab guzarda qo'sh karnay g'at-g'uti yangradi. 7. Ummatali o'zini qanchalik og'ir tutmasin, dag'-dag' titrardi. 8. Eshikdan lip etib kirib, go'yo "pir" etib uchib ketgan bu g'aroyib qushcha.

Modal so'zlar

Ifodalanayotgan fikrga so'zlovchining munosabatini bildiradigan so'zlar **modal so'zlar** deb ataladi. Modal so'zlar gap tarkibida boshqa so'zlardan *vergul* bilan ajratiladi. M: *Ehtimol, bugun yetib kelar. Avvalo, insonning qalbi go'zal bo'lmog'i kerak.*

Modal soʻzlar quyidagi maʼnolarni ifodalaydi:

1. **Ishonch:** shubhasiz, shaksiz, soʻzsiz, albatta, tabiiy, toʻgʻri, darvoqe,
2. **Tasdiq:** darhaqiqat, haqiqatan, haqiqatda.
3. **Gumon:** shekilli, chamasi, chogʻi, ehtimol, balki, aftidan.
4. **Fikrning tartibi:** avvalo, avvalambor, qolaversa.
5. **Fikrning dalillanishi:** masalan, jumladan.
6. **Xulosa:** xullas, demak, nihoyat, xullas kalom, umuman.
7. **Afsuslanish achinish:** afsus, attang, esiz.
8. **Quvonch:** xayriyat.

Topshiriq. 1. Modal soʻzlarni toping va izohlang.

1. Afsuski, besh qoʻl barobar emas. Oramizda yomon niyatli kimsalar ham uchrab qoladi. 2. Ularga qarshi kurashish hammamizning burchimiz, albatta. 3. Xayriyat, odamlarimizga insof va diyonat qaytib kelmoqda. 4. Xullas, biz ulugʻ odamlarning farzandlarimiz. 5. Abduqodirning ham tomogʻiga bir narsa kelib tiqildi, shekilli, gapirolmadi. 6. Onajonim, balki bir kun, Men ham shoir boʻlarman. 7. Haqiqatan ham, koʻrshapalaklar qushlar bilan hayvonlar orasidagi jonivorlardir.

Test topshiriqlari

1. Toshkent Kimyo-texnologiya instituti nechanchi yildan alohida institut sifatida faoliyat yurita boshladi.

- A) 1990-yil
- B) 1991-yil
- C) 1940-yil
- D) 1992-yil

2. *Oq kun – baxt-u saodat,*

Qora kun – gʻam, musibat.

Berilgan parchada soʻzning shakl va maʼno munosabatiga koʻra qaysi turi bor?

- A) Shakldosh soʻz
- B) Maʼnodosh soʻz
- C) Zid maʼnoli soʻz
- D) Paronim

3. Shevaga xos birlik ishtirok etgan gapni toping.

- A) Dohiy oʻrnidan turib, toʻrt tarafga qaray-qaray nutq irod eta ketdi.
- B) Muhrdor chaqirtirildi va qogʻozdagi farmoyishlarga podshoning muhri bosildi.
- C) Shundoq ketivossam, roʻparamdan ikkita davangi kevotti.
- D) Ikki gʻarib bir yoqadan bosh chiqargan edik.

4. Ibora ishtirok etgan gapni toping.

- A) Dohiy oʻrnidan turib, toʻrt tarafga qaray-qaray nutq irod eta ketdi.
- B) Muhrdor chaqirtirildi va qogʻozdagi farmoyishlarga podshoning muhri bosildi.
- C) Shundoq ketivossam, roʻparamdan ikkita davangi kevotti.
- D) Ikki gʻarib bir yoqadan bosh chiqargan edik.

5. **Opti, kepti, naʼlat, koʻynak** kabi soʻzlar qaysi nutqiy uslubda uchraydi?

- A) badiiy uslub
- B) publitsistik uslub
- C) ilmiy uslub
- D) soʻzlashuv uslubi

6. Qaysi qatorda **kulmoq** soʻzining ijobiy boʻyoqqa ega soʻzi qatnashgan?

- A) Aravaning oldida gʻozapoya orasidan iljaygan kalla koʻrindi.

- B) Qiz Umidga qarab jilmaydi.
- C) Orqasiga qarasa tunov kungi buldozerchining tirjayib turganini ko'rdi.
- D) Haligi odam dami ichiga tushib, ming'irlagancha nari ketdi.

7. Modal so'z qaysi gap tarkibida bor?

- A) Bu yerda na tom, na deraza bor edi.
- B) Faqat o'shalar sen bilan gaplashishsin.
- C) Bu, ehtimol, uning butun hayoti uchun muhimdir.
- D) Ertasiga onasi quda tomonga odam yubordi.

8. Taqlidiy so'zlar berilgan so'zlar qatorni toping.

- A) eh, oh, voy-bo'
- B) qars-qurs, taqir-tuqur, shiq-shiq
- C) oh-voh, voy-dod, dod-faryod
- D) marhamat, qulluq, rahmat

9. Ko'chada bolalarning qiy-chuvi eshitildi. Ajratib ko'rsatilgan so'zning turkumini aniqlang.

- A) modal so'z
- B) undov so'z
- C) kirish so'z
- D) taqlid so'z

10. Undov so'zlar berilgan qatorni toping.

- A) albatta, shubhasiz, hatto
- B) axir, faqat, xuddi
- C) koshki, zero, haqiqatdan
- D) rahmat, qulluq, ofarin

23-mavzu. BO'LAJAK KASBIM

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so'zlash.

Yozma nutq: Kasb tanlovi to'g'risida esse yozish. Kasb-hunar mavzusida o'zbek maqollaridan namunalar yozish. Mutaxassislikka oid terminlar lug'atini shakllantirish.

Grammatika: Matn va uning turlari. Gapda so'zlarning bog'lanishi.

Tayanch so'z va iboralar: kasb, mutaxassis, qobiliyat, matn, mikromatn, makromatn, sintaksis, gapda so'zlarning bog'lanishi, teng bog'lanish, tobe bog'lanish.

Kasb - lotincha *professio* — rasmiy ko'rsatilgan mashg'ulot, ixtisoslik — maxsus nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar majmuiga ega tajribali shaxsning mehnat faoliyati turi hisoblanadi.

Kasb — kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg'ulot turi; muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi. Kasblar ichida mehnat faoliyatining eng tor sohasi bilan ajralib turadigan ixtisoslar bor (masalan, xirurg, oftalmolog, dermatolog va boshqalar). Kasblar odatda, shaxsning asosiy tirikchilik manbayi hisoblanadi.

Kasbni to'g'ri tanlash inson turmushida muhim qadamdir. Yosh avlodning butun hayotidagi muvafaqqiyat ko'p jihatdan kasbning qanchalik to'g'ri tanlashga bog'liq. Kasb tanlashda barkamol avlodlarga bir qator omillar ta'sir etadi.

Qiziqish- bu voqelikdagi predmetlar va hodisalarning bilish yoʻnalishini belgilaydigan biror narsaga berilish, qoniqish tuygʻusi orqali uygʻonadigan faoliyati tushuniladi.

Qobiliyat- qaysi bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga taalluqli boʻlgan va bilimlar, malakalarni egallashning tezkorligini yengilligini izohlab beradigan xususiyatdir.

Idrok – mazkur muddatda sezgi organlarining yoki bir butun hodisalarning inson ongida aks etishidir.

Tafakkur – bilish, anglashning yuqori shakli boʻlib oʻzida obyektiv dunyodagi hodisalar bilan narsalar oʻrtasidagi munosabatlarni namoyon etishdir.

Xarakter – xatti-harakatlarning sifat jihatlarining oʻziga xosligini, mustahkamligini koʻrsatib turadigan, maxsus munosabatlarning paydo boʻlish jarayonida oʻzining izini qoldiradigan xususiyatlar majmuasi.

Bilish – dunyo haqida yangi bilimlar hisoblanadigan subyekt va obyektning oʻzaro taʼsirini, voqelikning ruhiyatga qayta taʼsir etishi hamda aks ettirish jarayonidir.

Erk – oʻz oldiga maqsadlarni qoʻyish va qabul qilish, shu bilan birga, ularni hal etish, amalga oshirish yoʻlida ichki va tashqi toʻsqinliklarni yengib oʻtishdir.

Vazifa: 1. Berilgan matndan soʻz birikmasi va soʻz qoʻshilmasiga 10 misol yozing.

Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, maʼrifatga talpinadi. Dastlabki saboqni ham u maktabdan oladi. Ammo kelajagimiz egalari boʻlgan yoshlarga taʼlim berish ularni oʻqitish bilan bogʻlik ayrim muammolar bugungi kunda kishini oʻylantirib kuyayotgani tabiiy. Chunki zamonaviy shiddatkor jamiyat esa yetuk bilimdon mutaxassis kadrlarga ehtiyoj sezadi. Bu ham tabiat qonuni. Kadrlar masalasini hal etilmasa, saʼy-harakatlar kutilgan natijalarni berishi, hayotimiz maʼnaviyatimiz oʻzgarishi qiyin kechadi. Demakki, zamonaviy taʼlim-tarbiya tizimini isloh qilish zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash ishini yoʻlga qoʻyish faoliyatimizning bosh yoʻnalishi boʻlmogʻi darkor.

Aytish mumkinki, barkamol insonning shakllanishi uning munosib kasb-korni egallashi jamiyat taraqqiyoti uchun baholi qudrati oʻz hissasini qoʻshib yashashi va shu orqali jamiyatda oʻzligini namoyon etishdir. Komillik sari intilish shaxsning kasbiy shakllanishi bilan birgalikda yaxlit holda kechadigan va deyarli bir umr davom etadigan murakkab jarayondir. Keng maʼnoda kasbiy shakllanish deganda insonning oʻz aqliy qobiliyatlari jismoniy imkoniyatlari u yoki bu sohaga bulgan layoqatlari, qiziqish va intilishlari, shuningdek, qadriyat va dunyoqarashlariga koʻra biror bir kasb sohasida taʼlim olish keyinchalik shu sohaga kirishib, moslasha borishi va yillar davomida yetuk va malakali mutaxassis yetishishi tushuniladi.

Haqiqatan ham bu cheksiz murakkab orqaga qaytarilmaydigan muhim jarayon boʻlib, unda inson manfaatlari yoʻlidan unumli foydalanishni tashkil etish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda oʻta muhim bosqichi boʻlajak kasbni tanlash, yaʼni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha boʻlgan davrini uz ichiga oladi.

Topshiriq: Matnni davom ogʻzaki davom ettiring.

Vazifa:

1. Kasb tanlovi toʻgʻrisida esse yozing.
2. Kasb-hunar mavzusida oʻzbek maqollaridan namunalar yozing.
3. Mutaxassislikka oid terminlar lugʻatini shakllantiring.

GRAMMATIKA: MATN VA UNING TURLARI. GAPDA SOʻZLARNING BOGʻLANISHI.



Ma'lum voqelik haqida tasavvur (ma'lumot) beradigan bir yoki bir necha sintaktik birliklardan tashkil topgan nutqiy butunlik matn hisoblanadi.

Kishilarning nutqiy faoliyati *monolog, dialog, polilog* ko'rinishida amalga oshadi.

Matn hajm va mazmun belgisiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. *Hajm belgisiga ko'ra matn turlari.* Matn gapdan ko'ra yirik hajmli aloqa vositasi, nutqiy faoliyat mahsuli, muayyan qonuniyatlar asosida shakllangan yozma nutq ko'rinishidir. Matn hajm belgisiga ko'ra ikkiga ajratiladi. Minimal matn (mikromatn) va maksimal matn (makromatn).

Badiiy uslubda *minimal* matn deyilganda biror mavzuni yoritishga bag'ishlangan qatralar, xalq donishmandligini ifodalaydigan maqol, matal va aforizmlar, miniatyuralar, hajviy asarlar, nomalar, she'r va she'riy parchalar, umuman, kichik mavzuni qamrab oluvchi bir necha gaplardan iborat butunlik tushuniladi. Matnning ichki tomonini mazmun yaxlitligi, tashqi tomonini esa turli shakldagi bog'lamalar, sintaktik vositalar birlashtirib turadi.

Maksimal matn deyilganda keng ko'lamdagi voqealarni yoritish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan butunlik nazarda tutiladi. Badiiy uslubda hikoya, qissa, roman, epopeya kabi yirik hajmli asarlar maksimal matn hisoblanadi. Maksimal matn mikromatnlardan iborat. Eng kichik butunlik abzasga, eng katta butunlik esa bob (qism yoki fasl)larga to'g'ri keladi. Bunday matn tarkibida epigraf, so'zboshi (muqaddima), so'ngso'z (epilog) kabi yordamchi qismlar ham ishtirok etishi mumkin. Ular asar mazmuni va g'oyasiga, shuningdek, mavzuning tanlanishi va yoritilishiga oid ayrim masalalarga qo'shimcha izoh, sharh bo'lib keladi.

Makromatnning eng kichik birligi abzasdir. Abzas bir mazmuniy butunlik bo'lib, "matnning bir xat boshidan keyingi xat boshigacha bo'lgan qismi" hisoblanadi.

Oddiy kundalik hayotdagi so'zlashuv nutqida har doim ham yangidan matn yaratmaymiz. Ehtiyojimizga ko'ra turli matn turlaridan foydalanamiz. Ba'zan boshimizdan o'tgan yoki o'zimiz guvoh bo'lgan voqealarni kimgadir aytib beramiz. Insonlar o'rtasidagi muloqot maqsadi va mazmuni shular bilangina chegaralanib qolmaydi. Inson hissiyotlarini, tuyg'ularini, hayajonlarini, azob va qayg'ularini ifodalash, shu orqali tinglovchi yoki kitobxonni ta'sirlantirishni istaydi. Anna shunday hollarda ba'zan mubolag'a ba'zan o'xshash – qiyoslash kabi tasviriy vositalardan foydalanamiz.


2. *Ifoda maqsadiga va mazmuniga ko'ra* badiiy matnni quyidagi turlarga bo'lib chiqish mumkin: 1. Hikoya mazmunli matn. 2. Tasviriy matn. 3. Izoh mazmunli matn. 4. Didaktik matn. 5. Xabar mazmunli matn. 6. Buyruq mazmunli matn. 7. Hissiy ifoda mazmunli matn.

Masalan: *Izoh mazmunli matnlarda* aytilayotgan fikrning ishonarliligini ta'kidlash uchun turli dalil va izohlar keltiriladi. Asoslash, isbotlash, o'zini oqlashga urinish yoki himoya maqsadida har xil vajlarni keltirish argumentli matn turining o'ziga xos jihatlaridan hisoblanadi.

Xabar mazmunli matnlar. Biror voqea-hodisa haqida xabar berish maqsadida tuzilgan yoki havola qilingan matng informativ matn hisoblanadi. Badiiy matnda informativlik o'ziga xos tarzda bo'ladi. Oddiy xabardan farqlanib, estetik maqsad yuklangan bo'ladi.

Buyruq mazmunli matnlar. Buyruq havmda maslahat ohangi etakchilik qiladigan, buyruq maylidagi gaplardan tuzilgan, biror ishni bajartirish yoki turli ta'qiqlashlarni ifoda etadigan matn tipiga buyruq mazmunli matn deyiladi. Asosan qao'ramonlar nutqida kuzatiladi.

Gapda so'zlarning bog'lanishi



Sintaksis grammatikaning bir bo'limi bo'lib, unda so'z birikmasi va gap, ularning tuzilishi hamda turlari o'rganiladi. Shunga ko'ra sintaksis ikkiga bo'linadi: So'z birikmasi sintaksisi va gap sintaksisi. Gapda so'zlar iki xil usulda bog'lanadi.

1) **teng bog'lanish** – ikki so'zning teng huquqli, biri ikkinchisiga bo'ysunmay bog'lanishi: *opam va kitob, uy va tom...*

2) **tobe bog'lanish** – bir so'zning (tobe so'zning) boshqa bir so'zga (hokim so'zga) bo'ysunishi orqali bog'lanishi: *opamning kitobi, uyning tomi...*

So'zning tobelanishi asosida bog'lanishi so'z birikmalarini hosil qiladi va so'z birikmasi ikki va undan ortiq so'zdan iborat bo'lishiga qaramay, bitta tushunchani ifodalaydi: *opamning kitobi, qizil gul, uyga kirmoq...*

So'zlarning teng bog'lanishi so'z qo'shilmalarini hosil qiladi. So'z qo'shilmasida har bir so'z ma'no mustaqilligini, alohida-alohida narsalarni nomlab kelish xususiyatini saqlab qoladi: *opam va kitob, siz bilan biz...*

Topshiriq: 1. Berilgan gaplarni so'zlarning bog'lanishi bo'yicha tahlil qiling.

1. Mehnat va qunt bilan bajarilgan ish doimo sifatli bo'ladi.
 2. U shaharning serqatnov ko'chalariga, gavjumroq joylariga shoshildi.
 3. Mayingina shabada yer nafasini ufurib, yengilgina esadi.
 4. Muzaffarning lo'ppi yuzadgi achinish alomati xushnud tabassum bilan almashdi.
2. Teng bog'lanish va tobe bog'lanishga 10tadan misol yozing.

Test topshiriqlari

1. Qanday matn tarkibida so'roq olmoshlari, muomala odobiga oid so'z va iboralar, yuklamalar, undovlar, kirish so'zlar keng qo'llanadi. Gaplar, asosan, sodda gaplardan tashkil topadi, sodda gaplarning bir tarkibli turlari, to'liqsiz gaplar, so'z-gaplar faol ishlatiladi?

- A) monologik matn
- B) dialogik matn
- C) lirik monolog
- D) dramatik monolog

2. Hajm belgisiga ko'ra matn qanday turlarga bo'linadi?

- A) Mikromatn va makromatn
- B) Monologik va dialogik matn
- C) Buyruq mazmunli va xabar mazmunli matnlar
- D) Tasviriy va hikoya mazmunli matnlar

3. Matn bu...

- A) Muayyan tilda, uning hududiy yoki ijtimoiy lahjasida mavjud bo'lgan, u yoki bu yozuvchi asarlarida uchraydigan so'zlar yig'indisi.

- B) Hamma elementlari o‘zaro zich aloqada bo‘lgan va yozuvchi nuqtayi nazaridan ma'lum bir maqsadga yo‘naltirilgan nominativeestetik axborotni ifodalovchi murakkab tuzilma.
- C) Berilgan mavzu bo‘yicha yozilgan qisqa axborot. Muhokama etilayotgan masala haqida umumiy tushuncha berish.
- D) Badiiy, ilmiy, metodik asarlarning manbasi va unda ko‘tarilgan masalani ko‘rsatishga qaratilgan qisqa xabar.
4. Makromatnda so‘ngsiz, tugallanuvchi xulosa nima deyiladi?
- A) Abzats
B) Muqaddima
C) Epigraf
D) Xotima
5. Kimgadir pand-nasihat qilish, uni turli hayotiy voqealar vositasida tarbiyalash yoki aytilganlardan xulosa chiqarishga o‘rgatish istagi asosida tuzilgan matn qanday nomlanadi?
- A) Hikoya mazmunli matn
B) Tasviriy matn
C) Didaktik matn
D) Buyruq mazmunli matn
6. Quyida berilgan uslubiy xoslangan so‘zlardan haykaltaroshlikka oid atamalarni toping.
- A) Naturmort, keramika, haykaltaroshlik
B) Ganchkor, naqqosh, byust
C) Arkada, vandalizm, akvarelchi, haykal
D) Haykal, monumental haykal, keramika, byust
7. Sanalar to‘g‘ri yozilgan javobni toping.
- A) 22.IX.14; 17.X.14
B) 25.09.14; 06.11.14
C) 2018.25.09; 2018.06.11
D) 25.09.14; 17.X.14
8. O‘zbek tilida so‘z birikmasi va gap turlarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limini toping.
- A) Morfologiya
B) Sintaksis
C) Fonetika
D) Leksikologiya
9. Qaysi qatorda so‘z birikmasi berilgan?
- A) opam va kitob, siz bilan biz
B) opamning kitobi, qizil gul,
C) Burni ko‘tarilmoq, qovog‘i osilmoq
D) Salom bermoq, borib kelmoq
10. **Mehnat va qunt bilan** bajarilgan ish doimo sifatli bo‘ladi. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar qanday birikkan?
- A) Teng bog‘lanish
B) Tobe bog‘lanish
C) Ibora

D) Qo'shma so'z

24-mavzu. HAYOT MENING TASAVVURIMDA

Og'zaki nutq: Hayotga munosabat va qiziqishlar haqida gapirib berish. Inson barkamollikka erishishi uchun nimalar qilishi kerakligi haqida fikr bildirish. Hayotdagi idealni tasvirlab berish. Mavzu bo'yicha bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq: "Hayot mening tasavvurimda" mavzusida esse yozish. Hayotdagi maqsadlar va orzular haqida dialogik matn tuzish va uni inssenirovka qilish.

Grammatika: Dialogik matnning ma'no munosabatiga ko'ra turlari. So'z birikmasi sintaksisi.

Tayanch so'z va iboralar: hayot haqida tasavvur, dialogik matn, monologik matn, so'z birikmasi, hokim so'z, tobe so'z, moslashuv, boshqaruv, bitishuv.

1-topshiriq. Matnni o'qing. Matnga nisbatan o'z munosabatingizni bildiring.

Odamlar bor ezgulikni qilarlar orzu,

Odamlar bor yovuzlikka bo'larlar ko'zgu.

Inson zoti borki, har daqiqada tug'ilgan yangi istaklarini qondirishni, amalga oshirishni istab yashaydi. Inson orzusini na aytib, na yetib tugata olasan! U shunchalar ko'p narsani istaydiki, ammo hammasi ham ushalavermaydi-da, negaki xohishning o'zi kamlik qilar ekan buning uchun. Sizdan "Eng katta orzuingiz nima?" deb, hech so'rashganmi? Javob uchun albatta bir bahya bo'lsa ham to'xtab qolasiz, xayolingizga kelgan birinchi fikrni aytib yubormoqchi bo'lasiz-u ,ammo ayta olmaysiz ... Qizig'-a, orzuning ham katta-kichigi bo'lar ekan-da. Orzu qilish siz uchun shunchalar muhimki, hatto o'zingiz ham bilmaysiz, uning hayotingizdagi o'rnini. Balki uning ba'zilar uchun hech qanday ahamiyati yo'q, deb hisoblarsiz. Xuddi shu fikrlarga qarata aytish mumkinki, ORZU bu hoy-u, havas emas. U insoniyatning shu bugungi kunga yetib kelishiga sababchi bo'lgan eng mustahkam tirgakdir. Inson orzusi nimalarga xizmat qilmaydi deysiz, qabohatga ham, saodatga ham u yetaklaydi sizni.

Bu hayot biz uchun eng katta muallimdir, yurtning bag'rida o'tgan har bir kunimiz esa olayotgan darsimiz ekan. Orzular esa muallim hayotning past-u balandiga chidashni va bu sabrimiz orqali olajak mukofotimiz ekan. "Orzu", nima o'zi u? Inson orzu qilmasdan yashay oladimi? Orzular faqat yaxshilikka xizmat qiladimi? Yoki yovuzlikka hammi? Orzu va istakning qanday farqlari bor? Orzu istakdan ustun turadimi? Siz ham bu savollarga javob axtarib ko'ring, balki orzuingizga bo'lgan ishonchingiz mustahkamlanar.

Eng to'g'ri mezon

Ma'naviyat inson ko'nglida zuhur topadi. Qalbga esa buyurib bo'lmaydi. Kimgadir ajib zavq bag'ishlagan narsani boshqa birov rad etishi mumkin. Ayni paytda komil insonga xos yuksak ma'naviyat jamiyatimiz taqdirini belgilovchi oliy qadriyat hisoblanadi. Xo'sh, bu borada qanday muammolar mavjud? Yoshlarimiz ruhiy dunyosiga kirib kelayotgan g'oya va qarashlar asriy an'analar vorisi bo'lgan xalqimiz tabiatiga qanchalik mos keladi? Sivilizatsiya mevasi sanalgan internetdan tarqalayotgan turfa xabarlar yosh qalblarga malhammi yoki og'u?

Bir narsani unutmaslik kerakki, har kim o'zi istagan narsadan zavq oladi. Kimgadir Motsart, kimgadir rep va yana kimgadir Shashmaqom yoqadi. Lekin yoshlarning aksariyati

maza-matrasiz qo‘shiqlarni yotib olib eshitayotgani rost. Aholining yarmini yoshlar tashkil etadigan yurtida bu holni salbiy jarayon deb atash mumkindir.

Bugungi ayrim o‘g‘il-qizlarimizdagi kamchilik turmushdagi kamchilikning yo‘qligidadir. Juda ko‘p kuzatamiz: kim insonga samimiy munosabatda bo‘lsa, atrofdagilarni qadrlasa, o‘sha odam hayotda qiyinchilik ko‘rgan, bir burda nonning qanday paydo bo‘lishini yaxshi biladi. Va aksincha, kim ota-onasining o‘ta g‘amxo‘rligi qurshovida o‘ssa, hamma narsa badastir bo‘lsa, o‘zgalarga bepisand, qadrsiz qaraydi.

Ammo yoshlar orasida hech narsaga qaramay, ta‘bir joiz bo‘lsa, «yorib chiqayotganlar» ham borligini tan olish kerak. Ular sport, san‘at, ilm-fan sohasida ilgari egallanmagan marralarni zabt etmoqda. Va bu yoshlar mumtoz qo‘shiqlarimizni ham, milliy o‘zbek adabiyotini ham, zamonaviy fanlarni ham, internet texnologiyalarini ham yaxshi biladi. Masalan, Davronbek Tojialiev ismli bir talaba tashkil qilgan www.ziyo-uz.narod.ru internet-sayti bor. Bu saytga Umar Hayyom, Hofiz Sheroziy, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Shavkat Rahmon kabi shoirlarning barcha she‘rlari, mumtoz adabiyotimiz namoyandalarining shoh asarlari elektron ko‘rinishda kiritilgan. Saytdagi milliy ma‘naviyatga bag‘ishlangan forum sahifalarda esa har kuni 200 dan ziyod yoshlar qatnashadi.

Bugungi avlod o‘tmish ajdodlarimizdagi qaysi jihatlarni o‘ziga qabul qilishi kerak, deb savol qo‘yilsa, mardlik, tantilik, oriyat kabi xalqimizning azaliy qadriyatlari birlamchi o‘rinda turadi. O‘zbekda «Belda belbog‘ing bormi?» degan ibora bor. Inson o‘z izzat-nafsi uchun qanday talashib-tortishsa, kindik qoni to‘kilgan zamin, ya‘ni Vatani sha‘ni uchun ham shunday kurasha olishi kerak. Biz yoshlarimizda ana shu fazilatlar mustahkam tarkib topishini istaymiz. Axir, sizlar O‘zbekistonning ertangi taqdirini belgilaysizlar! Bunga hech kim befarq bo‘lolmaydi.

Bu yo‘lda adashmaslik uchun nima qilish kerak? Albatta, e‘tiqodi, yashash tarzi, kasb-kori, ma‘lumoti jihatdan har kim turli darajada bo‘lishi tabiiy. Lekin ularning hammasini bir xislat – niyatning pokligi birlashtirib turishi kerak. Tinch-osoyishta hayot, bunyodkorlik, xayrli ishlar – xalqimizning asosiy fazilati. Bunga esa, pok niyat bilan erishiladi. Eng to‘g‘ri mezon, mana shu.


Lug‘at

qadimgi – древний
davr – период
sarkarda – командир
o‘zaro – совместный
zavq -восхищение
tuyg‘u–чувства
ehtiyoj –нужда

diniy - религиозный
soha - сектор
ozod - свобода
e‘tibor - внимание
ayrim-некоторые
serqirra-многогранный
kushanda – пожиратель

“Aqliy hujum” usuli yordamida suhbat.

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:



1. Ta'lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikir, g'oya va mulohaza) bildirishlarini so'raladi;
2. Ta'lim oluvchilar savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Ta'lim oluvchilarning fikr-g'oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi;
4. Fikr-g'oyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

Hayot nima degani?

Hayotdagi idealingizni tasvirlab bering.

“Haqiqiy inson” deganda, kimni nazarda tutamiz?

Inson barkamollikka erishishi uchun nimalar qilishi kerak?

20 yildan keyingi hayot sizning tasavvuringizda qanday bo'ladi?

Yoshlarning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

Odamlar bor ezgulikni qilarlar orzu,

Odamlar bor yovuzlikka bo'lalar ko'zgu (izohlang).

Vazifa: 1. “Hayot mening tasavvurimda” mavzusida erkin insho yozing.

GRAMMATIKA: DIALOGIK MATNNING MA'NO MUNOSABATIGA KO'RA TURLARI. SO'Z BIRIKMASI SINTAKSISI.



Dialogik matn ikki va undan ortiq suhbatdoshning turlicha mazmundagi fikr-axborot almashinuvidan iborat. Ikki kishi o'rtasidagi dialogik nutq savol-javob, buyruq-javob, xabar-e'tiroz mazmunida bo'lib, fikr xususidagi tasdiq yoki inkorni, ziddiyat yoki munozarani ifodalaydi. Ko'p kishilik dialoglarda suhbat mavzusi savol-javobdan iborat bo'lmay, o'rta tashlangan savol, taklif, da'vat biror xabar, dalillar bilan xulosalanadi.

Dialogik matndagi gaplar, asosan, sodda gaplardan tashkil topadi, sodda gaplarning bir tarkibli turlari, toliqsiz gaplar, so'z-gaplar faol ishlatiladi. Dialogik matn so'zlashuv uslubi va badiiy uslubga xosdir.

Topshiriq. Alisher Navoiyning „Farhod va Shirin“ dostonidan olingan dialogik matn namunasini ifodali o'qing.

Dedi: Qaydinsen, ey majnuni gumrah

Dedi: Majnun vatandin qayda ogah.

Dedi: Nedur sanga olamda pasha

Dedi: Ishq ichra majnunluq hamesha.

Dedi: Bu ishdin o'lmas kasb ro'zi,

Dedi: Kasb o'lsa basdur ishq so'zi.

Dedikim: Ishq o'tidin de fasona!

Dedi: Kuymay kishi tormas nishona.

Dedi: Vaslig'a borsen orzumand
Dedi: Bormen xayoli birla xursand.

Dedi: Kishvar beray, kech bu havasdin!
Dedi: Bechora, kech bu multamasdin!

Dedi: Ishq ichra qatling hukm etkum!
Dedi: Ishqida maqsudumg'a yetkum.

Dedi: Bu ishda yo'q sendin yiroq qatl!
Dedi: Bu so'zlaringdin yaxshiroq qatl.

So'z birikmasi sintaksisi

So'z birikmasi ham *gap*, *so'z*, *qo'shimcha* va *tovush* kabi til birligi hisoblanadi. Ikki va undan ortiq mustaqil so'z *grammatik* va *ma'no* jihatdan birikib so'z birikmasini hosil qiladi. So'z birikmasi hokim so'z va tobe so'zdan tuziladi. *Maktub yozmoq*, *qizil olma* birikmalarida *maktub*, *qizil* so'zlari *tobe*, *yozmoq*, *olma* so'zlari *hokim so'z* hisoblanadi. *Tobe* so'z *hokim so'z*ni aniqlab, to'ldirib, izohlab keladi. Turli turkum so'zlari *hokim so'z* vazifasida kela oladi.

Kelishik va egalik qo'shimchalari hamda ko'makchilar so'z birikmasi tarkibida so'zlarni bir-biriga bog'lashga xizmat qiladi. Masalan: *choynakdan kattaroq*, *o'quvchining sovg'alari*, *qalam bilan chizmoq*, *kitobning muqovasi*, *g'oliblik uchun kurashish*. So'z birikmasida *tobe so'z*ning *hokim so'z*ga birikishiga ko'ra 3 turga bo'linadi: 1. Bitishuv; 2. Boshqaruv; 3. Moslashuv.

Bitishuv. So'z birikmalari tarkibidagi *tobe* va *hokim so'z*ning hech qanday qo'shimchasiz, faqat ohang va ma'nosiga ko'ra bog'lanishi bitishuv deyiladi:

M: *tez termoq*, *chiroyli gapirmoq*, *ishchan o'quvchi*, *mehribon murabbiy*.

Boshqaruv. *Tobe so'z*ning *hokim so'z*ga tushum, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishigi qo'shimchalari yoki ko'makchilar yordamida bog'lanishi boshqaruv deyiladi:

M: *do'stlarni hurmat qilmoq*, *g'alaba uchun kurashmoq*, *yoshlarga g'amxo'rlik qilmoq*, *sharoitga ko'ra yondashmoq*.

Moslashuv. *Tobe so'z*ning *hokim so'z*ga qaratqich kelishigi qo'shimchasi yordamida, *hokim so'z*ning esa *tobe so'z*ga egalik qo'shimchalari yordamida bog'lanishi moslashuv deyiladi: *kitobning muqovasi*, *xonalarning kattarog'i*, *bizning sinf*, *o'z uyim*.

1-mashq. Quyidagi so'zlarning lug'aviy ma'nosini izohlang va ular ishtirokida so'z birikmalari tuzing.

Zamon, zamin, sumalak, lapar, o'yin, maslahat, shabada, olim, madrasa, sharbat.

2-mashq. O'qing, qiyoslang.

qizil gul	красный цветок
yotgan bola	лежащий ребенок
o'qilgan kitob	прочитанная книга
ko'm-ko'k dalalar	зеленые поля
yangil kitoblar	новые книги

3-mashq. O'qing. Avval boshqaruv, keyin moslashuv, so'ngra bitishuv yo'li bilan birikkan so'z birikmalarini ko'chiring.

samimiy tilaklar, talabalar anjumani, tez gapirmoq, ukamning kitobi, daraxtning kurtagi, qishloqdan kelmoq, olma terish, a'lochilarni tabriklash, tonggi shabada, vazifani bajarish, qiziqarli kitob, qalamda yozmoq, uydan chiqmoq, vatanni sevmuq, ulkan ishlar.

1- topshiriq. Tushunchlarga berilgan ta'riflarni moslashtiring.

2-topshiriq. Berilgan gan gaplardan so'z birikmalarini toping va izohlang.

So'z qo'shilmasi	So'z birikmalari tarkibidagi tobe va hokim so'zning hech qanday qo'shimchasiz, faqat ohang va ma'nosiga ko'ra bog'lanishi
Moslashuv	Ikki so'zning teng huquqli, biri ikkinchisiga bo'ysunmay bog'lanishi
Bitishuv	Tobe so'zning hokim so'zga tushum, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishigi qo'shimchalari yoki ko'makchilar yordamida bog'lanishi
Boshqaruv	Tobe so'zning hokim so'zga qaratqich kelishigi qo'shimchasi yordamida, hokim so'zning esa tobe so'zga egalik qo'shimchalari yordamida bog'lanishi moslashuv deyiladi: qo'shimchasi yordamida, hokim so'zning esa tobe so'zga egalik qo'shimchalari yordamida bog'lanishi

1. Ustozingga tik qarasang, to'zasan, Hurmat qilsang, asta-asta o'zasan.

2. Chaqimchining tilidan ilon zahar oladi. 3. Sulton Husayn o'z sahibqironini o'zining oq otiga mindirib, otning jilovidan ushlab, piyoda yura boshladi. 4. Tarixni anglash orqali insonda o'zining inson ekanligini anglash qobiliyati shakllanadi. 5. Sabr sekin yuradigan ulovdir, biroq manzilga eltadi. 6. Sabr bamisoli tabib, badxo'r dori, bemor undan azob tortadi, ammo so'ngida sog'likka erishadi.

Vazifa: So'z birikmasining har bir turiga 5tadan misol yozing.

Test topshiriqlari

1. *Sen mangusan, baqosan,
Men esam o'tkinchi zot.
Sen hamisha bahorsan,
Men – lahzalik xotirot.*

Berilgan parchada so'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qaysi turi bor?

- A) Shakldosh so'z
- B) Ma'nodosh so'z
- C) Zid ma'noli so'z
- D) Paronim

2. Qarama-qarshi, zid ma'noli so'zlarni aniqlang.

- A) Shodliklarim siz tanho, alamlarim siz mening.
- B) O'qituvchining esa hyech narsadan xabari yo'q edi.
- C) Akrom maktabga keldi, lekin darsga kirmadi.
- D) Uning yuragiga qil ham sig'mas edi.

3. O'zbek tilida so'z turkumlari tilshunoslik fanining qaysi bo'limida o'rganiladi?

- A) morfologiya
- B) sintaksis
- C) fonetika

D) leksikologiya

4. A.Navoiy "Xamsa" asariga kiruvchi dostonlar ketma-ketligi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) "Hayrat-ul abror", "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin", "Saddi Iskandariy", "Sab'ai sayyor"

B) "Hayrat-ul abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy"

C) "Hayrat-ul abror", "Sab'ai sayyor", "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin", "Saddi Iskandariy"

D) "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin", "Hayrat-ul abror", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy"

5. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi nechanchi yilda 2 bosqichli, ya'ni bakalavr va magistratura tizimiga o'tdi?

A) 1998-yil

B) 1996-yil

C) 2000-yil

D) 1997-yil

6. Qaysi qatorda dialogik matn namunasi berilgan?

A) Abdulla Qodiriy o'ziga yaqin bo'lgan qardosh xalqlar adabiyotlari, xususan, ozarbayjon, rus, tatar adabiyotlari tajribalaridan foydalanib, birinchi o'zbek romani – yevropa adabiyoti mezonlari bilan o'lchanadigan roman yaratdi.

B) Uzilgan bir kiprik abad yo'qolmas,
Shunchalar mustahkam xonai xurshid.

C) Dedi: Nedur senga olamda pasha?
Dedi: Ishq ichra majnunliq hamesha.

D) Orzum shul, o'chmasin yongan chirog'ing,
Yulduzday nur sohsin chashming-qarog'ing.

7. Qaysi qatorda moslashuvli birikmaga misol berilgan?

A) Zavq bilan tinglamoq

B) Institut binosi

C) Kitob va daftar

D) Kitob o'qimoq

8. Qish der: "***Kumush qorim*** bor,

Qorbobo yasang!"

Berilgan parchada ajratilgan bo'lak so'z birikmasining qaysi turiga mansub?

A) Moslashuv

B) Bitishuv

C) Boshqaruv

D) So'z qo'shilmasi

9. Qaysi qatorda boshqaruvli birikma berilgan?

A) Kitobni o'qimoq, uyga kelmoq

B) Qizil qalam, chiroyli gul

C) Institut talabalari, qiziqarli kitob

D) Sayr qilmoq, odobli qiz

10. *Mayin shamol, sovuq havo* birikmalarini izohlang.
- A) Moslashuvli birikma
 - B) Bitishuvli birikma
 - C) Boshqaruvli birikma
 - D) Teng bog‘lanish

25-mavzu. USTOZ MAKTABI

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma‘nosini izohlash. Matnni ijodiy so‘zlash. Ustozlarga bag‘ishlangan she‘r yod olish.

Yozma nutq: Kasbiy faoliyatda ustoz va shogird an‘analari to‘g‘risida matn tuzish. Ustozlar haqida esse yozish. Ustoz haqidagi rivoyatlardan namunalar yozish.

Grammatika: Monologik matn. Monologik matnda mazmun izchilligi va ohang.

Tayanch so‘z va iboralar: *ustoz maktabi, ustoz va shogird, kimyogar olimlar, monologik matn, dialog, polilog, gap sintaksisi, gap bo‘laklari, bosh bo‘laklari, ikkinchi darajali bo‘laklari.*

Dunyoda shunday insonlar bo‘ladiki, ular har doim el ardog‘ida, hurmat e‘tiborida bo‘lishadi. Bu kabi insonlar kelajak avlod ta‘lim-tarbiyasiga mas‘uldirlar. Shuningdek, yoshlarning kamoloti, barkamol inson bo‘lib voyaga etishlarida ularning mehnatlari tahsinga loyiqdir. Biz so‘z yuritayotgan kasb egasiga berilgan ta‘rifdan anglagan bo‘lsangiz kerak. Ha ular ustozlarimizdir. Xalqimiz o‘rtasida “Ustoz otangdek ulug‘”, – deya ta‘rif beriladi. Inson yashar ekan, avvalo, unga bilim va ma‘rifat dunyosi sari yo‘l ochib bergan, uning qalbiga yuksak insoniy fazilatlar hissini singdirish yo‘lida zahmat chekkan ustoz va murabbiylariga nisbatan ko‘nglida hamisha minnatdorlik tuyg‘usi bilan yashaydi.

Maktab ostonasiga ilk qadam qo‘yganimizda qo‘limizga qalam tutqazib, alifboni o‘rgatgan birinchi ustozimiz siymosini, bu ulug‘ zotning fidokorona mehnatini doimo chuqur entikish bilan eslaymiz va qalbimizda ularga nisbatan hurmat-ehtirom hissini tuyamiz.

Haqiqatda ustozlarimiz ota-onalarimizdek aziz va jonkuyar, mehribon va sevimlidirlar. Biror kasb egasi yo‘q-ki, ularning tarbiyasida bo‘lmagan, mehr bulog‘idan suv ichmagan. Dono xalqimiz bejizga “Ustoz ko‘rmagan, har maqomga yo‘rg‘alar”,- deya ta‘kidlaydi. Shu bois, barcha kasb egalari borki, ustozlar ta‘lim-tarbiyasini olgan va ulkan cho‘qqilarni zabt etishgan.

Topshiriqlar:

1. Matnni o‘qib chiqing.
2. Matndagi kimyoviy atamalarni ko‘chirib yozing.
3. Mashhur kimyogarlar haqida „Klaster“ tuzing.

Lug‘at

ilmiy - научный
munosib - достойный
xossalar – свойства
murakkab - трудно
aylantirish - превращать
hissa - вклад
aniqlandi - обнаружен
sanoat - промышленность
o‘g‘itlar - удобрения
qurilma – устройства

- Vazifa:** 1. Ustozlar haqida esse yozing.
2. Ustoz haqidagi rivoyatlardan namunalar yozing.

GRAMMATIKA: MONOLOGIK MATN. MONOLOGIK MATNDA MAZMUN IZCHILLIGI VA OHANG.



Monolog - soʻzlovchining oʻziga yoki tinglovchilarga qaratilgan nutqdir. Monologik nutqda soʻzlovchi oʻziga maʼlum boʻlgan voqea-hodisalar, oʻz ichki kechinmalari haqida maʼlumot beradi. Monologik nutq tinglovchilarni suhbatga faol aralashuvga undamaydi; ulardan aytilganlarga javob talab qilmaydi. Sintaktik jihatdan monologik nutq murakkab tuzilgan boʻlib, keng qamrovlidir.

Monologik nutq oʻz xususiyatlariga qarab bir necha koʻrinishda boʻlishi mumkin: ichki monolog va tashqi monolog. Tashqi monologning dramatik monolog, lirik monolog, xabar monolog kabi turlari bor.

Ichki monolog badiiy adabiyotda qoʻllanuvchi uslubiy usullardan biridir. Bu usul yuz bergan aniq voqealarni ularning taʼsirida qahramon ichki kechinmalarida paydo boʻlgan fikrlar sifatida bayon etishi imkonini beradi. Ichki monolog soʻzlovchining ichki nutqidir.

Tashqi monolog soʻzlovchining tashqi nutqidir. Unda til imkoniyatlari haqiqatga aylanadi. Soʻzlovchining nutq mazmunini yetkazishga koʻmaklashuvchi turli xil harakatlari yordamida bayon etiladigan monologik nutq dramatik monolog deyiladi. Dramatik monolog soʻzlayotgan shaxsning qoʻli, gavdasi, qoshi, boshi, kafti kabi aʼzolari zarurati tugʻilganda harakat qiladi. Turli tarzda maʼnoli harakatlar fikrning tinglovchi tomonidan yaxshi tushunib olinishiga koʻmaklashadi.

Soʻzlovchining ichki his-tuygʻularini, ruhiy kechinmalarini ifodalovchi tashqi monologik nutq lirik monolog deyiladi. Lirik monologda shaxsning orzu-umidlari tashqi dunyodan olgan taassurotlari kelajak rejalari aks etadi. Masalan: *Uch kunda jadal bilan bitta doʻppi bitkazaman. Men bu doʻppimning nusxasini toleyimdan chizdim, gullari yurak qonimdan yaproqlari sariq chehralaridan namunadir.*

Soʻzlovchining yuz bergan voqea-hodisalar haqida hikoya qilib berilishi xabar monolog hisoblanadi. Xabar monologida voqea raviiy tilidan bayon etiladi. Xabar monologi hikoyachilik, qissachilikda koʻproq qoʻllaniladi. Masalan: *Tush payti maxsus avtobusda ishga boryapman.*

Polilog. Ikkidan ortiq ishtirokchilarning nutqidan tuzilgan suhbat polilogdir. Polilog hamma til xususiyatlari jihatidan oʻzidir. Faqat unda suhbatdoshlarning soni koʻproq boʻladi. Soʻzlovchi oʻrtaga tashlagan muammoga birdan ortiq ishtirokchi oʻz fikrini bildirishi mumkin.

Topshiriq. Lirik monolog namunasi ifodali oʻqing. Mazmunini izohlang.

Tilla baliqcha

Tuxumdan chiqdi-yu keltirib uni
Shu loyqa hovuzga tomon otdilar.
Tashlandiq ushoq yeb oʻtadi kuni,
Xor-u xas, xazonlar ustin yopdilar.

Dunyoda koʻrgani shu tor hovuzcha
Va mudroq tollarning achchiq xazoni.
Menga alam qilar, tilla baliqcha
Bir koʻlmak hovuz deb bilar dunyoni...

Vazifa: Oʻzingiz sevgan asar qahramonining monologini yozing.

Test topshiriqlari

1. Qaysi qatorda lirik monolog namunasi keltirilgan?

- A) Abdulla Qodiriy o'ziga yaqin bo'lgan qardosh xalqlar adabiyotlari, xususan, ozarbayjon, rus, tatar adabiyotlari tajribalaridan foydalanib, birinchi o'zbek romani – yevropa adabiyoti mezonlari bilan o'lchanadigan roman yaratdi.
- B) Dedi: Nedur senga olamda pesha?
Dedi: Ishq ichra majnunliq hamesha.
- C) Uzilgan bir kiprik abad yo'qolmas,
Shunchalar mustahkam xonai xurshid.
- D) Tush payti maxsus avtobusda ishga boryapman.
2. Qaysi qatorda xabar monolog namunasi berilgan?
- A) Abdulla Qodiriy o'ziga yaqin bo'lgan qardosh xalqlar adabiyotlari, xususan, ozarbayjon, rus, tatar adabiyotlari tajribalaridan foydalanib, birinchi o'zbek romani – yevropa adabiyoti mezonlari bilan o'lchanadigan roman yaratdi.
- B) Uzilgan bir kiprik abad yo'qolmas,
Shunchalar mustahkam xonai xurshid.
- C) Dedi: Nedur senga olamda pesha?
Dedi: Ishq ichra majnunliq hamesha.
- D) Orzum shul, o'chmasin yongan chirog'ing,
Yulduzday nur sohsin chashming-qarog'ing.
3. *Yaxshi bo'lg'in, hatto dushmaning oson,
Seni deyo'lmasin yaramas-yomon.
Tanburning ovozi soz chiqib tursa,
Qulog'in buramas sozchi hech qachon. (S. Sheroziy)*
Yuqorida qanday matn namunasi sanaladi?
- A) Polilogik matn
- B) Dialogik matn
- C) Lirik monolog
- D) Dramatik monolog
4. Gapning bosh bo'laklari qaysilar?
- A) Aniqlovchi, hol
- B) To'ldiruvchi, ega
- C) Kesim, ega
- D) Aniqlovchi, kesim
5. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari qaysilar?
- A) Ega, undalma, kesim
- B) Aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol
- C) Undalma, hol, kirish so'z
- D) To'ldiruvchi, ega, kesim
6. ***Kechiktirilgan o'yin bugun o'tkazildi.*** Berilgan gapdagi bosh bo'laklarni toping.
- A) Kechiktirilgan o'yin
- B) Bugun o'tkazildi.
- C) O'yin o'tkazildi
- D) O'tkazildi.
7. Monologning qaysi turida so'zlayotgan shaxsning qo'li, gavdasi, qoshi, boshi, kafti kabi a'zolari zarurat tug'ilganda harakat qiladi. Turli tarzdagi ma'noli harakatlar fikrning tinglovchi tomonidan yaxshi tushunib olinishiga ko'maklashadi?

- A) A) ichki monolog
- B) B) lirik monolog
- C) C) dramatik monolog
- D) D) xabar monolog

8. **Xat yashil qalamda yozilgan edi.**

Berilgan gapdan ega va kesimni toping?

- A) Xat yozilgan edi
- B) Qalamda yozilgan edi
- C) Yashil qalam
- D) Yozilgan edi

9. Qaysi gap bo‘lagi gapning markazi hisoblanadi.

- A) ega
- B) kesim
- C) hol
- D) to‘ldiruvchi

10. Monologik nutqning qaysi turida so‘zlovchining ichki his-tuyg‘ulari, ruhiy kechinmalari, orzu-umidlari, tashqi dunyodan olgan taassurotlari, kelajak rejalari ifodalanadi?

- A) ichki monolog
- B) lirik monolog
- C) dramatik monolog
- D) xabar monolog

26-mavzu. KASBIM TARIXI.

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matnni reja asosida so‘zlab berish. Tanlangan kasb haqida rivoyat yoki hikoya so‘zlab berish.

Yozma nutq: “Sohaning vujudga kelishi va rivojlanishi” mavzusida matn tuzish. Kasb taraqqiyoti haqidagi ma’lumotlardan xronologik jadval tuzish. Ish jarayonidagi muloqot vaziyatlarini aks ettiruvchi kasbiy o‘yin ssenariysini tuzish va uni inssenirovka qilish.

Grammatika: Soha lug‘atlari. Ularda terminlar va birikmalarning berilishi.

Tayanch so‘z va iboralar: kimyo sanoati tarixi, maktab yaratgan olimlar, lug‘at, soha lug‘atlari, termin, birikma, leksikografiya, lug‘atshunoslik.

Kimyoning fan sifatida shakllanishini tadqiqotchilar Misr bilan bog‘lashadi. Savdo-sotiq, hunarmandchilik va ma’naviy aloqalar juda rivojlangan bu mamlakatda ilm, falsafiy qarashlar, sanoat va qishloq xo‘jaligi yaxshi rivoj topgan. Nil bo‘yidagi Iskandariya shahrida I asrda yozilgan ko‘pgina kimyoviy ma’lumotlar, jumladan, kimyoviy jihozlarning ko‘rinishlari, kuydirish, pishirish, toblash, quruq haydash, eritish, kristallanish, ajratish va boshqa usullar haqida ma’lumotlar keltiriladi. Mazkur manbada oddiy metallardan oltin olish g‘oyasi ham ilgari surilgan bo‘lib, mavhum bu izlanish fanning rivojlanishiga ma’lum darajada to‘sqinlik qildi, olimlar fikrini boshqa amalga oshmaydigan yo‘nalishga burib yubordi. Iskandariya ma’lumotlaridan foydalangan arab olimlari tez orada bir nechta yangi moddalar, jumladan, nitrat kislotasi, tuzlar va boshqalarni olishni kashf qildilar. Misrlik olimlar tilidagi Kimyoga arablar “al” qo‘shimchasini qo‘shib mashhur “Alkimyo” ga asos soldilar. Natijada ko‘pgina ilmiy asarlar, kitoblar, maqolalar va tajribalar ifodalari paydo bo‘ldi. Keyinchalik bu so‘z yevropa

mamlakatlarida "Kimyo" nomi bilan ommalashdi. Muqammad Xorazmiy X asrda "Kimyo" soʻzi arabcha "hamoyakmi", yaʼni "yashirmoq", "berkitmoq" ni anglatadi, deydi.

"Alkimyo" asoschisi Jobir ibn Xayyom metallarning paydo boʻlishidagi oltingugurt-simob nazariyasini olgʻa surgan, yaʼni yer qaʼrida quruq bogʻlanishdan oltingugurt ("metallar otasi"), nam bugʻlanishdan esa simob ("metallar onasi") paydo boʻladi degan fikrni aytadi. Ularning turli xil nisbatlarda birikishidan oltin, kumush, mis, temir, qalay, qoʻrgʻoshin, shisha hosil boʻladi. Shu asnoda oddiy metallarni nodir metallarga oʻtkazish haqida maʼlumotlar beriladi. "Element" tushunchasiga koʻra, oltingugurt -yonuvchanlik, simob - uchuvchanlik, tuz esa eruvchanlikni bildiradi. Shunga koʻra, bu moddalar turining kashf qilinishi asosiy fikr boʻldi. Olimning izdoshlaridan boʻlgan Abu Nasr Forobiy oʻzining "Ustodi Soniy" asarida alkimyo ilmining yoʻnalishini maʼqullaydi. Sharq allomalaridan Abu Bakr ar-Roziy "Sirlar kitobi"da alkimyo maʼlum boʻlgan moddalarni oʻrganish, asbob-uskunalarni yigʻish va foydalanish hamda tajribalar oʻtkazishni keltiradi. Abu Abdullo al-Xorazmiyning "Bilimlar kaliti" kitobida kimyoga alohida boʻlim ajratilib, unda turli moddalar, asboblari, tajribalar toʻgʻrisida mukammal maʼlumotlar keltirilgan.

Ingliz kimyogari R. Boyl kimyoni oʻrganishda yangicha yondoshish va faqat tajribalar yordamida olingan maʼlumotlarga ishonishga undadi. Uning fikricha, kimyoning maqsadi jismlar tuzilishini aniqlash, shundan soʻng uni elementlarga ajratib, tahlilga oʻtishdan iborat boʻlishi kerak.

XIX asr kimyo fani tarixida nazariy asoslarni ishlab chiqish davri boʻldi. Natijada atom - molekulyar taʼlimot maydonga keldi. Ingliz olimi Jon Dalton 1803-yili moddaning atom tuzilishi haqidagi tasavvurlarga suyangan holda tajribalar oʻtkazdi.

Italiyalik olim A. Avogadro atom va molekula tushunchasining bir-biridan farq qilishini aniqlab berdi. U moddaning kichik zarrachasi molekula, elementlarning eng kichik zarrachasi esa atom deb taʼrifladi.

XIX asrda fandagi tarixiy kashfiyotlardan biri 1869 yil D. I.Mendeleev tomonidan ochilgan kimyoviy elementlar davriy qonuni va sistemasi boʻldi.

Kimyo- texnologiya sohasida maktab yaratgan olimlar

Prof.T.R.Abdurashidov. Asosiy ilmiy yoʻnalishi mahalliy xom-ashyolar asosida plastmassalar yaratish boʻlib, 1998-yildan boshlab respublikada ishlab chiqarilayotgan polietilenmarkalari ustida ilmiy ishlar olib bormoqda.

Prof. Gʻ.Rahmonberdiyevning ilmiy maktabi tomonidan birinchi marta sellyulozaning bir nechta suvda eriydigan yangi hosilalari olingan. Moskvaning Gamaleya nomli mikrobiologiya instituti, OʻzMU va Oʻzbekiston Onkologiya va radiologiya institutlari olimlari bilan hamkorlikda virus(gepatit) kasalligiga qarshi ishlatiladigan modda – interferon induktori "SAVRATS", koʻz raki kasalligini tuzatadigan yangi koʻz pardasi "GLP" va qon toʻxtatadigan polimer formasidagi "Lagoden" moddalari olingan. Hozir topinambur sellyulozasidan qogʻoz ishlab chiqarish boʻyicha ilmiy ishlar olib bormoqda.

Prof. A.T.Jalilov rahbarligida monomerlar, qotirgichlar, stabilizatorlar, korroziyaga qarshi ingibitorlar, antipirenlari olish, ion almashuvchi materiallar va boshqa yuqori molekulyar organik birikmalar sintez qilingan. Stabilizatorlik xususiyatiga ega tarkibida azot, fosfor, oltingugurt boʻlgan oligomerlar akril kislotasi asosida olingan. Olimning ilmiy-tadqiqot natijalari Rossiyaning Sterlitamak, Vladimir zavodlarida "Unipol" oligomeri bilan stabillash, Ohangoranning "Stroyplastmass" kombinatida, polimerbeton va DSP ishlab chiqarishda, qishloq xoʻjaligida suvni iqtisod qiluvchi gidrogellari qoʻllanilmoqda.

Prof. Q.O.Dodayev noanʼanaviy xom ashyodan konserva mahsulotlari, jumladan, anor, qovun-tarvuzdan sharbat va konsentrat ishlab chiqarishda biotexnologiya, ion almashinish usullarini qoʻllash bilan shugʻullanmoqda. ITIlarining natijalari "ElKol" QK, "Gʻazalkent konserva" OAJda ishlab chiqarishga joriy qilingan.

Prof. M.S.Toshmuhamedov ilmiy rahbarligida laboratoriya sharoitida elektrogidroudar usuli yordamida yuqori molekulali organik moddalarni parchalovchi pilot qurilmayaratildi. Ushbu qurilma asosida neft va neft mahsulotlarini qayta ishlash korxonalaridan hosil bo‘layotgan nordon gudrondan ikkilamchi bioyoqilg‘i ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi.

Prof. Y.Q.Qodirov tomonidan o‘simlik moylarini gidrogenlashning samarali texnologiyalarini ishlab chiqilgan va ko‘plab mualliflik guvohnomalarini olishgan. Jumladan raps, paxta va shu kabi moylarni turg‘un katalizatorlarda intensiv gidrogenlash texnologiyalarini yaratishgan. Olim kukunsimon nikel-mis katalizatorida o‘simlik moylarini gidrogenlash texnologiyasining nazariy asoslarini ilmiy asoslab bergan. Sifati past o‘simlik moylarini intensiv gidrogenlash texnologiyasi yaratilib, sanoat sinovidan o‘tkazilgan. Ishlab chiqarish unumdorligi moy sifatiga qarab 25-40%ga ortadi hamda olinadigan salomasning sifati yaxshilanadi. Olimning texnik ishlanmalari va tavsiyalaridan respublikamizdagi yog‘- moy korxonalarida qo‘llanib kelinmoqda.

Prof. X.Ch.Mirzaqulov rahbarligida mahalliy fosforit xom ashyolarini qayta ishlashning energiya va resurs tejamkor texnologiyasi yaratildi. Yangi turdagi agrokimyoviy samaradorligi yuqori bo‘lgan fosforli va azotli o‘g‘itlar olish texnologiyasi takomillashtirilgan. Toza natriy, magniy, ammoniy va kaliy fosfat, xlorid, sulfat va nitrat tuzlarini olish texnologiyalarini olish texnologiyalari ishlab chiqilgan. Uning ITI lari natijalari “O‘z kimyosanoat” DAK qoshidagi “Ammofosmaxam”, “Farg‘ona azot” OAJ, ”Samarqand kimyo” va “Maxsam-Chirchik” OAJlarida joriy qilingan.

Prof.G‘.Hamroqulov rahbarligida atsetat sellyuloza va akrilonitril asosida boshqariladigan payvand hamda statistik sopolimerlarni sintez qilgan hamda ular eritmalarining termodinamik va fizik –kimyoviy xossalirini o‘rganilgan. ITI lari “Nitron” va “Farg‘ona kimyoviy tolalar” zavodlarida qo‘llanilmoqda. Shuningdek, “Tovarlarni sinflash va sertifikatsiyalash” hamda “Sifat menejmenti” tizimlarining korxonalariga tadbiri ilmiy yo‘nalishlari bo‘yicha ITI olib bormoqda.

- Vazifa:** 1. Yuqoridagi matnga sarlavha va reja tuzing.
2. Matnni reja asosida so‘zlab berish.
3. Tanlangan kasb haqida rivoyat yoki hikoya so‘zlab berish.

Lug‘at

kimyo-химия
o‘g‘itlar-удобрения
sanoat-промышленность
yirik-крупный
mahsulot-продукт
muhofaza-защита
o‘simliklar-растения
oltinkon-место рождения золота
tola-волокно

GRAMMATIKA: SOHA LUG‘ATLARI. ULARDA TERMINLAR VA BIRIKMALARNING BERILISHI.



Lug‘at — muayyan tilda, uning hududiy yoki ijtimoiy lahjasida mavjud bo‘lgan, u yoki bu yozuvchi asarlarida uchraydigan so‘zlar yig‘indisi, leksika; so‘zlar (yoki morfemalar, so‘z birikmalari, iboralar va boshqalar) muayyan tartibda (alifboli, uyali, mavzuli)

joylashtirilgan, tavsiflanuvchi birliklar, ularning kelib chiqishi, ma'nolari, yozilishi, talaffuzi, uslubiy mansubligi, boshqa tillarga tarjimai haqida ma'lumotlar jamlangan kitob. Lug'atlar ma'naviy madaniyat sohasida muhim o'rin egallaydi, ularda jamiyatning ma'lum davrda erishgan bilimlari aks etadi. Lug'atlar bir qator ijtimoiy vazifalarni bajaradi: o'quvchiga muayyan hodisa haqida ma'lumot beradi; uni o'z va o'zga tillardagi so'zlar bilan tanishtiradi; tilni, uning lug'at tarkibini takomillashtirish va tartibga solishga yordam beradi. Lug'atlar juda qadim davrlarda paydo bo'lgan hozirgi davrda ma'lumot axborot to'plash va uni o'quvchiga yetkazishda muayyan ahamiyatga ega. So'zni tavsiflashdagi bir qancha farqli xususiyatlariga ko'ra lug'atlarni asosan 2 turga: ensiklopedik va lingvistik (filologik), lug'atlarga ajratish mumkin. Ensiklopedik lug'at so'zlarning o'zini emas, balki ular orqali bildiriladigan predmet va tushunchalarni izohlaydi, tushuntiradi. Lingvistik lug'atlarning asosiy maqsadi esa til birligi hisoblangan so'zning ma'nolarini, turli lisoniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Nano nima?

Keyingi o'n yillikda jahon jamoatchiligi lug'at boyligiga «nano» so'zi kirib keldi. Xo'sh, «nano» nima? Qisqa qilib aytganda, nano milliarddan bir qismidir. Nanotexnologiya tushunchasi uchun tugal va aniq ifoda yo'q, ammo mavjud mikrotexnologiya asosida bu o'lchamlarni nanometrdagi texnologiya deb yuritish mumkin. Shuning uchun mikrodan nanoga o'tish bu moddani boshqarishdan atomni boshqarishga o'tish demakdir. Sohaning rivoji deganda esa asosan uchta yo'nalish tushuniladi:

- o'lchami atom va molekular o'lchamlari bilan solishtirarli elektron sxemalarni tayyorlash;
- nanomashinalarni loyihalash va ishlab chiqish;
- alohida atom va molekularni boshqarish va ulardan alohida mikroob'ektlarni yig'ish.

Bu yo'nalishdagi izlanishlar ancha vaqtdan buyon olib borilmoqda. 1981 yilda tunnelli mikroskop yaratilib, alohida atomlarni ko'rish mumkin bo'ldi. Shundan buyon texnologiya sezilarli takomillashtirildi. Bugun bu yutuqlarni kundalik hayotda ishlatamiz: lazerli disklarni ishlab chiqarish, jumladan, DVD disklardan nanotexnologik usulsiz foydalanish mumkin emas.

Soha taraqqiyotidagi asosiy bosqichlarni bir eslab ko'raylik:

1959 yil. Nobel mukofoti sohibi Richard Feynman kelajakda alohida atomlarni boshqarib, odam har qanday moddani sintez qilishi mumkinligini bashorat qildi.

1981 yil. Binig va Rorer tomonidan moddalardan atomlar darajasida ta'sir qila oladigan skanerlovchi tunnel mikroskopning yaratilishi.

1982-85 yillar. Sistemalarda atomar aniqlikka erishildi.

1986 yil. Atom quvvatli mikroskop yaratilib, u tunnel mikroskopidan farqli ravishda har qanday, masalan, tok o'tkazmaydigan material bilan ham ta'sirlasha oladi.

1990 yil. Alohida atomlarni boshqarishga erishildi.

1994 . Sanoatda nanotexnologik usullarning qo'llanila boshlanishi.

Topshiriq:1. Matnni o'qing. Matnda qo'llanilgan atamalar lug'atini tuzing.

2.Kimyo atamalari lug'atini tuzing.

Test topshiriqlari

1. Qaysi qatorda berilgan gapda tagiga chizilgan so'z omonimlik hosil qila oladi?

- A) Shamol bo'lmasa daraxt shoxi qimirlamaydi.
- B) Shiroq xiyla bilan dushmanni mag'lub qildi.
- C) Mahsulot o'ramiga yaroqlilik muddati yozib qo'yilgan.
- D) Qars ikki qo'ldan chiqadi.

2. Rus tilida мечта человека birikmasining tarjimai qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A) inson va orzu
- B) inson orzusi

- C) insonda orzu
- D) insoniy orzu

3. Muayyan tilda, uning hududiy yoki ijtimoiy lahjasida mavjud bo'lgan, u yoki bu yozuvchi asarlarida uchraydigan so'zlar yig'indisi nima?

- A) matn
- B) lug'at
- C) tavsifiy matn
- D) polilog

4. Lug'atning qaysi turida so'zlarning o'zini emas, ular orqali bildiriladigan predmet va tushunchalar izohlanadi, tushuntiriladi?

- A) filologik lug'at
- B) ensiklopedik lug'at
- C) izohli izohli
- D) imlo lug'at

5. So'zlarni tavsiflash, ma'lumotlarni qamrab olishi va tuzilishiga ko'ra lug'atlar qanday turlarga bo'linadi?

- A) bir tilli va ko'p tilli lug'atlar
- B) qomusiy va filologik lug'atlar
- C) imlo va izohli lug'atlar
- D) tarjima lug'atlar va ensiklopedik lug'atlar

6. *Menejment - zamonaviy ishlab chiqarishni boshqarish (rejalash, tartibga solish, nazorat qilish), shuningdek ishlab-chiqarishga rahbarlik qilish, uni tashkil etish; boshqarish to'g'risidagi fan.*

Berilgan ma'lumot qaysi lug'atdan olingan?

- A) Ensiklopedik lug'at
- B) Izohli lug'at
- C) Tarjima lug'at
- D) Etimologik lug'at

7. Qaysi qatorda ensiklopedik lug'at namunasi berilgan?

- A) Lochin – yirtqich qushlar turkumining lochinsimonlar oilasiga mansub qush. 20 dan ortiq kenja turi mavjud. Qushlar va baliqlar bilan oziqlanadi.
- B) Adib –adabiy asarlar ijodkori, Adip- to'n, xalat kabilarning chetiga tikiladigan ensiz mato-mag'iz.
- C) Strategiya – maqsadga erishishning uzoq muddatli rejasi; ijtimoiy-siyosiy hayotni taraqqiy qildirish, shuningdek boshqaruvni, uzoq muddatli, to'g'ri va istiqbolli rejalashtirish.
- D) Azob, aziyat, jabr, jafu, zahmat, alam. Ruhiy yoki jismoniy qiynoq.

8. Qaysi qatorda izohli lug'at namunasi berilgan?

- A) Lochin – yirtqich qushlar turkumining lochinsimonlar oilasiga mansub qush. 20 dan ortiq kenja turi mavjud. Qushlar va baliqlar bilan oziqlanadi.
- B) Adib –adabiy asarlar ijodkori, Adip- to'n, xalat kabilarning chetiga tikiladigan ensiz mato-mag'iz.
- C) Strategiya – maqsadga erishishning uzoq muddatli rejasi; ijtimoiy-siyosiy hayotni taraqqiy qildirish, shuningdek boshqaruvni, uzoq muddatli, to'g'ri va istiqbolli rejalashtirish.

- D) Azob, aziyat, jabr, jafo, zahmat, alam. Ruhiy yoki jismoniy qiynoq.
9. Qaysi qatorda paronimlarning izohli lug‘ati namunasi berilgan?
- A) Lochin – yirtqich qushlar turkumining lochinsimonlar oilasiga mansub qush. 20 dan ortiq kenja turi mavjud. Qushlar va baliqlar bilan oziqlanadi.
- B) Adib –adabiy asarlar ijodkori,
Adip- to‘n, xalat kabilarning chetiga tikiladigan ensiz mato-mag‘iz.
- C) Strategiya – maqsadga erishishning uzoq muddatli rejasi; ijtimoiy-siyosiy hayotni taraqqiy qildirish, shuningdek boshqaruvni, uzoq muddatli, to‘g‘ri va istiqbolli rejalashtirish.
- D) Azob, aziyat, jabr, jafo, zahmat, alam. Ruhiy yoki jismoniy qiynoq.
10. Qaysi qatorda sinonimlarning izohli lug‘ati namunasi berilgan?
- A) Lochin – yirtqich qushlar turkumining lochinsimonlar oilasiga mansub qush. 20 dan ortiq kenja turi mavjud. Qushlar va baliqlar bilan oziqlanadi.
- B) Adib –adabiy asarlar ijodkori,
Adip- to‘n, xalat kabilarning chetiga tikiladigan ensiz mato-mag‘iz.
- C) Strategiya – maqsadga erishishning uzoq muddatli rejasi; ijtimoiy-siyosiy hayotni taraqqiy qildirish, shuningdek boshqaruvni, uzoq muddatli, to‘g‘ri va istiqbolli rejalashtirish.
- D) Azob, aziyat, jabr, jafo, zahmat, alam. Ruhiy yoki jismoniy qiynoq.

27-mavzu. IQTIDOR VA MEHNAT

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matnga munosabat bildirib so‘zlash. Mavzu bo‘yicha bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq: “Qanday qilib muvaffaqiyatga erishish mumkin?” mavzusida esse yozish. Mamlakatimizda iqtidorli yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlar haqida ma‘lumot yozish. Kasb sohasida muvaffaqiyatga erishish to‘g‘risida dialog tuzish va uni insenirovka qilish.

Grammatika: Matnga so‘z va termin tanlash. Gap bo‘laklari. Bosh bo‘laklar.

Tayanch so‘z va iboralar: *iqtidor, iste‘dod, mehnat, matn turlari, matnga termin va so‘z tanlash, ikkinchidarajali bo‘laklar, aniqlovchi, hol, to‘ldiruvchi.*

Iqtidor va mehnat

Inson ongi, aqlu-tafakkuri yuksak darajada taraqqiy etganligi bilan boshqa jamiki tirik mavjudotlardan ajralib turadi. Mana shu ong va tafakkur kuchi orqali "ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan" ishlarni, yangilik va kashfiyotlarni qiladigan insonlardagi muhim jihatlardan yana biri bu ulardagi qobiliyatdir.

Hattoki, kishilarning turli sohalardagi faoliyatlarida kechadigan jarayonlarni ya‘ni mehnat, o‘yin, o‘qish va ijodiyotda biror bir vazifani qoyilmaqom va mohirona, tez yoki sekin bajarishi, ishning yakuni samarali yoki samarasiz bo‘lishi ulardagi qobiliyatning qay darajada rivojlanganligi bilan o‘lchanadi.

Qaysi sohada mehnat qilmaylik, u bizdan doimo faol harakatda bo‘lishni talab qiladi va bu harakatlarimiz davomida yetuk, malakali, izlanuvchan shaxsga aylana boshlaymiz. Inson faoliyatidagi ushbu o‘ziga xosliklarni tushuntirish uchun ham psixologiya fani birinchi navbatda qobiliyatlar va iqtidor masalasiga murojat qiladi.

Xo‘sh qobiliyat o‘zi nima, u qanday paydo bo‘ladi? Qobiliyatlar insonning tashabbuskorlik, talabchanlik, e‘tiborlilik, kuzatuvchanlik, kashfiyotchilik, javobgarlik, jozibadorlik, ijodkorlik, samimiylik va hokazo psixologik xususiyatlari bo‘lib, ular bizning turli xil faoliyatimizdagi ko‘rsatkichlarimiz, yutuq va qiyinchiliklarimiz sabablarini tushuntirib

beradi. Mazkur individual xususiyatlarga bilim, ko'nikma, malaka orttirish yo'li bilan erishilsada, ushbu xususiyatlarning o'zi bilim, ko'nikma va malakalarga taalluqli emas.

Bir kulol farzandini o'zidanda mohir kulol bo'lib yetishishi uchun, o'z davrining dong'i ketgan, mashhur bir kuloliga bir yilga shogirdlikka beribdi. Mahoratli kulol harchand urinmasin, bolaga kulolchilikni o'rgata olmabdi. Belgilangan muddat o'tib farzandining mohir kulol bo'lib yetishganini ko'rishga oshiqib kelgan otaning qo'liga ustoz yuzlab ko'rimsiz ko'zalar orasidan ajralib turgan eng chiroyli bir ko'zani olib tutqazibdi. Ko'zlari sevinchdan porlab ketgan ota nahotki shu chiroyli ko'zani meni o'g'lim yasadimi, deya savol beribdi. Yo'q bu ko'zani men yasadim, lekin unga mana shu chiroy va nafislikni bag'ishlab turgan naqsh va gullar tasvirini o'g'ling unga tushirmaganida orasidan olgan yuzlab ko'zalarim singari ko'rimsiz bir holicha turaverardi deb javob beribdi ustoz. Ma'lum bo'lishicha kulolchilikka uquvi va qobiliyati bo'lmagan bolada rassomchilikka bo'lgan qiziqish va qobiliyatini sezib qolgan ustoz bir yil davomida unga o'z qobiliyatini o'stirishi uchun zarur bo'lgan muhit va shart-sharoitni yaratib bergan ekan. Natijada bir yil ichida bola mahoratli rassom bo'lib, ustozining ko'zalariga rasmlar chizib, ularga ustozidanda ko'proq jozibadorlik baxsh etadigan bo'lib yetishibdi.

Shuning uchun ham har bir ongli inson o'zidagi qobiliyat va zehni ilk yoshlikdan bilib, o'sha o'zi yaxshi ko'rgan, "yuragi chopgan" ish bilan shug'ullansa, va undan qoniqish olib, qobiliyatini o'stirishga imkoniyat topib, yutuqlarga erishsa, biz uni iqtidorli deymiz. Iqtidorli insonda iste'dod sohibi bo'lish imkoniyati bor, zero iste'dod har tomonlama rivojlangan, nihoyatda kuchli va takrorlanmas qobiliyatdir. U tinimsiz mehnat, o'z qobiliyatini takomillashtirib borish yo'lida barcha qiyinchiliklarni yengish va irodasi imkoniyatlarini safarbar qilish natijasida qo'lga kiritiladi.

Bugungi kunda bilimli va iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning ma'naviy kamolotini yanada yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Vazifa: 1. "Qanday qilib muvaffaqiyatga erishish mumkin?" mavzusida esse yozing.

2. Iqtidor va mehnat haqida maqollar yozing va ularni izohlang.

GRAMMATIKA: MATNGA SO'Z VA TERMIN TANLASH. GAP BO'LAKLARI. BOSH BO'LAKLAR.


Voqea-hodisa haqidagi xabarni, so'roqni yoki buyruqni ifodalovchi asosiy sintaktik butunlik **gapdir**. Gapning **4** xususiyati mavjud:

1. Muomalaning eng kichik birligi hisoblanadi;
2. Yaxlit tugal fikrni ifodalaydi;
3. Tugallangan ohang bilan aytiladi;
4. Grammatik shakllangan bo'ladi.

Gap so'z birikmasidan kesim va ega (Men keldim) yoki faqat kesim bo'laklarga aloqador grammatik asosga egaligi (Kecha Buxorodan keldim) bilan farq qiladi, so'z birikmasi tushuncha, gap fikr ifodalaydi.

Gapda biror so'roqqa javob bo'lgan va o'zaro tobe bog'langan so'z yoki so'z birikmasi **gap bo'lagi** deb ataladi. Gapda so'zlar o'zaro grammatik munosabatga kirishib, gap bo'laklarini hosil qiladi. Gap bo'laklari vazifasini faqat mustaqil so'z turkumlarigina bajaradi. Gap bo'laklari bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga bo'linadi.

Gap bo'laklari



Bosh bo'laklar gapning grammatik asosini tashkil qiladi. Bosh bo'laklarga ega va kesim kiradi.

Ikkinchi darajali bo'laklar bosh bo'laklarni aniqlab, to'ldirib keladi. Ikkinchi darajali bo'laklarga to'ldiruvchi, aniqllovchi va hol kiradi.

Kesim gapning markazini tashkil etib, boshqa bo'laklarni o'z atrofida birlashtiradi. Kesim nima qildi? nima qiladi? qandaydir? (u) kim? (u) nima? (u) nechta? singari so'roqlarga javob bo'ladi. Kesim ifodalanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi.

1. Fe'l kesim fe'l so'z turkumi bilan ifodalanadi. *Bu kitoblarning barchasi o'qilgan.*

2. Ot kesim fe'ldan boshqa so'z turkumi bilan ifodalanadi. *Atrof yam-yashil. Samarqand – qadimiy shahar. Dangasaning vaji ko'p.*

Ega gapda kesim bilan bog'lanib, kim? nima? qayer? so'roqlariga javob bo'ladi. Ega bosh kelishikdagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi. *Shamol gullar hidini atrofga taratdi. Yaxshi topib gapirar. Qimirlagan qir oshar.*

Topshiriq. So'z birikmasi, so'z qo'shilmasi va gapni izohlang.

Kecha va kunduz Dalalar va bog'lar	Ko'm – ko'k dalalar go'zal tabiat	dalalar ko'm-ko'k tabiat go'zal
---------------------------------------	--------------------------------------	------------------------------------

Topshiriq: Sabr haqida berilgan hikmatlarning mazmuniga e'tibor bering.

Gapning bosh bo'laklarini aniqlang.

- Sabrli odam igna bilan quduq qaziydi. (Italyan maqoli)
- Kuchimizga qaraganda sabrimiz ko'p narsani hal qiladi. (Edmand Burk)
- Sabr - yuk ostida qolib shikoyat qilmaslikdir. (Georg Garneil)
- Kichik muammolar qarshisida sabrli bo'lmaganlar, katta rejalarni amalga oshira olmaydilar. (Xitoy maqoli)
- G'alaba - eng ko'p mashaqqat deganidir. (Napoleon)
- Qum soatining ko'z oldingga keltir. Shovqin - suron yoki shoshilish bilan hech narsaga erisholmaysan. Qum zarralarining bir tarafdan ikkinchi tarafga o'tishini kutishga majbursan. (Jon Margenst)

2. Berilgan test topshiriqlarini bajaring.

TEST TOPSHIRIQLARI

- Quyidagi gapning to'g'ri tarjimasini belgilang. *В нашей стране много красивых городов.*
A) Bizning mamlakatimizda chiroyli shaharlar ko'p.

- B) Bizning mamlakatimizda chiroyli shaharlar bor.
- C) Mamlakatimizda chiroyli shaharlar anchagina.
- D) Mamlakatimiz chiroyli shaharlarga boy.

2. *Men Vatanni bog' deb aytsam, Sensan unda bitta gul.*

Berilgan gapdagi so'z turkumlarini toping.

- A) Ot, olmosh, sifat, fe'l
- B) Ot, olmosh, son, fe'l
- C) Ot, ravish, son, fe'l
- D) Ot, son, fe'l, modal so'z

3. *Men ukamdan tez-tez xat olib turaman* jumlasining rus tilidagi muqobilini toping.

- A) Я от старшего брата получил письмо.
- B) Я не часто получаю письмо от брата.
- C) Я только что получил письмо от младшего брата.
- D) Я часто получаю письмо от младшего брата.

4. *Inson taqdiri* birikmasining rus tilidagi to'g'ri tarjimasini toping.

- A) человеческая душа
- B) человеческое сознание
- C) интеллект человека
- D) судьба человека

5. Vatanimizda nechanchi yil Amir Temur yili deb e'lon qilindi?

- A) 1996-yil
- B) 1997-yil
- C) 1995-yil
- D) 1998-yil

6. *Biror faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga taalluqli bo'lgan va bilimlar, malakalarni egallashning tezkorligi, yengilligini izohlab beradigan xususiyatdir.*

Izohlangan termini toping.

- A) Qiziqish
- B) Idrok
- C) Tafakkur
- D) Qobiliyat

7. Qaysi qatorda gapning ikkinchi darajali bo'laklari berilgan?

- A) Ega, kesim
- B) Ega, aniqlovchi, hol
- C) Aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol
- D) Kesim, hol

8. *Kechiktirilgan o'yin bugun o'tkazildi.*

Berilgan gapda qatnashgan gap bo'laklarini toping.

- A) Ega, kesim, to'ldiruvchi, hol
- B) Ega, kesim, aniqlovchi, hol
- C) Kesim, hol, aniqlovchi
- D) Aniqlovchi, hol, ega

9. *Zavq bilan tinglamoq, qunt bilan o'qimoq, bugun kelmoq* birikmalarida qaysi gap bo'lagi kesimni izohlab kelgan?

- A) Aniqlovchi C) Hol
B) Ega D) To'ldiruvchi

10. Qaysi gap bo'lagi qanday?, qanaqa?, qaysi so'roqlariga javob bo'ladi?

- A) Ega C) Hol
B) To'ldiruvchi D) aniqlovchi

28-mavzu. YETUK MUTAXASSIS

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi qo'shimcha fikrni ajratib so'zlab berish. Malakali mutaxassis haqidagi tasavvurlarni gapirib berish.

Yozma nutq: "Sohamiz ravnaqi" mavzusida matn tuzish. Mutaxassisning kasbiy kompetensiyalari ro'yxatini tuzish va ularni misollar bilan izohlab berish.

Grammatika: Matn tahlili va tahriri. Ikkinchi darajali bo'laklar.

Tayanch so'z va iboralar: yetuk mutaxassis, matn tahlili, matn tahriri, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, darak gap, so'roq gap, buyruq gap, istak gap.

Yetuk mutaxassis

Jahon bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan murakkab sharoitda davlatimizni jadal sur'atlar bilan rivojlantirish mutlaqo yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni talab qiladi.

Bugun sifatli, arzon va xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish, "O'zbekistonda ishlab chiqarilgan" belgisi bilan dunyo bozorlariga chiqish ko'p jihatdan yetuk mutaxassis kadrlarga bog'liq. Bugungi davr, ayniqsa, zamonaviy bilim va malakaga ega muxandis-texnik, moliya-iqtisod, korporativ boshqaruv menejerlari, axborot texnologiyalari sohasida dasturchilarni tayyorlashni tubdan kuchaytirish va mazkur sohalarida iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlashni talab qilmoqda.

Mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, ularni eng zamonaviy, ilg'or texnika va texnologiyalar bilan jihozlash, ilm-fan, texnika sohalarida yangi ishlanmalarni yaratish va joriy qilish dolzarb vazifa sanaladi.

Bu vazifani yechish uchun ta'lim tizimi, ayniqsa, barcha sohaga bo'lajak mutaxassislarni tayyorlovchi oliy o'quv yurtlari faoliyatini zamon talablari asosida yanada takomillashtirish, ta'lim xizmatlari sifatini jahon andozalari darajasiga ko'tarish muhim ahamiyatga ega.

Prezidentimizning 2016 yil 30 dekabr kuni ilm-fan namoyandalari bilan uchrashuvida jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni ilm-fansiz yechish qiyinligi, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini yanada takomillashtirish muhimligi qayd etildi. Mavjud ilmiy salohiyat va mablag'larni hayotimizning o'ta dolzarb muammolarini yechishga qaratilgan eng muhim ustuvor tadqiqotlarga yo'naltirish, jahonning yetakchi oliy o'quv yurtlari, ilmiy markazlari va akademiyalari bilan ilmiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, xorijning yetakchi o'quv va ilmiy muassasalarida ta'lim va ilmiy daraja olgan yurtdoshlarimiz uchun mamlakatimizda qulay shart-sharoitlar yaratib berish choralari ko'rish zarurligi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham yetuk mutaxassislar tayyorlash masalalariga alohida e'tibor berilgan.

Bir so'z bilan aytganda, bugun mamlakatimizda har bir soha va yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar izchilligini ta'minlash yuqori bilimli va malakali mutaxassislarga, yuksak intellektual salohiyat va tajribaga ega bo'lgan kadrlarga bevosita bog'liq. yetuk

salohiyatga ega mutaxassislar kelajakda erkin bozor talablariga to'la javob beradigan iqtisodiyotni boshqarish tizimlarini yanada mukammallashtirish, ishlab chiqarishni izchil va muntazam modernizatsiya qilib borish, iqtisodiyotning ichki va tashqi raqobatbardoshligini oshirish, mamlakatimiz eksport salohiyatini yuksaltirish, ichki bozorlarimizni sifatli, arzon va xaridorgir mahsulotlar bilan to'ldirish, eng asosiysi, xalqimiz turmush farovonligini yanada yuksaltirish kabi ezgu niyatlarimizga yetishishda muhim omil bo'ladi.

Kimyo sanoati

Kimyo sanoati xalq xo'jaligining muhim sohalaridan biridir. Hozirgi paytda hayotni kimyosiz va kimyo sanoatisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Kimyoni ajoyib o'zgarishlar sanoati deyish mumkin. U tabiatda uchramaydigan materiallarni sintez qilishga, ularni-turli-tuman mashina va asboblari yaratishda, turar-joylar qurishda va xalq iste'mol buyumlarini ishlab chiqarishda ishlatishga imkon beradi. Shu sababli kimyojadal sur'atlar bilan rivojlantirilmogda.

Kimyo sanoati sintetik kauchuk, plastmassa, sun'iy tola, sun'iy yoqilg'i, bo'yoqlar, dorilar va ko'pgina boshqa moddalar ishlab chiqaradi.

Qishloq xo'jaligida mineral o'g'itlar va o'simliklarni zararkunandalardan, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qiluvchi kimyoviy vositalar keng ko'lamda ishlatilmogda. Ularni ishlatish mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishning eng muhim tadbirlaridan biridir.

Kimyoviy usullar yordamida mamlakatimiz sanoatining asosi bo'lgan metallar olinadi, ularni korroiyadan himoya qilinadi, asosiy kimyo sanoatining mahsulotlari – kislotalar, ishqorlar, tuzlar ishlab chiqariladi.

Keyingi yillarda inson oldida turgan eng muhim vaifalardan biri atrof-muhitni, ya'ni yashash muhitni va odamning ishlab chiqarish faoliyatini muhofaza qilish bo'lib qoladi. Atrof-muhit sanoat chiqindilari, transport va energetik qurilmalardan chiqadigan gazlar, rangli metallurgiya, kimyo sanoati korxonalari va boshqalar tomonidan chiqarilib tashlanadigan chiqindilar bilan ayniqsa ko'p ifloslanmogda.

Mamlakatimizda atrof-muhitga nisbatan avaylab-asrash munosabatida bo'lish va tabiiy boyliklardan unumli foydalanish amalga oshirilmogda.

Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlaridagi mutaxassislar uchun kimyoni chuqur bilish nihoyatda zarurdir.

Kimyo sanoatimiz tarixi

Kimyo sanoati O'zbekiston iqtisodiyotining bazaviy tarmoqlar sirasiga kiradi va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni jadallashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib mineral o'g'itlar chiqaruvchi korxonalarni qurish orqali tashkil topgan.

Respublikaning zamonaviy kimyo sanoati tarixi Sho'rsuv oltin gugurt koni 1932 yilda ishga tushirilishi bilan boshlanadi.

1940 yilda kimyo sanoatining eng yirik korxonasi — Chirchiq elektrkimyo kombinati (bugungi kunda «Maksam-Chirchiq» AJ) mahsulot bera boshladi.

1962 yilda Farg'ona azotli o'g'itlar zavodi (bugungi kunda «Farg'onaazot» AJ) ishga tushirildi.

1964 yilda navoiy kimyo kombinati (bugungi kunda «Navoiyazot» AJ) mahsulot bera boshladi.

1969 yilda Olmaliq kimyo zavodi (bugungi kunda «Ammofos» AJ) ishga tushirildi.

«O'zkimiyosanoat» AJ korxonalari 170dan ortiq kimyo mahsulotlar turlari ishlab chiqariladi.

Topshiriqlar:

1. Matn mazmuni asosida savollarga javob bering.

a) kimyo fani nimani o'rganadi?

- b) kimyo sanoati nimalar ishlab chiqaradi?
 d) xalq xo'jaligini kimyolashtirish deganda nima tushuniladi?
 e) atrof-muhitni muhofaza qilishda kimyoning ahamiyati qanday?

2. Tayanch so'z va so'z birikmalariga asoslangan holda matn mazmunini so'zlab bering.

3. Quyidagi savollarga javob bering:

- a) Siz nima uchun shu sohani tanladingiz?
 b) Sizningcha, hozirgi kunda qaysi soha ommabop?
 c) Mutaxassisligingizning afzalligi nimada?
 d) O'z oldingizga qanday maqsadlar qo'ygansiz?

Vazifa: "Sohamiz ravnaqi" mavzusida matn tuzing.

GRAMMATIKA: MATN TAHLILI VA TAHRIRI. IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLAR.



Ma'lum voqe'lik haqida tasavvur (ma'lumot) beradigan bir yoki bir necha sintaktik birliklardan tashkil topgan nutqiy butunlik matn hisoblanadi.

Matn tahriri -matn mazmuni asosida xat boshi (abzas) jumllarini belgilash, ortiqcha va takror so'zlarni chiqarish, uslubiy jihatdan ta'sirchan vositalarini kiritish, gaplarni o'zgartirish, fikrning aniqligi va

boyligini ta'minlash.

Matn tahlili - matnni mohiyat va qonuniyat jihatlardan tekshirish, o'rganish ishi. Ma'lumotlarni ma'lum nuqtayi nazardan o'rganish. Matn tarkibini belgilash va uning mohiyatini tadqiq etish.

Matnni qisqartirish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- matnning asosiy fikrini ifodalovchi gaplarni ajrata olish;
- gaplardagi uyushiq va ajratilgan bo'laklarni, kiritma va ilova qurilmalarni qisqartirish;
- birikmalarni ma'nodosh so'zlarga, sodda yoyiq gaplarni yig'iq gaplarga, qo'shma gaplarni sodda gaplarga, ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gaplarga aylantirish;
- matnning qo'shimcha fikr ifodalovchi gaplarini, sintaktik parallellar va takrorlarni qisqartirish;
- matnni qisqa mazmunli tarkibiy qismlarga ajratish;
- birikmali sifat-dosh, o'xshatish va boshqa tasviriy ifodalarni sodda va ixcham shaklga keltirish.

Matnni kengaytirish quyidagi yo'l va vositalar bilan amalga oshiriladi:

- matn mazmunini maqol, matal, hikmatlar bilan boyitish, dalillar bilan asoslash;
- matnning bosh fikri, g'oyasini shakllantiruvchi tayanch so'z yoki gap, ifodani aniqlash va shunga bog'liq holda o'z mustaqil, ijodiy fikrini ifodalovchi gap, ifoda qo'shish;
- gapni uyushiq bo'laklar, kiritmalar, ajratilgan bo'laklar hisobiga kengaytirish;
- so'z va birikmalarni ma'nodoshlari - tasviriy ifodalar, frazeologik iboralar va boshqa badiiy tasvir vositalari bilan almashtirish;
- sodda gapni qo'shma gapga, qo'shma gapni alohida sodda gaplarga ajratish;
- asosiy fikrni ifodalovchi gapga qo'shimcha fikr, izoh bildiruvchi sintaktik parallel gaplarni mantiqiy izchillikda bog'lab kiritish;
- matnning kirish, xulosa qismlarini o'z qarashlari, mulohazalari, ilovalari bilan to'ldirish.

Topshiriq. Berilgan matnlarni tahlil va tahrir qiling.



Kichik guruhlarda ishlash **1-guruh**

Sintetik materiallar

Har qanday o‘simlikda ajoyib o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. O‘simlik havo va tuproqdan oddiy moddalarni olib, ulardan murakkab moddalar hosil qiladi. Olimlar ham ko‘pgina oddiy moddalar molekularidan xuddi g‘ishtdan bino qurgandek yangi materiallar “qurishni” o‘rganib oldilar.

“Qurilish” barcha qonun-qoidalarga muvofiq o‘tkaziladi. Avval bunday materialning loyihasi tuziladi va uning bo‘lajak xossalari aniqlanadi. Keyin bunday materialni hosil qilish mumkin bo‘lgan modda tanlanadi. Nihoyat bi xil moddadan kimyoviy reasiyalar yordamida zarur material hosil qilinadi.

Reaksiya jarayonida oddiy molekularning murakkab molekularga birikishi sodir bo‘ladi. Molekularning bunday birikishi kimyogarlar “sintez” deb ataydilar. Sintez natijasida hosil bo‘lgan modda esa sintetik modda deyiladi. Bir xil g‘ishtdan turlicha bino qurish mumkin. Oddiy molekularlardan ham tabiatda ma‘lum bo‘lmagan murakkab moddalar yasash mumkin.

Planetamiz milliard yillardan beri mavjud. Tabiat esa shuncha vaqt mobaynida hammasi bo‘lib bir necha xil tola (ipak, jun, paxta, zig‘ir tolasi) va atigi bir xil elastik material – kauchukni bergan, xolos. Kimyogarlar bir necha o‘n yil ichida o‘nlab sintetik tolalar va 50 ga yaqin sintetik kauchuk turini kashf qildilar. Bo‘yoq, plastmassa, rezina, dorilar, sintetik mo‘yna va tolalar sintetik materiallardir. Bular, yuqorida aytganimizdek, aviasozlarga, raketa konstruktorlariga, kemasozlarga, quruvchilarga juda qo‘l keladi.

2-guruh

Uglerod

Uglerog – juda ajoyib kimyoviy elementlardan biri. Uning tarixi – Yerdagi hayotning paydo bo‘lishi va rivojlanishi tarixi, chunki uglerod barcha tirik mavjudot tarkibiga kiradi.

Kulrang yumshoq tosh – grafitni olib ko‘raylik. Siz uni yaxshi bilasiz, undan oddiy qalamning o‘zagi ishlanadi. Agar grafit kislorodli muhitda qizdirilsa, u ham hech qanday qoldiqsiz yonadi (lekin u ko‘mirga nisbatan bir oz sekin yonadi). Grafit yongan asbobda karbonat angidrid gazi qoladi. Demak, grafit ham sof uglerod ekan.

Agar minerallar ichida eng qattiq, shaffof, qimmatbaho tosh – omosni o‘sha asbobda kislorodli muhitda qizdirilsa, u ham yonib, karbonat angidrid gaziga aylanadi. Agar olmos kislorod ishtiroksiz qizdirilsa, grafitga aylanadi. Juda yuqori bosim va haroratda grafitdan olmos olish mumkin. shunday qilib, grafit va olmos ayni o‘sha bitta element – ugleroddan iborat.

Tarkibida uglerod bo‘lgan moddalarning turli-tumanligi kishini hayron qoldiradi.

Hozirgi kunda asosi ugleroddan iborat bo‘lgan uch millionga yaqin birikma ma‘lum.

Bu moddalarning turli-tumanligiga sabab shuki, uglerod atomlari bir-biri hamda boshqa atomlar bilan o‘zaro mustahkam birikib, zanjir, halqa va boshqa shakllardagi murakkab molekular hosil qila oladi.

3-guruh

Neft

Kishilar neftni qadimdan bilishgan. Suv olish uchun quduq qazilganda yer tagidan suv o‘rniga o‘tkir hidli qora rangdagi rangdagi moysimon suyuqlik chiqqan vaqtlar ham bo‘lgan. Bu qora moy o‘ziga xos xususiyatiga ega bo‘lib, yaxshi yongan (u bilan birga chiqadigan gaz kabi). Neft chiroqlarga solinadigan, o‘q otar qurollarning kanop losi shimdirilgan, g‘ildirak o‘qlariga suriladigan bo‘ladi. Undan turli kasalliklarni davolovchi surkaydigan dorilar tayyorlandi.

Lekin ichki yonuv dvigatellari kashf etilgunga qadar neftga bo'lgan ehtiyoj unchalik katta emas edi. 19-asr o'rtalarida neftdan kerosin ajratib olindi. Kerosin chiroqlarni yoritishda ko'plab ishlatila boshlandi. Kerosinni ajratib olish jarayonida ajratib chiqayotgan benzinni esa keraksiz deb dengizga oqizib yuborilardi.

Neft avtomobillar, samolyotlar, kemalar, teplovozarlar, traktorlar, kombaynlar, elektr stansiyalari va zavodlarda ishlatiladi. Ularning dvigatellari, pech va o'txonalarini neftdan olinadigan benzin, kerosin, mazut va boshqa xil suyuq yoqilg'ularda ishlaydi.

Olimlar neft uglevodlar, oltingugurt, azot va kisloroddan tashkil topganligini aniqlaganlar.

Neft yer ostida juda chuqur joylashgan. Neftni chiqarib olish uchun bir necha kilometr chuqurlikda parmalab chuqur qazish kerak.

Neft yer qo'rig'ida atrofidagi gazlar bilan birgalikda juda katta bosim ostida bo'ladi. Shuning uchun neft parmalab qazib bo'lingan quduqdan otilib chiqadi.

Neft quduqlardan quvurlar orqali omborlarga jo'natiladi, u yerdan esa temir yo'l sistemalariga quyiladi, okean va dengizlar orqali ulkan neft kemalari – tankerlarda tashiladi. Ammo, eng yaxshisi neftni yer va suv ostidan o'tgan neft quvurlari orqali kerakli manzillarga etkazgan ma'qul.

Ikkinchi darajali bo'laklar

Gapning kesimi yoki egasiga tobelanib, ularga ergashib keladigan bo'laklar **ikkinchi darajali bo'laklar**dir. Ikkinchi darajali bo'laklar: aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol. Ular fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid so'zlar, olmoshlar bilan ifodalanishi mumkin. Aniqlovchi, to'ldiruvchi, hollar gapni, uning ayrim bo'laklarini kengaytirishga, aniqlashga xizmat qiladi. Gap tarkibida ikkinchi darajali bo'laklardan birontasi ishtirok etsa, bunday gap **yoviq gap** deyiladi. M: **Men kitobni oqidim*

**O'zboshimchalikka yo'l qo'yilmasin.*

Faqat ega va kesimdan tashkil topgan gap **sodda yoviq gap** deyiladi:

**Men o'qidim.*

**Ular keldilar.*

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari

Alla aytdi.	Mehribon ona tunda farzandiga alla aytdi.
O'qituvchi tabrikladi.	Kecha yangi o'qituvchi talabalarni bayram bilan tabrikladi.

ANIQLOVCHI



Qanday?
Qanaqa?
Qaysi?
Kimning?
Nimaning?

TO'LDIRUVCHI



Kimga? Nimaga?
Kimda? Nimada?
Kimdan? Nimadan?
Kimni? Nimani?
Kim bilan? Nima bilan?
Kim uchun? Nima uchun?
Kim haqida? Nima haqida?

HOL



Qanday qilib?
Qay holatda? Qancha?
Qay darajada?
Qachon? Qayerda?
Qayerga? Qayerdan?
Nima uchun?
Nima maqsadda?
Nima sababda?

Aniqlovchi

Gapning biror bo'lagini aniqlab kelgan ikkinchi darajali bo'lak **aniqlovchi** deyiladi. Aniqlovchi **qanday? qaysi? nechanchi? qancha? nechta? kimning? nimaning?** So'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Aniqlovchi aniqlagan (bog'langan) bo'lak **aniqlanmish** deyiladi.

katta to'garak Bunda *katta* – aniqlovchi, *to'garak* esa aniqlanmish hisoblanadi.

Aniqlovchi ikkiga bo'linadi: 1.Sifatlovchi aniqlovchi ; 2.Qaratqichli aniqlovchi.

1. **Sifatlovchi aniqlovchi** –gapda shaxs yoki narsa-buyumning belgi xususiyati, hajmi, shakli, maza-ta'mi, rang-tusi, miqdori, tartibi kabi ma'nolarni anglatadi.

* **aqli bola,katta uy,tekis yo'l,shirin uyqu,qizil gul,beshta olma,beshinchi sinf,uzoqdagi do'st,kuzgi bug'doy**

M: *Uning ziyrak qo'ng'ir ko'zlarida horg'inlik bor edi.*

2.Qaratqichli aniqlovchi - biror shaxs yoki narsa-buyumga qarashlilikni bildirgan bo'lak **qaratqichli aniqlovchi** deyiladi. U qaratqichli kelishigidagi so'zlar bilan ifodalanadi. Qaratqichli aniqlovchilar tobelangan so'z (bo'lak) **qaralmish** hisoblanadi.

Qaratqichli aniqlovchili so'z birikmalarining asosiy belgisi hokim so'zning egalik qo'shimchalari bilan (ko'pincha, III shaxs birlik sondagi –i,-si qo'shimchasi bilan) kelishini talab qilishidadir:

M: *maktabimizning binosi, hunar maktabi*

To'ldiruvchi

Gapning biror bo'lagiga (ko'pincha kesimga) boshqaruv yo'li bilan bog'lanib, uni to'ldirib kelgan ikkinchi darajali bo'lak **to'ldiruvchi** deyiladi.

To'ldiruvchi ikki xil bo'ladi: vositasiz va vositali to'ldiruvchi.

1.**Vositasiz to'ldiruvchi** –belgili va belgisiz tushum kelishigi shakllari bilan ifodalangan to'ldiruvchi. M: *Yashashni istasang, ishlashni o'rgan.*

Qarilari kutadi mehmon, Pazandasi yopadi shirmon.

2.**Vositali to'ldiruvchi** - hokim so'zning **kimga? nimaga? kimdan? nimadan? kim uchun? nima uchun? kim haqida? nima haqida? kim bilan? nima bilan?** kabi so'roqlarga javob bo'lib keladigan kengaytiruvchilari **vositali to'ldiruvchi** deyiladi. Vositali to'ldiruvchi jo'nalish(-ga), chiqish(-dan),ba'zan o'rin-payt(-da) kelishiklari qo'shimchalarini yoki **uchun, bilan , orqali , xususida , to'g'risida** kabi ko'makchilarni olgan so'zlar (yoki so'z birikmasi) bilan ifodalanadi.

M: *Opam menga qaradi,men unga qaradim.*

Yaxshiga yondash,yomondan qoch.

Hol

Hol ko'proq gap markazi bo'lmish kesimga bog'lanib,undan anglashilgan ish-harakatning o'rnini, paytini, holatini, bajarilish sababini, maqsadini, daraja-miqdori bildiradigan ikkinchi darajali bo'lakdir. Hol ma'no jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

1) **Payt holi** - Ish-harakat yoki holatning paytini bildirib qachon? qachongacha? qachondan beri? qay vaqt? kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

M: *Kechqurun salqin bo'ldi. Ertalab yo'lga chiqamiz.*

2) **O'rin holi** - ish-harakatning o'rnini bildirib, **qayerga? qayerdan? qayerda?** kabi so'roqlaridan biriga javob bo'ladi.

M: *Poyezd bizni Toshkentda qoldirib, Moskvaga yo'l oldi.*

Bunda bor harorat,muhabbat,shafqat.

3) **Ravish holi** - ish-harakatning qay tarzda bajarilganligini bildirib, qanday? qanday qilib? qanday ahvolda? kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

M: *U Botirga qarab sekin gapirdi. Shamol g'ir-g'ir esardi.*

4) **Daraja-miqdor holi** – ish -harakatning miqdori va darajasini bildirib, qancha? nechta? necha marta? qay darajada? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi.

M: *Qirq marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi. Ko'p so'zlama,oz so'zla.*

5) **Sabab holi** –ish -harakatning sababini bildirib, nimaga? nima uchun? nima sababdan? nima sababli? kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

M: *Tarlon shodligidan To'xtolmadi yig'idan.*

Go'lligi sababli har joyda kaltak yeydi

6) **Maqsad holi** -ish-harakatning maqsadini bildirib, nima uchun? nima maqsadda? nima qilgani? kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

M: *Bir chimdim uxlash uchun ko'zini yumdi. Ertalab atayin Sizni izlab kelgan edim.*

Topshiriqlar:

1-mashq. Quyidagi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing, unda bu so'zlar aniqlovchi vazifasida kelsin.

Baland, ikki, pushti, ukamning, temir, o'sha, o'qigan, ishlagan.

2-mashq. O'qing. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling. Aniqlovchining qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini ayting.

Yurtimizda quyoshli bahor nafasi keza boshladi. Ishlagan odamning hayoti olijanob bo'ladi. Sevimli vatanimizda toshqin daryodek jo'sh urar hayot. Mana bu albomni bizning talabalar tayyorlagan. Ikkinchi kurs talabalari olimpiada g'oliblari bo'lishdi. O'rinbosarning bunday xushomadlar oldida og'zining tanobi qochadigan odati bor edi. Hisobli do'st ayrilmas. Odob – kishining zeb – ziynati. Yoqolgan pichoqning sopi – oltin. Tosh yoldan mashinalar g'iz – g'iz o'tib turadi. Usta Shirinning avlod – ajdodlari ganchkor o'tgan.

3-mashq. O'qing. To'ldiruvchilarni topib, ma'nosidagi farqni aytib bering.

Lobar oldiga qo'yilgan taomni yedi. – Lobar oldida qo'yilgan taomdan yedi.

Abdulla Oripov she'rlarini o'qidim. – Abdulla Oripov she'rlaridan o'qidim.

Bog'imizga har xil gul ko'chatlarini o'tkazdik. – Bog'imizga har xil gul ko'chatlaridan o'tkazdik.

Oksana she'rni yod aytdi. – Oksana she'rdan yod aytdi.

4-mashq. O'qing. Hollarni topib, turlarga ajrating.

Ko'z qayerda bo'lsa, mehr ham o'sha yerda bo'ladi. Mehmonlar kecha Toshkentning diqqatga sazovor joylarini ko'rdilar. Ertalab yog'ib o'tgan yomgir daraxt yaproqlarida va gullarda go'dak kiprigidagi yoshday yiltirab qoldi. Bugun guruhimiz talabalari lola sayliga ketdilar. Fotima meni ko'rib shodligidan qichqirib yubordi.

Sihat tilasang, ko'p yema; izzat tilasang ko'p dema. Umida chaqqonligidan hamma ishni o'z vaqtida bajara olar edi. Men bu kitobni o'qiyman deb olib kelgan edim.

Test topshiriqlari

1. Gaplarning ifoda maqsadiga turlari to'g'ri sanalgan javobni toping.

- A) His-hayajon gap, undov gap, so'z gap
- B) Darak gap, buyruq gap, so'roq gap
- C) His-hayajon gap, undov gap, so'roq gap
- D) Undov gap, so'z gap, darak gap

2. Darak gap berilgan javobni toping.

- A) Nimadan xafa bo'ldingiz?
- B) Terim sur'atini kuchaytiraylik.
- C) Qo'li baland bo'lsin!
- D) Paxta terimi boshlandi.

3. So'roq gap berilgan javobni toping.

- A) Eh, bu vodiya naqadar go'zal!
- B) Yaqin kelma, yanchib tashlayman!
- C) Nima ovqat qilsak ekan-a?
- D) Kecha bolalar kutubxonasiga bordik.

Yozma nutq: Kasb bayrami haqida matn tuzish. Kasb bayramiga bag'ishlangan reportaj yozish. Reportaj mazmunini rezume ko'rinishida ifodalash.

Grammatika: Matn mazmunining qisqacha bayoni (rezume), uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.

Tayanch so'z va iboralar: kasb bayrami, kasb tarixi, rezume, rezume matni.

1-oktabr – USTOZ VA MURABBIYLAR KUNI



Shu kuni bizga saboq bergan, hayot so'qmoqlaridan odimlab borishimizda ustozlik qilgan va bu vazifani ayni paytda ham sharaf bilan bajarib kelayotgan insonlarni kasb bayramlari bilan tabriklashga oshiqamiz. Bir necha yildirki, yurtimizda 1 oktabr - O'qituvchilar va murabbiylar kuni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlab kelinmoqda. Ming-minglab murg'ak qalblarga ezgulik yog'dusini sohadigan, o'z o'quvchilariga hayot maktabini beradigan mo'tabar zot - o'qituvchi va murabbiylarimizga bugungi kasb bayrami alohida ahamiyatga ega.

Ustoz deganda, har qaysi inson ko'nglida chuqur hurmat - ehtirom va cheksiz minnatdorlik tuyg'ulari, shu bilan birga, hech qanday boylik bilan o'lchab va ado qilib bo'lmaydigan qarzdorlik hissi paydo bo'ladi. Ustozlarimiz o'giti, keksalarimiz pand-nasihatlariga amal qilib borsak, aslo kam bo'lmaymiz. Bu bilan ustoz va murabbiylarimiz oldidagi ilk burchimizni ado etgan bo'lamiz. Inson, avvalo, unga bilim va marifat dunyosi sari yo'l ochib bergan, uning qalbiga yuksak insoniy fazilatlar hissini singdirish yo'lida zahmat chekkan ustoz va murabbiylariga nisbatan ko'nglida hamisha minnatdorlik tuyg'usi bilan yashaydi.



30 – may
“KIMYOGARLAR KUNI”



Bu kun kimyogarlarning kuni deb 1965-yil 10-mayda chiqqan farmonda e'lon qilingan. Farmonni Oliy Kengash Prezidiumi chiqargan va hozirgacha bu bayram rang-rang va esda qolarli darajada nishonlanadi. Bayram bilan bog'liq an'analar Mendeleev jadvalidan biror element har yili bayramning ramzi sifatida tanlanadi. Eng birinchi "Kimyogarlarning kuni" bayramining ramzi jadvalning birinchi elementi-vodorod bo'lgan. Kimyo fakulteti talabalari va bitiruvchilari bu kunni yorqin va quvnoqlik bilan o'tkazishadi. Bundan tashqari Moskvada Sokolnikida har yili aynan shu kuni muzqaymoq bayrami ham o'tkaziladi va bu bayram hammada yoqimli

taasurotlar qoldiradi, hamda yaxshi kayfiyat bag'ishlaydi. Bu kasbning foydasi erkaklar ham ayollar ham turli xil kimyoviy o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan mahsulotlardan foydalanishadi. Aynan kimyogarlarning tufayli biz kir yuvish vositasi bilan yuvish, krem va pardoz-andoz buyumlari yordamida chiroyli bo'lish, chiroyli kolgotka-paypoq kiyish hamda qo'limizni sovun bilan tozalash imkoniyatiga egamiz. Har bir avtomobilchi uchun zarur bo'ladigan eng yoqimli xidli avtomobil moylari haqida gapirmasa ham bo'ladi. Umuman kimyo –ko'pchilikka yoqadigan, yetarlicha maroqli va qiziqarli fandır.

25-октябрь - ИЧКИ ИШЛАР ХОДИМЛАРИ КУНИ



Bugun mamlakatimiz ulkan bir tarixiy davrni — ezgu va ulug' maqsadlar bilan, tinch-osoyishta hayot kechiriladigan muqaddas makon barpo etilayotgan pallalarni boshidan kechirmoqda. O'z kuchi va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan zamonda yashayotganimizdan qalblarimiz g'urur va iftixorga to'ladi. Tinch va farovon yurtimizda "osoyishtalik" deb atalmish ne'matdan bahramand bo'lishimizda tunu kun el

xizmatiga mardlarcha bel bog'lagan alp o'g'lonlar, ichki ishlar organlari xodimlarining fidokorona mehnatlari yotadi.

Fuqarolar xavfsizligini taminlash, hududlarda tinchlik osoyishtalikni saqlash, huquqbuzarlik, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashishda samaradorlikka erishish maqsadida mustaqillikning ilk kunlaridanoq huquq-targ'ibot idoralari, xususan, ichki ishlar tizimi xodimlari tinim bilmay mehnat qilmoqdalar. 25 oktyabr kuni soha vakillarining kasb bayramlari nishonlanadi.

1 avgust –Temiryo'lhilar kasb bayrami



Istiqlol yillarida barpo etilgan Navoiy-Uchquduq-Sulton Uvaystog'-Nukus temir yo'li mamlakatimiz shimolini markaz bilan, Amudaryo orqali o'tgan ko'prik Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatini boshqa hududlar bilan bog'ladi. Tog'li hududda, murakkab iqlim sharoitida qisqa fursatda qurib bitkazilgan Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'l liniyasi janubiy hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etayotir. Ayni vaqtda Vatanimizning yagona temir yo'l

tizimini yaratishning navbatdagi bosqichi bo'lgan Farg'ona vodiysini mamlakatimizning qolgan hududlari bilan bog'lovchi elektrlashtirilgan Angren-Pop temir yo'l qurilishi jadal amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston temir yo'llari" davlat aksiyadorlik temir yo'l kompaniyasidan ma'lum qilishlaricha, mamlakatimiz transport salohiyatini yanada rivojlantirishga doir aniq maqsadlarga qaratilgan ishlar davom ettirilmoqda. Prezidentimiz Islom Karimovning 2010 yil 15 dekabrda qabul qilingan "2011 – 2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini

rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan vazifalar ijrosi bu jarayonda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur hujjatga muvofiq tarmoqda elektr poezdlar harakatlanishini yanada rivojlantirish, energiya tejaydigan texnologiyalarni kengroq joriy etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. So‘nggi yillarda elektrlashtirilgan Toshkent-Samarqand va Toshkent-Xo‘jaket temir yo‘liga To‘qimachi-Angren yo‘nalishi ham qo‘shildi. Maroqand-Qarshi va Qarshi-Termiz temir yo‘l uchastkalarida elektrlashtirish ishlari jadal davom etmoqda. Lokomotiv parkini yangilash borasida amalga oshirilayotgan ishlar ham diqqatga sazovor. O‘tgan yillar davomida kompaniya lokomotiv parki eng zamonaviy, yuqori samarali elektrovozlar bilan to‘ldirildi.

Quruvchilar kuni



Avgust oyining ikkinchi yakshanba kuni Qurilish sohasi xodimlari kuni deb e‘lon qilindi. 2017-yildan boshlab sohaga mos tarzda va tantanali ravishda nishonlanadi.

Bu qaror Respublikada amalga oshirilayotgan qurilish va bunyodkorlik ishlarini jadallashtirish, bugungi kunda sohada qo‘lga kiritilayotgan yutuklarni keng targ‘ib etish va sohada faoliyat olib borayotgan mutaxassislarni rag‘batlantirish maksadida, shuningdek sohada mehnat qilayotgan keng jamoatchilikning takliflarini inobatga olib qabul qilindi.

Vazifa: Yana qanday kasb bayramlarini bilishingiz haqida matn tuzish.

GRAMMATIKA: MATN MAZMUNINING QISQACHA BAYONI (REZUME), UNING TUZILISHI VA IFODA MATERIALINING XUSUSIYATLARI.



Hozirgi paytda ko‘plab zamonaviy tashkilotlar va ayniqda xalqaro korxonalar ishga hujjat topshirayotgan shaxslardan rezume yuborishlarini talab qilishadi. Rezume nima? Rezume fransuzcha “**resume**” so‘zidan kelib chiqqan va sodda qilib aytganda **qisqacha izoh** ma’nosini bildiradi. Rezume ishga hujjat topshirayotgan shaxs to‘g‘risida ma’lumotni taqdim etadi- uning ismi, ma’lumot darajasi, ish tajribasi, qiziqishlari va h.k.

Rezume hozirgi kunda ishga qabul qilish jarayonida eng muhim hujjat hisoblanadi. O‘zbek tilida bunday hujjat “tarjimayi hol” va “shaxsiy ma’lumotnoma” deb ham atalishi mumkin, lekin rezumening shakli bu hujjatlardan biroz farqlidir. Rezume asosan ish izlovchilar tomonidan ishga topshirayotganda yuboriladigan hujjat hisoblanadi, lekin u boshqa maqsadlarda ham ishlatilishi mumkin. Masalan, tashkilot direktori yoki loyiha menejerining rezumesi grant taklifi bilan birgalikda donor tashkilotga topshiriladi.

Rezumeda ish izlovchi shaxs to‘g‘risida qisqacha ma’lumot beriladi. Ish beruvchi eng avval rezumega e‘tibor qaratadi. Ya’ni ishga topshirgan shaxsni ko‘rmasdan va bilmadan turib rezume orqali u bilan tanishadi. Shuning uchun, rezume ishga topshiruvchi shaxs to‘g‘risida bexato, aniq va eng asosiysi topshirilayotgan ishga tegishli bo‘lgan ma’lumotlarni qamrab olishi kerak. Yaxshi tuzilgan rezume ishni qo‘lga kiritishning birinchi va eng muhim poyqadami hisoblanadi.

Agar rezumengiz orqali ish beruvchini ishontira olmasangiz, keyingi bosqichga o‘tish imkoni bo‘lmaydi!

Rezumening asosiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Shaxsiy ma’lumot

- a. Ism-sharif (talab qilinadi)
- b. Murojaat manzillari: telefon, email, yashash joyi (talab qilinadi)
- c. Jins (majburiy emas)
- d. Millat (majburiy emas)
- e. Tug'ilgan sana (majburiy emas)

2. Qisqacha mazmun va/yoki professional maqsad (ixtiyoriy)

- a. Bir yoki ikki gap bilan qisqacha eng muhim jihatlarini sanab o'tish.

Misol: *6 yillik tajribaga ega loyiha tuzish va boshqarish mutaxassisi. Ingliz va rus tillarini mukammal biladi. 2008-yilda Biznesni boshqarish yo'nalishi bo'yicha Magistraturani oliy darajada tamomlagan va ilmiy darajaga ega.*

3. Ma'lumot

- a. Ilmiy daraja/diplom, mutaxassislik, o'qigan yili (yoki daraja berilgan yil), o'quv yurtining nomi, manzili (shart)
- b. Topshirilayotgan ishga taaluqli fanlar nomi va soati (shart emas)
- c. Agar a'lo darajada bitirgan bo'lsa, shuni ham bildirib o'tish kerak

Misol: *2006-2008 Magistratura, Biznesni Boshqarish. O'zbekiston Milliy Universiteti. Toshkent shahri, Talabalar shaharchasi, Universitet-4 ko'chasi. www.nuu.uz.*

Taaluuqli fanlar: *Loyiha tuzish va boshqarish (22 soat); Markoiqtisodiyot (25 soat)*

4. Tajriba

- a. Ishlagan sana, lavozim, tashkilot nomi, manzili, qisqacha vazifalari va yutuqlari
- b. Eng oxirgi ish joyidan boshlab yoziladi

Misol: *25.01.2008 – 10.02.2011 Loyiha mutaxassisi, "Yoshlarda ish ko'nikmalarini rivojlantirish loyihasi". NNT "Faol", Shaxrisabz ko'chasi 1-uy, Toshkent. Tel: 267-00-00*

· *Yoshlar uchun 5-kunlik treninglarni tashkil qilganman: trening rejasini tuzish; trenerlarni jalb qilish; joy va kerakli jihozlarni tayorlash; ishtirokchilarni taklif qilish; trening paytida barcha ishlarni koordinatsiya qilish; trening hisobotini yozish.*

· *BMTD va "Kamolot" bilan hamkorlikda o'tkazilgan "Yoshlarni ish bilan ta'minlash muammolari" mavzusi bo'yicha izlanishlarni olib borishda va yakuniy hisobotini yozishda ko'maklashganman.*

· *Loyiha chorak hisobotlarini yozish, loyiha bo'yicha prezentatsiyalar berish.*

5. Qo'shimcha ma'lumotlar:

- a. Xorijiy tillar
- b. Kompyuter durturlari to'g'risida bilimlar
- c. Yutuqlar (sport bo'yicha, stipendiyalar va boshqa muhim yutuqlar)
- d. Qo'shimcha treninglar va kurslar
- e. Tajriba orttitirsh (stajorlik) paytlari
- f. Qiziqishlar
- g. Ilmiy maqolalar
- h. Konferensiyalardagi ma'ruzalar

Maslahatlar:

- Rezume iloji boricha bir varoqdan oshmasligi kerak.
- Har bir ishga topshirganda alohida rezume yozish maslahat beriladi. Rezumeda asosan topshirilayotgan ishga taaluqli ma'lumotni kiritish kerak. Buning uchun topshirayotgan ishingiz bayonotini yaxshilab o'rganib chiqing va tashkilotni o'zini ham o'rganishga harakat qiling.
- Tug'ilgan yili, jinsi va millatini yozish shaxsning o'ziga bog'liq. Ba'zida ish beruvchi tomonidan shu ma'lumotlar asosida farqlash va diskriminatsiya qilish hollari ham uchragan, shuning uchun ko'plab tashkilotlar bunday ma'lumotni majburiy ko'rmaydilar.
- Ba'zilar rezumega o'z rasmlarini ham qo'shadilar. Rasm qo'shish ixtiyoriy.

- Agar shaxsiy veb saytingiz bo'lsa, uni ham qo'shing. Ba'zi mutaxassislar, ayniqsa disayner va rassomlar, o'zlarining ishlarini ko'rsatish maqsadida tashqi saytda joylashgan manzillarni qo'shishlari ham mumkin.
- Agar ishga topshiruvchi hozirda talaba bo'lsa, unda kutilayotga bitirish sanasini ko'rsatish kerak.

Rezume namunasi:

<p>Lobar Yoqubjonova Toshkent sh., Firdavs mavzesi, Shahrizabz ko'chasi 7-uy. Tel: +998902220000; Lobar_yoqubjon@mail.uz</p> <p>Qisqacha mazmun: 6 yillik tajribaga ega loyiha tuzish va boshqarish mutaxassisi. Ingliz va rus tillarini mukammal bilaman. 2008 yilda Biznesni boshqarish yo'nalishi bo'yicha Magistraturani oliy darajada tamomlagan va ilmiy darajaga egaman.</p> <p>Ma'lumot: 2006-2008 Magistr, Biznesni boshqarish. O'zbekiston Milliy Universiteti. Toshkent shahri, Talabalar shaharchasi, Universitet-4 ko'chasi. www.nuu.uz. Fanlar: Loyiha tuzish va boshqarish (22 soat) Makroiqtisodiyot (25 soat) 2002-2006 Bakalavr, Menejment. Farg'ona Politexnika Instituti. Farg'ona shahri, Farg'ona ko'chasi 86-uy. www.ferpi.uz</p> <p>Ish tajribasi: 25.01.2011 – 10.02.2014 Loyiha mutaxassisi, “Yoshlarda ish ko'nikmalarini rivojlantirish loyihasi”. NNT “Faol yoshlar”, Toshkent sh., Shaxrisabz ko'chasi 1-uy. Tel: 267-00-00</p> <ul style="list-style-type: none"> · Yoshlar uchun 5-kunlik treninglarni tashkil qilganman: trening rejasini tuzish; trenerlarni jalb qilish; joy va kerakli jihozlarni tayyorlash; ishtirokchilarni taklif qilish; trening paytida barcha ishlarni koordinatsiya qilish; trening hisobotini yozish. · BMTD va “Kamolot” bilan hamkorlikda o'tkazilgan “Yoshlarni ish bilan ta'minlash muammolari” mavzusi bo'yicha izlanishlarni olib borishda va yakuniy hisobotini yozishda ko'maklashganman. · Loyihaning chorak hisobotlarini yozish, loyiha bo'yicha prezentatsiyalar berish. <p>01.06.2008 – 28.12.2011 Dastur yordamchisi, Mahalliy rivojlanish markazi, Toshkent sh., Navoiy ko'chasi 165-uy, Toshkent. Tel: 237-90-00</p> <ul style="list-style-type: none"> · Farg'ona, Namangan va Andijon viloyatlarida mahalliy tadbirlarni tashkil qilishda yordam berish: tarqatma materiallarni tayyorlash; treninglar uchun o'quv zallarini tayyorlash; · Tadbirlar va yangi loyihalar uchun yoshlarning ijtimoiy ehtiyojlari to'g'risida axborot yig'ish va kichik izlanishlar olib borish; · Uchrashuvlarning hisobotini yozib borish. <p>Xorijiy tillar: Ingliz va rus tillarida to'liq yozish, o'qish va muloqot qila olish.</p> <p>Kompyuter dasturlari: Windows 7; Microsoft Office 2008 (Power Point, Word, Excel); Internet</p> <p>Qo'shimcha kurslar: 2011, Toshkent menejment markazi tomonidan tashkil qilingan 6-haftalik “Loyiha tuzish va boshqarish kursi”ni muvaffaqiyatli tamomlaganman.</p> <p>Yutuqlar: 2016-y. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasi sohibasi.</p>
--

Topshiriq:

O'zingiz haqingizda rezume tuzing.

Test topshiriqlari

1. Yo'ling tushganmidi, qarddon do'stim, bu yaqin orada Mirzacho'l tomon.

Ifoda maqsadiga ko'ra ushbu gap turini belgilang.

- | | |
|---------------|---------------|
| A) buyruq gap | B) so'roq gap |
| C) istak gap | D) darak gap |

2. Quyidagi atamalarning qaysi biri sintaksisga tegishli?
 A) orttirma nisbat B) modal soʻz
 C) taqlid soʻz D) hokim soʻz
3. Toshkent bilan Samarqand soʻz qoʻshilmasidagi soʻzlar bir-biri bilan qanday usulda bogʻlangan?
 A) koʻmakchili boshqaruv usuli bilan
 B) bitishuv usuli bilan
 C) tobe bogʻlanish usuli bilan
 D) teng bogʻlanish usuli bilan
4. Moslashuv yoʻli bilan birikkan soʻz birikmasini toping.
 A) men uchun muqaddas
 B) shahar koʻchalari
 C) ulugʻvor tabiat
 D) ilmga havas
5. Soʻzlarning bir-biriga bogʻlanishi, gap va uning turlari oʻrganiladigan tilshunoslik boʻlimi nima deb ataladi?
 A) morfologiya B) sintaksis
 C) leksikologiya D) grammatika
6. ish bajarmoq, toʻrga yurmoq kabi birikmalardagi soʻzlar oʻzaro qanday yoʻl bilan bogʻlangan?
 A) moslashuv usuli bilan
 B) koʻmakchili boshqaruv usuli bilan
 C) bitishuv usuli bilan
 D) kelishikli boshqaruv usuli bilan
7. Qaysi qatordagi ergash soʻz bilan bosh soʻzning tartibi oʻzgartirilsa, gap hosil boʻladi?
 A) yura-yura charchamoq
 B) suvli idish
 C) maqola oʻqimoq
 D) koʻm-koʻk rangli
8. Bitishuv yoʻli bilan birikkan soʻz birikmasini aniqlang.
 A) bahordagi oqshom
 B) ip bogʻlamoq
 C) shahar kelish
 D) hidlar xushboʻyligi
9. His-hayajon gap qaysi qatorda berilmagan?
 A) Eh, qanday goʻzal bu yoshlik!
 B) Yoshlik, qanday begʻubor faslsan!
 C) Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot.
 D) Naqadar baxtlidir ona bechora!
10. Yomon kunga qoʻyma, oʻrtoqjon, Toki yigʻib olayin darmon!
 Ushbu gap haqidagi qaysi hukm toʻgʻri?
 A) soʻroq gap B) darak gap

C) istak gap

D) buyruq gap

30-mavzu. SHARQ MA'MUN AKADEMIYALARI

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matnni davom ettirgan holda so'zlab berish. Fidoyilik tushunchasini misollar bilan ta'riflab berish.

Yozma nutq: Kasbning qo'llanish sohasi, ahamiyati to'g'risida ilmiy uslubdagi ma'lumotnoma matnini tayyorlash. Soha rivojiga salmoqli hissa qo'shgan mutaxassislar haqida reportaj tayyorlash.

Grammatika: Referat matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.

Tayanch so'z va iboralar: akademiya, Ma'mun akademiyasi, mutafakkur, tadqiqotchi, sharq akademiyalari, referat matni.

Xorazm Ma'mun akademiyasi

Ma'mun akademiyasi 1004-1005-yillarda Xorazmda yaratilgan bo'lib, O'rta Osiyo tarixida birinchi akademiyadir. Akademiyaning "Ma'mun" deyilishining sababi Ma'muniy xorazmshohlar davrida (997-1017-yillar) ularning homiyligida tashkil qilingan va ilmiy ish olib borgan. Akademiya 1017-yilda o'z faoliyatini to'xtatishining sababi Xorazmshoh Ma'mun ibn Ma'munning isyonchilar tomonidan o'ldirilishi bo'ldi. Shundan so'ng akademiya homiysiz va qarovsiz qolib, akademiya olimlari ilmiy ish uchun tinch sharoit qidirib, birin-ketin tarqalib ketdilar.

1004-yildan boshlab Gurganjda "Darul Hikma va maorif ilmiy tashkiloti faoliyat ko'rsata boshlagan. Bu ilmiy tashkilot ko'p jihatdan Platonning Afinadagi Akademiyasini va Bag'doddagi "Bayt-ul hikma" akademiyasiga o'xshagan Xorazm Ma'mun akademiyasida o'sha davrning eng ko'zga ko'ringan ensiklopedist olimlari va mutafakkirlari xizmat qilganlar. Ular qatorida quyidagi yirik tadqiqotchilarni sanab o'tish mumkin: Abulhayr ibn Hammar, Jurjoniy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad ibn Muhammad as-Saxiy, Xorazmiy va boshqalar. Bular o'sha davr sharoitida haqiqiy ilmiy fanlarning mashhur kimyogarlari, tabiatshunoslari, tibbiyotchilari, matematiklari, astronomlari, muhandis-muhosib olimlari, mantiqshunoslari, faylasuflar, tarixchilar, geograflar va boshqa sohalarning atoqli vakillari yig'ilgan edilar.

BMTning Yunesko tashkiloti O'zbekiston Respublikasining taklifi bilan 2005-yilda Ma'mun akademiyasining 1000 yilligi anjumanini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. O'zbekiston ushbu tantanalar doirasida Xorazm Ma'mun akademiyasini O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Xorazm-Amudaryo mintaqasi filiali sifatida qaytadan tikladi. 1997-yil 11-noyabrdan boshlab, O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning "Xorazm Ma'mun akademiyasini tiklash to'g'risida"gi Farmoniga binoan bu akademiya o'z tarkibida arxeologik, til va adabiyot, biologiya bo'limlarini tashkil qildi va o'z ajdodlarining nomi va ruhiga loyiq ish olib borishga intilmoqda.

Topshiriqlar:

1. Savollarga javob bering:

1. Qanday akademiyalarni bilasiz?
2. O'rta Osiyo tarixidagi birinchi akademiyaning nomi?
3. Akademiyaning ish faoliyati nimalardan iborat?

2. matnni o'qing;

- a) rus tiliga tarjima qiling;
- c) matnga reja tuzing;
- d) reja asosida matnni gapirib bering.

3. Quyidagi tayanch so'zlarni yod oling:

Ilm - [bilim; fan] - o'qish-o'rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim; ko'nikma, ma'lumot. Ish-faoliyatning ma'lum bir sohasiga oid bilim, ta'limot, malaka. *Ilm o'rganish*. 2. Ish-faoliyatning ilm bilan bog'liq sohasi; tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar tizimi. *Iqtisodiyot ilmi*.

Ilmiy - ilmga oid, ilmga qaratilgan. *Ilmiy asar*.

Faoliyat - [harakatchanlik; samaradorlik] - biror sohada olib boriladigan ish, mashg'ulot, harakat. *Ilmiy faoliyat*.

Filial - [lot. *filialis* - o'g'ilga oid, o'g'ilniki] - biror yirik korxonaga, muassasa yoki jamoat tashkilotining mustaqil bo'limi, sho'ba. *Xorazm Ma'mun akademiyasini O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Xorazm-Amudaryo mintaqasi filiali sifatida qaytadan tikladi*.

Tadqiqotchi - tadqiqot ishlari bilan shug'ullanuvchi shaxs. *Ilmiy tadqiqotchilar*.

Tashkilot - aniq tarkib va vazifasiga, ish dasturiga ega bo'lgan ijtimoiy, xo'jalik birlashmasi yoki davlat muassasasi. *BMTning Yunesko tashkiloti*.

Ensiklopedist - [fr. *encyclopediste* < yun. *enkyklios paideytes* - keng fanlar doirasi bo'yicha murabbiy] - XVIII-asrda yashagan, ilm-fanning ko'p sohalarini egallagan ilg'or fransuz olimlari, faylasuflari, yozuvchilari va publisistlari guruhiga mansub kishi (bu guruh 1751-1780-yillarda "Ensiklopediya" tuzgan va nashr etgan). *Ensiklopedist olim*.

Olim - [ilmli, ma'lumotli] - fanning biror sohasi bo'yicha maxsus bilimga ega bo'lgan kishi. *Iqtisodchi olim*. 2. Umuman, bilimli kishi. *Olim bo'lsang olam seniki*.

Mutafakkir - [fikrlovchi, o'ylovchi] - chuqur falsafiy fikrlash iste'dodiga ega bo'lgan kishi, tafakkur egasi. *Mutafakkir olim*.

Homiy - [himoya qiluvchi] - biron tadbir yoki faoliyatni amalga oshirishda moliyaviy yordam ko'rsatuvchi, moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi jismoniy yoki yuridik shaxs. *Ma'muniy xorazmshohlar homiyligida*.

Akademiya - [yun. *academia* - afsonaviy qahramon Akadem nomi hamda Platon o'z ta'limotidan dars bergan, Afina yaqinidagi kichik o'rmon nomidan] - ilm, fan yoki san'atni rivojlantirish uchun tuzilgan, yuqori malakali olimlariga ega bolgan oliy ilmiy muassasa. *O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi*. 2. Ba'zi bir oliy oquv yurtlarining nomi. *Soliq akademiyasi*.

Qaror - [to'xtam, hukm, xulosa; tub, asos] - biror ish, masala yuzasidan qabul qilingan xulosa; amalga oshirish lozim topilgan qat'iy fikr; ahd, toxtam. *Qarorim qat'iy*. 2. Rasmiy organ, tashkilot, majlis, mansabdor shaxs va sh.k. ning biror ish, masala yuzasidan bamaslahat qabul qilgan toxtami, hukmi. *Kafedra majlis qarori*.

O'zbekistonda Yoshlar akademiyasi tashkil etiladi

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ilmiy-ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hujjat loyihasi joylashtirildi. Qayd etilishicha, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga iqtidorli yoshlarni jalb etish natijalari tahlili mazkur sohada qator tizimli muammolar va kamchiliklar mavjudligini ko'rsatgan. Jumladan: ikkinchidan, mamlakatimizda ilm-fan va ta'lim sohalarini rivojlantirish doirasida chuqur ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun yosh malakali mutaxassislarni tanlab olishda yosh olimlar va iqtidorli yoshlarning umumiy ma'lumotlar bazasi yaratilmagani jiddiy qiyinchiliklar tug'dirmoqda; ikkinchidan, yoshlar orasidan davlat mukofotlari laureatlari, respublika va xalqaro olimpiadalar g'oliblari bilan tizimli ishlar olib borilmay, ularga faqat qimmatbaho mukofotlar hamda ta'lim jarayonida belgilangan ayrim imtiyozlar berish bilan cheklanib qolinmoqda; uchinchidan, iqtidorli yoshlar va yosh olimlarni taniqli olimlar rahbarligida ilmiy-tadqiqot faoliyatida birlashtiruvchi va ilmiy maktablarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi yagona tizim mavjud emas. Vazirlik va idoralar huzurida tashkil etilgan yosh olimlar kengashlari faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari ishlab chiqilmagan; to'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasini doimiy a'zolarini

kadrlar zaxirasi bilan to'ldirish masalasi keskinligicha qolmoqda, akademiklarni o'rtacha yoshi hozirda 77 yoshni tashkil etadi.

Yoshlar akademiyasi doirasida o'zining faolligi, erishgan yutuqlari salmog'i, iqtidori, ilmiy salohiyati bilan alohida ajralib turgan, ilmiy tadqiqotlar olib borishga ishtiyoqi baland yoshlarni munosib taqdirlash uchun "Yosh erudit", "Akademik shogirdi" va "Yosh akademik" ko'krak nishonlari ta'sis etiladi.

Lug'at

ilmiy-nauchный
 tarixchi-историк
 tashkil qilmoq-организовать
 muassasa-учреждение
 tashiflash-классификация
 mahorat-мастерство(искусство)
 tahlil-анализ
 tassavur-представлени

GRAMMATIKA: REFERAT MATNI, UNING TUZILISHI VA IFODA MATERIALINING XUSUSIYATLARI .



Referat – asosiy matn yoki bir necha manbalarni talqin qilish shakllaridan biri. Shuning uchun referat, konspektidan farqli ravishda, yangi, muallifning matni hisoblanadi. Bunday holdagi yangilik yangicha bayonni, materialning bir tizimga solinishi, har xil nuqtayi nazarlarni qiyoslashda muallifning o'z nuqtai nazarini ko'zda tutadi. Referatlash qandaydir masalaning bir yoki bir necha manbalarning tasniflanishi, umumlashtirilishi, tahlili va sintezi asosida bayon qilinishini nazarda tutadi.

Referatning o'ziga xosligi:

- keng miqyosli dalillar, qiyoslashlar, mushohadalar, baholarga ega bo'lmaydi;
- matnda qanday yangi, muhim jihat bor, degan savolga javob beradi.

Referatlar turlari

Bayonning to'liqligi bo'yicha	Axborotli (referat – konspektlar)
	Indikativ (referat – rezumelar)
Referatlanadigan manbalar soni bo'yicha	Monografik
	Tahliliy

Referatning tuzilishi

1. Bibliografik bayon	2. F.I.O. Asar nomi. Nashr qilingan joyi. Nashriyot. Yil. Sahifalar soni.
Referat matni	- Mavzu, muammo; referat qilinadigan ishning predmeti, maqsadlari va tuzilishi. - Qisqacha mazmuni. - Aniq natijalari. - Muallif xulosalari. - Ish natijalari qo'llaniladigan soha.

Referat materialning shunchaki bir oddiy takrorlanishi, bir yoki bir necha manbalardagi materialni o'zlashtirib olishdan iborat bo'lib qolmasligi, ya'ni ko'chirmachilik va kompilyasiya mahsuli bo'lmasligi kerak. Unda referent tanlagan mavzuga oid va ishlab chiqilgan adabiyotlarda mavjud bo'lgan jamiki material tahlil qilib chiqilishi lozim.

Referat ustida ishlash bo'yicha yo'riqnoma

Referat ustida ishlash bo'yicha yo'riqnoma

Referat rejasi quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- kirish,
- asosiy qism,
- xulosa,
- foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati,
- ilovalar (referatning shart bo'lmagan qismi).

Referatning rejasi tanlangan mavzuda ko'rilishi lozim bo'lgan masalalar doirasi va referatning asosiy mazmunini belgilaydi. U referentning mavzu materialida umumiy yo'nalish olishga imkon beradi, uning to'g'ri tanlanishi va bayon qilish mantiqini ta'minlaydi. Har bir bandi qat'iy tanlangan material bilan ta'minlangan puxta o'ylangan reja referatning muvaffaqiyatli yozilishining g'oyat muhim shartidir. Referatning asosiy qismi o'zining lo'nda va aniq nomiga ega masalalarga va kichik masalalarga (bandlarga) bo'linishi zarur.

Agar referat monografik xarakterda bo'lsa (bir manba yoki muallif referat qilinayotgan bo'lsa), unda kirishda quyidagilar ko'rsatiladi:

- 1) muallif haqidagi qisqacha ma'lumotlar (ilmiy darajasi, uning ixtisosligi, boshqa ishlari);
- 2) manba mavzuining qisqacha bayoni;
- 3) ishning maqsadi;
- 4) ishning ruknlari;
- 5) muallifning ustuvor yo'nalishi va boshqalar.

Asosiy qismda barcha muhim qoidalar aks ettirilishi kerak. Referat asosiy qismining matni to'plangan materialning tegishli taqsimlanishi bilan masalalarga va kichik masalalarga (bandlarga) bo'linishi zarur. Bayon qilish shakli – referentning tanlashi bo'yicha: konspektli, parchali, tahliliy bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxatining rasmiylashtirilishini tekshirish

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qat'iy belgilangan tartibda tuziladi:

1. O'zR qonunlari.
2. O'zR Prezidenti farmonlari.
3. O'zR Hukumati qarorlari.
4. Me'yoriy hujjatlar, yo'riqnomalar.
5. Kitoblar, davriy nashrlarda e'lon qilingan maqolalar.
6. Internetdan olingan axborot manbalari.

Manbalarning bibliografik bayonida quyidagilar ko'rsatiladi:

muallifning familiyasi va ismi-sharifi, kitob nomi, nashr qilingan joyi, nashriyot nomi va nashr yili. Agar maqola jurnalda (gazetada) bosilgan bo'lsa, unda jurnal (gazeta) nomi, chiqqan yili, jurnal (gazeta) sahifasi raqami.

Ilovalar ular mazmunini ko'rsatadigan sarlavhalarga muvofiq tarzda izchillik bilan tikib qo'yiladi.

Referat ilmiy rahbar tomonidan referatni baholash bo'yicha kafedra belgilagan ko'rsatkichlar va mezonlar asosida baholanadi.

Topshiriqlar:

1. Yuqoridagi ma'lumotlarni "Klaster" metodi yordamida izohlang.

Test topshiriqlari

1. Maslahatni anglatgan buyruq gapni aniqlang.
A) Seni ish yengmasdan, sen ishni yeng.
B) Endi oltin balig'ing kelib, xizmatimizni qilsin.
C) Ko'ksingizda go'zal niyatlar gullasin, birodar!
D) Qani, boqqa kiring, dam oling.
2. **Qani endi, shu vaqt muzdek suv bo'lsa.**
Ushbu gap ifoda maqsadiga ko'ra qanday gap hisoblanadi?
A) darak gap
B) so'roq gap
C) buyruq gap
D) istak gap
3. Qaysi qatorda so'z birikmasi qo'llanmagan?
A) sohil bo'ylari
B) g'arbiy sohil
C) elga xizmat
D) olma va o'rik
4. Qaysi darak gapda gumon ma'nosi ifodalangan?
A) U bu ishni bemalol bajara oladi.
B) Hamma yoq oppoq qor bilan qoplangan edi.
C) Biz indinga uchrashsak kerak.
D) U o'rnidan turdi.
5. So'roq gaplarni hosil qilishda ishtirok etadigan yuklamalar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) -mi, -chi, nahotki, -gina
B) -mi, -chi, nahotki, -ku
C) -mi, -chi, -oq
D) -mi, -chi, -a, -ya
6. So'zlovchining so'zlashdan maqsadi ma'lum voqea-hodisani bajarish yoki bajarmaslikka da'vat etish bo'lsa, unda gapning ifoda maqsadiga ko'ra qaysi turi vujudga keladi?
A) darak gap
B) so'roq gap
C) buyruq gap
D) istak gap
7. **Guzar ustida yangi g'ovur-g'ovur ko'tarildi.**
Ushbu gapdagi ega qanday so'z turkumi bilan ifodalangan?
A) ot
B) fe'l
C) taqlid so'z
D) sifat
8. **Nafsi yomon hayitda o'lar. (Maqol)**
Gapning egasi qaysi javobda berilgan?
A) nafsi yomon;
B) nafsi;
C) yomon;
D) hayitda;
9. Qaysi bo'lak gapning mazmuniy markazini tashkil etadi?
A) ega

- B) kesim
- C) to'ldiruvchi
- D) undalma

10. Qaysi bo'lak boshqa bo'laklarsiz ham gap bo'la oladi?

- A) ega
- B) kesim
- C) to'ldiruvchi
- D) hol

31-mavzu. ILM SARI YO'L

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matnni qisqartirib so'zlab berish. Ilmiy ishlarning fan va soha rivojiga qo'shadigan hissasi haqida gapirib berish.

Yozma nutq: "Soha rivojida fanning o'rni" mavzusida matn tuzish. Ilmiy ishlarning turlari haqida qisqacha tavsiflar yozish.

Grammatika: Taqriz matni. Ularning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari. Uyushiq bo'laklar.

Tayanch so'z va iboralar: *ilm, taqriz matni, annotatsiya matni.*

Eng buyuk sharaf

O'qish va o'rganishdek sharaflı narsa yo'q. Qur'onning ilk amri «O'qi» so'zi bilan boshlangan. Inson bilimi bilan qadrlanadi.

Ilm qorong'uliklarni yorituvchi mash'aladir. Yuksak pog'onalariga ilm narvoni bilan chiqiladi. Taraqqiy etishni va kamolot topishni istasangiz ilmning etagini mahkam ushlang.

Hazrati Ali ilm xususida: «Ilm pastda turganlarni yuqori darajaga ko'taradi. Bilimsizlik esa tepada turganlarni pastga tushiradi. Ilm mol-davlatdan ustundir, chunki boylikni sen asraysan. Ilm esa seni asraydi», deganlar.

Foydali ilm o'rgangan kishini o'limidan keyin ham insonlar hurmat bilan eslashadi. Ilm abadiy tiriklikdir. Johil kishi tirikligidayoq o'lik hisoblanadi. Bilimli inson Hayotdan ko'z yumganidan keyin ham tirikdir!

Savol so'rash

Savol ilmning kalitidir. Aytadilarki, savol so'rash ilmi hayotimizda uchraydigan bir yo'ldir. Savol kitobni, mavzuni yoki darsni yaxshi anglab yetishni ta'minlaydi. Savol ilmimizni oshiradi. Chunki, so'rab javobini izlaymiz. Savol so'rash o'zimiz sezmaganda bizni bilim egasiga aylantiradi.

Savol beraman, deb aqlga kelgan bo'lar-bo'lmas narsalar so'ralmasligini unutmaslik lozim. Savol insonning saviyasini ham ko'rsatadi. Mantiqli va qiziqarli savollar berish kerak.

Tushuntirmoq

O'rganganlarimizni yaqinlarimizga aytib berish, tushuntirish mavzuni puxta o'zlashtirishimiz uchun eng qulay yo'llardan biridir. Mavzu shunda yanada chuqur o'rganiladi. Umrimiz davomida o'rganish bilan chambarchas bog'liq bo'lganimiz uchun har birimiz o'ziga xos bir o'rgatuvchimiz.

Nimalarni o'qish lozim

Biz o'qiydigan narsalarimizni ham aniq belgilab olishimiz ham juda muhim. O'qiydigan kitoblarimiz bizga qanday foyda keltiradi? Bilimimizga yangi bilimlar qo'sha oladimi? Hatti harakatlarimizning yaxshilikka yo'nalishiga yordam berib, ichimizga huzur-halovat, ishimizga zavq-shavq bag'ishlay oladimi?

Frans Kafkaga ko‘ra, kitob insonda kuchli ruhiy ta‘sir o‘yg‘otishi lozim. U: «O‘qiydigan kitobimiz bir mushtdek bizni sergak torttirmasa nima ishga yaraydi?», — deya haqiqiy kitobning o‘ziga xos xususiyatini ko‘rsatadi. Umid bilan ochilib, foyda bilan yopilgan kitob yaxshi kitobdir.

Kitoblar insonlardan ayrilmaydigan buloqlardir. Aqlarini kitob bilan jilolamagan, ruhlarini u bilan oziqlantirmagan insonlar siqilish, zerikishdan qutula olmaydilar. Seneka: «Kitobsiz yashash, ko‘r, kar, soqov kabi hayot kechirishdir», — degan.

Har bir narsaning foydalisini, yaxshisini tanlaganimiz singari, kitoblarning ham eng yaxshisi va foydalisini tanlaylik. Chunki ular hayotimizda asosiy yo‘nalishni belgilab beradi. Dunyoqarashimiz ular orqali shakllanadi. Agar yaxshisini tanlay olsak, kitob eng yaqin do‘st va birodarimizga aylanadi.

O‘qishdan maqsad nima bo‘lishi kerak?

Inson foydali ilm sari intilishi kerak. Foydali ilm, insoniyatga nafi tegadigan ilmdir. Foydali ilm amalga tatbiq etiladigan ilmdir. Yomon fe‘l va hatti-harakatlardan asraydigan ilmdir.

Ilm tubsiz bir dengizga, ilm o‘rganuvchi esa u dengizning tubidagi suzishga harakat qilayotgan g‘avvosga o‘xshaydi. «Dunyo meni qanday taniydi, bilmayman, lekin men o‘zimni kashf etilmagan ulkan haqiqatlar ummoni ichida, sohilda aylanib yurgan, onda-sonda yumshoqtosh yoki dengiz chig‘nog‘ topib olgan boladek ko‘raman», — degan Isaak Nyuton.

Diplom olish

Diplom olish uchun harakat qilish mumkin, ammo diplomli bo‘lish bilan bilimli bo‘lishning farqi bor. Ilm mansab, lavozim, obro‘, insonlarga yuqoridan qarash uchun o‘rganilmaydi. «Bu masalani men bilaman, mening soham. Bu sohada menga yetadigan bilimdon mutaxassis yo‘q. Siz buni bilmaysiz. Men hamma narsani bilaman» kabi ifodalar aslida jaholatning belgisidir. Lekin ilm olib, bilganiga amal qilmagan inson ham johildir. Bilimiga amal qiladigan kishi haqiqiy ziyolidir. U ilmni insoniyat foydasiga ishlatadi. O‘qishdan murod atrofdagilarga foyda keltirishdir. Ilm insoniyatga xizmat qilsagina qadrli, foydalidir. Amalga tatbiq etilmagan bilim qanchalik foydali bo‘lishidan qat‘iy nazar biror ishga yaramaydi. Ilm insonni takomillashtiradi, sevimli va suyuqli kishiga aylantiradi.

Keys: Yoshlarning yetuk mutaxassis bo‘lib shakllanishlarida nima muhim – nazariyasi yoki amaliyot?

Har bir ta‘lim dargohlarida yoshlarning mukammal bilim olishi hamda barkamol avlod bo‘lib shakllanishida juda ko‘p imkoniyatlar yaratilgan. Xususan, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanishi, ta‘lim berishda metodlardan foydalanib o‘quvchilarni fanga nisbatan qiziqishini ortib borishi bugungi kunda o‘zining qator ijobiy natijalarini ko‘rsatmoqda.

Yoshlarning yetuk mutaxassis bo‘lib shakllanishlarida nima muhim – nazariyasi yoki amaliyot?

«Yaxshi kasb – yetuk mutaxassis – munosib ish haqi»

«Kasb tanlashda amaliyotning o‘rni»

Lug‘at

zarar-вред

bilimsizlik-невежество

muammo-проблема

saviya-уровень

mutaxassis-эксперт

ommabor-популярный

jihoz-оборудование

takomillashtirish-улучшение

g‘avvos-водолаз

Nimaga muhtojmiz?

Asalari bilan inson bolasi o'rtasidagi farq haqida hech o'ylab ko'rganmisiz? Yigirma kunlik asalarini guldan gulga qo'nib, asal yig'ayotganini ko'p ko'rgandirsiz. Inson farzandi esa faqatgina ikki yoshdan oyoqqa turadi, gapirishni o'rgana boshlaydi. 6-7 yoshida maktabga boradi. O'qishni, yozishni o'rganadi. Litsey, universitetni tugatguniga qadar ko'p o'qiydi, o'rganadi, intiladi, izlanadi. Chunki yashash uchun hayotni, insonlarni o'rganishga muhtojdir. Foyda, zararni bilishga majburdir. Biroq asalari bolasi-chi? U asal yig'ishni o'rganishi uchun na o'qishga, na oliy o'quv yurtini bitirishga ehtiyoji bor. U dunyo hayotiga mukammal holda yuborilgan. Inidan chiqar chiqmas ishini boshlaydi. Biz esa yigirma kun yoki yigirma yil, umr bo'yi o'rganishga muhtojmiz. Shuning uchun beshikdan qabrgacha ilm olishga, o'rganishga buyurilganmiz. Inson qobiliyatini bilim va tajriba bilangina oshiradi.

Bilim ozuqadir. Aql va qalb u bilan oziqlanadi.

Bilim muvaffaqiyat. Bilimsizlik esa mag'lubiyatdir.

Bilim jasoratdir. Bilimli kishi muammolarni jasorat bilan yengadi.

Bilim nurdir. Yo'limizni u bilan yoritamiz.

Bilimsizlik esa barcha yomonliklarning manbaidir. Bilimsiz inson o'ziga eng katta yomonlikni qilgan bo'ladi.

Insonning qadri ilm bilan yuksaladi. Ilmli kishi hodisalarga xolis baho beradi, talabchanlik va uddaburonlikni o'rganadi.

Bilmaslik ayb emas, o'rganishga intilmaslik aybdir. Ibn Mas'ud inson bilmaganini bilishi ham ilmdir, deydi. Chunki inson bilmaganini bilsa, o'rganishga intiladi.

Vazifa: 1. Matnni qisqartirib so'zlab bering.

2. Ilmiy ishlarning fan va soha rivojiga qo'shadigan hissasi haqida gapirib bering.
3. "Soha rivojida fanning o'rni" mavzusida matn tuzing.

GRAMMATIKA: TAQRIZ MATNI. ULARNING TUZILISHI VA IFODA MATERIALINING XUSUSIYATLARI. UYUSHIQ BO'LAKLAR.



Taqriz (arab. — ijobiy baho) — adabiy tanqid janri; yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiy-ommabop asar taxlili. Taqrizda asarning bibliografik tavsifi, shuningdek, mazmuni, unda ko'tarilgan muammolar, asarning g'oyaviy - badiiy xususiyatlari, adabiyotda tutgan o'rni haqida ma'lumot bo'ladi; asarga baho beriladi, uning asosiy fazilatlarini va nuqsonlari qayd qilinadi. Taqriz asosan keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallanadi, ularni yangi asarlardan ogoh qiladi, zarurini tanlab olishga ko'maklashadi.

Taqriz xarakteriga ko'ra xilma-xil bo'ladi. Masalan, kengaytirilgan annotatsiya tipidagi taqrizda asar haqida bibliografik ma'lumot beriladi. Tanqidiy yoki publitsistik taqrizlarida konkret asar munosabati bilan biron muhim masala haqida fikr yuritiladi. Esse (adabiy o'ylar) xarakteridagi taqrizda taqrizchi o'z fikr- tuyg'ularini, asarni o'qish jarayonida hosil bo'lgan taassurotlarini lirik tarzda ifodalaydi. Nihoyat, muallif o'z asariga ham taqriz yozishi mumkin (avtotaqriz). Bunda muallifning asarga qarashlari bayon qilinadi yoki u biron munosabat bilan munozaraga kirishadi.

Topshiriq: *Gazeta, jurnallardan sohaga oid maqolalardan o'qish va taqriz namunasini tayyorlash*

Uyushiq bo'laklar

Gapda bir xil sintaktik vazifa bajarib, bir xil so'roqqa javob bo'lgan bo'laklar uyushiq bo'laklar deyiladi. Uyushiq bo'laklar, odatda, bir so'z turkumiga mansub bo'ladi.

Gapning bosh bo‘laklari ham ikkinchi darajali bo‘laklari ham uyushib kelishi mumkin. Masalan: egalar uyushgan: *Tumanimizda maktablar, bolalar bog‘chalari va do‘konlar qurilyapti.*

To‘ldiruvchilar, aniqlovchilar uyushgan: *Taram-taram olmalarni, asl nashvatilarni, po‘sti yupqa luchchak shaftolilarni, quymoqqa o‘xshash anjirlarni aytmayisizmi, bay-bay.*

Topshiriqlar:

1. Uyushiq bo‘laklar gapning qaysi bo‘lagi ekanligini aniqlang va gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Aktyor goh kulardi, goh yig‘lardi. 2. Ahmad bilan Karimning mehnati yuqori baholandi. 3. She‘rni ifodali o‘qing va yodlang. 4. Oy yoritadi, ammo isitmaydi. 5. O‘quvchilar darsda tinglaydilar o‘qiydilar va yozadilar.

2. Gaplarni o‘qing. Qaysi gap bo‘laklari uyushib kelganini ayting.

1. Bu bino tez va chiroyli qurildi. 2. Uning ko‘zlari yonar, o‘zi odatdan tashqari shod, hayajonda edi. 3. U hafa bo‘ldi, ammo yig‘lamadi. 4. Bugun sen o‘yna, kul, shodlan. 5. Ozoda supurilgan, salqin hovlida to‘y boshlandi.

3-*mashq.* Quyidagi so‘zlar va birikmalardan foydalanib uyushiq bo‘lakli gaplar tuzing.

Olma, o‘rik, nok va behi; oq, qizil, sariq; ba‘zan o‘qiydi, ba‘zan yozadi; ham o‘qiydi, ham ishlaydi; imtihon va sinov; yoki tramvay, yoki trolleybus, yoki avtobus.

Test topshiriqlari

1. Bag‘dodda al-Ma‘mun tomonidan tashkil etilgan birinchi akademiya dastlab qanday nomlangan?

- A) “Dor –ul hikma”
- B) “Bayt-ul hikma”
- C) “Ma'mun akademiyasi”
- D) “Xalosiya”

2. Tildagi qaysi atama arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, qisqacha izoh ma‘nosini bildiradi. Unda ishga hujjat topshirayotgan shaxs to‘g‘risida ma‘lumot taqdim etiladi?

- A) Annotatsiya
- B) Rezume
- C) Ma‘lumotnoma
- D) Tarjimayi hol

3. Qachon Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan Xorazm Ma'mun akademiyasini O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasining Xorazm-Amudaryo mintaqasi filiali sifatida qaytadan tiklash to‘g‘risida farmoni qabul qilindi?

- A) 1998-yil
- B) 1997-yil
- C) 2000-yil
- D) 2005-yil

4. BMTning Yunesko tashkiloti O‘zbekiston Respublikasining taklifi bilan qachon Ma'mun akademiyasining 1000 yilligi anjumanini o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qildi?

- A) 1998-yil
- B) 1997-yil
- C) 2000-yil
- D) 2005-yil

5. Ilmiy uslub namunasi bo‘lib, qandaydir masala bir yoki bir nechta manbalarning tasniflanishi, umumlashtirilishi, tahlili va sintezi asosida bayon qilinuvchi yozma nutq namunasini toping.

- A) Annotatsiya
 - B) Rezume
 - C) Referat
 - D) Taqriz
6. Qaysi qatorda taqrizga to'g'ri ta'rif berilgan?
- A) Voqea – hodisalarni bevosita, jonli aks ettiruvchi, tezkor yoritib beruvchi informatsion janr.
 - B) Arab tilidan oligan bo'lib ijobiy baho degan ma'noni anglatuvchi adabiy tanqid janri. Yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiy-ommabop asar tahlili.
 - C) Fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, qisqacha izoh ma'nosini bildiradi. Unda ishga hujjat topshirayotgan shaxs to'g'risida ma'lumot taqdim etiladi.
 - D) Badiiy, ilmiy, metodik asarlarning muallifi, mavzusi, manbasi, unda ko'- tarilgan asosiy masalani ko'rsatishga qaratilgan qisqa xabardir.
7. Qaysi qatorda annotatsiyaga to'g'ri ta'rif berilgan?
- B) Voqea – hodisalarni bevosita, jonli aks ettiruvchi, tezkor yoritib beruvchi informatsion janr.
 - B) Arab tilidan oligan bo'lib ijobiy baho degan ma'noni anglatuvchi adabiy tanqid janri. Yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiy-ommabop asar tahlili.
 - C) Fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, qisqacha izoh ma'nosini bildiradi. Unda ishga hujjat topshirayotgan shaxs to'g'risida ma'lumot taqdim etiladi.
 - D) Badiiy, ilmiy, metodik asarlarning muallifi, mavzusi, manbasi, unda ko'- tarilgan asosiy masalani ko'rsatishga qaratilgan qisqa xabardir.
8. Qaysi qatorda reportajga to'g'ri ta'rif berilgan?
- C) Voqea – hodisalarni bevosita, jonli aks ettiruvchi, tezkor yoritib beruvchi informatsion janr.
 - B) Arab tilidan oligan bo'lib ijobiy baho degan ma'noni anglatuvchi adabiy tanqid janri. Yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiy-ommabop asar tahlili.
 - C) Fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, qisqacha izoh ma'nosini bildiradi. Unda ishga hujjat topshirayotgan shaxs to'g'risida ma'lumot taqdim etiladi.
 - D) Badiiy, ilmiy, metodik asarlarning muallifi, mavzusi, manbasi, unda ko'tarilgan asosiy masalani ko'rsatishga qaratilgan qisqa xabardir.
9. Qaysi qatorda rezumega to'g'ri ta'rif berilgan?
- D) Voqea – hodisalarni bevosita, jonli aks ettiruvchi, tezkor yoritib beruvchi informatsion janr.
 - B) Arab tilidan oligan bo'lib ijobiy baho degan ma'noni anglatuvchi adabiy tanqid janri. Yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiy-ommabop asar tahlili.
 - C) Fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, qisqacha izoh ma'nosini bildiradi. Unda ishga hujjat topshirayotgan shaxs to'g'risida ma'lumot taqdim etiladi.
 - D) Badiiy, ilmiy, metodik asarlarning muallifi, mavzusi, manbasi, unda ko'tarilgan asosiy masalani ko'rsatishga qaratilgan qisqa xabardir.
10. Adabiy tanqidning qaysi janrida asarning bibliografik tavsifi, mazmuni, unda ko'tarilgan muammolar, asarning g'oyaviy - badiiy xususiyatlari, adabiyotda tutgan o'rni haqida ma'lumot bo'ladi; asarga baho beriladi, uning asosiy fazilatlari va nuqsonlari qayd qilinadi.
- A) Annotatsiya
 - B) Taqriz
 - C) Referat

D) Maqola

32-mavzu. KASB ETIKASI

Og‘zaki nutq: Soha xodimlarining odob-axloq qoidalari bilan tanishish va ular haqida gapirib berish. Odob–axloq mavzusidagi hikmatlarni yod olish. Mavzu bo‘yicha bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq: Odob-axloq mavzusidagi kitobga annotatsiya yozish. “Mutaxassisning odobi va axloqi” mavzusida dialog tuzish va uni inssenirovka qilish.

Grammatika: Annotatsiya matni. Ularning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.

Tayanch so‘z va iboralar: kasb etikasi, axloq, uyushiq bo‘laklar, uyushiq bosh bo‘laklak, uyushiq ikkinchi darajali bo‘laklar.

Kasb etikasi

Axloqning burch, vijdon, or-nomus kabi bir qator kategoriyalari mavjud. Aynan shu sababli ham axloq hodisa sifatida ijtimoiy faoliyatni tartibga solishning boshqa shakllaridan, ya’ni huquq, ishlab chiqarish — ma’muriy nizolardan va boshqalardan o‘z talablarining asoslanishi va amalga oshirilishi bilan farq qiladi.

Axloqda ijtimoiy zaruriyat, ehtiyoj, jamiyatning manfaatlari aks etadi, hamma qabul qilgan ommaviy namuna odat, rasm-taomil jamoatchilik fikri bilan mustahkamlangan talablar va baholar tarzida ifodalanadi. Shuning uchun axloq talablari hammaga bab-baravar qaratilgan, lekin hech kimning buyrug‘i bilan joriy etilmagan burch, majburiyat tarzida namoyon bo‘ladi.

So‘nggi yillarda, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tizimida ushbu masalaga bo‘lgan e’tiborning yanada kuchaytirilishi natijasida, bu sohani huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Namunaviy qoidalarga muvofiq, davlat xizmatchilari xushmuomala, iltifotli, odobli, e’tiborli, fuqarolar va hamkasblari bilan munosabatda sabr-toqatli bo‘lishi, ularni hurmat qilishi shartligi, davlat xizmatchilari o‘ziga bo‘ysunuvchilarga va fuqarolarga nisbatan qo‘pollik qilmasligi, odamlarning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitmasligi, ularga asossiz psixologik va jismoniy ta’sir ko‘rsatish holatlariga yo‘l qo‘ymasligi kerakligi belgilandi.

Lug‘at

axloq- нравственность, этика
or-nomus - достоинство
vijdon-совесть
hodisa-случай
burch-долг
ma’muriy - административный
zaruriyat- необходимость
ehtiyoj – потребность, нужда
tamoyil-принцип
mujassamlanmoq – воплощаться, олицетворяться

Grammatika: Annotatsiya matni. Ularning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.



Annotatsiya - badiiy, ilmiy, metodik asarlarning muallifi, mavzusi, manbasi, unda ko‘tarilgan asosiy masalani ko‘rsatishga qaratilgan qisqa

xabardir. Annotatsiya o‘zining kamso‘zligi, hajm jihatidan nihoyatda kichikligi bilan bayonning boshqa turlaridan ajralib turadi.

Annotatsiya boshlang‘ich hujjatda so‘z boradigan savolga javob beradi.

Annotatsiya turlari

- **bildirgichli** -matnning tanqidiy bahosiz tavsifnomasini beradi;
- **tavsiyali** -matnning iste‘molchilarning muayyan auditoriyasi uchun yaroqliligi jihatidan tavsifini va bahosini beradi;
- **umumiy** -keng auditoriyani hisobga olib umuman matnning tavsifini beradi;
- **ixtisoslashgan** - matnning tor doiradagi mutaxassislarni hisobga olib muayyan jihatlar dagi tavsifini beradi;
- **guruhli** -mavzui bo‘yicha yaqin bir necha matnlar tavsifini beradi.

Topshiriq: *Sohaga doir maqola o‘qing va unga annotatsiya yozing.*

Test topshiriqlari

1. Siz bilan olam go‘zal.

Qaysi so‘z turkumi kesim vazifasida kelgan?

- A) olmosh B) sifat
- C) son D) ot

2. Gapning to‘g‘ri tarjimasini toping.

Все уехали, только лишь мой братъ ещё оставался здесь.

- A) Hamma ketdi, faqat mening akamgina qoldi.
- B) Hamma ketdi, mening akamgina qoldi.
- C) Hamma ketib, birgina akam qoldi.
- D) Hamma ketdi, lekin mening akam qoldi.

3. Nuqtalar o‘rniga qoyiladigan ko‘makchilarni ketma-ketligi bo‘yicha toping.

1) Qalam ... yozdim. 2) Bu ko‘ylakni bayramda kiyish ... sotib oldim. 3) U uy ...ketdi.

- A) uchun, bilan, haqida
- B) bilan, uchun, tomon
- C) orqali, bilan, uchun
- D) uchun, bilan, qarab

4. “Ikki eshik orasi” romaninibg muallifini toping.

- A) Cho‘lpon B) Abdulla Qahhor
- C) O‘tkir Hoshimov D) Said Ahmad

5. O‘qish – asosiy burchimiz.

Ushbu gapda fe‘l qaysi gap bo‘lagi bo‘lib kelgan?

- A) Ega
- B) Kesim
- C) Aniqllovchi
- D) Hol

6. Nuqtalar o‘rniga kerakli bog‘lovchilarni ketma-ketlida qo‘ying.

1) O‘zbekistonda kuz faslida anor, anjir ... xurmo pishadi.

2) Bu olma ozgina qizaribdi, ...hali yaxshi pishmagan.

3) Hammasini tinglardim.... O‘xshashini topmasdim aslo.

- A) va, hamda, biroq
- B) va, lekin, ammo

- C) hamda, biroq, yoki
- D) va, ammo, chunki

7. Tinish belgilari tilshunoslikning qaysi bo‘limida o‘rganiladi?

- A) morfologiya
- B) Sintaksis
- C) Punktualsiya
- D) fonetika

8. Telegramma qanday hujjat turiga kiradi?

- A) xizmat yozishmalari
- B) farmoyish hujjatlari
- C) tashkiliy hujjatlar
- D) ma’lumot-axborot hujjatlari

9. *Tikan zahri uchida, dushman zahri ichida.*

Maqoldagi **uchida, ichida** so‘zlari qanday gap bo‘lagi vazifasida?

- A) ega
- B) kesim
- C) hol
- D) to‘ldiruvchi

10. Sodda yasama olmoshni toping.

- A) hech kim
- B) qaysi
- C) allakim
- D) mana bu

33-MAVZU. NUTQ ODOBI

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so‘zlash. Kasbiy faoliyatda nutq madaniyatining ahamiyati haqida gapirib berish.

Yozma nutq: “Mutaxassisning nutq madaniyati” mavzusida matn tuzish. Ish jarayonidagi muomala madaniyati haqida kasbiy o‘yin ssenariysini tuzish va uni insseniroyka qilish.

Grammatika: Me’yor tushunchasi.

Tayanch so‘z va iboralar: nutq odobi, me’yor tushunchasi, gap bo‘laklarining tartibi, odatdagi tartib, o‘zgargan tartib.

Nutq odobi

Nutq harakatdagi tildir. Nutq tilga tegishli birliklarni ma’lum vaqt bo‘lagida bir-biriga qo‘shadi, harakatga keltiradi. Nutq so‘z shakllari, so‘z birikmalari, so‘z tartibi va gaplardan tashkil topadi. Nutq odobi insonning ma’naviyatini-ma’rifatini belgilovchi asosiy mezondir.

Kishining odobi, eng avvalo, uning nutqida ko‘rinadi. Nutq odobi nima? Nutq odobi deganda, aytilishi zarur bo‘lgan xabarlarini, tinglovchini hurmat qilgan holda, uning ko‘ngliga mos holda adabiy normadagi ifodalar bilan etkazish tushuniladi. Har qanday xunuk xabarni ham tinglovchiga beozor etkazish mumkin. Buning uchun so‘zlovchi tilni, adabiy til normalarini mukammal bilishi lozim. Muloyim, yoqimli, odobli so‘zlash ham o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Unga yoshlikdan ongli mashqlar qilish, tilning lug‘at boyligini egallash, bu borada nutqi ibratli kishilarga taqlid qilish, ulardan o‘rganish orqali erishiladi. O‘quvchi uchun eng yaxshi namuna

o'qituvchi nutqidir. Buni o'qituvchi har doim o'zida his etib turishi, o'z nutqida hech vaqt odob-axloq, nutq madaniyati normalaridan chiqmasligi lozim.

Nutq odobi salomlashishdan boshlanadi. Salomlashishdagi xushmuomalalik undan keyingi yaxshi suhbatga debocha bo'ladi, tinglovchi esa yaxshi kayfiyat paydo qiladi. Salomlashishning ahamiyati haqida hindlarda shunday naql bor: «Bitta salom bilan beshta narsaga - o'zini yengil sezish, shon - shuhrat topish, qut-barakali, ilmi bo'lish va nihoyat uzoq umr ko'rishga erishiladi».

Xalq tilida salomlashish uchun ham, xayrlashish uchun ham alohida nutqiy vositalar mavjud. O'qituvchi ularni o'z o'rnida ishlatishda hamma uchun va o'z shogirdlari uchun o'rnakdir.

Madaniyatli kishi o'z aybini bo'yniga ola bilishi, aybi uchun kechirim so'rashni ham bilishi lozim. O'z aybi uchun uzr so'rash o'z g'ururini erga urish emas, balki odoblilik, xushmuomalalik alomatidir.

Yetuk kishiga xos fazilatlaridan yana biri xayrlashuv odobidir. Tilimizda xayrlashganda ishlatiladigan «xayr sog' bo'ling», «xayr, ko'rishguncha», «xayr, omonlikda ko'rishaylik» kabi ta'sirchan iboralar mavjud.

Bolaga yaxshilik qilgan, aytilgan yumushni, iltimosni bajargan kishilarga o'z vaqtida minnatdorchilik bildirish odobini ham o'rgatib borish lozim. Tilimizda rag'batlantirishni, minnatdorchilikni anglatadigan chiroyli ifodalar bor. Ularni kundalik muomalaga kiritish, o'z o'rnida ishlatish kishi xulqini naqadar bezaydi. O'qituvchi topshiriqni yaxshi o'tagan o'quvchilarni «ofarin», «barakalla», «rahmat», «tangizga rahmat», «minnatdorman» kabi so'zlar bilan rag'batlantirishi mumkin. «Har bir kishining madaniylik darajasi, o'qib qanchalik tarbiya ko'rganligi uning yozma va og'zaki nutqidan bilinadi»

Til dunyoni bilish, bilimlarni to'plash, saqlash, keyingi avlodlarga etkazish, ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go'zallik kategoriyalarini voqyellantirish kabi qator vazifalarni bajarishiga qaramasdan, asosiy e'tibor uning kishilar o'rtasidagi aloqani ta'minlashdir.

Nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Tom ma'nodagi madaniy kamolotning muhim belgisidir. Haqiqiy ma'nodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy saviyasining muhim jihatlardan biridir. Shuning uchun ham mamlakatimizda ma'naviy-marifiy islohotlar har qachongidan ham dolzarflik kasb etadi.

Respublikamizning «Davlat tili haqida»gi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonunlarida, «Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturi» va boshqa juda ko'plab hujjatlarida ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaga, til masalalariga alohida ahamiyat beriladi. Jamiyatimizning har bir a'zosi, har qanday mutaxassis zamon bilan hamqadam bo'lishi, eng avvalo, o'z ona tilining sadoqatli sohibi bo'lmog'i lozim.

Til jamiyat bilan, uning ma'naviyati, ma'rifati va madaniyati bilan birgalikda yuksaladi.

Jamiyatimizning har bir a'zosi, har qanday mutaxassis, zamon bilan hamqadam har qanday kadr, eng avvalo, o'z ona tilining sadoqatli sohibi bo'lmog'i lozim. Ona tiliga chinakam sohib bo'lmoqning bosh sharti esa uning tunganmas imkoniyatlarini tugal egallamoq, ya'ni fikrni mustaqil, ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmoqdan iborat nutqiy madaniyat malakalarini shakllantirmoqdir. Zotan, nutq madaniyati tildan bemalol va maqsadga o'ta muvofiq tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir.

Alisher Navoiy asarlarida nutq odobining talablari quyidagicha sanaladi:

- ✓ Tilni, so'zni qadrlash, uni hurmat qilish.
- ✓ Yaxshi so'zlay olish (nutq) san'atidir, noyob hunardir.
- ✓ Insonning odob-axloqini belgilaydigan omillardan biri uning nutqidir.
- ✓ Kishining nutq uning aqliy kamolotidan darak beradi.
- ✓ So'zlaganda dil va tilni bir tutish zarur.
- ✓ So'zlaganda o'ylab, tushunib gapirish kerak.

- ✓ Xushmuomala, shirinso‘z bo‘lish.
- ✓ Chin, to‘g‘ri so‘zlash, nutqda halol bo‘lish.
- ✓ Ezgu so‘zli bo‘lish lozim.
- ✓ Tildan tuhmat uchun foydalanmaslik kerak.
- ✓ Ko‘p so‘z, ezma vaysaqi bo‘lmaslik.
- ✓ So‘zlaganda sharoitni, suhbatdoshinni hisobga olish, beo‘rin so‘z aytmaslik.
- ✓ Suhbat sirlarini saqlash, bo‘shog‘iz bo‘lmaslik.
- ✓ Gapirganda qaytariqlardan qochish kerak, chunki ular fikrning ta‘sirini susaytiradi.

Savollarga javob bering:

1. Til qanday hodisa?
2. A lisher Navoiy til va nutqni qanday ta‘riflaydi?
3. Nutq odobi deganda nimani tushnasiz?

Vazifa: 1. Qadimgi Yunon va Rim notiqligi haqida nimalarni bilasiz?

2. Sharq notiqligi haqida nimalar bilasiz?

GRAMMATIKA: ME‘YOR TUSHUNCHASI



«Me‘yor - bu til birliklarni o‘zaro yaxshi tushunish zarurati tufayli undan foydalaniladigan xalq tomonidan yaratilgan, til qurilishining amalda bulgan xususiyatidir.

Til me‘yori -nutq madaniyati nazariyasining markaziy tushunchasidir. Nutq madaniyatiga bag‘ishlangan ishlarda ko‘pincha haqida gap boradi. Lisoniy birliklarni xuddi shu shaklda qo‘llash kamchilik ekanligini nimaga asoslanib aytamiz? Nutqimizda uchraydigan so‘zlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatuvchi ma‘lum o‘lchov bo‘lishi kerak. Bu o‘lchov adabiy til me‘yori hisoblanadi. Demak, me‘yor - bu ijtimoiy jarayonda birga mavjud bo‘lgan, bor bo‘lgan, yangi paydo bo‘lgan yoki o‘tmishning kam ishlatiladigan til unsurlarini tanlashning natijasi sifatida shakllangan, jamiyatga xizmat qiladigan foydali til vositalari yig‘indisidir, keng ma‘noda bu unsurlarni baholashdir.

Aynan mana shu zaruriyat til sistemasining yagonaligiga erishish yo‘lida odamlarga biron variantni ma‘qul ko‘rish, boshqasidan voz kechish istagini tug‘diradi.

Demak, me‘yor deganda til unsurlarining xalq o‘rtasida ko‘pchilikka ma‘qul bo‘lgan variantini qo‘llash tushuniladi.

Me‘yor tushunchasi til taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lib, tilda uzoq muddat yashaydi. Lekin bu me‘yor o‘zgarish hodisa degan xulosaga olib kelmaydi. Davr o‘zgarishi bilan odamlarning bilishi, dunyoqarashi, hayotga bo‘lgan talabi o‘zgarishi bilan me‘yor ham o‘zgarib boradi. Demak, me‘yor davr xarakteriga egadir. Masalan, mustaqillik e‘lon qilinguncha, sovet, komsomol, kommunist degan so‘zlar adabiy til uchun me‘yor hisoblangan. Bugungi adabiy til uchun esa bu so‘zlar me‘yor hisoblanmaydi.

Umumtil boyligi doirasida qaraladigan dialektizmlar, sheva unsurlari, jargon va argolar, kasb - hunarga oid ko‘pgina so‘zlar o‘zbek xalqining hammasiga tushunarli bo‘lmasa ham, o‘sha sheva va lahjalarda, so‘zlashuvdagi kishilar yoki ma‘lum ijtimoiy guruh uchun tushunarlidir. Masalan, *do‘ppi* Samarqandda *qalpoq*, Xorazmda *takya*, Buxoroda *kallapo‘sh*, Farg‘ona va Toshkentda *do‘ppi* deyish shu lahjalar uchun me‘yor hisoblanadi. Shuning uchun ham ba‘zi tilshunoslar me‘yorni ikkiga bo‘lib o‘rganishni tavsiya qiladilar.

1. Umumiy me‘yor
2. Xususiy me‘yor

Umumiy me'yor qardosh tillarga nisbatan belgilanadi. O'zbeklar nutqining qardosh tillardan ajratib turuvchi me'yorlari, o'zbek tilining umumiy me'yori. Bu me'yorga juda qattiq amal qilinadi.

Umumiy me'yor bir tilning boshqa tillardan ajratuvchi me'yorlar bilan birga tilning ichki me'yorlarini ham o'z ichiga oladi. Umumiy me'yor xususiy me'yordan tarkib topadi.

Xususiy me'yor muayyan nutq shakllarida amal qiladigan me'yorlar bo'lib, u umumiy me'yorning nutqiy ko'rinishlaridir.

Topshiriqlar:

1. Matndagi ayrim so'z va so'z shakllarining me'yoriy variantlarini aniqlang. Qavs ichida berilgan til belgilarining asosiy ma'no komponentlariga ko'ra variant ekanligini asoslang.

2. Qavs ichida berilgan so'z variantlarining ma'no farqlanuvchi ottenkalari bor-yo'qligiga e'tibor bering. Agar ular qandaydir jihatidan farqlanadigan ottenkalarga ega bo'lsalar, ularni ko'rsatuvchi matn tuzing va izohlang.

Me'yoriy variantlarining kelib chiqish (boshqa tildan o'tganmi, shu til shevalaridan kirganmi yoki shaklning o'zi yangi ma'no kasb etganmi) yo'llarini ko'rsating.

1- variant

Iyul kunlarining birida ertalab choydan so'ng (nonushtadan so'ng) Saidiy o'zining ish stoli yonida

o'qishga erinib (hushi kelmay) kitob varaqlab o'tirar edi. Kimdir hansiragan tovush (ovoz) bilan derazadan «Rahimjon» deb chaqirdi-da, to'xtamay darvoza tomonga o'tib ketdi. Saidiy irg'ib (sapchib)

turdi va pardani ko'tarib qaradi. Chaqirgan kishi (kimsa) darvozadan kirdi. Saidiy uni orqasidan ko'rib qoldi va shu ondayoq (shu lahzada) bu odam (kishi) unutayozgan do'sti — Ehsan ekanini bildi-da, negadir hamma yo'g'i uvishib (jimirlab) ketdi. U Ehsanning hozir kelishini sira (hech) xohlamas (istamas) edi. Ehsanning kelishi unga universitet (dorilfunun) binosiga rabfak zalidan o'tishdan ham malolliroq bo'ldi. Hayal (zum) o'tmay Ehsan eshikni ochib kirdi va talay (ancha) vaqtgacha Saidiy quchog'idan qo'yib yubormadi. Saidiy Ehsan kelganiga benihoya (nihoyatda, nihoyasiz) shod ekanini ko'rsatish uchun aytgan hamma gapi, har bir harakati uquvsiz artist (san'atkor) tomonidan birinchi (ilk) martaba birinchi repetitsiyada (mashqda) bajarilgan rolday yasama chiqdi.

(A. Qahhordan)

2- variant

Xabaringiz bor (sizga ma'lumki), kamina (men) ko'p yillar ilmiy ish bilan shug'ullangan bir olim

sifatida ilm-fan, falsafa (filosofiya) va, ayniqsa, adabiyot va san'atga oid kichikroq bir kutubxonada (biblioteka) yig'ishga muayassar bo'lganman. Salkam o'n ming jilddan (tomdan) iborat bu kutubxonamni jamoa xo'jaligiga qarashli o'rta maktabga in'om (hadya) etganimdan boxabarsiz (xabardorsiz). Bu maktubni (xatni) yo'llash (jo'natish)dan birinchi tilagim maqsadim) shukim, umrim davomida (bo'yi) yiqqan bu kutubxonam duch kelgan odamga emas, kitobning qadrini bilgan, fan va adabiyotga tashna (chanqoq) bir kishiga topshirilsakim (berilsakim), toki bu nodir (kamyob) asarlardan o'sib kelayotgan (o'spirin) yosh avlod bahramand bo'lsa.

(O. Yoqubovdan)

3 - variant

Hammaning diqqati (e'tibori) xatda edi. Ergash konvertga ko'z yugurtirdi (tashladi)-da, pastki labni tishlab, xatni darrov (tezda, birdan) cho'ntagiga (kissasiga) solib qo'ydi. Tikilib (qarab, termulib,

ko'z tikib) turganlarga nima deyishini bilmay, quloqlari qizarib ketdi. Soya qaytganda quruvchilar dam olishga (hordiqqa) chiqdilar, yarim kunda titkilab, qiyofasi (ko'rinishi) o'zgarib ketgan katta (ulkan) maydon tepasida (ustida) chang (to'zon) bosildi, quruvchilar shovqinsuron (g'ala-g'ovur) bilan chekkaga chiqib ariq bo'ylariga (yoqalariga), daraxt tagi, soya-salqin joylarga yopiriladilar. Ergash qurilish boshqarmasiga ketdi.

(A. Muxtordan)

Yo‘q, birdan (to‘satdan) o‘zgardi hammasi (barchasi), birdan! Go‘yo u talay (ancha) muddat— bir yilmi, besh yilmi g‘aflat uyqusida yotdi-yu, uyg‘onsa (ko‘z ochsa)— mana shu ahvol! Go‘yo uning bir yilmi, besh yilmi ko‘zi ko‘rmay, qulog‘i eshitmay qoldi-yu, bir kuni tuzalsa (sog‘aysa)— hammasi boshqacha (o‘zgacha)! Odamlar (Kishilar) qandaydir (allaqanday) o‘zgarib (boshqacha bo‘lib) qolgan, lafzu liboslari antiqa, dunyolari antiqa— tanib (anglab) bo‘lsa, o‘lay agar, mana jon.

(Erkin A‘zamovdan)

4 - variant

Tut pishig‘i. Ariq bo‘yida (labida, yoqasida) burgutday qanot yoygan (yozgan) balx tut (marvarid tut), boshini yeyman, deydi. Shapaloqdek yaproqlar (barglar) orasida pilladek-pilladek mevalar tovlanadi ,Ota bahavoroq deb ana shu tut tagiga (ostiga), shohsupaga joy qildirdi. Supaning yarmi (nisbi) hoziroq (allaqachon) odamga to‘lgan... Gulmat ota to‘rda o‘tiribdi. Egnida (ustida, yelkasida) ko‘k movut (sherst) yaktak, boshida nosrang (moshrang) taqiya do‘ppi. Sarg‘imtil tishlarini yiltiratib, mo‘ylovidan (murtidan) kuladi. Goho «qozon qaynadimi» deganday, o‘choq tarafga (tomonga) qarab ma‘noli yo‘talib qo‘yadi. O‘choq atrofida kelini Nazokatxon qo‘shni (hamsoya) juvonlar pildirab yurishibdi. Xola Gulmat otaga qaradi, choliga ko‘zi tushgach, qo‘lini chulg‘ab (to‘lg‘ab) chaqirdi. Gulmat ota qushday sakrab (irg‘ib) turdi-yu, to‘ning (choponining) barini (etagini) hilpiratib, kampiriga ro‘para (to‘g‘ri) bo‘ldi.

(S. Siyoyevdan)

O‘zbek adabiy tili me‘yoriy ko‘rinishlarini “Tushunchalar tahlili” usuli asosida yoriting:

Leksik-semantik me‘yor	nutq jarayonida umumxalq tilida mavjud bo‘lgan so‘zlarni to‘g‘ri tanlash va o‘rinli ishlatish
Talaffuz (orfoepik) me‘yori	
Yozuv (grafika) me‘yori	
Fonetik me‘yor	
Aksentologik (urg‘uni to‘g‘ri qo‘llash) me‘yor	
Grammatik (morfologik va sintaktik) me‘yor	
So‘z yasalish me‘yori	
Imloviy me‘yor	
Uslubiy me‘yor	
Punktuation me‘yor	

Test topshiriqlari

1. “Hamlet” spektaklida Hamlet, “Otello” spektaklida Otello, “Alisher Navoiy” spektaklida Navoiy kabi takrorlanmas obrazlarini yaratgan o‘zbek xalq aktyori kim?

- A) G‘ani A‘zamov
- B) Shukur Burxonov
- C) Abror Hidoyatov
- D) Nabi Rahimov

2. Gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelishi mumkin?

- A) ega va kesim
- B) ikkinchi darajali bo‘laklar
- C) faqat kesim

D) bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar

3. *Aqlli dushman, johil-u nodon do‘stdan yaxshiroq.*

Bir kunlik adolat – yuz kunlik toat-ibodatdan afzal.

Berilgan hikmatli so‘zlar kim tomonidan aytilgan?

- A) Alisher Navoiy
- B) Bobur
- C) Amir Temur
- D) Ibn Sino

4. Qaysi qatorda undalmali gap qatnashgan?

- A) Arpangni xom o‘rdimmi, uka?
- B) Bog‘imizda olma, o‘rik, ahjir va uzum bor.
- C) Osmonda, daraxtlarda, tomlarda, bo‘g‘otlarda chumchuqlar chirqillashadi.
- D) Bechora ko‘zi ochiq ketdi.

5. Qaysi qatorda gapda uyushgan ega qatnashgan?

- A) Nechun kerak, rubob, senga shuncha g‘am.
- B) Bog‘imizda olma, o‘rik, ahjir va uzum bor.
- C) Osmonda, daraxtlarda, tomlarda, bo‘g‘otlarda chumchuqlar chirqillashadi.
- D) Bechora ko‘zi ochiq ketdi.

34-mavzu. SAN‘AT VA MA‘NAVIYAT

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi terminlarning ma‘nosini izohlash. Matnni ijodiy so‘zlash.

Yozma nutq: “San‘at mening hayotimda” mavzusida esse yozish. San‘atkorlarni ta‘riflab, reklama matnini tayyorlash. O‘zbek kinosining mavzulari va muammolari haqida publitsistik maqola yozish. Madaniy hordiq odobi qoidalarini yozish.

Grammatika: Umumxalq leksikasiga kirgan san‘atshunoslik terminlari. Undalmalar.

Tayanch so‘z va iboralar: *san‘at, ma‘naviyat, o‘zbek san‘ati ustalari, san‘atshunoslik terminlari, undalmalar.*

O‘zbekiston san‘ati

O‘zbekistonda san‘atning deyarli barcha turlari mukammal rivojlangan. Musiqa san‘atida qadimgi davrlardan to bugungi kunimizgacha bebaho kuy, qo‘shiqlar, cholg‘u asboblari va musiqa nazariyasiga oid asarlar yaratilgan. Juda ko‘p mahoratli sozandalar, bastakorlar, hofizlar o‘zbek san‘ati dovruq‘ini olamga taratishgan. Xususan, Tamaraxonim, Halima Nosirova, Ma‘murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov, Botir Zokirov, Farrux Zokirov, Munojot Yo‘lchiyeva kabi o‘zbek qoshiqchilarining nomi jahonga mashhurdir. O‘zbek milliy qo‘shiqchiligi va sozandachiligi kundan kunga rivojlanib, ravnaq topib bormoqda.

O‘zbekiston tasviriy san‘ati ham o‘zining qadimiy ildizlariga ega. XV-XVI asrlarda Behzod, Mirak Naqqosh, Qosimali kabi buyuk rassomlar asos solgan an‘analar hozirgacha davom etib kelmoqda. Respublika tasviriy va amaliy san‘at bilim yurtida qadimiy hunarmandchilik turlarining san‘at darajasiga ko‘tarilgan ganchkorlik, zargarlik, yog‘och o‘ymakorligi, naqqoshlik, kulolchilik sirlari yosh avlodga o‘rgatilayotgan bo‘lsa, rassomchilik kollejida tasviriy san‘atning rang-tasvir, portret, peyzaj, naturmort kabi turlari o‘qitilmoqda.

O'zbek rassomlari Chingiz Ahmarov, Abdulhaq Abdullayev, Bahodir Jalolov, Ro'zi Choriyev, Muzaffar Abdullayev, Jamol Usmonovlarning asarlari dunyodagi ko'pgina nufuzli ko'rgazmalarda namoyish qilingan.

Kino san'ati ham O'zbekistonda juda yuqori darajada rivoj topgan. Kinoning barcha turlari – badiiy film, hujjatli film, teleseriallar, multiplikatsiya, ilmiy-ommabop filmlar sanoatining shuhrati MDH mamlakatlarida mashhur. Har yili “O'zbekfilm” kinostudiyasida tarixiy, sarguzasht, detektiv, sevgi va hayot hamda mehr-vafo haqidagi yuzlab filmlar suratga olinadi. “Mahallada duv-duv gap”, “O'tgan kunlar”, “Kelinlar qo'zg'aloni” kabi filmlarni o'zbekistonliklar juda sevib tomosha qilishadi.

O'zbek teatr san'ati ham o'z tarixiga, rivojlanish bosqichi ham o'ziga xos an'alariga ega. Teatr san'ati darg'alari Abror Hidoyatov, Sora Eshonto'rayeva, Shukur Burhonov, Nabi Rahimov, G'ani Ag'zamov, Soyib Xo'jayev kabilar o'zbek teatr san'atini yuqori pog'onaga ko'targanlar. Ular ishtirokidagi har bir spektakl tomoshabinlarga olam-olam ma'naviy ozuqa bergan.

O'zbekistonda, shuningdek opera, balet, estrada, me'morchilik kabi san'at turlari ham katta yutuqlarga ega bo'lgan holda rivojlanib bormoqda.

Yunus Rajabiy

Musiq – voqelikni badiiy tovush obrazlarida aks etishi va kishi psixologiyasiga faol ta'sir o'tkazuvchi san'at turidir.

O'zbekistonda mashhur ijrochilar, an'anaviy uslubdagi xonandalar Ma'murjon Uzoqov, Jo'raxon Sultonov, Komiljon Otaniyozov, Orifhoji Alimahsumov, Ochilxon Otaxonov, Fattohxon Mamadaliyevlarning dovrug'ini olamga taratgan san'at ham musiqadir.

O'zbek musiqasining bilimdonlaridan biri mashshoq va hofiz, bastakor va olim Yunus Rajabiy o'zining butun iste'dodini xalq ishiga bag'ishladi.

Yunus Rajabiy o'zbek xalq musiqasini o'rganishda juda ko'p yillar davomida halol mehnat qilib keldi.

O'zbek milliy musiqasini o'rganish natijasida Yunus Rajabiy 1960-yilda «O'zbek xalq muzikasi» nomli besh tomlik kitobini nashr ettirdi. Bu kitobning nashr etilishi o'zbek musiq madaniyati sohasida katta voqea bo'ldi.

Xalq madaniy merosini ehtiyotlab va hurmat bilan saqlab kelgan, o'zbek musiqasini yanada rivojlantirishga katta hissa qo'shgan Yunus Rajabiy haqiqiy ijodkor va olim edi.

Akademik Yunus Rajabiy 1976-yilda vafot etgan.

Mukarrama Turg'unboyeva

O'zbekiston diyorida yashagan xalqlar orasida raqs san'ati turmush sharoitlari, diniy marosimlar, bayramlar bilan bog'liq holda qadimdan taraqqiy etgan.

Ma'lumki, IV-VIII asrlarda Samarqand, Buxoro va Toshkent raqqosalarining san'ati Sharq mamlakatlari, xususan, Xitoyda mashhur bo'lgan. Shuningdek, sayyohlarning turli esdaliklari va qaydlarida ham qadimiy turkiy raqslar bayoni saqlangan.

Zamonaviy o'zbek raqsi boy merosga ega. O'zbek raqsi, asosan, gavdaning nafis harakatlariga asoslangan bo'lib, mazmun qo'l, barmoq, yelka, bel harakatlarining turli xil uyg'unligida, turlicha usuldagi odimlar, yo'rg'alash, bir joydagi gir-gir (charx) aylanishlar, gavdani bir holatda tutib turish, yengil sakrash va boshqa harakatlarda ifoda etiladi.

O'zbek raqsi XX asrga yakka ijro etiladigan raqs sifatida yetib keldi. 20-yillarda ozarbayjon, tatar, ukrainlar raqs san'ati bilan yaqin munosabatda bo'lish natijasida O'zbekistonda sahnada ijro etiladigan dastlabki ommaviy raqslar vujudga keldi.

1957-yilda mashhur raqqosa M.Turg'unboyeva tomonidan «Bahor» o'zbek xalq raqs ansambli tashkil qilindi. «Bahor» - ismi jismiga monand ansambl. Ansambldagi raqqosalar soni qirqtaga yetdi. Bu ansambl o'zbek raqsini butun dunyoga tanitdi. Ansamblning bosh baletmeysterlari: M.Turg'unboyeva (1957-1978), Q.Mirkarimova (1979-1988) lar.

«Bahor» ansamblida uzoq yillar davomidagi ijodiy faoliyati va izlanishlari tufayli M.Turg'unboeva o'zbek sahna xoreografiyasida ikki asosiy badiiy yo'nalishning sahna shakllarini yaratdi. Bular: mumtoz raqslar («Bayot», «Bahor», «Zang», «Maqomi charh» va b.) va xalq raqslari («Namanganning olmasi», «Paxta», «Andijon polkasi»)

Mukarrama Turg'unboeva Xorazm, Samarqand, Farg'ona, Andijon xalq raqslarini to'plab, qayta ishlab, jahon xalqlariga taqdim etardi.

Botir Zokirov

Estrada san'atning bir turidir. Dramaturgiya, drama va vokal san'ati, musiqa, xoreografiya, sirk va boshqalarning kichik shakllarini o'z ichiga oladi.

Estrada mustaqil san'at sifatida XIX asrda shakllangan.

Botir Zokirov (1936-1985) – o'zbek estara solisti. Uning otasi Karim Zokirov O'zbekiston Xalq artisti bo'lib, Moskva Davlat konservatoriyasi huzuridagi o'zbek studiyasida o'qigan.

B. Zokirov ota izidan borib, 1952-1957 yillarda Toshkent Davlat konservatoriyasining vokal fakul'tetida, 1958-1962 yillarda esa N.Ostrovskiy nomidagi Toshkent Teatr va rassomchilik san'ati institutida ta'lim olgan. U o'zbek estrada qo'shiqchiligining shakllanishiga asos solgan.

Botir Zokirov adabiyot, tasviriy san'at sohasida ham ijod qildi. «O'zbektelefilm» studiyasi Botir Zokirovga bag'ishlangan «Menga qo'shiq chizib ber», «Aytilmay qolgan qo'shiq» hujjatli filmlarini suratga oldi.

U Forobiy ko'chasidagi Chig'atoy qabristoniga daft etilgan. 1992-yilda uning xotirasiga haykal o'rnatilgan. Toshkentdagi ko'chalardan biri uning nomiga qo'yilgan.

O'rol Tansiqboyev

Tasviriy san'at plastik san'at sohasidir. U rassomlik va haykaltaroshlik san'atini o'z ichiga oladi. Borliqni ko'rgazmali tarzda, ko'zga tashlanadigan obrazlar orqali aks ettiradi, tabiatdagi mavjud shakllarni gavdalantiradi.

Rassomlik – bo'yoq bilan birorta yuzaga ishlanadigan tasviriy san'at turi. U voqelikni badiiy ifodalash va talqin etish, tomoshabinlar ongiga va tuyg'ulariga ta'sir etishning muhim vositasidir. Ana shunday mo'vqalam sohiblaridan biri O'rol Tansiqboyevdir.

O'rol Tansiqboyev 1904-yili oddiy ishchi oilasida tug'ildi. Uch yoshli o'smir rus-tuzem maktabining 4-sinfini tugatib, papiros yasovchi bo'lib ishga kiradi. Keyinroq 7-sinfni tugatishga muvaffaq bo'ladi. U yigirma yoshida san'at muzeyi qoshida endigina ochilgan rassomlik studiyasiga kiradi. Uning birinchi ustoz buyuk Repinning shogirdlaridan biri, rassom va o'qituvchi E.V.Rozanov edi. Rozanov darslari bo'lajak peyzajchining dunyoqarashi, badiiy didining shakllanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

U yaratgan «Oqshom», «Burchmulla», «Chirchiq vodiysida», «Cho'pon», «Tog' yo'lida», «Yer haydash» (1940-yil) kabi manzaralari kishiga quvonch va xotirjamlik baxsh etardi.

O'rol Tansiqboyevning «Olmaotada qish», «Taxiatosh», «Issiqko'l oqshomi», «Qayroqqum dengizi sohilida», «Olmaliqda», «O'zbekiston kolxozining manzarasi», «Kun botish», «O'rik gulladi» kabi asarlarida tabiat bilan inson go'zalligi uyg'unlashib ketgan.

O'rol Tansiqboyev insonning hayoti, ichki dunyosi, fikri, o'ylariga qiziqadi, shuning uchun o'z rasmlarida kishilarning tasviri bevosita bo'lmasa-da, inson nafasi sezilib turadi.

Abror Hidoyatov

Teatr san'atning bir turidir. Uning o'zigaxos ifoda vositasi aktyorning ommaoldidagi o'yini jarayonida yuzaga keladigan sahnaviy voqeadir.

Teatr san'atining asari – spektakl, dramatik yoki musiqali sahnaviy asar asosida rejissor niyatiga muvofiq va uning rahbarligida aktyorlar, shuningdek, rassomlar hamkorligida yaratiladi.

1900-yilda Toshkent shahrida ishchi oilasida tugʻilgan taniqli xalq artisti Abror Hidoyatov ham sanʼatning ana shu sohasida ijod etganlardan biridir.

1918-yil Mannon Uygʻur rahbarligida Karl Marks nomli milliy teatr tashkil etildi. Bu teatr keyinchalik Hamza nomli oʻzbek davlat drama teatri deb ataldi. Abror Hidoyatov shu teatrdan ishladi.

1924- yili Moskvada oʻzbek studiyasi tashkil qilinib, u yerga oʻqish uchun bir necha qobiliyatli artistlar yuborildi. Ular orasida Abror Hidoyatov ham bor edi. Talabalar 1927-yili oʻqishni tugatib, Oʻzbekistonga qaytib keldilar va teatrning rivojlanishida katta rol oʻynadilar.

1935-yili Hamza nomli teatr jamoasi «Xamlet» spektaklini sahnaga qoʻydi. Abror Hidoyatov Xamlet obrazini yaratdi. Bu spektakl xalq orasida katta muvaffaqiyat qozondi.

1941-yilda isteʼdodli aktyor Abror Hidoyatov «Otello» spektaklida Otello rolini oʻynadi. Bu spektakl orqali Abror Hidoyatovning nomi butun dunyoga mashhur boʻldi.

1946-yilda Abror Hidoyatovga «Xalq artisti» unvoni berildi. U 1948-yilda «Alisher Navoiy» spektaklida Navoiy rolini ijro etdi.

Abror Hidoyatovning mehnati hukumatimiz tomonidan yuqori baholandi. U 1949-yilda Davlat mukofotiga sazovor boʻldi.

Abror Hidoyatov bir qancha orden va medallar bilan taqdirlandi.

Xalqimizning sevimli farzandi boʻlgan Abror Hidoyatov 1957-yilda bevaqt olamdan koʻz yumdi. Uning oʻlmas xotirasi qalbimizda abadiy saqlanadi.

Lugʻat

sanʼat-искусство
maʼnaviyat- духовность
bebaho-бесценный
sozanda-музыкант
ravnaq-процветание
sarguzasht-приключение
ijodkor-творческий
vujudga belmoq-нарождаться
tomashabin-зритель
ong-сознание

Vazifa:

1. “Sanʼat mening hayotimda” mavzusida esse yozish.
2. Sanʼatkorlarni taʼriflab, reklama matnini tayyorlash.
3. Madaniy hordiq odobi qoidalarini yozish.

GRAMMATIKA: UMUMXALQ LEKSIKASIGA KIRGAN SANʼATSHUNOSLIK TERMINLARI. UNDALMALAR.



Sanʼatshunoslik terminlari sanʼat turlariga qarab boʻlinadi.

Tasviriy sanʼat turlari va janrlariga oid atamalar:

Rangtasvir, janr, naturmort, bezakli amaliy sanʼat, meʼmorchilik, haykaltaroshlik.

Rassomchilarga oid atamalar: akvarelchi, bezakchi, ganchkor, kulolchi, sanʼatshunos, naqqosh, haykaltaroshchi, sahna bezovchi, modelyer.

Grafikaga oid atamalar: kontur, shtrix, sharj, ksilografiya, estamp, kitob grafikasi, avtoqavyura.

Sanʼat tarixiga oid atamalar: antik sanʼat, qadimgi dunyo sanʼati, arkada, vandalizm, uygʻonish sanʼati, bezakli amaliy sanʼat, kapitel, oʻzbek tasviriy sanʼati.

Haykaltaroshlikka oid atamalar: baland bo‘rtma, keramika, haykal, byust, monumental haykal

Lug‘at

Amaliy san‘at – прикладное искусство
Naqqoshlok – живопись
Tasviriy san‘at-изобразительное искусство
San‘atshunoslik- искусствovedenie
O‘ymakorlik – резная работа
Zargarlik -ювелир
Kulol - гончар
Hunarmandchilik- ремесленник
Kosibchilik -ремесло
Usta –мастер

Tasviriy san‘at

Tasviriy san‘at – eng qadimiy va keng tarqalgan san‘at turlaridan biridir. Tasviriy san‘at o‘z o‘rnida haykaltaroshlik, rangtasvir va grafika kabi turlarga bo‘linadi. Tasviriy san‘atda voqelik, borliq shakllar, chiziqkar, ranglar orqali tasvirlanadi.

Tasviriy san‘at monumental va dastgoh ko‘rinishlariga ham ega. Monumental deyilganda hajm jihatidan katta. Me‘morchilik, park. bog‘ san‘atiga, shuningdek, biror – bir badiiy muhitga mo‘ljallangan tasviriy san‘at asarlari tushuniladi. Dastgoh asari asosan erkin ijodiy faoliyat tufayli yaratiladi. Ularni xohlagan joyga qo‘yish, namoyish qilish mumkin bo‘ladi. Masalan, O‘zbekiston Milliy bog‘idagi Alisher Navoiy haykali monumental asardir. Agar haykal ijodkorning o‘z xohishi va ijodiy izlanishi miqyosida ishlansa hamda shu yo‘sindagi asarlarga xos jihatlar amalga oshirilsa, bu dastgoh asari bo‘lib, uni muzeyga yoki o‘quv darsxonalariga qo‘yish mumkin.

Tasviriy san‘at janrlariga portret, manzara, natyurmort kabilar kiradi.

Topshiriq: *Tasviriy san‘atga oid atamalar ro‘yxatini tuzing va tarjima qiling.*

Undalmalar

So‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmet undalma deyiladi. Undalma gap bilan grammatik jihatdan bog‘lanmaydi, vergul bilan ajratiladi: *Yurak, sensan mening sozim. Bolalar, qoidaga rioya qiling.*

Undalma bosh kelishik shaklidagi ot yoki otlashgan so‘zlar bilan ifodalanadi. Bu jihatdan egaga o‘hshaydi. Lekin ega kesim bilan bog‘lanadi. Undalma esa kesim, yoki gapdagi biror bo‘lak bilan bog‘lanmaydi. Qiyos qiling: *Daraxtlar meni tingladilar. Daraxtlar, meni tinglang.*

Undalmali gaplarning kesimi ko‘pincha birinchi va ikkinchi shaxsda bo‘ladi: *Bugun menga bir qarashib yubormaysanmi, Otabek? Seni kutamiz, Temur.*

Undalmalarning gapdagi o‘rni erkin bo‘lib, gap boshida ham, o‘rtasida ham, oxirida ham qo‘llanishi mumkin. M: *Nega so‘zga chiqmading, Hasanboy?–*

Tuzilishiga ko‘ra undalmalar yig‘iq va yoyiq bo‘ladi. Bitta so‘z bilan ifodalangan undalma yig‘iq undalma bo‘ladi: *Yo‘q, singlim, bilgani yaxshi. Aniqllovchi yoki izohlovchilar bilan kengayib kelgan undalma yoyiq undalma sanaladi: O‘g‘lim O‘rmonjon, bola bechorani cho‘chitmagin. Saxiy quyosh, bizdan nuringni ayama!*

Undash ma‘nosini kuchaytirish uchun ba‘zan undalma takror holda qo‘llanishi mumkin: *Bolam, jon bolam, o‘zingni ehtiyot qil.*

Undash ma‘nosini ko‘chaytirish maqsadida yana ular oldidan undovlar ham qo‘llanishi mumkin: *Hoy bola, menga qara!*

Undalma, odatda gapdan vergul bilan ajratiladi. Lekin u alohida ohang bilan ajratilib aytilsa, undalmadan keyin undov belgisi qo‘yiladi: *Zafar! Oyimlar keldilar.*

Topshiriqlar:

1. Siz matnни o‘qish jarayonida yirik o‘zbek san’atkorlari bilan tanishdingiz? Siz yana qaysi o‘zbek san’atkorlarini bilasiz? San’atining turlari bo‘yicha nom chiqargan jahon san’atkorlarini aytib bering.

2. Matnни rus tiliga tarjima qiling.

3. Sizga san’atning qaysi janri ko‘proq yoqadi yoki san’atning qaysi turi bilan shug‘ullanasiz, shu haqida insho yozing.

4. Respublikada nashr qilinuvchi gazeta, jurnallardan san’atga doir maqolalarni topib o‘qing, ulardan istaganingizni rus tiliga yozma tarjima qiling. Tarjima qilish jarayonida san’atga oid so‘zlarning qaysi biri o‘zbekcha, qaysi biri baynalmilal shaklda ekanligiga e’tibor bering.

5. Undalmalarni toping va izoh bering.

1. Beri kel, Sanobar, so‘zim bor senga. 2. Sabr qiling, hurmatli kitobxon, oldin qishloq bilan tanishaylik. 3. Odamlar, siz mening hayotim, Har biringiz umrim parchasi. 4. Qadamlaringizga gul bitsin, akalar! 5. Sendan farzandingga bog‘ qolsin, ey do‘st, Bog‘ing Vatan degan nom qolsin, ey do‘st.

Test topshiriqlari

1. *Ular Toshkentda, Samarqandda va Buxoroda bo‘lishdi.*

Berilgan gapda qaysi gap bo‘lagi uyushgan?

- A) Ega
- B) Kesim
- C) Aniqlovchi
- D) Hol

2. Qaysi qatorda uyushiq undalmali gap berilgan?

- A) Azizim, dunyoga bevaqt kelibmiz.
- B) Surayyo, Muhayyo, Ra‘no, Muqaddas, ko‘zimni yashnatib kiyibsiz atlas.
- C) Onajonim, balki, bir kun, Aytganingday bo‘lar to‘y.
- D) Aqlli va esli odam hech qachon adashmaydi.

3. Qaysi qatorda taqlid so‘z ega vazifasida kelgan?

- A) Bor so‘zlaydi, yo‘q o‘ylaydi.
- B) Qars ikki qo‘ldan chiqadi.
- C) O‘qish jafoli, keti vafoli.
- D) Yaxshilar ko‘paysin, yomon qolmasin.

4. *Hasad – yurakning zanglashi, qaysarlik mag‘lubiyat sababchisidir.*

Berilgan gapning egasini toping.

- A) Hasad, qaysarlik
- B) Yurakning zanglashi, mag‘lubiyat sababchisi
- C) Yurak, mag‘lubiyat
- D) Hasad, mag‘lubiyat

5. Quyidagi gapning bosh bo‘laklarini belgilang.

Aleksey o‘zbek tilida yaxshi gapiradi.

- A) o‘zbek tilida
- B) yaxshi gapiradi
- C) tilida gapiradi

D) Aleksey gapiradi

35-MAVZU. MEN SEVGAN ASAR

Og‘zaki nutq: Sevimli asar haqida so‘zlab berish. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti haqidagi ma’lumotlarni gapirib berish. Mashhur o‘zbek shoirlari ijodidan namunalar yod olish.

Yozma nutq: “Adabiyotning kishi ruhiy dunyosiga ta’siri” mavzusida esse yozish. Yangi kitoblar haqida polilog matnini tuzish va uni inssenirovka qilish.

Grammatika: Badiiy tasvir vositalari. Kiritmalar.

Tayanch so‘z va iboralar: badiiy asar, adabiyot, badiiy tasvir vositalari vositalari, mobolag‘a, sifatlash, jonlantirish, o‘xshatish, kiritmalar, kiritma gaplar.

1998- yilda Londonda ingliz yozuvchisi Jefri Choserning “Kenterber voqealari” asari naqd 7 394 000 dollarga sotib olingan. Adabiyotning bebaho durdonasi hisoblanmish yana bir asar Leonardo Da Vinchining “Leychester kodeksi” (original qo‘lëzma) 1994 yilning 11 noyabrida Nyu-Yorkda 30,8 million dollarga sotilgan. Uni koinot milliarderi, “Maykrosoft” asoschisi Bill Geyts xarid qilgan.

Har bir o‘qimishli insonning o‘z sevgan badiiy asari bo‘ladi. Adabiyotning bosh vazifasi insonlar qalbida ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat tuyg‘ularini uyg‘otish bo‘lganligi sababli yoshlar qalbiga go‘zal tuyg‘ular singdiriladi.

Yozuvchining quroli so‘z bo‘lib, u so‘zlardan mohirlik bilan foydalangan holda shunday hayotiy manzaralar chizadiki, asarlarni o‘qiyotgan o‘quvchi o‘sha voqealarda ishtirok etayotgandek, ularni o‘z ko‘zi bilan ko‘rib turgandek bo‘ladi. Voqealar rivoji davomida o‘quvchi badiiy asardagi sevimli qahramoni bilan birga sevinadi, hafa bo‘ladi, iztirob chekadi. Unga hayrixoh bo‘ladi. Asardagi ijobiy qahramonlarning ijobiy fazilatlaridan o‘rnak olsa, ba’zi qahramonlarning yovuzliklaridan nafratlanadi. San’at asarlari ta’sirida o‘quvchilarda tug‘ilgan bunday tuyg‘ular estetik tuyg‘u deyiladi. Badiiy adabiyot ilmiy adabiyotdan hayot haqiqatini jonli va jozibali tasvirlashi bilan keskin farqlanadi.

Shuning uchun badiiy adabiyotni ma’naviyat xazinasi deyish mumkin.

Lug‘at

bebaho-бесценный

namuna-образец


yod olish-запомнить

matn tuzish-создание текста

badiiy tasvir-художественное изображение


asoschi -основатель

mashhur-выдающийся



- Vazifa:** 1. O'zingiz sevib o'qiydigan asarni "Idrok xaritasi" metodi yordamida yozing.
2. "Adabiyotning kishi ruhiy dunyosiga ta'siri" mavzusida esse yozish.
3. Yangi kitoblar haqida polilog matniga tayyorgarlik ko'rish.

Grammatika: Badiiy tasvir vositalari. Kiritmalar.



Sifatlash - narsa, voqea-hodisa, tushuncha va kishilarning belgi-xislatlarini aniqlovchi, izohlovchi, tavsiflovchi so'zni qo'llashdir.

Men bir qaro kunda tug'ildim,

Tug'ildimu shu on bo'g'ildim.

(H.Olimjon)

O'xshatish- Tasvir obyektini boshqa narsa-hodisaga o'xshatish orqali yorqin va bo'rttirib tasvirlashga asoslangan badiiy tasvir vositasi. O'xshatishda narsa, belgi va harakat kabilarda boshqasiga o'xshatish, qiyoslash orqali tasvirlanadi. Bu o'sha tushunchani anglash va his qilishni osonlashtiradi.

*Tog'lardagi qip-qizil lola
Bo'lib go'yo yoqut piyola,
Buloqlardan uzatadi suv,
El ko'zidan qochadi uyqu.*

(H.Olimjon)

Mubolag'a - arabcha so'z bo'lib, "lof urish", "bo'rttirish" ma'nolarini bildiradi. Tasvirlanayotgan narsa, shaxs va voqea- hodisaning muayyan jihatlarini bo'rttirib, kuchaytirib tasvirlash usuli.

*Vah muhabbat ko'yida qon yig'ladim,
Yetti iqlim g'arq bo'ldi ko'z yoshima.*

(Mashrab)

*Yururda yeng birla og'zingni tutma,
Nimakim, yo'qturur yoshurmog'ing ne?*

(Atoiy)

*Firoq isitmasi andoq tanimda o't chiqarur
Ki gar tabib iligim tutsa, barmog'i qabarur*

(Atoiy)

- **Jonlantirish-** Odamlarga xos bo'lgan xususiyatlarni jonsiz narsalar, tabiat hodisalari, hayvon, parranda, qush kabilarga ko'chirish orqali hosil bo'ladigan tasvir usuli jonlantirishdir.
- Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizordi gul uyottin anjumanda. (Atoiy)
Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,
Eng yorug' yulduzdan seni so'rayman,
Ul yulduz uyalib boshini egib,
Aytadir men uni tushda ko'ramen. (Cho'lpon)

Kiritmalar

So'zlovchining o'zi bayon etayotgan fikriga munosabatini bildirgan bo'lak kiritma deyiladi. Masalan: *Shubhasiz, ko'prik shu yaqin joyda. Demak, ertalab uchrashamiz.* Kiritmalar quyidagi ma'nolarni bildiradi:

- ishonch va tasdiqni: *albatta, shubhasiz, ma'lumki, haqiqatan, darhaqiqat;*
- gumonni bildiradi: *balki, ehtimol, shekilli;*
- shodlik yoki achinishni: *vaxtinga, afsuski, attang, esizgina;*
- fikrning qarashlilikini: *menimcha, uning aytishicha, o'ylashimcha, sizningcha;*
- fikrning tartibini: *birinchidan, ikkinchidan, avvalo, nihoyat, oxiri;*
- fikrning oldingi fikr bilan bog'liqligini: *demak, shunday qilib, aks holda, xullas, aksincha;*
- tasdiq yoki inkorni bildiradi: *ha, yo'q, mayli, to'g'ri.*

Kiritmalar tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab bo'ladi.

Sodda kiritmalar modal so'zlar, tartib sonlar, fe'l shakllari bilan ifodalanib, so'z va so'z-gap shaklida bo'ladi: Tamom bo'ldi, **nazarimda. Qani, ichkariga kirin. Qunning tagi, aytaymi, issiq ekan.**

Murakkab kiritmalar esa soʻz birikmalari, kengaygan birikmalar va gaplar bilan ifodalanadi: *Mening bilishimcha, sen hali bundan bexabarsan. Gapning poʻstkallasini aytganda, ertaga joʻnaymiz.*

Kiritma gaplar. Kiritma gaplar soʻzlovchi bir fikrni ifodalayotgan paytda shu fikrga oid izoh, qoʻshimcha axborot berish xtiyoji bilan qoʻllanadi. Kiritma gaplar yozuvda qavs ichida, baʼzan vergul yoki tirelar bilan ajratilgan holda beriladi. Talaffuzda ular kichik toʻxtamlar va ovoz balandligi bilan ajratiladi: *Bugun biznikiga kursdoshim Nabi (siz uni taniysiz) kirib keldi.* Kiritma gaplar juda keng qoʻllaniladigan soha dramatik nutqdir. Bu nutqda qahramon nutqi qay tarzda bayon etilishi remarkalarda (personaj nomi bilan uning nutqi oraligʻidagi qavslarda) koʻrsatib boriladi: *Omon (oʻqiydi va qotib-qotib kuladi). Bunisi ham shunaqa.*

Kiritma gaplar asosan gap ichida yoki oxirida qoʻllanadi: *Mahbuba bilan Saodat (oʻshanda hali tong yorishmagan edi) dalaga yoʻl olishdi.*

Topshiriqlar: 1. *Gaplarni oʻqing. Kirish soʻzlarni toping va ularning maʼnosini aytib bering.*

1. Menimcha, bugun bizning komandamiz gʻolib chiqadi. 2. Talabalar fanlarni yaxshi oʻzlashtirishlari uchun, birinchidan, intizomga alohida eʼtibor berishlari kerak; ikkinchidan, adabiyotlardan yaxshi foydalanishlari kerak. 3. Nihoyat, hammamiz bir fikrga keldik. 4. Afsus, komandamiz birinchilikni ololmadi. 5. Ehtimol, bor haqiqatni siz aytib berarsiz. 6. Baxtga qarshi, siz toʻgʻri gapni tushunmadingiz.

2. *Quyidagi gaplarni oʻzbek tiliga tarjima qiling. Kirish soʻz va kirish iboralarning tagiga chizing.*

1. Наконец, мы решали продолжать путь без проводника. 2. К сожалению, мы опаздали на концерт. 3. Впервые, нужно прочитать текст, во-вторых, рассказать его содержание. 4. Значит, завтра комсомольское собрание будет в 14 часов. 5. Мы долго спортили и в конце концов, пришли к одному выводу.

Test topshiriqlari

1. Yurtimizda 1965-yil 10-mayda chiqqan farmon asosida qaysi sana “Kimyogarlar kuni” sifatida har yili tantanali tarzda nishonlanadi?

- A) 10-may
- B) 26-may
- C) 30-may
- D) 25-oktabr

2. *Sochilgan sochingday sochilsa siring,*

Anor yuzlaringni kimga tutasan. (Choʻlpon)

Berilgan sheʼriy parchada qoʻllangan badiiy tasvir vositasini toping.

- A) mubolagʻa
- B) jonlantirish
- C) sifatlash
- D) oʻxshatish

3. *Novdalarni bezab gʻunchalar,*

Tongda aytdi hayot otini.

Va sabboda qurgʻur ilk sahar,

Olib ketdi gulning totini. (Hamid Olimjon)

Berilgan sheʼriy parchada qoʻllangan badiiy tasvir vositasini toping.

- A) mubolagʻa
- B) jonlantirish
- C) sifatlash
- D) oʻxshatish

4. *Men bir qaro kunda tug'ildim,
Tug'ildim-u shu on bo'g'ildim. (Hamid Olimjon)*
Berilgan she'riy parchada qo'llangan badiiy tasvir vositasini toping.
- A) mubolag'a
 - B) jonlantirish
 - C) sifatlash
 - D) o'xshatish
5. *Men gilosmon: "Quloq sol,
Rangim ol-u totim bol".
Topsang qo'shalog'imni,
Qulog'ingga taqib ol.*
Berilgan she'riy parchada qo'llangan badiiy tasvir vositasini toping.
- A) Mubolag'a
 - B) Jonlantirish
 - C) Sifatlash
 - D) O'xshatish
6. *Siyohdon, azizim, qora ko'zligim,
Qora tunlar aro yoritgan ko'zgu.
Sendagi u siyoh – yo'q, siyoh emas,
Qalbimni qiynagan qip-qizil qonim.*
Berilgan she'riy parchada qo'llangan badiiy tasvir vositasini toping.
- A) Mubolag'a
 - B) Jonlantirish
 - C) Sifatlash
 - D) O'xshatish
7. *Gul bag'rini nasim tildi – to'kildi,
Sabog'a hikoyat qildi – to'kildi.
Falak ishiga boq: bir haftada gul,
Chiqdi, g'unchaladi, kuldi – to'kildi.*
Berilgan she'riy parchada ishlatilgan badiiy tasvir vositasini toping.
- A) o'xshatish
 - B) sifatlash
 - C) mubolag'a
 - D) Jonlantirish
8. Qaysi uslubda jonlantirish, mubolag'a, sifatlash, o'xshatish kabi badiiy-tasviriy vositalar ishlatiladi?
- A) so'zlashuv uslubi
 - B) badiiy uslub
 - C) rasmiy uslub
 - D) publitsistik uslub
9. *Zilday zamin darz ketibdi,
Qilday maysaning dastidan.*
Berilgan gapda ishlatilgan badiiy tasvir vositasini toping.
- A) Mubolag'a
 - B) Sifatlash
 - C) O'xshatish

D) Jonlantirish

10. *Bulutlar orasidan*

Quyosh kulib qaraydi.

Majnuntolning yuvilgan

Sochlarini taraydi.

Berilgan parchada ishlatilgan badiiy tasvir vositasini toping.

A) Mubolag'a

B) Sifatlash

C) O'xshatish

D) Jonlantirish

36-mavzu. "KIMYO SANOATI VA HAYOT"

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Matndagi asosiy fikrni ajratib so'zlab berish.

Yozma nutq: Mamlakat Kimyo sanoatida yuz bergan yangiliklar haqida xabar tayyorlash. Kimyoiy terminlar tarkibidagi qisqartma otlar lug'atini tuzish. Kimyo texnologiyasiga oid qiziqarli ma'lumotlarni topib yozish.

Grammatika: Umumxalq leksikasiga kirgan kimyoviy atamalar.

Tayanch so'z va iboralar: kimyo sanoati, iqtisodiy terminlar, qo'shma gap, qo'shma gap turlari, bog'langan qo'shma gap, ergashgan qo'shma gap, bog'lovchisiz qo'shma gap.

Kimyo sanoati — og'ir sanoat tarmoqlaridan biri bo'lib, xilma-xil kimyoviy mahsulotlar turlarini ishlab qaradi. Bular: kon-kimyo xom ashyosi, asosiy kimyo mahsulotlari (ammiak, noorganik kislotalar, ishqorlar, mineral o'g'itlar, soda, xlor va xlorli mahsulotlar, suyultirilgan gazlar va b.), plastmassa va sintetik smolalar, shu jumladan, kaprolaktam, sellyuloza atsetatlari, kimyoviy tola va iplar, plastmassa va shisha-plastiklardan materiallar va buyumlar, lok-bo'yoq materiallari, sintetik bo'yoqlar, kimyoviy reaktivlar, fotokimyo mahsulotlari, maishiy kimyo tovarlari va b. Kimyo sanoatining mustaqil sanoat tarmog'iga aylanishi sanoat to'ntarishi bilan bog'liq. Sulfat kislota ishlab chiqarish bo'yicha dastlabki zavodlar 1740-yilda Buyuk Britaniyada (Richmond), 1766-yilda Fransiyada (Ruan), 1805-yilda Rossiyada (Moskva gubernyasi), 1810-yilda Germaniyada (Leypsig yaqinida) barpo etilgan.

To'qimachilik va shisha-oyna sanoatining rivojlanishi bilan soda ishlab chiqaradigan zavodlar qurildi. AQSHda Kimyo sanoati Yevropa mamlakatlariga nisbatan kechroq paydo bo'ldi, lekin 1913 yilga kelib kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi bo'yicha jahonda 1-o'ringa chiqib oldi.

O'zbekistonda tegishli xom ashyo manbalari bo'lishiga qaramay XX asrning 30-yillarigacha kimyo sanoati deyarli yo'q edi. 1910-yillarda ohak kuydirish, o'simlik bo'yog'i olish, oltingugurt ishlab chiqarish, ishqoriy moddalar tayyorlash, sovungarlik bilan shug'ullangan bir qancha kichik korxonalar (12 sovun zavodi, neftni haydash zavodi, 2 bo'yoq fabrikasi) bo'lgan.

Zamonaviy kimyo sanoatining shakllanishi 1932-yilga to'g'ri keladi. 20-asrning 90-yillari boshiga kelib O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida muhim o'rinni eg'allagan kimyo sanoati barpo etildi.

1991-yilda respublika kimyo sanoati korxonalari negizida "O'zkimyosanoat" konserni tashkil etildi. 1994-yil yanvarda konsern "O'zkimyosanoat" uyushmasiga aylantirildi.

Vazifa: 1. Mamlakat Kimyo sanoatida yuz bergan yangiliklar haqida xabar tayyorlash.

2. Kimyo texnologiyasiga oid qiziqarli ma'lumotlarni topib yozish

GRAMMATIKA: UMUMXALQ LEKSIKASIDA KIMYOVIY ATAMALARNING ISHLATILISHI.

Kimyo sanoati

Kimyo sanoati xalq xo'jaligining muhim sohalaridan biridir. Hozirgi paytda hayotni kimyosiz va kimyo sanoatisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Kimyoni ajoyib o'zgarishlar sanoati deyish mumkin. U tabiatda uchramaydigan materiallarni sintez qilishda, ulardan turli-tuman mashina va asboblarni yaratishda, turar joylarni qurishda va xalq iste'mol buyumlarini ishlab chiqarishda ishlatishga imkon beradi. Shu sababli kimyo jadal sur'atlar bilan rivojlantirilmoqda.

Kimyo sanoati sintetik kauchuk, plastmassa, sun'iy tola, sun'iy yoqilg'i, bo'yoqlar, dorilar va ko'pgina boshqa moddalar ishlab chiqaradi. Qishloq xo'jaligida mineral o'g'itlar va o'simliklarni zararkunandalardan, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qiluvchi kimyoviy vositalar keng ko'lamda ishlatilmoqda. Ularni ishlatish mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishning eng muhim tadbirlaridan biridir.

Kimyoviy usullar yordamida mamlakatimiz sanoatining asosi bo'lgan metallar olinadi, ularni korroziyadan himoya qiladi, asosiy kimyo sanoatining mahsulotlari – kislotalar, ishqorlar, tuzlar ishlab chiqariladi. Keyingi yillarda inson oldida turgan eng muhim vazifalardan biri atrof-muhitni, ya'ni yashash muhitini va odamning ishlab chiqarish faoliyatini muhofaza qilish bo'lib qoldi. Atrof-muhit sanoat chiqindilari, transport va energetik qurilmalardan chiqadigan gazlar, rangli metallurgiya, kimyo sanoati korxonalarini va boshqalar tomonidan chiqarilib tashlanadigan chiqindilar bilan, ayniqsa ko'p ifloslanmoqda. Mamlakatimizda atrof-muhitga nisbatan avaylab-asrash munosabatida bo'lish va tabiiy boyliklardan unumli foydalanish amalga oshirilmoqda. Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlaridagi mutaxassislar uchun kimyoni chuqur bilish nihoyatda zarurdir.

Topshiriqlar:

1. Kimyoviy terminlar tarkibidagi qisqartma otlar lug'atini tuzish.

2. Yoqorida berilgan matndan kimyoviy terminlarni toping.

3. Matnni o'qing. Tayanch so'z va so'z birikmalarini eslab qoling: sintetik kauchuk, plastmassa, sun'iy tola, bo'yoq, ishqor, tuz, rangli metallar.

4. Matnni lug'at yordamida rus tiliga tarjima qiling.

5. Quyidagi so'zlarni o'qing, ulardagi unlilar talaffuziga e'tibor bering.

Tuproq, o'g'it, tarkib, eritma, qotishma, ma'dan, modda, xossa, reaktiv, ekologiya, biokimyo, mikroelement, kislota, asos, zarracha, xususiyat, qutbsiz, toshko'mir, neft, gaz, efir, selluloza, oqsil, kalsiy, magniy.

6. Savollarga javob bering:

1. Siz nima uchun shu sohani tanladingiz?
2. Sizningcha, hozirgi kunda qaysi soha ommabop?
3. Mutaxassisligingizning afzalligi nimada?
4. O'z oldingizga qanday maqsadlar qo'ygansiz?

Test topshiriqlari

1. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning birikishiga ko'ra turlarini toping.
A) Bog'langan, ergashgan va bog'lovchisiz qo'shma gap
B) Ergashgan qo'shma gap va bog'langan qo'shma gap
C) Ega ergash gap va kesim ergash gap

D) Bog‘langan va bog‘lovchisiz qo‘shma gap
2. *Birdan iliq shamol esdi va maysalarni silkita boshladi.*

Qo‘shma gapning turini toping.

- A) Ergashgan qo‘shma gap
- B) Bog‘lovchisiz qo‘shma gap
- C) Bog‘lovchisiz qo‘shma gap
- D) Sodda gap

3. Qo‘lyozma shaklida yoziladigan hujjatlar qatorini toping

- A) Ariza, tarjimai hol, tilxat, tushuntirish xati
- B) Ariza, ma‘lumotnoma, tilxat, tushuntirish xati
- C) Ariza, tarjimai hol, tilxat, eslatma
- D) Ariza, tarjimai hol, e‘lon, tushuntirish xati

4. Tayyorlanish o‘rniga ko‘ra hujjat turlari

- A) Sodda va murakkab
- B) Ichki va tashqi
- C) Rasmiy va shaxsiy
- D) Xususiy va qolipli

5. Mazmuniga ko‘ra hujjat turlari

- A) Rasmiy va shaxsiy
- B) Ichki va tashqi
- C) Sodda va murakkab
- D) Namunaviy va qolipli

37-mavzu. ISH YURITISH TILI VA USLUBI

Hujjat – ish yuritishning asosi. Hujjatchilik tarixi. Me‘yoriy (me‘yoriy) hujjat tushunchasi. Hujjat aylanishi. Elektron hujjatlar.

Yozma nutq: “Hujjatlar tarixi” mavzusida matn tuzish. Ish yuritish terminlarining lug‘atini tuzish.

Tayanch so‘z va iboralar: *ish yuritish tili, ish yuritish uslubi, hujjat, hujjatchilik tarixi, me‘yoriy hujjat, bog‘langan qo‘shma gap.*

Ish qog‘ozlarini qanday yozish kerak?

Hujjatlar tilida ot turkumiga oid so‘zlar ko‘p qo‘llanadi. Hatto fe‘l bilan ifodalanuvchi harakat va holatlar ifodasi uchun ham otga yaqin so‘z shakllari tanlanadi, ya‘ni “harakat nomi” deb ataluvchi so‘z shakllari faol ishlatiladi. “...tayyorgarlikning borishi haqida”, “...qarorning bajarilishi to‘g‘risida”, “...yordam berish maqsadida”, “...qabul qilishingizni so‘rayman” kabi.

Hujjatlarning mohiyati va maqsadiga muvofiq ravishda, ularda so‘roq va undov gaplar deyarli qo‘llanmaydi, asosan, darak va buyruq gaplar ishlatiladi. Zero, hujjatlarda tilning ikki vazifasi – xabar berish va buyurish vazifalari amalga oshadi. Masalan, ma‘lumotnomada axborot ifodalanadi, buyruqda buyurish aks etadi, bayonnomada esa ham axborot (“*eshitildi...*”), ham buyurish (“*Qaror qilindi...*”) o‘z ifodasini topadi.

Hujjatlar matni birinchi shaxs yoki uchinchi shaxs tilidan yoziladi. Yakka rahbar nomidan yoziladigan farmoyish hujjatlari (buyruq, farmoyish, ko‘rsatma kabilar) birinchi shaxs tilidan bo‘ladi. Shuningdek, ayrim shaxs tomonidan yozilgan hujjatlar (ariza, tushuntirish xati

kabi) ham birinchi shaxs, birlik sonda yoziladi. Boshqa hujjatlar esa yo birinchi shaxs ko'plik sonda, yoki uchinchi shaxs birlik sonda tuziladi.

Hujjatchilikda imlo va tinish belgilari masalasiga alohida e'tibor qilish kerak. Hujjatning nomini bosh harf bilan yozgan ma'qul, shuningdek bosma matnda boshqa usul bilan, masalan, mazkur nomni to'lig'icha bosh harflar bilan yozish orqali ham ajratib ko'rsatish mumkin. Lekin hujjatning nomi bo'lganligi uchun (sarlavhalardagi kabi) undan so'ng nuqta qo'yish shart emas.

Xizmat yozishmalarida aniqlik va mazmuniy tugallik fikrni aniq dalillar bilan asoslashga bog'liq. Hujjatchilikda bunday dalil, asoslar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- rasmiy qonunlar, bitim va shartnomalarning tegishli moddalari, bandlarini ko'rsatish. Masalan: «O'zR fuqarolik kodeksining 1135-moddasiga muvofiq», «Tuzilgan shartnomaning 3- bandiga asosan» kabi;

- qonunchilik yoki kelishilgan shartlar, manzilning o'zgarganligini ta'kidlash. Masalan: «boshqa shaharga ko'chishi munosabati bilan»;

- raqamli ko'rsatkich, hisob-kitoblar asosida. Masalan: «davlat raqami 10S6260 bo'lgan VAZ 2107 rusumli yengil avtomobil bilan»;

- mantiqiy asoslarni ifodalovchi «shunga ko'ra», «munosabati bilan», «...ganligi sababli», «...ishi uchun», «oqibatida», «...masligi tufayli», «shu maqsadda», «guvohlik berishicha», «tekshiruv natijasiga binoan» kabi qoliplashgan so'z birikmalari va h.k.

Rasmiy-idoraviy hujjatlarni tayyorlashda uning zaruriy qismlari joylashishiga, matn mazmuni tarkibiy qismlarining ketma-ketligiga, **tinish belgilarining** to'g'ri qo'yilishiga alohida e'tibor berish lozim.

Shu maqsadda quyidagilarga doimo amal qilishni unutmang:

— bosma harflarda yoziladigan hujjat nomida barcha harflar katta harflar bilan yozilishi kerak. Masalan: Tavsiyanoma emas, TAVSIYANOMA kabi;

— hujjat yuboriladigan muassasaning nomi qisqartirilmasdan to'liq, bosh harflar bilan yozilish qoidalariga amal qilgan holda yoziladi;

— hujjat matnining asosiy qismlari xatboshi bilan yozilishi lozim. Qo'shimcha qismlar asosiy fikrga bog'langan tarzda undan so'ng beriladi;

— shaxsiy hujjatlarda izohlanayotgan «Men» so'zidan va izoh so'z birikmasidan so'ng vergul qo'yiladi. Masalan: Men, Mahmud Qodirov, ...

Hujjat tayyorlash va ish yuritishda imlo me'yorlariga va tinish belgilarining to'g'ri qo'yilishiga qat'iy amaliy qilish lozim. Hujjat matnida vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, qavs, tire nisbatan faol ishlatiladi. **Unutmangki**, hujjat nomi va matn sarlavhasidan keyin nuqta qo'yilmaydi. **Vergul** hujjat matnida qoliplangan kirish birikmalaridan so'ng, uyushiq va ajratilgan bo'laklar, orasida, izohlovchi bilan izohlanmish o'rtasida qo'llanadi. **Masalan:** «*Shuni hisobga olib, ...*», «*Men, 2-kurs talabasi Umida Ikrom qizi, ...*», kabi.

Nuqtali vergul izohlanayotgan voqea-hodisa, narsalarning tartib raqami qavs bilan ajratilgan so'z, birikma va gaplardan so'ng qismlari mazmunan farqlanuvchi qo'shma gaplar tarkibida ishlatiladi.

Masalan: *Talabaning majburiyatlari:*

1) o'quv yurti Nizomiga amal qilish;

2) dars va boshqa o'quv mashg'ulotlarida faol qatnashish va boshqalar.

Ikki nuqta hujjatlar matnida quyidagi holatlarda qo'yiladi:

— matn tarkibida izohlanayotgan, sanalayotgan bo'laklardan oldingi umumlashtiruvchi «*quyidagilar*», «*shu haqda*» kabi so'zlaridan oldin;

— farmoyish hujjatlarida «*Buyuraman*» so'zidan, bayonnomaning «*Kun tartibi*», «*Eshitildi*», «*So'zga chiqdilar*», «*Qaror qilindi*» kabi zaruriy qismlaridan so'ng;

— matnning «*Asos*», «*Ilova*» kabi qismlaridan keyin.

Qavs hujjat matnining biror bo'lagiga qo'shimcha izoh berish zarurati bo'lganda qo'llanadi. Bunda izohlovchi so'z, manzil nomi, mablag' yoki miqdoriy ko'rsatkichni ifodalovchi raqam qavs ichida berilishi lozim. **Masalan:** 8500 (*sakkiz ming besh yuz*) so'mlik.

- Tire** quyidagi holatlarda qo‘yiladi:
- izohlanmish bilan izohlovchi o‘rtasida. **Masalan:** *Javobgar – marhumning tug‘ishgan singlisi.*
 - ajratilgan gap bo‘laklari o‘rtasida. **Masalan:** *Onasinikiga – Buxoro shahar, Yangiyer ko‘chasidagi 50-uyda yashovchi Muyassar Qayumovanikiga ko‘chib ketgan.*

Lug‘at

iqtisodiyot-экономика
 o‘g‘it- улучшение
 mahsulot-продукт
 oltingugurt-сера
 korxonа-предприятие
 ehtiyoj-потребность
 sanoat-промышленность
 kimyoviy birikmalar - химические соединения

Topshiriq:

Ish yuritish terminlarining lug‘atini tuzish.

Vazifa:

“Hujjatlar tarixi” mavzusida matn tuzish.

TEST TOPSHIRIQLARI

1. O‘z o‘g‘lining hovlisidan qulupnay o‘g‘irlashga tushib, falokatga yo‘liqqan ona obrazi tasvirlangan asarni toping.
 - A) “Bemor”
 - B) “O‘g‘ri”
 - C) “Qorako‘z majnun”
 - D) “Urushning so‘nggi qurboni”
2. Bitta xo‘kizning yo‘qolishi orqali jamiyatdagi o‘g‘riliklar yoritilgan asar?
 - A) “Bemor”
 - B) “O‘g‘ri”
 - C) “Qorako‘z majnun”
 - D) “Urushning so‘nggi qurboni”
3. O‘z dinidan, ota-onasidan, tug‘ilgan yeridan yuz o‘g‘irgan o‘g‘il obrazi qaysi hikoyada tasvirlangan?
 - A) “Bemor”
 - B) “O‘g‘ri”
 - C) “Qorako‘z majnun”
 - D) “Urushning so‘nggi qurboni”
4. Vulgarizm nima?
 - A) odobsiz so‘z
 - B) xorijiy so‘z
 - C) ma‘nodosh so‘z
 - D) axloqiy so‘z
5. “Tilla baliqcha” she‘rining muallifi kim?

- A) Erkin Vohidov
- B) Hamid Olimjon
- C) Abdulla Oripov
- D) Zulfiya

38-MAVZU. HUJJAT TURLARI VA XUSUSIYATLARI

Hujjatlarning tasniflanishi. Hujjat rekvizitlari. Hujjat tayyorlashning asosiy qoidalari.

Yozma nutq: Ish yuritish hujjatlarning ro‘yxatini tuzish. Ularni klaster shaklida tasniflash.


Tayanch so‘z va iboralar: hujjat turlari, hujjat rekvizitlari, hujjat tayyorlashning asosiy qoidalari, ichki hujjat, tashqi hujjat, bog‘lovchisiz qo‘shma gap.



Hujjat va uning turlari

Boshqaruv jarayonining murakkabligi va serqirraligiga muvofiq ravishda idoraviy ish yuritish qog‘ozlari, hujjatlar ham xilma-xil va miqdoran juda ko‘p. Hujjatlarning maqsadi, yo‘nalishi, hajmi, shakli va boshqa bir qator sifatleri ham turlichadir.

Hujjatshunoslikda hujjatlar bir necha jihatlariga ko‘ra tasnif qilinadi:



Tuzilish o‘rniga ko‘ra:

- ichki hujjatlar - ayni muassasaning o‘zida tuziladigan va shu muassasa ichida foydalaniladigan hujjatlar;
- tashqi hujjatlar – boshqa tashkilot yoki ayrim shaxslardan keladigan hujjatlar.




Mazmuniga ko'ra:

- sodda hujjatlar – bir masalani o‘z ichiga oladi;
- murakkab hujjatlar – ikki va undan ortiq masalani o‘z ichiga oladi.



Mazmun bayonining shakliga ko'ra:

- xususiy (individual) hujjatlar – matn o‘ziga xos, betakror, erkin bayon;
- namunali (tipovoy) hujjatlar – bir–biriga o‘xshash va takrorlanadigan masalalar yuzasidan tuzilgan matnlarni o‘z ichiga oladi;
- qolipli (trafaretli) hujjatlar – oldindan tayyorlangan bosma ish qog‘ozlariga yoziladi.



Tegishlilik jihatiga ko'ra:


- xizmat hujjatlari muassasa yoki mansabdor shaxslar tomonidan tayyorlanadi (bayonnoma, tavsifnoma, dalolatnoma va sh.k);
- shaxsiy hujjatlar yakka shaxslar tomonidan yoziladi (shaxsiy ariza, shikoyat, ishonchnoma, tarjimayi hol va sh.k).



Tayyorlanish xususiyati va darajasiga ko'ra:

- qoralama;
- asl nusxa;
- ikkinchi nusxa (dublikat);

- ko'chirma.



Xizmat mavqeyiga ko'ra:

- tashkiliy hujjatlar – nizomlar, yo'riqnomalar, majlis bayonlari, shartnomalar;
- farmoyish hujjatlar – buyruq, ko'rsatma, farmoyish;
- ma'lumot–axborot hujjatlar – dalolatnoma, ma'lumotnoma, ariza, tushuntirish xati, hisobot, ishonchnoma, tavsifnoma va sh.k;
- xizmat yozishmalari mazmunan xilma – xil bo'ladi. Ularda muassasa faoliyatining turli masalalari bilan bog'liq talab, iltimos, taklif, kafolat xati kabilar aks ettiriladi. Shu ma'noda xizmat yozishmalari hujjatlarning yuqorida ko'rsatilgan har uch guruhi bilan ham aloqador.



TOPSHIRIQ:

Hujjat turlarini yaxlit "Klaster" ko'rinishida aks ettiring



“Savol-javob” usuliga savollar

1. Ish yuritish tili va uslubi deganda nimani tushunasiz?
2. Qanday hujjat turlarini bilasiz?
3. Amaliyotda qanday hujjat turlarini yozgansiz?
4. Hujjat tayyorlashda nimalarga ko‘p e‘tibor berish kerak?
5. Hujjatlarda eng ko‘p yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatolar qaysilar?
6. Hujjatlarning tayyorlanish darajasi va sifati ish samaradorligiga qanday ta‘sir qiladi?

Lug‘at

rivojlanish-развитие
zamonaviy-современный
avtomobilsozlik-машиностроение
imkoniyatlar-возможности
sarmoya-инвестиция
moliya-финансы
yonilg‘i-топливо
qayta ishlash-переработка
faoliyat-деятельность
mustaqillik-независимость

Vazifa: 1. Ish yuritish hujjatlarning ro‘yxatini tuzish.

2. Ish yuritishda ilgari qo‘llangan quyidagi so‘zlarning hozirgi tilimizdan ma‘nodoshlarini toping va ular ishtirokida gaplar tuzing: munshaot, yorliq, patta, noma, chopar, munshiy, farmoni oliy, mirzaboshi, devonbegi.

Test topshiriqlari

1. Tashvish bilan ovoradir inson.

Ushbu gapda kesim vazifasida kelgan so‘zni belgilang.

- A) ovoradir inson
- B) ovoradir
- C) tashvish bilan
- D) inson

2. “Vaqt” she‘rining muallifini toping.

- A) Cho‘lpon
- B) Oybek
- C) Hamid Olimjon
- D) G‘afur G‘ulom

3. O‘z erki uchun qabristonga borib choy qaynatib kelgan ayol obrazi yoritilgan o‘tmishda ayollar hayotini aks ettirgan hikoyani toping.

- A) “O‘g‘ri”
- B) “Bemor”

- C) “Qorako‘z majnun”
- D) “Dahshat”

4. Tong shabadasi g‘ir-g‘ir esmoqda.

Berilgan gapda qatnashgan holni toping.

- A) tong
- B) esmoqda
- C) shabadasi
- D) g‘ir-g‘ir

5. Yonimizda qizlar, o‘g‘illar, qo‘shiq aytsin, yayrasin, kulsin.

Ushbu gapda qaysi bo‘laklar uyushib kelgan?

- A) faqat ega
- B) faqat kesim
- C) to‘ldiruvchi
- D) bosh bo‘laklar

6. O‘zing suv ichadigan quduqqa tupurma gapi ifoda maqsadiga ko‘ra qanday gap?

- A) darak gap
- B) buyruq gap
- C) so‘roq gap
- D) istak gap

7. Ey farzand, bilki, ota-ona mo‘tabardir. (Kaykovus)

Ushbu gapdagi undalmani toping.

- A) farzand
- B) Ey
- C) Ey farzand
- D) bilki

8. Aziz ustozlar, do‘stlar, opa-singillar, aka-ukalar! Bu sharaflı ishga barchamiz mas‘ulmiz.

Ushbu gapda qanday bo‘lak uyushgan?

- A) undalma
- B) undov so‘z
- C) ega
- D) aniqllovchi

9. Uyushiq undalma qo‘llangan gapni toping.

- A) – Baxt bir zumlik bo‘lmaydi, shunday emasmi, Orzugul, Vahobjon?
- B) – Bugun dars bo‘lmaydi, birodarlar.
- C) – Ha, xushchaqchaq yigit, keling, - dedi u meni ko‘rib.
- D) – Meni tanir ekansiz-da, Madali aka?

10. Ishonchni bildirgan modal so‘z qaysi gapda berilgan?

- A) Menimcha, qahramonlikdagina emas, har bir xatti-harakatda, hatto eng oddiy, mayda ishda ham bir mantiq, ma'no, mazmun, maqsad bo'lishi kerak.
- B) Esiz taqdir ekan qaydan bilibmiz.
- C) Afsuski, men uning otini bilolmay qoldim.
- D) Shubhasiz, biz g'olib bo'lamiz.

39-MAVZU. TASHKILY HUJJATLAR VA ULARNING TURLARI

Tashkiliy hujjatlarning vazifasi. Tashkiliy hujjatlarning turlari. Tashkiliy hujjatlarning leksik va stilistik xususiyatlari. Shartnoma. Mehnat shartnomasi. Nizom. Yo'riqnoma.


Yozma nutq: Mehnat shartnomasi matnini tuzish. Mehnat shartnomasidagi tayanch so'zlarni ajratib yozish. Oliy ta'lim muassasasi Nizomining tuzilishini yozish.

Tayanch so'z va iboralar: hujjat turlari, tashkiliy hujjatlar, shartnoma, mehnat shartnomasi, nizom, yo'riqnoma, guvohnoma, ergashgan qo'shma gaplar, bosh gap, ergash gap.



Tashkiliy hujjatlar, mazmunan tashkilot, muassasa va korxonalarining huquqiy maqomi, tarkibiy tarmoqlari va xodimlari, boshqaruv jarayonida jamoa ishtirokining qayd qilinishi, boshqa tashkilotlar bilan aloqalarning huquqiy tomonlari kabi masalalarni aks ettiradi. Guvohnoma, yo'riqnoma, nizom, qoida, ustav, shartnomalar ana shunday hujjatlar sirasiga kiradi.

TASHKILY HUJJATLAR



GUVOHNOMA

Xizmat safari guvohnomasi xodim zimmasiga vaqtida yuklatilgan xizmat vazifasini bajarishga vakolat beradi. Uning zaruriy qismlari:

1. Hujjat nomi (Xizmat safari guvohnomasi.)
2. Guvohnoma berilgan shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi.
3. Guvohnoma beruvchi tashkilotning nomi.
4. Boriladigan joylar (shahar yoki boshqa aholi manzillari) va tashkilotlar nomlari.
5. Xizmat safari muddati (necha kunligi ko'rsatiladi, dam olish kunlari, borish va kelish kunlari ham shu muddatga kiritiladi).
6. Xizmat safariga asos bo'lgan buyruq yoki farmoyish tartib raqami, sanasi.

7. Guvohnomaning orqa tomonida xizmat safarida bo‘lgan joylar (shahar va muassasa nomlari) va u yerdan jo‘nab ketilgan vaqtlar qaydi (muhr va imzo bilan tasdiqlanadi).

Xizmat safari guvohnomasi shakli:

Berildi _____ (lavozimi, familiyasi, ismi, sharifi) _____ xizmat safariga yuborish uchun (tayinlangan manzilgoh)	
Asos: _____ - sonli buyruq 201__ y «__» _____	
Safar muddati __ kun, 200__ y «__» _____ dan 200__ y «__» _____ gacha _____ seriyadagi _____ raqamli pasport ko‘rsatilganida haqiqiy deb hisoblanadi.	
Rahbar _____ muhr	imzo
----- orqa tomoni -----	
Xizmat safarida bo‘lganligi to‘g‘risida qaydlar (bo‘lgan joylari va jo‘nab ketgan vaqtlari) _____ sh.dan jo‘nab ketdi. _____ sh.ga yetib keldi.	
200__ y _____ muhr imzo	200__ y _____ muhr imzo
_____ sh.dan jo‘nab ketdi.	_____ sh.dan yetib keldi.
200__ y _____ muhr imzo	200__ y _____ muhr imzo
_____ sh.dan jo‘nab ketdi.	_____ sh.dan yetib keldi.
200__ y _____ muhr imzo	200__ y _____ muhr imzo
Eslatma: Xizmat safari vaqtida bir nechta joylarga borilganida kelish va ketish alohida qayd etiladi.	

Eslatma: Xizmat safari guvohnomasi maxsus blankaga rasmiylashtiriladi. U muassasa rahbari buyrug‘idan so‘ng xodim qo‘liga beriladi. Xizmat safariga jo‘nab ketish oldidan va qaytib kelganidan so‘ng o‘sha sanalarni ko‘rsatib, muassasa mansabdor shaxsi guvohnomaning tegishli joyiga imzo chekadi va muhr bosadi. Unga xodimning xizmat safari haqidagi hisoboti ilova qilinadi.

Xizmat safari haqida hisobot namunasi:

	<p>“Baliqchi” kasb-hunar kolleji direktori M.Yusupovga xo‘jalik ishlari bo‘yicha direktor muovini R.Akromovning Toshkent shahrida o‘tgan xizmat safari haqida</p>
HISOBOTI	
<p>Kollej pedagogik kengashining shu yil 18-martdagi qaroriga binoan Toshkent shahriga xizmat safariga bordim. Bundan maqsad “AKFA” firmasi bilan kollejga 2017-yilning 2-choragida eshik va romlar uchun materiallar yetkazib berish haqida shartnoma tuzish edi.</p> <p>Topshiriq bajarildi. Maxsus eshik va romlar uchun materiallar shu yilning 15-aprelidan kechikmay kollejga keltirila boshlanadi.</p> <p>Ilova: 2017-yil 20-martda tuzilgan shartnoma – 2 bet.</p>	
Xo‘jalik ishlari bo‘yicha	

SHARTNOMA

Ikki yoki undan ortiq tomonning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish yoki to'xtatish yo'lidagi kelishuvi **shartnomadir**. Boshqacha qilib aytganda, shartnoma tomonlarning biron-bir munosabatlar o'rnatish haqidagi kelishuvi (bitim)ni qayd etuvchi va munosabatlarni tartibga soluvchi hujjatdir.

Shartnoma davlat yoki nodavlat, jamoat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, shuningdek fuqarolar o'rtasida tuzilishi mumkin. Shartnoma munosabatlari muassasa bilan ayrim shaxs yoki shaxslar o'rtasida o'rnatilayotgan bo'lsa, bunda tuzilajak hujjat aksar hollarda **mehnat bitimi** deb ataladi.

Shartnomada tomonlar bajarishi lozim bo'lgan shartlar va boshqa majburiyatlar ko'rsatiladi.

Shartnoma muassasalarga tegishli bo'lganda, tomonlar imzolanga qadar, unda muayyan muassasa hisobchisi va adliya maslahatchisining rozilik belgisi (vizasi) bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Tomonlar mazkur hujjatning barcha bob va qismlari bo'yicha kelishib olib, uni tegishli ravishda rasmiylashtirgandan keyingina shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Shartnomalar ikki nusxadan kam tuzilmasligi kerak, chunki har bir huquqiy shaxsning hujjatlar yig'masida kamida bir nusxasi bo'lishi kerak. Shartnomalarning barcha nusxalari bir xil huquqiy kuchga ega bo'ladi.

Shartnoma matni varaqning har ikkala tomoniga kompyuterda bir oraliq bilan yoziladi, boblarning bandleri esa o'zaro bir yarim oraliq bilan ajratiladi. "S H A R T N O M A" so'zini katta harflar bilan orasini ochiq qilib yozish tavsiya etiladi.

Kontrakt nizamiga ko'ra, u ko'pi bilan besh yil muddatga tuziladi.

Mehnat shartnomasi namunasi:**MEHNAT SHARTNOMASI**

Toshkent kimyo-texnologiya instituti (TKTI) ning rektori S.M.Turobjonov bir tomondan, ikkinchi tomondan esa _____

Ushbu mehnat shartnomasiga kelishdilar.

I-BO'LIM. REKTOR QUYIDAGI MAJBURIYATLARNI OLADI:

1. _____ ni
(familiyasi, ismi, sharifi)

1.1. Mehnat malakasi, mahorati, ilmiy darajasi va unvoniga qarab KAFEDRA MAJLISI XULOSASI VA INSTITUT ilmiy kengashi qaroriga binoan

_____ ga
(kafedra nomi)

_____ lavozimidagi ish bilan ta'minlash;
(kafedra mudiri, professor, dotsent, katta o'qituvchi, assistent)

1.2. Mansabga qarab bir oyda ikki marta ish haqini berib turish;

1.3. O'rnatilgan talablarga binoan yillik ish hajmi bilan ta'minlash;

1.4. Yillik yakun bo'yicha 48 ish kunlik mehnat ta'tilini berish;

1.5. Ushbu mehnat shartnomasi kuchga ega bo'lgan davr ichida uni Respublika qonunlari doirasida ijtimoiy himoyalash;

1.6. Ushbu mehnat shartnomasi muddatdan oldin uzrli sababga ko'ra buzilsa, unda amaldagi O'zbekiston Respublikasi MEHNAT NIZOMIGA (KODEKSIGA) binoan uni o'rnatilgan tartibdagi nafaqa bilan ta'minlash;

1.7. O'quv jaroyonida texnika vositalarini keng qo'llay olish sharoitini imkoniyat darajasida yaratib berish;

1.8. Xizmat safariga imkon yaratish;

1.9. Nashr etishga tayyorlangan o'quv-metodik ishlarini imkoniyat darajasida chop etishga

ko'maklashish;

II BO'LIM

(familiyasi, ismi sharifi)

QUYIDAGI MAJBURIYATLARNI OLADI:

- 2.1. Institut Ustavida ko'zda tutgan tartib-qoida va intizom talablariga to'la rioya qilish;
- 2.2. O'rnatilgan talablarga binoan va mehnat shartnomasi asosida har o'quv yili uchun tuziladigan shaxsiy rejani to'la bajarish;
- 2.3. Darslarning barbod bo'lishiga yo'l qo'yimaslik va ularni zamonaviy talabga muvofiq o'tkazish;
- 2.4. O'zining umum-ilmiy-kasbiy bilimi mahoratini oshirish, madaniy saviyasini yuksaltirish, malakani oshirish, seminarlarda faol qatnashish, stajirovka uyushtirish;
- 2.5. Oliy maktab muallimining axloqiy-ma'naviy qoidalariga rioya qilish;
- 2.6. Institut uchun yetakchi bo'lgan ilmiy muammo ustida faol ishlash;
- 2.7. Talabalar orasida ma'naviyat va ma'rifat ishlarini faol o'tkazish, murabbiylik qilish;
- 2.8. O'zbekiston Respublikasiga doimo sadoqat bilan xizmat qilish;
- 2.9. Davlat siyosatini amalga oshirish va qo'llab-quvvatlashga bevosita qatnashish;
- 2.10. Darslarida to'liq davomatni ta'minlash va o'zlashtirishni yuqori darajaga ko'tarish;
- 2.11. Budjetdan tashqari mablag' ishlab topish ishlarida faol qatnashish;
- 2.12. Jadval asosida talabalar uyida navbatchilik ishlarida va tantanalar o'tkazishda faol qatnashish;

III-BO'LIM. UMUMIY QOIDALAR

- 3.1. Ushbu shartnoma muddati tomonlarning roziligi bilan (rozilik haqidagi bayon matnini tuzish orqali) cho'zilishi, o'zgartirish kiritishi yoki u bekor qilinishi mumkin;
- 3.2. Shartnoma-bitimni cho'zish yoki uni bekor qilish haqidagi qarorini muddatidan ikki oy ilgari xabardor qilish zarur;
- 3.3. Tomonlar o'rtasida vujudga kelgan tortishuv va kelishmovchiliklar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi;
- 3.4. Janob _____ zimmasiga

(f.i.sh)

olgan majburiyatlarini mas'uliyatsizlik bilan bajarayotgan bo'lsa va buning natijasida mutaxassislarni tayyorlash sifati yomonlashayotganligi haqidagi maxsus komissiyaning xulosasi mavjud bo'lgan hollarda kontrakt rektor tashabbusi bilan muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin. Rektor shartnomaning bekor qilinish sababi va vaqtini ko'rsatadi;

3.5. Shartnomaning amal qilish muddati, bir tomondan, qonunchilikda ko'zda tutilgan, ya'ni mehnat haqidagi Nizomiga binoan, ikkinchi tomondan, mazkur shartnomaning 1.3 bandida ko'zda tutilgan majburiyatlarning to'xtatilishi, bajarilmayotganligi natijasida to'xtatilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Ko'zda tutilgan majburiyatlarning bajarilmayotganligi sababli kontrakt bekor qilinsa, u holda

(f.i.sh)

O'zbekiston Respublikasi KZOT ning 1-bob 3-bandi bilan bo'shatiladi;

- 3.6. Ushbu shartnoma-bitimning imzolanishi va uning asosida ish olib borish tomonlar o'rtasida boshqa turdagi shartnomalarni imzolanishiga to'sqinlik qilmaydi, shuningdek, boshqa yuridik tomonlar bilan shu xildagi shartnomalarni tuzish imkoniyatidan mahrum qilmaydi;
- 3.7. Shartnoma-bitimning bajarilish darajasi tegishli kafedralar majlislarida har yarim yilda va yil yakunida muhokama qilib boriladi;
- 3.8. Ushbu shartnoma-bitim tomonlar ishtirokida imzolangan ular uchun teng huquqli yuridik kuchga kiradi va _____ oygacha amal qiladi;
- 3.9. Shartnoma-bitim ikki nusxada tuzilib, bir nusxasi institut xodimlar bo'limidagi shaxsiy yig'ma jildida, ikkinchisi esa _____ ga beriladi.

(f.i.sh)

3.10. Maxsus talab va shartlar _____

Tomonlar yuridik manzillari:

1. Toshkent Kimyo-texnologiya instituti,
pochta indeksi 700011, Toshkent sh.,
Navoiy ko'chasi, 32- uy.
Rektor _____ Sh.A.Mutalov

2. _____
(f.i.sh)
Manzil: _____
Imzo: _____

N I Z O M

Tashkilot yoki uning tarkibiy bo'linmalari, kichik yoki qo'shma korxonalar va shu kabilar tuzilishi, huquqi, vazifalari, burchlari, ishni tashkil qilishlari tartibotini belgilaydigan huquqiy hujjat **nizom** deyiladi. Nizom ayrim mansabdor shaxslarga va turli tadbirlar (ko'rik, musobaqa, tanlov va boshqalar)ga nisbatan ham tuzilishi mumkin.

Ko'pincha nizom muassasalar ta'asis etilishi yoki tashkil topishi paytida tuziladi va yuqori tashkilotlar farmoyishi bilan (yoki tegishli hokimiyat tomonidan) tasdiqlanadi. Muassasalarning tarkibiy qismlari ularning rahbarlari tomonidan tuziladi va muassasa rahbari farmoyishi bilan yoki tasdiqlash ustxatini qo'yish bilan kuchga kiradi.

Muvaqqat komissiyalar, guruhlar va shu kabilarning huquqiy maqomlari ham nizom bilan belgilanadi.

Nizom shaki:

Qayerda..... "Tasdiqlayman"
Qachon.....
___ - sonli qaroriga
binoan ro'yxatga olingan _____ (imzo)

_____ (muassasaning nomi)

N I Z O M I

I. UMUMIY QOIDALAR

II. MAQSAD VA VAZIFALARI

III. HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

IV. MULKI VA MABLAG'LARI

V. BOSHQARUV VA NAZORAT

VI. KORXONANI TUGATISH VA QAYTA TASHKIL ETISH

Majlis sanasi _____

Tarkibiy bo‘linma haqida nizom shakli:

Korxon nomi	Tasdiqlayman Korxon rahbari		
		Imzo	Imzo yoyilmasi 2000.00.00.
Tarkibiy bo‘linma nomi	haqida		
N I Z O M			
2000.00.00 00-sonli Toshkent sh.			
Matn tuzilmasi			
Umumiy qoida Asosiy vazifalar Olib boradigan ishlari Huquq va majburiyatlari Mas’uliyati O‘zaro munosabatlari Ishni tashkil etish			
Tarkibiy bo‘linma rahbari		Imzo	Imzo yoyilmasi
Rozilik belgisi Nizom bilan tanishdim:		Imzo	Imzo yoyilmasi
		2000.00.00	

Vazifa: 1. Mehnat shartnomasi matnini tuzish.

2. Mehnat shartnomasidagi tayanch so‘zlarni ajratib yozish.

3. Oliy ta’lim muassasasi Nizomining tuzilishini yozish.

Topshiriqlar:

1. „Talaba nizomi“ni o‘qib chiqing. Hujjatning zaruriy qismlarini yod oling.

2. Mehnat shartnomasidagi rahbar va xodimning majburiyatlari nimalardan iboratligini aytib bering.
3. Xizmat safari guvohnomasi shakli asosida guvohnomani to'ldiring.
4. Jadvalni to'ldiring.

“Tushunchalar tahlili” metodini amalga oshirish tartibi:

Jadval ko'rinishida bir tomoniga mavzuga tegishli tushunchalar keltirilgan tarqatma material talabalarga beriladi va ulardan ushbu tushunchalarni izohini yozishlari so'raladi.

Quyida keltirilgan tayanch iboralarni izohlang.

№	Tayanch so'zlar	Ta'rifi, izohi
1	Guvohnoma	
2	Yo'riqnoma	
3	Shartnoma	
4	Nizom	

Test topshiriqlari

1. O'zbekistonda chiroyli joylar ko'p.

Berilgan gapni gap bo'laklari bo'yicha tahlil qiling.

- A) Kesim, ega, hol
 - B) Kesim, ega, to'ldiruvchi
 - C) Kesim, ega, aniqlovchi, hol
 - D) Kesim, ega, hol
2. Qaysi qatorda ega ibora bilan ifodalangan?
- A) Uning oyoq olishi bizga yoqmadi.
 - B) Ko'kka boqqan qoqilar.
 - C) Bu-mening Vatanim.
 - D) Uzoqdan otlarning dupuri eshitildi.
3. Qaysi gapda tovushga taqlid so'z qatnashgan?
- A) Chiroq lip-lip etdi.
 - B) Bezgak xuruj qilganday lablari pir-pir uchardi.
 - C) Dupur-dupur ot keldi.
 - D) Ummatali dag'-dag' titrardi.
4. Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak.
Berilgan gapdagi bog'lovchining turini toping.
- A) Zidlov bog'lovchisi
 - B) Ayiruv bog'lovchisi
 - C) Inkori bog'lovchisi
 - D) Biriktiruv bog'lovchisi
5. Sabr sekin yuradigan ulovdir.
Berilgan gapdagi bosh bo'laklarni toping.
- A) Sabr, ulovdir

- B) Ulovdur
- C) Sekin, yuradigan
- D) Sabr

6. **qizil gul, yotgan bola.**

Soʻz birikmasining turini va ruscha muqobilini toping.

- A) moslashuv, красный цветок, лежащий ребенок.
- B) teng bogʻlanish, красный цветок, лежащий ребенок.
- C) bitishuv, красный цветок, лежащий ребенок.
- D) boshqaruv, красный цветок, лежащий ребенок.

7. Gapda bosh va ikkinchi darajali boʻlakli gaplarning ishtirokiga koʻra gaplar qanday turlarga boʻlinadi?

- A) sodda va qoʻshma gap
- B) sodda yoyiq va sodda yigʻiq gap
- C) darak gap va soʻroq gap
- D) qoʻshma gap

8. Qaysi qatorda sodda yigʻiq gap berilgan?

- A) Osmonni bulut qopladi.
- B) Bahorning fayzli kunlari boshlandi.
- C) Derazamning oldida oʻrik oppoq boʻlib gulladi.
- D) Musiqa tindi.

9. Qaysi qatorda inversiya hodisasi yuz bergan?

- A) Daryo uzoqdan jimirlab koʻrinardi.
- B) Shovulladi tun boʻyi shamol.
- C) Ona oʻgʻlini intizor kutdi.
- D) Chaqimchining tilidan ilon zahar oladi.

10. Havo bulut boʻladi, lekin yogʻingarchilik boʻlmaydi.

Qoʻshma gap turini toping.

- A) Bogʻlangan qoʻshma gap
- B) Ergashgan qoʻshma gap
- C) Bogʻlovchisiz qoʻshma gap
- D) Sodda gap

40-MAVZU. FARMYOYISH HUJJATLARI VA ULARNING TURLARI


Farmoyish hujjatlarining vazifasi. Farmoyish hujjatlarining turlari. Buyruq. Farmoyish. Koʻrsatma. Farmoyish hujjatlarining leksikasi va stilistik xususiyatlari.

Yozma nutq: Oliy taʼlim muassasasi buyrugʻining matnini tayyorlash. Farmoyish hujjatlarida qoʻllanadigan tayanch soʻzlarni yozish.

Tayanch soʻz va iboralar: farmoyish hujjatlari, farmoyish hujjatlarining turlari, buyruq, farmoyish, koʻrsatma, buyruqdan koʻchirma

Farmoyish hujjatlari

Farmoyish hujjatlari asosan tashkilot rahbari (direktor)ning buyruq, ko'rsatma, farmoyishlari asosida vujudga keladi.



BUYRUQ

Mazkur huquqiy hujjat muayyan muassasa oldida turgan asosiy va kundalik vazifalarni hal qilish maqsadida qo'llaniladi. Mohiyat-e'tibori bilan buyruqlar ikkiga bo'linadi:

- 1) asosiy faoliyatga oid;
- 2) kadrlar shaxsiy tarkibiga oid.

Asosiy faoliyatga oid buyruqlar ishni tashkil qilish, muassasa yoki uning bo'limlari faoliyatini tartibga solishda qo'llanadi.

Buyruq loyihasi bosh mutaxassislar, huquq maslahatchisi, bosh hisobchi bilan kelishilgan holda tuziladi.

Buyruq matni muassasa blankasida yozilib, asoslovchi (kirish) va farmoyish qismlardan tashkil topadi. Asoslovchi qismda buyruqdan maqsad, shart-sharoit ko'rsatiladi, asos qilingan buyruqqa (hujjatga) havola qilinadi. Asoslashga ehtiyoj bo'lmagan hollarda to'g'ridan-to'g'ri buyruqning farmoyish qismi beriladi.

Buyruqning farmoyish qismi yangi satrdan «BUYURAMAN:» so'zini bosh harflar bilan ikki nuqta qo'yib yozishdan boshlanadi. Shundan so'ng farmoyish yoziladi. Agar farmoyish bir nechta bo'lsa, bandlarga ajratilib, arabcha raqamlar bilan belgilanadi.

Farmoyishlarda biror vazifani kim, qanday va qachon bajarishi majhul nisbatdagi fe'ning buyruq (III shaxs, birlik) shakli bilan ifodalanadi (tayinlansin, belgilansin, o'tkazilsin, qabul qilinsin kabi).

Farmoyish oxirida buyruqni nazorat qilish kimga yuklatilgani qayd etiladi.

Ba'zan farmoyishdan so'ng buyruqqa asos bo'lgan hujjat nomi ham ko'rsatiladi.

Hujjat matnini tuzishda quyidagilarga amal qiling:

- hujjat jo'natilayotgan (yozilayotgan) tashkilot nomini, mansabdor shaxs ismi, otasining ismi va familiyasini rasmiy nomlanishlariga to'la muvofiq holda yozish;
- hujjat matniga aniq sarlavha qo'yib, sarlavhani bosh harflar bilan yozish; masalan: Xizmat safari haqida;
- hujjat turiga muvofiq uning zaruriy qismlarini o'rniga muvofiq joylashtirish, tartibi, harflar hajmini to'g'ri belgilash;

- gap qurilishida soʻzlar tartibiga qatʼiy rioya qilish; matnda koʻchma maʼnoli soʻz va iboralarni, qochiriq yoki kinoyaga ishora qiluvchi birikmalarni, mavhum maʼnoli soʻzlarni qoʻllamaslik;
- murakkab tuzilishdagi jummalardan, ritorik va his-hayajon mazmunidagi gaplardan foydalanmaslik;
- norasmiy va asoslanmagan maʼlumot yoki dalillarni kiritmaslik;
- muayyan andozaga solingan, qoliplangan, soha termini sifatida qabul qilingan birikmalarni qoʻllash;
- qabul qilinmagan qisqartma va belgilarni qoʻllamaslik;
- soʻzlar va gaplarda imlo meʼyorlariga amal qilish, tinish belgilarni oʻz oʻrniga toʻgʻri qoʻyish, tuzatish yoki oʻchirishlarga yoʻl qoʻymaslik;
- matnning yozilish sanasini, imzolovchi shaxs lavozimi va ismi-familiyasini aniq koʻrsatish. Masalan: 2004-yilning 18-oktabri, «Hashar» shirkati raisi Said Olimov kabi.

Asosiy faoliyatga oid buyruq shakli

<p><i>Vazirlik nomi</i> <i>Muassasa nomi</i> SARLAVHASI 00.00.0 № _____ <i>joyi</i></p>
<p>BUYRUQ <i>Asoslovchi (kirish) qismi</i></p> <hr/> <hr/> <hr/>
<p>BUYURAMAN:</p> <p>1. _____</p> <p>2. _____</p> <p>3. _____</p> <p>4. Buyruq ijrosini nazorat qilish _____ zimmasiga yuklatilsin. (lavozimi va familiyasi toʻliq yoziladi)</p>
<p>Rahbar: (imzo) I. O. Familiyasi</p>

Topshiriq:

Buyruq matnini tuzishda qoʻllanadigan soʻz va soʻz birikmalarni “Klaster” usuli orqali aks ettiring.

Vazifa:

Buyruq shakli asosida buyruq matni yozing.

Test topshiriqlari

1. Yoʻllanma soʻzining tarjimasini toping.

- A) рапорт
- B) направление
- C) доверенность
- D) заявление

2. Договор soʻzining oʻzbekcha muqobilini toping.

- A) sulh, shartnoma

- B) kelishuv, bitishuv
- C) akt, dalolatnoma
- D) taqdimnoma, tavsifnoma

3. Tashkiliy hujjatning qaysi turi ikki va undan ortiq nusxada tayyorlanadi va nusxalari bir xil kuchga ega?

- A) Nizom
- B) Shartnoma
- C) Guvohnoma
- D) Yo'riqnoma

4. Hujjat matnlarida nimalar bayon etiladi?

- A) yozilish sabablari ko'rsatiladi, taklif va xulosalar beriladi
- B) rasmiy munosabatlarni ifodalaydi
- C) axborot, voqea-hodisalar badiiy vositalar orqali bayon etiladi
- D) A, B, C

5. Tegishlilik jihatiga ko'ra hujjat turlari

- A) Ichki va tashqi
- B) Xususiy, namunaviy va qolipli
- C) Rasmiy va shaxsiy
- D) Sodda va murakkab

6. Xizmat mavqeyiga ko'ra hujjat turlari

- A) Qoralama, asl nusxa, ko'chirma
- B) Sodda va murakkab hujjatlar
- C) Tashkiliy, ma'lumot-axborot, farmoyish hujjatlari, xizmat yozishmalari
- D) Xususiy, namunaviy va qolipli hujjatlar

7. Ish hujjatlarini tayyorlashda qaysi nutq uslubidan foydalaniladi?

- A) Ilmiy uslub
- B) Badiiy uslub
- C) Rasmiy-idoraviy uslub
- D) Publisistik uslub

8. Qaysi qatorda bog'lovchisiz qo'shma gap berilgan?

- A) Yurt tinch-sen tinch.
- B) Ayrim oilalar borki, tarbiyaga e'tibor berishmaydi.
- C) Bahor keldi-yu, lekin hali gullar ochilgani yo'q.
- D) Uning dam jahli chiqar, dam kulgisi qistar edi.

9. Qaysi qatorda bog'langan qo'shma gap berilgan?

- A) Shu narsa qiziqki, uyquda ham miya o'z faoliyatini to'xtatmaydi.
- B) Ayrim oilalar borki, tarbiyaga e'tibor berishmaydi.
- C) Kimki bo'la dilozor, undan el-u yurt bezor.
- D) Sen o'z ustingda yaxshi ishlayapsan, biroq hali kamchiliging ko'p.

10. Qaysi qatorda ergashgan qo'shma gap berilgan?

- A) Havo bulut bo'ldi, biroq yomg'ir yog'madi.
- B) Sen o'z ustingda yaxshi ishlayapsan, biroq hali kamchiliging ko'p.
- C) Ko'z qo'rqqoq –qo'l botir.

D) Katta arava qaysi yo‘ldan yursa, kichik arava ham shu yo‘ldan yuradi.

41-mavzu. MA'LUMOT-AXBOROT HUJJATLARI

Ma'lumot-axborot hujjatlarining vazifasi. Ma'lumot-axborot hujjatlarining turlari. Tarjimayi hol. Bildirgi. Tavsifnoma.

Yozma nutq: Tarjimayi hol yozish. Tavsifnoma yozish.

Tayanch so‘z va iboralar: ma'lumot-axborot hujjatlarining turlari, tarjimayi hol, bildirishnoma, tavsifnoma.

Ma'lumot-axborot hujjatlari

Ma'lumot-axborot hujjatlari anchayin katta guruhni tashkil qiladi, ular ish yuritish jarayonida ayniqsa ko‘p ishlatiladi. Bu guruh ariza, bayonnoma, bildirishnoma, vasiyatnoma, dalolatnoma, ishonchnoma, ma'lumotnoma, tavsifnoma, tavsiyanoma, taklifnoma, tarjimayi hol, tushuntirish xati, e‘lon, hisobot kabi hujjatlarni o‘z ichiga oladi.

MA'LUMOT-AXBOROT HUJJATLARI.



TARJIMAYI HOL

Ma'lum bir shaxs tomonidan o‘z shaxsiy hayoti va faoliyati haqida bayon qilingan yozuv **tarjimayi hol** deyiladi. Tarjimayi hol bir xil andozaga ega emas, mufassal yoki muhtasar yozilishi mumkin. U muallif tomonidan mustaqil tuziladigan hujjatdir.

Tarjimayi holning asosiy zaruriy qismlari:

1. Hujjatning nomi (Tarjimayi hol)
2. Matn:
 - a) muallif ismi va otasining ismi, familiyasi;

- b) tug‘ilgan yil, kun, oy va tug‘ilgan joyi, ijtimoiy kelib chiqishi;
- c) millati;
- d) ota-onasi haqida qisqacha ma’lumot (ismi va otasining ismi, familiyasi va ish joyi, lavozimi);
- e) ma’lumoti (qayerda, qanday o‘quv yurtini tugatganligi va ma’lumotiga ko‘ra mutaxassisligi);
- f) ish faoliyatining turlari;
- g) oxirgi ish joyi va lavozimi;
- j) mukofot va rag‘batlantirishlar;
- z) jamoat ishlarida ishtiroki;
- i) oilaviy ahvoli va oila a‘zolari;
- k) pasport ma’lumotlari;
- l) turar joyi (uy adresi), telefoni.

3. Sana.

4. Imzo.

Barcha ma’lumotlar davriylik (xronologik) asosida, aniq sanala bilan (iloji boricha yili, oyi, kuni ko‘rsatilgan holda) beriladi. Barcha raqamlar arab raqamlarida ifodalanadi. Tarjimayi hol shunday tuzilishi kerakki, u bilan tanishgan kishi muallifning hayot yo‘li, faoliyati haqida muayyan tasavvurga ega bo‘lsin.

Tarjimayi hol shakli:

T A R J I M A Y I H O L		
Men, <i>(familiyasi, ismi, ota ismi), (tug‘ilgan sanasi, joyi)</i> oilasida tug‘ildim. <i>(Ota-onasining ismi, ota ismi, familiyasi, ish (o‘qish) joyi, lavozimi.)</i> <i>(O‘zining o‘qish, mehnat va jamoatchilik faoliyati, ular uchun olgan mukofotlari.)</i>		
Oilaliman (turmushga chiqmaganman, ta farzandim bor)		
Mening turar joyim:		
sana	(imzo)	ismi, familiyasi

Tarjimayi hol namunasi:

T A R J I M A Y I H O L		
<i>Men, Sobirov Nodirbek Nozimjon o‘g‘li, 1992-yil 27-iyunda Buxoro shahrida xizmatchi oilasida tug‘ildim. Otam –Nozimjon Raxmatovoch Sobirov, viloyat yo‘l qurilishi boshqarmasining bosh muhandisi, Onam –Nasiba Sodiqo‘vna Nomozova, 18-o‘rta maktabda o‘qituvchi bo‘lib ishlaydilar.</i>		
<i>1999-2000-yillarda Buxoro shahridagi 18-maktabda o‘qidim. Maktabda sinf devoriy gazetasi muharriri bo‘ldim. Ona tili va adabiyot fanlariga juda qiziqaman. Bu fan bo‘yicha viloyat olimpiadasida 2-o‘rinni egallaganman. Tennis bo‘yicha respublika musobaqalarida faxrli o‘rinlarni olganman.</i>		
<i>9-sinfni tugatib, 2000-yilda Buxoro davlat universitetining akademik litseyiga o‘qishga kirdim. 2009-yilda Buxoro davlat universitetining o‘zbek filologiyasi fakultetiga o‘qishga kirdim. 2013-yilda universitetni imtiyozli diplom bilan tugatib, O‘zbekiston jahon tillar universitetining “Xorijiy jurnalistika” mutaxassisligi bo‘yicha davlat budjeti asosida magistraturaga qabul qilindim. 2015-yili magistrlik diplomiga ega bo‘ldim. Shu yildan boshlab O‘zAda muxbir lavozimida ishlayapman.</i>		
<i>Uylanganman. Turmush o‘rtog‘im – Sobirova Laylo, 1996-yilda tug‘ilgan. Buxoro tibbiyot institutining 2-kurs talabasi.</i>		
<i>Mening turar joyim: Buxoro shahri, Yangiyer ko‘chasi, 51-uy.</i>		
<i>2017-yil 21-may</i>	<i>(imzo)</i>	<i>N. Sobirov.</i>

BILDIRISHNOMA

Muayyan muassasa (tarkibiy qism) rahbariga xizmat faoliyati bilan aloqador muhim masalalar yuzasidan yoki yuqori, mansabdor shaxsga biron-bir voqea va hodisa haqida xabardor qilish zarurati tug'ilganda taqdim etiladigan mufassal yozma axborot **bildirishnoma** deyiladi. Unda, odatda, bayon qilinayotgan masalalar bo'yicha tuzuvchi(yozuvchi)ning takliflari aks etadi.

Kimga yo'llanganiga qarab bildirishnoma ichki va tashqi turlarga ajraladi.

I c h k i b i l d i r i s h n o m a rahbar shaxs yoki bo'lim mudiri nomiga yoziladi. Bunday bildirishnomalar muallif tomonidan imzolanadi.

T a s h q i b i l d i r i s h n o m a, ya'ni rahbar tomonidan yuqori idoraga yoki mansabdor shaxsga yoziladigan bildirishnoma, odatda xos ish qog'oziga ikki nusxada yoziladi. Hujjatning ikkinchi nusxasi muassasaning o'zida qoldiriladi. Bunday bildirishnoma rahbar tomonidan imzolanadi.

Bildirishnoma tayyorlayotgan shaxsning xulosa va takliflari aniq, ravshan va ishonarli bo'lmog'i kerak.

Agar bayon qilinayotgan malumotlar aniq sana yoki vaqtga tegishli bo'lsa, bu sana yoki vaqt matn oldidan ko'rsatilishi lozim. Masalan: 2015-yil 10-oktabrdagi holatga ko'ra kabi.

Bildirishnoma shakli:

Matn sarlavhasi ...haqida	<i>Xabar yo'llangan idora, rahbarning lavozimi va to'liq nomi+ga yo'llovchi shaxs lavozimi, to'liq nomi+dan</i>
Matn	BILDIRISHNOMA
<i>Topshirilgan vazifa va unga aloqador masalalar haqida axborot bayoni, dovasi bo'lsa, Uova royxati beriladi.</i>	
<i>Bildirishnoma tayyorlagan shaxs(lar) lavozimi (imzo) (ismi, familiyasi)</i>	
sana	

Bildirishnoma namunasi:

Zamonaviy til o'rgatish xonasining tashkil etilishi haqida	Toshkent kimyo-texnologiya instituti ilmiy ishlar va axborot texnologiyalari bo'yicha prorektor prof. A.Ikromovga
	BILDIRISHNOMA
Kutubxona mudirasi (imzo) S. Usmonova	

Topshiriqlar:

1. Quyidagi so'z va so'z birikmalarini daftaringizga ko'chiring va ma'nolarini izohlang, so'ngra ulardan foydalanib, o'z tarjimai holingizni yozing.

Dehqon oilasida tug'ildim, savdo uyushmasi raisi, bo'lim mudiri vazifasida ishlaydi, maktabni tamomladim, o'qishga kirdim, lavozimida ishladim, a'zosiman, qatnashaman, uylanganman, turmush o'rtog'im, jamoat ishi, saylanganman.

1. So'z birikmalarini daftaringizga ko'chirib oling va eslab qoling.

Masalani o'rganib chiqdim, sizning ko'rsatmangizga binoan, o'z vaqtida bajarildi, ahvoli haqida, chora ko'rishingizni so'rayman, qiyinchilikka, duch kelmoqdamiz, masalani ijobiy hai etilishini so'raymiz, zarur deb hisoblaymiz, qonun oldida javob berishini so'rayman,

yotoqxonaga tekshirilganda, qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda, sharoit yo‘qligi sababli, berilgan vazifani muddatidan oldin bajardim.

Vazifa:

Ma‘lumot-axborot hujjatlari turlarini “Klaster” usuli orqali yoritish.



TAVSIFNOMA

Ma‘lum bir shaxsning mehnat va ijtimoiy faoliyati, shuningdek uning o‘ziga xos xislat va fazilatlarini aks ettiruvchi rasmiy hujjat **tavsifnoma** deyiladi.

Tavsifnoma muassasa ma‘muriyati yoki jamoat tashkilotlari (agar ular mavjud bo‘lsa) tomonidan xodimga bir qancha maqsadlar uchun (o‘quv yurtiga kirishda, xorijiy mamlakatlarga ishlash va boshqa yumushlar uchun ketishda, lavozimga tayinlashda yoki shahodatlashtirish va boshqa hollarda) beriladi.

Tavsifnomada xodimning jamoatchilik va xizmat faoliyati, uning ishchanligi va axloqiy sifatleri ham ko‘rsatib o‘tiladi.

Tavsifnomaning birinchi qismida shaxsning mehnat faoliyati, ya‘ni mutaxassisligi, aynan shu korxonaga, tashkilot va boshqa joylarda qaysi muddatdan buyon ishlayotganligi, xizmat vazifasidagi o‘zgarishlar va boshqalar haqida ma‘lumot beriladi.

Ikkinchi qismda xodimning shaxsiy tavsifi, ya‘ni ishga munosabati, mutaxassislik bo‘yicha mahorati, siyosiy saviyasi, tashkilotchilik qobiliyati, jamoat ishlarida ishtiroki, oilaviy ahvoli, hulq-atvori, hatto ba‘zida siyrati, jamoa a‘zolariga munosabati, qanday mukofotlarga sazovor bo‘lganligi va boshqa asosiy rag‘batlantirishlari qayd etiladi. Xolis bo‘lish uchun kamchiligi ham ko‘rsatilib, istak bildiriladi.

Uchinchi qismda esa yuqorida bayon qilinganlardan xulosa chiqariladi va tavsifnoma qanday maqsadda yoki nima uchun berilayotganligi ko‘rsatiladi.

Tavsifnoma matni uchinchi shaxs tomonidan bayon qilinadi.

Tavsifnomada tavsiflanayotgan shaxs haqidagi malumotlar bir-biridan vergul bilan ajratib yoziladi. Masalan: ...ning 2- bosqich talabasi, 1988-yilda tug‘ilgan, o‘zbek... kabi.

Tavsifnoma namunasi

TKTI Yoqilg‘i va organik birikmalar kimyoviy texnologiyasi fakulteti 4-kurs 18-16-guruhi talabasi, 1995-yilda tug‘ilgan, o‘zbek, Mirzayev Bobur Mohirjonovichga

TAVSIFNOMA

Bobur Mirzayev Toshkent kimyo-texnologiya instituti qoshidagi akademik litseyini a‘lo baholar bilan tugatgach, 2013-yilda TKTI ning “Neft va gazni qayta ishlash” yo‘nalishiga hujjat topshirdi va test sinovlaridan yuqori ball to‘plab, kontrakt-to‘lov asosida o‘qishga qabul qilindi.

O‘qishga kirgan dastlabki kunlardan boshlab o‘z qobiliyati bilan boshqa talabalardan ajralib turdi. Barcha fanlardan yaxshi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga ega bo‘ldi. Jamoat ishlarida faol qatnasha boshladi. Institut «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati a‘zosi sifatida talabalar o‘rtasida bir qator ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni o‘tkazdi.

U ingliz tilini yaxshi biladi, erkin gaplasha oladi. Bu tildagi ilmiy ma‘ruzasi bilan institut fan haftaligida o‘tkazilgan ilmiy anjumanda qatnashdi va faxrli II o‘rinni egalladi. Ilmiy yo‘nalishdagi ma‘ruzasi Buyuk Britaniyaning Manchestr universiteti rahbariyati tomonidan munosib taqdirlandi.

U – yaxshi sportchi. Fakultet futbol jamoasi a‘zosi.

Bobur Mirzayev o‘z ustida tinmay ishlaydi, a‘lochi va iqtidorli talaba sifatida institut talabalari orasida yaxshi obro‘ga ega. U doimiy ravishda o‘z malakasini, siyosiy-ma‘naviy va huquqiy saviyasini oshirish ustida qat‘iyat bilan ishlaydi.

B.Mirzayev – kamtarin, to‘g‘riso‘z, do‘stlarga nisbatan g‘amxo‘r va mehribon, ulardan o‘z yordamini ayamaydi.

Tavsifnoma «El-yurt umidi» jamg‘armasi tashkil etgan Buyuk Britaniya Manchestr universitetiga talabalikka yuborish uchun o‘tkazilayotgan tanlov tashkiliy hay‘atiga taqdim etildi.

TKTI rektori imzo
muhr

Sh.A.Mutalov
sana

Topshiriqlar:

1-topshiriq. Insonga xos belgi-xususiyatni ifodalovchi so‘zlarni ijobiy va salbiy munosabat bildirishga ko‘ra ikki ustunga ajratib ko‘chiring.

Halol, g‘amxo‘r, maqtanchoq, samimiy, sipo, qo‘pol, mas‘uliyatsiz, e‘tiborli, mehribon, loqayd, jamoat ishlari sust, to‘g‘riso‘z, beparvo, dangasa, talabchan, ko‘ngilchan, shirin so‘z, janjalkash, tashabbuskor, andishali, indamas, odamovi, kishilarga aralashmaydigan, obro‘li, ginachi, sovuqqon, qobiliyatli, bilimi bo‘sh, iqtidorli.

2-topshiriq. a) xodim (talaba)ning ish (o‘qish)ga munosabatini ifodalovchi quyidagi so‘z va so‘z birikmalarini o‘z misollaringiz bilan to‘ldirib, daftaringizga ko‘chiring.

Vijdonli, mehnatsevar, tashabbuskor, ishni o‘z vaqtida bajaradigan, ongli, dunyoqarashi keng, siyosiy yetuk, o‘zi va o‘rtoqlariga talabchan, o‘z ishini yaxshi biladigan, intizomli, hozirjavob, mas‘uliyatli

b) ushbu so‘z va qoliplashgan so‘z birikmalaridan foydalanib guruhdoshingiz (o‘qituvchingiz)ning o‘z ishiga munosabatini yorituvchi tavsifnoma matnini tayyorlang.

Vazifa: Do‘stingizga (dugonangizga) tavsifnoma yozing.

Test topshiriqlari

1. Panopm so‘zining o‘zbekcha muqobilini toping.

- A) taqdimnoma
- B) tavsifnoma
- C) bildirishnoma
- D) dalolatnoma

2. Характеpucmuka so‘zining o‘zbekcha muqobilini toping.

- A) tavsiyanoma
- B) tavsifnoma
- C) taqdimnoma
- D) so‘rovnoma

3. Kpumuka so‘zining o‘zbekcha muqobilini toping.

- A) taqlid
- B) tanqid
- C) tadqiq
- D) ta‘kid

4. Jamiyatning barcha a‘zolari yozishi mumkin bo‘lgan hujjat turlarini belgilang.

- A) ma‘lumotnoma, ariza, e‘lon

- B) tushuntirish xati, tilxat, hisobot
 C) ishonchnoma, tilxat, ariza
 D) tarjimayi hol, e'lon, shartnoma
5. Tavsifnoma nima?
 A) o'z shaxsiy hayoti va faoliyatini bayon qiladigan hujjat
 B) ma'muriyat yoki shaxs tomonidan beriladigan, shaxsning xususiyatlari qayd etiladigan rasmiy hujjat
 C) shaxsning mehnat va ijtimoiy faolyati o'ziga xos xislat va fazilatni aks ettiruvchi hujjat
 D) muassasa tomonidan fuqarolarning turmushi va ish faoliyatidagi voqea-hodisalar va holatlarni tasdiqlab beruvshi rasmiy hujjat
6. Bo'lgan voqea yoki mavjud holatlarni ifodalaydigan hujjat?
 A) Tarjimayi hol
 B) Ishonchnoma
 C) Ma'lumotnoma
 D) Bildirishnoma
7. Qaysi holatlarda bildirishnoma yoziladi?
 A) voqea-hodisalar haqida xabardor qilish, ayrim masalalarga xulosa va takliflar berishda
 B) voqea, hodisalar yoki mavjud holatni huquqiy jihatdan isbotlash yoki tasdiqlashda
 C) sodir etilgan ba'zi hatti-harakatlar isbotlab tushuntirilganda
 D) rejalashtirilgan topshiriqlarning bajarilishi haqida ma'lumot berilganda.
8. Qaysi holatlarda bildirishnoma yoziladi?
 A) voqea-hodisalar haqida xabardor qilish, ayrim masalalarga xulosa va takliflar berishda
 B) voqea, hodisalar yoki mavjud holatni huquqiy jihatdan isbotlash yoki tasdiqlashda
 C) sodir etilgan ba'zi hatti-harakatlar isbotlab tushuntirilganda
 D) rejalashtirilgan topshiriqlarning bajarilishi haqida ma'lumot berilganda.
9. Akm so'zining o'zbekcha muqobilini belgilang.
 A) bildirishnoma
 B) ishonchnoma
 C) so'rovnoma
 D) dalolatnoma
10. Tavsifnoma nima?
 A) o'z shaxsiy hayoti va faoliyatini bayon qiladigan hujjat
 B) ma'muriyat yoki shaxs tomonidan beriladigan, shaxsning xususiyatlari qayd etiladigan rasmiy hujjat
 C) shaxsning mehnat va ijtimoiy faolyati o'ziga xos xislat va fazilatni aks ettiruvchi hujjat
 D) muassasa tomonidan fuqarolarning turmushi va ish faoliyatidagi voqea-hodisalar va holatlarni tasdiqlab beruvshi rasmiy hujjat

42-mavzu. ISHONCHNOMA. TILXAT. TUSHUNTIRISH XATI

Rasmiy va shaxsiy ishonchnomalar. Tilxatning zaruriy qismlari va uni tuzuvchi shaxslar. Tushuntirish xatining turlari.

Yozma nutq: Tilxat matnini tuzish. Tushuntirish xati yozish.

Tayanch soʻz va iboralar: rasmiy ishonchnoma, shaxsiy ishonchnoma, tilxat matni, tushuntirish xati.

Muayyan muassasa yoki ayrim shaxs oʻz nomidan ish koʻrish uchun ikkinchi bir shaxsga ishonch bildiradigan yozma vakolatli hujjat **ishonchnoma** hisoblanadi. Muayyan ish-harakatni bajarishga vakolat berish kim tomondan (muassasa tomonidanmi yoki ayrim shaxs tomonidanmi) rasmiylashtirilishiga qarab, ishonchnomalar rasmiy (xizmat) va shaxsiy turlarga boʻlinadi.

Rasmiy (xizmat sohasidagi) ishonchnomalar davlat muassasalari, kasaba uyushmasi, jamoa xoʻjaligi, jamoat tashkilotlari muayyan lavozimli shaxsga uning muayyan tashkilot tomonidan ish yuritishga vakil qilinganini bildirish uchun beriladi. Bunday ishonchnomalar muassasa rahbari tomonidan imzolanishi va muhr bilan tasdiqlanishi kerak.

Rasmiy ishonchnomalarda ularning amal qilish (oʻz kuchini saqlash) muddati, albatta, koʻrsatilgan boʻladi. Ular bir necha kundan bir necha yilgacha boʻlgan (lekin uch yildan ortiq boʻlmagan) muddat uchun berilishi mumkin. Agar ishonchnomada uning amal qilish muddati aniq koʻrsatilmagan boʻlsa, bunday hollarda u berilgan kundan boshlab bir yil davomida oʻz kuchini saqlaydi. Berilgan kuni koʻrsatilmagan ishonchnoma haqiqiy emas.

Iшонchnomalarning ikkinchi xili shaxsiy, yaʼni ayrim shaxs tomonidan boshqa bir shaxsga muayyan ishni bajarish uchun ishonch bildirib berilgan yozma hujjatdir. Muayyan tashkilotdan pul yoki qimmatbaho buyum, zaruriy hujjatlar olish, avtomobilni boshqarish, oldi-sotdi shartnomalarini rasmiylashtirish, mulkni boshqarish va boshqa xususiy ishlarni bajarish uchun ishonch bildiriladi.

Shaxsiy ishonchnomalar ayrim shaxslar tomonidan oʻziga tegishli pul yoki qimmatbaho narsalarni borib olish uchun ishongan kishisiga ishonch bildirib yozgan hujjatidir. Bunday ishonchnoma vakolat beruvchining ish joyi (ishlamagan taqdirda mahalla qoʻmitasi) tomonidan muhr bilan tasdiqlanishi lozim.

Pul, hujjat, qimmatbaho buyumlar yoki boshqa biror narsa olinganligini tasdiqlovchi rasmiy yozma hujjat **tilxat** deyiladi.

Tilxat bir nusxada tayyorlanadi hamda pulli va qimmatbaho hujjat sifatida saqlanadi.

Olinadigan pul miqdori yoki buyumning bahosi va uning soni tilxatda raqamlar bilan koʻrsatiladi, qavs ichida esa soʻzlar bilan ham berilishi shart.

Matn va imzo oraligʻidagi boʻsh joylar chiziladi. Tilxatdagi yozuvlarni oʻchirish yoki tuzatish mumkin emas, aks holda, bunday hujjatning haqiqiyliги shubha ostiga olinishi mumkin.

Baʼzan tilxatda guvohlar ismi-sharifi ham koʻrsatiladi. Bunday hollarda guvohlar oʻz imzolari bilan hujjatni tasdiqlashlari kerak.

Tushunirish xatlari asosan xodim (ishchi, xizmatchi, jamoa xoʻjaligi aʼzosi, talaba) tomonidan, baʼzan boʻlinmalar rahbarlari tomonidan muassasa rahbari nomiga yoziladi. Unda ish (oʻqish) jarayonida xodim (talaba) tomonidan sodir etilgan baʼzi hatti-harakatlar (masalan, ish yoki oʻqishga kech qolish, kelmay qolish, reja yoki ayrim topshiriqlarni bajarmaganlik, belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilmaganlik va boshqalar) va ularning sabablari izohlanadi, dalillanadi.

Tushunirish xatlari odatda mansabdor (rahbar) shaxsning talabi bilan yoziladi, chunki u keyinchalik xodim haqida muayyan qarorga kelish, unga nisbatan tegishli intizomiy jazo chorasini qoʻllash yoki, dalillar asosli (uzrli) boʻlsa, qoʻllamaslik uchun asos vazifasini oʻtashi mumkin.

Tushuntirish xati xodim (talaba)ning oʻz dastxati bilan yozilib, yozuvchi shaxs nomi qaratqich kelishigida (masalan: N. Sobirovning tushuntirish xati) rasmiylashtiriladi. Matn mazmuni aniq va ixcham tuziladi, sana va dalillar aniq koʻrsatiladi, yetarlicha izohlanadi, qoʻshimcha asoslov hujjatlari ilovada beriladi.

ISHONCHNOMA

Shaxsiy ishonchnoma shakli:

ISHONCHNOMA

Men, (ishonch bildiruvchining to'liq nomi), (ishonchli shaxsning to'liq nomi)-ga (qavsda pasportining ma'lumotlari) ishonch mazmuni, ya'ni topshirilayotgan vazifa bayoni (ba'zan muddati ham) ... **uchun ishonch bildiraman.**

yozilgan sanasi (imzo) ismi, familiyasi
Iшонch bildiruvchining imzosi tasdiqlanganligi to'g'risidagi qayd
Imzoni tasdiqlagan shaxsning lavozimi, imzosi, ismi va familiyasi
yumaloq muhr
sana

Shaxsiy ishonchnoma namunasi:

ISHONCHNOMA

Men, NMTF 7-15 guruhi talabasi Yo'ldoshev Kamoliddin, guruhdoshim Murodov Baxtiyorga (SA seriyadagi 2455664 raqamli 2014.18.04.da Chilonzor tumani IIB tomonidan berilgan pasportga ega) institut kassasidan menga tegishli 2017-yil sentabr oyi stipendiyasini olish uchun ishonch bildiraman.

2017-yil 25-avgust (imzo) K. Yo'ldoshev.

K. Yo'ldoshev imzosini tasdiqlayman.

NMTF dekani

(imzo) dots.L.A.Ismoilova

2017-yil 25-avgust

Topshiriqlar:

1. Matnda tushirib qoldirilgan qo'shimchalarni to'g'ri topib qo'ying va shaxsiy ishonchnoma namunasini daftaringizga ko'chiring.

ISHONCHNOMA

Men, Kamol Yo'ldoshev, guruhdosh... Abdulla Ahmedovga (pasport ma'lumotlari) Chilonzor tumanidagi 64-aloqa bo'lim... men... nom... kelgan 150000 (bir yuz ellik ming) so'm miqdoridagi pul jo'natma... ol... uchun ishonch bildir...

(imzo) K. Yo'ldoshev.

2017-yil 5-may

K. Yo'ldoshev imzosini tasdiqlayman.

Institut kadrlar bo'limi boshlig'i

(muhr)

(imzo) A Shukurov.

E'tibor bering va esda saqlang:

ishonch bildiradi (kim?) – Men, Kamol Yoidoshev, ...

ishonch bildiradi (kinga?) – Abdulla Ahmedovga ...

ishonch bildiradi (nimani?) – pul jo'natmasini

(qayerdan?) – 64 - aloqa bo'limidan ...

2. Quyidagi so'z va so'z birikmalari yordamida ishonchnoma yozing.

Iшонchnoma tuzmoq, pul jo'natmasini olmoq, xizmat safari, mart oyi uchun, nomimga kelgan, ishonch bildirmoq, vakolat bermoq, kursdoshimga, menga tegishli, huquqini bermoq, imzo

qo'yishga, shartnoma tuzishga, uyushma kassasidan, pasportga ega, betobligim tufayli, imzosini tasdiqlamoq, bir yillik muddatga berildi.

TILXAT

Pul, hujjat, qimmatbaho buyumlar yoki boshqa biror narsa olinganligini tasdiqlovchi rasmiy yozma hujjat **tilxat** deyiladi.

Tilxat bir nusxada tayyorlanadi hamda pulli va qimmatbaho hujjat sifatida saqlanadi.

Olinadigan pul miqdori yoki buyumning bahosi va uning soni tilxatda raqamlar bilan ko'rsatiladi, qavs ichida esa so'zlar bilan ham berilishi shart.

Matn va imzo oralig'idagi bo'sh joylar chiziladi. Tilxatdagi yozuvlarni o'chirish yoki tuzatish mumkin emas, aks holda, bunday hujjatning haqiqiyli shubha ostiga olinishi mumkin.

Ba'zan tilxatda guvohlar ismi-sharifi ham ko'rsatiladi. Bunday hollarda guvohlar o'z imzolari bilan hujjatni tasdiqlashlari kerak.

Tilxat shakli

TILXAT

Men, (tilxat beruvchining lavozimi, ismi, ota ismi, familiyasi), (biror narsa beruvchining lavozimi, ismi ota ismi va familiyasi) –**dan** (olgan narsasining nomi, miqdori, zarur bo'lganda bahosi, texnik holati) **oldim.**

Sana (imzo) ismi, familiyasi

Tilxat shakli:

TILXAT

Men, (tilxat beruvchining lavozimi, ismi, ota ismi, familiyasi), (biror narsa beruvchining lavozimi, ismi ota ismi va familiyasi) –**dan** (olgan narsasining nomi, miqdori, zarur bo'lganda bahosi, texnik holati) **oldim.**

Sana (imzo) ismi, familiyasi

Tilxat namunasi:

TILXAT

Men, Huvaydo mebellar uyi ombori mudiri Sanjar Hakimov, mebellar uyiga kelgan 2 (ikki)ta yotoqxona to'plami, 3 (uch)ta oshxona to'plami, 6 (olti)ta yumshoq mebellar to'plamini Huvaydo mebel ishlab chiqarish korxonasining tayyor mebellar ombori mudiri Ravshan Saidovdan qabul qilib oldim.

2017.14.05 (imzo) S.Hakimov



Savollar:

1. Tilxatdagi yozuvlarni nega o'chirish yoki tuzatish mumkin emas?
2. Tilxat notarial idoralarida tasdiqlanishi shart bo'lgan holatlarni izohlang.
3. Buyum yoki pul miqdori tilxatda qanday ko'rsatiladi?
4. Qaysi holatda tilxat matnida guvohlar ko'rsatiladi?

TUSHUNTIRISH XATI

Tushunirish xatlari asosan xodim (ishchi, xizmatchi, jamoa xo'jaligi a'zosi, talaba) tomonidan, ba'zan bo'linmalar rahbarlari tomonidan muassasa rahbari nomiga yoziladi. Unda ish (o'qish) jarayonida xodim (talaba) tomonidan sodir etilgan ba'zi hatti-harakatlar (masalan, ish yoki o'qishga kech qolish, kelmay qolish, reja yoki ayrim topshiriqlarni bajarmaganlik, belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilmaganlik va boshqalar) va ularning sabablari izohlanadi, dalillanadi.

Tushunirish xatlari odatda mansabdor (rahbar) shaxsning talabi bilan yoziladi, chunki u keyinchalik xodim haqida muayyan qarorga kelish, unga nisbatan tegishli intizomiy jazo chorasini qo'llash yoki, dalillar asosli (uzrli) bo'lsa, qo'llamaslik uchun asos vazifasini o'tashi mumkin.

Tushuntirish xati xodim (talaba)ning o'z dastxati bilan yozilib, yozuvchi shaxs nomi qaratqich kelishigida (masalan: N. Sobirovning tushuntirish xati) rasmiylashtiriladi. Matn mazmuni aniq va ixcham tuziladi, sana va dalillar aniq ko'rsatiladi, yetarlicha izohlanadi, qo'shimcha asoslov hujjatlari ilovada beriladi.

Tushuntirish xati shakli:

*tashkilot nomi, rahbarning laborimi,
ismi, familiyasi+ga
tushuntirish xati yozuvchining tavolimi,
ismi familiyasi+ning*

TUSHUNTIRISH XATI

O'qish (ish)ga kelganligi, topshiriqni bajarmaganligi va boshqa holatlarning sababi izohlanadi.

Asoslovchi hujjat bo'lgan taqdirda ilova etilganligi bildiriladi.

(Ilova:)

sana (imzo) ismi, familiyasi

Tushuntirish xati namunasi:

*TKTI MKTF dekani prof.
G'.X.Hamroqulovga
3-kurs 43-15 MT guruhi talabasi Saidov
Muzaffarning*

TUSHUNTIRISH XATI

Men kasalligim tufayli 3-bosqichning V semestri uchun rejalashtirilgan fanlardan yakuniy baholash ishlarini belgilangan vaqtda topshira olmadim.

(Ilova:)

sana (imzo) ismi, familiyasi

Topshiriq: Quyidagi qoliqlashgan birikmalarni daftaringizga ko'chirib oling va xotirangizda saqlab qoling. Bu birikmalardan foydalanib, o'quv mashg'ulotlariga qatnashmaganingiz sababi to'g'risida tushuntirish xati yozing.

Zaruriyat tufayli, betobligi sababli, shifoxonada davolanayotganligi uchun, nosozligi tufayli, yomon tashkil etilganligi sababli, joriy etilganligi munosabati bilan, imkoniyati yo'qligi tufayli, vafot etganligi sababli, ob-havo noqulayligi uchun, o'zgarganligi munosabati bilan, xabar berilmaganligi sababli, e'tiborsizlik tufayli, ruxsat berilmaganligi sababli.

Test topshiriqlari

1. Объяснительная записка birikmasining o'zbekcha muqobilini belgilang.
 - A) xizmat xati
 - B) kafolat xati
 - C) da'vo xati
 - D) tushuntirish xati
2. Biror narsa olinganligini tasdiqlovchi rasmiy hujjat nima deyiladi?
 - A) ishonchnoma
 - B) bildirishnoma
 - C) tilxat
 - D) tushuntirish xati
3. O'z nomidan ish ko'rish uchun yoziladigan vakolatli hujjat nima deb yuritiladi?
 - A) bildirishnoma
 - B) shartnoma
 - C) dalolatnoma
 - D) ishonchnoma
4. Ishonchnoma qanday hujjat?
 - A) Bo'lgan voqea yoki mavjud holatlarni ishonch berib ifodalaydigan hujjat
 - B) Muayyan muassasa yoki ayrim shaxs o'z nomidan ish ko'rish uchun ikkinchi bir shaxsga ishonch bildiradigan yozma vakolatli hujjat
 - C) Shaxsning xizmat va boshqa holatlarini, biror ishga oid vakolatini shonch berib ko'rsatuvchi hujjat
 - D) Xodim boshqa ishga o'tkazilayotganda ishonch bildirib beriladigan hujjat
5. O'z nomidan ish ko'rish uchun yoziladigan vakolatli hujjat nima deb yuritiladi?
 - A) bildirishnoma
 - B) dalolatnoma
 - C) ishonchnoma
 - D) kafolat xati
6. Shaxsiy tushuntirish xatining yozilish sabablari -
 - A) Xodim ishga besabab kelmaganda, kech kelganda
 - B) Reja yoki topshiriqlarni bajarmaganda
 - C) Belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilmaganda
 - D) Barcha javoblar to'g'ri
7. Axborot xat, kafolat xati bu -
 - A) farmoyish hujjatlaridir
 - B) tashkiliy hujjatlardir
 - C) xizmat yozishmalaridir
 - D) ma'lumot-axborot hujjatlaridir
8. Buyruq qanday hujjat?
 - A) Amaliy masalalar yuzasidan chiqariladigan hujjat
 - B) Axborot-metodik tUSDagi hujjatlarning ijrosi bilan bog'liq masalalar yuzasidan chiqariladigan hujjat
 - C) Muassasa oldida turgan asosiy va kundalik vazifalarni hal qilish maqsadida chiqariladigan hujjat

D) Farmoyish, taklif mazmunida yoziladigan hujjat

9. Bosma ish qog'oziga yoziladigan hujjatlar berilgan qatorni aniqlang.

- A) ishonchnoma, farmoyish
- B) ma'lumotnoma, shartnoma
- C) dalolatnoma, buyruq
- D) tarjimayi hol, tavsifnoma

10. Buyruq, ko'rsatma, farmoyish kabi hujjatlar xizmat mavqeyiga ko'ra qanday hujjatlar hisoblanadi?

- A) tashkiliy hujjatlar
- B) farmoyish hujjatlar
- C) ma'lumotsimon-axborot hujjatlar
- D) shaxsiy hujjatlar

43-mavzu. DALOLATNOMA. MA'LUMOTNOMA

Dalolatnomaning zaruriy qismlari va uni tuzuvchi shaxslar. Ma'lumotnoma turlari. Ma'lumotnomani rasmiylashtirish.

Yozma nutq: Talabalar guruhining o'zlashtirish ko'rsatkichlari haqida ma'lumotnoma tuzish.

Tayanch so'z va iboralar: dalolatnoma matni, ma'lumotnoma matni, ma'lumotnoma turlari.

Dalolatnoma

Muassasa yoki ayrim shaxslar faoliyati bilan bog'liq biron-bir o'tgan (sodir bo'lgan) voqea, hodisa, ish-harakatni yoki mavjud holatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida bir necha kishi tomonidan tuzilgan hujjat **dalolatnoma** deyiladi. Dalolatnoma tuzishda asosiy maqsad sodir bo'lgan voqea-hodisalarni yoki mavjud holatni qonuniy-huquqiy jihatdan isbotlash yoki tasdiqlashdir.

Dalolatnomalar tegishli taftish o'tkazilgandan keyin, rahbarlik almashayotganda, moddiy boyliklarni bir xususiy yoki yuridik shaxsdan ikkinchisiga o'tkazishda, qurib tugallangan inshootlarni qabul qilishdan oldin va keyn, mashina va uskunalarning yangi nusxalarini sinovdan o'tkazish chog'ida, qimmatdor buyumlarni hisobdan o'tkazish yoki hisobdan chiqarishda, tovarlarni miqdor va sifat bo'yicha qabul qilib olishda, baxtsiz hodisalar yoki tabiiy ofatlar oqibatini tekshirishda, sud-tergov ishlari va tibbiyot sohasida, xodimlarning moddiy, yashash sharoitlarini o'rganishda va boshqa hollarda tuziladi.

Dalolatnoma matnining sarlavhasi «...haqida» shaklida yoki bosh kelishikda («...-ish ahvoli») yoziladi. Asosiy matn esa kirish va tasdiq (qayd) qismlaridan iborat bo'lishi lozim.

Kirish qismida hujjat tuzilishiga asos bo'lgan holat ko'rsatiladi, komissiya tarkibi to'liq yoziladi. Tasdiq qismida komissiya tomonidan amalga oshirilgan ishlar qayd etiladi, aniqlangan holatlar yuzasidan taklif va xulosalar beriladi. Matn so'ngida dalolatnomaning necha nusxada (odatda uch nusxa) tayyorlangani ko'rsatilishi lozim.

Dalolatnomaning zaruriy qismlari asosida matn quyidagi tartibda joylashtiriladi:

Vazirlik, yuqori idora, muassasa nomi	TASDIQLAYMAN (TASDIQLANGAN)
--	--------------------------------

(Imzo) Familiya

DALOLATNOMA

Sana

sana

Matn sarlavhasi

("...haqida") tuzilgan joyi

Asos: (muassasa rahbarining (sanadagi) - raqamli buyrug'i yoki yuqori idoraning - ... raqamli qarori).

Raisi (shaxs lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiya).

A`zolari:

1. (lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi).
2. (lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi).
3. (lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasidan iborat komissiya tomonidan (shaxs yoki shaxslar) lavozimi, ism-familiyasi) ishtirokida tuzildi.

MATN

Ilovalar

Komissiya raisi (imzo)

Ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi

Komissiya a`zolari (imzolar)

Ismi va ota ismining bosh harflari, familiyalar

Ishtirok etganlar (imzolar)

Ismi va ota ismining bosh harflari, familiyalar

Dalolatnoma namunasi

Tasdiqlayman

Yangiobod fermer xo'jaligi

raisi _____

S.A.Rahmatov 2008-yil 25-may

2008-yil 25-may

"Moybuloq" qishlog'i

Yangiobod fermer xo'jaligi bosh hisobchisining ishni topshirishi haqida

Dalolatnoma

Asos: fermer xo'jaligi raisining 2005-yil 17-maydagi 116-raqamli buyrug'i.

Fermer xo'jaligining sobiq bosh hisobchisi I.Rasulov va yangi tayinlangan bosh hisobchi S.Ikromovlar tomonidan, fermer xo'jaligi hisobxona xodimi R.Bozorov va ish yurituvchi R.S.Tojiyevlar ishtirokida tuzildi.

Fermer xo'jaligining bosh hisobchisi bo'lib ishlagan I.Rasulov ishni topshirdi, S.Ikromov qabul qilib oldi.

Qabul qilib olingan narsalar:

1. Fermer xo'jaligida ishlovchi barcha a'zolarining shaxsiy hujjatlari (ro'yxat ilova qilinadi).

2. Fermer xo'jaligi a'zolarining mehnat daftarchalari.

3. 2005-2008-yillar uchun 81 hujjat (ro'yxat ilova qilinadi).

4. Fermer xo'jaligining davlat gerbi aks ettirilgan muhr.

Dalolatnoma uch nusxada tuzildi:

1-nusxa - fermer xo'jaligi bosh hisobchisiga.

2-nusxa - fermer xo'jaligi hujjatlar yig'ma jildiga solib qo'yish uchun.

3-nusxa - ishni topshirgan xodimga.

Ishni topshirdim

(imzo)

I.Rasulov

Ishni qabul qilib oldim

(imzo)

S.Ikromov

Ishtirok etganlar:

(imzo)

R.Bozorov

(imzo)

R.Tojiyev

Vazifa: Yuqorida berilgan namunadan foydalangan holda dalolatnoma yozishga harakat qiling.

Topshiriq:

1. Quyidagi so'z va so'z birikmalarini ko'chirib oling va yodda saqlang.

Tuzildi, ishtirok etganlar, dalolatnoma, ishni topshirish haqida, asos, yangi tayinlangan xodim, ishtirokida tuzildi, tomonidan, ishni topshirdi, qabul qilib oldi, aniqlandi, 3 nusxada tuzildi, ishni topshirdim, ishni qabul qilib oldim, taftish qildim, tekshirildi, aniqlandi, (jihozlar) yetishmasligi qayd etildi, ish haqidan ushlab qolinsin, ko'rsatib o'tilsin, moddiy javobgar.

2. Quyidagi so'z va so'z birikmalari asosida gaplar tuzing va daftaringizga yozing.

Dalolatnoma, nusxa, yo'qlama qilish, buyruqqa asosan, moddiy mulk, tuzildi, ko'rsatib o'tilsin, ish haqidan ushlab qolinsin.

Ma'lumotnoma

Bo'lgan voqea yoki mavjud holatlarni bildirish-axborot berish mazmunida ifodalaydigan hujjat **ma'lumotnoma** deyiladi. Ma'lumotnoma o'z xususiyati va mazmuniga ko'ra ikkiga: xizmat ma'lumotnomasi va shaxsiy ma'lumotnomaga bo'linadi.

X i z m a t m a ' l u m o t n o m a s i - muassasa faoliyatiga doir voqea-hodisalarni rasmiy ravishda aks ettiradi va tasdiqlaydi, axborot xususiyatiga ega bo'lgan xilma-xil ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, zarur hollarda esa raqamli jadvallar ko'rinishida tayyorlanadi. Taqdim etilayotgan ma'lumotlar ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyat, xodim (shtat)lar soni, topshiriqlarning bajarilishi, moddiy-tovar boyliklarining saqlanishi, mehnat intizomining ahvoli haqida va boshqa xilma-xil masalalar to'g'risida hozirlanadi.

Bunday ma'lumotlarga matn mazmunini ochuvchi sarlavha qo'yilishi lozim. Masalan: «Kontrakt to'lov asosida tahsil olayotgan talabalar soni haqida» kabi. Sarlavhadan so'ng (ba'zan

uning tarkibida) xabarga oid sana ko'rsatiladi. Masalan: «2009- yil 1-oktabrdagi holatga ko'ra» kabi.

S h a x s i y m a ' l u m o t n o m a - muassasalar tomonidan fuqarolarning turmushi va ish faoliyatidagi aksar voqea-hodisalar va holatlarni tasdiqlab beradigan hamda talab qilingan joylarga ko'rsatiladigan rasmiy hujjatdir. Shaxsiy ma'lumotnomalar quyidagilarga berilishi mumkin:

- muassasa xodimga uning qayerda, kim bo'lib va qancha maosh olib ishlashi haqida;
- o'quvchi va talabaga esa qayerda o'qishi haqida;
- fuqarolik holatlari hujjatlarini qayd qilish (FHHQ - ZAGS);
- notarial idoralari hamda fuqarolar yig'inlari raislari shaxsning tug'ilganligi yoki vafot etganligi to'g'risida nikoh bo'lganligi yoki ajralganligi haqida (hujjatlar yo'qolganda);
- tuman va shahar ijtimoiy ta'minot bo'limi shaxsning nogironligi, nafaqasining miqdori, avtomobilga ega emasligi haqida;
- shifoxonalar kishining sog'lig'i (kasal emasligi) haqida;
- mahalla qo'mita yig'inlari yoki uy-joy boshqarmalari shaxsning yashash joyi, egallab turgan uy-joyining maydoni yoki oila a'zolarining soni haqida ma'lumotnomalar beradi.

Shaxsiy ma'lumotnomalar muassasa, idoralar tomonidan fuqarolarning oilaviy yoki ish faoliyatidagi holatlarni tasdiqlovchi hujjat sanaladi. Xizmat ma'lumotnomalaridan farqli ravishda shaxsiy ma'lumotnomalarda ular yo'llangan idora yoki shaxs nomi ko'rsatilmaydi. Buning o'rniga matn so'ngida ma'lumotnomaning qayerga berilganligi yoziladi. Masalan: «Uy-joydan foydalanish boshqarmasiga taqdim etish uchun berildi» kabi. Asosiy matnda shaxs haqida barcha ma'lumotlar aniq nisbatdagi hozirgi-kelasi zamon fe'l shakli orqali ifodalanishi lozim (Ishlaydi, yashaydi, o'qiydi kabi).

MA'LUMOTNOMA

Xizmat ma'lumotnomasi shakli:

<i>Jo'natiladigan idora yoki mansabdor shaxs nomi (+ga)</i>
Matn sarlavhasi (...haqida)
MA'LUMOTNOMA
<i>Matn</i>
<i>Voqea, holat yoki vaziyatning aniq ma'lumot va dalillar asosidagi bayoni o'tgan zamon fe'li shakllari orqali beriladi. Ma'lumotnomaga asos bo'lgan narsa-holat ko'rsatiladi.</i>
kotib(a) (imzo) ism, familiyasi
<i>(Moliyaviy ma'lumotlarda) bosh hisohchining imzosi va muhri qo'yiladi</i>

Xizmat ma'lumotnomasi namunasi:

TKTI ma'naviy va axloqiy tarbiya ishlari bo'yicha prorektor <i>dots. T.J.Qodirovga</i>
<i>Talabalar turar joyida yashovchi talabalardan tushgan shikoyatlar haqida</i>
MA'LUMOTNOMA
<i>2016-2017 o'quv yilining ikkinchi yarmida talabalar turar joyida yashovchi 224 ta talabadan 56 ta atiza va shikoyat tushdi. Bulardan 34 tasi ariza va 12 tasi shikoyat hisoblanadi.</i>
<i>Arizalar moddiy ehtiyoj hisoblangan narsa va turli jihozlar berilishini so'rab yozilgan bo'lib, bu ehtiyojlar o'z vaqtida qondirilgan.</i>
<i>Shikoyatlardan 10 tasi ko'rib chiqilgan, 2 tasi ko'rish jarayonidadir. Shikoyatlar</i>

yotoqxonada Nizomi qonun-qoidalariga muvofiq tarzda ko'rib chiqilgan.

Talabalar turar joyi

(imzo)

U.Hazratov

Shaxsiy ma'lumotnoma shakli:

Muassasa va u bo'ysingan yuqori idora nomi, manzili

№ _____ sana

MA'LUMOTNOMA

Ma'lumotnoma berilayotgan shaxsning to'liq nomi, unga oid holat bayoni ixcham beriladi.

Ma'lumotnomaning maqsadi satr hoshidan ko'rsatiladi.

Ma'lumotnoma (qayerga) -ga ko'rsatish (taqdim etish) uchun berildi.

(Mansab, lavozimi nomlari) (imzo) (isini, familiyasi)

Shaxsiy ma'lumotnomalar namunalari:

MA'LUMOTNOMA

O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi Toshkent Kimyo-
texnologiya instituti

Noorganik moddalar fakulteti

Yo'lchiyeva Zilola Toshkent Kimyo-
texnologiya instituti Noorganik moddalar
fakultetining 3-kursida kontrakt-to'lov
asosida o'qiydi.

Ma'lumotnoma tuman ijtimoiy-ta'minot bo'limiga ko'rsatish uchun berildi.

NMTF dekani:

(muhr)

(imzo)

dots.Q.Muhammedov

MA'LUMOTNOMA

Toshkent shahri Olmazor tumani

Qorasaroy ko'chasi,

Sariqsuv mahalla qo'mitasi

Xolmuhammedova Nilufar Jo'rayevna
Toshkent shahar S.Rahimov tumani
Qorasaroy ko'chasi 56-
uyda yashaydi.

Ma'lumotnoma oily o'quv yurtiga ko'rsatish uchun berildi.

Sariqsuv mahalla qo'mitasi raisi:

(imzo) M.B.Zokirova

Topshiriqlar:

1. So'z va birikmalarni quyidagi savollarga javoblar tartibida joylashtiring.

Kim?

Qayerda?

Kim bo'lib?

Nima qiladi?

Tuman soliq nazorati idorasida, ishlaydi, Aziz Ibrohimov, iqtisodchi, o'qiydi, Toshkent Moliya institutida, ikkinchi kurs talabasi, Sho'rtan gaz kimyo majmuasida, bosh muhandis, tadbirkor, Yunusobod savdo markazida, lavozimida, hisoblanadi, dorishunos bo'lib, 18-sonli dorixonada, Buxoro shahar Shofirkon tumanidagi.

2. Berilgan so'z birikmalari ishtirokida namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: Ma'lumotnoma shahar soliq boshqarmasiga taqdim etish uchun berildi.

Oliy o'quv yurtiga, kasaba uyushmasiga, Qo'qon shahridagi 18-o'rta maktab, ma'muriyatga, uy-joylardan foydalanish bolimiga, 316-bolalar bog'chasiga, harbiy komissariatga, tuman ta'minoti boshqarmasiga, texnolog lavozimida, A.Nabiyev ko'chasi 27-uyda, bolalar shifokori lavozimida, kontrakt-to'lov asosida.

Vazifa: O'z guruhdoshlaringizdan uchtasining yashash joylari to'g'risida ma'lumotnoma matnlarini tuzing.

Test topshiriqlari

1. Qaysi hujjat turida hujjatni beruvchi shaxs imzosidan tashqari ushbu imzoni tasdiqlovchi shaxs imzosi ham bo'ladi.

- A) ishonchnoma
- B) dalolatnoma
- C) tavsifnoma
- D) ma'lumotnoma

2. Ma'lumotnoma so'zining tarjimasini toping.

- A) приказ
- B) доверенность
- C) автобиография
- D) справка

3. Rasmiy xat turlari berilgan qatorni belgilang.

- A) kafolat xati, tushuntirish xati
- B) ilova xat, tabrik xati
- C) farmoyish xat, tilxat
- D) iltimos xat, eslatma xat

4. Hujjatlar tayyorlanish xususiyatiga ko'ra qanday bo'ladi?

- A) qoralama, asl nusxa, ikkinchi nusxa, ko'chirma
- B) asl nusxa, ikkinchi nusxa
- C) qoralama, asl nusxa, nusxa, ko'chirma
- D) qoralama, asl nusxa, ikkinchi nusxa

5. Hujjatlar matniga qo'yiladigan eng muhim talablar...

- A) Aniqlik, ixchamlik, lo'ndalik, mazmuniy to'liqlik
- B) Hujjat matni qisqa, ravon, aniq va mantiqli (ortiqcha so'z va iborasiz) bayon qilinishi kerak.
- C) Hujjatlardagi axborot xolis aks ettirilishi lozim
- D) Barcha javoblar to'g'ri

6. Qaysi hujjat turi kun tartibi, qaror kabi qismlardan iborat?

- A) bayonnoma

- B) dalolatnoma
- C) e'lon
- D) farmoyish

7. Rasmiy xatlar, taklifnoma, tabriknomalar xizmat mavqeyiga ko'ra qanday hujjatlar hisoblanadi?

- A) ma'lumot-axborot hujjatlari
- B) farmoyish hujjatlari
- C) xizmat yozishmalari
- D) tashkiliy hujjatlar

8. Guvohnoma, yo'riqnoma, nizom, shartnoma bu -

- A) ma'lumot-axborot hujjatlaridir
- B) tashkiliy hujjatlaridir
- C) xizmat yozishmalaridir
- D) farmoyish hujjatlaridir

9. Shaxsning mehnat va ijtimoiy faoliyati, o'ziga xos xislat va fazilatlarini aks ettiruvchi hujjat?

- A) ma'lumotnoma
- B) tavsifnoma
- C) tarjimai hol
- D) bildirishnoma

10. Qaysi hujjat turlari yozilish shakliga ko'ra o'xshash?

- A) buyruq, bayonnoma, farmoyish
- B) dalolatnoma, da'vo arizasi, shartnoma
- C) tavsifnoma, tavsianoma
- D) ariza, tushuntirish xati, bildirishnoma

44-mavzu. MAJLIS BAYONI. HISOBOT

Bayonnomalarning turlari. Majlis bayoni. Majlis bayonidan ko'chirma. Hisobot turlari. Davriy hisobotlar. O'quv amaliyoti hisoboti.

Yozma nutq: Majlis bayonini tuzish. O'tkazilgan tadbir to'g'risida hisobot yozish.

Tayanch so'z va iboralar: bayonnoma, majlis bayoni, majlis bayonidan ko'chirma, hisobot turlari, davriy hisobotlar, o'quv amaliyoti hisoboti.



B A Y O N N O M A

Turli yig'ilish, kengash va boshqa tur anjumanlarning borishini, majlis qatnashchilarining chiqishlari va ular qabul qilgan qarorlarni aniq, siqiq holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat **bayonnoma** deyiladi.

Bayonnomaning yozishni tashkil qilish kotibning asosiy vazifalaridan biridir. Bayonnoma oldindan tayinlangan kotiblar tomonidan tuziladi va rasmiylashtiriladi.

Yig'ilishda ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan bildirilgan barcha fikr-mulohazalar, tanqid va takliflar bayonnomada yoritilishi lozim. Bu axborotlarning aniqligi, to'liqligi uchun ma'sul hisoblangan majlis raisi va kotibi bayonnoma oxiriga imzo qo'yadilar.

Bayonnomalarning qisqa, to'liq, stenografik, fono-grafik shakllarda bo'ladi.

Qisqa bayonnomada yig'ilishning kun tartibi, ma'ruzachi va muzokaralarda qatnashuvchilarning ismi, familiyasi hamda qabul qilingan qarorlar ko'rsatiladi.

To'liq bayonnomada esa majlisda so'zga chiqqanlarning barcha fikr-mulohazalari to'liq berilishi lozim.

Bayonnoma kirish va uch asosiy qismdan tuziladi. Kirish qismida yig'ilish o'tkazilgan tashkilot nomi, bayonnoma sanasi, tartib raqami, yig'ilish joyi, rais va kotibning ismi, familiyasi, qatnashuvchilar ro'yxati va soni (15 kishidan oshmasa, ismi va familiyasi, lavozimi, ish joyi ko'rsatiladi) keltiriladi.

So'ngra KUN TARTIBI bosh harflar bilan yozilib, ikki nuqta qo'yiladi va ko'riladigan masalalar tartib raqami bilan beriladi.

Asosiy matndagi uch qism: ESHITILDI, SO'ZGA CHIQQILAR, QAROR QILINDI so'zlari ham katta harflar bilan yozilgach, ikki nuqta qo'yiladi va yangi satrdan ma'ruzachining ismi-familiyasi yoziladi.

Zaruriyat tufayli majlis davomida qabul qilingan qarorlardan ko'chirmalar rasmiylashtiriladi. Buyruqdan ko'chirmada bo'lganidek, bayonnomadan ko'chirma ham imzo bilan tasdiqlanadi.

Bayonnomaning matni qismidan faqat tashkilot yoki shaxsga yetkazilishi kerak bo'lgan bo'laklarga olinadi. Agar kun tartibida uch masala muhokama etilgan bo'lsa, kerakli masala bo'yicha qabul qilingan qaror olinadi.

Bayonnoma shakli:

<hr/> <p>(muassasa nomi)</p> <hr/>	
<p>(bo'lim yoki bo'linmalar nomi)</p> <p>_____ yil _____dagi ___-sonli</p> <p>(o'tkazilgan sana va bayonnoma raqami)</p> <p style="text-align: center;">B A Y O N N O M A S I</p>	
<hr/> <p>(sanasi)</p>	<hr/> <p>(o'tkazilgan joyi)</p>
<p>QATNASHDILAR: (qatnashuvchilar ro'yxati yoziladi)</p> <p>KUN TARTIBI: 1. (ko'riladigan masalalar nomlari yoziladi)</p> <p style="padding-left: 40px;">2.</p> <p style="padding-left: 40px;">3.</p> <p>ESHITILDI: 1. (ma'ruzachilarning ma'ruzalari yozib boriladi)</p> <p>SO'ZGA CHIQQILAR:</p> <p>QAROR QILINDI: 1.</p> <p style="padding-left: 40px;">2.</p>	
<p>Majlis raisi: I.O.Familiyasi</p>	

Bayonnoma namunasi:

Toshkent kimyo texnologiya instituti
Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi fakulteti
3-kurs 34-15 guruhi yig'ilishining
B A Y O N N O M A S I № 3

2018-yil 10.02

Toshkent shahri.

RAIS - I. HASANOV

KOTIBA - M. MUSLIMOVA

QATNAS H D I L A R: 21 talaba (ro'yxat ilova qilinadi).

KUN TARTIBI: 1. Qishki imtihon sessiyasiga tayyorgarlik va talabalar oldida turgan asosiy vazifalar. Guruh yetakchisi N.Yusupov axboroti.

2. Navro'z bayramiga tayyorgarlikning borishi to'g'risida. S.Islomov axboroti.

1. ESHITILDI: N.Yusupov qishki imtihon sessiyasiga tayyorgarlik va talabalar oldida turgan galdagi vazifalar to'g'risida axborot berdi.

SO'ZGA CHIQQILAR: A.Safarov, M.Ravshanov, T.Umarova.

QAROR QILINDI: 1. Qishki imtihon sessiyasi haqidagi N.Yusupov axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin;

2. Talabalarning galdagi vazifalari belgilab berilsin.

2. ESHITILDI: S.Islomov Navro'z bayramiga tayyorgarlikning borishi to'g'risida axborot berdi.

SO'ZGA CHIQQILAR: U.Usmonov, O.Rasulova, K.Azizova

QAROR QILINDI: 1. S.Islomov Navro'z bayramiga tayyorgarlikning borishi haqidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Navro'z bayramiga tayyorgarlik kuchaytirilsin.

Rais (imzo) I. Hasanov

Kotib (imzo) M. Muslimova

B A Y O N N O M A D A N K O ' C H I R M A

Bayonnomadan ko'chirma namunasi:

Toshkent Kimyo-texnologiya instituti
Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi fakulteti
34-16 guruhi yig'ilishining 3-sonli

BAYONNOMASIDAN KO'CHIRMA

2018-yil 10.02

Toshkent shahri.

RAIS - I. HASANOV

KOTIBA - M. MUSLIMOVA

QATNAS H D I L A R: 21 talaba (ro'yxat ilova qilinadi).

KUN TARTIBI: 1. Qishki imtihon sessiyasiga tayyorgarlik va talabalar oldida turgan asosiy vazifalar. Guruh yetakchisi N.Yusupov axboroti.

1. ESHITILDI: N.Yusupov qishki imtihon sessiyasiga tayyorgarlik va talabalar oldida turgan galdagi vazifalar to'g'risida axborot berdi.

SO'ZGA CHIQQILAR: A.Safarov, M.Ravshanov, T.Umarova.

QAROR QILINDI: 1. Qishki imtihon sessiyasi haqidagi N.Yusupov axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin;
2. Talabalarning galdagi vazifalari belgilab berilsin.

Rais	(imzo)	I. Hasanov
Kotib	(imzo)	M. Muslimova

Hisobot xizmat faoliyati yuzasidan muayyan ish, vazifa yoki topshiriqlarning bajarilishi haqida ma'lumot beruvchi hujjat sanaladi. Hisobot shakl va mazmuniga ko'ra bildirishnomaga o'xshash bo'lsa-da, bunda qanday ishlar rejalashtirilgani, ularning bajarilish darajasi, bu yo'ldagi kamchiliklar va ularni bartaraf etishga oid takliflar kengroq beriladi. Ish yuritishda rejalashtirilgan ishlar, xizmat safari yakuni yuzasidan hisobotlar yozish keng tarqalgan. Hisobot matni I shaxs nomidan yoziladi va hisobot beruvchi tomonidan imzolanadi. **Hisobot shakli:**

Hisobot sarlavhasi (idora, xo'jalik yoki shaxsning qachon, qanday faoliyati)... haqida

HISOBOT

Matn

Ma'lum muddatga belgilangan ish, vazifaning qay darajada bajarilganligi haqidagi axborot bayoni

(lavozi nomi)	(imzo)	(ismi, familiyasi)
sana		

Hisobot namunasi:

**“Hasanboy” muzqaymoq ishlab
chiqarish korxonasi
2010-yilda
rejalashtirgan ishlarining
bajarilishi haqida**

H I S O B O T

2018-yilda “Hasanboy” **muzqaymoq ishlab chiqarish korxonasi**da 25 turda muzqaymoq ishlab chiqarildi. 2017-yildan 5 nomdagi yangi muzqaymoq turlari ishlab chiqildi.

2018-yil 10-maydan “Nestle” OAJ bilan 3 yillik mahsulot yetkazib berish bo‘yicha 2 tomonlama shartnoma tuzildi. Respublikaning 3 ta viloyati – Andijon, Xorazm, Nukus shaharlarida joylashgan savdo shahobchalari bilan muzqaymoq sotib olish bo‘yicha 2 yillik shartnoma tuzildi.

Bu ishlarning natijasida korxonaning bu yilgi ishlab chiqarish hajmi o‘tgan 2017-yilga nisbatan 20 % oshdi. Buning natijasida korxonaning yillik daromadi rejadagidan 1,5 barobar oshdi.

Keyingi 2019-yilda mavjud viloyatlarning savdo shahobchalarini 2 barobarga kengaytirish rejalashtirildi.

(lavozim nomi) (imzo) (ismi, familiyasi)
sana

Vazifa: Bayonnoma namunasi asosida o‘z guruhingiz yig‘ilishi bayonnomasini yozing

Topshiriqlar:

1. “Bayonnoma” ning zaruriy qismlariga “Klaster” tuzing.
2. Jadvalni to‘ldiring.

“Tushunchalar tahlili” metodini amalga oshirish tartibi:

Jadval ko‘rinishida bir tomoniga mavzuga tegishli tushunchalar keltirilgan tarqatma material talabalarga beriladi va ulardan ushbu tushunchalarni izohini yozishlari so‘raladi.

Quyida keltirilgan tayanch iboralarni izohlang.

№	Tayanch so‘zlar	Ta’rifi, izohi
1	Ariza	
2	Ma’lumotnoma	
3	Tushuntirish xati	
4	Tarjimai hol	
5	Bildirishnoma	
6	Bayonnoma	

3. Hisobot matnidagi nuqtalar o‘rnini tegishli so‘z va qo‘shimchalar bilan to‘ldirib, matnni daftaringizga ko‘chiring.

Sizning topshiriq... binoan 10-15 sentyabr kunlari Buxoro shahrida xizmat safari... bo‘ldim. Bundan maqsad viloyat gazlashtirish idorasi... xo‘jalik... xususiy xonadonlarga gaz o‘tkaz... .. ellik kilometr (diammetr 30 mm) truba yetkazib berish . . . shartnoma tuzish edi.

Shartnoma tuzildi. Unga . . . trubalar shu yil.... 20 noyabriga... xo‘jaligimizga keltiriladi.

Ilova: 2015- yil 10- sentyabrda tuzil . . . shartnoma nusxa . . .

4. *Namunalardan foydalanib, mustaqil ravishda turli mavzularda hisobotlar yozishni mashq qiling.*

5. *Quyidagi soʻz va soʻz birikmalarining maʼnolarini lugʻat boʻyicha aniqlang va daftaringizga yozing.*

Hisobot, davr, topshiriq, vazifa, reja, rejalashtirilgan, xizmat safari, rahbarlik qilmoq, sizning topshirigʻingizga binoan, muassasa qarori bilan, joriy yilda, xizmat safari hisoboti.

6. *Quyidagi iboralardan foydalanib, mutaxassisligingiz boʻyicha amaliyotning natijalari toʻgʻrisida hisobot yozing.*

(Professor, dotsent) rahbarligida, 2005-yilning ... dan ... gacha amaliyotda boʻldim, bundan tashqari alohida topshiriqlarni bajardim, oʻrganib oldim, tajriba orttirdim.

Test topshiriqlari

1. Iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yoziladigan hujjat nima?
 - A) ariza
 - B) maʼlumotnoma
 - C) ishonchnoma
 - D) bildirishnoma
2. Qaysi hujjat turi kun tartibi, qaror kabi qismlardan iborat?
 - A) dalolatnoma
 - B) bayonnoma
 - C) farmoyish
 - D) hisobot
3. Rasmiy xat turlari berilgan qatorni belgilang.
 - A) kafolat xati, tushuntirish xati
 - B) ilova xat, tabrik xati
 - C) farmoyish xat, tilxat
 - D) iltimos xat, eslatma xat
4. Muassasaning asosiy va kundalik vazifalarini hal etish maqsadida qoʻllaniladigan hujjat?
 - A) farmoyish deyiladi
 - B) hisobot deyiladi
 - C) buyruq deyiladi
 - D) bayonnoma deyiladi
5. Bir necha shaxs tomonidan tuziladigan hujjat turini aniqlang.
 - A) bayonnoma
 - B) ishonchnoma
 - C) dalolatnoma
 - D) tilxat
6. Biron-bir tadbir haqida xabardor qilish uchun qoʻllanuvchi yozma axborot nima?
 - A) maʼlumotnoma

- B) e'lon
 - C) bildirishnoma
 - D) farmoyish
7. Qaysi hujjat turi komissiya tomonidan tuziladi?
- A) buyruq
 - B) dalolatnoma
 - C) bayonnoma
 - D) da'vo xati
8. Hujjatning qismiga tegishli bo'lmagan javobni aniqlang.
- A) hujjatning nomi
 - B) kelishuv va rozilik belgilari
 - C) matn
 - D) muhr
9. Hujjatlarga qo'yiladigan talablarni aniqlang.
- A) asosan, darak va buyruq gaplar ishlatiladi;
 - B) hujjatlarda o'chirish va tuzatishlarga yo'l qo'yilmaydi;
 - C) hujjat matni qisqa, ravon va aniq bayon qilinishi kerak;
 - D) barcha javoblar to'g'ri.
10. Ish qog'ozlari qanday yoziladi?
- A) qisqa, ravon, aniq va mantiqli bayon etiladi
 - B) matn I shaxs yoki III shaxs tilidan yoziladi
 - C) rahbar nomidan yoki ayrim shaxs tomonidan yoziladi
 - D) Barcha javoblar to'g'ri

45-mavzu. XIZMAT YOZISHMALARI. XATLAR

Xizmat yozishmalarining vazifasi. Xizmat xatlarining turlari. So'rov xati. Iltimos xati. Javob xati. Ilova xat. Tasdiq xati. Eslatma xat. Da'vo xati. Talab xati. Axborot xati. Kafolat xati.

Yozma nutq: Xizmat xatlarining matnlarini tuzish.

Tayanch so'z va iboralar: xizmat yozishmalari, xizmat xatlarining turlari, so'rov xati, iltimos xati, javob xati, ilova xat, tasdiq xati, eslatma xat, da'vo xati, talab xati, axborot xati, kafolat xati.

Xizmat yozishmalari.

Muassasalar o'rtasida xizmat aloqalari asosan **rasmiy xatlar** orqali amalga oshiriladi. Bunday yozishmalar orqali turli ko'rsatmalar, so'rovlar, javoblar, tushuntirishlar, xabar, taklif, iltimos, kafolatlar beriladi va qabul qilinadi. Xizmat xatlari quyidagi vazifalarni bajarishiga ko'ra ikki turga ajraladi:

1. Javob xatni talab qiluvchi xatlar (da'vo xatlar, so'rov xatlar, iltimos xatlar kabi).
2. Javob talab qilmaydigan xatlar (tasdiq xat, ilova xat, eslatma xat, axborot xat, kafolat xat kabi).



Barcha xizmat xatlari rasmiy yozishma bo'lgani uchun maxsus bosma ish qog'ozlariga yoziladi. Oddiy qog'ozga yozilgan taqdirda chap tomonining yuqori burchagiga muassasa nomi ko'rsatilgan to'rtburchak muhr qo'yilishi lozim.

Xizmat xatlari ikki nusxada yoziladi va imzolanadi. Lavozi mi aniq ko'rsatilgan rahbar tomonidan imzolangan xatning birinchi nusxasi jo'natilib, ikkinchisi muassasada qoladi.



Rasmiy xat matnini yozishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- xat qisqa bo'lishi, qoidaga ko'ra bir betdan oshmasligi kerak;
- fikrlar aniq va ravshan ifodalanishi shart;
- matnda ko'chma ma'noli so'z va iboralar ishlatilmasligi zarur;
- gaplarning kesimi hujjat turi va mazmuniga muvofiq uchinchi shaxs birlik yoki birinchi shaxs ko'plik sonda shakllantirilishi lozim;

- matn sarlavhasi bir jumla shaklida ikki qatordan oshmasligi, «to‘g‘risida» yoki «haqida» ko‘makchilari orqali tugatilishi kerak («Institut sport maydonini ta‘mirlash to‘g‘risida» kabi);
- matnda xizmat xatining turi, nomi yozilmaydi, xatning qandayligi matn mazmunida aks etishi zarur.

Rasmiy xatlarda bayon qilingan fikr mantiqiy izchillikda ifodalanishi, yetarli dalillar bilan asoslanishi va xulosalanishi lozim. Zarur holatlarda o‘rinli taklif yoki e‘tiroz bildirilishi mumkin. Ammo mutasaddi rahbarga nisbatan hurmat saqlanishi, murojaat odobiga amal qilinishi zarur. Shu maqsadlarda:

- rahbarga murojaat shakli «Siz» so‘zini bosh harfda yozish orqali ifodalanadi (Sizga, Sizdan kabi);
- fikriy bog‘liqlik «bu», «ushbu», «mazkur», «shu sababli», «shunga ko‘ra (muvofiq)» kabi so‘zlar yordamida ta‘minlanadi;
- taklif va e‘tirozlar «bizningcha», «shartnomaga ko‘ra», «biroq», «shu bilan bir qatorda», «deb o‘ylaymiz» kabi so‘z va so‘z birikmalari orqali ifodalanadi.

Shaxsiy xatlar vazifasi va mazmuniga ko‘ra ikki turli bo‘ladi. Kundalik turmushda, asosan, oilaviy yoki do‘stona munosabatlarni ifodalovchi xat, maktub keng qo‘llanadi. Bunday xatlar rasmiy yozishmalardan hajmining cheklanmaganligi, shakliyi mustaqilligi, matn mazmunining ichki kechinmalarga, hazil, qochiriq, gina, afsus, taklif, e‘tiroz, minnatdorchilik kabilarning oddiy so‘zlashuv yoki badiiy uslubga yaqin ifoda shakliga xosligi bilan ajralib turadi. Salomnoma xatlari, sevgi maktublari, do‘stlik va hamkorlik munosabati yuzasidan yoziladigan xatlar ana shunday erkin uslubda yoziladi.

Shaxsiy xatning diplomatik yozishmalarga mansub turi ham mavjud. Bular yarim rasmiy tusda bo‘lib, ularda davlat boshliqlari, diplomatik xodimlarning shaxsiy va oilaviy hayotidagi yangiliklar, sovg‘a taqdim etish, minnatdorchilik bildirish, rasmiy uchrashuvlarda ko‘rsatilgan masalalarni hal qilishga qaratilgan iltimoslar bildiriladi. Yuqoridagi shaxsiy xatlardan farqli ravishda bunda adabiy til me‘yoriga to‘la amal qilinadi.

Rasmiy xat shakli:

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus
ta‘lim bazirligi
**TOSHKENT KIMYO-
TEKNOLOGIYA
INSTITUTI**



Ministry of Higher and
Secondary Specialized
Education
Republic of Uzbekistan
**TASHKENT
CHEMICAL-
TECHNOLOGICAL
INSTITUTE**

O‘zbekiston Respublikasi
700011, Toshkent sh., Navoiy ko‘ch.,
32
Тел.: 7-3712--1-44-79-18, -144-79-24
E-mail: tashcti@ishonch.uz

32, Navoi Str. Tashkent
700011, Republic of Uzbekistan
Tel.: 7-3712--1-44-79-18, -144-79-24
E-mail: tashcti@ishonch.uz

“ ___ ” _____ 2020-y № _____

qayerga
kimga

xatning mazmuni

Muassasa rahbari

imzo

I.O.Familiyasi

Ilova xat

Xatni qabul qilib oluvchilarni jo'natiladigan hujjatlar haqida yozma xabardor qilish uchun qo'llanuvchi qisqacha xabar qorozidir. Ilova xat ish yuritishda keng tarqalgan. Muassasalarda bunday xatlar shartnoma loyihalarini, ziddiyatlar bayonnomalarini, da'vo matyeriallarini jo'natishda qo'llanadi.

Ilova xatlarda shartnomalar, da'vo matyeriallarining jo'natilish vaqti va turli hujjatlar loyihasini ko'rib chiqish muddatlari ham qayd qilinadi, shu sababli da'vo- shikoyat ishlarida u yozma dalil sifatida qo'llanishi mumkin.

Ilova xatning asosiy zaruriy qismlari:

1. Xatni oluvchi muassasa va mansabdor shaxsning nomi.
2. Matn (kirish va xulosa bilan).
3. Ilova (jo'natilayotgan hujjatlarni sanash).
4. Rahbarning imzosi.

Ilova xatlar boshqa hujjat matyeriallari bilan birga qo'shib jo'natiladi.

Ilova xat namunasi

O'zbekiston Ryespublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridari
Atamashunoslik qo'mitasi
raisi O. Yoqubovga

"O'qituvchi" nashriyoti tomonidan 2018- yilda nashr etish rejalashtirilgan "Fizikadan ruscha-o'zbekcha atamalar lug'ati" (mualliflar - R.B.Byekjonov, SH.Kamolxo'jayev, X. Rizayev) va "Fizikadan ruscha-o'zbyekcha tushunchalar izohli lug'ati" (muallif - P. Nurmatova) nomli kitoblar qo'lyozmalarini qo'mita tomonidan ko'rib chiqish va tegishli tavsiya berish uchun yo'llaymiz.

Lug'atlarning qo'lyozmalari ilova qilinadi:

1. R. Bekjonov va boshqalar. "Fizikadan ruscha-o'zbekcha atamalar lug'ati" (805

sahifa).

2. P. Nurmatova. "Fizikadan ruscha-o'zbekcha tushunchalar izohli lug'ati" (323 sahifa).

Bosh muharrir

(imzo)

I.G'.Ahmadjonov

Iltimos xat

Muassasalar ma'lum bir ishni amalga oshirish yoki tugatish maqsadida boshqa muassasalarga rasmiy xat orqali iltimos qilishi mumkin. Muassasalar o'rtasidaga bunday o'zaro yozishmalar iltimos xat vositasida bajariladi. Iltimos xat xizmat xatlari orasida eng ko'p tarqalgan turlardan hisoblanadi. Iltimos xatlar ham boshqa xatlar kabi muassasalarning xos ish qo'oziga yoziladi va albatta jo'natilish sanasi va jo'natma tartib raqami ko'rsatiladi (1-2- ilovalarga qarang).

Iltimos xati namunalari

1-ilova

Informatika kafedrasining
mudiri K. Rahimovga

Birlashmamiz muhandis-myexaniri O. Salimovni hisoblash texnikasi bo'yicha malaka oshirish maqsadida 2 oy muddatga (2018.15.01. dan 2018.15.03. gacha) tajriba o'tashga qabul qilishingizni so'raymiz.

Toshkent elektr-ro'zg'or
buyumlari ishlab chiqarish
birlashmasining bosh
diryektori o'rinbosari

(imzo)

U. Shokirov

2-ilova

Hamza nomidari O'zbek davlat
akademik drama teatri
direktori Yo. Ahmedovga

"Malika" trikotaj ishlab chiqarish birlashmasi ma'muriyati va kasaba uyushmasi tashkiloti teatringizda 16 yanvar soat 19.00 da namoyish etiladigan "Chimildiq" spektaklini tomosha qilish uchun jamoamiz xodimlariga 45 (qirq beshta) chipta ajratishingizni so'raydi.

Chipta qiymati naqd to'lanadi.

Kasaba uyushmasi
qo'mitasining raisi

(imzo)

B. Shoumarov

Kafolat xati

Muayyan bir shart yoki va'dani tasdiklash maqsadida tuziladi. Xatlarning bu turi, qoidaga ko'ra, bajarilgan ish uchun haq to'lashda, ishning bajarilish muddati haqida, turar joy bilan ta'minlashda, ishga qabul qilishda, bajariladigan ishning sifati haqida kafolat berish uchun tayyorlanadi va tashkilot yoki

alohida shaxslarga jo'natiladi.

Kafolat xatlari ham boshqa xat turlaridek, odatda, idoraning xos ish qog'oziga yoziladi. Xat matnida kafolat ma'nosi quyidagicha ifodalanishi mumkin: "To'lovga kafolat beramiz", "To'lovni kafolatga olamiz" kabi.

Kafolat xati korxonalar rahbari tomonidan imzolanadi. Moliyaviy ishlar bilan bog'liq bo'lgan kafolat xatlariga bosh hisobchi ham imzo chekishi zarur.

Ba'zan kafolat xati matnida, kafolat berish bilan birga, xabar berish, so'rash, iltimos kabi ma'nolar ham ifodalanishi mumkin. 3-ildoda ana shunday xat matnlaridan namuna keltirildi.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
tarjima kengashiga

Navoiy nomidari Samarqand davlat univyersiteti shu yilning sentabr oyida "Badiiy tarjima va o'zbek adabiyotining xalqaro aloqalari" mavzuida ilmiy-metodik konferensiya o'tkazishni mo'ljallamoqda. Konferensiyani o'tkazishda Yozuvchilar uyushmasining tarjima kengashi hamkorlik qilishini so'raymiz.

Konferensiyani o'tkazish bo'yicha xarajatlarni universitet o'z zimmasiga oladi.

SamDU rektori

(imzo)

I.O.Familiyasi

Farmoyish xat

Bir tarmoqqa tegishli quyi muassasalarning barchasiga yo'llangan rasmiy hujjatdir. Farmoyish xatlar xizmat aloqalarining ko'prina sohalarida qo'llanadi. Ularning asosiy vazifasi aynan bir xil mazmundari xabarni bir necha manzilga yetkazishdir. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi o'z qaramog'idagi barcha ilmiy muassasalar va tashkilotlarga bir xil ko'rsatma bermoqchi. Bu ko'rsatma xat shaklida rasmiylashtiriladi va ro'yxat bo'yicha barcha institutlarga tarqatiladi.

Farmoyish xatlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, u tashkilot qaramogidagi korxonalarni u yoki bu masala haqida xabardor qiladi yoki tegishli farmoyishlar byeradi.

Ba'zi farmoyish xatlarda matnga nisbatan manzillar nomi ko'proq joyini egallaydi. SHu sababli ham ularda xat yo'llanayotgan tashkilotlarning umumiy nomini yozish maqsadga muvofiqdir, masalan:

Barcha kurilish boshqarmalariga

Barcha jamoa xo'jaligi raislariga

Barcha maktab direktorlariga kabi.

Farmoyish xatlar bosh muassasa rahbari tomonidan imzolanadi. Agar xat matnida hisob bo'limiga oid masalalar bo'lsa, bosh hisobchi ham imzo chekadi. Bosh rahbar imzolagan 1-nusxa muassasada asliyat sifatida saqlanadi. Boshqalari esa umumiy bo'lim yoki muassasa kotibi tomonidan tasdiqlanib, nusxa sifatida tarqatiladi.

Farmoyish xat namunasi

4-ilova

O'zR Fanlar akademiyasining ilmiy tadqiqot institutlari va
ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari rahbarlariga

O'zR Fan va texnika davlat komitetining so'roviga binoan Fanlar akademiyasi Prezidiumi Sizdan O'zR Fan va texnika davlat komitetining 2018- yilda tasdiqlagan "Uzluksiz ta'lim tizimida ilmiy va ilmiy-pedarorik xodimlar tayyorlash to'g'risida nizom" haqidari fikr-mulohazalaringizni 2018.31.10. gacha Ilmiy kadrlar boshqarmasiga yo'llashingizni so'raydi.

Siz bildirgan fikr-mulohazalar yangi Nizom tayyorlash jarayonida asqotadi, deb o'ylaymiz.

"Uzluksiz ta'lim tizimida ilmiy va ilmiy-pedarorik xodimlar tayyorlash to'g'risida nizom"dan ko'chirma ilova qilinadi.

Topshiriqlar:

1. a) xat matnini o'qing, uning mazmunida nima ifodalanganini aniqlang.

Institut ma'muriyati va kasaba uyushmasi tashkiloti teatringizda 18-oktabr soat 19:00 da namoyish etiladigan «Zebuniso» spektaklini tomosha qilish uchun institutimiz talabalariga 120 (bir yuz yigirma)ta chipta ajratishingizni so'raydi.

Chiptalar qiymati pul o'tkazish yo'li bilan to'lanadi.

b) ushbu iltimos xatining kimga jo'natilganligini, kim tomonidan imzolangani kabi zaruriy qismlarini qo'yib daftaringizga ko'chiring.

2-topshiriq. Kontrakt-to'lov pulini belgilangan muddatgacha o'tkazish haqida kafolat xatini yozing.

Savollarga javob bering:

1. Da'vo xatlari qanday maqsadlarda yoziladi?
2. Iltimos xati qanday zaruriy qismlardan tashkil topadi?
3. Kafolat xati bilan da'vo xatining zaruriy qismlari o'rtasidagi farqlarni izohlab bering.
4. Ilova xati qaysi holatlarda yoziladi?
5. Xizmat xatlarining qaysi turlari uchinchi shaxs nomidan yoziladi?

3-topshiriq. Jadvalni to'ldiring.

“Tushunchalar tahlili” metodini amalga oshirish tartibi:


Jadval ko'rinishida bir tomoniga mavzuga tegishli tushunchalar keltirilgan tarqatma material talabalarga beriladi va ulardan ushbu tushunchalarni izohini yozishlari so'raladi.


Quyida keltirilgan tayanch iboralarni izohlang.

№	Tayanch so'zlar	Ta'rifi, izohi
1	Axborot xat	
2	Da'vo xat	
3	Farmoyish xat	
4	Tasdiq xat	
5	Eslatma xat	
6	Ilova xat	
7	So'rov xat	
8	Kafolat xat	
9	Iltimos xat	

Vazifa:

1. Rasmiy xat turlariga “Klaster” tuzing.





2. Tuzilgan “BBB” asosida xatlar haqida ma’lumot bering.

Bilaman	Bildim	Bilmoqchiman

Test topshiriqlari

- Tashkiliy hujjatlarga qanday hujjatlar kiradi?
 - Guvohnoma, yo‘riqnoma, nizom, shartnoma
 - E‘lon, hisobot, buyruq, shartnoma
 - Nazorat daftari, korxonani nizomi, shartnoma
 - Buyruq, farmoyish
- Ma‘lumot-axborot hujjatlariga qanday hujjatlar kiradi?
 - E‘lon, hisobot, buyruq, tarjimai hol
 - Tavsifnoma, ma‘lumotnoma, ariza, tilxat
 - Tavsiyanoma, bayonnoma, guvohnoma, e‘lon
 - Yo‘riqnoma, nizom, shartnoma
- Rasmiy xat turlari ko‘rsatilgan qatorni toping
 - Eslatma xat, kelishuv xat, da‘vo xat
 - Axborot xat, kafolat xati, kelishuv xat
 - Ilova xat, so‘rov xati, farmoyish xat
 - Iltilmos xat, kafolat xat, buyruq xat
- Xatlar vazifasiga qarab qaysi turlarga bo‘linadi?
 - Javob talab qiladigan
 - Javob talab qilmaydigan
 - Javob talab qiladigan va javob talab qilmaydigan
 - To‘g‘ri javob yo‘q
- Kafolat xat nima maqsadda tuziladi?
 - Xatni qabul qilib oluvchilarni xabardor qilish uchun
 - Bir xil mazmundagi xatni bir necha manzilga etkazish uchun
 - Ma‘lum bir ishni amalga oshirish yoki tugatish maqsadida
 - Muayyan bir shart yoki va‘dani tasdiqlash maqsadida
- Kadrlar shaxsiy tarkibiga oid buyruq qachon chiqariladi?

- A) Xodim ishga olinganda yoki bo'shatilganda
 - B) Xodim mukofotlanganda
 - C) Xodim mehnat ti'tiliga chiqqanda
 - D) Barcha javoblar to'g'ri
7. Asosiy faoliyatga oid buyruqlar qachon chiqariladi?
- A) Ishni tashkil qilish, muassasa va uning bo'limlari faoliyatini tartibga solishda
 - B) Xodim ishga olinganda yoki bo'shatilganda
 - C) Xodim mehnat ti'tiliga chiqqanda
 - D) Xodim boshqa ishga o'tganda
8. Shartnoma bu -
- A) Muassasalar o'rtasida o'rnatilgan aloqalarni ifodalovchi hujjatdir
 - B) Muassasa oldida turgan asosiy va kundalik vazifalarni hal qilish maqsadida chiqariladigan hujjatdir
 - C) Tomonlarning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish va to'xtatish yo'lidagi kelishuvidir
 - D) To'g'ri javob yo'q
9. Shaxsning xizmat va boshqa holatlarini, biror ishga oid vakolatini ko'rsatuvchi hujjat?
- A) Lavoziim yo'riqnomasi
 - B) Guvohnoma
 - C) Shartnoma
 - D) Buyruq
10. Muassasalar o'rtasida xizmat aloqalari qaysi hujjat orqali amalga oshiriladi?
- A) Xizmat xatlari
 - B) Shartnomalar
 - C) Ma'lumotnomalar
 - D) Telefonogrammalar

V. MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Ta'lim sifatini oshirishda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda asosiy e'tiborni talabalarning mustaqil ta'lim olishi bilan bog'liq mexanizmlarni amalga oshirishga qaratish muhim deb belgilandi. Shuning uchun ham yangi o'quv rejalarida mustaqil ta'limga ko'proq e'tibor qaratildi. Bunda tegishli fan bo'yicha talabalar mustaqil ta'limini tashkil qilishda ularning bilimini baholashning zamonaviy, shaffof va adolatli (avtomatlashtirilgan, portfolio, test sinovlari, ijodiy ish, antiplagiat va h.k.) usullarini qo'llash vazifa qilib qo'yildi.

Talabalarning amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanib kelishi va o'tilgan materiallarni mustaqil o'zlashtirishlari uchun har bir talabaga ushbu o'qituvchi tomonidan berilgan materiallar va adabiyotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Talabaning fanni mustaqil tarzda qanday o'zlashtirganligi joriy baholashda o'z aksini topadi. Shu sababli talabaning mustaqil ish bo'yicha olgan baholari joriy baholash tarkibiga kiritiladi.

“O‘zbek tili” fani bo‘yicha mustaqil ish 70 soatga mo‘ljallangan bo‘lib, I semestrda 30 soat, II semestrda 40 soat ajratilgan.

Mustaqil ishlar amaliy mashg'ulotlar vaqtida hamda darsdan tashqari topshiriq sifatida beriladi.

Talaba mustaqil ishlari mazkur fondan kafedrada ishlab chiqilgan “O‘zbek tili” fanidan mustaqil ishlar bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar"da belgilangan "Portfolio" tizimi asosida baholanadi.

Mustaqil ish topshiriqlari "soddadan murakkabga" tamoyilida quyidagicha tuzilgan bo'lib, bunda talabaning imkoniyatlari inobatga olinadi:

1-tur topshiriqlari darslarda berilgan ta'rif va qoidalardan bevosita foydalangan holda bajariladigan bo'lishi lozim. Bunday topshiriqlar sodda, oddiy topshiriqlarni namunalarda asosida bajarishni taqozo qiladi.

2-tur topshiriqlari ma'lum bir mavzuni yoritishda kerak bo'lgan g'oyalar va usullardan foydalana bilishiga asoslangan bo'lishi kerak. Bunday topshiriqlar masala yoki muammoni yechishda ulardan amaliy foydalanishni talab qiladi.

3-tur topshiriqlarni bajarishda talaba masalani hal qilish yo'llarini mustaqil izlaydi. Bunday masalalarni hal qilishda talaba qo'shimcha adabiyotlardan va internet tarmoqlaridan foydalanadi.

I semestr uchun mustaqil ta'lim mavzularining soatlarda taqsimoti

№	Mavzular	Taqdim qilish shakli	Soat
1	Men nechun sevaman O'zbekistonni?!	Insho yozish	4
2	O'zbekiston muzeylari.	Muzeyga tashrif buyurish va muzey haqida taassurot yozib kelish	4
3	Men sevgan badiiy asar	Badiiy asar o'qib kelish va gapirib berish	4
4	Sohaga oid eng so'nggi kashfiyot va innovatsion ishlanmalar bo'yicha ma'lumotlar to'plash. (Imlo va tinish belgiga doir topshiriq)	Yozma sharh.	4
5	Dunyoning mashhur universitetlari.	Taqdimot	4
6	Terrorizm va uning insoniyatga tahdidi.	Ommabop maqola yozish	4
	Jami:		24

I semestr bo'yicha:

- 1-tur topshiriqlariga 1-2 topshiriqlar kiradi.
 2-tur topshiriqlariga 1-4 topshiriqlar kiradi.
 3-tur topshiriqlariga 1-6 topshiriqlar kiradi.

II semestr uchun mustaqil ta'lim mavzularining soatlarda taqsimoti

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Taqdim qilish shakli	Soati
1	Men tanlagan kasb	Insho yozish	6
2	Sport va sog'lom turmush tarzi.	Reportaj tayyorlash	6
3	O'zbek san'ati ustalari.	Taqdimot	6
4	O'zbek adabiyoti namoyandalari.	Videomaterial topish va elektron shaklda taqdim etish	6
5	Sharq akademiyalari.	Institut gazetasiga maqola yozish.	6
6	Badiiy asar o'qish.	Taqriz yozish	6
	Jami		36

I semestr bo'yicha:

- 1-tur topshiriqlariga 1-2 topshiriqlar kiradi.
 2-tur topshiriqlariga 1-4 topshiriqlar kiradi.
 3-tur topshiriqlariga 1-6 topshiriqlar kiradi.

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

Fan bo'yicha talaba mustaqil ishini nazorat qilish kafedrada ishlab chiqilgan jadval va fan o'qituvchisi tomonidan amalga oshiriladi.

Talabaning mustaqil ishi, muayyan fan ishchi dasturda ajratilgan soatlarga mos ballar bilan baholanadi va natijada fan bo'yicha talabaning umumiy reytingiga kiritiladi. O'quv semestri yakunida talabaning mustaqil ishi bo'yicha to'plagan ballari joriy nazorat ballari bilan birgalikda qayd etiladi.

Talabaning reyting ko'rsatkichlari, shu jumladan, mustaqil ishi bo'yicha kafedra reytingi oynasida yoki maxsus elektron tarmog'ida yoritib beriladi.

Talabalar mustaqil ishlarini baholash shaklini tanlashda o'qituvchi talabalarda shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan ko'nikma va qobiliyatni e'tiborga olishi kerak. Quyida baholashning asosiy shakl va uning maqsadlari keltirilgan.

Mustaqil o'quv faoliyatida talaba butunlay erkin bo'lishi lozim. U o'zining qiziqishidan, imkoniyatlaridan, xohishidan kelib chiqib mustaqil ishlarni bajarish vaqtini, shaklini, usulini vositalarini va topshiriqlarning turlarini o'zi tanlaydi. Masalan, 1-tur topshiriqlarni guruhdagi barcha talabalar bajara olishi kerak. 3-tur topshiriqlarni esa hamma bajarishi shart emas, bu bosqich topshiriqlarni bajara oladigan talabalar guruhdagi eng qobiliyatli, bilimli talabalar bo'ladi.

Bunday topshiriqlar o'rgatuvchi-baholovchi topshiriqlar bo'ladi va ularning bajarilishi har bir talabaning mavzu materiallari bo'yicha o'zlashtirish darajasini o'zi hamda o'qituvchi tomonidan baholash imkoniyatini beradi:

Faqat 1-tur topshiriqlarnigina bajargan talaba "qoniqarli" bahoga loyiq umumiy ballning 55–70 % ni oladilar.

1 va 2-tur topshiriqlarnigina bajargan talabalar "yaxshi" bahoga loyiq umumiy ballning 71–85 % ni oladilar.

Har uchta bosqich topshiriqlarni to'la bajargan talabalar "a'lo" bahoga loyiq umumiy ballning 86–100 % ni oladilar.

MI shakli	Baholashda qo'yiladigan talab
Referatlar	ma'lumotni tadqiq etish, tanlash va taqdim etish ko'nikmasi; tanqidiy baholash; o'z fikrlarini yozma shaklda ravon ifodalash mahorati; tanqidiy muhokama qilish mahorati;
Nutq, ma'ruza tayyorlash va ijro etish	mavzuning yoritilishi; notiqlik mahorati; imo – ishoralar tili; nutqning tozaligi; ko'rgazmali qurollardan foydalanish ko'nikmalari; savollarga javob berish.
Adabiyotlar/matbuotni sharhlash	adabiyotlarni (maqola va b.) tanqidiy o'rganish ko'nikmalari; baho berish; xulosalar chiqarish; o'z nuqtai nazarini ifodalash mahorati.
Elektron taqdimot (RRT), video materiallar (yakka)	notiqlik mahorati; imo – ishoralar tili; ko'rgazmali qurollardan foydalanish ko'nikmalari; ma'lumotni taqdim qilish va strukturalashtirish ko'nikmalari; odamlar bilan to'g'ri muomalada bo'lish mahorati.
Reportaj	matbuot, radio, televideniye uchun tanlangan mavzu bo'yicha xabar, axborot, sodir bo'lgan voqea haqidagi hikoyani og'zaki va yozma shaklda tayyorlash; reportajda o'quvchiga gazetxonga ma'lum bo'lmagan bironta yangilik haqida mukammal hikoya qilinadi.
Insho	yoza nutqni shakllantirish, fikrni mustaqil shaklda ijodiy bayon qilish; mavzuni mazmunan yoritib berish; matnni imlo qoidalari talabi asosida yozish.
Taqriz	o'qilgan badiiy asarni tahlil qilib, to'g'ri baholay olish; o'zining nuqtayi nazarini to'g'ri ifodalay olish.

VI. GLOSSARIY

O'zbekcha	Ruscha	Inglizcha
Adabiyot - «adabiyot» arabcha soʻz boʻlib, «odoblar yigʻindisi», boshqacha aytganda «odoblar xazinasi» degan maʼnoni bildiradi. Adabiyot soʻz orqali inson qalbig ataʼsir koʻrsatuvchi fan.	Литература – произведение письменности, имеющее общественное познавательное значение.	Literature - is a work of writing that has a social cognitive meaning.
Adabiy - 1. Badiiy adabiyotga oid. <i>Adabiy suhbat</i> . 2. Yozuvchilarga, yozuvchilik faoliyatiga oid. Adabiy meros. Adabiy taxallus. Umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, maʼlum meʼyorlarga solingan shakli. Oʻzbek <i>adabiy tili</i> .	Литературный – соответствующий нормам литературного языка.	Literature - corresponds to the norms of the literary language.
Allegoriya - grekcha soʻz boʻlib, «kinoya», «qochiriq», «kesatish» maʼnosiga ifodalaydi. Allegoriya, asosan, masallarda va hayvonlar haqidagi ertaklarda ishlatilib, tulki-ayyor va aldanchi, boʻri - ochkoʻz, chayon- xammaga azob beruvchi, ilon-makkor, qoʻzichoq-kuchsiz va oʻjiz, chumoli -zaxmatkash kishi sifatida tasvir etiladi.	Аллегория - иносказание, выражение чего-н. Отвлеченного, какой –н. мысли, идеи в конкретном образе. Аллегория употребляется, в основном, в сказках, баснях. Например: волк- злодей, лиса-хитрая.змея- коварная и т. д.	Allegory - is allegory, the expression of something-n. An abstract, what-n. thoughts, ideas in a specific way. Allegory is used, mostly in fairy tales, fables. For example: wolf-villain, fox-cunning. Cunning, and so on.
Alifbo - [Arab alifbosi boshidagi 1-va 2-harf (<i>alif</i> va <i>bo</i>) nomidan]- biror til yozuv shakllarining (harf va belgilarining) maʼlum tartibda joylashgan majmui. Oʻzbek <i>alifbosi</i> .	Алфавит – Совокупность букв или других знаков данной системы письма, порядок букв принятый в азбуке.	Alphabet - The totality of letters or other signs of a given letter system, the order of the letters accepted in the alphabet.
Amaliy - kishining kundalik faoliyatiga oid; bevosita amalga oshiriladigan, amalda koʻriladigan, qilinadigan; amalda tatbiq etiladigan, tajribada qoʻllanadigan. <i>Amaliy natijalar</i> .	Практический – относящийся к области жизненного опыта, реальных потребностей, деловитый, умеющий разбираться в в практических, жизненных делах.	Practical - relating to the field of life experience, real needs, businesslike, able to understand in practical, life affairs.
Anafora - Nutqda parallel kelgan nutqiy parchalarda aynan bir soʻz yoki soʻz birikmalarning, iboraning takrorlanishi boʻlib, u nutqqa ekspressivlik bagʻishlaydi. Fikrni kuchaytiradi, taʼsirchan qiladi. Yolgʻiz menmi koʻklam chogʻi yigʻlagan? Yolgʻiz menmi har umidda aldangan? Yolgʻiz menmi koʻkragimni tigʻlagan? Yolgʻiz menmi sevinch bilan boʻlmagan. (Choʻlpon)	Анафора - метод применения одного слова,или словосочетания последовательно.Придаёт речи экспрессивность.	Anaphora is a method of applying a single word, or a phrase in succession. Speech expresses expressiveness.

<p>Antiteza - (qarshilantirish)- grekcha so‘z bo‘lib, «qarama-qarshi qo‘yish» ma‘nosini anglatadi. Rahm qilg‘il bandaga, ey shoh, ul tengri uchun Kim etar bizni gadoul sizni sulton aylagan.(Lutfiy)</p>	<p>Антитеза-сопоставление в переводе с греч. языка означает “противопоставить”.</p>	<p>Antithesis-comparison in translation from the Greek. language means "to oppose".</p>
<p>Antifraza -ham ironiyaning bir ko‘rinishidir. Masalan, “Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynotasi - Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko‘p “achindi” va yerni haydab olgani bitta emas,ikkita ho‘kiz berdi, lekin “kichkinagina sharti” bor. “Bu sharti kuzda ma‘lum bo‘ladi”. (A.Qahhor, «O‘g‘ri»).</p>	<p>Антифраза - разновидность иронии.</p>	<p>Antifraza - is a kind of irony.</p>
<p>Ariza - iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yoziladigan hujjat</p>	<p>Заявление-документ, содержащий сообщение или письменную просьбу о чем-н.</p>	<p>A statement - a document containing a message or a written request about something-n.</p>
<p>Bayon [tavsiflash, ifodalash] - tabiat va jamiyat haqidagi tushuncha hamda tasavvur yuzasidan inson fikri va mulohazalarining og‘zaki yoki yozma ifodasi. <i>Bayon qilish.</i></p>	<p>Сочинение – то что сочинено, научное художественное произведение и. т. п, в грамматике: соединение нескольких простых предложений в одно сложное.</p>	<p>The writing is something that is coherent, a scientific work of art and. T. N, in grammar: the combination of several simple sentences into one complex.</p>
<p>Badiiy uslub – ma‘lum bir voqelikni badiiy tasvir vositlari orqali obrazli ifodalovchi va shu yo‘l bilan tinglovchiga estetik ta‘sir etuvchi nutq uslubi</p>	<p>Художественный метод – метод отвечающий требованиям искусства, эстетического вкуса; эстетический, красивый.</p>	<p>Artistic method - a method that meets the requirements of art, aesthetic taste; Aesthetic, beautiful.</p>
<p>Betakror – takrorlanmaydigan, qaytib kelmaydigan; tengi yo‘q, noyob, topilmas.</p>	<p>Бесподобный – превосходный, ни с чем не сравнимый.</p>	<p>Unparalleled - excellent, incomparable.</p>
<p>Bildirishnoma - voqea-hodisalar haqida xabardor qilish, ayrim masalalarga xulosa va takliflar beruvchi hujjat</p>	<p>Рапорт-служебное сообщение, доложение о событиях или заключение или предложение по некоторым вопросам.</p>	<p>Report-service message, report of events or conclusion or proposal on some issues.</p>
<p>Buyruq - muassasa oldida turgan asosiy va kundalik vazifalarni hal qilish maqsadida chiqariladigan hujjat</p>	<p>Приказ-документ, выпускаемый с целью выполнения основных и повседневных задач ставленных перед учреждений.</p>	<p>Order-a document issued for the purpose of fulfilling the basic and daily tasks assigned to institutions.</p>
<p>Burch - ado etilishi, bajarilishi</p>	<p>Обязанность –круг действий,</p>	<p>Torture - the circle of</p>

majburiy bo'lgan vazifa; majburiyat. M: <i>Vatanparvarlik burchi</i> .	возложенных на кого- н. и безусловных для выполнения	actions assigned to s.o. and unconditional to perform
Bo'lim - idora va turli ishxonalarning ma'lum ish bilan shug'ullanadigan bir qismi, muayyan idoraga qarashli quyi idora. M: <i>Bo'lim mudiri</i> .	Отделение –самостоятельная часть, входящее в состав какого-н.учреждения, взвода,, вместелица	Branch is an independent part of a certain institution, platoon,
Guvohnoma - shaxsning xizmat va boshqa holatlarini, biror ishga oid vakolatini ko'rsatuvchi hujjat	Свидетельство- документ,удостоверяющий служебное или другое	Certificate - document certifying service or other
Davlat [mamlakat] - O'z fuqarolarining ijtimoiy-siyosiy huquqlarini himoya qiluvchi, bunga qarshi turuvchi kuchlarning qarshiligini sindiruvchi hokimiyat organlari va siyosiy tashkilotlari tizimiga ega bo'lgan mustaqil mamlakat. M: <i>Temuriylar davlati</i> .	Государство – основная политическая организация общества, осуществляющая его управление, охрану его экономической и социальной структуры	The state is the main political organization of the society, which manages its administration, protects its economic and social structure
Davlatchilik - davlat tuzumi; davlat sifatida uyushishning siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy asos va tamoyillari. M: <i>Davlatchilik usullari</i> .	Государственность - Государственный строй, государственная организация.	Statehood - State system, state organization.
Dalolatnoma-Biroir bir faoliyat, sodir bo'lgan voqea-hodisa yoki holatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida bir necha shaxslar tomonidan tuzilib imzolangan rasmiy hujjat; akt.	Акт – документ, удостоверяющий что – н. подписанный несколькими лицами.	Act - document certifying that. signed by several persons.
Devon - [she'rlar to'plami]- muayyan bir shoirning radif va qofiyalarga rioya etgan holda alifbo sirasi bilan tartib etilgan she'rlarining to'liq to'plami. M: <i>Navoiy devoni</i> .	Сборник стихотворений – книга в которой собраны стихотворения в алфавитном порядке.	Collection of poems - a book in which poems are collected in alphabetical order
Dialog- ikki kishi o'rtasidagi o'g'zaki muloqot, suhbat	Диалог –разговор между двумя лицами, обмен репликами.	Dialogue -conversation between two persons, exchange of replicas.
Dolzarb - bajarilishi, qilinishi kechiktirib bo'lmaydigan, birinchi galda hal etilishi lozim bo'lgan; o'ta muhim. M: <i>Dolzarb vazifa</i> .	Неотложный – такой который не может быть отложен, представляющий существенный интерес в данный момент.	Urgent - one that can not be postponed, representing a significant interest at the moment.
Doston [qissa, hikoya; tarix] - Nazm bilan yozilgan ulkan hikoya, qissa; poema. “ <i>Istambul fojiasi</i> ” dostoni.	Поэма – большое стихотворное произведение на историческую, героическую или возвышенную лирическую тему.	The poem - is a great verse work on a historical, heroic or sublime lyric theme.
Drama [yun. drama - harakat] - badiiy adabiyotning asosiy turidan biri: asosan dialog -personajlarning o'zaro so'zlashuvi shaklida, muallif nutqi aralastirilmay yozilgan sahna asarlaridan iborat. <i>Drama teatri</i> .	Драма – род литературных произведений, написанных в диалогической форме и предназначенных для исполнения актёрами на сцене. Драматический театр.	Drama - is a genus of literary works, written in a dialogical form and intended for performance by actors on stage. Theatre of Drama.

<p>Dunyoqarash - tabiat va jamiyatga, ularning ayrim voqea-hodisalariga bo'lgan ilmiy, mafkuraviy, ma'naviy, ilohiy qarashlar tizimi. <i>Har qanday odamning ham o'ziga xos dunyoqarashi bo'ladi.</i></p>	<p>Мировоззрение – система взглядов, воззрений на природу и общество. У каждого человека есть своё мировоззрение.</p>	<p>Worldview is a system of views, views on nature and society. Each person has his own worldview.</p>
<p>Ellipsis - grekcha «tushirib qoldirish» ma'nosini anglatadi. Nutq va mazmuni buzmaganda holda gapning ba'zi bo'laklari tushirilishi yoki so'zlarning qisqargan shaklida qo'llanishi uchraydi. Ellipsis nutqiy jarayonda ixchamlikni yuzaga keltiradi. Masalan; - Mashina olib keldim. - Ie, shunaqami. Qulluq bo'lsin! Qani? - Hovlida (A.Qahhor)</p>	<p>Эллипсис-пропуск в речи какого-н.легко подразумеваемого слова или члена предложения.В процессе речи эллипсы образуют краткость. Например: - Машину купил. -Ооо, поздравляю! - Где? - Во дворе (A.Каххор)</p>	<p>An ellipsis - skip in the speech of a mildly implied word or sentence member. In the process of speech, ellipses form a brevity. For example: - I bought the car. -Ooo, congratulations! "Where?" - In the courtyard (A.Kakhhor)</p>
<p>E'lon - yaqin orada bo'ladigan birin-bir tadbir haqida xabardor qilish uchun qo'llanuvchi yozma axborot</p>	<p>Заявление - официальное сообщение в устной или в письменной форме.</p>	<p>A statement - is an official communication either orally or in writing.</p>
<p>E'tiqod [ko'ngilda tasdiqlash; imon, maslak] - qattiq ishonch, dildan e'tirof etiluvchi tushuncha, nuqtai nazar, qarash. Biror kimsaga yoki narsaga bo'lgan ishonch. <i>E'tiqodi mustahkam.</i></p>	<p>Вера - убеждённость,глубокая уверенность в ком -чем – л. Убеждённость в существовании высших сил, божества</p>	<p>Faith - conviction, profound confidence in someone-why-Conviction of the existence of higher powers, deities</p>
<p>Epigraf [yun.epigraphe - yozuv] – qadimgi Rimda narsa-buyumdagi yozuv;nutq matni oldidan keltiriladigan, matnning bosh g'oyasiga mos tushadigan gap, maqol va boshqalar.</p>	<p>Эпиграф-изречение, краткая цитата перед произведением или его частью, характеризующие основную идею произведения.</p>	<p>Epigraph - saying, a brief quote before the work or a part of it, characterizing the main idea of the work.</p>
<p>Erkin birikmalar –so'zlar o'zaro erkin bog'langan bo'ladi, tushuncha anglatadi.<i>M: tiniq osmon, keng dala</i></p>	<p>Свободные словосочетания-соединение свободным образом двух или нескольких слов, без затруднений, произносящийся легко.</p>	<p>Free phrases - a connection in a free way two or more words, without difficulty, pronounced easily.</p>
<p>Fan - [ilm, bilim; tarmoq] - tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonuniyatlarini ochib beruvchi hamda o'zi erishgan natijalar bilan atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi bilimlar tizimi. <i>Fan yutuqlari. 2. Shunday bilimlar tizimining alohida tarmog'i, yo'nalishlari, sohalari. Iqtisodiy fanlar.</i></p>	<p>Наука –система знаний о закономерностях в развитии природы, общества и мышления, а также отдельная отрасль таких знаний.</p>	<p>Science - is a system of knowledge about the laws in the development of nature, society and thinking, and also a separate branch of such knowledge.</p>
<p>Fakultet -/nem. fakultät;</p>	<p>Факультет- отделение высшего</p>	<p>Faculty - department of</p>

<i>lot.facul-tatis - qobiliyat, imkoniyat] - oliy o'quv yurtining ma'lum ixtisoslik bo'yicha tegishli fanlar o'qitiladigan bo'limi. Moliya fakulteti.</i>	учебного заведения, где преподаются научные дисциплины какой- н. одной отрасли знаний.	higher education, where scientific disciplines are taught. one branch of knowledge.
Filial - [<i>lot. filialis - o'g'ilga oid, o'g'ilniki</i>] - biror yirik korxonada, muassasa yoki jamoat tashkilotining mustaqil bo'limi, sho'ba. <i>Xorazm Ma'mun akademiyasini O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Xorazm-Amudaryo mintaqasi filiali sifatida qaytadan tikladi.</i>	Филиал - самостоятельное отделение какого- н. учреждения.	Branch - independent department of any institution.
Fuqaro ["faqir" so'zining ko'pl.] - biror mamlakatning doimiy aholisi; umuman oddiy xalq, omma. M: <i>O'zbekiston fuqarosi.</i>	Гражданин [слова «факир»] - является постоянным жителем страны; Вообще обычные люди, публичные. M: Гражданин Узбекистана.	A citizen - [of the word "fakir"] is a permanent resident of the country; In general, ordinary people, public. M: A citizen of Uzbekistan.
Frazeologik birlik - frazeologiyaga oid, aloqador birliklar ya'ni atamalar. M: <i>Frazeologik amonimiya, frazeologik lug'at</i>	Фразеологическое единство - Фрезология, связанные единицы, т. Е. Термины. M: Фразеологический аммиак, фразеологический словарь	Phraseological unity - Frezology, connected units, t. E. Terms. M: Phraseological ammonia, phraseological dictionary
Global muammo - fr. global — umumiy. Yer yuziga oid, butun yer sharini qamrab oluvchi muammolar. Global muammolar umumbashariy, keng miqyosdagi, jahon ahamiyatiga molik.	Глобальная проблема - Проблемы, стоящие перед лицом всей планеты. Глобальные проблемы универсальны, глобальны, глобальны.	The global problem - is fr. Global - common. The problems facing the whole face of the earth. Global problems are universal, global, global.
Haqiqat [rostlik, to'g'rilik; tub ma'no] - chindan ham bo'lgan, voqelikka mos holat, narsa. Ma'lum tartib-qoida, qonunlarga mos ish, xatti-harakat, holat. M: <i>Amir Temur adolat, insof va haqiqatga tayanadi.</i>	Правда - то что соответствует действительности, истина порядок основанный на справедливости, честности.	True - what is true, the truth order based on justice, honesty.
Hikoya [gapirib, so'zlab berish; qissa; tarix] - kimsa, narsa va u bilan bog'liq voqea-hodisalarning og'zaki tavsifiy bayoni. M: <i>Hikoya tinglamoq.</i>	Рассказ - словесное изложение каких-н. событий, художественное повествовательное прозаическое произведение небольшого размера.	A story - a verbal statement of what-n. Events, an artistic prose works of small size.
Hisobot - muayyan vaqt uchun rejalashtirilgan ish yoki vazifa, topshiriqlarning bajarilganligi haqida ma'lumot beruvchi hujjat	Отчёт -сообщение или доклад о своих действиях, работе.	Report -report or report on their actions, work.
Ijod [yaratish, kashf etish; vujudga keltirish] - badiiy, ilmiy,	Творчество - создание новых по замыслу культурных,	Creativity - the creation of new cultural and

san'atga oid asar yoki moddiy boylik yaratish, vujudga keltirish; yaratuvchilik faoliyati. M: <i>Kamoliddin Behzod ijodi.</i>	материальных ценностей.	material values.
Ilm - [bilim; fan]- o'qish-o'rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim; ko'nikma, ma'lumot. Ish-faoliyatning ma'lum bir sohasiga oid bilim, ta'limot, malaka. <i>Ilm o'rganish.</i> . Ish-faoliyatning ilm bilan bog'liq sohasi; tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar tizimi. <i>Iqtisodiyot ilmi.</i>	Знание – совокупность сведений, познаний в какой-н области.	Knowledge - is a collection of information, knowledge in which area.
Ironiya (kesatiq) - grekcha «zimdan kulish», «kesatish» ma'nosida qo'llanadi. So'z va iboralarni kesatish, kinoya, birov ustidan kulish maqsadida so'z ma'nosiga zid ma'noda qo'llash ironiya (kesatiq) sanaladi.	Ирония - тонкая, скрытая насмешка. Употребление слова или выражения с целью насмешки над кем-то считается иронией.	Irony - is a subtle, hidden mockery. The use of words or expressions to ridicule someone is considered ironic.
Jim qolish - so'z yoki so'zlar guruhining gap oxirida tushirib qoldirilishi jim qolish deyiladi. Uni ellipsisning bir ko'rinishi ham deyish mumkin. M: -Qaydam... -Gupchehra yelkalarini qoqib qo'ydi. (U. Umarbekov)	Промолчать -пропуск слов или словосочетаний в конце предложений.	Keep silent - skip words or phrases at the end of sentences.
Jonlantirish - insonga xos xususiyatlarni jonsiz narsalarga nisbat qilib tasvirlashdir.	Оживление - изображение неодушевлённых предметов, придавая им человеческие качества.	Animation - is the image of inanimate objects, giving them human qualities
Intervyu - <i>inglizcha</i> : interview — uchrashuv, yuzma-yuz suhbat. Jurnalistika janri; matbuot, radio yoki televideniya berish uchun muxbirning biror shaxs bilan o'tkazgan suhbat va shu suhbatning matni.	Интервью - предназначенная для печати беседа журналиста с каким-н общественным деятелем	Interview - a print interview of a journalist with a public figure
Institut - [<i>lot.</i> institutum - o'rnatish, tuzish, ta'sis etish] - ba'zi oliy o'quv yurti va ilmiy-tekshirish muassasalarining nomi. M: <i>Moliya instituti.</i>	Институт - название некоторых высших учебных заведений и научных учреждений.	The Institute - is the name of some higher educational institutions and scientific institutions.
Iste'dod [moyillik; qobiliyat] - Nihoyatda zo'r ijodiy qobiliyat; layoqat. <i>Shoirlik iste'dodi.</i>	Способность - талант, дарование. Умение, а также возможность производить какие-н. действия.	Ability - talent, talent. Ability, as well as the ability to produce what-n.
Iqtidor - (kuch-quvvat, qudrat; qodirlik, qobiliyat, holat)kuch-qudrat, qodirlik	Талант - даров	Talent - gifts

<p>Ishonchnoma - muayyan muassasa yoki ayrim shaxs o'z nomidan ish ko'rish uchun ikkinchi bir shaxsga ishonch bildiradigan yozma vakolatli hujjat</p>	<p>Доверенность- документ, которым доверяется кому-н .действовать от имени доверителя.</p>	<p>A power of attorney - is a document that is trusted by someone to act on behalf of the principal.</p>
<p>Kafedra - [yun. kathedra - o'rindi, kursi] - ma'ruza o'qish, va'z aytish, axborot berish uchun mo'ljallangan baland qurilma; minbar. Oliy o'quv yurtlarida bir yoki bir necha o'zaro yaqin fanlar bo'yicha ish olib boruvchi professorlar, o'qituvchilar va ilmiy xodimlarning tashkiliy birlashmasi va shu birlashma joylashgan xona. M: <i>Bank ishi kafedras</i>.</p>	<p>Кафедра- объединение преподавателей какой-н. отрасли науки в высшей школе.</p>	<p>Chair - association of teachers what-n. Branch of science in higher education.</p>
<p>Kutubxona [“kitob”ning ko'pl. + xona] - kitob, jurnalni to'plash, saqlash va ularni tashviqot qilish, o'quvchilarga foydalanish uchun berish bilan shug'ullanuvchi muassasa. M: <i>O'zbekiston Milliy kutubxonasi</i>.</p>	<p>Библиотека-учреждение, собирающее и хранящее книги для общественного пользования.</p>	<p>Library - is an institution that collects and stores books for public use.</p>
<p>Konferensiya [lot. coferentia - bir joyga to'planish; yig'ilish] -biror masalani muhokama qilish, hal etish uchun hukumat, partiya, ijtimoiy, ilmiy tashkilotlar vakillarining muayyan masalaning muhokamasi va yechimiga bag'ishlangan majlisi, yig'ilishi.</p>	<p>Конференция – собрание, совещание представителей каких-н. государств, организаций.</p>	<p>Conference - a meeting, a meeting of representatives of the n. states, organizations.</p>
<p>Kurs ishi — oliy o'quv yurtlari talabalari tomonidan o'quv rejasidagi umum kasbiy vama xsus fanlar bo'yicha bajariladi gan mustaqilish. Kurs ish i prof. o'qituvchilar rahbarligida talabalar do'plangan nazariy bilim dan muayyan masalani yechish da mustaqil foydalanish ko'nikmasini yokimavzunichuquro'rganish maqsadida bajariladi.</p>	<p>Курсовая работа- изложения научной дисциплины в высшей школе.</p>	<p>Coursework - presentation of scientific discipline in higher education.</p>
<p>Lahja - har bir sheva bir necha lahjalarga bo'linadi. Shahar shevalari umumiy tomonlarga ega bo'lsa ham, ayrim so'zlarda (<i>tancha, turshak - Toshkent</i>) va ba'zi qo'shimchalarda, unlilar talaffizida (<i>kevotti, kelutti, kelyapti; Sho'kat, Do'vlat, ating ninta? Kitobdi o'qidingizmi?</i>) farqlanib turadi.</p>	<p>Циттата - точная, буквальная выдержка из какого-н. текста.</p>	<p>Zittata - exact, literal extract from what-n. text.</p>
<p>Leksika - yunonchalexikos —</p>	<p>Лексика- словарный состав</p>	<p>The vocabulary - of the</p>

<p>soʻzga oid, lexis — soʻz, ibora. Biror til yoki shevada muayyan paytda mavjud boʻlgan soʻzlar majmui; biror ish faoliyat, kasb-hunar sohasida qoʻllaniladigan soʻz va terminlar, shuningdek, biror muallif badiiy asarlarining soʻz boyligi. M: <i>Oʻzbek tili leksikasi, Navoiy asarlari leksikasi.</i></p>	<p>языка или произведение какого — н. писателя</p>	<p>language or the product of exp. Writer</p>
<p>Litota [yun. Litotes - oddiylik] - nutqda narsa-hodisaning belgisini kichraytirib, zaiflashtirib tasvirlash usuli.</p>	<p>Литота (с греч.litotes-простота) - уменьшение признака предмета или события в речи. Литота-метод упрощенного и уменьшенного описания признаков предмета или событий в речи.</p>	<p>Litota- (with grech.litotes-simplicity) is a decrease in the sign of an object or event in speech. Litota-method of a simplified and reduced description of the features of an object or events in speech</p>
<p>Lugʻat - [arabcha: til sheva, soʻz, ibora] Biror tildagi soʻzlarni maʼlum tartibda (odatda alifbo tartibida) jamlab, izohlab yoki boshqa tilga tarjima qilib berilgan kitob. Fan, texnika,kasb-hunarining biror sohasida qoʻllaniladigan terminlar majmui. Tilshunoslikning terminlarni oʻrganish, tartibga solish bilan shugʻullanuvchi sohasi. M: <i>Izohli lugʻat. Imlo lugʻati.</i></p>	<p>Словарь- сборник слов в алфавитном порядке, с пояснениями, толкованиями или с переводом на другой язык; Совокупность всех слов какого — н. языка, а также слов, употреблённых в каком — н. одном произведении или в произведениях какого - н. писателя.</p>	<p>A dictionary - is a collection of words in alphabetical order, with explanations, interpretations or with translation into another language; The totality of all words of what - n. language, as well as words used in what - n. one work or in the works of which - exp. Writer.</p>
<p>Madhiya - «madh» - «maqtov» soʻzidan kelib chiqqan. Madhiya gimnoʻzmustaqilligigaegaboʻlgan, rivojlanganharbirmamlakatningalomati - ramzidir.</p>	<p>Гимн —торжественная песня принятая как символ государственного или классового единства.</p>	<p>Гимн - is a solemn song adopted as a symbol of state or class unity.</p>
<p>Madaniyat - (arabcha) taʼlim - tarbiyalilik va ziyolilik.</p>	<p>Култура — совокупность достижений человечество в производственном общественном и умственном отно</p>	<p>Culture - the totality of achievements of mankind in the productive social and intellectual attitude</p>
<p>Matn - nutqning yozuvdagi ifodasi, tekst, yoʻzuvda bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat. Bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi. Matn bu — maʼlumot olish ob'ekti. Matnlar bizga turli yoʻnalishdagi maʼlumotlar manbai boʻlib xizmat qiladi.</p>	<p>Текст - Основная часть печатного издания без рисунков, рисунков и комментариев. Текст является объектом информации. Тексты служат источником информации в разных направлениях.</p>	<p>Text - The written expression in the text of speech, text]. The main part of the print edition without drawings, drawings and comments. The text is an object of information. Texts serve</p>

		as a source of information in different directions.
Mashq - biror faoliyatni puxta o'rganish, malaka hosil qilish uchun bajariladigan ish, tayyorgarlik mashg'uloti. <i>She'r yozishni mashq qilardi.</i>	Упражнение (примеры для рисования, рисования) - исследование деятельности, работа над квалификацией и подготовительная работа. Она занималась написанием стихов.	Exercise - (examples for drawing, drawing) - research activities, work on qualifications and preparatory work. She was writing poetry.
Ma'naviy [ma'noviy; aqliy; axloqiy] - ma'naviyatga oid, ma'naviyat, axloq bilan bog'liq. M: <i>Ma'naviy meros.</i>	Духовность - связан с духовностью, духовностью, моралью. M: Духовная наследственность.	Spirituality - [morally; intellectual; Moral] - is associated with spirituality, spirituality, morality. M: Spiritual heredity.
Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar - ma'naviyatga va axloqqa daxldor bo'lgan qadriyatlar. M.a.q. yoshlarni o'zini o'zi tarbiyalashga undaydi. Ular o'sha qadriyatlar va ideallarga munosib bo'lish uchun intiladilar.	Духовные и моральные ценности - моральные и духовные ценности. M.a.q. поощряет молодых людей к самодисциплине. Они стремятся быть достойными этих ценностей и идеалов.	Spiritual and moral values - are moral and spiritual values. M.a.q. Encourages young people to self-discipline. They strive to be worthy of these values and ideals.
Ma'lumotnoma - bo'lgan voqea yoki mavjud holatlarni ifodalaydigan hujjat.	Справка - документ, содержащий сведения о ком или о чём-н.	Help - document containing information about whom or about what-n.
Metafora - [yun. Metaphora - ko'chirish] narsa-hodisaning o'zaro o'xshashligiga asoslangan ko'chim turlaridan biri. O'zbek mumtoz adabiyotidagi <i>istiora</i> . Masalan, Shu bir balo bo'lib, o'lib-netib qolmay-da. Xotin u yoqda kasal, <i>jo'jalarning</i> holi nima kechadi? (S.Ahmad) Til metaforalari bilan nutq metaforalarini farqlash lozim: til metaforalari nomi yo'q narsalarni nomlagani uchun ularda emostional-ekspressivlik aks etmaydi, nutq metaforalarida esa nutq ob'ektiga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabat anglashilib turadi, ular nutq predmetini baholaydi; uning eng muhim xususiyati nomi bor narsani qayta nomlashidir.	Метафора - оборот речи-употребление слов и выражений в переносном смысле на основе аналогий,сходства,сравнения.	Metaphor - the turnover of speech - the use of words and expressions in a figurative sense on the basis of analogies, similarities, comparisons.
Metonimiya - grekcha so'z bo'lib, boshqacha nomlash degan ma'noni beradi. Bunda tashqi va ichki tomonidan bir-biriga aloqador narsa yoki hodisaning nomi boshqa narsa yoki hodisaga ko'chiriladi. Masalan,	Метонимия - оборот речи-замена одного слова другим, смежным по значению,напр.: стол вместо еда.	Metonymy - the rotation of speech-the replacement of one word by another, adjacent in meaning, eg: a table instead of a meal

<p>Muallifning nomi asarning nomi bilan ataladi: Navoiyni qo'lga olganimda mahalla so'fisining azoni eshitildi. Oybekni o'qidim. Bu o'rinlarda Navoiyning kitobini qo'lga olganimda yoki Oybek asarlarini o'qidim degan ma'no tushuniladi.</p>		
<p>Monolog - so'zlovchining o'ziga yoki tinglovchilarga qaratilgan nutqdir. Monologik nutqda so'zlovchi o'ziga ma'lum bo'lgan voqyea-hodisalar o'z ichki kechinmalari haqida ma'lumot beradi. Monologik nutq tinglovchilarni suhbatga faol aralashuvga undamaydi; ulardan aytilganlarga javob talab qilmaydi.</p>	<p>Монолог - это беседа с самим докладчиком или с аудиторией. В монографической речи оратор рассказывает историю своих внутренних переживаний. Монолог не поощряет слушателей активно вмешиваться в беседу; Не требует ответов на них.</p>	<p>A monologue - is a conversation with the speaker himself or with the audience. In a monographic speech, the speaker tells the story of his inner experiences. The monologue does not encourage listeners to actively intervene in the conversation; Does not require answers to them.</p>
<p>Monologik nutq - o'z xususiyatlariga qarab bir necha ko'rinishda bo'lishi mumkin: ichki monolog va tashqi monolog: tashqi monologning dramatik monolog, lirik monolog, xabar monologi kabi turlari bor.</p>	<p>Монолог - может быть различным в зависимости от его характеристик: внутренний монолог и внешний монолог: внешний монолог, драматический монолог, лирический монолог, монолог новостей.</p>	<p>A monologue - can be different depending on its characteristics: an internal monologue and an external monologue: an external monologue, a dramatic monologue, a lyrical monologue, a news monologue.</p>
<p>Morfema - (grekcha) tilshunoslikka oid termin bo'lib, so'zning ma'no anglatuvchi, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan qismi (yoki bo'lagi) (o'zak morfema, affiksial morfema).</p>	<p>Морфема - минимальная значимая часть слова (корень, приставка, суффикс, постфикс)</p>	<p>Morpheme - is the minimum meaningful part of a word (root, prefix, suffix, postfix)</p>
<p>Muassasa - [idora, korxon, tashkilot]- xo'jalik, savdo-sotiq ishlarining biror sohasini boshqaruvchi yoki ilmiy, ta'lim-tarbiya ishlarini olib boruvchi, belgisi shtat va ma'muriyatiga ega bo'lgan tashkilot. <i>Davlat muassasalari.</i></p>	<p>Учреждение - это организация, которая управляет деловым или научным, образовательным учреждением и имеет статус и полномочия бизнеса. Государственные учреждения.</p>	<p>Establishment - [agency, enterprise, organization] - is an organization that manages a business or scientific, educational and educational institution and has the status and powers of business. Government agencies.</p>
<p>Muzey [lot. museum; yun. museion - muzalar ibodatxonasi]- San'at, texnika, tabiat namunalari, tarixiy va ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan narsalarni yig'ish, saqlash, o'rganish va xalqqa namoyish qilish bilan shug'ullanadigan muassasa. M:</p>	<p>Музей- учреждение, занимающееся собиранием, хранением и выставкой для обозрения чего-н.памятников искусства, предметов техники, научных коллекций, предметов, представляющих</p>	<p>The museum - is an institution engaged in collecting, storing and exhibiting for viewing something of the memory of art, objects of technology, scientific</p>

<i>Temuriylar tarixi Davlat muzeyi.</i>	исторический интерес.	collections, objects of historical interest.
Mumtoz [mashhur, saralangan] - Muayyan millat va jahon fani, san'ati, adabiyotida muhim o'rin tutadigan, millatning shon-shuhrati va faxri hisoblangan; klassik. Mumtoz musiqa.	Классический - являющийся классиком, созданный классиками; Античный, относящийся к древней греко-римской культуре; Произведение считающийся популярным в мировой культуре, науке, являющийся гордостью, историей какой-н. нации.	Classic - is a classic, created by classics; Antique, relating to the ancient Greek-Roman culture, a work considered popular in world culture, science, being pride, history of a nation.
Multimedia - ma'lum bir mavzuda elektron programmalaridan foydalanib yaratilgan tasviriy ma'lumotlar majmuasi.	Мультимедия - видеоматериал изображающий движущихся анимациями картинки, с определёнными моментами объясняемого объекта, материала.	Multimedia - video material depicting animations moving with animations, with certain moments of the explained object, material.
Musiqa [yun. musike— muzalarsan'ati] - inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovushlar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi san'at turi. M: <i>Ibn Sino sharqda san'at nazariyotchisi, ayniqsa, musiqa ilmining bilimdoni sifatida tez-tez tilga olinadi.</i>	Музыка - искусство , в котором переживания, чувства и идеи выражаются ритмически и интонационно организованными звукамиб а также сами произведения этого искусства.	Music is an art in which experiences, feelings and ideas are expressed in rhythmically and intonationally organized sounds and also the works of this art.
Mustamlakachilik - kuchli davlatlar tomonidan zo'rlik bilan egallangan mamlakat yoki hududni siyosiy va iqtisodiy mustaqillikdan mahrum etib, o'ziga bo'ysundirish, qaram qilish, talash siyosati. M: <i>Mustamlakachilik siyosati.</i>	Колониализм - это политика подчинения, зависимости и насилия могущественными государствами, которые лишают страну или территорию политической или экономической независимости. M: Колониальная политика.	Colonialism - is a policy of subordination, dependence and murder by powerful states that deprive a country or territory of political or economic independence. Exp: Colonial politics.
Mutafakkir [fikir yurituvchi, fikrlovchi] -falsafiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan kishi. M: <i>Sharqda yashab ijod etgan barcha mutafakkirlar xalqlar do'stligini orzu qilib, ajoyib fikrlar aytganlar.</i>	Мыслитель – человек, обладающий даром глубокого оригинального мышления.	The Thinker - is a person who has the gift of deep original thinking.
Nazm - (arabcha) she'riy asar: she'riyat janri, she'r o'lovchi.	Лирика - род литературных произведений, преимущественно о выражающих чувства и переживания	Lyrics - a kind of literary works, predominantly frightening feelings and emotions

Nasr - (arabcha) proza, prozaik asar, proza janri	Проза - нестихотворная литература, прозаическое произведение.	Prose-non-literary literature, prose work.
Nutq uslublari -Adabiy tilning ijtimoiy hayotning ma'lum sohasi doirasida qo'llaniladigan ko'rinishi nutq uslublari deyiladi.	Стили речи - то, как литературный язык может использоваться в определенной области общественной жизни, называется речевым стилем.	Speechstyles - the way a literary language can be used in a particular area of public life is called a speech style.
Odob - muomalada o'zini tuta bilish.	Поведения - самоконтроль.	Behavior - self-control.
Obrazlilik - borliqdagi narsalarni oddiy aks ettirishdan iborat emas, balki badiiy aks ettirishdir.	образность - это не просто отражение того, что есть, но и художественное выражение.	Illustration - is not just a reflection of what is, but also an artistic expression.
Orfoepiya - (yunoncha: Orfo- "to'g'ri", epos - "nutq", "talaffuz") Orfoepiya so'zlarni, ularning tarkibidagi tovushlarni, shuningdek, so'z va qo'shimchalardan iborat so'z formalarini to'g'ri talaffuz qilish me'yorlari tizimidir. So'zlarni to'g'ri talaffuz qilish haqidagi qoidalar; to'g'ri talaffuz. Tilshunoslikning nutq tovushlari va so'zlarni to'g'ri aytish, talaffuz qilish o'rganiladigan bo'limi.	Орфоэпия - правила образцового литературного произношения Правила правильного произношения слов; Правильное произношение. Слоги программы и способность произносить слова правильно и произносятся.	Orfoepia - (Greek: Orfo - "right", epic - "speech", "pronunciation") Orfoepia contains words, their sounds and vocabulary words and phrases. Is the system of curves of pronouns. Rules for the correct pronunciation of words; Correct pronunciation. The syllables of the program and the ability to pronounce the words correctly and are pronounced.
Perifraz - grekcha «aylana», «atrof», «boshqacha gapiraman» ma'nosini anglatadi. ... shu bilan muhtaram ustod menga go'yo muborak ko'zoynaklarini berdilar. (A.Qahhor. "O'tmishdan ertaklar").	Перифраза - греческий означает «круг», «окружающая среда», «я говорю по-другому». Выражение, являющееся описательной передачей смысла другого выражения или или слова, напр. «пишущий эти строки» вместо «я» в речи автора ... и, по сути, они дали мне свои благословенные очки. (А. Каххор, «Рассказы из прошлого»).	Perifazian -Greek means "circle", "environment", "I speak differently". ... and, in fact, they gave me their blessed sunglasses. (A. Kakhhor, "Stories from the Past").
Prezident [lot. praesidentis - oldinda o'tiruvchi] - respublika boshqaruvi shaklidagi ko'pchilik mamlakatlarda ma'lum muddatga saylab qo'yiladigan davlat boshlig'i. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.	Президент - глава государства, избранный в течение определенного периода времени, в большей части правящей формы республики. Президент Республики Узбекистан.	President - is the head of state, elected for a certain period of time, in most of the ruling form of the republic. President of the Republic of Uzbekistan.

<p>Professor - [lot. professor - muallim, o'qituvchi; murabbiy]- oliy o'quv yurtlaridagi eng malakali o'qituvchilarning, shuningdek, ilmiy-tadqiqot institutlaridagi ilmiy xodimlarning ilmiy unvoni va lavozimi; shunday unvon va lavozimli shaxs. M: <i>Kafedra professori</i>.</p>	<p>Профессор - академическое звание и должность наиболее квалифицированных преподавателей высших учебных заведений, а также исследователи из научно-исследовательских институтов; Он является титулом и генеральным директором. Н: Профессор кафедры.</p>	<p>Professor - [a lot. Professor - teacher, teacher; Coach] - the academic title and position of the most qualified teachers of higher education institutions, as well as researchers from research institutes; He is the title and CEO. Exp: Professor of the department.</p>
<p>Poytaxt [taxtning quyi, etak qismi, asosi] -davlatning bosh shahri.</p>	<p>Столица - [база, база престола] является главным городом государства.</p>	<p>The capital - [base, throne base] is the main city of the state.</p>
<p>Polilog - ikkidan ortiq ishtirokchilarning nutqidan tuzilgan suhbat. So'zlovchi o'rta tashlagan muammoga birdan ortiq ishtirokchi o'z fikrini bildirishi mumkin.</p>	<p>Полилог - это интервью, состоящее более чем из двух участников. Более одного участника могут выразить свою точку зрения на проблему, поднятую докладчиком.</p>	<p>"Polylogue" - is an interview consisting of more than two participants. More than one participant can express their point of view on the problem raised by the speaker.</p>
<p>Publisistik uslub – ommaviy axborot vositalari uslubi</p>	<p>Публицистический стиль - стиль медиа</p>	<p>Publicistic style - style of media</p>
<p>Qadriyat [arabcha: qiymat, ahamiyat; qimmatbaho buyumlar; xalq boyligi] - voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-ahloqiy, madaniy, ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, moddiy va ma'naviy boyliklar qadriyat hisoblanadi.</p>	<p>Слава - это концепция, которая используется для демонстрации всеобщего, социального, морального, культурного и духовного значения определенных событий в реальном мире. Все, что имеет значение для человечества и человечества, заслуживает такой ценности, как свобода, мир, справедливость, просвещение, истина, доброта, материальные и духовные ценности.</p>	<p>Glory [Arabic: value, importance; valuable goods; national wealth] is a concept that is used to demonstrate the universal, social, moral, cultural and spiritual significance of certain events in the real world. All that matters to mankind and humanity deserves such value as freedom, peace, justice, enlightenment, truth, kindness, material and spiritual values.</p>
<p>Qimmatbaho [bahosi, narxi yuqori, qimmat] - katta pul turadigan, qimmat bahoga ega. Nafaqat moddiy balki ma'naviy jihatdan qimmatli. M: <i>Qimmatbaho asarlar</i>.</p>	<p>Драгоценность - отличное соотношение цены и качества, дорогие. Это не только тривиально, но и духовно ценно. M: Драгоценные работы.</p>	<p>Jewel - [high prices, expensive] - excellent value for money, expensive. This is not only trivial, but also spiritually valuable. M: Precious work.</p>
<p>Qolipli hujjatlar - oldindan</p>	<p>Типовые документы-</p>	<p>Collective documents -</p>

tayyorlangan bosma ish qog'ozlariga yoziladigan hujjatlar	Документы, которые готовятся заранее и пишутся на печатных деловых бумагах.	documents that are printed on printed works
Rasmiy diplomatik uslub —hozirgi o'zbek tilining davlat-ma'muriy, huquqiy muassasalarida, rasmiy diplomatik munosabatlarida namoyon bo'ladigan ko'rinishidir.nota, bayonotnoma, bitim, konvensiya.	Официальный дипломатический стиль - является проявлением современного состояния узбекского языка в государственно-административных, правоохранительных, официальных дипломатических отношениях. Заявление, декларация, соглашение, конвенция.	The official diplomatic style is a manifestation of the modern state of the Uzbek language in state-administrative, law-enforcement, official diplomatic relations. Statement, declaration, agreement, convention.
Referat – asosiy matn yoki bir necha manbalarni talqin qilish shakllaridan biri. Shuning uchun referat, konspektdan farqli ravishda, yangi, muallifning matni hisoblanadi. Bunday holdagi yangilik yangicha bayonni, materialning bir tizimga solinishi, har xil nuqtayi nazarlarni qiyoslashda muallifning o'z nuqtai nazarini ko'zda tutadi. Referat qandaydir masalaning bir yoki bir necha manbalarning tasniflanishi, umumlashtirilishi, tahlili va sintezi asosida bayon qilinishini nazarda tutadi	Реферат - один из способов интерпретации базового текста или нескольких источников. Поэтому в отличие от концепции абстракция представляет собой новый, авторский текст. Инновации в этом контексте обеспечивают собственную точку зрения автора на новое утверждение, единый материал и сравнение углов. Референдум предполагает, что конкретная проблема основана на классификации, обобщении, анализе и синтезе одного или нескольких источников	Abstrakt - asosiy matnni yoki bir nechta manbalarni sharhlashning usullaridan biri. Shuning uchun, ajralmaslik kontseptsiyasidan farqli o'laroq, yangi, muallifning matnidir. Ushbu nuqtai nazardan Innovatsiyalar muallifga o'z nuqtai nazarini yangi bayonot, yagona material va burchaklarni taqqoslash imkonini beradi. Referendumda ma'lum bir muammo bir yoki bir necha manbalarni tasniflash, sintez qilish, tahlil qilish va sintezlashga asoslanganligini ko'rsatadi
Rezyume - fransuzcha "résumé" so'zidan kelib chiqqan va sodda qilib aytganda "qisqacha izoh" ma'nosini bildiradi. Rezyume ishga hujjat topshirayotgan shaxs to'g'risida ma'lumotni taqdim etadining ismi, ma'lumot darajasi, ish tajribasi, qizishlari va h.k.	Резюме - получено из французского слова «rubé» и просто означает «краткое объяснение». В резюме содержится информация о лице, подающем заявку на работу - его имя, уровень образования, опыт работы, страсть и т. Д.	Summary - derived from the French word "rubé" and simply means "a brief explanation". The resume contains information about the person applying for a job - his name, level of education, work experience, passion, etc.
Reportaj - [fr. reportage; ингл. report — xabar bermoq, xabardor	Репортаж - [fr. репортажная; визуальный. Отчет -	Report - [fr. Reportage; visual. Report - inform,

qilmoq] oqea sodir bo'lgan joining o'zidan matbuot, radio, televideniye orqali zudlik bilan xabar yetkazish; shunday xabarning o'zi.	информировать, сообщать) мгновенное уведомление об этом инциденте с помощью прессы, радио, телевидения	report) an instant notification of this incident through the press, radio, television
Ruboiy [to'rtlik] - to'rt misradan iborat, tugal ma'no ifodalovchi, birinchi, ikkinchi, to'rtinchi misralari yoki to'rtala misrasi ham qofiyadosh bo'lgan mustaqil she'r; Sharq xalqlari she'riyatida keng tarqalgan poetik janr. M: <i>Alisher Navoiy ruboiylari</i> .	Rubio - независимое стихотворение, состоящее из четырех букв, первого, второго, четвертого или четырехточечного, представляющего конечный смысл; Поэтический жанр, обычно используемый в поэзии восточных людей. н: Алишер Навои рубины	Rubio [quad] - an independent poem, consisting of four letters, the first, second, fourth or four-point, representing the final meaning; Poetic genre, commonly used in the poetry of Oriental people. n: Alisher Navoi rubies
Sabr — ma'naviyatning tarkibiy qismi, ma'naviy hodisa. kishilarni beg'araz baholovchi shaxsiy xususiyat, bag'rikenglik, tolerantlik turli-tumanlikka, shu jumladan, ziddiyatli xislatlarga ega voqea-hodisalarga bardoshlilik.	Терпение - это компонент духовности, духовного феномена. Личность, терпимость, терпимость, терпимость, терпимость к разнообразию, включая конфликтующие события.	Patience - is a component of spirituality, a spiritual phenomenon. Personality, tolerance, tolerance, tolerance, tolerance for diversity, including conflicting events
Sarkazm - grekcha so'z bo'lib, «achchiq zaharxanda», «istehzoli ta'na», «piching» ma'nolarini anglatadi. M: ...mulla Norqo'zining xotini pokdomon. Uning bitta-yu bitta o'rtog'i bor. Bu xotin to'g'risida mulla Norqo'zi shunday fikrda, agar farishta ilgari o'tgan bo'lsa, shuning onasi, endi tug'ilgan bo'lsa, shuning bolasi bo'ladi. - Bu farishta erkak kishi edi. -Ha, bu kishining xotini mayiz emagan. (A.Qahhor, «Mayiz emagan xotin»).	Сарказм - язвительная насмешка, злая ирония.	Sarcasm -sarcastic ridicule, wicked irony.
San'at [mehnat; mahorat] - ijtimoiy madaniyatning estetik zavq beruvchi, musiqa, musavvirlik, haykaltaroshlik kabi voqelikni badiiy obrazlar vositasida aks ettiruvchi har bir ayrim sohasi. M: <i>Tasviriy san'at</i> . Muayyan faoliyat sohasidagi yuksak mahorat, ustalik; iste'dod. M <i>So'z san'ati</i> .	Искусство [Труд; умение] - это отрасль социальной культуры, эстетически приятная, музыка, живопись, скульптура и все аспекты художественного выражения. M: Изобразительное искусство. Высокий профессионализм, умение в определенной сфере деятельности; талант. например, словарь.	Art [Work; skill] - is a branch of social culture, aesthetically pleasing, music, painting, sculpture and all aspects of artistic expression. M: Fine arts. High professionalism, ability in a certain field of activity; talent. for example, a dictionary.
San'atkor [san'at bilan shug'ullanuvchi] -san'at sohibi,	Художник [художник] - художник, который сыграл	The artist [artist] - is an artist who has played a

san'atning biror sohasini egallagan ijodkor. Yuksak mahoratga ega bo'lgan yaratuvchi. M: <i>Mashhur san'atkor</i> .	часть искусства. Создатель с высоким мастерством. M: Знаменитый художник.	part of art. Creator with high skill. M: The famous artist.
Siymo [yuz, chehra, qiyofa] - shaxs, zot. M: <i>Ulug' siymo</i> .	Сиимо [лицо, лицо, внешний вид] - сущность, породы.	Simo [face, face, appearance] - essence, breeds.
Sinonim - [yun.synonymos — bir xil nomli]. Shakli har xil, ma'nosi esa bir yoki bir oz farqli bo'lgan til birliklari qatoridagi har bir til birligi. M: katta, ulug', buyuk, gigant	Синоним - [yun.synonymos - одноименное имя]. Каждый языковой блок в строке разных языков, что означает один или несколько разных языковых единиц. M: большой, большой, великий, гигантский	Thesynonym is [yun.synonymos - the same name]. Each language block in a row of different languages, which means one or more different language units. M: big, big, great, gigantic
Sinekdoxa - grekcha so'z bo'lib, birlik va jamlik, qism bilan butun, jins bilan tur o'rtasidagi ko'chimdir. Ba'zi shevalarda bizning uyga (hovlimizga) keling deyish o'rniga bizning eshikka keling deyilar. Tirnoqqa zor bo'lib o'tdi (farzandga). Oqsoqol bugun kechga tomon keladi. Tuyoqlar soni ko'paydi.	Синекдоха - вид метонимии-название части вместо целого, частного вместо общего и наоборот, н.: "очаг" в значении "дом."	The synecdoche - is a kind of metonymy-the name of the part instead of the whole, private instead of the general and vice versa, n.: "Hearth" in the meaning of "house."
Simvol (ramz) -majoz turlaridan biri. Hayotdagi voqea-hodisalar, tushuncha va narsalar shartli ravishda ko'chma ma'noda qo'llanadigan so'z va so'z birikmalari bilan ifodalanadi. Masalan:tong-yoshlik, quvnoqlik, kabutar — tinchlik, qora – sovuqlik ramzi.	Символ - то ,что служит условным знаком какого-то понятия, явления, идеи. Голубь-символ мира.	A symbol - is something that serves as a conditional sign of some concept, phenomenon, idea. Dove is a symbol of peace.
So'zlashuv uslubi – oilada, ko'chako'yda kishilarning fikr almashishi jarayonida qo'llaniladigan nutq uslubi.	Разговорный стиль - стиль речи, используемый в обмене мнениями в семье, на улице.	Conversational style - the style of speech used in the exchange of opinions in the family, on the street
Takror - ilmiy adabiyotlarda alliteratsiya, anafora, epifora, rifma (qofiya), assonans, konsonans, monorin, pleonazm, tautologiya, naqorat kabilar badiiy takrorning ko'rinishlari sifatida talqin etiladi. Agar gap tarkibidagi so'zlarda bir xil unli tovush takrorlansa, uni assonans, ya'ni ohangdoshlik deyiladi. -Voy, Zebo! O'zimning Zebom, kichkina Zebom!	Повтор - в научной литературе ассонанс, консонанс, монорин, плеоназм, тавтология, припев толкуется как виды художественного повтора.	Repeat-in the scientific literature, assonance, consonance, monorin, pleonasm, tautology, chorus is interpreted as types of artistic repetition.

(S.Ayniy "Qullar")		
Talant [yun.talanton - mehnat] – tug‘ma qobiliyat, iste’dod. Shaxsning muayyan ijod sohasida namoyon bo‘ladigan tabiat tomonidan berilgan qobiliyat: eng katta og‘irlik va pul-hisob birligi. M: <i>Kichik attik talant 26,2 kg kumush og‘irlikiga teng bo‘lgan.</i>	Талант – 1. Выдающиеся врожденные качества, особые природные качества. Человек, обладающий такими качествами. 2. Самая большая единица меры и расчёта. Маленький аттичный талант был равен 26.2 кг серебра.	Talent – 1. Emerging innate qualities, special natural qualities. A man with such qualities. 2. The largest unit of measure and calculation. The small attic talent was equal to 26.2 kg of silver.
Tarbiya [rivojlantirish; parvarish qilish, o‘rgatish; ilm berish] - insonda ish-hunar, odob-axloqni shakllantirish, rivojlantirishga, uning jamiyatda yashashi uchun kerak bo‘lgan xislatlarga ega bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan ish-amallar majmui. Shu yo‘l bilan singdirilgan odob-axloq, xislat, fazilat kabilar. <i>Yosh avlod tarbiyasi.</i>	Образование - комплекс мероприятий, призванных помочь людям развить навыки, мораль и приобрести качества, необходимые для жизни в обществе. Именно так воплощаются в нравственности, чертах и качествах. Воспитание молодого поколения.	Education - [Development; Care, education; Science] - a set of activities designed to help people develop skills, morals and acquire the qualities necessary for living in society. This is how they are embodied in morality, traits and qualities. Education of the younger generation.
Tavsifnoma - shaxsning mehnat va ijtimoiy faolyati o‘ziga xos xislat va fazilatni aks ettiruvchi hujjat	Характеристика - официальный документ с отзывом о служебной, общественной деятельности кого-н.	Characteristics - an official document with a review of the service, social activities of s.o.
Tafakkur [fikir yuritish, o‘ylash, fikrlash] - obyektiv voqelikning tasavvur, tushuncha va muhokamadagi faol jarayoni, insonning fikrlash qobiliyati. M: <i>Nazariy tafakkur.</i>	Мышление - это активный процесс воображения, понимания и обсуждения объективной реальности, человеческого сознания. Н: Теоретическое мышление	Thinking - [Thinking, Thinking, Thinking] is an active process of imagining, understanding and discussing objective reality, human thinking. M: Theoretical thinking
Taqriz (arab. — ijobiy baho) — adabiy tanqid janri; yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiy-ommabop asar tahlili. Taqrizda asarning bibliografik tavsifi, shuningdek, mazmuni, unda ko‘tarilgan muammolar, asarning g‘oyaviy - badiiy xususiyatlari, adabiyotda tutgan o‘rni haqida ma’lumot bo‘ladi; asarga baho beriladi, uning asosiy fazilatlari va nuqsonlari qayd qilinadi.	Рецензия – критический отзыв о каком-н, сочинении, спектакле ит. п.	Criticism - literary criticism; New artistic, scientific or popular science work. The bibliographic description of the work, as well as the content, problems touched upon in it, the ideological and artistic features of the work, the role of literature; The work is evaluated and its main features and

		disadvantages are recorded.
Terminologiya - <i>лот.</i> terminus – “chegara”+ <i>yun.</i> logos —“fan”, “ta’limot”]	Терминология – совокупность, система терминов.	Terminology - Lot. Terminal - "border" + wool. Logos are a "fan", "training"]
Tilxat - pul yoki qimmatbaho buyum olinganligini tasdiqlovchi hujjat	Расписка - документ с подписью, удостоверяющий получение чего-н.	A receipt - document with a signature certifying the receipt of the s.o.
Tovush – Gapirish, kuylash, qichqirish, yig’lash vaqtida yuzaga keladigan va eshitish a’zolariga qabul qilib oladigan hodisa; ovoz, sado, sas. Nutq jarayonida real talaffuz qilingan, qulog’imiz bilan eshitgan eng kichik va boshqa mayda bo’lakka bo’linmaydigan nutq parchasi tovush sanaladi.	Звук - явление, которое возникает при разговоре, пении, крике, громкоговорителях и слуховых аппаратах; Звук, звук и сала. Речь - речь, выраженная в реальных речах, наименьшая и самая маленькая из того, что мы слышим ушами.	Sound - is a phenomenon that occurs when speaking, singing, screaming, loudspeakers and hearing aids; Sound, sound and fat. Speech is speech expressed in real speeches, the smallest and smallest of what we hear with our ears.
Turg’un birikmalar (iboralar) – ma’noviy butunlik uchun birlashgan, yaxlitlangan, ma’nosi bir so’zga teng keladigan birikma. <i>М: Og’zining tanobi gochmoq- quvonmoq</i>	Стойкие комбинации - комбинация одного, объединенного, содержательного слова для духовной целостности. <i>М: Устье рта убегают.</i>	Persistent combinations - are a combination of one, combined, meaningful word for spiritual integrity. <i>М: The mouth of the mouth runs away.</i>
Uslubiy betaraf so’z - qo’llanilishi ayrim nutq uslubi bilan chegaralanmaydigan so’zlar.	Методическая нейтральность - это слово, которое не может быть ограничено каким-то речевым стилем.	Methodical neutrality - is a word that can not be limited by any speech style.
Uslubiy xoslangan so’z - ayrim nutq uslubi doirasidagina qo’llaniladigan so’zlar	Слова, специфичные для стиля, - это слова, которые относятся только к определенному стилю речи	Words specific to style - are words that refer only to a specific style of speech
Uslubiy me’yorlar - muayyan sohadagi aloqani ta’minlaydigan nutqning mazmuni, maqsadi va vazifasi uchun mos keladigan til birliklarini tanlash qoidalaridir.	Методологические принципы - это правила выбора соответствующих языковых единиц для содержания, цели и функции речи, которая обеспечивает связь в определенной области	Methodological principles - are the rules for selecting the appropriate language units for the content, purpose and function of speech, which provides communication in a specific area
Vatan – tug’ilib o’sgan joy, yurt. Kishining tug’ilib o’sgan o’lkasi, shahri yoki qishlog’i; yurt, diyor. Kishi tug’ilib o’sgan va o’zini uning fuqarosi hisoblagan mamlakat; ona yurt. Turarjoy, boshpana, maskan, uy.	Родина - родное место, страна. Страна, город или деревня, где рождается человек; Обет, говорит он. Страна, в которой человек рождается и вырастает как гражданин; родная земля. Проживание, жилье, жилье,	Homeland - home place, country. Country, city or village where a person is born; A vow, he says. The country in which a person is born and grows up as a citizen;

	дом.	motherland. Accommodation, housing, housing, house
Vatangado – Vatandan kechib, qochib, o'zga ellarda darbadar yuruvchi. « <i>Vatangado bo'lguncha kafangado bo'l</i> » (maqol); « <i>Hatto bir siqim tuproq ham vatangadoning ko'z yoshi o'z bag'riga singishini istamaydi. S. Azimov. Oppoq tong qo'shig'i.</i> »	Скиталец - Он бежит с родины и убегает из другой страны. «Станьте саваном, пока не будете беглецом» (макал); «Даже мешок почвы не хочет, чтобы слезы ватангадоса влюбились. С. Азимов. Утренняя песня.	Wanderer - is the one who runs away from the homeland and runs away from another country. "Become a shroud until you are a fugitive" (maqal); "Even a sack of soil does not want the tears of the patriot to fall in love with it. S. Azimov. The morning song.
Vatanjudolik – vatandan judo holatdagi hayot, shaxsning shunday hayot kechirish	Патриотизм - жизнь в состоянии вымирания;	Patriotism - is life in a state of extinction;
Vatanparvar – Vataniga g'amxo'rlik qiluvchi. O'z Vatanini, ona yurtini, xalqini cheksiz sevuvchi, vatan manfaatlarini uchun jonbozlik ko'rsatuvchi.	Патриот - заботится о Родине. Он любит бесконечную любовь к своей Родине, родине, людям и поддерживает интересы родины.	Patriot - takes care of the Motherland. He loves endless love for his homeland, homeland, people and supports the interests of the motherland.
Vatanparvarlik - Vatanparvarlarga xos ish, xatti-harakat, xislat	Патриотизм - это патриотизм, поведение и характер патриотизма	Patriotism - is the patriotism, behavior and character of patriotism
Vatanfurush – O'z Vataniga xiyonat qiluvchi, vatanini sotuvchi.	Предатель родину - предатель его родины, продавец своей страны.	A traitor to his homeland - is a traitor to his homeland, the seller of his country.
Yagona – yakka, bitta. Yakka-yolg'iz; birdan-bir, bittayu bitta. Boshqa tengi yo'q.	Единственный - один, одиночка; Один за другим, один за другим. Другого выбора нет..	The only one - is a loner; One by one, one by one. There is no other choice.
Yozuv - muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o'rtasidagi muloqatga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimidir. Yozuv – kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining boshlanishi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiylaridan biri.	Письмо - представляет собой написанную систему символов или изображений, которая была принята на определенном языке и служит для взаимодействия с людьми. Написание - начало культурного развития общества личности является одним из важнейших элементов эволюционного процесса долгой и сложной эволюции человека.	A letter - is a written system of symbols or images that has been adopted in a specific language and serves to interact with people. Writing - the beginning of the cultural development of the personality society is one of the most important elements of the evolutionary process of

		the long and complex evolution of man.
Yozuvchi - Badiiy asar yozish ishi bilan shug'ullanadigan shaxs, adib. M: <i>Talantli yozuvchi.</i>	Писатель - человек, занимающийся написанием произведения искусства, автор. M: Талантливый писатель.	A writer is a person who writes a work of art, the author. M: Talented writer.
Xizmat yozishmalari -muassasalar o'rtasidagi yozma xizmat aloqalarini amalga oshiruvchi hujjat. Bunday yozishmalar orqali turli ko'rsatmalar, so'rovlar, javoblar, xabar, taklif, tushuntirishlar, iltimos, kafolatlar beriladi	Служебная переписка - документ, осуществляющий письменные служебные связи между заведениями.	Service - correspondence-a document that carries out written service links between institutions.
Xorijiy - [tashqi, ajnabiy]-mamlakatimizdan tashqaridagi, chet eldagi. <i>Xorijiy davlat. Xorijiy matbuot</i>	Иностранный - [Иностранный, Иностраный] - За пределами нашей страны, за границей. Иностранная страна Иностранная пресса	Foreign - [Foreign, Foreign] - Outside our country, abroad. Foreign country Foreign press
G'azal [oshiqona so'z, xotin-qizlar bilan yoqimli muomalada bo'lish] - Aruz she'riy tizimida uch baytdan o'n to'qqiz baytgacha bo'lgan, Sharq xalqlari, jumladan, o'zbek adabiyotidagi lirik she'r (Birinci baytning har ikki misrasi, qolgan baytlarning ikkinchi misralari qofiyadosh bo'lib keladi). M: <i>Bobur g'azallari.</i>	Газаль - [ласковые слова, наслаждение женщинами] - система поэзии Аруза, от трех до шестнадцати байтов в восточных людях, включая лирическую поэзию в узбекской литературе, r (Первые два байта первого байта, вторая строка оставшихся байтов рифмована). M: Бабур газели.	Ghazal - [affectionate words, women's delight] is Aruz's poetry system, from three to sixteen bytes in eastern people, including lyrical poetry in Uzbek literature, r (The first two bytes of the first byte, the second line of the remaining bytes rhymed). M: Babur the gazelle.
Shartnoma - tomonlarning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish va to'xtatish yo'lidagi kelishuvidir	Договор - письменное соглашение о взаимных обязательствах.	Contract -written agreement on mutual obligations.
Shaxs [kimsa, kishi] - jamiyatdagi alohida bir kishi, odam. M: <i>Tarixiy shaxs.</i>	Лицо - лицо, лицо в обществе. H: Исторический человек.	Person [person, person] - a person, a person in society. Exp: A historical man.
Shaxsiy hujjatlar - yakka shaxslarning xizmat faoliyatlaridan	Личные документы - документы, принадлежащее	Personal documents - documents belonging to

tashqaridagi masalalar bilan bog'liq hujjatlardir	лицу вне его служебной деятельности: свидетельство о рождении, паспорт, свидетельство о браке и т.д.	a person outside his official activities: birth certificate, passport, marriage certificate, etc.
---	--	---

VII. ILOVALAR

NAMUNAVIY DASTUR

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

Рўйхатга олинди:

№ БД -107

2017 йил "18" 08

Олий ва ўрта махсус таълим
вазирлиги



ЎЗБЕК ТИЛИ

ФАН ДАСТУРИ

(барча бакалаврият таълим йўналишлари учун)

Тошкент – 2017

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2017 йил “___” _____ даги “___” - сонли буйруғининг ___ - иловаси билан фан дастури рўйхати тасдиқланган.

Фан дастури Олий ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълими йўналишлари бўйича Ўқув-услубий бирлашмалар фаолиятини Мувофиқлаштирувчи Кенгашнинг 201__ йил “___” _____ даги ___ - сонли баённомаси билан маъқулланган.

Фан дастури Ўзбекистон Миллий университетида ишлаб чиқилди.

Тузувчилар:

- Н.Хусанов – Тошкент молия институти, филология фанлари доктори, профессор.
- М.Абдурахмонова – Ўзбекистон Миллий университети, филология фанлари номзоди, доцент.
- У.Лафасов – Тошкент давлат шарқшунослик институти, филология фанлари номзоди, доцент.
- Г.Асилова – Олий ҳарбий божхона институти, педагогика фанлари номзоди, доцент.

Такризчилар:

- М.Ахмедова – Тошкент ахборот технологиялари университети “Ўзбек ва рус тиллари” кафедраси доценти, педагогика фанлари номзоди.
- К.Раҳимова – Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти Тиллар кафедраси доценти, филология фанлари номзоди.
- У. Холмухамедова – Ўзбекистон Миллий университети “Ўзбек тили ва нутқ маданияти” кафедраси катта ўқитувчиси.

Фан дастури Ўзбекистон Миллий университети Кенгашида кўриб чиқилган ва тавсия қилинган (201__ йил “___” _____ даги ___ - сонли баённома)

I. Ўқув фанининг долзарблиги ва олий касбий таълимдаги ўрни

“Ўзбек тили” фанини ўқитиш Ўзбекистонда истиқомат қиладиган бошқа миллат вакиллари билан давлат тилини пухта эгаллашига, миллий, маданий қадриятларни ўрганишига ва уларга ҳурмат билан муносабатда бўлишига, барча соҳаларда эркин фикр алмашишига ҳамда мутахассислик доирасида мулоқот юритишига замин яратади.

“Ўзбек тили” фани давлат тилида оғзаки ва ёзма мулоқот юритиш, тилнинг орфоэпик ва имло қоидалари, соҳавий терминология, мутахассислик тили, монологик ва диалогик матн тузиш, нутқ услублари, соҳавий ҳужжатларни тайёрлаш ва расмийлаштириш масалаларини қамраб олади.

Ушбу фан дастури таълим ўзга тилларда олиб бориладиган олий таълим муассасаларида давлат тилини ўргатиш учун меъёрий ҳужжат саналади ҳамда талабалар ўзбек тилидан эгаллашлари шарт бўлган билим, кўникма, малакаларнинг зарурий меъёрини асослаб беради.

“Ўзбек тили” фани гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий фанлар блокига киритилган курс ҳисобланиб, биринчи курсда ўқитилиши мақсадга мувофиқ.

II. Ўқув фанининг мақсади ва вазифаси

“Ўзбек тили” фанининг асосий мақсади талабаларнинг кундалик, илмий ва касбий соҳаларда фаолият олиб бориши учун ўқитишнинг коммуникатив-нутқий тамойили асосида уларда фан бўйича эгалланган билим, кўникмаларни мулоқот ва иш фаолияти жараёнида қўллаш малакасини шакллантиришга қаратилади.

Фанининг вазифалари:

- нутқий компетенцияни ривожлантириш;
- оғзаки ва ёзма нутқда соҳавий терминларни самарали қўллаш кўникмаларини шакллантириш;
- ихтисосликка оид матн тузиш, уни таҳрир ва таҳлил қилиш малакаларини ҳосил қилиш;
- соҳавий ҳужжатларни тузиш, шу жумладан электрон ҳужжатларни тўлдириш ва расмийлаштириш кўникмаларини шакллантириш.

Талабаларнинг билим, кўникма ва малакаларига қўйиладиган талаблар:

- ўзбек адабий тили меъёрлари, нутқ услублари тўғрисида *тасаввурга эга бўлиш*;
- касбий терминологияни, оғзаки ва ёзма нутқ хусусиятларини *билиш ва улардан фойдалана олиш*;
- матн тузиш, уни таҳлил ва таҳрир қилиш, соҳавий ҳужжатларни тайёрлаш ва расмийлаштириш, касбий мулоқот юритиш *кўникмаларига эга бўлиш* керак.

III. Асосий назарий қисм (амалий машғулотлар)

1-мавзу. “Ўзбекистон – ягона Ватан”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид матнни ўқиш, мазмунини тўлиқ тинглаб тушуниш. Матндаги атама ва ибораларнинг маъносини изоҳлаш. Ватан ҳақидаги шеърлардан намуналар ёд олиш.

Ёзма нутқ:

Матндан таянч сўз ва ибораларни ажратиб ёзиш. Матндаги асосий фикрни ёзма равишда ифодалаш. Республика байналмилал маданият маркази ҳақида қисқа маълумот ёзиш.

Грамматика:

Орфоэпия қоидалари. Ўзбек тилида товушлар талаффузи.

2-мавзу. “Ўзбек тили – Давлат тили”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид матнни ўқиб тушуниш. Матндаги асосий фикрни ажратиб сўзлаб бериш.

Ёзма нутқ:

“Мен ўзбек тилини ўрганяпман” мавзусида диалог тузиш ва уни инсценировка қилиш. Мутафаккирларнинг тил ҳақидаги фикрларидан намуналар келтириш.

Грамматика:

Ўзбек тилининг имло қоидалари.

3-мавзу. “Миллий қадриятлар – миллат ифтихори”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид матнни ўқиб тушуниш. Матндаги термин ва ибораларнинг маъносини изоҳлаш. Матнга муносабат билдириб сўзлаш. Миллий урф-одатларни таърифлаб бериш.

Ёзма нутқ:

Бирор миллий байрам, маросимдан олинган таассуротларни ёзиш. “Турли миллатларнинг урф-одатлари” мавзусида полилог тузиш ва уни инсценировка қилиш.

Грамматика:

Ўзбек тилида сўз ясалиши.

4-мавзу. “Тарих ва замонамиз”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид матнни ўқиб тушуниш. Матндаги термин ва ибораларнинг маъносини изоҳлаш. Матнни қисқартириб сўзлаб бериш. Тарихий сўзларнинг замонавий муқобилларини топиш.

Ёзма нутқ:

Тарихий асар ёки фильмлардан бири ҳақидаги таассуротларни ёзиш. Тарихий шахслардан бирини тасвирлаш.

Грамматика:

Тилнинг лексик қатламлари.

5-мавзу. “Улуғ аждодларимиз”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид матнни ўқиб тушуниш. Матндаги атама ва ибораларнинг маъносини изоҳлаш. Матнни кенгайтириб сўзлаб бериш. Матнни қисмларга бўлиб, ҳар бир қисмни номлаш.

Ёзма нутқ:

Машҳур алломалардан бири ҳақида тақдимот тайёрлаш. Буюк алломаларимизнинг асарлари рўйхатини тузиш.

Грамматика:

Атамалар ва уларнинг вужудга келиши.

6-мавзу. “Ватан ва ватанпарварлик”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид матнни ўқиб тушуниш. Матндаги термин ва ибораларнинг маъносини изоҳлаш. Матнни биринчи шахс номидан сўзлаб бериш. Мавзу бўйича баҳс-мунозарада иштирок этиш.

Ёзма нутқ:

Тарихда ўз жасорати билан ном қолдирган қаҳрамонлар ҳақида ҳикоя тузиш. “Ватанпарварлик нима?” мавзусида эссе ёзиш. Даврий нашрлардаги мақолалар асосида фидойилиги билан танилган замондошларимиз ҳақида маълумот тайёрлаш.

Грамматика:

Ижтимоий-сиёсий лексика.

7-мавзу. “Музейлар – ўтмиш ва келажак орасидаги кўприк”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид матнни ўқиб тушуниш. Матндаги термин ва ибораларнинг маъносини изоҳлаш. Матнга муносабат билдириб сўзлаш.

Ёзма нутқ:

Ўзбекистон музейларидан бири ҳақида тақдимот тайёрлаш. Жаҳоннинг машҳур музейлари ҳақида қизиқарли маълумотлар тайёрлаш. Соҳа музейи ҳақида матн тузиш.

Грамматика:

Соҳавий терминлар ва уларнинг қўлланиши.

8-мавзу. “Келажак – билимли ёшлар қўлида”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид матнни ўқиб тушуниш. Матнни ижодий сўзлаш. Мавзу бўйича баҳс-мунозарада иштирок этиш.

Ёзма нутқ:

“Иқтидорли ёшлар” мавзусида боғланишли матн тузиш. “Менинг тенгдошларим” мавзусида диалог тузиш ва уни инсценировка қилиш. Ёшлар ҳаётидан қизиқарли ҳодиса ва воқеалар тўғрисида ҳикоя тузиш.

Грамматика:

Ўзбек тилида синонимлар.

9-мавзу. “Замонавий дунёда таълим”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид матнни ўқиб тушуниш. Матндаги термин ва ибораларнинг маъносини изоҳлаш. Матнни режа асосида сўзлаб бериш.

Ёзма нутқ:

Турли мамлакатларнинг таълим тизимлари ҳақида маълумот тайёрлаш. Чет эллик талабалар ҳаёти акс эттирилган бадиий асар ёки фильм ҳақидаги таассуротларни ёзиш. Турли таълим муассасалари ҳақида полилог тузиш ва уни инсценировка қилиш.

Грамматика:

Тил ва терминология.

10-мавзу. “Китоб мутолааси”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид матнни ўқиб тушуниш. Матнни ижодий сўзлаш. Китобни тавсия қилиш усуллари ҳақида фикр билдириш.

Ёзма нутқ:

Ўқилган китоблар тўғрисида диалог тузиш ва уни инсценировка қилиш. Ўқилган китоблар рўйхатини тузиш ва уларга қисқача тавсиф бериш.

Грамматика:

Эркин ва турғун бирикмалар.

11-мавзу. “Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид матнни ўқиб тушуниш. Матндаги термин ва ибораларнинг маъносини изоҳлаш. Матнга муносабат билдириб сўзлаш.

Ёзма нутқ:

Университет кутубхонаси ҳақида матн тузиш. Электрон кутубхона билан ишлаш бўйича тавсиялар ёзиш. Бадиий асарларга бағишланган интернет сайтларининг рўйхатини тузиш.

Грамматика:

Фразеологик бирликларнинг турлари ва услубий хусусиятлари.

12-мавзу. “Адабиёт – маънавият ўчоғи”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид матнни ўқиб тушуниш. Матндаги термин ва ибораларнинг маъносини изоҳлаш. Матндаги асосий фикрни ажратиб сўзлаб бериш.

Ёзма нутқ:

Бадиий асар қаҳрамони ўқувчини қандай тарбиялаши ҳақида фикр билдириш ва унга мисоллар келтириш. Машҳур адабий қаҳрамонлар ҳақида тақдимот тайёрлаш. Адабиёт ҳақидаги ҳикматли сўзлардан намуналар ёзиш.

Грамматика:

Нутқ услублари. Бадиий услуб ва унинг хусусиятлари.

13-мавзу. “Оммавий ахборот воситалари”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид матнни ўқиб тушуниш. Матндаги термин ва ибораларнинг маъносини изоҳлаш. Матнга муносабат билдириб сўзлаш. Мавзу бўйича баҳс-мунозарада иштирок этиш.

Ёзма нутқ:

Оммавий ахборот воситаларининг фаолияти ҳақида фикр билдириш. Телекўрсатувлар ва радиоэшиттиришлар, газета ва журналлардаги материаллар, реклама матнларини таҳлил қилиш. “XXI асрда ахборотнинг ўрни” мавзусида эссе ёзиш.

Грамматика:

Публицистик услуб ва унинг хусусиятлари.

14-мавзу. “Интернет ҳаётимизда”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид матнни ўқиб тушуниш. Матндаги термин ва ибораларнинг маъносини изоҳлаш. Мавзу бўйича баҳс-мунозарада иштирок этиш.

Ёзма нутқ:

Интернет маданияти ҳақида матн тузиш. Таълим жараёнида энг кўп фойдаланиладиган интернет сайтлари рўйхатини тузиш ва тавсия қилиш. Интернетдан фойдаланиш тўғрисида полилог тузиш ва уни инсценировка қилиш.

Грамматика:

Оғзаки-ёзма услуб ва унинг хусусиятлари.

15-мавзу. “Ўзбекистон ва жаҳон”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид матнни ўқиб тушуниш. Матндаги термин ва ибораларнинг маъносини изоҳлаш. Матнни қисқартириб сўзлаб бериш.

Ёзма нутқ:

Ўзбекистон аъзолик қилаётган халқаро ташкилотлар ҳақида маълумот тайёрлаш. Халқаро ташкилотлардан бирининг фаолияти ҳақида тақдимот тайёрлаш. Халқаро ташкилотларнинг қисқартма номлари рўйхатини тузиш.

Грамматика:

Расмий дипломатик услуб ва унинг хусусиятлари.

16-мавзу. “XXI асрда инновациялар”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид маттни ўқиб тушуниш. Матндаги термин ва ибораларнинг маъносини изоҳлаш. Турли соҳаларга оид инновациялар ҳақида гапириб бериш.

Ёзма нутқ:

“Замондошларимизнинг кашфиётлари” мавзусида тақдимот тайёрлаш. Касб соҳасидаги инновациялар ҳақида маълумот тайёрлаш. Соҳада қўлланадиган байналмилал сўзлар луғатини тузиш.

Грамматика:

Илмий услуб ва унинг хусусиятлари.

17-мавзу. “Давримизнинг глобал муаммолари”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид маттни ўқиб тушуниш. Матндаги термин ва ибораларнинг маъносини изоҳлаш. Маттни ўзгартириб сўзлаб бериш. Мавзу бўйича баҳс-мунозарада иштирок этиш.

Ёзма нутқ:

Инсоният олдида турган глобал муаммолар тўғрисида тақдимот тайёрлаш. Глобал муаммолардан бирига бағишланган публицистик мақола ёзиш.

Грамматика:

Мақола ва унинг турлари.

18-мавзу. “Табиат ва инсон”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид маттни ўқиб тушуниш. Матндаги термин ва ибораларнинг маъносини изоҳлаш. Маттни ижодий сўзлаш.

Ёзма нутқ:

Дунёда ва Ўзбекистонда мавжуд экологик муаммолар ҳақида эссе ёзиш. “Орол фожиаси” мавзусида тақдимот тайёрлаш. Ўзбекистон экологик ҳаракатининг фаолияти тўғрисида маълумот тайёрлаш.

Грамматика:

Интервью олиш ва интервью бериш қоидалари.

19-мавзу. “Инсон ва саломатлик”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид маттни ўқиб тушуниш. Матндаги термин ва ибораларнинг маъносини изоҳлаш. Матнга муносабат билдириб сўзлаш. Мавзу бўйича баҳс-мунозарада иштирок этиш.

Ёзма нутқ:

“Саломатлигимиз ўз қўлимизда” мавзусида эссе ёзиш. Жаҳон медицинаси ютуқлари ҳақида тақдимот тайёрлаш. Саломатлик ҳақидаги ўзбек халқ мақолларидан намуналар ёзиш. Меҳнат хавфсизлиги қоидаларини тузиш.

Грамматика:

Репортаж тайёрлаш.

20-мавзу. “Ҳуқуқий маданият”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид маттни ўқиб тушуниш. Матндаги термин ва ибораларнинг маъносини изоҳлаш. Матндаги асосий фикрни ажратиб сўзлаб бериш.

Ёзма нутқ:

“Қонунларни ўрганиш ва уларга риоя қилиш” мавзусида матн тузиш. Ўзбекистон фуқароларининг ҳуқуқлари ва бурчлари тўғрисида диалог тузиш. Умумхалқ лексикасига кирган ҳуқуқий терминлар луғатини тузиш.

Грамматика:

Расмий-идоравий услуб ва унинг хусусиятлари.

21-мавзу. “Ўзбекистонда олий таълим”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид матнни ўқиб тушуниш. Матндаги термин ва ибораларнинг маъносини изоҳлаш. Матнни кенгайтириб сўзлаб бериш.

Ёзма нутқ:

Ўзбекистондаги олий таълим муассасалари ҳақида маълумот тайёрлаш. Олий таълим муаммоларига бағишланган илмий мақола ёзиш. Олий таълим терминлари луғатини тузиш. Ўзбекистондаги олий таълим муассасаларининг номларини қисқартма отлар шаклида ифодалаш.

Грамматика:

Услубий хосланган ва услубий бетараф сўзлар

22-мавзу. “Университетимиз ҳаётидан”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид матнни ўқиб тушуниш. Матндаги ном ва ибораларнинг маъносини изоҳлаш. Матнни ўзгартириб сўзлаб бериш.

Ёзма нутқ:

Университет ҳақида тақдимот тайёрлаш. Университетда ўтказиладиган маънавий-маърифий тадбирлардан репортаж тайёрлаш. Университет тарихи ҳақида боғланишли матн тузиш.

Грамматика:

Сўзлашув услуби ва унинг хусусиятлари. Шевага хос сўзлар.

23-мавзу. “Бўлажак касбим”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид матнни ўқиб тушуниш. Матндаги термин ва ибораларнинг маъносини изоҳлаш. Матнга муносабат билдириб сўзлаш.

Ёзма нутқ:

Касб танлови тўғрисида эссе ёзиш. Касб-хунар мавзусида ўзбек мақолларидан намуналар ёзиш. Мутахассисликка оид терминлар луғатини шакллантириш.

Грамматика:

Матн ва унинг кўринишлари.

24-мавзу. “Ҳаёт менинг тасаввуримда”

Оғзаки нутқ:

Ҳаётга муносабат ва қизиқишлар ҳақида гапириб бериш. Инсон баркамолликка эришиши учун нималар қилиши кераклиги ҳақида фикр билдириш. Ҳаётдаги идеални тасвирлаб бериш. Мавзу бўйича баҳс-мунозарада иштирок этиш.

Ёзма нутқ:

“Ҳаёт менинг тасаввуримда” мавзусида эссе ёзиш. Ҳаётдаги мақсадлар ва орзулар ҳақида диалогик матн тузиш ва уни инсценировка қилиш.

Грамматика:

Диалогикматннингмаъномуносабатигақўра турлари.

25-мавзу. “Устоз мактаби”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид матнни ўқиб тушуниш. Матндаги термин ва ибораларнинг маъносини изоҳлаш. Матнни ижодий сўзлаш. Устозларга бағишланган шеър ёд олиш.

Ёзма нутқ:

Касбий фаолиятда устоз ва шогирд анъаналари тўғрисида матн тузиш. Устозлар ҳақида эссе ёзиш. Устоз ҳақидаги ривоятлардан намуналар ёзиш.

Грамматика:

Монологик матн. Монологик матнда мазмун изчиллиги ва оҳанг.

26-мавзу. “Касбим тарихи”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид матнни ўқиб тушуниш. Матнни режа асосида сўзлаб бериш. Танланган касб ҳақида ривоят ёки ҳикоя сўзлаб бериш.

Ёзма нутқ:

“Соҳанинг вужудга келиши ва ривожланиши” мавзусида матн тузиш. Касб тараққиёти ҳақидаги маълумотлардан хронологик жадвал тузиш. Иш жараёнидаги мулоқот вазиятларини акс эттирувчи касбий ўйин сценарийсини тузиш ва уни инсценировка қилиш.

Грамматика:

Соҳа луғатлари. Уларда терминлар ва бирикмаларнинг берилиши.

27-мавзу. “Иқтидор ва меҳнат”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид матнни ўқиб тушуниш. Матнга муносабат билдириб сўзлаш. Мавзу бўйича баҳс-мунозарада иштирок этиш.

Ёзма нутқ:

“Қандай қилиб муваффақиятга эришиш мумкин?” мавзусида эссе ёзиш. Мамлакатимизда иқтидорли ёшлар учун яратилаётган шароитлар ҳақида маълумот ёзиш. Касб соҳасида муваффақиятга эришиш тўғрисида диалог тузиш ва уни инсценировка қилиш.

Грамматика:

Матнга сўз ва термин танлаш.

28-мавзу. “Етук мутахассис”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид матнни ўқиб тушуниш. Матндаги қўшимча фикрни ажратиб сўзлаб бериш. Малакали мутахассис ҳақидаги тасаввурларни гапириб бериш.

Ёзма нутқ:

“Соҳамиз равнақи” мавзусида матн тузиш. Мутахассиснинг касбий компетенциялари рўйхатини тузиш ва уларни мисоллар билан изоҳлаб бериш.

Грамматика:

Матн таҳлили ва таҳрири.

29-мавзу. “Касб байрами”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид матнни ўқиб тушуниш. Матнни ўзгартириб сўзлаб бериш. Турли мамлакатларда нишонланадиган шу касб эгаларининг байрамлари ҳақида гапириб бериш.

Ёзма нутқ:

Касб байрами ҳақида матн тузиш. Касб байрамига бағишланган репортаж ёзиш. Репортаж мазмунини резюме кўринишида ифодалаш.

Грамматика:

Матн мазмунининг қисқача баёни (резюме), унинг тузилиши ва ифода материалининг хусусиятлари.

30-мавзу. “Касбим фидойилари”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид матнни ўқиб тушуниш. Матнни давом эттирган ҳолда сўзлаб бериш. Фидойилик тушунчасини мисоллар билан таърифлаб бериш.

Ёзма нутқ:

Касбнинг қўлланиш соҳаси, аҳамияти тўғрисида илмий услубдаги маълумотнома матнини тайёрлаш. Соҳа ривожига салмоқли ҳисса қўшган мутахассислар ҳақида репортаж тайёрлаш.

Грамматика:

Реферат матни, унинг тузилиши ва ифода материалининг хусусиятлари.

31-мавзу. “Илм сари йўл”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид матнни ўқиб тушуниш. Матнни қисқартириб сўзлаб бериш. Илмий ишларнинг фан ва соҳа ривожига қўшадиған ҳиссаси ҳақида гапириб бериш.

Ёзма нутқ:

“Соҳа ривожига фаннинг ўрни” мавзусида матн тузиш. Илмий ишларнинг турлари ҳақида қисқача тавсифлар ёзиш.

Грамматика:

Такриз матни, унинг тузилиши ва ифода материалининг хусусиятлари.

32-мавзу. “Касб этикаси”

Оғзаки нутқ:

Соҳа ходимларининг одоб-ахлоқ қоидалари билан танишиш ва улар ҳақида гапириб бериш. Одоб–ахлоқ мавзусидаги ҳикматларни ёд олиш. Мавзу бўйича баҳс-мунозарада иштирок этиш.

Ёзма нутқ:

Одоб-ахлоқ мавзусидаги китобга аннотация ёзиш. “Мутахассиснинг одоби ва ахлоқи” мавзусида диалог тузиш ва уни инсценировка қилиш.

Грамматика:

Аннотация матни, унинг тузилиши ва ифода материалининг хусусиятлари.

33-мавзу. “Нутқ одоби”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид матнни ўқиб тушуниш. Матндаги термин ва ибораларнинг маъносини изоҳлаш. Матнга муносабат билдириб сўзлаш. Касбий фаолиятда нутқ маданиятининг аҳамияти ҳақида гапириб бериш.

Ёзма нутқ:

“Мутахассиснинг нутқ маданияти” мавзусида матн тузиш. Иш жараёнидаги муомала маданияти ҳақида касбий ўйин сценарийсини тузиш ва уни инсценировка қилиш.

Грамматика:

Меъёр тушунчаси.

34-мавзу. “Санъат ва маънавият”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид матнни ўқиб тушуниш. Матндаги терминларнинг маъносини изоҳлаш. Матнни ижодий сўзлаш.

Ёзма нутқ:

“Санъат менинг ҳаётимда” мавзусида эссе ёзиш. Санъаткорларни таърифлаб, реклама матнини тайёрлаш. Ўзбек киносининг мавзулари ва муаммолари ҳақида публицистик мақола ёзиш. Маданий ҳордиқ одоби қоидаларини ёзиш.

Грамматика:

Умумхалқ лексикасига кирган санъатшунослик терминлари.

35-мавзу. “Мен севган асар”

Оғзаки нутқ:

Севимли асар ҳақида сўзлаб бериш. Замонавий ўзбек адабиёти ҳақидаги маълумотларни гапириб бериш. Машҳур ўзбек шоирлари ижодидан намуналар ёд олиш.

Ёзма нутқ:

“Адабиётнинг киши руҳий дунёсига таъсири” мавзусида эссе ёзиш. Янги китоблар ҳақида полилог матнини тузиш ва уни инсценировка қилиш.

Грамматика:

Бадиий тасвир воситалари.

36-мавзу. “Иқтисод ва ҳаёт”

Оғзаки нутқ:

Мавзуга оид матнни ўқиб тушуниш. Матндаги термин ва ибораларнинг маъносини изоҳлаш. Матндаги асосий фикрни ажратиб сўзлаб бериш.

Ёзма нутқ:

Мамлакат иқтисодиётида юз берган янгиликлар ҳақида хабар тайёрлаш. Иқтисодий терминлар таркибидаги қисқартма отлар луғатини тузиш. Иқтисодиётга оид қизиқарли маълумотларни топиб ёзиш.

Грамматика:

Умумхалқ лексикасига кирган иқтисодий терминлар.

37-мавзу. “Иш юритиш тили ва услуги”

Ҳужжат – иш юритишнинг асоси. Ҳужжатчилик тарихи. Норматив (меъёрий) ҳужжат тушунчаси. Ҳужжат айланиши. Электрон ҳужжатлар.

Ёзма нутқ:

“Ҳужжатлар тарихи” мавзусида матн тузиш. Иш юритиш терминларининг луғатини тузиш.

38-мавзу. “Ҳужжат турлари ва хусусиятлари”

Ҳужжатларнинг таснифланиши. Ҳужжат реквизитлари. Ҳужжат тайёрлашнинг асосий қоидалари.

Ёзма нутқ:

Иш юритиш ҳужжатларнинг рўйхатини тузиш. Уларни кластер шаклида таснифлаш.

39-мавзу. “Ташкилий ҳужжатлар ва уларнинг турлари”

Ташкилий ҳужжатларнинг вазифаси. Ташкилий ҳужжатларнинг турлари. Ташкилий ҳужжатларнинг лексик ва стилистик хусусиятлари. Шартнома. Меҳнат шартномаси. Низом. Йўриқнома.

Ёзма нутқ:

Меҳнат шартномаси матнини тузиш. Меҳнат шартномасидаги таянч сўзларни ажратиб ёзиш. Олий таълим муассасаси Низомининг тузилишини ёзиш.

40-мавзу. “Фармойиш ҳужжатлари ва уларнинг турлари”

Фармойиш ҳужжатларининг вазифаси. Фармойиш ҳужжатларининг турлари. Буйруқ. Фармойиш. Кўрсатма. Фармойиш ҳужжатларининг лексикаси ва стилистик хусусиятлари.

Ёзма нутқ:

Олий таълим муассасаси буйруғининг матнини тайёрлаш. Фармойиш ҳужжатларида қўлланадиган таянч сўзларни ёзиш.

41-мавзу. “Маълумот-ахборот ҳужжатлари”

Маълумот-ахборот ҳужжатларининг вазифаси. Маълумот-ахборот ҳужжатларининг турлари. Таржимаи ҳол. Билдирги. Тавсифнома.

Ёзма нутқ:

Таржимаи ҳол ёзиш. Тавсифнома ёзиш.

42-мавзу. “Ишончнома. Тилхат. Тушунтириш хати”

Расмий ва шахсий ишончномалар. Тилхатнинг зарурий қисмлари ва уни тузувчи шахслар. Тушунтириш хатининг турлари.

Ёзма нутқ:

Тилхат матнини тузиш. Тушунтириш хати ёзиш.

43-мавзу. “Далолатнома. Маълумотнома”

Далолатноманинг зарурий қисмлари ва уни тузувчи шахслар. Маълумотнома турлари. Маълумотномани расмийлаштириш.

Ёзма нутқ:

Талабалар гуруҳининг ўзлаштириш кўрсаткичлари ҳақида маълумотнома тузиш.

44-мавзу. “Мажлис баёни. Ҳисобот”

Баённомаларнинг турлари. Мажлис баёни. Мажлис баёнидан кўчирма. Ҳисобот турлари. Даврий ҳисоботлар. Ўқув амалиёти ҳисоботи.

Ёзма нутқ:

Мажлис баёнини тузиш. Ўтказилган тадбир тўғрисида ҳисобот ёзиш.

45-мавзу. “Хизмат ёзишмалари. Хатлар”

Хизмат ёзишмаларининг вазифаси. Хизмат хатларининг турлари. Сўров хати. Илтимос хати. Жавоб хати. Илова хат. Тасдиқ хати. Эслатма хат. Даъво хати. Талаб хати. Ахборот хати. Кафолат хати.

Ёзма нутқ:

Хизмат хатларининг матнларини тузиш.

IV. Амалий машғулотлар бўйича кўрсатма ва тавсиялар

Амалий машғулотлар мультимедиа қурилмалари билан жиҳозланган аудиторияда биракадемик гуруҳни 2 га ажратган ҳолда ўтказилиши лозим. Машғулотлар фаол ва интерфаол усуллар ёрдамида ўтказилиши, замонавий педагогик ва ахборот технологиялар қўлланиши мақсадга мувофиқ.

V. Мустақил таълим ва мустақил ишлар

Мустақил таълим учун тавсия этиладиган **мавзулар:**

1. Буюк Ипак йўли ва унинг инсоният тарихидаги ўрни.
2. Тўмарис ва Широқ ҳақидаги афсоналар.
3. Қомусий олим Ал Хоразмий.
4. Аҳмад ал Фарғоний ва унинг мероси.
5. Абу Наср Форобий ва унинг буюк асарлари.
6. Ибн Синонинг “Тиб қонунлари”.
7. “Темур тузуклари”.

8. Мирзо Улуғбек – олим ва давлат арбоби.
9. Алишер Навоий – ўзбек адабий тилининг асосчиси.
10. Жадидчилик ҳаракати намояндалари.
11. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти.
12. Миллий маданий марказлар.
13. Ўзбекистон музейлари.
14. Дунёнинг машҳур университетлари.
15. Терроризм ва унинг инсониятга таҳдиди.
16. Шанхай ҳамкорлик ташкилотининг фаолияти.
17. Ўзбекистон Республикасининг ҳукумат портали.

Мустақил ишни қуйидаги **топшириқлар** кўринишида бажариш тавсия этилади:

- мавзу бўйича расмий ахборот тайёрлаш;
- мавзу бўйича реферат тайёрлаш;
- мавзу бўйича электрон тақдимот (PPT) тайёрлаш;
- мавзу бўйича альбом тайёрлаш;
- мавзу бўйича лойиҳа яратиш;
- мавзу бўйича диалогик матн тузиш;
- мавзу бўйича монологик матн тузиш;
- терминлар луғатини тузиш;
- матнни ўзбек тилига таржима қилиш;
- бадиий асарни мутолаа қилиш;
- шеър ёдлаш;
- мавзу бўйича баҳс-мунозарага тайёрланиш;
- эссе ёзиш;
- мақола ёзиш;
- мақолага тақриз ёзиш;
- ҳикоя тузиш;
- оммабоп мақола тайёрлаш;
- репортаж тайёрлаш;
- берилган мавзуда кластер тузиш;
- мавзуга оид сўзлардан кроссворд тузиш;
- маълумотлардан жадвал тузиш;
- иш юритиш ҳужжатларидан намуналар тайёрлаш.

VI. Асосий ва қўшимча ўқув адабиётлар ҳамда ахборот манбалари **Асосий адабиётлар**

1. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po'latova X. O'zbek tili (oliy ta'lim muassasalari rus guruhlari uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 288 b.
2. Normatova SH., Abdurahmonova M. O'zbek tili (darslik). – Toshkent: JIDU, 2014. – 192 b.
3. Fayzullayeva SH., Azimova H., Usmonova G. O'zbek tili (oliy o'quv yurtlarining iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma). – Toshkent: Iqtisodiyot, 2012. – 108 b.
4. Yuldasheva SH., Kabulova D., Sobirova M. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). – Nukus: Bilim, 2013. – 156 b.
5. Husanov N., Xo'jaqulova R., Dilmurodova N. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). – Toshkent: TMI, 2017. – 336 b.

Қўшимча адабиётлар

6. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик- ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Т-2016

7. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажегимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. Т-2017
8. Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақида”ги қонуни (янги таҳрирда) / ЎзР Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1989. – 26–28-сон, 453-модда; 1991. – 11-сон, 273-модда.
9. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни. ЎзР Олий Мажлиси Ахборотномаси, 1997. – 9-сон, 225-модда; 2013. – 41-сон, 543-модда.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони / ЎзР ҚХТ, 2017. – 6-сон, 70-модда; 20-сон, 354-модда.
11. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176
12. Аминов М., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Маҳмудов Н. Иш юритиш (амалий қўлланма). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2014.– 456 б.
13. Asilova G. Vojxona tizimida me’oriy hujjatlarni yuritish (rus guruhlari uchun o’quv qo’llanma). – Toshkent, 2016. – 176 b.
14. Iskandarova G. O’zbek tili grammatikasi. – Toshkent, 2009. – 67 b.
15. Iskandarova G., Gulibonu Keybatuli. O’zbek tili darsligi (xitoyliklar uchun). – Pekin, 2016. – 348 b.
16. Мирқосимова М., Алимова Ш., Зоитова О., Умарова Н. Ўзбек тили (техника университетининг русийзабон талабалари учун). – Тошкент: ТДТУ, 2004. – 101 б.
17. Alo Raun. Basic course in uzbek. Published by Indiana University, 1996.
18. Turdiyeva K., Ahmedova D. O’zbek tili (tibbiyot institutlarining rus guruhlari talabarlari uchun darslik). – Toshkent: Musiqqa, 2007. – 206 b.
19. Qahhorova N., Muhammedova S. O’zbek tili. -Toshkent: Universitet, 2004. – 192 b.
20. Назаров К.Н., Хўжанова Г.Ў. Ўзбек тили (юримдик институт ва университетларнинг ҳуқуқшунослик факультетлари рус гуруҳлари учун дарслик). – Тошкент: ТДЮИ, 2003. – 334 б.
21. Рафиев А. ва б. Чет элликлар учун ўзбек тили. II қисм (CDдискда). – Тошкент: Ўзбекистон, 2001.
22. Рафиев А., Маҳмудов Н., Юлдашев И. Культура речи и делопроизводство на узбекском языке. – Ташкент, 2011. – 143 б.
23. Rafiyev A., Mahmudov N., Yuldashev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent, 2013. – 143 b.
24. Русча-ўзбекча луғат (2 жилдли). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013.
25. Тоғаев Т. Ўзбек тилининг кирилл ва лотин алифболаридаги имло луғати. – Тошкент: “Шарк”, 1999. – 368 б.
26. Usmonova Sh. O’zbek tili (koreyslar uchun). – Pusan, 2005. – 182 b.
27. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (5 жилдли). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005–2008.

Интернет сайтлари

28. <http://teachyourselfuzbek.com/resources/coursebooks/> – Самоучитель узбекского языка.
29. <http://solver.uz/translate.php> – Русско-узбекский переводчик.
30. http://sahifa.tj/russko_uzbekskij_razgovornik.aspx – Русско-узбекский разговорник.
31. http://sahifa.tj/uzbeksko_russkij.aspx – Узбекско-русский переводчик.
32. <https://my.gov.uz/> - Ягона интерактив давлат хизматлари портали.
33. <https://www.lex.uz>. – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.
34. <http://library.ziyonet.uz/> – таълим портали

ISHCHI O‘QUV DASTURI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT KIMYO TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

TILLAR KAFEDRASI

“TASDIQLAYMAN”
O‘quv ishlari bo‘yicha
prorektor dots. T.T.Safarov

“ _____ ” _____ 2019-yil

O‘ZBEK TILI

fani bo‘yicha

ISHCHI O‘QUV DASTURI

- 5230200-Menejment (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
- 5310900-Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti (tarmoqlar bo‘yicha)
- 5311000-Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqaruv (tarmoqlar bo‘yicha)
- 5320300-Texnologik mashina va jihozlar (tarmoqlar bo‘yicha)
- 5320400-Kimyoviy texnologiya (ishlab chiqarish turlari bo‘yicha)
- 5320500-Biotexnologiya (tarmoqlar bo‘yicha)
- 5321000-Oziq-ovqat texnologiyasi (mahsulot turlari bo‘yicha)
- 5321300-Neft va neft-gazni qayta ishlash texnologiyasi
- 5321400- Neft-gaz-kimyosanoati texnologiyasi
- 5321800- Rezinatexnik mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasi
- 5610100- Xizmatlar sohasi (ovqatlanishni tashkil etish va servis)
- 5630100-Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar bo‘yicha)
- 5640200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi
- 5310100-Energetika (tarmoqlar bo‘yicha)
- 5322600-Vinohilik texnologiyasi
- 5322500-Bijg‘ish mahsulotlari va alkogolsiz ichimliklar texnologiyasi
- 5314700-Oziq-ovqat sanoati mashina va jihozlari
- 5322800-Funksional ovqatlanish va bolalar mahsulotlari texnologiyasi
- 5322700-Konservalash texnologiyasi
- 5322200-Gazni chuqur qayta ishlash texnologiyasi
- 5322300-Plastmassani qayta ishlash texnologiyasi
- 5314500-Yog‘ochni qayta ishlash sanoati mashinalari va jihozlari
- 5322400-Yog‘lar, efir moylari va parfyumeriya-kosmetika mahsulotlari texnologiyasi

bakalavriat yo‘nalishlari uchun

Umumiy o‘quv soati	— 150
Shu jumladan:	
Amaliy mashg‘ulot	— 90
Mustaqil ish	— 60

Toshkent – 2019

Fanning ishchi o‘quv dasturi namunaviy o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar: G.N.Tavaldiyeva - TKTI “Tillar” kafedrasini mudiri, f.f.n.,
dotsent
_____ (imzo)

G.S.Keldiyorova - TKTI “Tillar” kafedrasini dotsenti
_____ (imzo)

Taqrizchi: I.Azimova - TDO‘TAU “O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi” kafedrasini dotsenti
_____ (imzo)

Fanning ishchi o‘quv dasturi “Tillar” kafedrasining 2019-yil -avgustdagi 1-sonli majlisida ko‘rib chiqilib, fakultet Ilmiy-uslubiy Kengashiga tasdiqlash uchun tavsiya qilindi.

Kafedra mudiri:

dots. G.N.Tavaldiyeva

Fanning ishchi o‘quv dasturi “M va KT” fakulteti Ilmiy-uslubiy Kengashining 2019- yil -avgustdagi 1- sonli majlisida tasdiqlandi.

Fakultet Ilmiy uslubiy Kengashi raisi:

prof.G‘.X.Hamroqulov

I. O‘quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta’limdagi o‘rni

O‘zR Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-37-75-sonli Qarori Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini tubdan takomillashtirish, ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash, shuningdek, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, O‘zR Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusda belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadini ko‘zlaydi.

Bu maqsadlar O‘zR Prezidentining kadrlar tayyorlashning ma’no-mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida 2017-yil 20-aprelda qabul qilingan «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-29-09-sonli qarorida belgilab berilgan oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Davlatimizning ta’lim tizimini yanada rivojlantirish borasidagi siyosatida ko‘zlanganidek, ta’lim-tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biri «oliy ta’limning ma’naviy-axloqiy mazmunini kuchaytirish, talaba-yoshlarning qalbi va ongiga milliy istiqlol g‘oyasini, xalqimizning yuksak ma’naviyati va insonparvarlik an‘analariga sadoqat tuyg‘usini chuqur singdirish»dir.

O‘zbek xalqining milliy qadriyatlaridan biri uning milliy tili ekanligini e’tiborga olsak, mustaqil davlatimizda davlat tilining ijtimoiy mavqeyi tobora ortib borayotgan, ish yuritishda to‘liq davlat tiliga o‘tilayotgan bugungi kunda barcha mutaxassislarning millatidan qat’iy nazar, o‘zbek tilini puxta egallashlarini taqozo etmoqda.

Kishi o‘z fikrini aniq va ravon ifodalashi uchun nutqi uslublardan ham xabardor bo‘lishi, kundalik so‘zlashuv tilidan tashqari, rasmiy ish yuritish tilini, muomala madaniyati, kasb odobi sirlarini bilishi kerak.

O‘zR “Davlat tili to‘g‘risida”gi qarorining 10-moddasida “Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi”, - deyiladi.

“O‘zbek tili” fanini o‘qitish O‘zbekistonda istiqomat qiladigan boshqa millat vakillarining davlat tilini puxta egallashiga, milliy, madaniy qadriyatlarni o‘rganishiga va ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lishiga, barcha sohalarda erkin fikr almashishiga hamda mutaxassislik doirasida muloqot yuritishiga zamin yaratadi.

“O‘zbek tili” fani davlat tilida og‘zaki va yozma muloqot yuritish, tilning orfoepik va imlo qoidalari, sohaviy terminologiya, mutaxassislik tili, monologik va dialogik matn tuzish, nutq uslublari, sohaviy hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish masalalarini qamrab oladi.

Ushbu fan dasturi ta’lim o‘zga tillarda olib boriladigan guruhlarda davlat tilini o‘rgatish uchun me’yoriy hujjat sanaladi hamda talabalar o‘zbek tilidan egallashlari shart bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalarning zaruriy me’yorini asoslab beradi.

“O‘zbek tili” fani bo‘yicha ta’lim samaradorligiga erishish uchun o‘quv jarayonida sohaga oid yangi adabiyotlardan foydalaniladi, talabalarda innovatsion fikrlashni rivojlantirishga, yangi g‘oya va tashabbuslarni shakllantirishga e’tibor qaratildi.

Ta’lim sifatini oshirishda talabalar bilimini nazorat qilish bo‘yicha baholashning yangicha tizimi va mezonlari asosidagi zamonaviy, shaffof va adolatli usullari ishlab chiqildi.

“O‘zbek tili” fani gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, birinchi kursda o‘qitilishi maqsadga muvofiq.

II. O‘quv fanining maqsadi va vazifasi

“O‘zbek tili” fanining asosiy maqsadi talabalarning kundalik, ilmiy va kasbiy sohalarda faoliyat olib borishi uchun o‘qitishning kommunikativ-nutqiy tamoyili asosida ularda fan bo‘yicha egallangan bilim, ko‘nikmalarni muloqot va ish faoliyati jarayonida qo‘llash malakasini shakllantirishga qaratiladi.

Fanning vazifalari:

- nutqiy kompetensiyani rivojlantirish;
- og‘zaki va yozma nutqda sohaviy terminlarni samarali qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- ixtisoslikka oid matn tuzish, uni tahrir va tahlil qilish malakalarini hosil qilish;
- sohaviy hujjatlarni tuzish, shu jumladan, elektron hujjatlarni to‘ldirish va rasmiylashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar:

- o‘zbek adabiy tili me‘yorlari, nutq uslublari to‘g‘risida *tasavvurga ega bo‘lish*;
- kasbiy terminologiyani, og‘zaki va yozma nutq xususiyatlarini *bilish va ulardan foydalana olish*;
- matn tuzish, uni tahlil va tahrir qilish, sohaviy hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish, kasbiy muloqot yuritish *ko‘nikmalariga ega bo‘lish* kerak.

Fanning o‘quv rejasidagi fanlar bilan bog‘liqligi

O‘quv rejasining ijtimoiy-gumanitar fanlar blokiga kirgan barcha fanlar, xususan, “Falsafa”, “Siyosatshunoslik”, “Ma‘naviyat asoslari” kabi fanlar bevosita o‘zbek tili fani bilan bog‘liq hisoblanadi.

O‘zbek tili fani ta‘lim o‘zbek tilida olib boriladigan ixtisoslik fanlari bilan, shuningdek, rus tili, chet tili fanlari bilan qiyoslab o‘rganilgani uchun bu fanlar bilan uzviy aloqadordir.

O‘zbek tilini o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

37-75-sonli PQda ko‘rsatilganidek, o‘quv mashg‘ulotlarini talabalarni innovatsion fikrlashga yo‘naltiradigan o‘qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni joriy etish asosida tashkil etish, asosiy e‘tiborni talabalarning mustaqil ta‘lim olishi bilan bog‘liq mexanizmlarni amalga oshirishga qaratish muhimdir.

Ta‘limning oliy bosqichida o‘zbek tilini o‘qitishning mazmuni yanada takomillashtiriladi. Bunda ilgaridek maktabda olingan bilimlarni mustahkamlash yo‘lidan borilmaydi, aksincha, talablarning litsey va kollejlarda egallagan bilimlari asosida oladigan ixtisosliklari doirasida bog‘lanishli nutqni o‘stirish ko‘zda tutiladi.

O‘zbek tili ta‘limi mazmuni talabalarning nutqiy savodxonligini grammatikani o‘qitish orqali emas, balki turmush va mehnat faoliyatidagi nutq mavzulari doirasini yanada kengaytirgan hamda ixtisoslikka moslashtirgan tarzda o‘zbekcha nutqni tinglash, so‘zlash, o‘qish va yozish amallarini uyg‘unlashtirib o‘rgatish bilan ajralib turadi.

Bunda ilmiy-badiiy adabiyotlarni o‘qib tushunish, ixtisoslik sohasida matn yaratish va hujjat tuzish, matnni shakl va mazmun jihatdan yangilash, boshqa nutq uslubiga ko‘chira olish kabi murakkab talablar qo‘yiladi. Bu o‘z navbatida talabalarning o‘zbek tili imkoniyatlaridan qanchalik to‘g‘ri va keng foydalana bilishlariga, xususan, leksik va uslubiy imkoniyatlardan o‘rinli foydalanishni qanchalik puxta o‘zlashtirganliklariga bog‘liq bo‘ladi. Bularning barchasi ta‘limning yuqori bosqichida o‘zbek tilidan tavsiya etilayotgan bilimlarning hayotiyligi, kengligi va qiziqarliligi, tanlagan kasbi, mutaxassisligiga muvofiqligi, o‘qitish metodlari va usullarining zamonaviyligi, audiovizual vositalarning samarali qo‘llanilishi bilan ta‘minlanadi.

Har bir mavzu yakunida axborot va pedagogik texnologiyalari keltirilgan hamda ularni qo'llash yuzasidan aniq tavsiyalar mazkur fandan ishlab chiqilgan o'quv-uslubiy majmua (O'UM) da bayon etilgan.

Fanni oqitishda qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar va ularning mazmun-mohiyati

«O'zbek tili» fanining amaliy mashg'ulotlarida ma'lumotlarni ko'rgazmali taqdim etish usullari va vositalari:

- Mustaqil o'qish, ma'ruza tinglash jarayonida olinadigan ma'lumotlarni yaxlit bir tizimga keltirishga imkoniyat yaratuvchi «Insert» jadvali.
- Ma'lumot xaritasini tuzish va vositasi-barcha fikr konstitutsiyasini fokuslash va aniqlash uchun asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish uchun «Klaster».
- matn (mavzu, bo'lim) bo'yicha tadqiqot ishlari olib borish, tizimli mulohaza qilish imkonini beruvchi «BBB» jadvali.

«O'zbek tili» fanining amaliyot mashg'ulotlarida muammoni jamoali tarzda hal etishning usullari va vositalari:

«Aqliy hujum» - bu uslubda qo'yilgan savol, maummo, masalani butun guruh bilan birgalikda muhokama qilishga, talabalarning darsda faolligini oshirish va bayon qilish chog'ida boshqalarni ham fikrini jalb qilish, o'z fikrlarini aytishga yo'naltiruvchi metod.

«Bahs» - o'z fikrini ifoda etishni xohlovchilar orasida biron-bir munozarali masalani muhokama qilish, haqiqatni aniqlash va to'g'ri qarorni qabul qilish.

«Pinbord texnikasi» muammoni hal etish bo'yicha g'oyalarni tizimlashtirish va guruhlashtirish, yagona nuqtayi nazarni ishlab chiqish imkonini beradi.

«Keys-stadi» - talabalarni qaror qabul qilishga o'rgatishda muammoli vaziyat hosil qilib, uni yechishni o'rganish metodi.

Shuningdek, «O'zbek tili» fanining amaliyot mashg'ulotlarida kompyuter dasturlaridan (Microsoft, Power Point, Web Trust, SYS Trust), slaydlardan, multimedia ta'lim vositalaridan, INTERNET sahifalari va tizimlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Talabalarga ushbu fanni o'zlashtirishda mavjud o'quv adabiyotlaridan, testlar majmuasi va boshqa manbalardan foydalanish tavsiya etiladi.

III. ASOSIY NAZARIY QISM (AMALIY MASHG'ULOTLAR)

«O'zbek tili» bo'yicha jami 150 soat ajratilgan bo'lib, uning 90 soati amaliy mashg'ulotlar uchun, 60 soati mustaqil ta'lim uchun taqsimlangan. I semestr uchun 36 soat amaliy mashg'ulot, II semestr uchun 54 soat ajratilgan.

Fandan o'tiladigan mavzular va ular bo'yicha mashg'ulot turlariga ajratilgan soatlarning taqsimoti

I SEMESTR (kuzgi)

№	Mavzular nomi	soatlar			
		jami	Ma'-ruza	Ama-liy	Mus-taqil
1	O'zbekiston - yagona vatan. Dunyo tillari. O'zbek tilida tovushlar talaffuzi.	6		2	4
2	O'zbek tili – Davlat tili. O'zbek tilining imlo qoidalari. Harflar imlosi. Bosh harflar imlosi.	2		2	
3	Milliy qadriyatlar – millat iftixori. O'zbek tilida so'z	2		2	

	yasalishi. Asos va qo‘shimchalr imlosi.				
4	Tarix va zamonamiz. Tilning leksik qatlamlari. Qo‘shib yozish va ajratib yozish.	2		2	
5	Ulug‘ ajdodlarimiz. Atamalar va ularning vujudga kelishi. Bo‘g‘in ko‘chirish qoidalari. Chiziqcha bilan yozish.	2		2	
6	Vatan va vatanparvarlik. Ijtimoiy-siyosiy leksika. Shevaga xos so‘zlar.	2		2	
7	Muzeylar – o‘tmish va kelajak orasidagi ko‘prik. Sohaviy terminlar va ularning qo‘llanishi. So‘z turkumlari.	6		2	4
8	Kelajak – bilimli yoshlar qo‘lida. So‘zlarning shakl va ma‘no munosabasabatiga ko‘ra turlari. Ot - so‘z turkumi.	2		2	
9	Zamonaviy dunyoda ta‘lim. Til va terminologiya. Otning ma‘no turlari. Otlarda egalik va kelishik shakllari.	6		2	4
10	Kitob mutolaasi. Erkin va turg‘un birikmalar. Frazologik birliklarning turlari va uslubiy xususiyatlari.	6		2	4
11	Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. Fe‘l so‘z turkumi. Fe‘llarda shaxs-son va zamon shakllari.	2		2	
12	Adabiyot – ma‘naviyatni yuksaltiruvchi manba. Nutq uslublari. Badiiy uslub va uning xususiyatlari. Sifat –so‘z turkumi. Sifat darajalari.	2		2	
13	Ommaviy axborot vositalari. Publitsistik uslub va uning xususiyatlari. Olmosh so‘z turkumi.	2		2	
14	Internet hayotimizda. So‘zlashuv uslubi. Og‘zaki va yozma uslub, ularning xususiyatlari.	2		2	
15	O‘zbekiston va jahon. Rasmiy diplomatik uslub va uning xususiyatlari. Son so‘z turkumi.	2		2	
16	XXI asrda innovatsiyalar. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari. Ravish so‘z turkumi.	6		2	4
17	Davrimizning global muammolari. Maqola va uning turlari.	6		2	4
18	Tabiat va inson. Intervyu olish va intervyu berish qoidalari.	2		2	

	Jami	60		36	24
--	-------------	-----------	--	-----------	-----------

II SEMESTR (bahorgi)

№	Mavzular nomi	Soatlar			
		Jami	Ma'-ruza	Ama-liy	Mus-taqil
1	Inson va salomatlik. Reportaj tayyorlash. Yordamchi so'z turkumlari. Ko'makchi.	8		2	6
2	Huquqiy madaniyat. Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlari. Bog'lovchi.	2		2	
3	O'zbekistonda oliy ta'lim. Uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlar. Yuklama.	2		2	
4	Ilm maskanimiz hayotidan. Alohida olingan so'zlar. Undov va taqlid so'zlar. Modal so'zlar.	2		2	
5	Bo'lajak kasbim. Matn va uning turlari. Gapda so'zlarning bog'lanishi.	8		2	6
6	Hayot mening tasavvurimda. Dialogik matnning ma'no munosabatiga ko'ra turlari. So'z birikmasi sintaksisi.	2		2	
7	Ustoz maktabi. Monologik matn. Monologik matnda mazmun izchilligi va ohang.	2		2	
8	Kasbim tarixi. Soha lug'atlari. Ularda terminlar va birikmalarning berilishi.	2		2	
9	Iqtidor va mehnat. Matnga so'z va termin tanlash. Gap bo'laklari. Bosh bo'laklar.	2		2	
10	Yetuk mutaxassis. Matn tahlili va tahriri. Ikkinchi darajali bo'laklar.	2		2	
11	Kasb bayrami. Matn mazmunining qisqacha bayoni (rezyume), uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.	2		2	
12	Sharq akademiyalari. Referat matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.	8		2	6
13	Ilm sari yo'l. Taqriz matni. Ularning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari. Uyushiq bo'laklar.	8		2	6
14	Kasb etikasi. Xizmat ko'rsatish madaniyati. Annotatsiya matni. Ularning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.	2		2	
15	Nutq odobi. Me'yor tushunchasi.	2		2	
16	San'at va ma'naviyat. Umumxalq leksikasiga kirgan	8		2	6

	san'atshunoslik terminlari. Undalmalar.				
17	Men sevgan asar. Badiiy tasvir vositalari. Kiritmalar.	8		2	6
18	Kimyo sanoati va hayot. Umumxalq leksikasida kimyoviy atamalarning ishlatilishi.	2		2	
19	Ish yuritish tili va uslubi. "Hujjatlar tarixi" navzusida matn. Ish yuritish terminlari.	2		2	
20	Hujjat turlari va xususiyatlari. Ish yuritish hujjatlari ro'yxati. Ularni "Klaster" shaklida tasniflash.	2		2	
21	Tashkiliy hujjatlar va ularning turlari. Tashkiliy hujjatlarning vazifasi. Tashkiliy hujjat turlari, ularning leksik va stilistik xususiyatlari.	2		2	
22	Farmoyish hujjatlari va ularning turlari. Farmoyish hujjatlarining vazifasi. Ularning turlari, leksik va stilistik xususiyatlari.	2		2	
23	Ma'lumot-axborot hujjatlari. Ma'lumot-axborot hujjatlarining vazifasi. Ularning turlari. Tarjimayi hol. Bildirishnoma. Tavsifnoma	2		2	
24	Ishonchnoma. Tilxat. Tushuntirish xati.	2		2	
25	Dalolatnoma. Ma'lumotnoma.	2		2	
26	Majlis bayoni. Hisobot.	2		2	
27	Xizmat yozishmalari. Xatlar.	2		2	
	Jami	90		54	36

3. O'QUV MATERIALLAR MAZMUNI

1-mavzu. O'zbekiston – yagona Vatan

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qish, mazmunini to'liq tinglab tushunish. Matndagi atama va iboralarning ma'nosini izohlash. Vatan haqidagi she'rlardan namunalar yod olish.

Yozma nutq: Matndan tayanch so'z va iboralarni ajratib yozish. Matndagi asosiy fikrni yozma ravishda ifodalash. Respublika baynalmilal madaniyat markazi haqida qisqa ma'lumot yozish.

Grammatika: Dunyo tillari. O'zbek tilida tovushlar talaffuzi.

2-mavzu. O'zbek tili – Davlat tili

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi asosiy fikrni ajratib so'zlab berish.

Yozma nutq: “Men o‘zbek tilini o‘rganyapman” mavzusida dialog tuzish va uni inssenirovka qilish. Mutafakkirlarning til haqidagi fikrlaridan namunalar keltirish.

Grammatika: O‘zbek tilining imlo qoidalari. Harflar imlosi. Bosh harflar imlosi.

3-mavzu. Milliy qadriyatlar – millat iftixori

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so‘zlash. Milliy urf-odatlarni ta’riflab berish.

Yozma nutq: Biror milliy bayram, marosimdan olingan taassurotlarni yozish. “Turli millatlarning urf-odatlari” mavzusida polilog tuzish va uni inssenirovka qilish.

Grammatika: O‘zbek tilida so‘z yasalishi. Asos va qo‘shimchalr imlosi.

4-mavzu. Tarix va zamonamiz

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. Matnni qisqartirib so‘zlab berish. Tarixiy so‘zlarning zamonaviy muqobillarini topish.

Yozma nutq: Tarixiy asar yoki filmlardan biri haqidagi taassurotlarni yozish. Tarixiy shaxslardan birini tasvirlash.

Grammatika: Tilning leksik qatlamlari. Qo‘shib yozish va ajratib yozish.

5-mavzu. Ulug‘ ajdodlarimiz

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi atama va iboralarning ma’nosini izohlash. Matnni kengaytirib so‘zlab berish. Matnni qismlarga bo‘lib, har bir qismni nomlash.

Yozma nutq: Mashhur allomalardan biri haqida taqdimot tayyorlash. Buyuk allomalarimizning asarlari ro‘yxatini tuzish.

Grammatika: Atamalar va ularning vujudga kelishi. Bo‘g‘in ko‘chirish qoidalari. Chiziqcha bilan yozish.

6-mavzu. Vatan va vatanparvarlik

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. Matnni birinchi shaxs nomidan so‘zlab berish. Mavzu bo‘yicha bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq: Tarixda o‘z jasorati bilan nom qoldirgan qahramonlar haqida hikoya tuzish. “Vatanparvarlik nima?” mavzusida esse yozish. Davriy nashrlardagi maqolalar asosida fidoyiligi bilan tanilgan zamondoshlarimiz haqida ma’lumot tayyorlash.

Grammatika: Ijtimoiy-siyosiy leksika. Shevaga xos so‘zlar.

7-mavzu. Muzeylar – o‘tmish va kelajak orasidagi ko‘prik

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so‘zlash.

Yozma nutq: O‘zbekiston muzeylaridan biri haqida taqdimot tayyorlash. Jahonning mashhur muzeylari haqida qiziqarli ma’lumotlar tayyorlash. Soha muzeyi haqida matn tuzish.

Grammatika: Sohaviy terminlar va ularning qo‘llanishi. So‘z turkumlari.

8-mavzu. Kelajak – bilimli yoshlar qo‘lida

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matnni ijodiy so‘zlash. Mavzu bo‘yicha bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq: “Iqtidorli yoshlar” mavzusida bog‘lanishli matn tuzish. “Mening tengdoshlarim” mavzusida dialog tuzish va uni inssenirovka qilish. Yoshlar hayotidan qiziqarli hodisa va voqyealar to‘g‘risida hikoya tuzish.

Grammatika: So‘zlarning shakl va ma’no munosabasabatiga ko‘ra turlari. Ot - so‘z turkumi.

9-mavzu. Zamonaviy dunyoda ta’lim

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. Matnni reja asosida so‘zlab berish.

Yozma nutq: Turli mamlakatlarning ta’lim tizimlari haqida ma’lumot tayyorlash. Chet ellik talabalar hayoti aks ettirilgan badiiy asar yoki film haqidagi taassurotlarni yozish. Turli ta’lim muassasalari haqida polilog tuzish va uni inssenirovka qilish.

Grammatika: Til va terminologiya. Otning ma’no turlari. Otlarda egalik va kelishik shakllari.

10-mavzu. Kitob mutolaasi

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matnni ijodiy so‘zlash. Kitobni tavsiya qilish usullari haqida fikr bildirish.

Yozma nutq: O‘qilgan kitoblar to‘g‘risida dialog tuzish va uni inssenirovka qilish. O‘qilgan kitoblar ro‘yxatini tuzish va ularga qisqacha tavsif berish.

Grammatika: Erkin va turg‘un birikmalar. Frazelogik birliklarning turlari va uslubiy xususiyatlari.

11-mavzu. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so‘zlash.

Yozma nutq: Universitet kutubxonasi haqida matn tuzish. Elektron kutubxona bilan ishlash bo‘yicha tavsiyalar yozish. Badiiy asarlarga bag‘ishlangan internet saytlarining ro‘yxatini tuzish.

Grammatika: Fe’l so‘z turkumi. Fe’llarda shaxs-son va zamon shakllari.

12-mavzu. Adabiyot – ma’naviyat o‘chog‘i

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. Matndagi asosiy fikrni ajratib so‘zlab berish.

Yozma nutq: Badiiy asar qahramoni o‘quvchini qanday tarbiyalashi haqida fikr bildirish va unga misollar keltirish. Mashhur adabiy qahramonlar haqida taqdimot tayyorlash. Adabiyot haqidagi hikmatli so‘zlardan namunalar yozish.

Grammatika: Nutq uslublari. Badiiy uslub va uning xususiyatlari. Sifat so‘z turkumi. Sifat darajalari.

13-mavzu. Ommaviy axborot vositalari

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so‘zlash. Mavzu bo‘yicha bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq: Ommaviy axborot vositalarining faoliyati haqida fikr bildirish. Teleko‘rsatuvlar va radioeshittirishlar, gazeta va jurnallardagi materiallar, reklama matnlarini tahlil qilish. “XXI asrda axborotning o‘rni” mavzusida esse yozish.

Grammatika: Publitsistik uslub va uning xususiyatlari. Olmosh –so‘z turkumi.

14-mavzu. Internet hayotimizda

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. Mavzu bo‘yicha bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq: Internet madaniyati haqida matn tuzish. Ta’lim jarayonida eng ko‘p foydalaniladigan internet saytlari ro‘yxatini tuzish va tavsiya qilish. Internetdan foydalanish to‘g‘risida polilog tuzish va uni insseniroyka qilish.

Grammatika: So‘zlashuv uslubi. Og‘zaki va yozma uslub, ularning xususiyatlari.

15-mavzu. O‘zbekiston va jahon

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. Matnni qisqartirib so‘zlab berish.

Yozma nutq: O‘zbekiston a’zolik qilayotgan xalqaro tashkilotlar haqida ma’lumot tayyorlash. Xalqaro tashkilotlardan birining faoliyati haqida taqdimot tayyorlash. Xalqaro tashkilotlarning qisqartma nomlari ro‘yxatini tuzish.

Grammatika: Rasmiy diplomatik uslub va uning xususiyatlari. Son - so‘z turkumi.

16-mavzu. XXI asrda innovatsiyalar

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. Turli sohalariga oid innovatsiyalar haqida gapirib berish.

Yozma nutq: “Zamondoshlarimizning kashfiyotlari” mavzusida taqdimot tayyorlash. Kasb sohasidagi innovatsiyalar haqida ma’lumot tayyorlash. Sohada qo’llanadigan baynalmilal soʻzlar lugʻatini tuzish.

Grammatika: Ilmiy uslub va uning xususiyatlari. Ravish - soʻz turkumi.

17-mavzu. Davrimizning global muammolari

Ogʻzaki nutq: Mavzuga oid matnni oʻqib tushunish. Matndagi termin va iboralarning maʼnosini izohlash. Matnni oʻzgartirib soʻzlab berish. Mavzu boʻyicha bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq: Insoniyat oldida turgan global muammolar toʻgʻrisida taqdimot tayyorlash. Global muammolardan biriga bagʻishlangan publitsistik maqola yozish.

Grammatika: Maqola va uning turlari.

18-mavzu. Tabiat va inson

Ogʻzaki nutq: Mavzuga oid matnni oʻqib tushunish. Matndagi termin va iboralarning maʼnosini izohlash. Matnni ijodiy soʻzlash.

Yozma nutq: Dunyoda va Oʻzbekistonda mavjud ekologik muammolar haqida esse yozish. “Orol fojiasi” mavzusida taqdimot tayyorlash. Oʻzbekiston ekologik harakatining faoliyati toʻgʻrisida maʼlumot tayyorlash.

Grammatika: Intervyu olish va intervyu berish qoidalari.

19-mavzu. Inson va salomatlik

Ogʻzaki nutq: Mavzuga oid matnni oʻqib tushunish. Matndagi termin va iboralarning maʼnosini izohlash. Matnga munosabat bildirib soʻzlash. Mavzu boʻyicha bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq: “Salomatligimiz oʻz qoʻlimizda” mavzusida esse yozish. Jahon meditsinasi yutuqlari haqida taqdimot tayyorlash. Salomatlik haqidagi oʻzbek xalq maqollaridan namunalar yozish. Mehnat xavfsizligi qoidalarini tuzish.

Grammatika: Reportaj tayyorlash. Yordamchi soʻz turkumlari. Koʻmakchi.

20-mavzu. Huquqiy madaniyat

Ogʻzaki nutq: Mavzuga oid matnni oʻqib tushunish. Matndagi termin va iboralarning maʼnosini izohlash. Matndagi asosiy fikrni ajratib soʻzlab berish.

Yozma nutq: “Qonunlarni oʻrganish va ularga rioya qilish” mavzusida matn tuzish. Oʻzbekiston fuqarolarining huquqlari va burchlari toʻgʻrisida dialog tuzish. Umumxalq leksikasiga kirgan huquqiy terminlar lugʻatini tuzish.

Grammatika: Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlari. Bog‘lovchi.

21-mavzu. O‘zbekistonda oliy ta’lim

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. Matnni kengaytirib so‘zlab berish.

Yozma nutq: O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalari haqida ma’lumot tayyorlash. Oliy ta’lim muammolariga bag‘ishlangan ilmiy maqola yozish. Oliy ta’lim terminlari lug‘atini tuzish. O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalarining nomlarini qisqartma otlar shaklida ifodalash.

Grammatika: Uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so‘zlar. Yuklama.

22-mavzu. Institutimiz hayotidan

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi nom va iboralarning ma’nosini izohlash. Matnni o‘zgartirib so‘zlab berish.

Yozma nutq: Universitet haqida taqdimot tayyorlash. Universitetda o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlardan reportaj tayyorlash. Universitet tarixi haqida bog‘lanishli matn tuzish.

Grammatika: Alohida olingan so‘zlar. Undov va taqlid so‘zlar. Modal so‘zlar.

23-mavzu. Bo‘lajak kasbim

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so‘zlash.

Yozma nutq: Kasb tanlovi to‘g‘risida esse yozish. Kasb-hunar mavzusida o‘zbek maqollaridan namunalar yozish. Mutaxassislikka oid terminlar lug‘atini shakllantirish.

Grammatika: Matn va uning turlari. Gapda so‘zlarning bog‘lanishi.

24-mavzu. Hayot mening tasavvurimda

Og‘zaki nutq: Hayotga munosabat va qiziqishlar haqida gapirib berish. Inson barkamollikka erishishi uchun nimalar qilishi kerakligi haqida fikr bildirish. Hayotdagi idealni tasvirlab berish. Mavzu bo‘yicha bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq: “Hayot mening tasavvurimda” mavzusida esse yozish. Hayotdagi maqsadlar va orzular haqida dialogik matn tuzish va uni insseniroyvka qilish.

Grammatika: Dialogik matnning ma’no munosabatiga ko‘ra turlari. So‘z birikmasi sintaksisi.

25-mavzu. Ustoz maktabi

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. Matnni ijodiy so‘zlash. Ustozlarga bag‘ishlangan she’r yod olish.

Yozma nutq: Kasbiy faoliyatda ustoz va shogird an’analari to‘g‘risida matn tuzish. Ustozlar haqida esse yozish. Ustoz haqidagi rivoyatlardan namunalar yozish.

Grammatika: Monologik matn. Monologik matnda mazmun izchilligi va ohang.

26-mavzu. Kasbim tarixi

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matnni reja asosida so‘zlab berish. Tanlangan kasb haqida rivoyat yoki hikoya so‘zlab berish.

Yozma nutq: “Sohaning vujudga kelishi va rivojlanishi” mavzusida matn tuzish. Kasb taraqqiyoti haqidagi ma’lumotlardan xronologik jadval tuzish. Ish jarayonidagi muloqot vaziyatlarini aks ettiruvchi kasbiy o‘yin ssenariysini tuzish va uni inssenirovka qilish.

Grammatika: Soha lug‘atlari. Ularda terminlar va birikmalarning berilishi.

27-mavzu. Iqtidor va mehnat

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matnga munosabat bildirib so‘zlash. Mavzu bo‘yicha bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq: “Qanday qilib muvaffaqiyatga erishish mumkin?” mavzusida esse yozish. Mamlakatimizda iqtidorli yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlar haqida ma’lumot yozish. Kasb sohasida muvaffaqiyatga erishish to‘g‘risida dialog tuzish va uni inssenirovka qilish.

Grammatika: Matnga so‘z va termin tanlash. Gap bo‘laklari. Bosh bo‘laklar.

28-mavzu. Yetuk mutaxassis

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi qo‘shimcha fikrni ajratib so‘zlab berish. Malakali mutaxassis haqidagi tasavvurlarni gapirib berish.

Yozma nutq: “Sohamiz ravnaqi” mavzusida matn tuzish. Mutaxassisning kasbiy kompetensiyalari ro‘yxatini tuzish va ularni misollar bilan izohlab berish.

Grammatika: Matn tahlili va tahriri. Ikkinchi darajali bo‘laklar.

29-mavzu. Kasb bayrami

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matnni o‘zgartirib so‘zlab berish. Turli mamlakatlarda nishonlanadigan shu kasb egalarining bayramlari haqida gapirib berish.

Yozma nutq: Kasb bayrami haqida matn tuzish. Kasb bayramiga bag‘ishlangan reportaj yozish. Reportaj mazmunini rezyume ko‘rinishida ifodalash.

Grammatika: Matn mazmunining qisqacha bayoni (rezume), uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.

30-mavzu. Sharq akademiyalari

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matnni davom ettirgan holda so‘zlab berish. Fidoyilik tushunchasini misollar bilan ta’riflab berish.

Yozma nutq: Kasbning qo‘llanish sohasi, ahamiyati to‘g‘risida ilmiy uslubdagi ma’lumotnoma matnini tayyorlash. Soha rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan mutaxassislar haqida reportaj tayyorlash.

Grammatika: Referat matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.

31-mavzu. Ilm sari yo‘l

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matnni qisqartirib so‘zlab berish. Ilmiy ishlarning fan va soha rivojiga qo‘shadigan hissasi haqida gapirib berish.

Yozma nutq: “Soha rivojida fanning o‘rni” mavzusida matn tuzish. Ilmiy ishlarning turlari haqida qisqacha tavsiflar yozish.

Grammatika: Taqriz matni. Ularning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari. Uyushiq bo‘laklar.

32-mavzu. Kasb etikasi

Og‘zaki nutq: Soha xodimlarining odob-axloq qoidalari bilan tanishish va ular haqida gapirib berish. Odob–axloq mavzusidagi hikmatlarni yod olish. Mavzu bo‘yicha bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq: Odob-axloq mavzusidagi kitobga annotatsiya yozish. “Mutaxassisning odobi va axloqi” mavzusida dialog tuzish va uni inssenirovka qilish.

Grammatika: Annotatsiya matni. Ularning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.

33-mavzu. Nutq odobi

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so‘zlash. Kasbiy faoliyatda nutq madaniyatining ahamiyati haqida gapirib berish.

Yozma nutq: “Mutaxassisning nutq madaniyati” mavzusida matn tuzish. Ish jarayonidagi muomala madaniyati haqida kasbiy o‘yin ssenariysini tuzish va uni inssenirovka qilish.

Grammatika: Me’yor tushunchasi.

34-mavzu. San'at va ma'naviyat

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi terminlarning ma’nosini izohlash. Matnni ijodiy so‘zlash.

Yozma nutq: “San’at mening hayotimda” mavzusida esse yozish. San’atkorlarni ta’riflab, reklama matnini tayyorlash. O‘zbek kinosining mavzulari va muammolari haqida publitsistik maqola yozish. Madaniy hordiq odobi qoidalarini yozish.

Grammatika: Umumxalq leksikasiga kirgan san'atshunoslik terminlari. Undalmalar.

35-mavzu. Men sevgan asar

Og‘zaki nutq: Sevimli asar haqida so‘zlab berish. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti haqidagi ma’lumotlarni gapirib berish. Mashhur o‘zbek shoirlari ijodidan namunalar yod olish.

Yozma nutq: “Adabiyotning kishi ruhiy dunyosiga ta’siri” mavzusida esse yozish. Yangi kitoblar haqida polilog matnini tuzish va uni inssenirovka qilish.

Grammatika: Badiiy tasvir vositalari. Kiritmalar.

36-mavzu. Kimyo sanoati va hayot

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. Matndagi asosiy fikrni ajratib so‘zlab berish.

Yozma nutq: Mamlakat Kimyo sanoatida yuz bergan yangiliklar haqida xabar tayyorlash. Kimyoiy terminlar tarkibidagi qisqartma otlar lug‘atini tuzish. Kimyo texnologiyasiga oid qiziqarli ma’lumotlarni topib yozish.

Grammatika: Umumxalq leksikasida kimyoviy atamalarning ishlatilishi.

37-mavzu. Ish yuritish tili va uslubi

Hujjat – ish yuritishning asosi. Hujjatchilik tarixi. Normativ (me’yoriy) hujjat tushunchasi. Hujjat aylanishi. Elektron hujjatlar.

Yozma nutq: “Hujjatlar tarixi” mavzusida matn tuzish. Ish yuritish terminlari.

38-mavzu. Hujjat turlari va xususiyatlari

Hujjatlarning tasniflanishi. Hujjat rekvizitlari. Hujjat tayyorlashning asosiy qoidalari.

Yozma nutq: Ish yuritish hujjatlarning ro‘yxati. Ularni klaster shaklida tasniflash.

39-mavzu. Tashkiliy hujjatlar va ularning turlari

Tashkiliy hujjatlarning vazifasi. Tashkiliy hujjatlarning turlari. Tashkiliy hujjatlarning leksik va stilistik xususiyatlari. Shartnoma. Mehnat shartnomasi. Nizom. Yo‘riqnomasi.

Yozma nutq: Mehnat shartnomasi matnini tuzish. Mehnat shartnomasidagi tayanch so‘zlarni ajratib yozish. Oliy ta’lim muassasasi Nizomining tuzilishini yozish.

40-mavzu. Farmoyish hujjatlari va ularning turlari

Farmoyish hujjatlarining vazifasi. Farmoyish hujjatlarining turlari. Buyruq. Farmoyish. Ko'rsatma. Farmoyish hujjatlarining leksikasi va stilistik xususiyatlari.

Yozma nutq: Oliy ta'lim muassasasi buyrug'ining matnini tayyorlash. Farmoyish hujjatlarida qo'llanadigan tayanch so'zlarni yozish.

41-mavzu. Ma'lumot-axborot hujjatlari

Ma'lumot-axborot hujjatlarining vazifasi. Ma'lumot-axborot hujjatlarining turlari. Tarjimayi hol. Bildirgi. Tavsifnoma.

Yozma nutq: Tarjimayi hol yozish. Tavsifnoma yozish.

42-mavzu. Ishonchnoma. Tilxat. Tushuntirish xati

Rasmiy va shaxsiy ishonchnomalar. Tilxatning zaruriy qismlari va uni tuzuvchi shaxslar. Tushuntirish xatining turlari.

Yozma nutq: Tilxat matnini tuzish. Tushuntirish xati yozish.

43-mavzu. Dalolatnoma. Ma'lumotnoma

Dalolatnomaning zaruriy qismlari va uni tuzuvchi shaxslar. Ma'lumotnoma turlari. Ma'lumotnomani rasmiylashtirish.

Yozma nutq: Talabalar guruhining o'zlashtirish ko'rsatkichlari haqida ma'lumotnoma tuzish.

44-mavzu. Majlis bayoni. Hisobot

Bayonnomalarning turlari. Majlis bayoni. Majlis bayonidan ko'chirma. Hisobot turlari. Davriy hisobotlar. O'quv amaliyoti hisoboti.

Yozma nutq: Majlis bayonini tuzish. O'tkazilgan tadbir to'g'risida hisobot yozish.

45-mavzu. Xizmat yozishmalari. Xatlar

Xizmat yozishmalarining vazifasi. Xizmat xatlarining turlari. So'rov xati. Iltimos xati. Javob xati. Ilova xat. Tasdiq xati. Eslatma xat. Da'vo xati. Talab xati. Axborot xati. Kafolat xati.

Yozma nutq: Xizmat xatlarining matnlarini tuzish.

IV. AMALIY MASHG‘ULOTLAR BO‘YICHA KO‘RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhni 2 ga ajratgan holda tashkillashtiriladi. Mashg‘ulotlar zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llagan holda faol va interfaol usullar yordamida o‘tkaziladi.

V. MUSTAQIL TA‘LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Ta‘lim sifatini oshirishda o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda asosiy e‘tiborni talabalarning mustaqil ta‘lim olishi bilan bog‘liq mexanizmlarni amalga oshirishga qaratish muhim deb belgilandi. Shuning uchun ham yangi o‘quv rejalarida mustaqil ta‘limga ko‘proq e‘tibor qaratildi. Bunda tegishli fan bo‘yicha talabalar mustaqil ta‘limini tashkil qilishda ularning bilimini baholashning zamonaviy, shaffof va adolatli (avtomatlashtirilgan, portfolio, test sinovlari, ijodiy ish, antiplagiat va h.k.) usullarini qo‘llash vazifa qilib qo‘yildi.

Talabalarning amaliy mashg‘ulotlarga tayyorlanib kelishi va o‘tilgan materiallarni mustaqil o‘zlashtirishlari uchun har bir talabaga ushbu o‘qituvchi tomonidan berilgan materiallar va adabiyotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Talabaning fanni mustaqil tarzda qanday o‘zlashtirganligi joriy baholashda o‘z aksini topadi. Shu sababli talabaning mustaqil ish bo‘yicha olgan baholari joriy baholash tarkibiga kiritiladi.

“O‘zbek tili” fani bo‘yicha mustaqil ish 60 soatga mo‘ljallangan bo‘lib, I semestrda 24 soat, II semestrda 36 soat ajratilgan.

Mustaqil ishlar amaliy mashg‘ulotlar vaqtida hamda darsdan tashqari topshiriq sifatida beriladi.

Talaba mustaqil ishlari mazkur fandan kafedrada ishlab chiqilgan “O‘zbek tili” fanidan mustaqil ishlar bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar”da belgilangan “Portfolio” tizimi asosida baholanadi.

Mustaqil ish topshiriqlari “soddadan murakkabga” tamoyilida quyidagicha tuzilgan bo‘lib, bunda talabaning imkoniyatlari inobatga olinadi:

1-tur topshiriqlari darslarda berilgan ta‘rif va qoidalardan bevosita foydalangan holda bajariladigan bo‘lishi lozim. Bunday topshiriqlar sodda, oddiy topshiriqlarni namunalar asosida bajarishni taqozo qiladi.

2-tur topshiriqlari ma‘lum bir mavzuni yoritishda kerak bo‘lgan g‘oyalar va usullardan foydalana bilishiga asoslangan bo‘lishi kerak. Bunday topshiriqlar masala yoki muammoni yechishda ulardan amaliy foydalanishni talab qiladi.

3-tur topshiriqlarni bajarishda talaba masalani hal qilish yo‘llarini mustaqil izlaydi. Bunday masalalarni hal qilishda talaba qo‘shimcha adabiyotlardan va internet tarmoqlaridan foydalanadi.

I semestr uchun mustaqil ta‘lim mavzularining soatlarda taqsimoti

№	Mavzular	Taqdim qilish shakli	Soat
1	Men nechun sevaman O‘zbekistonni?!	Insho yozish	4
2	O‘zbekiston muzeylari.	Muzeyga tashrif buyurish va muzey haqida taassurot yozib kelish	4
3	Men sevgan badiiy asar	Badiiy asar o‘qib kelish va gapirib berish	4
4	Sohaga oid eng so‘nggi kashfiyot va innovatsion ishlanmalar bo‘yicha ma‘lumotlar to‘plash. (Imlo va tinish belgiga doir topshiriq)	Yozma sharh.	4
5	Dunyoning mashhur universitetlari.	Taqdimot	4

6	Terrorizm va uning insoniyatga tahdidi.	Ommabop maqola yozish	4
Jami:			24

I semestr bo'yicha:

1-tur topshiriqlariga 1-2 topshiriqlar kiradi.

2-tur topshiriqlariga 1-4 topshiriqlar kiradi.

3-tur topshiriqlariga 1-6 topshiriqlar kiradi.

II semestr uchun mustaqil ta'lim mavzularining soatlarda taqsimoti

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Taqdim qilish shakli	Soati
1	Men tanlagan kasb	Insho yozish	6
2	Sport va sog'lom turmush tarzi.	Reportaj tayyorlash	6
3	O'zbek san'ati ustalari.	Taqdimot	6
4	O'zbek adabiyoti namoyandalari.	Videomaterial topish va elektron shaklda taqdim etish	6
5	Sharq akademiyalari.	Institut gazetasiga maqola yozish.	6
6	Badiiy asar o'qish.	Taqriz yozish	6
Jami			36

I semestr bo'yicha:

1-tur topshiriqlariga 1-2 topshiriqlar kiradi.

2-tur topshiriqlariga 1-4 topshiriqlar kiradi.

3-tur topshiriqlariga 1-6 topshiriqlar kiradi.

VI. TALABA MUSTAQIL ISHINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH.

Fan bo'yicha talaba mustaqil ishini nazorat qilish kafedrada ishlab chiqilgan jadval va fan o'qituvchisi tomonidan amalga oshiriladi.

Talabani mustaqil ishi, muayyan fan ishchi dasturda ajratilgan soatlarga mos baholanadi. O'quv semestri yakunida talabani mustaqil ishi bo'yicha to'plagan bahosi joriy nazorat bahosi bilan birgalikda qayd etiladi.

Talabani bahosi maxsus elektron tarmog'ida yoritib boriladi.

Talabalar mustaqil ishlarini baholash shaklini tanlashda o'qituvchi talabalarda shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan ko'nikma va qobiliyatni e'tiborga olishi kerak. Quyida baholashning asosiy shakl va uning maqsadlari keltirilgan.

Mustaqil o'quv faoliyatida talaba butunlay erkin bo'lishi lozim. U o'zining qiziqishidan, imkoniyatlaridan, xohishidan kelib chiqib, mustaqil ishlarni bajarish vaqtini, shaklini, usulini, vositalarini va topshiriqlarning turlarini o'zi tanlaydi. Masalan, 1-tur topshiriqlarni guruhdagi barcha talabalar bajara olishi kerak. 3-tur topshiriqlarni esa hamma bajarishi shart emas, bu bosqich topshiriqlarni bajara oladigan talabalar guruhdagi eng qobiliyatli, bilimli talabalar bo'ladi.

Bunday topshiriqlar o'rgatuvchi-baholovchi topshiriqlar bo'ladi va ularning bajarilishi har bir talabani mavzu materiallari bo'yicha o'zlashtirish darajasini o'zi hamda o'qituvchi tomonidan baholash imkoniyatini beradi:

Faqat 1-tur topshiriqlariga bajargan talaba "qoniqarli" baholanadilar.

1 va 2-tur topshiriqlariga bajargan talabalar “yaxshi” baholanadilar.
Har uchta bosqich topshiriqlarni to‘la bajargan talabalar “a’lo” baholanadilar.

MI shakli	Baholashda qo‘yiladigan talab
Referatlar	ma’lumotni tadqiq etish, tanlash va taqdim etish ko‘nikmasi; tanqidiy baholash; o‘z fikrlarini yozma shaklda ravon ifodalash mahorati; tanqidiy muhokama qilish mahorati;
Nutq, ma’ruza tayyorlash va ijro etish	mavzuning yoritilishi; notiqlik mahorati; imo – ishoralar tili; nutqning tozaligi; ko‘rgazmali qurollardan foydalanish ko‘nikmalari; savollarga javob berish.
Adabiyotlar/ matbuotni sharhlash	adabiyotlarni (maqola va b.) tanqidiy o‘rganish ko‘nikmalari; baho berish; xulosalar chiqarish; o‘z nuqtayi nazarini ifodalash mahorati.
Elektron taqdimot (RRT), video materiallar (yakka)	notiqlik mahorati; imo – ishoralar tili; ko‘rgazmali qurollardan foydalanish ko‘nikmalari; ma’lumotni taqdim qilish va tizimlashtirish ko‘nikmalari; odamlar bilan to‘g‘ri muomalada bo‘lish mahorati.
Reportaj	matbuot, radio, televideniye uchun tanlangan mavzu bo‘yicha xabar, axborot, sodir bo‘lgan voqea haqidagi hikoyani og‘zaki va yozma shaklda tayyorlash; reportajda o‘quvchiga ma’lum bo‘lmagan bironta yangilik haqida mukammal hikoya qilinadi.
Insho	yoza nutqni shakllantirish, fikrni mustaqil shaklda ijodiy bayon qilish; mavzuni mazmunan yoritib berish; matnni imlo qoidalari talabi asosida yozish.
Taqriz	o‘qilgan badiiy asarni tahlil qilib, to‘g‘ri baholay olish; o‘zining nuqtayi nazarini to‘g‘ri ifodalay olish.

VII. FAN BO‘YICHA TALABALAR BILIMINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISH MEZONLARI

JB ni baholash

“O‘zbek tili” fani bo‘yicha joriy baholash talabani amaliy o‘zlashtirishini aniqlash uchun qo‘llaniladi va 5 baholik tizimni tashkil qiladi. Har bir amaliy mashg‘ulotda JB og‘zaki so‘rov o‘tkazish, yozma mashq va topshiriqlarni bajarish, rasmiy hujjat yozish, test savollarini yechish, savol va javob kabi shakllarda amalga oshiriladi.

Amaliy mashg‘ulotlarda talabani o‘zlashtirishi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Baholash ko‘rsatkichi	Talabani o‘zlashtirish darajasi
-----------------------	---------------------------------

“5”(a’lo)	Faol talabalar o‘zbek tilida erkin so‘zlasha oladigan, savodli yoza oladigan, uyga berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarib, mashg‘ulotlarda berilgan topshiriqlarda faol qatnashib, o‘z fikrini qisqa va ravon ifodalay olgan talabalar.
“4”(yaxshi)	Uy vazifalarini bajarib, lekin xatolarga yo‘l qo‘ygan, auditoriya mashg‘ulotlarida qatnashib, og‘zaki va yozma nutqida qo‘shimchalarni qo‘llashda chalkashliklar bo‘lgan, o‘z nutqini ravon ifodalay olmagan talabalar.
“3”(qoniqarli)	Uy vazifalarini vaqtida bajarmagan, lekin dars mashg‘ulotlari davomida qatnashishga harakat qilgan, biroq og‘zaki va yozma nutqida chalkashliklarga yo‘l qo‘ygan, o‘z fikrini mustaqil ifodalay olmagan talabalar.
“2”(qoniqarsiz)	Uy vazifalarini vaqtida bajarmagan, dars mashg‘ulotlari davomida qatnashishga harakat qilmagan, og‘zaki va yozma nutqida chalkashliklarga yo‘l qo‘ygan, o‘z fikrini mustaqil ifodalay olmagan talabalar.

Yakuniy nazoratni baholash mezonlari

Yakuniy baholash har semestr yakunida amalga oshiriladi. YaB test savollari orqali o‘tkaziladi. Bunda talabaning o‘zlashtirish darajasi yakuniy baholashga muvofiq aniqlanadi.

VII. FAN BO‘YICHA TALABALAR BILIMINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISH MEZONLARI

Fan bo‘yicha talabalar bilimini baholash va nazorat qilish O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug‘iga ilova qilingan “Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi nizom” asosida amalga oshiriladi.

Talabaning “O‘zbek tili” fanidan amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha berilgan vazifalarni va mustaqil ta‘lim topshiriqlarini bajarishi, shuningdek, uning ushbu mashg‘ulotlardagi faolligi fan o‘qituvchisi tomonidan baholab boriladi. Baholash “Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risida”gi Nizomning 15-bandida nazarda tutilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

“O‘zbek tili” fanidan yakuniy nazorat onlayn test shaklida o‘tkaziladi.

Talabalar bilimini baholash mezonlari

Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Baholash ko‘rsatkichi	Talabaning o‘zlashtirish darajasi
5 (a’lo) baho	talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda qo‘yiladi.

4 (yaxshi) baho	talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda qo'yiladi.
3 (qoniqarli) baho	talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi xamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda qo'yiladi.
2 (qoniqarsiz) baho	talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda qo'yiladi.

Talabalar bilimni baholash

Talabalar bilimni baholash 5 baholik tizimda joriy nazorat shaklida amalga oshiriladi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimni baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi yakuniy nazorat turini o'tkazishda ishtirok etishi taqiqlanadi.

Talaba tegishli fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkaziladigan muddatga qadar joriy nazorat turini topshirgan bo'lishi shart.

Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.

Yakuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Talaba uzrli sabablarga ko'ra oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turiga kirmagan taqdirda ushbu talabaga tegishli nazorat turini qayta topshirishga institut o'quv bo'lim boshlig'ining farmoyishi asosida ruxsat beriladi.

Nazorat turi bo'yicha talabaning bilimi "3" (qoniqarli) yoki "4" (yaxshi) yoxud "5" (a'lo) baho bilan baholanganda, nazorat turini qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

IX. INFORMATSION – USLUBIY TA'MINOT ASOSIY ADABIYOTLAR

№	Muallif, adabiyot nomi, turi, nashriyot, yili, hajmi	Kutubxonadagi soni
1.	Abduraxmonov G, Shukurov Sh. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. T., 2008.	3
2.	Mirzaev I, Boltaev M. O'zbek tili. T., 2004.	2
3.	Asqarova M, Yunusov R. O'zbek tili praktikumi. T., 2006.	5
4.	Ismoilov A, Lafasov U. O'zbek tili. T., 2002.	18
5.	Turdieva K, Axmedova D. O'zbek tili. T., 2007.	2
6.	Азизхонова Ю., Толипова Р. Ўзбек тили. Т., 1999.	30

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1.	Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., 2016.
2.	Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T., 2017.
3.	Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -T., 2017.
4.	Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақида”ги қонуни (янги таҳрирда) / ЎзР Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1989.
5.	Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни. ЎзР Олий Мажлиси Ахборотномаси, 1997.9-сон, 225-модда; 2013.41-сон,543-модда.
6.	Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони / ЎзР ҚХТ, 2017. – 6-сон, 70-модда; 20-сон, 354-модда.
7.	Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т., 2008.
8.	Аминов М., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Маҳмудов Н. Иш юритиш (амалий қўлланма). Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2014.
9.	G.Tavaldiyeva “Rasmiy-idoraviy ish hujjatlari”. Т., ТКТИ, 2013.
10.	Qahhorova H., Muhammedova S. O‘zbek tili. Т., Universitet, 2004.
11.	Ғуломов В., Хусанов Б. Культура общения. Т., 2012.
12.	Bekmirzaev N. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati (o‘quv qo‘llanma). Т., “Fan”, 2007.
13.	Husanov B., G‘ulomov V. Muomala madaniyati (darslik). Т., “Ta’lim”, 2009
14.	Muhiddinova X., Salisheva Z., Po‘latova X. O‘zbek tili (oliy ta’lim muassasalari rus guruhlari uchun darslik). – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 288 b. CD book
15.	Yuldasheva Sh., Kabulova D., Sobirova M. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Nukus: Bilim, 2013. – 156 b. CD book
16.	Husanov N., Xo‘jaqulova R., Dilmurodova N. O‘zbek tili (O‘quv qo‘llanma). Т., ТМІ, 2017. – 336 b. CD book
17.	Русча-ўзбекча луғат (2 жилдли). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013.

XORIJIY ADABIYOTLAR:

18.	Г. Х. Бакиева, Б. Х. Караева, Е. Н. Коршунова, И. А. Краева, Д. М. Тешабаева, Г. М. Фролова. Узбекский язык. Москва, ФГБОУ ВПО МГЛУ, 2012. (CD – diskda ARM).
19.	Alo Raun. Basic course in uzbek. Published by Indiana University, 1996.
20.	D.Karnegi. Muomala sirlari. Т., 2004.

Internet saytlari:

21. <http://teachyourselfuzbek.com/resources/coursebooks/> – Самоучитель узбекского языка.
22. <http://solver.uz/translate.php> – Русско-узбекский переводчик.
23. http://sahifa.tj/russko_uzbekskij_razgovornik.aspx –Русско-узбекский разговорник.

TARQATMA MATERIALLAR

OG‘ZAKI MATNLAR USTIDA ISHLASH ALISHER NAVOIY



«Bu ulug‘ amir dinu davlat homiysi, shariat hamda millatning pushti panohidir».

Davlatshoh Samarqandiy

«Aning nazmi vazfida til qosir va bayon ojizturur».

Husayn Boyqaro

«...turkiy tilda hech kim Navoiydek ko‘p va xo‘p she‘r aytmagan hamda nazm gavharlarini sochmagan edi».

A.Jomiy «Bahoriston» dan

«Undan avval va undan keyin hech kim turkiy tilda she‘rni undan ko‘proq va undan yuksakroq yozolgan emas. U forsiy she‘rni ham ko‘p yozgan...»

(Muhammad Haydar Mirzo «Tarixi Rashidiy» dan)

Buyuk mutafakkur shoir, olim, musiqachi, rassom va davlat arbobi. O‘zbek adabiy tilining asoschisi, Bobur ta‘biricha, «tili Andijon shevasi bilan rost» bo‘lgan Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirotning Bog‘i Davlatxona atalmish joyida dunyoga kelgan. Otasi G‘iyosiddin Muhammad (G‘iyosiddin Kichkina) temuriylar saroyidagi amaldorlardan, onasi Shayx Abu Said Changning qizi bo‘lganlar. Alisher 4-5 yoshlaridanoq Qosim Anvarning g‘azallarini, Shayx Sa‘diyning «Guliston» va «Bo‘ston» asarlarini, Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» («Qush nutqi») asarini berilib o‘qiydi. 1447-yilda Alisherlar oilasi Iroqqa ko‘chib ketadi va 1451-yilda Xirotda qaytadi. Bo‘lajak shoir 12 yoshida (1453-yilda) otasidan yetim qoladi va Xuroson podshohi Abulqosim Bobur saroyiga hizmatga kiradi.

Navoiy 60-yillarning ikkinchi yarmida Samarqand madrasalarida ta‘lim olgan.

1469-yilda Xirotda taxtini Husayn Bayqaro egallaydi va maxsus noma bilan Alisherni Xirotda chaqirib oladi. Shoir Husayn Bayqaroga bag‘ishlab «Hiloliya» qasidasini yozadi. Navoiy 7-8 yoshlaridan boshlab she‘rlar yoza boshlagan va 15 yoshida shoir sifatida tanilgan. O‘zbekcha she‘rlariga «Navoiy» («navo» - kuy, ohang; bahra, dard, g‘am), forsha she‘rlariga «Foniy» (o‘tkinchi) taxalluslarini qo‘llagan. Navoiy davlat arbobi sifatida 1469-1472-yillarda muhrdor, 1472-1476-yillarda vazir, 1487-88-yillarda Astrobodga hokimlik qiladi.

U ko‘pgina xalqparvarlik siyosatini amalga oshirishga urindi: shaharlarni obod qildirdi, ariqlar qazdirdi, shifoxonalar kutubxonalar qurdirdi. U Ixlosiya, Nizomiya, Xusraviya kabi madrasalar, Xalosiya, Shifoiya kabi xonaqohlar o‘nlab masjidlar, 52 rabot, 20 hovuz, 16 ko‘prik va 9 hammom qurdirgan.

U «Amiri kabir» (ulug‘ amir), «Amirul mukarrab» (podshohga eng yaqin amir) unvonlariga musharraf bo‘lgan. Buyuk mutafakkir 1501-yil 3-yanvarda sakta (tananing harakatdan qolishi) kasalligidan vafot etgan.

Navoiy o‘z ijodida Sharq she‘riyatining 16 xil janridan (Navoiy ularni «sinflar» deb atalgan) foydalangan.

Shoirning sakkizta devoni mavjud. Shulardan 7 tasini o‘zi tuzgan, bittasini zamondoshlari tuzishgan.

Navoiy «Xamsa» si XV asrdagi xalqimiz ma’naviy taraqqiyotining ko‘zgusi bo‘lib, unda o‘sha davr ijtimoiy turmushi, xalq hayoti, urf-odatlar, din-diyonat, axloq-odob haqidagi qarashlar o‘z aksini topgan.

Jami 54 ming misradan iborat Navoiyning «Xamsa» si 1483-1484-yillarda yozilgan bo‘lib, besh dostonidan iborat. Ular quyidagilar:

«Xayrat ul – abror» («Yaxshi kishilarning hayratlanishi»).

«Farhod va Shirin». Asar 1484-yilda yozilgan bo‘lib, 59 bob, 5782 baytdan iborat.

«Layli va Majnun». Bu asar ham 1484-yilda yozilgan bo‘lib, u 36 bob, 3622 baytdan iborat.

«Sab'ai Sayyor» («Yetti sayyora»). Asar 1484-yilda yozilgan bo‘lib, 38 bob, 5000 baytdan iborat.

«Saddi Iskandariy» («Iskandar devori»). Bu asar 1485-yilda yozilgan bo‘lib, 89 bob, 7215 baytdan iborat.

1-topshiriq. Matndagi so‘zlarni ma’noli qismlarga ajrating va matnni gapirib bering.

2-topshiriq. Matndan yordamchi so‘zlarni toping va turini aniqlang.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR



«Bobur fe‘li-sajiyasiga ko‘ra Sezarga qaraganda sevishta arzigulikdir».

Eduard Xolden.

Bobur (arabcha, «Sher») 1483-yil 14-fevralda Farg‘ona viloyatining poytaxti Andijonda tug‘ilgan. Otasi Umarshayx 1494-yil 9-iyunda Axsi qo‘rg‘onida jordan kabutarxonasi bilan qulab, halok bo‘ladi.

Otasi vafotidan so‘ng Andijon taxtiga Bobur o‘tiradi. 12 yoshli Bobur dastlab Shayx Mazidbek, so‘ng Boboquli Boboalibek, Qosim Qavchin kabi beklar yordamida hokimyatni idora qilishga kirishadi. U taxt uchun tinimsiz kurashib, 1497-1500-yillarda Samarqandni, 1502-1503-yillarda O‘sh va uning atroflarini egallab oladi, ammo Ahmad Tanbaldan yengiladi.

Bobur Samarqandda ekanligida Alisher Navoiydan xat oladi. Darhol unga javob yozib, orqasiga she‘r ham bitib yuboradi. Shayboniyxon siquvi natijasida Bobur Hindiston tomonga chekinib, Hindistonga 1519-1525-yillar orasida 5 marta yurish qiladi, 1526-yil 21-aprelda Hind sultoni Ibrohim Lo‘diyning qo‘shinini yengadi va shu tariqa Shimoliy Hindistonda Boburiylar sulolasining hukmronligiga asos soladi. Bobur 1530-yil 26-dekabrda Agrada vafot etadi. Uning jasadi Jamna daryosining chap sohilidagi Nurafshon bog‘ning markaziy qismiga dafn etiladi.

1533-yilda esa hoki vasiyatiga muvofiq Qobulga, «Bog'i Bobur»ga ko'chiraladi. Boburiylar sulolasi 1483-1858-yillar mobaynida hukm surgan.

Bobur 16-17 yoshidan boshlab badiiy ijod bilan shug'ullanadi, o'zbek va tojik tillarida she'rlar yozadi. U o'zbekcha she'rlarini to'plab 1519 yilda Qobulda («Qobul devoni»), 1528-29-yilda Hindistonda («Hind devoni») devonlar tuzgan.

Asarlari: «Boburnoma», «Mubayyin al-zakot» («Zakot bayoni», o'g'li Humoyunga bag'ishlangan, 1521), «Muxtasar» (1523-1525-y., aruz vazni haqida), «Harb ishi» va «Musiqqa ilmi» (bu ikki asar topilmagan), «Qoldimu?» radifli g'azali, «Topmadim» va boshqalar.

1-topshiriq. Matndagi so'zlarni ma'noli qismlarga ajrating va matni gapirib bering.

2-topshiriq. Matndan yordamchi so'zlarni toping va turini aniqlang.

Abdulla Qodiriy



O'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri
Abdulla Qodiriy (Julqunboy) 1894-yil 10 aprelda
Toshkent shahrida tug'ildi.

Bo'lg'usi adibning ilk ijodi 1913—1914 yillarda boshlangan bo'lib, dastlab u shoir sifatida qalam tebratdi. Uning «Ahvolimiz», «Millatimga», «To'y» (1914-1915) kabi she'rlari «Oina» jaridasida bosilib chiqqan edi. U o'z millatini ma'rifatga chaqiradi, ma'rifatparvar shoir va adib sifatida maydonga chiqadi. «Baxtsiz kuyov» (1915) nomli fojeasi, «Juvonboz» (1915), «Uloqda» (1916) kabi hikoyalarda ham o'z xalqini savodli, bilimli, madaniyatli va ozod ko'rish istagi sezilib turadi.

1924-yili Abdulla Qodiriy Moskvaga borib, Jurnalistlar institutida tahsil oldi. Moskvadan qaytib «Mushtum» jurnalida shtatsiz muxbir bo'lib ishlay boshladi. Uning «Toshpo'lat tajang nima deydi?» va «Kalvak mahzumiyning xotira daftaridan» turkumidagi satirik hikoyalari ana shu jurnalda ilk bor bosilib bordi.

Abdulla Qodiriy 1917-1918 yillardan boshlab «O'tgan kunlar» romani uchun material yig'ishga kirishdi. 1922 yilda birinchi o'zbek romanining dastlabki boblari «Inqilob» jurnalida chop etila boshlandi. 1925-1926 yillarda «O'tgan kunlar» uch bo'lim holida kitob bo'lib nashr etildi.

1928 yil yozuvchining ikkinchi tarixiy romani «Mehrobdan chayon» nashrdan chiqdi. 1934-yilga kelib Abdulla Qodiriy qishloq xo'jaligi mavzuiga bag'ishlangan «Obid ketmon» qissasini yaratdi.

U «Amir Umarxonning kanizi», «Namoz o'g'ri», «Dahshat» kabi romanlar yaratish orzusida bo'lgani ham ma'lum. Ammo bevaqt o'lim orzulari ro'yobga chiqishiga imkon bermadi.

Abdulla Qodiriy 1937-yilning 31 dekabrda qamoqqa olindi. «Menga qo'yilgan ayblarni boshdan oyoq rad etaman. Haqiqat yo'lida hech qanday jazodan, qiynoqdan qo'rqmayman. Agar otmoqchi bo'lsalar, ko'kragimni kerib turaman...» Abdulla Qodiriy 1938 yil 4 oktyabrda Toshkentda otildi. 1991 yilda esa A.Qodiriyga Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti berildi.

Hozirgi kunda esa bir qator ko'chalar, bog'lar, maktablar, kutubxona, mahalla va oliy bilimgohtar uning tabarruk nomi bilan yuritiladi.

TARJIMA MATNLAR USTIDA ISHLASH KONSERVA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI

Konserva tayyorlashda turli xil banka idishlaridan foydalaniladi. Sanitariya gigiyena talablariga ko'ra shisha idishlar birmuncha qulay hisoblaniladi. Oziq-ovqat mahsulotlarini, xususan bankali konserva tayyorlashning asosi sterillashdir.

Sterillashni shunday olib borish kerakki, bunda nafaqat mikroblarni yo'qotish, balki uzoq vaqt mahsulotning kimyoviy tarkibi, fizik xossasi, idishning materiali va hajmiga bog'liq. Yuqori haroratda sterillashning nazariy asoslari yetarli o'rganilgan.

Mikroorganizmlarning yuqori haroratga chidamligi har xil, ulardan ba'zibirlari sporasiz bakteriyalar 60-100°C da bir necha minutda halok bo'ladi, boshqalari spora hosil qiluvchilar 120 °C da va undan yuqori haroratni ko'tara oladi. Sporal bakteriyalar guruhi chidamli. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, shakar qo'shilsa kislotalarning bakterik xususiyatini oshiradi.

Topshiriq

- I. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
- II. Taqsim son ishtirok etgan gaplar tuzing.

GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARI

Hozirgi paytda respublikamizda go'sht va go'sht mahsulotlari ishlab chiqarilishi yaxshi rivojlangan. Katta chorva va mol bazasi yaratilgan. Mamlakatimizda keyingi yillarda go'sht mahsulotlarini qayta ishlash ancha rivojlanmoqda. Ular aholiga sifatli, yangi va tozalangan go'shtni yetkazib beryapti. Go'sht mahsulotlarini yetkazib berish sohasida ko'plab kichik xususiy tadbirkorlik keng yo'lga qo'yilgan.

Go'sht bir necha xil bo'ladi. Bular: mol, qo'y, cho'chqa, parranda go'shtlari. Ular hech qanday tayyorlash jarayonlaridan o'tmaydi. Ular yaxshi saqlanishi uchun muzlatiladi.

Go'sht mahsulotlari termik ishlov berishdan, tayyorlash jarayonlaridan, qadoqlash jarayonlaridan o'tadi.

Topshiriq.

- I. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
- II. Berilgan fe'llarni shaxs va sonda tuslang: yugurmoq, yetkazib bermoq, rivojlantirmoq, ko'paytirmoq, tayyorlamoq.
- III. Matndan go'sht so'zini izohlab keluvchi sifatlarni toping va so'z birikmasi tarzida yozing.

KOLBASA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI

Kolbasa tayyorlash birmuncha murakkab hodisadir. U asosan pishgan, pishirib dudlangan holda bo'ladi.

Kolbasa uchun hayvonning yumshoq va yarim yumshoq go'shtidan foydalaniladi. Turli kattalikdagi go'shtlar maydalanadi va qiyma holiga keltiriladi. Unga har xil ziravorlar, yog', un qo'shiladi.

Kolbasa tayyorlashda xomashyo uchun go'sht, xom yog', qon, ichak-chavoqlar, har xil ziravorlar (qalampir, sarimsoq piyoz, piyoz, va hokazolar), osh tuzi, nitrat va nitratlar ishlatiladi.

Kolbasa tayyorlash uchun ketma-ket amalga oshiriladigan texnologik jarayonlarga alohida e'tibor beriladi. Masalan, go'shtni suyakdan, payidan, pardasidan ajratish, to'g'rash, qaynatish, dudlash kabilar shular jumlasidandir. Go'shtni suyaklardan ajratib olish obvalka deyiladi. Go'shtdan payini, parda va muskullar orasidagi yog' qatlamlarini ajratib olish jilovka deyiladi.

Ajratib olingan go'shtlar 200-300 gr kattalikda bo'laklarga bo'linadi va yog'och bochqa yoki yashiklarga solib tuzlanadi. Bunda quruq tuzlar va namokop bilan tuzlash texnologiyasidan foydalaniladi.

Quruq tuzlash uchun 100 kg osh tuzi, 1,5-2,5 gr selitra va 3,5 kg shakar olib aralashma tayyorlanadi. Bu aralashmadan pishiriladigan kolbasalar uchun 100 kg go'shtga 3-3,5 kg, dudlash bilan tayyorlanadigan kolbasalar uchun 3-4,5 kg sarflanadi. Go'sht tuzlanib, 3-6°C haroratda 2-5 sutka saqlanadi. Tuzlangan go'sht maydalagich yordamida 2,5-10 mm kattalikda qiyma qilinadi.

Qoida bo'yicha qiyma o'sha kuni ishlatiladi va kamdan-kam 2-3 s sovitish xonalarida saqlanib, ikkinchi kuni ishlatilishi mumkin. Qanday navda kolbasa tayyorlanishiga ko'ra qiyma pishirish mashinasiga yoki kuterga va so'ngra aralashtirishga solinadi. Kuterda qiymaga suv yoki sho'rva hamda ayrim zirovorlar, aralashtirgichga esa kraxmal qo'shiladi va aralashtirilgach «Kolbasa qiymasi» tayyor hisoblanadi va navbat bilan uni ichaklarga solinadi.

Go'sht kolbasalarini tayyorlashda asosan pishirilgan va pishirib dudlangan navlari qovuriladi. Ularni olovdan 1,8-2 m balandlikda ochiq holda joylashtirish talab etiladi. Bunda daraxtlar bargining o'tini yoqiladi.

Qovurib bo'lingan kolbasalar tezda qaynatiladi. Bu tadbir pishirilgan kolbasalar uchun oxirgi va pishirib dudlangan kolbasalar uchun oxirdan oldingi texnologik jarayon hisoblanadi.

Qaynatish ishlari asosan 70-80 °C da olib boriladi. Qaynatish muddati batonlarining diametriga bog'liqdir. Pishirib dudlab tayyorlanadigan kolbasalar qaynatilgandan keyin dudlanadi. Tayyor bo'lgan kolbasalar 1-2 oy saqlanish mumkin.

Topshiriq

- I. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
- II. Matndan sinonim so'zlarni toping.

SHAROBCHILIK SANOATI

Keyingi yillar davomida ishlab chiqarish sanoati katta yutuqlarga erishmoqda, ishlab chiqarish mahsulotlarining miqdori sezilarli darajada ortib bormoqda, tayyor mahsulotlar turi ko'paymoqda. Sharob ishlab chiqarish korxonalarida qayta ta'mirlanmoqda va chet davlatlar bilan zamonaviy texnika va yuksak texnologiya bilan ta'mirlangan qo'shma korxonalar ochilmoqda.

Yarim tayyor sharob va sharob ishlab chiqarish texnologik sxemalari yetakchi texnologiya miqyosidadir va ular yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatiga ega.

Sharobchilik korxonalarida birlamchi va ikkilamchi korxonalar bo'linadi.

Birlamchi sharob ishlab chiqarish korxonalarida zamonaviy uskuna va jihozlarni tadbir etish tufayli uzumni qayta ishlash texnologik darajasi yuqoridir. Deyarli hamma korxonalarda uzumni tashish mexanizatsiyalashtirilgan. Uzumni qayta ishlash uzviy liniyalarda tadbir etilmoqda, sharbatni uzluksiz bijg'itish qurilmalari, qizil nordon sharoblarni tayyorlovchi liniyalar ezilgan uzumga termik ishlov beruvchi apparatlar, pasterizatorlar filtrlar, issiqlik almashuvchi uskunalar, nasos va zamonaviy uskunalar qo'llanilmoqda.

Topshiriq

- I. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
- II. Matndagi soʻz birikmalarini izohlang.

IJODIY MATNLAR BILAN ISHLASH

Tilla baliqcha

Tuxumdan chiqdi-yu, keltirib uni
Shu loyqa hovuzga tomon otdilar.
Tashlandiq ushoq yeb oʻtadi kuni,
Xor-u xas, xazonlar ustin yopdilar.

Dunyoda koʻrgani shu tor hovuzcha
Va mudroq tollarning achchiq xazoni.
Menga alam qilar, tilla baliqcha
Bir koʻlmak hovuz deb bilar dunyoni... (A.Oripov)

Guli monologi

Hamon yodimdadir gul chogʻi erdi,
Koʻrishgan maskanim gul bogʻi erdi.

Sochilgan rang-barang gullar chamanda,
Quyoshda barq urib aylardi xanda.

Sochilgan injudek bogʻlarda shabnam,
Oʻpib gul bargini yel oʻynagan dam.

Ochib gul daftarin bulbul oʻqirdi,
Muhabbat haqida doston oʻqirdi.

Esimda baxtiyor osuda kunlar,
Muborakbod etib baxtimni gullar.

Tabassum aylagan damlar esimda,
Sevinchdan koʻzdagi namlar esimda.

Esimda qutqarib hijron oʻlimdin,
Gapirgan gaplari ushlab qoʻlimdin.

Qilib toʻy boʻlurmiz soʻng birga doim,
Seni koʻp koʻramsin menga xudoyim.

Faqat hayhot meni koʻp koʻrdi senga,
Ajral oʻz zahrini ichkazdi menga.

Navoiy monologi

Kuy, gʻazal... Oh qaytadan tinar yaramni,
Tagʻin eslatdi u mashʻum xaramni:

”Faqat bir iltimos koʻklam chamanda
Ochib gul-gʻunchalar etganda handa,
Juvonmarg gʻunchani ham esla, yod et
Unutma, doimo ruhimni shod et!“

Unutmasman seni toki tirikman,
Seni jon oʻrnida saqlar tirik tan.
Hamon qalbinga sen ilhom solursan,
Mening sheʻrlarimda mangu qolursan.
Senga besh bebaho haykal qoʻyurmen
Gahi Layli, gahi Majnun boʻlib sen
Yasharsen doimo dostonlarimda,
Hazonsiz gul boʻlib boʻstonlarimda.

Men ersam gʻam bilan yigʻlab ketarmen,
Sening ishqing bilan tanho oʻtarmen...

Yana koʻz yoshimi? Koʻnglimni buzma,
Bu yosh daryosida behuda suzma.
U daryo xavflidir, gʻarq aylagay bot
Oʻchirmas dil oʻtin koʻz yoshi, hayhot.

Hayhot! Biror osuda dam yoʻq,
Koʻngil yigʻlaydi-yu, koʻzlarda nam yoʻq!
Esiz, taqdir ekan qaydan bilibmiz,
Azizim, dunyoga bevaqt kelibmiz.

Mana fasli bahor koʻrkam chamanda
Ochib gulgʻunchalar etmoqda xanda.
Gulimning qabriga ekkan chechaklar,
Ochilgandir bu chogʻ ohim pechaklar,
Kabi koʻk toqiga chirmashmasinmu?

SANʼATKOR

Konsert odatdagicha, «Navbatdagi nomerimizda, Kelganlaringga rahmat, oʻrtoqlar» bilan tamom boʻldi. Nomi chiqqan ashulachi sanʼatkordan boshqa hamma xursand boʻlib tarqaldi. Sanʼatkor tajang edi: tanaffus vaqtida zalga chiqqan edi, bir traktorist uni savodsizlikda aybladi. Traktorist tanqid qilganiga sanʼatkor asti chiday olmas edi: traktor qayoqda-yu, masalan «chorzarb» qayoqda, traktorist qayoqda-yu, ashulachi qayoqda?

Sanʼatkor uyiga ketgani izvoshga oʻtirganida yana tutoqib ketdi: «hyech boʻlmasa aytadigan ashulangni oʻrgan, soʻzlarini toʻgʻri ayt» emish! Nimasini bilmayman, nimasi toʻgʻri emas? Meni shu vaqtgacha muxbirlar, yozuvchilar ham tanqid qilgan emas: formalizm, naturalizmlardan oʻtdim—hyech kim otvod bergani yoʻq. Otvod berish qayoqda, hyech kim meni ogʻziga ham olmadi. Endi bir traktorist tanqid qilar emish!
Sanʼatkor izvoshchini xayron qoldirib, oʻzidan-oʻzi gʻuldirab borar edi. Uyda xizmatchi ovqat qilib qoʻygan ekan, sanʼatkorning tomogʻidan hyech narsa oʻtmadi — ikki piyola choy ichdi, xolos. Unga turib-turib nasha qilar edi.

«Ashulani mexayistik aytar emishman! Tovushim yomon bo'lsa, nega plastinkaga oldi? Tanqid deganiga endi bu kishining ham tanqid qilg'ulari kelipti... Amali traktorist... Obbo!»

-O'qishga bordingizmi? — dedi xizmatchiga, qovog'ini solib.

-Bordim... - Xizmatchi ikki haftadan beri savod maktabida o'qir edi.

- Xizmatchisi savod maktabida o'qiyotgan bir kishini traktorist savodsiz, desa alam qilmaydimi?-dedi san'atkor o'zicha bo'g'ilib, -(labingdan bo'lsa olsam, e, shakarlab», deganim u kishiga yoqmapti, "bo'lsa" emas, "bo'sa emish" O'zi bilmaydi-yu, menga o'rgatganiga kuyaman! Senga o'xshagan savodsizlar «bo'sa, bo'masa» deydi. Artist kulturniy odam-gapni adabiy qilib aytadi — "bo'lsa, bo'lmasa» deydi. Pojarni "gugurtni yerga tashlamang" dedi, rejissyorimiz esa "gugurtning yerga tashamang" deydi. Qanday chiroylik! Pojarnimi, pojarningmi? Shoshma, nima uchun pojarni? Pojarning, albatta! Rejissyorimiz juda kulturniy odam? Odam degan mana shunday bo'lsa, urishsa ham xafa bo'lmaydi kishi - ikki gapning birida "ta'bir joyiz ko'rilsa" deb turadi. Bu traktorist menga shuncha dashnom berib, ko'ngil uchun bir marta "ta'bir joyiz ko'rilsa" demadi. Xizmatchi daftar-qalam keltirib, san'atkorning oldiga qo'ydi.-"J" ning kattasi qanday yozilar edi. Domlamiz buni ko'rsatgan edi, esimda qolmapti. San'atkorning jahli chiqdi: -Endi "J" ga keldingizmi? "Barjom" deganda yoziladi. Kechagi barjom og'zi ochiq qolipti, gazi chiqqandan keyin bir pulga qimmat. Siz ham dunyoga kelib kulturniy bo'lsangiz-chi!? Burningiz terladi, arting ta'bir joyiz ko'rilsa!

San'atkor o'rnidan turib yotoqqa kirib ketdi.

Yotasizmi? -dedi xizmatchi narigi uydan. - Nima edi? -"J"ning kattasini ko'rsatib bermadingiz, ertaga domla so'raydigan edilar. Qanaqa yoziladi? - Kichigini yozib, qattiqroq o'qing!

San'atkor yechinib, ko'rpaga kirdi. Xizmatchi chiroqni o'chirib chiqdi. San'atkor ko'zini yumdi, ko'ziga g'ira-shira qorong'i zaldagi son-sanoqsiz kallalar ko'rindi. Bular ichida eng kattasi traktoristning kallasi, u iljayar edi.

- Afting qursin! —dedi san'atkor va narigi yonboshiga ag'darildi.

Xayal o'tmay uyquga ketib, xurrak otdi. Uning uyqusi nechukdir adabiyroq edi. Pluq-qum-prr... Pluq-qum-prr...

QORAKO'Z MAJNUN

Qur'oni karimdan: «Sizlardan qaysi biringiz o'z dinidan qaytsa va shu kofirligicha o'lsa, bas, ana o'shalarining (qilgan savobli) amallari xabata (bekor) bo'lur, ular do'zax ahlidurlar va u yerda mango qolurlar». (Baqara surasi, 217-oyat.)

Hadisi sharifdan: «Jannatga kiradigan o'n nafar hayvondan biri bu «Ashobi kahfning vafodor itidir». (Al-jome al-Kabir.)

Saodat aya bomdod namozini o'kib, joynamoz poyida uzoq o'tirib qoldi. Bundan uch yil oldin olamdan o'tgan eri usta Turobga atab Qur'on tilovat qildi. O'ris shaharlarida daydib qolib ketgan o'g'li Bo'rixonga xudodan insof tiladi. Baxti ochilmay, guldek umri xazon bo'layotgan qizi Qumriga achinib, shu farishtaginaning yo'lini och, deb Allohga iltijo qildi.

Kampir har sahar ichki bir ezginlik bilan shu gaplarni takrorlardi. U qo'l cho'zib, joynamozning bir burchini qayirib o'rnidan turdi.

Sentyabr oyoqlab, suvlar tiniqqan, ariq tublaridan bola-baqra tashlab yuborgan piyolami, choynak qopqog'imi, qoshiqmi shundoqqina ko'rinib turibdi. Qirg'oqlar zax tortib, ekin-tikin suv so'ramay qo'yg'an palla.

Qo'shni hovlilardan maktabga ketayotgan bolalarning injiqliklari, xarxashalari, onalarning yalinib-yolborishlari eshilib turibdi. Kampir bu tovushlarga bir dam quloq tutib, boshini tebratib, kulib qo'ydi.

Saodat yoshligida juda chiroyli qiz bo'lgandi. Sochlari taqimini o'pard. Taraganda shamshod taroq ushlagan qo'llari sochining uchigacha yetmasdi.

Yarmini qismlab turib, buyog'ini tarardi. Opasi 6u sochlarni qirqta qilib o'rganda, yana shunchasi ortib qolardi. — E, soching qursin! — derdi opasi. — Qo'llarim tolib ketdi, sochingni o'rdirishga odam yollash kerak.

Ko'chada amirkon mahsikovushni g'irchillatib, sochlarini selkillatib yurganda qaragan ham qarardi, qaramagan ham. Yosh qizaloqlar orqasidan kelib, sochlarini ko'ziga surtib qochishardi.

Mana, yillar o'tib soch ham oqardi, siyraklashdi-yu, baribir o'sha uzunligicha qoldi. Uchiga biror narsa taqmasa, hurpayib, bo'yni, yelkalarini tutib ketadi. Shuning uchun ham u sochining uchiga o'g'ri tutar sandiqning kalitini osib ko'yadi. Sandiqni ochayotganda kalitni yechib olmaydi. Sochi uzun bo'lganidan tizzalasa kalit bemalol qulfga yetadi. Endi yangi uylarga sandiq urf bo'lmay qoldi. Hamma uyni po'rim javonlar bosib ketdi.

Bundan tashqari, qulfn daranglatib ochadigan kalitlarni yasaydigan ustalar qolmagan.

Kampirning sochlari hamon yoshligidagidek. Faqat yarmidan ko'pi oqarib ketgan. Orqasiga tashlab qo'yadigan, uchi birlashtirilgan ikki o'rim sochining uchiga erining frontdan olib kelgan og'irgina medalini osib qo'yg'an.

Tayyor ilgagi ham bor, sochni pastga tortib turadi.

Hovlining yarmiga yaqin joyga tangadek oftob tushirmaydigan qari tut barglari sarg'aya boshlagan. Qurigan shoxiga bahorda ilinib qolgan varrakning qamish qovurg'alari skeletdek bo'lib turibdi. Faqat uzun latta dumi shamolda ilondek to'lg'onadi.

Shu tut tagida bir oppoq it supurgi ustida uxlab yotibdi. Kichkinagina, belida belbog'dek ikkita — biri qora, biri jigarrang chizig'i bor. Xuddi kimdir ataylab bo'yab qo'yganga o'xshab ko'rinadi. Tumshug'i bilan ikki ko'zi qop-

qora. Bir ko'zining tepasida to'mtoq qoshi ham bor. U kampirning oyoq tovushidan bir ko'zini erinibgina ochdi-yu, chala yarim kerishib, yana uyquga ketdi.

— Ha-a, joningni huzurini bilmay o'l-a! Supurginiyam harom qilding.

— Qo'y, urishma, opasi, Qorako'z hali bola-da!

— Nima deyapsiz, oyijon! Bu it o'lgurga men nega opa bo'larkanman?! — dedi Qumrixon nolib.

— Agar Qorako'zni yana supurgi bilan ursang, unga kosov otsang, bilib qo'y, ukalaringnikiga ketib qolaman.

— Voy, oyijon-ey, it o'lsin, odamdan aziz bo'lmay! Shu itni deb bizni tashlab ketmoqchimisiz? Qo'ying-e!

— Shu bilan ovunib yuribman. Qayoqqa borsam, yonimda. Bir qadam nari ketmaydi. Menga ayt-chi, ukalaring, singillaring haftada bir xabar olsa oladi, olmasa yo'q. Kasalxonada yotganimda shu itgina ko'kragini qorga berib hovlida bir oy deraza tagida yotgan. Senlar qo'ni-qo'shnining qistovi bilan bir-ikki xabar oldilaring, xolos.

— Oyijon, qo'ying endi... — dedi Qumri norozi bo'lib.

Itning bir qulog'ida, bo'ynida, oyoqlarida qon qotib qolgan edi.

— Ahmoq! — dedi kampir. — Qayoqlarda sanqib yurganding?! Yana marjabozlikka bordingmi? Majnun bo'lmay ketkur! Ahvolingni qara, xotin talashib rosa ta'ziringni yebsan-ku! E o'lmagin-a, shilinmagan joying qolmapti...

Endi o'zingdan ko'r. Majnun, yaralaringga dori surtaman. Illo, dod demaysan!

Qumrixon itning bo'ynidan bosib turdi, kampir yaralariga yod surta boshladi. It g'ingshiydi, ingillaydi.

Qumrixonning qo'llarini tishlamoqchi bo'ladi.

— Ana, bo'ldi. Endi ovqatingni beramiz.

Bir oydan beri o'g'li surunkasiga kampirning tushiga kiradi. Na yotishida, na turishida halovat bor. O'g'lini o'ylagani o'ylagan. Yoshi saksonga yaqinlashib, kuch-quvvatdan qola boshlagan, bolamni ko'rmay o'lib ketaman-mi, deb kuyib-yonadi.

O'g'li Bo'rixon oltin yil yettinchi yili armiyaga ketgan. Harbiy xizmati tugadi hamki uyga qaytmadi. O'sha yoqlarda uylanib, bola-chaqali bo'lib, qolib ketdi. Ba'zi-ba'zida undan «Ya zdorov» degan ikki enlikkina xat kelardi. Yaqin o'n besh yildirki, adresni unutib qo'rganmi, ishqilib, shu o'rischagina xat ham kelmay qo'ygan.

Kampir qo'ni-qo'shnilarnikiga ham chiqmaydi. Uyda o'tiraverib qon bo'lib ketadi. Ba'zan kiyimboshlarini apil-tapil tugib — o'g'illari yo qizlaridan birinikiga o'tlanib qoladi.

Baribir borgan joyida ham halovat topmaydi. Qizi Kumrixonni o'ylab qaytib keladi. Qumrixonning baxti chopmadi.

Ikki bor turmush qildi, farzand ko'rmadi, qaytib keldi. Biron joyda ishlab ovunay desa, hayhotdek hovliga, munkillab qolgan onasiga kim qaraydi. Aka-ukalari, singillari: «Opa, qo'y, ishlama, tirikchiliging bizning bo'ynimizda, onamga qara», deb qo'yishmadi.

Kampirning o'g'illari, biznikida turing, oyi, deb xudoning zorini qilishsa ham, otang chiqqan uyni tashlab ketolmayman, men ham shu uydan chiqazilaman, deb ko'nmadi.

Kampir juda dono xotin edi. Bolalarim haftada bir marta xabar olishsa, yetti kun uyim to'ladi, albatta, ular quruq kelishmaydi, shu bahona Kumrining ham kuni o'tadi, deya qadrton uyidan jilmasdi. Onalar shunaqa — baxti chopmagan bolasi bilan birga bo'ladi.

O'tgan yili o'tli-shudli, har ish qo'lidan keladigan nevarasi Anvarjon, tog'amni topib kelaman, deb chiqib ketdi. Shu ketganacha yigirma kun deganda daragini topib keldi.

Bu gapdan xabar topgan qo'shni xotinlar kampirni qutlagani kirdilar.

— Buvijon, tashvishlanmang, tog'amning ishlari «besh». Ro'zg'ori but, tirikchilikdan kami yo'q. Uchta bolasi bor. O'zi o'zbekchani esidan chiqarib yuboribdi. Men bilan o'rischa gaplashdi. Bitta sog'in echkisi, to'rtta qanor qopdek cho'chqasi, o'ntacha cho'chqachalari bor ekan. Qish zabtiga olganda shu mollarini ham uyiga opkirib olisharkan. Bo'chka-bo'chka samogon-aroq yasab, qishi bilan ichisharkan. Kishlokdagilar tog'amni «Bo'rixon» demay, «dyadya Borya» deb chaqirishar ekan.

Bu gaplarni eshitib, kampir yer yorilmadi-yu, kirib ketmadi. Bolasi tushmagur-ey, qo'shni xotinlarning oldida shu gaplarni aytib o'tiribdi-ya! Birovga so'zini bermaydigan errayim kampirning shoxi sindi, ostona hatlamay uyda muqim o'tirib qoldi.

Qachongacha chilla o'tiraman, deb kampir bugun qizinikiga o'tlanib qoldi. Kampirning niyatini sezgan Qorako'z ostonaga borib o'tirib oldi. Yaqin bir oydan beri hech qayoqqa bormagan Qorako'z o'zida yo'q shod edi. Boshini bir tomonga egib irg'ishlar, tezroq chiqmaysizmi, degandek, har xil ovoq chiqarib g'ingshirdi.

Kampir shoshilmasdi. Usma ekilgan bir bo'yra yer oldida cho'nqayib, o'smalarning sersuv, bo'liq barglarini tagidan kertib uzardi. Oxiri kafti o'smaga to'lgach, rayhonning gul otmagan shoxlaridan sindirib olib, o'smaga qo'shib dastro'moliga o'radi. U qiz nevaralariga, kelinu qizlariga albatta o'sma olib borardi. Nihoyat, kampir tunni qo'ltiqlab chiqdi. Korako'z o'tirgan joyidan bir sapchib ko'cha tomon o'tildi. Kampir uning ketidan borarkan, xoy, muncha shoshasan, sekinroq, deb javvardi.

Korako'z uning gapiga tushungandek, ko'cha o'rtasida to'xtab orqasiga qaraydi. Kampir yetib kelguncha yayrab qulog'ini qashlaydi. Bir qulog'ini dikkaytirib, bittasini shalpaytirib erkalik qiladi. Orqa oyog'ida turib bir-ikki aylanadi. Kampir yetib kelishi bilan yana uynoqlab yugurib ketadi. Yo'lda uchragan mushuklarni tiraqaylatib quvib, nim qizil tilini osiltirganicha hansirab qaytib keladi. Daraxtlardagi musichalarga irg'ishlab akillaydi. Arikdan shapillatib suv ichadi. Ba'zan yo'l chetiga chiqib, paxsa devor tagini ho'l qilib kaytadi. Velosiped minib o'tgan bolalarga ergashib uzoqlarga ketib qoladi.

Kampir uning qiliqlariga andarmon bo'lib yo'l yurganini sezmaydi. Qorako'z donlab yurgan tovuqlarni qaqqag'latib,

to'rt tarafga to'zgi'tib yuboradi. Yo'lda uchragan itlar bilan islashib, quvlashmashoq o'ynaydi. Ko'cha betidagi uy ostonasida tinmay akillayotgan kalamushdek kuchukni tuprokka korishtirib bulg'aladi. Ariq bo'yidan qo'porib tashlangan tungak soyasida yotgan bo'ribosar itga xam zo'rlik qilmoqchi bo'lgandi, ta'zirini yedi. Bo'ribosar uning gardanidan tishlab, uloqtirib tashladi. Yo'l o'rtasiga borib tushdi, tuproqqa qorishdi.

Kampir boshini sarak-sarak kildi.

— Hoy, jinni, senga kim qo'yibdi otang tengi it bilan olishishni!

Korako'z unga karay olmadi. Yo'lning 6u yog'iga ma'yus alpozda, yugurmay, ohista ketdi. Baribir Qorako'z itda, itligini qiladi. Bir qora itning dumini hidlab, ochiq turgan eshikdan kirib ketdi. Bir ozdan keyin uning vangillagani eshitildi. Eshikdan chiqayotganda ichkaridan otilgan eski tufla qoq beliga tushdi.

Katta yo'lga chiqishdi. Bu yo'lning o'ng yog'i Chirchiqqa, chap yog'i Toshkentga olib boradi. Oldinlab ketgan Qorako'z, qayoqqa yuraylik, degandek, kampirga qaradi.

— Abdumalik akangnikiga boramizmi, Dilbar opangnikigami? Dilbar opang domda turadi. Itdan hazar qiladi. Seni uyiga kiritmaydi. Endi nima qilamiz? Mayli, shunikiga boraylik. Yotib qolmaymiz. Chiqqunimcha hovlida bolalar bilan o'ynab turasan.

Qorako'z bu gaplarga tushunadi. Har gal ko'cha boshiga kelganda albatta kampir shu gaplarni takrorlaydi.

Olidan baland imoratlarning qorasi ko'rindi. Qorako'zning sabri chidamadi. Ildamlab ketdi. Kampir unga yetolmay xalloslab koldi. Qorako'z yugurib emas, g'ildirab ketayotganga o'xshaydi. Bir zumda ko'rshtmay ketdi.

Uchinchi qavatning boloxonasida o'ynayotgan bolalar Korako'zni ko'rib, buvim kelyapti, deb qiyqirishdi. Tapir-tupur qilib zinaning ikki poyasini bitta qilib, pastga yugurib tushishdi. Bittasi Korako'zga konfet, bittasi sergo'sht suyak berdi. Birpasda xovli bolalarga to'lib ketdi. Qorako'zning boshini, orqasini silashdi. U erkalanib turib berdi.

Boloxonada Dilbarxon ko'rindi. Onangiz kelyapti, degan xushxabar olib kelgan Qorako'zga mehr bilan bokdi. Unga qand tashladi.

Nihoyat, hansirab kampir yetib keldi. Bolalarga qurt, yong'oq, turshak ulashdi. Korako'z ham umidvor bo'lib qo'liga qaradi.

— Senga yo'q, bevafo! Meni yo'lga tashlab ketgansan. Orqangdan halloslab yugurib, tilim og'zimga sig'may qoldi. Qorako'z gunohkorona bosh egib turdi. Kampir konfet tashladi. Qorako'z ilib oldiyu quvonchdan hovlini shamoldek aylanib chikdi. Kampir kizi bilan kechgacha ezilib gaplashdi. O'g'lini eslab ko'z yosh xam qilib oldi. Kumrining betoleligidan, men bir balo bo'lib ketsam, u sho'rlik nima bo'ladi, deb afsus-nadomatlar qildi. Gap orasida Qorako'z esiga tushib, ovqat-povqat berdingmi, deb so'rab qo'yardi. Kampir asr namozini o'qib, ketishga shoshildi.

— Endi ketay, shom namozini uyginamda o'qirman.

— Ovqat qilyapman, uyijon, yeb keting. Bir kechagina yotib ketsangiz nima bo'ladi. Uyingizni bo'ri yeb ketarmidi! Kampir tugunni qo'ltiqib pastga tushdi. Hovlida bolalar bilan yayrayotgan Qorako'zning ketgisi kelmaydi. Bolalar tuflab uloqtirgan kaltakni o'tlar orasidan topib keladi.

Kampir yo'lga tushdi. Qorako'z erkalanib, irg'ishlab goh undan o'zib, goh orqada qolib qulog'ini qashlaydi.

Uyda Saodat ayaning yillab qalbida qalashib yotgan g'uborlarini tarqatadigan, ko'ksidan tog'dek bosib yotgan armonlarni ushatadigan olamshumul bir yangilik kutib turardi.

U uyiga yaqinlashganda eshigi oldida u yoqdan-bu yoqqa shoshib yurayotgan odamlarni ko'rib, yuragi xapqirib ketdi. Kadamini tezlatdi. Eshik oldida turganlar unga, qulluq bo'lsin, sevinib qoldingizmi, qariganingizda dilingizga yorug'lik tushgani muborak bo'lsin, deyishardi.

Kampir xajga ketayotganlarga pensiyadan yiqqan pullarini «Hoji badal» uchun berib yuborgan edi. Haj kabul bo'ldi, degan xushxabar kelgan bo'lsa kerak, o'zingga shukur, Allohim, deb ostona hatladi.

Shoxiga katta lampochka osilgan tut tagidagi supada yoshi oltmishlardan oshgan bir notanish edam o'tirardi. Uning ko'zlari... bundan o'ttiz ikki yil oldingi Bo'rixonning ko'zlari edi. Kampir, voy bolam, deb unga talpindi. Supaga yugurib bordimi, uchib bordimi, bilmaydi. Bag'rida o'g'lini ko'rdi. Undan aroq va sham yoqilgan uyni hidi kelardi. Kampir buni sezmasdi. G'oyibining hozir bo'lganidan mast-alast edi. Karaxt edi, baxtiyor edi. O'g'lining boshlariga, yelkalariga ko'z yoshlari to'kildirdi.

O'g'li uning bag'ridan chiqishga urinar, ammo kampirning qoq suyak, chayir qo'llari uni bo'shatmasdi.

— Nu zachem, zachem plachesh, mama, vot i priexal, xvatit, xvatit, — derdi o'g'li.

Ona bu gaplarni eshitmasdi. Eshitganda ham bari-bir tushunmasdi.

Kampir hushini yig'ib, bolasini bag'ridan bo'shatdi. Serrayib turgan Kumriga:

— Nega baqrayib turibsan, Rahmon qassobni chaqir, bolamning oyog'i tagiga og'ildagi qo'yni so'ysin!

Qo'shnisidikida telefon bor, aka-ukalaringga, singillaringga, akam keldi, deb xabar qil! — dedi.

Qorako'z kampirning oyog'i tagiga o'tirib olgan. Bu notanish odamga g'ashlik qilib tinmay irillardi.

— Qayoqlarda yurganding? — dedi kampir o'g'liga. O'g'li onasi nima deyayotganini tushunmay yelka qisdi.

Tushunmadingmi? Sen boshqa odam bo'lib ketibsan.

Kampir uning yuzlariga qarab ezilib ketdi. Qarib, adoyi tamom bo'пти. Basharasiga ham o'sha tomonlarning nuqsi urib, o'zbekligi qolmabdi. Ellik bir yoshda yetmish yashar chol bo'lib qo'ya qopti.

Rahmon qassob allaqayoqqa ketib qolgan ekan, topib kelishdi. Ko'cha tomonda qo'sh mashinaning gurillagani, o'g'il-qizlarining ovozlari eshitildi.

Abdumalik qo'y yetaklab kirdi. Qizlari, kuyovlari karton qutilarda, xaltalarda meva-cheva, olma-uzum ko'tarib

kirishdi. Bir zumda hovli gavjum bo'lib qoldi.
Bo'rixon ukalarini ham, singillarini ham tanimadi. Ular ham buni tanishmadi.

GURUHLARDA ISHLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

Mutanosiblik testi.

1	Antonimlar	A	Aytilishi va yozilishi bir xil, ammo ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar.			
2	Turg'un bog'lanma	B	Tallafuzi va yozilishi bir-biriga juda yaqin, Faqat bir tovushi bilan farqlanuvchi so'zlar.			
3	Sinonimlar	C	Ma'lum bir fan yoki kasb-hunar doirasida aniq bir ma'noni ifodalash uchun ishlatiladigan so'zlar			
4	Omonimlar	D	Shakli har xil, ammo ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlar.			
5	Paronimlar	E	Qarama-qarshi ma'noli so'zlar.			
6	Atama (termin)	F	Birdan ortiq so'zning o'zaro birikib, bitta ko'chma ma'no anglatishi			
1	2	3	4	5	6	

2-topshiriq.

Tushunchalar izohi	Ibora	Paronim	Antonim	Sinonim	Omonim
Shakli har xil, ammo ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlar.					
Qarama-qarshi ma'noli so'zlar.					
Aytilishi va yozilishi bir xil, ammo ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar.					
Tallafuzi va yozilishi bir-biriga juda yaqin, Faqat bir tovushi bilan farqlanuvchi so'zlar.					
Birdan ortiq so'zning o'zaro birikib, bitta ko'chma ma'no anglatishi					

KIMYOGAR OLIMLARLAR HAQIDA VIKTORINA SAVOLLARI

1. Atom tuzilishining
Planetar modeli,
Qaysi buyuk olimlar
Tafakkurning maxsulini?

2. Gazlar atom ilmini
Ilk bora o'rgangan kim?
Atomistik asosni

Oldi kimyoviy ilm?

3. Alkolloidshunoslar
Maktabini yaratgan kim?
Necha ming o'simlikni
O'rganganidir bu olim.
4. Aytingiz, qaysi ayol
Kimyoda erur dongdor?

Nobel mukofotiga
Ikki bora sovrindor?

5. Kim u – fizik, kimyogar,
She'r yozishning ustasi.
Mozaikachi rassom,
Qomuschidir – qisqasi

6. Kim u – ilmiy kimyoning
Asoschilaridan biri?
Unga ma'lum bo'lgandi
Yigirma uch modda siri?

7. Aytingchi, qaysi olim

Bo'lgandir muqavasozi?
So'ng fizika, kimyoda
Bo'lgandir ilmi daroz.

8. Massalarning saqlanish
Qonunini ochgan kim?
Qonunni aytib bering,
Sizda but bo'lsa ilm?

9. Kimyoviy elementlar
Tizimin kim yaratgan?
Kimyodan boshqa yana
Nimada dong taratgan?

JAVOBLAR:

1. Rezerford va Bor. Proton va Neytron yadroda, elektron qobiq – orbitada. 2. Jon Dalton – ingliz fizigi va kimyogari. 3. S.Yu.Yunusov, 4 ming o'simlikni o'rgangan, alkoloidlarning tibbiyotda qo'llani-lishida roli katta. 4. Mariya Skladovskaya – Kyuri (1867–1934). 5. M.V.Lomonosov (1711–1765). 6. Antuan Loran Lavuaze. 7. Maykl Faradey (1791–1867). 8. M.V Lomonosov 1748 yilda. 9. D.I. Mendeleev; Aerodinamika va aviatsiyada.

FANLAR HAQIDA VIKTORINALAR

1. Jonsiz tabiat bilan
Aloqada tirik tan
Ta'sir va bog'lanishin –
O'rganadi qaysi fan?

2. Aytingchi – qaysi bilim
Tatbiq joyi o'simlik.
Tashqi, ichki tuzilish,
O'sish hamda tarqalish,
Rivoj xususiyatlari –
Uning ish oyatlari?

3. Qo'lyozma manbalarni
Qayta ishlar qaysi fan,
Va nashrga tayyorlar,
Har jihatdan aylab jam?

4. Zargarlik ishlarida

Juda muhim – javohir,
Javohirlar sirini
Bilishda qay fan mohir?

5. Urug' va oilalar
Kelib chiqish tarixin,
Ular shajaralarin,
O'rganadi qaysi fan?

6. Tarixning qay bo'limi –
O'qir gerblar ilimin?

7. Oila, urug' – aymoq,
Va ular shajarasin,
Qaysi fan o'rganadi –
Bargalikda, hammasin?

8. Aytingiz, qaysi fanda
Eshak ham ot bo'ladi,
Buni inkor etganlar –
Bu fanda mot bo'ladi?

9. Tabiyotning kimyoviy
Elementlar va ular,
Turli birikmalarin –
Qaysi fan tahlil qilar?

10. "Mineral kimyo" nomin
Olgan edi qaysi fan?
Jonsiz qattiq moddalarni
Taftish etar ushbu fan.

11. Tirik mavjudotlarda
Harakatni olib tan,
Tarkib, reaksiyani

O'rganadi qaysi fan?

12. Kosmik jism, moddalar
Kimyoviy tarkibini,
Kimyoviy elementlar
Fazoda taqsimini,
Hamda kosmik moddalar
Yaralish tahlilini –
Haryoqlama olib tan,
O'rganadi qaysi fan?

13. Kimyoning qay bo'limi
Dala bilan bog'liqdir,
O'simlik hamda tuproq,
Bu fan uchun boylikdir?

14. Moddalarning miqdoriy,
Va sifat xossalarini,
Spektr asosida
Qaysi fan etar tahlil?

15. Qaysi fan – galaktika,
Sayyora, yo'ldosh, yulduz –
Haqida qonunlarni
O'rganar kecha, kunduz?

16. Hayot va shakllarin,
Tuzilishin etib jam,
Rivojlanish qonunin –
O'rganadi qaysi fan?

17. Hujayrani batafsil
O'rganadi qaysi bob?
Bu fanni o'rganishda
Muhimdir qaysi asbob?

18. Tirik organizmlarda
Irsiyat qonunlarin,
Hamda o'zgaruvchanlikni –
Qaysi fan topar sirin?

19. O'simlik yangi navin,
Hayvonlar yangi zotin –
Yaratuvchi ilmning
Ayting, nimadir oti?

20. Qazilma qoldiqlarning
Tahlillarini aylab jam,
Evolyusion g'oyalarni
Tasdiq etar qaysi fan

FANLAR HAQIDA VIKTORINALARNING JAVOBLARI

1. Geobiologiya, 2. Botanika – nabotot, 3. Arxeografiya, 4. Gemmologiya, 5. Geneologiya, 6. Geraldika, 7. Geneologiya, 8. Grammatika – ona tili, 9. Kimyo, 10. Anorganik kimyo, 11. Biokimyo, 12. Kosmokitimyo, 13. Agrokimyo, 14. Spektral analiz, 15. Astronomiya, 16. Biologiya, 17. Sitologiya, zarrabin – mikroskop, 18. Genetika, 19. Seleksiya, 20. Pal

YAKUNIY NAZORAT TEST SAVOLLARI

I SEMESTR UCHUN

1. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari haqidagi qaroriga qachon o'zgartirish kiritildi?
 - A) 1995-yil, 2-sentabr
 - B) 1993-yil, 2-sentabr
 - C) 1995-yil, 24-avgust
 - D) 2005-yil, 6-may

2. Tutuq belgisi qaysi qatorda unlini cho'ziqroq talaffuz qilish uchun ishlatilgan?
 - A) in'om, qat'iy
 - B) e'tibor, me'mor
 - C) qat'iy, ba'zan
 - D) san'at, ta'zim

3. Morfologik (affiksatsiya) usulida hosil qilingan so'zlar qaysi qatorda berilgan?
 - A) g'allazor, oybolta
 - B) ochildasturxon, oshqozon
 - C) paxtakor, kursdosh
 - D) soatsoz, toshbaqa

4. Qaysi qatordagi so'zlarga -i (egalik) qo'shimchasi qo'shilsa k undoshi g ga, q undoshi g' ga aylanadi?
 - A) ishtrok, huquq
 - B) yuq, tilak
 - C) huquq, yurak
 - D) tilak, butoq

5. 1) Yigit oqimga qarshi suzib, ariqning boshiga yetdi.
2) Qo'rsligi, bema'ni gaplari, axir uning boshiga yetdi.
3) Ota-bobolar nomini doim esda tutish kerakligini o'g'lining qulog'iga qo'ydi.
4) Shifokor dorini bolaning qulog'iga qo'ydi.
Berilgan gaplarda ajratilgan so'zlarning qay biri turg'un bog'lanma?
 - A) 1,4
 - B) 2,3
 - C) 1,3
 - D) 2,4

6. Javoblarning qaysi birida sinonim so'zlar berilgan?
 - A) Ko'ylak, do'ppi, chopon
 - B) Ketdi, chopdi, yurdi.
 - C) Go'zal, chiroyli, barno
 - D) Suv, havza, ko'lmak.

7. Quyidagi iboraga ma'nodosh so'zni toping.
Tekkanga tegib, tegmaganga kesak otadi.
 - A) Kuchli
 - B) qo'rqq

- C) xira, tegajoq
- D) sho‘x, shaddod

8. Quyidagiso‘zlariningantonimlarinitopiq: *chuqur, qalin, issiqlik, yaxshi, zarur, og‘ir*

- A) Sayoz, uzun, sovuqlik, yomon, nokerak, yengil.
- B) Sayoz, ingichka, sovuqlik, yomon, keraksiz, yengil.
- C) Keng, yassi, sovuqlik, yomon, keraksiz, yengil.
- D) Sayoz, ingichka, iliqlik, yomon, muhim, yengil.

9. Quyidagi so‘zlarning sinonimlarini toping:*osmon, do‘st, aqlli, murakkab.*

- A) yer, dushman, axmoq, oson
- B) samo, o‘rtoq, bilimdon, qiyin
- C) koinot, oshna, ongli, oson
- D) ko‘k, og‘ayni, olim, mushkul

10. Omonim so‘zlar qatorini belgilang.

- A) shish, ko‘ch
- B) tuz, asir
- C) loy, tom
- D) tilim, ko‘z

11. Qaysi javobda kasb-hunarga xos so‘zlar berilgan?

- A) odam, kuz, dala, maysa
- B) ota, ona, quyosh, ko‘klam
- C) charm, qolip, shirach, yelim
- D) Bordi, keldi, yugurdi

12. Sinonim iborali qatorni toping?

- A) Suyagi buzuq, og‘zi qulog‘ida
- B) Barmog‘ini tishlab qoldi, tepa sochi tikka bo‘ldi
- C) Og‘ziga talqon solib oldi, mum tishlab qoldi
- D) Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi, qovun tushirdi

13. Qo‘li egri iborasiga ma‘nodosh so‘z qaysi?

- A) Qo‘li qiyshiq
- B) mug‘ombir
- C) o‘g‘ri
- D) firibgar

14. O‘zaro antonim bo‘lgan iboralarni aniqlang

- A) Ko‘ngli qora, bag‘ri tosh
- B) Joni chiqmoq, osmonga yetmoq
- C) hash-pash deguncha, tuyaning dumi yerga tekkanda
- D) ko‘zi to‘rt bo‘lib, og‘zi qulog‘ida

15. Sinonim so‘zlar berilgan qatorni aniqlang

- A) Ishchan, dangasa, semiz
- B) Qizil, oq, qora
- C) Bilimli, aqlli, chiroyli
- D) Chiroyli, zebo, go‘zal

16. Paronim so‘zlarni toping.

- A) zavq-shavq, baxt-saodat
- B) dukur-dukur, duk-duk
- C) katta-kichik, uzun-qisqa
- D) kasr-qasr, asr-asir

17. O'zbek tiliga tarjima qilganda omonim so'zlar hosil bo'ladigan qatorni belgilang.

- A) Цветок
- B) пепел
- C) аист
- D) климат

18. Qaysi sinonimik qator da asosiy so'z birinchi berilgan?

- A) quvondi, sevindi, xursand bo'ldi
- B) xo'ngradi, yig'ladi, bo'zladi
- C) saodat, baxt, tole
- D) kasal, bemor, xasta

19. "Tarvuzi qo'ltigidan tushmoq" iborasining ma'nosini ko'rsating.

- A) Qo'rqib ketmoq
- B) xafa bo'lmoq
- C) xafsalasi pir bo'lmoq
- D) shashtidan qaytmoq

20. Alisher Navoiy hikmatli so'zlarining ma'nosini toping.

*Odami ersang, demagil odami,
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.*

- A) Insoniylik
- B) g'amxo'rlik
- C) mehribonlik
- D) mardlik

21. Sinonim so'zlar qo'llangan gapni toping.

- A) Hunarli el xor bo'lmas, do'st-dushmanga zor bo'lmas.
- B) Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni.
- C) Dangasaning ishi bitmas, yoz kelsa ham qishi bitmas.
- D) Hidi kelsa, mast bo'laylik handalakning bo'yiga.

22. Quyidagi qaysi sonlar o'zaro omonimlikni yuzaga keltiradi?

- A) o'n, qirq
- B) To'rt, uch
- C) yuz, bir
- D) qirq, yuz

23. Bir umumiy ma'noni ifodalovchi ikki va undan ortiq so'zlarga..... so'zlar deyiladi.

- A) shakldosh
- B) ma'nodosh
- C) paronim
- D) zid ma'noli

24. Frazologik antonimlarni toping.

- A) yerga urmoq, ko'kka ko'tarmoq
- B) achchiq, shirin
- C) beqiyos, mislsiz
- D) katta ketmoq, katta gapirmoq

25. *Barmog'ini tishlab qolmoq* iborasining sinonimi qaysi qator da to'g'ri berilgan?

- A) g'azablanmoq
- B) chidamoq
- C) afsuslanmoq

- D) hayratlanmoq
- 26. “Po ‘stagini qoqmoq” iborasining sinonimini belgilang.**
- A) qattiq jazolamoq
 B) ayovsiz tanqid qilmoq
 C) ozor yetkazmoq
 D) talabchan bo‘lmoq
- 27. Baland oxurdan yem yemoq iborasining ma’nosi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**
- A) boquvi zo‘r bo‘lmoq
 B) o‘ta takabbur bo‘lmoq
 C) hayot darajasi, maishati yuqori bo‘lmoq
 D) katta maqsad sari intilmoq
- 28. Beg‘am, beparvoso‘zlariga sinonim bo‘ladigan iborani belgilang.**
- A) qush kabi yengil tortmoq
 B) kayfi xush
 C) chuchvarani xom sanamoq
 D) do‘ppisi yarimta
- 29. Qaysi qatorda sinonim iboralar berilgan?**
- A) xamirdan qil sug‘urgandek, xamir uchidan patir
 B) ko‘nglini ko‘tarmoq, oyog‘iga yiqilmoq
 C) yuragi qinidan chiqayozdi, ko‘ngli butun
 D) hafsalasi pir bo‘ldi, qo‘lini yuvib qo‘ltig‘iga urdi
- 30. Quvonmoqso‘ziga to‘g‘ri keladigan iborani aniqlang.**
- A) gap sotmoq
 B) og‘zining tanobi qochmoq
 C) aravani quruq olib qochmoq
 D) qulog‘i ding bo‘lmoq
- 31. Hasharning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u beminnat, bepul, beta’ma bajariladi. Ushbu gapdagi beta’maso‘zining ma’nosini aniqlang.**
- A) oson
 B) hamma kabi
 C) sidqidildan
 D) evaziga hech narsa so‘ramay
- 32. “Juda” so‘zining sinonimlari ko‘rsatilgan qatorni toping.**
- A) g‘oyat, nihoyatda, xo‘p, biram
 B) nihoyatda, biram, ko‘p
 C) xo‘p, rosa, istak, orzu
 D) ishsiz, havas, xo‘p, ko‘p
- 33. Lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosida nechta harf bor?**
- A) 28 ta
 B) 29 ta
 C) 30 ta
 D) 31 ta
- 34. Fonetika bo‘limida nimalar o‘rganiladi?**
- A) nutq tovushlari
 B) so‘zning ma’noli qismlari
 C) gap va gap bo‘laklari
 D) imlo qoidalari
- 35. Tinish belgilari qaysi bo‘limda o‘rganiladi?**

- A) punktuatsiya
- B) Sintaksis
- C) fonetika
- D) leksikologiya

36. Ota-ona, orzu niyat, o'g'il-qiz kabi so'zlar qanday so'z sanaladi?

- A) qo'shma so'z
- B) juft so'z
- C) sodda so'z
- D) takroriy so'z

37. O'zbek tilidagi unli tovushlar qatorini ko'rsating.

- A) a, o, i, u, e
- B) a, o, i, u, e, o'
- C) a, o, i, e, o'
- D) a, o, i, u, ye, yu, yo, ya, e, o'

38. Qaysi qatorda faqat qo'shma so'zlar berilgan?

- A) shirinso'z, o'rinbosar, tumanlararo
- B) xalqparvar, dorixona, xorijiy
- C) litsey-internat, tadbirkor, kollej
- D) qayta qurish, mustaqillik, valyuta.

39. Chiqish kelishi qo'shimchasi qo'shilganda, tovush ortishi sodir bo'ladigan qatorni toping.

- A) bu, u
- B) sen, kim
- C) nima, qachon
- D) qanday, men

40. "Davlat tili haqidagi" qonun nechta moddadan iborat?

- A) 21
- B) 24
- C) 12
- D) 20

41. Qaysi so'zlarda u unlisi noto'g'ri qo'llangan?

1) unutmog; 2) unumli; 3) unub-o'smog; 4) umumiylik; 5) umum;
6) umurguzaronlik.

- A) 1,2,4,6
- B) 3,4,5
- C) 2,3,5
- D) 3,6

42. Quyidagi qo'shma so'zlarning qaysi biri ajratib yoziladi?

- A) kamhosil
- B) oshqozon
- C) osmako'prik
- D) shirinso'z

- 43. Qo'shma so'zlarning imlosi haqidagi qaysi hukm noto'g'ri?**
- A) Qo'shma so'zlarning qismlari bir-birini izohlasa qo'shib yoziladi.*
 - B) Ikki yo uch so'z qo'shilmasdan hosil bo'lgan turdosh otlar doim qo'shib yoziladi.
 - C) Qo'shma fe'l qismlari ajratib yoziladi.
 - D) Xona, noma, poya, sifat kabi so'zlar bilan yasalgan qo'shma ot va sifatlar qo'shib yoziladi.
- 44. Berilgan so'zlarning qaysilarida illa qo'shimchasi ulla shakliga aylanadi?**
1) chir-illa; 2) gur-illa; 3) gurs-illa 4) shov-illa;5) lov-illa; 6) vov-illa.
- A) 2,3,4,5
 - B) faqat 4,5
 - C) 2,3,4,5,6
 - D) 1,4,5,6
- 45. "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qachon qabul qilindi?**
- A) 1995-yil, 6-may
 - B) 1993-yil, 2-sentabr
 - C) 2005-yil 2-sentabr
 - D) 1989-yil, 21-oktabr
- 46. Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosida nechta harf bor?**
- A) 28 ta
 - B) 29 ta
 - C) 30 ta
 - D) 31 ta
- 47. Zid ma'noli so'zlar berilgan qatorni toping?**
- A) 0q-qora, egri-to'g'ri, uzun-qisqa
 - B) shox-shoh, tana-ta'na
 - S) yuz, bet, aft, bashara, turq
 - D) oz, keng, ulkan.
- 48. "O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi". "Davlat tili haqidagi" qonunning nachanchi moddasidan olingan?**
- A) 5 modda
 - B) 6 modda
 - C) 24 modda
 - D) 9 modda
- 49. To'g'ri talaffuz qoidalarini o'rgatuvchi tilshunoslik bo'limi?**
- A) orfografiya
 - B) orfoepiya
 - C) fonetika
 - D) morfemika
- 50. Qaysi qatorda jarangsiz jufti bor jarangli undoshlar berilgan?**
- A) m, n, b, d, g
 - B) d, b, j, g, v, g'
 - C) z, ch, y, d, g, g'
 - D) l, d, b, g, z, j

51. Quyida berilgan nomlardan qaysi biri orfografiya qoidalariga muvofiq to‘g‘ri yozilmagan?

- A) Toshkent Kimyo Texnologiya instituti
- B) Jahon Tinchlik Kengashi
- C) Fanlar akademiyasi
- D) Mustaqillik kuni

52. Qaysi qatorda berilgan so‘zlar orfografiya qoidalariga muvofiq to‘g‘ri yozilgan?

- A) tarjimai hol, mo‘tabar, orzum, yildan-yilga
- B) nuqtayi nazar, obro‘yi, tarjimayi hol, mo‘tadil
- C) tomdan tomga, liq to‘la, orzuyim, nuqtai nazar
- D) oynai jahon, mo‘jiza, yildan-yilga

53. “O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta‘lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi. O‘zbekiston Respublikasida davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda ham umumiy, o‘rta maxsus va oily ma‘lumot olishni ta‘minlaydi”. “Davlat tili haqida”gi qonunning nechanchi moddasida berilgan?

- A) 5 modda
- B) 1 modda
- C) 6 modda
- D) 9 modda

54. Qaysi qatorda imloviy xatolikka yo‘l qo‘yilgan?

- A) Qor tip-tiniq shudring tomchisiga aylandi.
- B) Metall idishlarda ovqat saqlab yeyish sog‘liq uchun zararlidir.
- C) Tamagirlik bilan adolat bir-biriga ziddir.
- D) Bulbul Arabiston yarim orolining janubida qishlab, aprelning oxirida yurtimizga uchib keladi.

55. Qaysi qatordagi so‘zlarda tutuq belgisi unlining undoshdan ajratib talaffuz etilishini ifodalaydi?

- A) shu‘la, ba‘zan
- B) qat‘iy, jur‘at
- C) Is‘hoq, as‘hob
- D) mo‘jiza, mo‘tadil

56. 1995-yili qabul qilingan imlo qoidasiga ko‘ra quyidagi so‘zlarning qaysi biri xato yozilgan?

- A) parvoyim
- B) avzoyim
- C) obro‘yim
- D) orzuyim

57. Bo‘g‘in ko‘chirish qoidasi buzilmagan qatorni toping.

- A) de-ngiz
- B) den-giz
- C) kong-res
- D) ing-liz

58. Qaysi qatorda juft sifatlar yangi imlo qoidasiga ko‘ra to‘g‘ri yozilgan?

- A) kattayu kichik

- B) yaxshi-yu yomon
- C) balandu past
- D) oqu-qora

59. Yangi imlo qoidasiga ko‘ra qo‘shib yoziladigan so‘zlar qatorini toping.

- A) ko‘pdan ko‘p, ochiqdan ochiq, ko‘chama ko‘cha
- B) hamma vaqt, har kim, hech qachon
- C) to‘q sariq, tim qora, liq to‘la
- D) askar boshi, kino rejissor, jigar rang

60. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan sanani aniqlang.

- A) 1991-yil 2-sentabr
- B) 1990-yil 21-oktabr
- C) 1989-yil 21-oktabr
- D) 1995-yil 21-oktabr

61. Berilgan qaysi so‘zda tutuq belgisi noto‘g‘ri qo‘yilgan?

- A) ma’sul
- B) ma’sum
- C) ma’mur
- D) ma’qul

62. Talaffuzda tovush orttirilishi yuz bergan so‘zlar qatorini toping.

- A) tabiat, doim, ilm
- B) unga, achchiq
- C) qadr, do‘st, g‘isht
- D) go‘sht, yozdir, iliq

63. “O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatning o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi”. “Davlat tili haqidagi” qonunning nechanchi moddasidan olingan?

- A) 2 modda
- B) 6 modda
- C) 24 modda
- D) 3 modda

64. Bosh harflar imlosi qoidasi buzilgan qatorni toping.

- A) Toshkent Kimyo-texnologiya instituti
- B) Samarqand davlat universiteti
- C) O‘zbekiston Milliy universiteti
- D) Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

65. Berilgan so‘zlardan qaysi biri ajratib yoziladi?

- A) bodomqovoq
- B) temireshik
- C) so‘zboshi
- D) bug‘doyrang

66. Qaysi gapda uchta yasama so‘z ishtirok etgan?

- A) Ha, bu yurtlar chiroyli, daraxtzor bo‘lgani bilan sovuq.
- B) Mehmon jiddiylashdi, nimanidir isbotlamoqchi bo‘lganday keskin gapirdi.
- C) Semizlikni qo‘y ko‘tarar deganlaridek, Omonga badavlatlik yoqmas edi.

D) U bolalikdan dorbozlarning o‘yinlarni yoqtirar edi.

67. Qaysi qatorda o‘zbek tilining o‘z qatlamiga mansub so‘zlar berilgan?

- A) maktab, oila, baxt, gul
- B) aziz, adabiyot, til, tog‘
- C) bilim, do‘st, bahor, farzand
- D) bilimdon, bosh, bebosh, doirachi

68. Buyuk allomalarimizdan qaysi biri o‘nlik pozitsion hisoblash sistemasini ishlab chiqdi?

- A) Abu Nasr Forobiy
- B) Abu Ali ibn Sino
- C) Muso Al-Xorazmiy
- D) Abu Rayhon Beruniy

69. Yunon falsafasini sharhlab dunyoga keng tanitgani uchun qaysi alloma ulug‘lanib “Muallim as-soniy” - “Ikkinchi muallim”(Aristoteldan keyin) , “Sharq Arastusi” deb yuritilgan ?

- A) Abu Nasr Forobiy
- B) Alisher Navoiy
- C) Muso Al-Xorazmiy
- D) Abu Rayhon Beruniy

70. Qaysi qatordagi so‘zlarda «o‘» harfi ishlatiladi?

- A) j.da, sov.q, s.pa.
- B) .rdak, b.l, s.z
- C) t.r, b.loq, m.z
- D) q.loq, b.l, y.pqa

71. Qaysi qatorda paronimlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A) quvlamoq-quvalamoq
- B) arava-aroba
- C) yorqin-yolqin
- D) podsho -podshoh

72. Borlik-borliq so‘zlari shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra qanday so‘zlar hisoblanadi?

- A) antonimlar
- B) variantdosh
- C) sinonimlar
- D) paronimlar

73. Qo‘shib yoziladigan qo‘shma so‘z qaysi qatorda berilgan?

- A) hech qachon
- B) har qanday
- C) bir zumda
- D) qo‘zi qorin

74. Yozilishi va aytilishi bir xil, ma’nosi har xil bo‘lgan so‘zlarga qanday so‘zlar deyiladi?

- A) shakldosh so‘zlar
- B) ma’nodosh so‘zlar
- C) zid ma’noli so‘zlar
- D) paronimlar

75. Qaysi iboraning ma’nosi qizg‘anchiq so‘zining ma’nosiga teng keladi?

- A) ikki qo‘lini og‘ziga tiqdi
- B) ta’bi xira

C) ichi qora

D) ko'zi tor

76. Omonim so'zlar berilgan qatorni toping.

A) el, bur

B) tor, bur

C) os, qol

D) yon, bor

77. Tilda bir ma'noni ifodalash uchun qo'llanuvchi bir nechta so'z qanday nomlanadi?

A) omonimlar

B) paronimlar

C) sinonimlar

D) antonimlar

78. O'zbek tilida nechta undosh tovush bor?

A) 6 ta

B) 23 ta

C) 10 ta

D) 25 ta

79. Yasama so'z bilan tub so'z qaysi bandeda sinonim bo'lib kelgan?

A) chopqir, chopag'on

B) sabr, toqat

C) savol, so'roq

D) esli, hushyor

80. Qaysi qatordagi so'zlar «g» harfi bilan boshlanadi?

A) ..avda, ...uvoh, ...azmol,

B) ...arov, ...avhar, ...iyoh.

C) ...azab, ...alla, ...arb.

D) ...ilos, ...o'dak, ...ugurt.

81. „Men nechun sevaman O'zbekistonni?

Bog'larin jannat deb, ko'z – ko'z etaman

Nechun ardoqlayman tuprog'ini men,

O'paman tuprog'ing bebaho Vatan”.

Ushbu she'riy parcha muallifi kim?

A) Erkin Vohidov

B) Abdulla Oripov

C) Muhammad Yusuf

D) Hamid Olimjon

82. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi so'zini kim yozgan?

A) Abdulla Qahhor

B) Mutal Burhonov

C) Erkin Vohidov

D) Abdulla Oripov

83. Xalq qahramonlarining nomlari ko'rsatilgan qatorni toping.

A) Shiroq, To'maris, Spitamen

B) Shiroq, Doro I, Makedonskiy

C) To'maris, Shiroq, Kir

D) To'maris, Shiroq, Doro

84. “Do'st” so'zining sinonimlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan ?

- A) O‘rtoq, birodar, oshna, og‘ayni
- B) Dushman, birodar, yov
- C) Mehribon, og‘ayni, birgalikda
- D) Ahil, birodar, oshna, jo‘ra

85. Alisher Navoiy tug‘ilgan sanani toping.

- A) 1440- yil 6-fevral
- B) 1489-yil 14-fevral
- C) 1501-yil 6-yanvar
- D) 1441-yil 9-fevral

86. O‘zbek adabiy tilining asoschisi, jahon ma’naviyatining buyuk siymosini aniqlang.

- A) Husayn Boyqaro
- B) Alisher Navoiy
- C) Mahmud Qoshg‘ariy
- D) Abdurahmon Jomiy

87. Qarama-qarshi, zid ma’noli so‘zlarni aniqlang.

- A) Yo men boray, yo sen kel.
- B) O‘qituvchining esa hech narsadan xabari yo‘q edi.
- C) Akram maktabga keldi, lekin darsga kirmadi.
- D) Uning yuragiga qil ham sig‘mas edi.

89. “Xamsa” tarkibiga kirgan dostonlar ko‘rsatilgan qatorni aniqlang.

- A) “Farhod va Shirin”, “Mezon ul-avzon”
- B) “Munshaot”, “Layli va Majnun”
- C) “Mahbub ul-qulub”, “Lison ut-tayir”
- D) “Farhod va Shirin”, “Saddi Iskandariy”

90. “O‘tgan kunlar” romanining muallifi kim?

- A) Cho‘lpon
- B) Gafur Gulom
- C) Abdulla Qahhor
- D) Abdulla Qodiriy

91. Qaysi javobda ona tiliga doir atamalar berilgan?

- A) sinonim, undosh, paronim, bo‘g‘in
- B) loyiha, chizma, uskuna
- C) kvadrat, teng, integral
- D) yaproq, po‘stloq, ildiz, daraxt

92. Quyidagi iboraning antonimi qaysi qatorda berilgan? *Ammamning buzog‘i*

- A) pixini yorgan
- B) boshi ko‘kka yetdi
- C) tepsa tebranmas
- D) tog‘ni ursa talqon qiladi

93. *Влюбится без памяти* iborasining o‘zbekcha muqobilini toping.

- A) oshiq-u beqaror bo‘lmoq
- B) oshiq bo‘lib qolmoq
- C) yuragidan urib qolmoq
- D) sevgidan xotirasini yo‘qotmoq

94. Qaysi javobda sinonimlar ta'rifi berilgan?

- A) aytilishi va yozilishi bir xil, ammo ma'nosi har xil so'zlar
- B) shakli har xil, ammo ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlar
- C) qarama-qarshi ma'noli so'zlar
- D) ilm-fan, texnika, san'at, hunarga xos bir ma'noli so'zlar

95. Qaysi javobda omonim so'zlar berilgan?

- A) maktab, dala bog'
- B) tut, o't, burun, qo'y, bo'g'in
- C) quloq, qalam, suv
- D) ko'klam, yaxshi, tuz

96. Qaysi gapda antonim so'zlar qo'llangan?

- A) Hamma xursand, chehralarda tabassum.
- B) Anvar hamma uchun sevimli va xushmuomala yigit edi.
- C) U o'zini yo'qotib qo'ygan, dam yig'lab, dam kular edi.
- D) Mahdum bo'ychan, ola go'sht, siyrak mo'y, istarasi issiq bir odam edi.

97. Faqat sinonim so'zlardan iborat bo'lgan qatorni toping.

- A) kasal, bemor, sog', baquvvat
- B) sabr, toqat, chidam, bardosh
- C) yuz, chehra, tish, tush
- D) aqlli, yovuz, kasal, bemor

98. Antonim so'zlar ishtirok etgan qatorni aniqlang

- A) Hamma xursand, o'zida yo'q shod
- B) Shodliklarim siz tanho, alamlarim siz mening
- C) hayot go'zal, hayot maroqli, shuning uchun erka ko'ngil shod
- D) qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot, yaxshilik qil bolam, yomonlikni ot

99. Qaysi qatorda faqat sinonim so'zlari berilgan?

- A) yuz, aft, rang, soz
- B) yakka, tanho, yolg'iz, betakror
- C) uchramoq, yo'liqmoq, duch kelmoq, urilmoq
- D) yuksalmoq, o'smoq, rivojlanmoq, taraqqiy etmoq

100. Antonim so'zlar qo'llangan gapni aniqlang.

- A) Ko'ngli toza kishining do'sti ko'p bo'ladi
- B) Shaharda baland-baland binolar ko'p
- C) Aqlli o'zini ayblar, axmoq boshqalarni
- D) Suvning mo'li, ekinning sho'ri

101. Chiroyli (красивый) so'zining antonimi berilgan qatorni toping

- A) qo'pol
- B) beo'xshov
- C) ozg'in
- D) xunuk

102. Oson (легко) so'zining antonimi berilgan qatorni aniqlang.

- A) og'ir
- B) qiyin
- C) mashaqqatli

D) murakkab

103. Ulkan soʻzining maʼnodoshlari berilgan qatorni aniqlang.

A) Azamat, botir, qoʻrqmas

B) Epchil, chaqqon, tezkor

C) Katta, buyuk, ulugʻ, bahaybat

D) Gapirmoq, soʻzlamoq, javramoq

104. Kamoliddin Behzod kim boʻlgan?

A) Shoir

B) rassom

C) Yozuvchi

D) bastakor

105. Iboralarga berilgan toʻgʻri taʼrifni toping.

A) Maʼnodosh soʻz birikmalar

B) Turgʻun, yaxlit maʼnoli soʻz birikmalari

C) Qarama-qarshi maʼnoli birikmalar

D) Shakldosh soʻz birikmalar

106. Amaliy sanʼat turlarini toping.

A) tikuvchilik, sheʼrxonlik, naqqoshlik, kulolchilik, zargarlik

B) tikuvchilik, zardoʻzlik, teatr, kulolchilik, zargarlik

C) tikuvchilik, zardoʻzlik, naqqoshlik, kulolchilik, zargarlik

D) tikuvchilik, zardoʻzlik, naqqoshlik, oshpazlik, zargarlik

107. Atamalar berilgan qatorni toping.

A) narvon, shoti, sarlavha

B) oʻlpon, botmon, boʻluv

C) kub, kvadrat, integral

D) hayot, soliq, davr

108. Qaysi javobda iqtisodiyotga oid atamalar berilgan?

A) soliq, siyosat, sinov

B) mavzu, fonema, jamiyat

C) pul, daromad, isteʼmol

D) jadval, teng, siyosat

109. dars – darz soʻzlari qanday soʻzlar hisoblanadi?

A) omonim soʻzlar

B) sinonim soʻzlar

C) paronim soʻzlar

D) antonim soʻzlar

110. Istiqlol soʻzining sinonimi qaysi qatorda keltirilgan?

A) ozodlik

B) Erk

C) mustaqillik

D) tinchlik

111. Maqollardagi antonim soʻzlarni aniqlang.

1. Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga,
yomon bilan yursang, qolarsan uyatga.

2. Oy tunda kerak, aql kunda kerak.
 3. Ko'z qo'rqqoq, qo'l botir.
 4. Bir kattaning gapiga kir, bir – kichikning.
 5. Torga tor dunyo, kengga keng dunyo.
 6. Mard bir o'lar, nomard yuz o'lar.
 A) Murod-uyat, oy-aql, ko'z-qo'l, tor- keng, bir-yuz.
 B) Yaxshi-yomon, tun-kun, ko'z-qo'l, katta-kichik, tor-keng, mard-nomard
 C) Yaxshi-yomon, tun-kun, qo'rqqoq-botir, katta-kichik, tor-keng, mard-nomard.
 D) Yaxshi-yomon, tun-kun, qo'rqqoq-botir, katta-kichik, tor-keng

112. Tilda sinonimi bor so'zlar guruhini toping.

- A) Farzand, notiq, botir.
 B) Chiroyli, ulkan, yuz.
 C) Tut, bosh, ko'z.
 D) Yaxshi, katta, oz.

113. Berilgan so'zlarning antonimini aniqlang.uzoq, yorug', baxil, qiyin.

- A) yaqin, qorong'u, badjahl, oson.
 B) yaqin, qorong'u, badjahl, mushkul.
 C) yaqin, qorong'u, saxiy, oson.
 D) yaqin, qorong'u, samimiy, murakkab.

114. 1. Mis - bu ... modda. 2. Karbonat angidrid gazi – bu ... modda. 3. Suv – bu ... modda.

- A) 1. yumshoq; 2. yengil; 3. suyuq.
 B) 1. Qattiq; 2. Murakkab; 3. suyuq.
 C) 1. Qattiq; 2. Murakkab; 3. Sintetik.
 D) 1. Suyuq; 2. Murakkab; 3. yumshoq

115. Nuqtalar o'rniga zarur so'zlarini qo'ying.

1. Oltinugurt ...metall.
 2. Oltinugurt insoniyatga juda qadimdan ma'lum bo'lgan... .
 3. Oltinugurt inson organizmidagi ayrim ...lar hoida aminokislotalar tarkibida uchraydi.
 4. Oltinugurt... , mo'rt, oson maydalanadigan ... modda.
 A) 1. faol; 2. Suyuqlik; 3. Vitamin; 4. och sariq, qattiq kristall.
 B) 1. Kamfaol; 2. Element; 3. Suyuqlik; 4. och sariq, qattiq kristall.
 C) 1. Kamfaol; 2. Element; 3. Vitamin; 4. och sariq, qattiq kristall.
 D) 1. Kamfaol; 2. Element; 3. Vitamin; 4. tim qora, yumshoq kristall.

116. Ibora qatnashgan gapni belgilang.

- A) Salimjon muloyim, mo'min –qobil bola.
 B) U chumoliga ham ozor bermaydi.
 C) Basharang qiyshiq bo'lsa, oynadan o'pkalama.
 D) Yashil boyligimiz bo'lgan o'rmonlarni asrab-avaylaylik.

117. Botanika darsida chumchuqko'z, otquloq, qo'ziqorinlardan gerbariy tayyorladik. Tagiga chizilgan so'zlar qanday so'zlar sanaladi?

- A) Ilmiy atamalar
 B) Kasbiy atamalar
 C) Omonimlar
 D) Sinonimlar

118. Qaysi qatordagi soʻzlarda boʻgʻin koʻchirish qoidasi buzilgan?

- A) sin-gil, den-giz
- B) daf-tar, mao-rif
- C) in-gliz, aka-si
- D) men-ga, tan-ga

119. Toʻgʻri yozish qonun-qoidalarini oʻrganadigan tilshunoslik boʻlimi nima deyiladi?

- A) Orfoepiya
- B) Fonetika
- C) Orfografiya
- D) Leksikologiya

120. Juft soʻz ishtirok etgan gapni belgilang.

- A) Ertalabga yaqin laylakqor yogʻa boshladi.
- B) Hayot asta-sekin oʻz iziga tushib ketdi.
- C) Bemor sekin-sekin gapirmoqda edi.
- D) Bemorlarga oq yoʻl tiladik.

121. Yangi oʻzbek alifbosi qaysi yozuvga asoslanadi?

- A) kirill yozuviga
- B) lotin yozuviga
- C) arab yozuviga
- D) A va B

122. Qaysi qatordagi yonma-yon kelgan undoshlar orasiga talaffuzda bitta i qoʻshib aytiladi?

- A) stadion, stul
- B) past, qasd
- C) sabr, satr
- D) omma, gʻalla

123. Yozilishi va aytilishi bir xil, maʼnosi har xil boʻlgan soʻzlarga qanday soʻzlar deyiladi?

- A) shakldosh
- B) maʼnodosh
- C) zid maʼnoli
- D) paronim

124. Maʼnodosh soʻzlar berilgan qatorni toping.

- A) yuz , bet, aft, bashara
- B) olma, tut.
- C) achchiq–shirin, katta- kichik.
- D) darz-dars, asir-asr

125. Zid maʼnoli soʻzlar berilgan gap qatorini toping.

- A) Doʻst achitib gapiradi, dushman kuldirib.
- B) Yoz oʻtmoqda soz.
- C) Ozodlik biz uchun eng katta davlat.
- D) Dangasa va yalqovlar hech qachon sanoqda boʻlmaydi.

126. *Bir yil tut ekan kishi, yuz yil gavhar teradi. Yaxshilarning etagini tut, adashmaysan.* **Shakldosh soʻzni toping.**

- A) bir
- B) ekkan
- C) tut
- D) etak

127. Noto'g'ri yozilgan so'z mavjud qatorni toping.

- A) butun, kulgi, supurmoq
- B) sovuq, uyqu, shovullamoq
- C) kulgi, quvur, uchun
- D) butun, shovillamoq, supurmoq

128. Qaysi qatorda so'z qo'llash bilan bog'liq xato mavjud?

- A) Oynaga darz ketdi.
- B) Urush, noming o'chsin jahonda...
- C) Chap yoni bilan turmoq.
- D) Besh asrkim nazmiy saroyini, Titratadi zanjirband bir she'r.

129. Qaysi qatordagi gap tarkibida uchta qo'shma so'z mavjud?

- A) Ochildimi boychechak, Endi har yon gul demak.
- B) Bu shaharning oti Ko'kterak ekan.
- C) Mehmondo'st, mehnatsevar, sofdil yoshlar kelajak poydevoridir.
- D) Maqsadimiz chuqur bilimli, yuksak ma'naviyatli, hozirjavob yoshlarni tarbiyalashdan iborat.

130. 1930-40 yillarda xalqimiz qanday yozuvdan foydalangan?

- A) kirill
- B) lotin
- C) arab
- D) hind

131. To'g'ri yozish me'yorlari tilshunoslikning qaysi bo'limida o'rganiladi?

- A) orfoepiya
- B) fonetika
- C) orfografiya
- D) morfologiya

132. Qaysi qatordagi so'zlar tarkibida talaffuzda tovush orttiriladi?

- A) o'rim, pasay
- B) g'isht, rost
- C) oid, shoir
- D) go'sht, qirov

133. Qaysi qatorda so'z imlo qoidalariga mos yozilgan?

- A) oshu-non
- B) pastu baland
- C) kecha-yu kunduz
- D) bordiyu-keldi

134. Qaysi qatordagi so'zda imlo xato mavjud?

- A) huquqi
- B) tuproqi
- C) idroki
- D) axloqi

135. Ibora qo‘llanmagan gapni aniqlang.

- A) Tengqurlarim ichida yuzim yorug‘ bo‘ldi.
- B) Tilga ixtiyorsiz-elga e‘tiborsiz.
- C) Mirzakarimboy ilonning yog‘ini yalagan boy edi.
- D) Uni qo‘lga oluvchi kishilarimiz nihoyatda pixini yorgan bo‘lmog‘i shart.

136. *Ochildimi boychechak, Endi har yon gul demak.*

Ushbu gapdagi qo‘shma so‘zni belgilang?

- A) ochildimi
- B) boychechak
- C) gul demak
- D) qo‘shma so‘z yo‘q

137. Quyidagi qaysi so‘zda a harfi o kabi aytilsa ham a yoziladi?

- A) Tonna, bobo
- B) savob, zamon
- C) noyabr, zamon
- D) savob, noyabr

138. e harfi qaysi so‘zlarda i ga monand aytiladi, lekin e yoziladi?

- A) Material, ekran, ne‘mat, teatr
- B) okean, kecha
- C) kecha, telefon, ekran, ne‘mat
- D) material, teatr, okean

139. Ma‘nodosh so‘zlar qatorini belgilang.

- A) shivirladi, gapirdi, baqirdi
- B) uzoq-yaqin
- C) fol-pol
- D) g‘o‘za, chigit

140. Ma‘lum kasb-hunar doirasida aniq bir ma‘noni ifodalash uchun qo‘llaniladigan so‘zlar...

- A) kasbiy atamalar
- B) iboralar
- C) sinonimlar
- D) ilmiy atamalar

141. Qaysi qatordagi so‘zda imlo xato mavjud?

- A) mualif
- B) muattar
- C) soat
- D) maosh

142. Nechta jarangli undoshning jarangsiz jufti bor?

- A) 5 ta
- B) 8 ta
- C) 10 ta
- D) 12 ta

143. Faqat bir tovush bilan farqlanuvchi, talaffuzi bir-biriga yaqin so‘zlar qanday nomlanadi?

- A) omonimlar
- B) sinonimlar
- C) paronimlar
- D) antonimlar

144. Qaysi qatorda ibora mavjud?

- A) Sher-o'rmon podshohi.
- B) Tilimning uchida turibdi.
- C) Do'ppi tikdim ipakdan.
- D) Amir Temur – ulug' sarkarda.

145. Qaysi qatorda shakldosh so'zlar berilgan?

- A) tut, oq, yot
- B) afzal-abzal
- C) yuz, bet, aft, chehra, oraz
- D) buzoq, qo'zichoq, qo'chqor

146. Xursand bo'lmoq so'z birikmasiga teng kaladigan ibora qaysi qatorda berilgan?

- A) belni bog'lamoq
- B) do'ppisini osmonga otmoq
- C) yetti o'lchab bir kesmoq
- D) tishining kovagida saqlamoq

147. Ma'lum bir fan doirasida qo'llaniladigan so'zlar...

- A) kasbiy atamalar
- B) iboralar
- C) sinonimlar
- D) ilmiy atamalar

148. Badiiy uslubga xos bo'lgan gapni aniqlang.

- A) Ma'lumotnoma tuman hokimiyatiga ko'rsatilsin.
- B) Stakanlarning ikkovida ham rangli eritma bor.
- C) "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" mustaqillik sharofatidir.
- D) Butun osmonni bulutlarning og'ir, qalin, qoramtir namati qoplagan.

149. Quyidagi matn qaysi uslubga xos? Bo'yginangdan onang o'rgilsin! Baxtingga tasadduq bo'lay, qizginam! Magistraturang bittimi?

- A) Ilmiy uslubga
- B) So'zlashuv uslubiga
- C) Rasmiy uslubga
- D) Publitsistik uslubga

150. Qaysi qatordagi ajratilgan so'zlar o'zaro shakldosh emas?

- A) Bir yil **tut** ekan kishi yuz yil gavhar teradi. – Yaxshilarning etagini **tut**, adashmaysan.
- B) Yoz o'tmoqda **soz**. – Dutor – eng yaxshi **soz**.
- C) Arg'amchiga **qil** quvvat. – Nomusni yoshlikdan ehtiyot **qil**.
- D) **O't** ishi qovurmoq. – Qalbida ishq **o'ti** alangalandi.

151. Asosan badiiy uslubga xos bo'lgan (izn bermoq) so'zining sinonimini aniqlang.

- A) ixtiyor
- B) erk
- C) nishona

D) ijozat

152. Quyidagi gaplardan ilmiy uslubga tegishlisini belgilang.

- A) Qani endi, barchasi ham senga o'xshasa.
- B) Mayin shamol daraxt yaproqlarini asta tortqilaydi.
- C) Mushfiq onaning hasratlari bir dunyo edi.
- D) Yonishning tashqi belgisi issiqlik va yorug'lik chiqishidir.

153. Har bir fan sohasining o'ziga xos atamalariga tayanuvchi, fikrni aniq va ixcham shaklda bayon qiluvchi uslub qanday nomlanadi?

- A) publitsistik uslub
- B) ilmiy uslub
- C) badiiy uslub
- D) rasmiy uslub

154. Ommaviy axborot vositalari uslubi qanday uslub sanaladi?

- A) publitsistik uslub
- B) ilmiy uslub
- C) badiiy uslub
- D) rasmiy uslub

155. Ariza, dalolatnoma, taklifnoma, qaror singari ish yuritish qog'ozlari qaysi nutq uslubiga mansub?

- A) publitsistik uslub
- B) ilmiy uslub
- C) badiiy uslub
- D) rasmiy uslub

156. Voqelikni badiiy tasvir vositalari orqali ifoda qiluvchi uslub qanday uslub hisoblanadi?

- A) publitsistik uslub
- B) ilmiy uslub
- C) badiiy uslub
- D) rasmiy uslub

157. Atamalarga tayanib, fikrni aniq va ixcham shaklda bayon qiluvchi uslub qanday uslub sanaladi?

- A) publitsistik uslub
- B) ilmiy uslub
- C) badiiy uslub
- D) rasmiy uslub

158. Qaysi nutq uslubi muayyan ijtimoiy masalalarga faol munosabatda bo'lish, hozirjavoblik, ta'sirchanlik belgilariga ega?

- A) publitsistik uslub
- B) so'zlashuv uslubi
- C) badiiy uslub
- D) rasmiy uslub

159. Atamalar, qoidalar, ta'riflar qaysi uslubni hosil qiladi?

- A) publitsistik uslub
- B) ilmiy uslub

- C) badiiy uslub
- D) rasmiy uslub

160. Qaysi qatorda faqat tub soʻzlar qoʻllangan?

- A) diqqat, bayram, ong
- B) sharaflil, ilmi, lolazor
- C) singil, kutubxona, mustaqillik
- D) ziyrak, zehnil, tadbirkor

161. Oʻzbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalaridan qaysi biri 1956-yildan oʻz faoliyatini boshlagan?

- A) Radio
- B) Matbuot
- C) Televideniye
- D) Internet saytlari

162. Qaysi uslubda nutq jamiyatga qaratilgan boʻladi?

- A) ilmiy uslub
- B) badiiy uslub
- C) rasmiy uslub
- D) publitsistik uslub

163. Qaysi uslubda hamma uslubning elementlari namoyon boʻladi?

- A) soʻzlashuv uslubi
- B) badiiy uslub
- C) rasmiy uslub
- D) publitsistik uslub

164. Qaysi uslubda matnlardagi gaplarning kesimi III shaxs majhul nisbatdagi feʻllar orqali ifodalanadi?

- A) soʻzlashuv uslubi
- B) badiiy uslub
- C) rasmiy uslub
- D) publitsistik uslub

165. Oʻzbek tilida nutq uslublarining nechta koʻrinishi bor?

- A) 5 ta
- B) 4 ta
- C) 6 ta
- D) 7 ta

166. Qaysi uslubda irqchilik, isyon, bitim kabi soʻzlar qoʻllaniladi?

- A) soʻzlashuv uslubi
- B) badiiy uslub
- C) rasmiy uslub
- D) publitsistik uslub

167. Oliy Majlis yigʻinlarida, turli anjumanlarda qoʻllaniladigan nutq uslubi qaysi uslub sanaladi?

- A) soʻzlashuv uslubi
- B) badiiy uslub
- C) rasmiy uslub

D) publitsistik uslub

168. *Uydan ketganimga o'n yil bo'libdi,
O'n yil qishlog'imdanda yuribman uzoq,
Men yurgan yo'llarda o'tlar unibdi,
Ko'milib bo'libdi men kezgan so'qmoq.* (A.Oripov)

Yuqorida berilgan parcha qaysi uslub namunasi ekanligini aniqlang.

A) so'zlashuv uslub

B) badiiy uslub

C) rasmiy uslub

D) publitsistik uslub

169. *Yotoqxonada yashovchi talabalar belgilangan tartib-intizom va tozalikka rioya qilmagan taqdirda yotoqxonadan chiqariladi.*

Ushbu gap qaysi uslub namunasi?

A) so'zlashuv uslub

B) badiiy uslub

C) rasmiy uslub

D) publitsistik uslub

170. Quyida keltirilgan gap qaysi uslubga xos?

Ariqlarda suvlar qaymoq bog'lagan.

A) so'zlashuv uslub

B) badiiy uslub

C) rasmiy uslub

D) publitsistik uslub

171. Qochirim, kinoya, pichinglarga boy uslubni belgilang.

A) so'zlashuv uslub

B) badiiy uslub

C) rasmiy uslub

D) publitsistik uslub

172. Qo'shib yoziladigan qo'shma so'z qaysi qatorda berilgan?

A) hech qachon

B) har qanday

C) bir zumda

D) qo'zi qorin

173. Lug'atlarda so'zlar qanday tartibda joylanadi?

A) o'zakka qarab

B) faollik darajasiga ko'ra

C) qo'shimchalariga qarab

D) alifbo tartibida

174. Quyida berilgan parcha qaysi uslub namunasi ekanligini aniqlang.

Ona tili hayotning qon tomiridir. Ona tiliga beparvo bo'lgan xalq halokatga mahkum.

Ovropaliklar ona tillari uchun jonlarini ham, mollarini ham ayamaydilar, chunki biladilar, tili yo'q bo'lsa, millat ham yo'q bo'lib ketadi.

A) so'zlashuv uslub

B) badiiy uslub

C) rasmiy uslub

D) publitsistik uslub

175. Qaysi uslubda jonlantirish, mubolag‘a, sifatlash, o‘xshatish kabi badiiy-tasviriy vositalar ishlatiladi?

- A) so‘zlashuv uslubi
- B) badiiy uslub
- C) rasmiy uslub
- D) publitsistik uslub

176. Quyida adabiyotga kim tomonidan ta’rif berilgan?

Insonni, uning ma’naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo‘lsa so‘z san’ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari, deb ta’riflanishi bejiz emas. Adabiyot, so‘z san’ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo‘lib keladi.

- A) Abdulla Qodiriy
- B) Cho‘lpon
- C) Islom Karimov
- D) Alisher Navoiy

177. 1) Yigit oqimga qarshi suzib, ariqning boshiga yetdi.

2) Qo‘rsligi, bema’ni gaplari, axir uning boshiga yetdi.

3) Ota-bobolar nomini doim esda tutish kerakligini o‘g‘lining qulog‘iga qo‘ydi.

4) Shifokor dorini bolaning qulog‘iga qo‘ydi.

Berilgan gaplarda ajratilgan so‘zlarning qay biri erkin bog‘lanma?

- A) 1,4
- B) 2,3
- C) 1,3
- D) 2,4

178. Tilda antonimi bor so‘zlar guruhini toping

- A) Shahar, sevgi, aniq.
- B) Qarz, hajm, yurak.
- C) Chiqim, quvvat, soch.
- D) Bezovta, keksa, rost

179. *Qo‘lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,*

Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot.

Nasihatim yod qilib ol, farzandim,

Yolo‘iz yursa, chang chiqarmas yaxshi ot.

Berilgan she’riy parchadan so‘zning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra qaysi turi qatnashgan?

- A) Omonimlar
- B) sinonimlar
- C) antonimlar
- D) paronimlar

180. Qaysi jhavobda publitsistik uslubga to‘g‘ri ta’rif berilgan?

- A) voqelikni badiiy tasvir vositalari orqali ifodalash usuli
- B) ommaviy axborot vositalari uslubi
- C) ish yuritish qog‘ozlari uslubi
- D) atamalarga tayanib fikrni aniq va ixcham shaklda bayon qiluvchi uslub

181. Qaysi uslubda ko‘puncha imo-ishoralar, mimikalar bo‘ladi?

- A) so‘zlashuv uslubi

- B) badiiy uslub
- C) rasmiy uslub
- D) publitsistik uslub

182. So‘z va ibora o‘zaro sinonim bo‘lgan qatorni aniqlang.

- A) labi-labiga tegmadi-g‘ing demadi
- B) Qo‘lini yuvib qo‘ltig‘iga urdi-hafsalasi pir bo‘ldi
- C) mum tishladi-og‘ziga tolqon soldi
- D) tinchidi-ko‘ngli joyiga tushdi

183. Qimmat so‘zining antonimi bilan sinonim bo‘la oladigan iborani belgilang.

- A) oshig‘i olchi
- B) mehri baland
- C) suvtekin
- D) bozori chaqqon

184. Qaysi qatorda ibora qo‘llangan?

- A) Men uning tepa sochi tikka bo‘lishini kutmagan edim.
- B) Kumush tola milliy boyligimiz sanaladi.
- C) Aravakash sekin kulimsiradi.
- D) O‘zbekiston Respublikasi bizning Vatanimiz.

185. “Soyaga qarab to‘n bichma” maqolidagi to‘n bichmoq iborasining ma‘nosi qaysi qatorda to‘g‘ri izohlangan?

- A) rag‘batlantirmaslik
- B) andaza olmoq
- C) baho bermoq
- D) xato ish qilmoq

186. Sinonim iboralar berilgan qatorni aniqlang.

- A) yuragiga g‘ulg‘ula tushdi- ko‘ngli joyiga tushdi
- B) qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan- yerga ursa ko‘kka sapchiydi
- C) labi-labiga tegmadi-g‘in demadi
- D) lom-mim demadi-damini chiqarmadi

187. Ibora qatnashmagan gapni toping.

- A) Aravani quruq olib qochish evi bilan-da.
- B) Har qanday temirni zang chiritadi.
- C) U yig‘ilishdan tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib keldi.
- D) Bu xabarni eshitib Azimjonning tepa sochi tikka bo‘ldi.

188. Qaysi qatorda kuchli so‘ziga sinonim bo‘lgan ibora berilgan?

- A) oyog‘idan o‘t chaqnaydi
- B) tekkanga tegib, tegmaganga tosh otadi
- C) do‘ppisini osmonga otadi
- D) tog‘ni ursa tolqon qiladi

189. Qaysi qatorda iboraning ma‘nosi noto‘g‘ri berilgan?

- A) do‘ppisi yarimta- beg‘am
- B) xamirdan qil sug‘urganday-oson
- C) qulog‘idan kun ko‘rinadi-xafa
- D) burni ko‘tarildi-mag‘rurlandi

190. Qaysi qatorda “qildan qiyiq topmoq” iborasining sinonimi berilgan?

- A) ichidan pishgan
- B) yer bilan yakson qilmoq
- C) do‘ppisini osmonga otmoq
- D) tirnoq ostidan kir qidirmoq

191. Ibora qo‘llangan gapni toping.

- A) Ko‘kning fonari o‘chmasdi.
- B) Osmonda po‘lat qushlar parvoz etadi.
- C) U ilm o‘chog‘idan chiqib kelardi
- D) Karima imtihondan dili siyoh bo‘lib qaytdi.

192. “Yoqasini ushlamoq” iborasiga sinonim bo‘lgan so‘zni toping.

- A) g‘azablanmoq
- B) xursand bo‘lmoq
- C) qo‘rqmoq
- D) hayratlanmoq

193. “Ko‘ziga cho‘p solmoq” iborasining ma‘nosini aniqlang.

- A) aldanmoq
- B) g‘azablanmoq
- C) aldamoq
- D) qo‘rqitmoq

194. Yasama so‘zlar berilgan qatorni aniqlang.

- A) sholikor, sayohatchi, baxtli
- B) tinch, zehn, ilm
- C) bilim, odob, kitoblar
- D) yalla, bog‘lar, bastakor

195. Zid ma‘noli so‘zlar qo‘llangan gap qatorini belgilang.

- A) Zamon ishsiz va yalqov odamlarning beomon dushmanidir.
- B) So‘z doriga o‘xshashdir, ortiqchasi zarar keltiradi.
- C) Hayo qalbning haqiqiy ko‘zgusidir.
- D) Do‘stlarning hasadi, dushmanlarning xusumatidan yomondir.

196. Omonim so‘zlar keltirilgan gap qatorini belgilang

- A) g‘ayrat, shijoat, chaqqon
- B) aqli, dono, ziyrak
- C) baxt, saodat, xurram
- D) ot, o‘t, chaqmoq

197. Qaysi qatorda paronim so‘zlar qo‘llangan?

- A) nozik, nafis, ixcham
- B) ko‘z, yoqa, bosh
- C) katta, ulkan, bahaybat
- D) amr, amir, qolmoq, qalmoq

198. Qaysi qatordagi gapda o‘zlashma so‘z qo‘llangan?

- A) Aql ulug‘likka, aqlsizlik tubanlikka yetaklaydi
- B) Ezgu xulq do‘stlikni, yomon xulq dushmanlikni keltiradi.
- C) Kishining himmati baland bo‘lsa, qadr-qiyamati ham baland bo‘ladi.

D) Maktabimizga yangi rusumli kompyuterlar keltirildi.

199. Ibora qo'llangan gap qatorini belgilang.

A) U ochiq, samimiy yigit.

B) Akbarjonning tepa sochi tikka bo'ldi.

C) Deydilarki, kungaboqar umr bo'yi kunga boqar.

D) Odob-aql va imonning chirog'i, obro'-e'tibor sarmoyasidir.

200. So'zlashuv uslubiga xos so'z qo'llangan qatorni aniqlang.

A) Eshikdan ko'zoynak taqqan Xayri xola ko'rindi.

B) Bizni tabriklab qo'ying, onajon, rahbar bo'ldik.

C) Traktorni tomorqamga oborib ishlayapmanmi, olifta-quruq!

D) Ular boshlarini ko'tarib, suyakli muallimni tabassum bilan qarshiladilar.

201. Quyidagi gapning to'qri tarjimasini toping.

У природы есть законы, которые никому не подчиняются, ни от кого не зависят.

A) Tabiatning hech kimga bo'ysunmaydigan va hech kimga bog'liq bo'lmagan qonunlari ko'p

B) Tabiatning hech narsaga moslashtirib bo'lmaydigan va qiyin bo'lgan qonunlari ko'p

C) Tabiatda hech kimga bo'ysunmaydigan va hech kimga taqqoslab bo'lmaydigan qonunlari bor

D) Tabiatning hech kimga bo'ysunmaydigan va hech kimga bog'liq bo'lmagan qonunlari bor

202. Quyidagi so'z birikmalarining to'g'ri tarjimasini toping.

Тёплая вода, горький перец, прочная нитка, интересный рассказ.

A) Issiq suv, achchiq qalampir, uzilmas ip, qiziq suhbat

B) Iliq suv, achchiq qalampir, mustahkam ip, qiziq suhbat

C) Issiq suv, achchiq garmdori, uzilmas ip, qiziq tarix

D) Iliq suv, achchiq qalampir, pishiq ip, qiziq hikoya

203. Quyidagi gapning to'qri tarjimasini toping.

Я очень горжусь, что живу именно в Узбекистане, я очень счастлив творить и создавать для Узбекистана. Я и других призываю горячо любить наш родной Узбекистан/

A) Men O'zbekiston tuprog'ida yashayotganimdan juda g'ururlanaman, O'zbekiston uchun ijod qilish va yaratish baxtiga muyassarman. Men boshqalarni ham jonajon O'zbekistonni qattiq sevishga chaqiraman.

B) Men aynan O'zbekistonda yashayotganimdan juda faxrlanaman, O'zbekiston uchun ijod qilayotganimdan va yaratayotganimdan juda baxtiyorman. Men boshqalarni ham qadrdon O'zbekistonni qattiq sevishga chaqiraman.

C) Men aynan O'zbekistonda yashayotganimdan juda faxrlanaman, O'zbekiston uchun ijod qilish va yaratishdan juda baxtliman. Men boshqalarni ham jonajon O'zbekistonni qattiq sevishga chaqiraman.

D) Men O'zbekistonda yashayotganimdan juda faxrlanaman, O'zbekiston uchun ijod qilayotganimdan va yaratayotganimdan baxtiga egaman. Men boshqalarni ham vatanim O'zbekistonni qattiq sevishga chaqiraman.

204. Berilgan gapning to'g'ri tarjimasini toping.

Мening opam katta fabrikada ishlaydi.

A) Моя сестра работает в большой фабрике.

B) Моя сестра работает на большой фабрике.

С) Моей сестре нравится работать на большой фабрике.

Д) Моя сестра работает в маленькой фабрике.

205. Berilgan gapning to‘g‘ri tarjimasini toping.

Fabrikada uni hamma taniydi va hurmat qiladi.

А) На фабрике все её знают и уважают.

В) В фабрике все её знают и уважают.

С) На фабрике её знают многие и очень уважают.

Д) На фабрике она знает всех и очень всех уважает.

206. Berilgan gapning to‘g‘ri tarjimasini toping.

Bir kuni men opam bilan fabrikaga bordim.

а) Один день я пошёл с сестрой на фабрику.

б) В один день я на фабрику пошёл с сестрой.

в) Однажды я с сестрой пошёл на фабрику.

г) Однажды я пошёл на фабрику к сестре.

207. Berilgan gapning to‘g‘ri tarjimasini toping.

Opam menga ko‘p qiziqarli mashinalarni ko‘satdi.

А) Я сестре показал много интересных машин.

В) Сестра показала мне много интересных машин.

С) Мы с сестрой показали друг другу много интересных машин.

Д) Нам с сестрой показали много интересных машин.

208. Berilgan gapning to‘g‘ri tarjimasini toping.

Fabrikaning devoriy gazetasida men opam haqida maqolani ko‘rdim.

А) На фабричной стенгазете была статья о моей сестре.

В) Для фабричной стенгазеты была написана статья о моей сестре.

С) На стенгазете фабрики я увидел статью о своей сестре.

Д) Для стенгазеты фабрики я написал статью о своей сестре.

209. Berilgan gapning to‘g‘ri tarjimasini toping.

Men o‘zimming opam bilan faxrlanaman.

А) Все гордятся моей сестрой.

В) Меня берёт гордость за свою сестру.

С) Я со своей сестрой очень горжусь.

Д) Я горжусь своей сестрой.

210. Qaysi qatorda so‘zlarning tematik qatori to‘g‘ri keltirilgan?

А) shamol, toshqin, bulut, yomg‘ir, botir

В) kulmoq, qayg‘urmoq

С) jilmaymoq, ertalab, kuyinmoq

Д) choynak, piyola, pichoq, kosa, qoshiq

211. Qaysi gapda “ochiq” so‘zi o‘z ma’nosida qo‘llangan?

А) Mehmonni ochiq chehra bilan kutib ol.

В) U ochiq, samimiy yigit.

С) Abror ko‘ngli ochiqligidan cholning qo‘lini qaytarmadi.

Д) Ularning eshigi ertalabdan ochiq.

212. “Sovuq” so‘zi qaysi gapda ko‘chma ma’noda qo‘llangan?

А) Yuziga sovuq suv sepgandek bo‘ldi.

В) Bu yil qish sovuq keldi.

С) U negadir meni sovuq kutib oldi.

Д) Sovuqdan tishi-tishiga tegmay qaltirar edi.

213. Qaysi gapda eskirgan so‘z qo‘llangan?

А) Mahsulot tannarxi arzonlashtirildi.

- B) Kumushning kulimsirashidan sadafdek oq tishlari ko‘rinib ketdi.
- C) Farmon va qonunlar amalda.
- D) Sho‘ro hukumati o‘z mafkurasiga qarshilarni ayovsiz jazolardi.

214. Yangi paydo bo‘lgan so‘zlar to‘liq berilgan qatorni aniqlang.

- A) ishbilarmon, xo‘jalik, bilim yurti
- B) mafkura, kengash, ittifoq, uyushma
- C) chipta, ilmgoh, haftanoma, ro‘znoma
- D) oliygoh, prezident, ishbilarmon

215. Qaysi javobda o‘zbek shevalariga xos so‘zlar berilgan?

- A) aqli, past, baland, shovqin
- B) ona, xalq, vatan
- C) buzoq, yong‘oq, yoshlik
- D) shoti, moyak, moma, takich

216. Quyidagi so‘zlardan *-lik* qo‘shimchasisiz ishlatib bo‘lmaydigan so‘zlar qatorini toping.

- A) kutubxonachilik, navbatchilik, sutchilik
- B) tirikchilik, kamchilik, xursandchilik
- C) kulolchilik, temirchilik, paxtachilik
- D) baliqchilik, tikuvchilik, pillachilik

217. Joy nomini bildiruvchi so‘zlar qatorini toping.

- A) paxtazor, oshxona, ustaxona, pichanzor
- B) kutubxona, paxtakor, suvchi
- C) bedazor, suvchi, aravakash, qarindosh
- D) kurashchi, darvozabon, temirchi, ekinzor

218. Sizning she‘r... menga juda yoqdi. Uch nuqta o‘rnida qanday qo‘shimcha qo‘llanishi kerak?

- A) -ing
- B) -imiz
- C) -lari
- D) -ingiz

219. Javoblarning qaysi birini so‘roq gap deb bilasiz?

- A) Tez va sifatli teraylik.
- B) Amir Temur muzeyida bo‘lganmisiz.
- C) Bizning guruhdan ham ma‘lumot borgan ekan.
- D) Buqdoy o‘rimi boshlandi.

220. *-lar* affiksi hurmat ma‘nosida ishlatilgan gapni aniqlang.

- A) Bolalar ertakni sevadilar.
- B) Ukalarim televizorda ertak ko‘rdilar.
- C) Buvimlar menga ertak aytib berdilar.
- D) Hammalaringiz ertak eshitinglar.

II SEMESTR

1. Ishonchni bildirgan modal soʻz qaysi gapda berilgan?

- A) Menimcha, qahramonlikdagina emas, har bir xatti-harakatda, hatto eng oddiy, mayda ishda ham bir mantiq, maʼno, mazmun, maqsad boʻlishi kerak.
- B) Esiz taqdir ekan qaydan bilibmiz.
- C) Afsuski, men uning otini bilolmay qoldim.
- D) Shubhasiz, biz gʻolib boʻlamiz.

2. ***Oʻzbekistonda chiroyli joylar koʻp.***

Berilgan gapni gap boʻlaklari boʻyicha tahlil qiling.

- E) Kesim, ega, hol
- F) Kesim, ega, toʻldiruvchi
- G) Kesim, ega, aniqlovchi, hol
- H) Kesim, ega, hol

3. Qaysi qatorda ega ibora bilan ifodalangan?

- A) Uning oyoq olishi bizga yoqmadi.
- B) Koʻkka boqqan qoqilar.
- C) Bu-mening Vatanim.
- D) Uzoqdan otlarning dupuri eshitildi.

4. Qaysi gapda tovushga taqlid soʻz qatnashgan?

- A) Chiroq lip-lip etdi.
- B) Bezgak xuruj qilganday lablari pir-pir uchardi.
- C) Dupur-dupur ot keldi.
- D) Ummatali dagʻ-dagʻ titrardi.

5. ***Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak.***

Berilgan gapdagi bogʻlovchining turini toping.

- E) Zidlov bogʻlovchisi
- F) Ayiruv bogʻlovchisi
- G) Inkor bogʻlovchisi
- H) Biriktiruv bogʻlovchisi

6. ***Sabr sekin yuradigan ulovdir.***

Berilgan gapdagi bosh boʻlaklarni toping.

- E) Sabr,ulovdir
- F) Ulovdur
- G) Sekin, yuradigan
- H) Sabr

7. ***qizil gul, yotgan bola.***

Soʻz birikmasining turini va ruscha muqobilini toping.

- A) moslashuv, красный цветок, лежащий ребенок.
- B) teng bogʻlanish, красный цветок, лежащий ребенок.
- C) bitishuv, красный цветок, лежащий ребенок.
- D) boshqaruv, красный цветок, лежащий ребенок.

8. Gapda bosh va ikkinchi darajali boʻlakli gaplarning ishtirokiga koʻra gaplar qanday turlarga boʻlinadi?

- A) sodda va qoʻshma gap

- B) sodda yoyiq va sodda yig'iq gap
- C) darak gap va so'roq gap
- D) qo'shma gap

9. Qaysi qatorda sodda yig'iq gap berilgan?

- A) Osmonni bulut qopladi.
- B) Bahorning fayzli kunlari boshlandi.
- C) Derazamning oldida o'rik oppoq bo'lib gulladi.
- D) Musiqa tindi.

11. Voqea-hodisalarni bevosita, jonli aks ettiruvchi, tezkor yoritib beruvchi publitsistik uslub janrini toping.

- C) taqriz
- D) annotatsiya
- C) reportaj
- D) intervyu

12. Publitsistik uslubning qaysi janrida fakt, voqea va hodisalar haqida bevosita, o'sha voqea-hodisa bo'lib o'tayotgan paytda, shu voqea va hodisalar yuz berayotgan joydan to'g'ridan to'g'ri xabar beriladi?

- A) intervyu
- B) annotatsiya
- C) reportaj
- D) taqriz

13. Berilgan gaplar qaysi uslub namunasi ekanligini toping.

1. Kundan kunga yashnamoqda ko'rking, jamoling. 2. Barnoning fikri bulut bosgan osmonday qorong'ilashdi-yu, ko'z oldini tuman chulg'adi. 3. Ko'klam har yilgidan erta keldi. Fusunkor jamoli bilan hammayoqni go'zallikka chulg'adi.

- A) so'zlashuv
- B) badiiy
- C) publitsistik
- D) ilmiy

14. Quyida berilgan gapning qaysi uslub namunasi ekanligini aniqlang.

1. Shomahdiyevning qiligi ma'lum: jahli chiqib bir sannab ketsa, uning chakagini bosish asov tuyani cho'ktirishdek mashaqqat. 2. Qizlaringizni jerkiysiz, so'kasiz... Xo'sh, nima uchun To'lanni yumshoq paxtaga o'rab papalaysiz?!

- E) publitsistik uslub
- B) ilmiy uslub
- C) badiiy uslub
- D) rasmiy uslub

15. Quyidagi gap qaysi uslubga xosligini belgilang: «Bu dunyoda hech kim hech narsani orqalab ketmaydi, o'rgilay».

- A) ilmiy uslub
- B) badiiy uslub
- C) publitsistik uslub
- D) rasmiy uslub

16. Intervyu nima?

- E) Berilgan mavzu bo'yicha yozilgan qisqa axborot. Muhokama etilayotgan masala haqida umumiy tushuncha berish.
- F) Matbuot, radio yoki televideniya berish uchun muxbirning biror shaxs bilan o'tkazgan suhbat.
- G) Voqea – hodisalarni bevosita, jonli aks ettiruvchi, tezkor yoritib beruvchi informatsion janr.
- H) Badiiy, ilmiy, metodik asarlarning manbasi va unda ko'tarilgan masalani ko'rsatishga qaratilgan qisqa xabar.

17. Reportajga berilgan to'g'ri ta'rifni toping.

- E) Berilgan mavzu bo'yicha yozilgan qisqa axborot. Muhokama etilayotgan masala haqida umumiy tushuncha berish.
- F) Matbuot, radio yoki televideniya berish uchun muxbirning biror shaxs bilan o'tkazgan suhbat.
- G) Voqea –hodisalarni bevosita, jonli aks ettiruvchi, tezkor yoritib beruvchi informatsion janr.
- H) Badiiy, ilmiy, metodik asarlarning manbasi va unda ko'tarilgan masalani ko'rsatishga qaratilgan qisqa xabar.

18. “Oq kema”, “Asrga tatigulik kun”, “Tog‘lar qulaganda” (“Mangu kelinchak”) asarlarining muallifini toping.

- E) Abay Qo‘nonboev
- F) Chingiz Aytmatov
- G) Odil Yoqubov
- H) Rasul Hamzatov

19. Qaysi qatorda berilgan gapda ibora ishtirok etgan?

- E) Mirzakarimboyning qo‘li uzun, bu ishlarni uddalaydi.
- F) Vodorodning metallmas moddalar: xlor va azot bilan birikishi reaksiyasi asosida sanoatda xlorid kislota va ammiak ishlab chiqariladi.
- G) Bolalar daraxtga shoti qo‘yib, qushlar uchun in o‘rnatdilar.
- H) Hunari yo‘q kishidan, bigizi bor yamoqchi yaxshi.

20. Qaysi qatorda berilgan gapda kasb-hunarga oid atama ishtirok etgan?

- E) Mirzakarimboyning qo‘li uzun, bu ishlarni uddalaydi.
- F) Vodorodning metallmas moddalar: xlor va azot bilan birikishi reaksiyasi asosida sanoatda xlorid kislota va ammiak ishlab chiqariladi.
- G) Bolalar daraxtga shoti qo‘yib, qushlar uchun in o‘rnatdilar.
- H) Hunari yo‘q kishidan, bigizi bor yamoqchi yaxshi.

21. Hujjat matnida izohlanayotgan voqea-hodisa, narsalarning tartib raqami qavs bilan ajratilgan bo‘lsa, so‘z, birikma va gaplardan so‘ng qanday tinish belgi ishlatiladi?

- E) qavs
- F) vergul
- G) nuqtali vergul
- H) tire

22. Hujjat matnining biror bo‘lagiga qo‘shimcha izoh berish zarurati bo‘lganda, izohlovchi so‘z, manzil nomi, mablag‘ yoki miqdoriy ko‘rsatkichni ifodalovchi raqamlarda qanday tinish belgi ishlatiladi?

- E) qavs
F) vergul
G) nuqtali vergul
H) tire
23. Qaysi qatorda berilgan gapda ilmiy atama ishtirok etgan?
E) Mirzakarimboyning qo‘li uzun, bu ishlarni uddalaydi.
F) Vodorodning metallmas moddalar: xlor va azot bilan birikishi reaksiyasi asosida sanoatda xlorid kislota va ammiak ishlab chiqariladi.
G) Bolalar daraxtga shoti qo‘yib, qushlar uchun in o‘rnatdilar.
H) Hunari yo‘q kishidan, bigizi bor yamoqchi yaxshi.
24. Qaysi qatorda berilgan gapda shevaga xos so‘z ishtirok etgan?
E) Mirzakarimboyning qo‘li uzun, bu ishlarni uddalaydi.
F) Vodorodning metallmas moddalar: xlor va azot bilan birikishi reaksiyasi asosida sanoatda xlorid kislota va ammiak ishlab chiqariladi.
G) Bolalar daraxtga shoti qo‘yib, qushlar uchun in o‘rnatdilar.
H) Hunari yo‘q kishidan, bigizi bor yamoqchi yaxshi.
25. Yaxshi bo‘lgin, hatto dushmaning oson,
Seni deyolmasin yaramas-yomon.
Berilgan parchada so‘zning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra qaysi turi ishtirok etgan?
E) Shakldosh so‘zlar
F) Ma‘nodosh so‘zlar
G) Zid ma‘noli so‘zlar
H) Paronimlar
26. Yaxshi bo‘lgin, hatto dushmaning oson,
Seni deyolmasin yaramas-yomon.

*Tanburning ovozi soz chiqib tursa,
Qulog‘in buramas sozchi hech qachon. (S. Sheroziy)*
Berilgan parchada ajratib ko‘rsatilgan so‘z so‘zning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra qaysi turiga mansub?
E) Shakldosh so‘z
F) Ma‘nodosh so‘z
G) Zid ma‘noli so‘z
H) Paronim
27. Bog‘lovchilar ma‘nosiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
E) Zidlov va ayiruv
F) Teng va ergashtiruvchi
G) Sof va vazifadosh
H) Biriktiruv va inkor
28. Qaysi qatorda faqat teng bog‘lovchilar berilgan?
E) Ya‘ni, chunki, ammo, balki
F) Negaki, balki, va, biroq
G) Hamda, ham, ammo, lekin
H) Yo...yo, goh...goh, ya‘ni, toki

29. *Barchasini tinglardim ammo,
O'xshashini topmasdim also.*
Berilgan she'riy parchada ma'nosiga ko'ra qanday bog'lovchi qatnashgan?
E) Biriktiruv bog'lovchisi
F) Zidlov bog'lovchisi
G) Ayiruv bog'lovchisi
H) Inkor bog'lovchisi
30. *Na oltin, na javohir edim,
Armonli bir yosh shoir edi.*
Berilgan she'riy parchada ma'no jihatdan bog'lovchining qaysi turi qatnashgan?
I) Biriktiruv bog'lovchisi
J) Zidlov bog'lovchisi
K) Ayiruv bog'lovchisi
L) Inkor bog'lovchisi
31. O'zbek tilidagi mustaqil so'z turkumlarini toping.
E) ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe'l
F) ot, sifat, bog'lovchi, fe'l, undov so'z
G) ot, sifat, son ko'makchi, modal so'z, taqlid so'z
H) ot, sifat, son, fe'l, yuklama, bog'lovchi
32. Qaysi qatorda ot so'z turkumiga oid so'zlar berilgan?
E) Chol, nabira, barno, ko'hlik
F) Men, sen, biz, u
G) Sekin, ko'p, ertalab, kam
H) Tog'a, xola, gazeta, bilim
33. Qaysi qatorda ilmiy atamalar berilgan?
E) Uchak, go'sala, mo'rcha, kallapo'sh
F) Ildiz, musbat, urug'chilik, tenglama
G) Quyosh, qo'shiq, barcha, kelmoq
H) Qolip, betlik, charm, poshna
34. Quyida qaysi qatorda uslubiy betaraf so'zlar berilgan?
E) Mashina, kitob, bor, qora, sovuq
F) Sessiya, chehra, ko'klam, oftob
G) Bemor, bashar, tinchliksevar, mafkura
H) Faqat, integral, tanovul qilmoq, bayon etmoq
35. Uslubiy xoslangan so'zlar berilgan qatorni toping.
E) Mashina, kitob, bor, qora, sovuq
F) Sessiya, chehra, ko'klam, oftob
G) Dugona, inson, avlod, himoya
H) Qizil, eshik, shamol, shirin
36. Qaysi qatorda uslubiy betaraf so'zlar berilgan?
E) Uchak, go'sala, mo'rcha, kallapo'sh
F) Ildiz, musbat, urug'chilik, tenglama
G) Quyosh, qo'shiq, barcha, kelmoq

- H) Qolip, betlik, charm, poshna
37. Quyosh damini g'ir-g'ir esgan shamol kesar edi. Mazkur gapdagi **g'ir-g'ir** so'zi qanday so'z?
- A) taqlid so'z B) juft so'z
C) undov so'z D) yuklama
38. *Hormanglar! – dedi O'lmas baralla.*
Ushbu gapdagi **hormanglar** so'zi qaysi so'z turkumiga mansub?
- A) ot B) ravish
C) modal so'z D) undov so'z
39. Tarkibida his-hayajon undovi bo'lgan gaplarni toping?
- A) O 'g'lim, umringizdan baraka toping!
B) Hay, Oynisa buvingni chaqir.
C) Qumri, axir ukangga qarasang-chi, ichagi uzilib ketdi-ku!
D) Voy, nega qulluq qilishar ekan?
40. *Shoikrom onasining barmoqlari tars-tars yorilib ketganini endi payqadi.*
Berilgan parchada ajratilgan so'ga izoh bering.
- B) Taqlid so'z C) Undov so'z
F) Bog'lovchi D) Ko'makchi
41. Toshkent kimyo-texnologiya instituti nechanchi yildan alohida institut sifatida faoliyat yurita boshladi.
- A) 1990-yil
B) 1991-yil
C) 1940-yil
D) 1992-yil
32. *Oq kun – baxt-u saodat,
Qora kun – g'am, musibat.*
Berilgan parchada so'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qaysi turi bor?
- E) Shakldosh so'z, paronim so'z
F) Ma'nodosh so'z, omonim so'z
G) Zid ma'noli so'z, paronim so'z
H) Zid ma'noli so'z, ma'nodosh so'z
33. Shevaga xos birlik ishtirok etgan gapni toping.
- A) Dohiy o'rnidan turib, to'rt tarafga qaray-qaray nutq irod eta ketdi.
B) Muhrdor chaqirtirildi va qog'ozdagi farmoyishlarga podshoning muhri bosildi.
C) Shundoq ketivossam, ro'paramdan ikkita davangi kevotti.
D) Ikki g'arib bir yoqadan bosh chiqargan edik.
34. Ibora ishtirok etgan gapni toping.
- A) Dohiy o'rnidan turib, to'rt tarafga qaray-qaray nutq irod eta ketdi.
B) Muhrdor chaqirtirildi va qog'ozdagi farmoyishlarga podshoning muhri bosildi.
C) Shundoq ketivossam, ro'paramdan ikkita davangi kevotti.
D) Ikki g'arib bir yoqadan bosh chiqargan edik.
35. **Opti, kepti, na'lat, ko'ynak** kabi so'zlar qaysi nutqiy uslubda uchraydi?

- A) badiiy uslub
C) ilmiy uslub
- B) publitsistik uslub
D) so‘zlashuv uslubi

36. Qaysi qatorda ***kulmoq*** so‘zining ijobiy bo‘yoqqa ega so‘zi qatnashgan?
A) Aravaning oldida g‘ozapoya orasidan iljaygan kalla ko‘rindi.
B) Qiz Umidga qarab jilmaydi.
C) Orqasiga qarasa tunov kungi buldozerchining tirjayib turganini ko‘rdi.
D) Haligi odam dami ichiga tushib, ming‘irlagancha nari ketdi.
37. Modal so‘z qaysi gap tarkibida bor?
A) Bu yerda na tom, na deraza bor edi.
B) Faqat o‘shalar sen bilan gaplashishsin.
C) Bu, ehtimol, uning butun hayoti uchun muhimdir.
D) Ertasiga onasi quda tomonga odam yubordi.
38. Taqlidiy so‘zlar berilgan so‘zlar qatorni toping.
A) eh, oh, voy-bo‘
B) qars-qurs, taqir-tuqur, shiq-shiq
C) oh-voh, voy-dod, dod-faryod
D) marhamat, qulluq, rahmat
39. *Ko‘chada bolalarning qiy-chuvi eshitildi.* Ajratib ko‘rsatilgan so‘zning turkumini aniqlang.
A) modal so‘z
C) kirish so‘z
- B) undov so‘z
D) taqlid so‘z
40. Undov so‘zlar berilgan qatorni toping.
A) albatta, shubhasiz, hatto
B) axir, faqat, xuddi
C) koshki, zero, haqiqatdan
D) rahmat, qulluq, ofarin
41. Qanday matn tarkibida so‘roq olmoshlari, muomala odobiga oid so‘z va iboralar, yuklamalar, undovlar, kirish so‘zlar keng qo‘llanadi. Gaplar, asosan, sodda gaplardan tashkil topadi, sodda gaplarning bir tarkibli turlari, to‘liqsiz gaplar, so‘z-gaplar faol ishlatiladi?
A) monologik matn
B) dialogik matn
C) lirik monolog
D) dramatik monolog
42. Hajm belgisiga ko‘ra matn qanday turlarga bo‘linadi?
E) Mikromatn va makromatn
F) Monologik va dialogik matn
G) Buyruq mazmunli va xabar mazmunli matnlar
H) Tasviriy va hikoya mazmunli matnlar
43. Matn bu...
E) Muayyan tilda, uning hududiy yoki ijtimoiy lahjasida mavjud bo‘lgan, u yoki bu yozuvchi asarlarida uchraydigan so‘zlar yig‘indisi.

- F) Hamma elementlari o‘zaro zich aloqada bo‘lgan va yozuvchi nuqtayi nazaridan ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan nominativ-estetik axborotni ifodalovchi murakkab tuzilma.
- G) Berilgan mavzu bo‘yicha yozilgan qisqa axborot. Muhokama etilayotgan masala haqida umumiy tushuncha berish.
- H) Badiiy, ilmiy, metodik asarlarning manbasi va unda ko‘tarilgan masalani ko‘rsatishga qaratilgan qisqa xabar.

44. Makromatnda so‘ngsiz, tugallanuvchi xulosa nima deyiladi?

- E) Abzas
- F) Muqaddima
- G) Epigraf
- H) Xotima

45. Kimgadir pand-nasihat qilish, uni turli hayotiy voqealar vositasida tarbiyalash yoki aytilganlardan xulosa chiqarishga o‘rgatish istagi asosida tuzilgan matn qanday nomlanadi?

- E) Hikoya mazmunli matn
- F) Tasviriy matn
- G) Didaktik matn
- H) Buyruq mazmunli matn

46. Quyida berilgan uslubiy xoslangan so‘zlardan haykaltaroshlikka oid atamalarni toping.

- E) Haykaltaroshlik, keramika, naturmort
- F) Monumental haykal, ganchkor, byust
- G) Arkada, vandalizm, akvarelchi, haykal
- H) Haykal, monumental haykal, keramika, byust

47. Sanalar to‘g‘ri yozilgan javobni toping.

- A) 22.IX.14; 17.X.14
- B) 2014.25.09; 06.11.14
- C) 2018.25.09; 2018.06.11
- D) 25.09.2014; 17.10.2014

48. O‘zbek tilida so‘z birikmasi va gap turlarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limini toping.

- E) Morfologiya
- F) Sintaksis
- G) Fonetika
- H) Leksikologiya

49. Qaysi qatorda so‘z birikmasi berilgan?

- E) opam va kitob, siz bilan biz
- F) opamning kitobi, qizil gul
- G) burni ko‘tarilmoq, qovog‘i osilmoq
- H) salom bermoq, borib kelmoq

50. **Mehnat va qunt bilan** bajarilgan ish doimo sifatli bo‘ladi. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar qanday birikkan?

- E) Teng bog‘lanish
- F) Tobe bog‘lanish
- G) Ibora

H) Qo‘shma so‘z

51. *Sen mangusan, baqosan,
Men esam o‘tkinchi zot.
Sen hamisha bahorsan,
Men – lahzalik xotirot.*

Berilgan parchada so‘zning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra qaysi turi bor?

- E) Shakldosh so‘z
- F) Ma‘nodosh so‘z
- G) Zid ma‘noli so‘z
- H) Paronim

52. Qarama-qarshi, zid ma‘noli so‘zlarni aniqlang.

- A) Shodliklarim siz tanho, alamlarim siz mening.
- B) O‘qituvchining esa hech narsadan xabari yo‘q edi.
- C) Akrom maktabga keldi, lekin darsga kirmadi.
- D) Uning yuragiga qil ham sig‘mas edi.

53. O‘zbek tilida so‘z turkumlari tilshunoslik fanining qaysi bo‘limida o‘rganiladi?

- A) morfologiya
- B) sintaksis
- C) fonetika
- D) leksikologiya

54. A.Navoiy “Xamsa” asariga kiruvchi dostonlar ketma-ketligi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A) “Hayrat-ul abror”, “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Saddi Iskandariy”, “Sab‘ai sayyor”
- B) “Hayrat-ul abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab‘ai sayyor”, “Saddi Iskandariy”
- C) “Hayrat-ul abror”, “Sab‘ai sayyor”, “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Saddi Iskandariy”
- D) “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Hayrat-ul abror”, “Sab‘ai sayyor”, “Saddi Iskandariy”

55. O‘zbekistonda oliy ta‘lim tizimi nechanchi yilda 2 bosqichli, ya‘ni bakalavr va magistratura tizimiga o‘tdi?

- E) 1998-yil
- F) 1996-yil
- G) 2000-yil
- H) 1997-yil

56. Qaysi qatorda dialogik matn namunasi berilgan?

- E) Abdulla Qodiriy o‘ziga yaqin bo‘lgan qardosh xalqlar adabiyotlari, xususan, ozarbayjon, rus, tatar adabiyotlari tajribalaridan foydalanib, birinchi o‘zbek romani – Yevropa adabiyoti mezonlari bilan o‘lchanadigan roman yaratdi.
- F) Uzilgan bir kiprik abad yo‘qolmas,
Shunchalar mustahkam xonai xurshid.
- G) Dedi: Nedur senga olamda pesha?
Dedi: Ishq ichra majnunliq hamesha.
- H) Orzum shul, o‘chmasin yongan chirog‘ing,

Yulduzday nur sochsini chashming-qarog'ing.

57. Qaysi qatorda moslashuvli birikmaga misol berilgan?
E) Zavq bilan tinglamoq
F) Institut binosi
G) Kitob va daftar
H) Kitob o'qimoq
58. *Qish der: "Kumush qorim bor, Qorbobo yasang!"*
Berilgan parchada ajratilgan bo'lak so'z birikmasining qaysi turiga mansub?
E) Moslashuv
F) Bitishuv
G) Boshqaruv
H) So'z qo'shilmasi
59. Qaysi qatorda boshqaruvli birikma berilgan?
E) Kitobni o'qimoq, uyga kelmoq
F) Qizil qalam, chiroyli gul
G) Institut talabalari, qiziqarli kitob
H) Sayr qilmoq, odobli qiz
60. *Mayin shamol, sovuq havo* birikmalarini izohlang.
E) Moslashuvli birikma
F) Bitishuvli birikma
G) Boshqaruvli birikma
H) Teng bog'lanish
61. Hamma elementlari o'zaro zich aloqada bo'lgan va yozuvchi nuqtayi nazaridan ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan nominativ-estetik axborotni ifodalovchi murakkab tuzilma....
A) Matn
B) Taqriz
C) Annotatsiya
D) Rezume
62. "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasida urushning so'nggi qurboni kim?
A) Umri xola
B) Saodat kampir
C) Shoikrom
D) Unsin
63. A. Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani qahramonlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) Zaynab, Otabek, Solih Mahdum
B) Kumush, Otabek, Miryoqub
C) Kumush, Otabek, Yusufbek hoji
D) Hasanali, Otabek, Mirzakarimboy
64. Gapning bosh bo'laklari qaysilar?
A) Aniqlovchi, hol
B) To'ldiruvchi, ega
C) Kesim, ega

D) Aniqlovchi, kesim

65. Gapning ikkinchi darajali bo‘lamlari qaysilar?

- A) Ega, undalma, kesim
- B) Aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol
- C) Undalma, hol, kirish so‘z
- D) To‘ldiruvchi, ega, kesim

66. ***Kechiktirilgan o‘yin bugun o‘tkazildi.*** Berilgan gapdagi bosh bo‘lamlarni toping.

- E) Kechiktirilgan o‘yin
- F) Bugun o‘tkazildi
- G) O‘yin o‘tkazildi
- H) O‘tkazildi.

67. *Amaliy san‘at – прикладное искусство*

Naqqoshlik – живопись

Kulol - гончар

Ushbu misol qaysi lug‘atdan olingan?

- A) Bir tilli lug‘at
- B) Ko‘p tilli lug‘at
- C) Izohli lug‘at
- D) Ensiklopedik lug‘at

68. ***Xat yashil qalamda yozilgan edi.***

Berilgan gapdan ega va kesimni toping?

- E) Xat yozilgan edi
- F) Qalamda yozilgan edi
- G) Yashil qalam
- H) Yozilgan edi

69. Qaysi gap bo‘lagi gapning markazi hisoblanadi.

- A) ega
- B) kesim
- C) hol
- D) to‘ldiruvchi

70. Monologik nutqning qaysi turida so‘zlovchining ichki his-tuyg‘ulari, ruhiy kechinmalari, orzu-umidlari, tashqi dunyodan olgan taassurotlari, kelajak rejalari ifodalanadi?

- A) ichki monolog
- B) lirik monolog
- C) dramatik monolog
- D) xabar monolog

71. Qaysi qatorda berilgan gapda tagiga chizilgan so‘z omonimlik hosil qila oladi?

- A) Shamol bo‘lmasa daraxt shoxi qimirlamaydi.
- B) Shiroq xiyla bilan dushmanni mag‘lub qildi.
- C) Mahsulot o‘ramiga yaroqlilik muddati yozib qo‘yilgan.
- D) Qars ikki qo‘ldan chiqadi.

72. Rus tilida мечта человека birikmasining tarjimasini qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

- A) inson va orzu

- B) inson orzusi
 - C) insonda orzu
 - D) insoniy orzu
73. Muayyan tilda, uning hududiy yoki ijtimoiy lahjasida mavjud bo'lgan, u yoki bu yozuvchi asarlarida uchraydigan so'zlar yig'indisi nima?
- A) matn
 - B) lug'at
 - C) tavsifiy matn
 - D) polilog
74. Lug'atning qaysi turida so'zlarning o'zini emas, ular orqali bildiriladigan predmet va tushunchalar izohlanadi, tushuntiriladi?
- E) filologik lug'at
 - F) ensiklopedik lug'at
 - G) izohli lug'at
 - H) imlo lug'at
75. So'zlarni tavsiflash, ma'lumotlarni qamrab olishi va tuzilishiga ko'ra lug'atlar qanday turlarga bo'linadi?
- A) bir tilli va ko'p tilli lug'atlar
 - B) qomusiy va filologik lug'atlar
 - C) imlo va izohli lug'atlar
 - D) tarjima lug'atlar va ensiklopedik lug'atlar
76. *Menejment - zamonaviy ishlab chiqarishni boshqarish (rejalash, tartibga solish, nazorat qilish, shuningdek ishlab-chiqarishga rahbarlik qilish, uni tashkil etish; boshqarish to'g'risidagi fan.*
- Berilgan ma'lumot qaysi lug'atdan olingan?
- E) Ensiklopedik lug'at
 - F) Izohli lug'at
 - G) Tarjima lug'at
 - H) Etimologik lug'at
77. Qaysi qatorda ensiklopedik lug'atga tegishli misol berilgan?
- E) Lochin – yirtqich qushlar turkumining lochinsimonlar oilasiga mansub qush. 20 dan ortiq kenja turi mavjud. Qushlar va baliqlar bilan oziqlanadi.
 - F) Adib –adabiy asarlar ijodkori, Adip- to'n, xalat kabilarning chetiga tikiladigan ensiz mato-mag'iz.
 - G) Strategiya – maqsadga erishishning uzoq muddatli rejasi; ijtimoiy-siyosiy hayotni taraqqiy qildirish, shuningdek boshqaruvni, uzoq muddatli, to'g'ri va istiqbolli rejalashtirish.
 - H) Azob, aziyat, jabr, jaf, zahmat, alam. Ruhiy yoki jismoniy qiynoq.
78. Qaysi qatorda izohli lug'atga tegishli misol berilgan?
- E) Lochin – yirtqich qushlar turkumining lochinsimonlar oilasiga mansub qush. 20 dan ortiq kenja turi mavjud. Qushlar va baliqlar bilan oziqlanadi.
 - F) Adib –adabiy asarlar ijodkori, Adip- to'n, xalat kabilarning chetiga tikiladigan ensiz mato-mag'iz.

- G) Strategiya – maqsadga erishishning uzoq muddatli rejasi; ijtimoiy-siyosiy hayotni taraqqiy qildirish, shuningdek boshqaruvni, uzoq muddatli, to‘g‘ri va istiqbolli rejalashtirish.
- H) Azob, aziyat, jabr, jafo, zahmat, alam. Ruhiy yoki jismoniy qiynoq.
79. Qaysi qatorda paronimlarning izohli lug‘atiga tegishli misol berilgan?
- E) Lochin – yirtqich qushlar turkumining lochinsimonlar oilasiga mansub qush. 20 dan ortiq kenja turi mavjud. Qushlar va baliqlar bilan oziqlanadi.
- F) Adib –adabiy asarlar ijodkori,
Adip- to‘n, xalat kabilarning chetiga tikiladigan ensiz mato-mag‘iz.
- G) Strategiya – maqsadga erishishning uzoq muddatli rejasi; ijtimoiy-siyosiy hayotni taraqqiy qildirish, shuningdek boshqaruvni, uzoq muddatli, to‘g‘ri va istiqbolli rejalashtirish.
- H) Azob, aziyat, jabr, jafo, zahmat, alam. Ruhiy yoki jismoniy qiynoq.
80. Qaysi qatorda sinonimlarning izohli lug‘atiga tegishli misol berilgan?
- E) Lochin – yirtqich qushlar turkumining lochinsimonlar oilasiga mansub qush. 20 dan ortiq kenja turi mavjud. Qushlar va baliqlar bilan oziqlanadi.
- F) Adib –adabiy asarlar ijodkori,
Adip- to‘n, xalat kabilarning chetiga tikiladigan ensiz mato-mag‘iz.
- G) Strategiya – maqsadga erishishning uzoq muddatli rejasi; ijtimoiy-siyosiy hayotni taraqqiy qildirish, shuningdek boshqaruvni, uzoq muddatli, to‘g‘ri va istiqbolli rejalashtirish.
- H) Azob, aziyat, jabr, jafo, zahmat, alam. Ruhiy yoki jismoniy qiynoq.
81. Quyidagi gapning to‘g‘ri tarjimasini belgilang. **В нашей стране много красивых городов.**
- A) Bizning mamlakatimizda chiroyli shaharlar ko‘p.
- B) Bizning mamlakatimizda chiroyli shaharlar bor.
- C) Bizning mamlakatimizda chiroyli shaharlar anchagina.
- D) Mamlakatimiz chiroyli shaharlarga boy.
82. ***Men Vatanni bog‘ deb aytsam, Sensan unda bitta gul.***
Berilgan gapdagi so‘z turkumlarini toping.
- E) Ot, olmosh, sifat, fe‘l
- F) Ot, olmosh, son, fe‘l
- G) Ot, ravish, son, fe‘l
- H) Ot, son, fe‘l, modal so‘z
83. **Men ukamdan tez-tez xat olib turaman** jumlasining rus tilidagi muqobilini toping.
- A) Я от старшего брата получил письмо.
- B) Я не часто получаю письмо от брата.
- C) Я только что получил письмо от младшего брата.
- D) Я часто получаю письмо от младшего брата.
84. **Insoniyat taqdiri** birikmasining rus tilidagi to‘g‘ri tarjimasini toping.
- A) душа человечества
- B) человеческое сознание
- C) судьба человека
- D) судьба человечества
85. Vatanimizda nechanchi yil Amir Temur yili deb e‘lon qilindi?

- A) 1996-yi
- B) 1997-yil
- C) 1995-yil
- D) 1998-yil

86. *Biror faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga taalluqli bo'lgan va bilimlar, malakalarni egallashning tezkorligi, yengilligini izohlab beradigan xususiyatdir.*

Izohlangan terminni toping.

- E) Qiziqish
- F) Idrok
- G) Tafakkur
- H) Qobiliyat

87. Qaysi qatorda gapning ikkinchi darajali bo'laklari berilgan?

- E) Ega, kesim
- F) Ega, aniqlovchi, hol
- G) Aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol
- H) Kesim, hol

88. **Kechiktirilgan o'yin bugun o'tkazildi.**

Berilgan gapda qatnashgan gap bo'laklarini toping.

- E) Ega, kesim, to'ldiruvchi, hol
- F) Ega, kesim, aniqlovchi, hol
- G) Kesim, hol, aniqlovchi
- H) Aniqlovchi, hol, ega

89. **Zavq bilan tinglamoq, qunt bilan o'qimoq, bugun kelmoq**
birikmalarida qaysi gap bo'lagi kesimni izohlab kelgan?

- C) Aniqlovchi
- D) Hol
- E) Ega
- F) To'ldiruvchi

90. Qaysi gap bo'lagi qanday?, qanaqa? qaysi? so'roqlariga javob bo'ladi?

- C) Ega
- D) Hol
- E) To'ldiruvchi
- F) Aniqlovchi

91. Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlari to'g'ri sanalgan javobni toping.

- A) His-hayajon gap, undov gap, so'z gap
- B) Darak gap, buyruq gap, so'roq gap
- C) His-hayajon gap, undov gap, so'roq gap
- D) Undov gap, so'z gap, darak gap

92. Darak gap berilgan javobni toping.

- A) Nimadan xafa bo'ldingiz?
- B) Terim sur'atini kuchaytiraylik.
- C) Qo'li baland bo'lsin!
- D) Paxta terimi boshlandi.

93. So‘roq gap berilgan javobni toping.
- A) Eh, bu vodiy naqadar go‘zal
 - B) Yaqin kelma, yanchib tashlayman
 - C) Nima ovqat qilsak ekan-a
 - D) Kecha bolalar kutubxonasiga bordik
94. Buyruq gap berilgan javobni toping.
- A) Eh, bu voha naqadar go‘zal
 - B) Farzand qanday oqlar ona haqqini
 - C) Yetti o‘lchab, bir kes
 - D) Nima ovqat qilsak ekan-a
95. His-hayajon gap berilgan javobni toping.
- A) Eh, qanday chiroyli, so‘lim joylar-a
 - B) Mashinalar tinimsiz ishlasin
 - C) Domlangiz ilm-u hisobni bilurmikan
 - D) Adabiy kechani Bahodir ochdi
96. His-hayajonsiz gap qaysi qatorda?
- A) Eh, qanday go‘zal bu yoshlik
 - B) Yoshlik, qanday beg‘ubor faslsan
 - C) Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot
 - D) Naqadar baxtlidir ona bechora
97. Faqat so‘roq ohangining o‘zi bilan tuzilgan so‘roq gapni aniqlang.
- A) Bugun uni ko‘rasiz-a?
 - B) Sizni qaysi masalalar qiziqtiradi?
 - C) Uyda mehmon bor?
 - D) Yaxshini kim izzatlamaydi?
98. **Qani endi shu vaqt muzdek suv bo‘lsa.**
Ushbu gap ifoda maqsadiga ko‘ra qanday gap hisoblanadi?
- A) darak gap
 - B) so‘roq gap
 - C) buyruq gap
 - D) istak gap
99. Qaysi hikoyada farzand bermagan mehr hayvon tomonidan ko‘rsatilgan?
- A) “Urushning so‘nggi qurboni”
 - B) “O‘g‘ri”
 - C) “Bemor”
 - D) “Qorako‘z majnun”
100. Kutulmagan xabar eshitishi natijasida taajjub bildirib, aynan gapni yoki uning biror bo‘lagini takrorlash natijasida qanday gap hosil bo‘ladi?
- A) darak gap
 - B) so‘roq gap
 - C) buyruq gap
 - D) istak gap

101. Ma'mun va uning avlodlari tomonidan nima maqsadda akademiyalar tashkil etilgan?
- Xorazmda dehqonchilik ishlarini rivojlantirish
 - mamlakat iqtisodini rivojlantirish
 - Ilm-fanni rivojlantirish
 - Texnika sohasida kashfiyotlar yaratish
102. Tildagi qaysi atama fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, qisqacha **izoh** ma'nosini bildiradi.
- Annotatsiya
 - Rezume
 - Ma'lumotnoma
 - Referat
103. Qaysi qatorda matn mazmunini qisqartirish usuli to'g'ri berilgan?
- Sodda gapni qo'shma gapga aylantirish orqali;
 - Uyushiq va ajratilgan bo'laklarni qisqartirish orqali;
 - Ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gaplarga aylantirish orqali;
 - Barcha javoblar to'g'ri.
104. Qaysi qatorda matn mazmunini kengaytirish usuli to'g'ri berilgan?
- Matnning asosiy fikrini ifodalovchi gaplarini ajrata olish;
 - Gaplardagi uyushiq va ajratilgan bo'laklarni, kiritma va ilova qurilmalarni qisqartirish;
 - Sodda yoyiq gaplarni yig'iq gaplarga, qo'shma gaplarni sodda gaplarga aylantirish orqali;
 - Matn mazmunini maqol, matal, hikmatlar bilan boyitish, dalillash orqali.
105. Qaysi qatorda matn mazmunini qisqartirish usuli noto'g'ri berilgan?
- Sodda gapni qo'shma gapga aylantirish orqali;
 - Matnning asosiy fikrini ifodalovchi gaplarini ajrata olish;
 - Gaplardagi uyushiq va ajratilgan bo'laklarni, kiritma va ilova qurilmalarni qisqartirish;
 - Sodda yoyiq gaplarni yig'iq gaplarga, qo'shma gaplarni sodda gaplarga aylantirish orqali;
106. Qaysi qatorda taqrizga to'g'ri ta'rif berilgan?
- Voqea-hodisalarni bevosita, jonli aks ettiruvchi, tezkor yoritib beruvchi informatsion janr.
 - Arab tilidan olingan bo'lib ijobiy baho degan ma'noni anglatuvchi adabiy tanqid janri. Yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiy-ommabop asar tahlili.
 - Fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, qisqacha izoh ma'nosini bildiradi. Unda ishga hujjat topshirayotgan shaxs to'g'risida ma'lumot taqdim etiladi.
 - Badiiy, ilmiy, metodik asarlarning muallifi, mavzusi, manbasi, unda ko'tarilgan asosiy masalani ko'rsatishga qaratilgan qisqa xabardir.
107. Qaysi qatorda annotatsiyaga to'g'ri ta'rif berilgan?
- Voqea-hodisalarni bevosita, jonli aks ettiruvchi, tezkor yoritib beruvchi informatsion janr.
 - Arab tilidan olingan bo'lib ijobiy baho degan ma'noni anglatuvchi adabiy tanqid janri. Yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiy-ommabop asar tahlili.
 - Fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, qisqacha izoh ma'nosini bildiradi. Unda ishga hujjat topshirayotgan shaxs to'g'risida ma'lumot taqdim etiladi.

- D) Badiiy, ilmiy, metodik asarlarning muallifi, mavzusi, manbasi, unda ko‘tarilgan asosiy masalani ko‘rsatishga qaratilgan qisqa xabardir.
108. Qaysi qatorda reportajga to‘g‘ri ta‘rif berilgan?
- G) Voqea–hodisalarni bevosita, jonli aks ettiruvchi, tezkor yoritib beruvchi informatsion janr.
 B) Arab tilidan oligan bo‘lib ijobiy baho degan ma‘noni anglatuvchi adabiy tanqid janri. Yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiy-ommabop asar tahlili.
 C) Fransuzcha so‘zdan olingan bo‘lib, qisqacha izoh ma‘nosini bildiradi. Unda ishga hujjat topshirayotgan shaxs to‘g‘risida ma‘lumot taqdim etiladi.
 D) Badiiy, ilmiy, metodik asarlarning muallifi, mavzusi, manbasi, unda ko‘tarilgan asosiy masalani ko‘rsatishga qaratilgan qisqa xabardir.
109. Qaysi qatorda rezumega to‘g‘ri ta‘rif berilgan?
- H) Voqea–hodisalarni bevosita, jonli aks ettiruvchi, tezkor yoritib beruvchi informatsion janr.
 B) Arab tilidan oligan bo‘lib ijobiy baho degan ma‘noni anglatuvchi adabiy tanqid janri. Yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiy-ommabop asar tahlili.
 C) Izoh ma‘nosini bildirib, unda ishga hujjat topshirayotgan shaxs to‘g‘risida ma‘lumot taqdim etiladi.
 D) Badiiy, ilmiy, metodik asarlarning muallifi, mavzusi, manbasi, unda ko‘tarilgan asosiy masalani ko‘rsatishga qaratilgan qisqa xabardir.
110. Ilmiy yoki badiiy asarning bibliografik tavsifi, mazmuni, unda ko‘tarilgan muammolar, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, adabiyotda tutgan o‘rni haqida ma‘lumot bo‘ladi; asarga baho beriladi, uning asosiy fazilatlar va nuqsonlari qayd qilinadi.
- E) Annotatsiya
 F) Taqriz
 G) Referat
 H) Maqola
111. “Hamlet” tragediyasida Hamlet, “Otello”da Otello, “Alisher Navoiy” dramasida Navoiy kabi takrorlanmas obrazlarni yaratgan o‘zbek xalq aktyori kim?
- A) G‘ani A‘zamov
 B) Shukur Burxonov
 G) Abror Hidoyatov
 H) Nabi Rahimov
112. Gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelishi mumkin?
- A) ega va kesim
 B) ikkinchi darajali bo‘laklar
 C) faqat kesim
 D) bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar
113. **Aqli dushman, johil-u nodon do‘stdan yaxshiroq.**
Bir kunlik adolat – yuz kunlik toat-ibodatdan afzal.
 Berilgan hikmatli so‘zlar kim tomonidan aytilgan?
- E) Alisher Navoiy
 F) Bobur
 G) Amir Temur
 H) Ibn Sino

114. Qaysi qatorda undalmali gap qatnashgan?
 A) Arpangni xom o'rdimmi, uka?
 B) Bog'imizda olma, o'rik, ahjir va uzum bor.
 C) Osmonda, daraxtlarda, tomlarda, bo'g'otlarda chumchuqlar chirqillashadi.
 D) Bechora ko'zi ochiq ketdi.
115. Qaysi qatorda gapda uyushgan ega qatnashgan?
 A) Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am.
 B) Bog'imizda olma, o'rik, ahjir va uzum bor.
 C) Osmonda, daraxtlarda, tomlarda, bo'g'otlarda chumchuqlar chirqillashadi.
 D) Bechora ko'zi ochiq ketdi.
116. **Ular Toshkentda, Samarqandda va Buxoroda bo'lishdi.**
 Berilgan gapda qaysi gap bo'lagi uyushgan?
 E) Ega
 F) Kesim
 G) Aniqlovchi
 H) Hol
117. Qaysi qatorda uyushiq undalmali gap berilgan?
 A) Azizim, dunyoga bevaqt kelibmiz.
 B) Surayyo, Muhayyo, Ra'no, Muqaddas, ko'zimni yashnatib kiyibsiz atlas.
 C) Onajonim, balki, bir kun, Aytganingday bo'lar to'y.
 D) Aqli va esli odam hech qachon adashmaydi.
118. Qaysi qatorda taqlid so'z ega vazifasida kelgan?
 A) Bor so'zlaydi, yo'q o'ylaydi.
 B) Qars ikki qo'ldan chiqadi.
 C) O'qish jafoli, keti vafoli.
 D) Yaxshilar ko'paysin, yomon qolmasin.
119. **Hasad – yurakning zanglashi, qaysarlik mag'lubiyat sababchisidir.**
 Berilgan gapning egasini toping.
 E) Hasad, qaysarlik
 F) Yurakning zanglashi, mag'lubiyat sababchisi
 G) Yurak, mag'lubiyat
 H) Hasad, mag'lubiyat
120. Quyidagi gapning bosh bo'laklarini belgilang.
Aleksey o'zbek tilida yaxshi gapiradi.
 A) o'zbek tilida
 B) yaxshi gapiradi
 C) tilida gapiradi
 D) Aleksey gapiradi
121. Mamlakatimizda "Kimyogarlar kuni" kasb bayrami sifatida qaysi kuni nishonlanadi?
 E) 10-may
 F) 26-may
 G) 30-may
 H) 25-oktabr

122. **Sochilgan sochingday sochilsa siring,**

Anor yuzlaringni kimga tutasan. (Choʻlpon)

Berilgan sheʼriy parchada qoʻllangan badiiy tasvir vositasini toping.

- E) mubolagʻa
- F) jonlantirish
- G) sifatlash
- H) oʻxshatish

123. **Novdalarni bezab gʻunchalar,**

Tongda aytdi hayot otini.

Va sabboda qurgʻur ilk sahar,

Olib ketdi gulning totini. (Hamid Olimjon)

Berilgan sheʼriy parchada qoʻllangan badiiy tasvir vositasini toping.

- E) mubolagʻa
- F) jonlantirish
- G) sifatlash
- H) oʻxshatish

124. **Men bir qaro kunda tugʻildim,**

Tugʻildim-u shu on boʻgʻildim. (Hamid Olimjon)

Berilgan sheʼriy parchada qoʻllangan badiiy tasvir vositasini toping.

- E) mubolagʻa
- F) jonlantirish
- G) sifatlash
- H) oʻxshatish

125. **Men gilomon: “Ouloq sol,**

Rangim ol-u totim bol”.

Topsang qoʻshalogʻimni,

Oulogʻingga taqib ol.

Berilgan sheʼriy parchada qoʻllangan badiiy tasvir vositasini toping.

- E) Mubolagʻa
- F) Jonlantirish
- G) Sifatlash
- H) Oʻxshatish

126. “Urushning soʻnggi qurboni” hikoyasining muallifi kim?

- A) S. Ahmad
- B) A. Qahhor
- C) A. Qodiriy
- D) Oʻ. Hoshimov

127. ***Gul bagʻrini nasim tildi – toʻkildi,***

Sabogʻa hikoyat qildi – toʻkildi.

Falak ishiga boq: bir haftada gul,

Chiqdi, gʻunchaladi, kuldi – toʻkildi.

Berilgan sheʼriy parchada ishlatilgan badiiy tasvir vositasini toping.

- E) oʻxshatish
- F) sifatlash
- G) mubolagʻa

H) jonlantirish

128. Qaysi uslubda jonlantirish, mubolag‘a, sifatlash, o‘xshatish kabi badiiy-tasviriy vositalar ishlatiladi?

- A) so‘zlashuv uslubi
- B) badiiy uslub
- C) rasmiy uslub
- D) publitsistik uslub

129. *Zilday zamin darz ketibdi,*

Qilday maysaning dastidan.

Berilgan gapda ishlatilgan badiiy tasvir vositasini toping.

- E) Mubolag‘a
- F) Sifatlash
- G) O‘xshatish
- H) Jonlantirish

130. *Bulutlar orasidan*

Quyosh kulib qaraydi.

Majnuntolning yuvilgan

Sochlarini taraydi.

Berilgan parchada ishlatilgan badiiy tasvir vositasini toping.

- E) Mubolag‘a
- F) Sifatlash
- G) O‘xshatish
- H) Jonlantirish

131. Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarning birikishiga ko‘ra turlarini toping.

- E) Bog‘langan, ergashgan va bog‘lovchisiz qo‘shma gap
- F) Ergashgan qo‘shma gap va bog‘langan qo‘shma gap
- G) Ega ergash gap va kesim ergash gap
- H) Bog‘langan va bog‘lovchisiz qo‘shma gap

132. *Birdan iliq shamol esdi va maysalarni silkita boshladi.*

Qo‘shma gapning turini toping.

- E) Ergashgan qo‘shma gap
- F) Bog‘lovchisiz qo‘shma gap
- G) Bog‘langan qo‘shma gap
- H) Sodda gap

133. Qo‘lyozma shaklida yoziladigan hujjatlar qatorini toping

- A) Ariza, tarjimayi hol, tilxat, tushuntirish xati
- B) Ariza, ma‘lumotnoma, tilxat, tushuntirish xati
- C) Ariza, tarjimayi hol, tilxat, eslatma
- D) Ariza, tarjimayi hol, e‘lon, tushuntirish xati

134. Berilgan gap haqida to‘g‘ri hukmni toping.

Og‘ir qismatga tan bermagan, yomonlik oldida tiz cho‘kmagan, o‘ziga gard yuqtirmagan odamlarni nilufarga qiyoslashadi.

- A) Undalma qatnashgan gap
- B) Kiritma qatnashgan gap

- C) Uyushiq bo‘lakli gap
- D) Qo‘shma gap

135. *Nilufar faqat uch kun gullab turadi: ertalab ochiladi, kechqurun yopiladi.*

Qo‘shma gapning turini aniqlang.

- A) Ko‘chirma gap
- B) Bog‘langan qo‘shma gap
- C) Ergashgan qo‘shma gap
- D) Bog‘lovchisiz qo‘shma gap

136. O‘z o‘g‘lining hovlisidan qulupnay o‘g‘irlashga tushib, falokatga yo‘liqqan ona obrazi tasvirlangan asarni toping.

- A) “Bemor”
- B) “O‘g‘ri”
- C) “Qorako‘z majnun”
- D) “Urushning so‘nggi qurboni”

137. Bitta xo‘kizning yo‘qolishi orqali jamiyatdagi o‘g‘riliklar yoritilgan asar?

- A) “Bemor”
- B) “O‘g‘ri”
- C) “Qorako‘z majnun”
- D) “Urushning so‘nggi qurboni”

138. O‘z dinidan, ota-onasidan, tug‘ilgan yeridan yuz o‘girgan o‘g‘il obrazi qaysi hikoyada tasvirlangan?

- A) “Bemor”
- B) “O‘g‘ri”
- C) “Qorako‘z majnun”
- D) “Urushning so‘nggi qurboni”

139. Vulgarizm nima?

- A) odobsiz so‘z
- B) xorijiy so‘z
- C) ma‘nodosh so‘z
- D) axloqiy so‘z

140. “Tilla baliqcha” she‘rining muallifi kim?

- A) Erkin Vohidov
- B) Hamid Olimjon
- C) Abdulla Oripov
- D) Zulfiya

141. *Yo‘llanma* so‘zining tarjimasini toping.

- A) рапорт
- B) направление
- C) доверенность
- D) заявление

142. *Договор* so‘zining o‘zbekcha muqobilini toping.

- A) sulh, shartnoma
- B) kelishuv, bitishuv

- C) akt, dalolatnoma
- D) taqdimnoma, tavsifnoma

143. Tashkiliy hujjatning qaysi turi ikki va undan ortiq nusxada tayyorlanadi va nusxalari bir xil kuchga ega?

- E) Nizom
- F) Shartnoma
- G) Guvohnoma
- H) Yo'riqnoma

144. To'g'ri tarjima qilingan gapni toping.

В читальном зале кто-то читает художественную литературу, другой конспектирует научные статьи, а третий готовится к занятиям по физике, математике и узбекскому языку.

- A) Qiroatxonada birov badiiy asar o'qiyapti, kimdir ilmiy maqolani konspekt qilyapti, yana kimdir fizika, matematika va o'zbek tilidan mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'ryapti
- B) Qiroatxonada kimdir badiiy asar o'qisa, boshqasi ilmiy maqolani konspektlashtiryapti, uchinchi birov fizika, matematika va o'zbek tili bo'yicha mashg'ulotlarga tayyorlanyapti
- C) O'quv xonasida kimdir badiiy adabiyot o'qiyapti, boshqasi ilmiy maqolani konspekt qilyapti, uchinchisi esa fizika, matematika va o'zbek tilidan mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'ryapti
- D) O'quv xonasidagi odamlarning birinchisi badiiy asar o'qiyapti, ikkinchisi ilmiy maqolani ko'chiryapti, uchinchisi esa fizikadan, matematikadan, o'zbek tilidan tayyorgarlik ko'ryapti

145. Gapning to'g'ri tarjimasini toping.

Несмотря на то, что наступила темнота, мы продолжали идти в перед.

- A) Kech kirishiga qaramay biz olg'a yurdik.
- B) Kechqurun bo'lishiga qaramay biz yurishda davom etdik.
- C) Kech kirishiga qaramay biz yo'limizda yurishda davom etdik.
- D) Biz kech kirgan bo'lsa ham yurishda davom etdik.

146. To'g'ri tarjima qilingan gapni toping.

В химической лаборатории есть все необходимые для работы приборы.

- A) Kerakli asbob-uskunalarni kimyo laboratoriyasida topish mumkin
- B) Kimyo laboratoriyasida ish uchun zarur bo'lgan barcha jihozlar bor
- C) Kimyo laboratoriyasidagi barcha jihozlar keraklidir
- D) Kimyo laboratoriyasidagi tajribalar uchun hamma jihozlar zarur

147. Ish hujjatlarini tayyorlashda qaysi nutq uslubidan foydalaniladi?

- A) Ilmiy uslub
- B) Badiiy uslub
- C) Rasmiy-idoraviy uslub
- D) Publisistik uslub

148. Qaysi qatorda bog'lovchisiz qo'shma gap berilgan?

- A) Yurt tinch – sen tinch.
- B) Ayrim oilalar borki, tarbiyaga e'tibor berishmaydi.
- C) Bahor keldi-yu, lekin hali gullar ochilgani yo'q.
- D) Uning dam jahli chiqar, dam kulgisi qistar edi.

149. Qaysi qatorda bog‘langan qo‘shma gap berilgan?
- A) Shu narsa qiziqki, uyquda ham miya o‘z faoliyatini to‘xtatmaydi.
 - B) Ayrim oilalar borki, tarbiyaga e‘tibor berishmaydi.
 - C) Kimki bo‘la dilozor, undan el-u yurt bezor.
 - D) Sen o‘z ustingda yaxshi ishlayapsan, biroq hali kamchiliging ko‘p.
150. Qaysi qatorda ergashgan qo‘shma gap berilgan?
- A) Havo bulut bo‘ldi, biroq yomg‘ir yog‘madi.
 - B) Sen o‘z ustingda yaxshi ishlayapsan, biroq hali kamchiliging ko‘p.
 - C) Ko‘z qo‘rqoq –qo‘l botir.
 - D) Katta arava qaysi yo‘ldan yursa, kichik arava ham shu yo‘ldan yuradi.
151. **Panopm** so‘zining o‘zbekcha muqobilini toping.
- A) taqdimnoma
 - B) tavsifnoma
 - C) bildirishnoma
 - D) dalolatnoma
152. **Xarakterustika** so‘zining o‘zbekcha muqobilini toping.
- A) tavsiyanoma
 - B) tavsifnoma
 - C) taqdimnoma
 - D) so‘rovnoma
153. ***Analiz*** – butunni (yaxlitni) bo‘laklarga (qismlarga) ajratib tekshirish usuli.
Sintez –bo‘laklarni (qismlarni) butunga (yaxlitga) birlashtirib tekshirish usuli.
 Ushbu misol qaysi lug‘atdan olingan?
- A) Omonimlar lug‘ati
 - B) Antonimlar lug‘ati
 - C) Izohli frazeologik lug‘at
 - D) Sinonimlar lug‘ati
154. Jamiyatning barcha a‘zolari yozishi mumkin bo‘lgan hujjat turlarini belgilang.
- A) ma‘lumotnoma, ariza, e‘lon
 - B) tushuntirish xati, tilxat, hisobot
 - C) ishonchnoma, tilxat, ariza
 - D) tarjimayi hol, e‘lon, shartnoma
155. Tavsifnoma nima?
- E) o‘z shaxsiy hayoti va faoliyatini bayon qiladigan yozma hujjat
 - F) ma‘muriyat yoki shaxs tomonidan beriladigan, shaxsning xususiyatlari qayd etiladigan rasmiy hujjat
 - G) shaxsning mehnat va ijtimoiy faolyati o‘ziga xos xislat va fazilatini aks ettiruvchi hujjat
 - H) muassasa tomonidan fuqarolarning turmushi va ish faoliyatidagi voqea-hodisalar va holatlarni tasdiqlab beruvshi rasmiy hujjat
156. Bo‘lgan voqea yoki mavjud holatlarni ifodalaydigan hujjat?
- A) Tarjimayi hol
 - B) Ishonchnoma
 - C) Ma‘lumotnoma
 - D) Bildirishnoma

157. Qaysi holatlarda bildirishnoma yoziladi?
A) voqea-hodisalar haqida xabardor qilish, ayrim masalalarga xulosa va takliflar berishda
B) voqea, hodisalar yoki mavjud holatni huquqiy jihatdan isbotlash yoki tasdiqlashda
C) sodir etilgan ba'zi hatti-harakatlar isbotlab tushuntirilganda
D) rejalashtirilgan topshiriqlarning bajarilishi haqida ma'lumot berilganda.
158. **Chaqimchining tilidan ilon zahar oladi.** Berilgan ifoda maqsadiga ko'ra qanday gap. Gapdagi egani toping.
A) darak gap, zahar
B) buyruq gap, ilon
C) darak gap, ilon
D) his-hayajon gap, chaqimchining
159. **Акт** so'zining o'zbekcha muqobilini belgilang.
A) bildirishnoma
B) ishonchnoma
C) so'rovnoma
D) dalolatnoma
160. Tavsiyanoma nima?
A) o'z shaxsiy hayoti va faoliyatini bayon qiladigan hujjat
B) ma'muriyat yoki alohida shaxs tomonidan beriladigan, shaxsning xususiyatlari qayd etiladigan rasmiy hujjat
C) shaxsning mehnat va ijtimoiy faolyati o'ziga xos xislat va fazilatni aks ettiruvchi hujjat
D) muassasa tomonidan fuqarolarning turmushi va ish faoliyatidagi voqea-hodisalar va holatlarni tasdiqlab beruvshi rasmiy hujjat
161. **Объяснительная записка** birikmasining o'zbekcha muqobilini belgilang.
A) xizmat xati
B) kafolat xati
C) da'vo xati
D) tushuntirish xati
162. Biror narsa olinganligini tasdiqlovchi rasmiy hujjat nima deyiladi?
E) Ishonchnoma
F) bildirishnoma
G) tilxat
H) tushuntirish xati
163. Gapning to'g'ri tarjimasini toping.
Каждая мать всегда найдёт для своих детей добрые слова поддержки в трудную минуту и всегда будет радоваться от всего сердца их успехам в жизни.
A) Har bir ona har doim o'zining farzandlari uchun qiyin vaziyatlarda yaxshi so'zlar topa oladilar va doimo ularning hayotdagi muvaffaqiyatlari uchun chin yurakdan quvona oladilar.
B) Har bir ona har doim o'z bolalariga qaltis vaziyatlarda yaxshi gapiradilar va har doim ularning hayotdagi yutuqlari uchun chin yurakdan quvona oladilar.
C) Har bir ona doimo o'z farzandlariga murakkab holatlarda yoqimli so'zlar topadilar va har doim ularning muvaffaqiyatlari uchun chin ko'ngildan quvona oladilar.

D) Murakkab daqiqalarda har bir ona farzandlari uchun har doim yaxshi soʻzlar topa oladilar va doimo ularning hayotdagi muvaffaqiyatlari uchun chin yurakdan xursand boʻladilar.

164. Ishonchnoma qanday hujjat?

- A) Boʻlgan voqea yoki mavjud holatlarni ishonch berib ifodalaydigan hujjat
- B) Muayyan muassasa yoki ayrim shaxs oʻz nomidan ish koʻrish uchun ikkinchi bir shaxsga beriladigan yozma vakolatli hujjat
- C) Shaxsning xizmat va boshqa holatlarini, biror ishga oid vakolatini ishonch berib koʻrsatuvchi hujjat
- D) Xodim boshqa ishga oʻtkazilayotganda ishonch bildirib beriladigan hujjat

165. Quyida qaysi hujjat matnidan parcha keltirilgan?

Men, Sobirov Nodirbek Nozimjon oʻgʻli, 1992-yil 27-iyunda Buxoro shahrida xizmatchi oilasida tugʻildim. Otam –Nozimjon Raxmatovoch Sobirov, viloyat yoʻl qurilishi boshqarmasining bosh muhandisi, Onam –Nasiba Sodiqoʻvna Nomozova, 18-oʻrta maktabda oʻqituvchi boʻlib ishlaydilar.

- A) Rezume
- B) Maʼlumotnoma
- C) Tarjimayi hol
- D) Tavsianoma

166. Halol, gʻamxoʻr, samimiy, toʻgʻrisoʻz, talabchan kabi shaxsning ijobiy sifatleri qaysi hujjat matnida ishlatiladi?

- A) maʼlumotnoma
- B) tavsifnoma
- C) bildirishnoma
- D) tavsianoma

167. Berilgan gapda nuqtalar oʻrniga kelishik qoʻshimchalaridan mosini qoʻying.

Hayot... oʻz oʻrni... topishi... odam... bolalikdagi faoliyati, olgan bilimi va tarbiyasi katta oʻrin tutadi.

- A) -ga, -ning, -dan, -ni
- B) -da, -ni, -da, -ning
- C) -da, -ni, -dan, -ning
- D) -da, -ni, -da, -ning

168. Buyruq qanday hujjat?

- A) Amaliy masalalar yuzasidan chiqariladigan hujjat
- B) Axborot-metodik tUSDagi hujjatlarning ijrosi bilan bogʻliq masalalar yuzasidan chiqariladigan hujjat
- C) Muassasa oldida turgan asosiy va kundalik vazifalarni hal qilish maqsadida chiqariladigan hujjat
- D) Farmoyish, taklif mazmunida yoziladigan hujjat

169. Bosma ish qogʻoziga yoziladigan hujjatlar berilgan qatorni aniqlang.

- E) maʼlumotnoma, ishonchnoma, farmoyish
- F) shaxsiy maʼlumotnoma, shartnoma, guvohnoma
- G) shartnoma, dalolatnoma, buyruq
- H) koʻrsatma, maʼlumotnoma, tavsifnoma

170. Gapning to‘g‘ri tarjimasini toping.

Навруз должен войти в каждый дом, озарить сердца людей светом добра и милосердия, любви и счастья.

A) Navro‘z har bir xonadonga, insonlarning yuragiga ezgulik va rahmdillik nurini sochishi, sevgi va baxt olib kiradi.

B) Navro‘z har bir uyga, insonlarning qalbiga ezgulik va rahmdillik nurini sochishi, sevgi va baxt olib kirishi kerak.

C) Navro‘z har bir oilaga, insonlarning qalbini ezgulik va rahmdillik nuri bilanyoritishi, sevgi va baxt olib kirishi kerak.

D) Navro‘z har bir uyga, odamlarning yuragiga ezgulik va rahmdillikni sochishi, muhabbat va baxt olib kirishi lozim.

171. Qaysi hujjat turida hujjatni beruvchi shaxs imzosidan tashqari ni tasdiqlovchi shaxs imzosi ham bo‘ladi.

C) ishonchnoma

D) dalolatnoma

C) tavsifnoma

D) ma’lumotnoma

172. **Tilxat** so‘zining tarjimasini toping.

A) записка

B) доверенность

C) акт

D) расписка

173. Quyida qaysi hujjat matnidan parcha keltirilgan?

Men kasalligim tufayli 3-bosqichning V semestri uchun rejalashtirilgan fanlardan yakuniy baholash ishlarini belgilangan vaqtda topshira olmadim.

A) Bildirishnoma

B) Tushuntirish xati

C) Ariza

D) Ma’lumotnoma

174. Qaysi qatordagi gapda inversiya hodisasi yuz bergan?

A) Xayolimda bo‘lding uzun kun.

B) Ezgulik hech eskirmaydigan libosdir.

C) Qaytib kiradigan eshikni qattiq yopma.

D) Odobli va vijdonli odam elda azizdir.

175. Qaysi qatordagi gapda tovushga taqlid bildiradigan so‘z qatnashgan?

A) Chiroqning lip-lipi xayolni chalg‘itdi.

B) Bolakay yomg‘irda ivib, dag‘-dag‘ titrardi.

C) Jahldan uning lablari pir-pir uchdi.

D) Tongda g‘o‘ng‘ir- g‘o‘ng‘ir ovozdan uyg‘onib ketdim.

176. Qaysi hujjat turi kun tartibi, qaror kabi qismlardan iborat?

A) bayonnoma

B) dalolatnoma

C) e‘lon

D) buyruq

177. Rasmiy xatlar, taklifnoma, tabriknomalar xizmat mavqeyiga ko'ra qanday hujjatlar hisoblanadi?

- A) ma'lumot-axborot hujjatlari
- B) farmoyish hujjatlari
- C) xizmat yozishmalari
- D) tashkiliy hujjatlar

178 Qaysi qatordagi gapda ibora qatnashmagan?

- A) Ular oyog'i kuygan tovuqdek tipirchilab qolishdi.
- B) Ilm daraxtini yaxshi parvarish etib, undan mo'l hosil olmog'imiz kerak.
- C) Hamma yoqni yog' tushsa yalaguday qilib tozaladi.
- D) Aziz yolg'oni oshkor bo'lib qolganini bilib, nafasi ichiga tushib ketdi.

179. Shaxsning mehnat va ijtimoiy faoliyati, o'ziga xos xislat va fazilatlarini aks ettiruvchi hujjat?

- A) ma'lumotnoma
- B) tavsifnoma
- C) tarjimayi hol
- D) bildirishnoma

180. Qaysi hujjat turlari yozilish shakliga ko'ra o'xshash?

- B) buyruq, bayonnoma, farmoyish
- B) dalolatnoma, da'vo arizasi, shartnoma
- C) tavsifnoma, tavsiyanoma
- D) ariza, tushuntirish xati, bildirishnoma

181. ***Modomiki, hayot juda qisqa, bo'sh vaqt esa juda oz ekan, biz uni sayoz kitoblarni o'qishga isrof etmasligimiz kerak.***

Berilgan gapda kiritma qanday ma'no ifodalagan.

- A) Xulosa
- B) Gumon
- C) Quvonch
- D) Fikrning tartibi

182. ***Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-idrokning, ilm-u donishning asosidir, hayotni o'rgatuvchi murabbiydir.***

Berilgan gapda qaysi gap bo'lagi uyushib kelgan?

- A) Ega
- B) Aniqlovchi
- C) Hol
- D) To'ldiruvchi

183. Quyidagi gapda nuqtalar o'rniga qanday so'zlar qo'yiladi?

Bugun barcha xursand, ... bahor bayrami hammaning diliga quvonch ... sevinch bag'ishladi.

- A) Zero, hamda
- B) Chunki, va
- C) Ammo, bilan
- D) Ammo, va

184. Bitishuvli so‘z birikmasi berilmagan qatorni toping.
- A) tiniq suv, ko‘m -ko‘k osmon
 - B) qizil olma, yashil qalam
 - C) mehribon murabbiy, talabchan o‘qituvchi
 - D) ukamning kitobi, institut hovlisi
185. Bir necha shaxs tomonidan tuziladigan hujjat turini aniqlang.
- E) bayonnoma
 - F) ishonchnoma
 - G) dalolatnoma
 - H) tilxat
186. *Tarixchilarimizning **bayon etishicha**, sayyoramizda ilk hayvonot bog‘i eramizdan avvalgi I asrda Rim imperatori Avgust buyrug‘iga binoan tashkil etilgan.*
Berilgan gapda ajratilgan birikmaga izoh bering.
- A) Ibora
 - B) Kiritma
 - C) Uyushiq bo‘lak
 - D) So‘z qo‘shilmasi
187. *Said Ahmad “Qorako‘z majnun” hikoyasida vatanparvarlik va e‘tiqodda sobitlik masalasini ko‘targan. Hikoyada insonlar o‘rtasidagi ziddiyatli munosabatlar, inson va tabiat uyg‘unligi mahorat bilan tasvirlangan.*
Berilgan parcha qanday matn namunasi?
- A) Annotatsiya
 - B) Taqriz
 - C) Rezume
 - D) Ma‘lumotnoma
188. Qaysi qatorga berilgan gapda gumon ma‘nosini bildiruvchi modal so‘z ishtirok etgan?
- A) Afsus, siz haqiqatni tushunib yetmabsiz.
 - B) Xullas, har kim ekanini o‘radi.
 - C) Avvalombor, ishni to‘g‘ri rejalashritish lozim.
 - D) Ehtimol, bu yil boshlagan ishimiz natija berar.
189. Hujjatlarga qo‘yiladigan talablarni aniqlang.
- E) asosan, darak va buyruq gaplar ishlatiladi;
 - F) hujjatlarda o‘chirish va tuzatishlarga yo‘l qo‘yilmaydi;
 - G) hujjat matni qisqa, ravon va aniq bayon qilinishi kerak;
 - H) barcha javoblar to‘g‘ri.
190. Ish qog‘ozlari qanday yoziladi?
- E) qisqa, ravon, aniq va mantiqli bayon etiladi
 - F) matn I shaxs yoki III shaxs tilidan yoziladi
 - G) rahbar nomidan yoki ayrim shaxs tomonidan yoziladi
 - H) Barcha javoblar to‘g‘ri
191. Quyidagi parchaning to‘g‘ri tarjimasini toping.
Хашар издревле занимал чрезвычайно важное место в жизни узбекского народа. Хашар - это добровольная общественная взаимопомощь людей в строительстве частных и общественных зданий, каналов, разбивке садов.

A) Hashar qadimdan o‘zbek xalqi hayotida juda muhim o‘rin egallagan. Hashar – bu odamlarning xususiy va jamoat binolarini qurishdagi, kanal qazishdagi, bog‘ yaratishdagi o‘zaro ixtiyoriy hamjihatlikdagi yordamidir.

B) Hashar azaldan o‘zbek xalqi hayotida juda muhim ahamiyatga ega. Hashar – bu odamlarning xususiy va jamoat binolarini qurishdagi, bog‘ yaratishdagi, kanal qazishdagi o‘zaro hamjihatlikdagi yordamidir.

C) Hashar qadimdan o‘zbek xalqi hayotida eng muhim o‘rin tutgan. Hashar – bu insonlarning o‘zining va jamoat binolarini, kanal, bog‘ yaratishdagi o‘zaro ixtiyoriy yordamidir.

D) Hashar qadimdan o‘zbek xalqi hayotida juda muhim o‘rin egallagan. Hashar – bu odamlarning xususiy va jamoat binolarini qurishdagi, kanal, bog‘ yaratishdagi o‘zaro hamkorlikdagi yordamidir.

192. Ma’lumot-axborot hujjatlariga qanday hujjatlar kiradi?

- A) E’lon, hisobot, buyruq, tarjimai hol
- B) Tavsifnoma, ma’lumotnoma, ariza, tilxat
- C) Tavsianoma, bayonnoma, guvoohnoma, e’lon
- D) Yo’riqnoma, nizom, shartnoma

193. Rasmiy xat turlari ko‘rsatilgan qatorni toping

- A) Eslatma xat, kelishuv xat, da’vo xat
- B) Axborot xat, kafolat xati, kelishuv xat
- C) Ilova xat, so‘rov xati, farmoyish xat
- D) Iltimos xat, kafolat xat, buyruq xat

194. Maqolni tarjima qiling va gapdagi egani toping.

“Одинокий конь - не табун, один человек - не народ”.

- A) Yolg‘iz ot pada emas, yolg‘iz kishi xalq emas; pada, kishi.
- B) Bitta ot pada emas, bir kishi xalq emas; pada, xalq.
- C) Yolg‘iz ot pada emas, bir kishi xalq emas; ot, kishi.
- D) Yolg‘iz ot pada emas, bir kishi xalq emas; yolg‘iz ot, bir kishi.

195. Kafolat xat nima maqsadda tuziladi?

- A) Xatni qabul qilib oluvchilarni xabardor qilish uchun
- B) Bir xil mazmundagi xatni bir necha manzilga etkazish uchun
- C) Ma’lum bir ishni amalga oshirish yoki tugatish maqsadida
- D) Muayyan bir shart yoki va’dani tasdiqlash maqsadida

196. To‘g‘ri tarjima qilingan gapni toping.

В первой половине игры команде «Пахтакор» удаётся забить гол в ворота своих противников.

- A) “Пахтакор” jamoasi o‘z raqiblarini darvozasiga gol urishdi
- B) “Пахтакор” komandasi o‘yinning birinchi yarmida o‘z raqiblari darvozasiga gol urishdi
- C) O‘yinning birinchi yarmida o‘zining raqiblari darvozasiga “Пахтакор” jamoasi to‘p kiritdi
- D) O‘yinning birinchi yarmida “Пахтакор” jamoasi raqib darvozasiga top kiritdi.

197. To‘g‘ri tarjima qilingan gapni toping.

12-го апреля 1961-го года произошло событие, которое взволновало весь мир – в космос поднялся человек.

- A) 1961-yil 12-aprelda olamni hayajonga solgan voqea – bu koinotga odam ko‘tarilganidir

- B) 1961-yilning 12-aprelida olamni hayajonga solgan voqea sodir bo'ldi – koinotga inson ko'tarildi
- C) 12-aprel 1961-yilda olamni larzaga sologan voqea sodir bo'ldi – fazoga odam ko'tarildi
- D) 1961-yilning 12-aprelida koinotga inson ko'tarildi – bu voqea hammani hayajonga soldi

198. Quyidagi gapdagi ajratilgan so'zlarning to'g'ri tarjimasini toping.

Хашар – это один из самых распространённых на Востоке народных обрядов.

- A) Tarqalgan; xalq udumi
- B) Ma'lum bo'lgan; xalq qadriyati
- C) Keng yoyilgan; xalq odati
- D) Aniqlangan; xalq milliy qadriyati

199. *Haq yo'lin... kim san... bir harf o'qitmish ranj ila, Aylamak bo'lmas ado o... haqin yuz ganj ila.*

Berligan hikmatli so'z muallifini toping. Nuqtalar o'rniga kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'ying.

- A) Bobur; -ga, -ga, -ning
- B) Alisher Navoiy; -da, -ga, -ning
- C) Alisher Navoiy; -da, -ga, -ni
- D) Nodira; -ga, -da, -ni

200. Qaysi qatorda to'ldiruvchi uyushib kelgan.

- A) Yurtimizning farovonligi, tinchligi va iqboli bizga bog'liq.
- B) Kulgi, xushxabar qalbni davolaydi.
- C) Ustozingdan yoki do'stingdan ko'rmagan yaxshilikni kitobdan ko'rishing mumkin.
- D) Saida goh kulib, goh kuyib va goh kulib gapirib berdi.

201. *Yo'ling tushganmidi, qadrdon do'stim, bu yaqin orada Mirzacho'l tomon.*

Ifoda maqsadiga ko'ra ushbu gap turini belgilang.

- A) buyruq gap
- B) so'roq gap
- C) istak gap
- D) darak gap

202. **Aravani quruq olib qochmoq.** Uddasidan chiqa olmaydigan ish yoki narsa haqida ortiq darajada maqtanmoq. M: *Aravani quruq olib qochding, og'ayni.*

Ushbu misol qaysi lug'atdan keltirilgan?

- A) Omonimlar lug'ati
- B) Paronimlar lug'ati
- C) Izohli frazeologik lug'at
- D) Sinonimlar lug'ati

203. *Toshkent bilan Samarqand* birikmasidagi so'zlar bir-biri bilan qanday usulda bog'langan?

- A) moslashuv usuli bilan
- B) bitishuv usuli bilan
- C) tobe bog'lanish usuli bilan
- D) teng bog'lanish usuli bilan

204. Moslashuv yo‘li bilan birikkan so‘z birikmasini toping.
 A) men uchun muqaddas
 B) shahar ko‘chalari
 C) ulug‘vor tabiat
 D) ilmga havas
205. So‘zlarning bir-biriga bog‘lanishi, gap va uning turlari o‘rganiladigan tilshunoslik bo‘limi nima deb ataladi?
 A) morfologiya
 B) sintaksis
 C) leksikologiya
 D) grammatika
206. **ish bajarmoq, to‘rga yurmoq** kabi birikmalardagi so‘zlar o‘zaro qanday yo‘l bilan bog‘langan?
 A) moslashuv usuli bilan
 B) ko‘makchili boshqaruv usuli bilan
 C) bitishuv usuli bilan
 D) kelishikli boshqaruv usuli bilan
207. Qaysi qatordagi ergash so‘z bilan bosh so‘zning tartibi o‘zgartirilsa, gap hosil bo‘ladi?
 A) yura-yura charchamoq
 B) suvli idish
 C) maqola o‘qimoq
 D) ko‘m-ko‘k rangli
208. Bitishuv yo‘li bilan birikkan so‘z birikmasini aniqlang.
 A) qizil olma
 B) ip bog‘lamoq
 C) shahar kelish
 D) hidlar xushbo‘yligi
209. His-hayajon gap qaysi qatorda berilmagan?
 A) Eh, qanday go‘zal bu yoshlik
 B) Yoshlik, qanday beg‘ubor faslsan
 C) Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot
 D) Naqadar baxtlidir ona bechora
210. **Yomon kunga go‘yma, o‘rtoqjon, Toki yig‘ib olayin darmon!**
 Ushbu gap haqidagi qaysi hukm to‘g‘ri?
 A) so‘roq gap
 B) darak gap
 C) istak gap
 D) buyruq gap
211. Maslahatni anglatgan buyruq gapni aniqlang.
 A) Seni ish yengmasdan, sen ishni yeng
 B) Endi oltin balig‘ing kelib, xizmatimizni qilsin
 C) Ko‘ksingizda go‘zal niyatlar gullasin, birodar
 D) Qani, boqqa kiring, dam oling

212. Omonim-Anonim

***Omonim* — shakl jihatdan bir va mazmun jihatdan turlicha bo'lgan so'z.**

Anonim* — nomsiz, imzo qo'yilmagan. *Anonim xat.

Yuqoridagi so'z qaysi lug'atdan keltirilgan?

- A) Omonimlar lug'ati
- B) Paronimlar lug'ati
- C) Izohli lug'at
- D) Sinonimlar lug'ati

213. "Inversiya" atamasi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

- A) Gapda gap bo'laklari tartibining o'zgarishi
- B) Gapda eganing uyushib kelishi
- C) Gapda kesimning fe'ldan boshqa so'zlar bilan ifodalanishi
- D) So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki narsa

214. Qaysi darak gapda gumon ma'nosi ifodalangan?

- A) U bu ishni bemalol bajara oladi.
- B) Hamma yoq oppoq qor bilan qoplangan edi.
- C) Biz indinga uchrashsak kerak.
- D) U o'rnidan turdi.

215. So'roq gaplarni hosil qilishda ishtirok etadigan yuklamalar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) -mi, -chi, nahotki, -gina
- B) -mi, -chi, nahotki, -ku
- C) -mi, -chi, -oq
- D) -mi, -chi, -a, -ya

216. So'zlovchining so'zlashdan maqsadi ma'lum voqea-hodisani bajarish yoki bajarmaslikka da'vat etish bo'lsa, unda gapning ifoda maqsadiga ko'ra qaysi turi vujudga keladi?

- A) darak gap
- B) so'roq gap
- C) buyruq gap
- D) istak gap

217. *_Derazam... oldi... bir tup,*

O'rik oppoq bo'lib gulladi.

Novdalar... bezab g'unchalar,

Tongda aytdi hayot oti... .

She'r muallifini toping. Nuqtalar o'rniga kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'ying.

- A) Hamid Olimjon; -ning, -da, -ni, -ni
- B) Muhammad Yusuf; -ning, -da, -ni, -ga
- C) Abdulla Oripov; -ning, -da, -ni, -ni
- D) Erkin Vohidov; -ni, -da, -dan, -ni

218. *Nafsi yomon hayitda o'lar.* (Maqol)

Gapning egasi qaysi javobda berilgan?

- A) nafsi yomon;
- B) nafsi;
- C) yomon;

D) hayitda;

219. ***O, ota makonim,
Onajon o'lkam,
O'zbekiston, jonim to'shay soyangga.
Senday mehribon yo'q,
Seniningdek ko'rkam,
Rimni alishmasman bedapoyangga...***

Berilgan she'r muallifini toping. Uyushgan bo'lakka izoh bering.

- A) Abdulla Oripov, uyushiq ega
- B) Abdulla Oripov, uyushiq undalma
- C) Muhammad Yusuf, uyushiq undalma
- D) Muhammad Yusuf, uyushiq ega

220. Qaysi bo'lak boshqa bo'laklarsiz ham gap bo'la oladi?

- A) ega
- B) kesim
- C) to'ldiruvchi
- D) hol

221. **Siz bilan olam go'zal.**

Qaysi so'z turkumi kesim vazifasida kelgan?

- A) olmosh
- B) sifat
- C) son
- D) ot

222. Gapning to'g'ri tarjimasini toping.

Все уехали, только лишь мой брат ещё оставался здесь.

- E) Hamma ketdi, faqat mening akamgina qoldi.
- F) Hamma ketdi, mening akamgina qoldi.
- G) Hamma ketib, birgina akam qoldi.
- H) Hamma ketdi, lekin mening akam qoldi.

223. Nuqtalar o'rniga qoyiladigan ko'makchilarni ketma-ketligi bo'yicha toping.

1) Qalam ... yozdim. 2) Bu ko'ylakni bayramda kiyish ... sotib oldim. 3) U uy ...ketdi.

- A) uchun, bilan, haqida
- B) bilan, uchun, tomon
- C) orqali, bilan, uchun
- D) uchun, bilan, qarab

224. "Ikki eshik orasi" romanining muallifini toping.

- A) Cho'lpon
- B) Abdulla Qahhor
- C) O'tkir Hoshimov
- D) Said Ahmad

225. **O'qish – asosiy burchimiz.**

Ushbu gapda fe'l qaysi gap bo'lagi bo'lib kelgan?

- E) Ega
- F) Kesim

- G) Aniqlovchi
- H) Hol

226. Nuqtalar o‘rniga kerakli bog‘lovchilarni ketma-ketlida qo‘ying.

1) ***O‘zbekistonda kuz faslida anor, anjir ... xurmo pishadi.***

2) ***Bu olma ozgina qizaribdi, ...hali yaxshi pishmagan.***

3) ***Hammasini tinglardim.... O‘xshashini topmasdim aslo.***

- A) va, hamda, biroq
- B) va, lekin, ammo
- C) hamda, biroq, yoki
- D) va, ammo, chunki

227. ***Fikrsiz aqlning changi bo‘ladi,***
Ilm-la egovla yangi bo‘ladi.
Oynadan ibrat ol bir kun artmasang.
Ustida bir enlik changi bo‘ladi. (Bedil)

Berilgan gapda qaysi gap bo‘lak(lar)i ajratib ko‘rsatilgan?

- A) Ega, kesim
- B) Ega, aniqlovchi
- C) Ega to‘ldiruvchi
- D) Aniqlovchi

228. ***Bilaman, ta‘rifing so‘zga sig‘maydi,***
Go‘zallik haqida gap sotmoq bekor.
Yuqorida qaysi uslub namunasi berilgan. Tagiga chizilgan so‘zni izohlang.

- A) Badiiy uslub, qo‘shma so‘z
- B) Publitsistik uslub, ibora
- C) Badiiy uslub, ibora
- D) So‘zlashuv uslubi, qo‘shma so‘z

229. ***Tikan zahri uchida, dushman zahri ichida.***
Maqoldagi **uchida, ichida** so‘zlari qanday gap bo‘lagi vazifasida?

- A) ega
- B) kesim
- C) hol
- D) to‘ldiruvchi

230. Sodda yasama olmoshni toping.

- A) hech kim
- B) qaysi
- C) allakim
- D) mana bu

231. ***Havo bulut bo‘ladi, lekin yog‘ingarchilik bo‘lmaydi.***

Qoshma gap turini toping.

- E) Bog‘langan qo‘shma gap
- F) Ergashgan qo‘shma gap
- G) Bog‘lovchisiz qo‘shma gap
- H) Sodda gap

232. ***Tashvish bilan ovoradir inson.***

Ushbu gapda kesim vazifasida kelgan so‘zni belgilang.

- A) ovoradir inson
- B) ovoradir
- C) tashvish bilan
- D) inson

233. **“Vaqt”** she’rining muallifini toping.

- A) Cho’lpon
- B) Oybek
- C) Hamid Olimjon
- D) G’afur G’ulom

234. O‘z erki uchun qabristonga borib choy qaynatib kelgan ayol obrazi yoritilgan o‘tmishda ayollar hayotini aks ettirgan hikoyani toping.

- A) “O‘g‘ri”
- B) “Bemor”
- C) “Qorako‘z majnun”
- D) “Dahshat”

235. **Tong shabadasi g‘ir-g‘ir esmoqda.**

Berilgan gapda qatnashgan holni toping.

- A) tong
- B) esmoqda
- C) shabadasi
- D) g‘ir-g‘ir

236. **Yonimizda qizlar, o‘g‘illar, qo‘shiq aytsin, yayrasin, kulsin.**

Ushbu gapda qaysi bo‘laklar uyushib kelgan?

- A) faqat ega
- B) faqat kesim
- C) to‘ldiruvchi
- D) bosh bo‘laklar

237. **O‘zing suv ichadigan quduqqa tupurma** gapi ifoda maqsadiga ko‘ra qanday gap?

- A) darak gap
- B) buyruq gap
- C) so‘roq gap
- D) istak gap

238. **Ey farzand, bilki, ota-ona mo‘tabardir. (Kaykovus)**

Ushbu gapdagi undalmani toping.

- A) farzand
- B) Ey
- C) Ey farzand
- D) bilki

239. **Aziz ustozlar, do‘stlar, opa-singillar, aka-ukalar! Bu sharaflı ishga barchamiz mas’ulmiz.**

Ushbu gapda qanday bo‘lak uyushgan?

- A) undalma
- B) undov so‘z
- C) ega
- D) aniqllovchi

240. Uyushiq undalma qo'llangan gapni toping.

A) – Baxt bir zumlik bo'lmaydi, shunday emasmi, Orzugul, Vahobjon?

B) – Bugun dars bo'lmaydi, birodarlar.

C) – Ha, xushchaqchaq yigit, keling, - dedi u meni ko'rib.

D) – Meni tanir ekansiz-da, Madali aka?

Mavzuga doir taqdimotlar